ISSN 2181-1296

# ILMIY AXBOROTNOMA

## НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

**2021-yil, 2-son (126) GUMANITAR FANLAR SERIYASI**

**Tarix, Falsafa, Sotsiologiya, Psixologiya, Iqtisodiyot, O'qitish metodikasi**

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan.

**BOSH MUHARRIR** **R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor**
**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI:** **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.n., dotsent**
**A. M. NASIMOV, t.f.d., professor**

**TAHRIRIYAT KENGASHI:**

| | |
|---|---|
| **S. S. G'ULOMOV** | - O'zFA akademigi |
| **A. SAGDULLAEV** | - O'zFA akademigi |
| **T. MIRZAYEV** | - O'zFA akademigi |
| **B. E. ERGASHEV** | - t.f.d., professor (SamDU) |
| **B. S. G'OYIBOV** | - t.f.d., professor (SamDU) |
| **S. K. KARIMOV** | - fals.f.d., professor (SamDU) |
| **J. Ya. YAXSHILIKOV** | - fals.f.d., professor (SamDU) |
| **N. U. ARABOV** | - i.f.d., professor (SamDU) |
| **Sh. A. HASANOV** | - fil.f.d., professor (SamDU) |
| **S. A. KARIMOV** | - fil.f.d., professor (SamDU) |
| **M. MUXIDDINOV** | - fil.f.d., professor (SamDU) |
| **N. Sh. SHODIEV** | - ped.f.d., professor (SamDU) |
| **M.M. MAXMUDOVA** | - ped.f.d., professor (SamDU) |
| **NAZIF SHAHRANY** | - Indiana universiteti professori (AQSh) |
| **KIM SUNGHAE** | - Daeju universiteti professori (Koreya) |
| **BYLAPPA MANJUNATH** | - Don Bosko boshqaruv maktabi professori (Hindiston) |
| **TAMIR KLEIN** | - Veysman ilmiy tadqiqot instituti professori (Isroil) |
| **HIROAKI HUZIIE** | - Osaka universiteti professori (Yaponiya) |

**Obuna indeksi –** yakka tartbidagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

# MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

## TARIX / HISTORY

***Sh.S.G'afforov, O.J.Irisqulov***
Samarqand madrasalari tarixidan 4
***E.B. Sattorov***
Sug'diy til ijtimoiy-madaniy birlashtiruvchi omil sifatida 9
***B. S. G'oyibov***
"Kan" familiyasi va uning tarqalishi xususida 14
***Z. B. Junayev***
Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalari 20
***О.Б.Бахтиёрзода***
Об геологоразведочном изыскании в Туркестанском крае в период первой мировой войны 23
***N. Xushvaqtov***
Buyuk ipak yo'li tarixining xorijiy tarixshunoslikda tadqiq etililishi 27
***N. A. Nazarov***
Turk runologiyasi va uning tarixiy mohiyati 31
***Н.Р.Махкамова***
Проблемы становления советской интеллигенции в Узбекистане в 20-е годы XX в 36

## FALSAFA / PHILOSOPHY

***S.K.Karimov***
Tasavvuf falsafasi fan sifatida 42
***U. J. Nurmatova***
Kitobxonlik va mutolaa madaniyatining inson ma'naviyatidagi o'rni 46
***S.T. Sobirova***
Mustahkam oila jamiyat ravnaqini belgilovchi omil sifatida 50
***J. A.Ochilov***
Texnologik madaniyat shakllanishi va rivojlanishi 55
***Sh. T. Tursunkulova***
Estetik paradigmada san'at to'g'risidagi bilimlar rivoji 59
***Sh. Q. Raxmonova***
Boshqaruvga oid g'oyalarning funksional tahlili 64
***S. M. Raxmonov***
Jaloliddin Rumiy asarlarida axloqiy tarbiya va nafs diskriminatsiyasi 67
***R.Xudayberganov***
An'anaviy tafakkur inersiyasini bartaraf etishning kommunikativ asoslari 71

## SOTSIOLOGIYA / SOCIOLOGY

***Q. N. Qayumov***
Kichik shaharlar infrastrukturasida ijtimoiy siyosatni rivojlantirishning ustuvor jihatlari 75
***N. J.Nazarova***
Yoshlarning kasbiy raqobatbardoshligini oshirishda ta'limning o'rni 80
***X.X.Xaydarova***
Shahar ekotizimidagi muammolar va ularning jamiyat hayotiga salbiy ta'siri (Samarqand shahri misolida) 86
***F. B. Fayzieva***
Sohalar faoliyati samaradorligida sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti 92
***D. K. Nishanova***
Islom huquqida "Usul al fiqh" ning tutgan o'rni 97
***Г.У. Шарипова***
Национальная политика религиозной толерантности в государственной системе Малайзии 102

## PSIXOLOGIYA / PSYCHOLOGY

***T. E. Eshquvvatov***
Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni nizolari profilaktikasi tizimini takomilashtirish (Pedagogik hamkorlik asosida) 105
***Ф. Б.Нарзикулова***
Модель структуры профессионального имиджа современного учителя 112
***М.Б.Юлдашева, З.Т.Эргашова***
Эмпирический анализ феномена одиночество 118
***A. M. Shonazarov***
Xalq ta’limi tizimi rahbarlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uslublari va integral tashkiliy qobiliyatlari 121
***M.T.Isakova***
Oila muhiti ruhiy salomatlikning omili sifatida 127
***G.A.Haydarova, M.I.Saloxutdinova***
Talabalarda ijoidiy tafakkurni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari 134
***M.B.Narzikulova, M.I.Saloxutdinova***
Zamonaviy iste’molchi xulq-atvori va psixologik xususiyatlari 140
***F.X.Kuchkarova***
Maxsus psixologiyada bolalar idrokini rivojlantitish muammosi 147

## IQTISODIYOT / ECONOMICS

***B.U.Bozorov, J.K.Boymurodov***
Oziq-ovqat xafsizligini ta’minlashda agrar sohani o’rni 150
***G'. Z. Ubaydullayev***
Mintaqa iqtisodiyotining raqamli rivojlanishida inson kapitalini rivojlantirish omillari 153
***D. M. Abduraimov***
Turizm infratuzilmasining rivojlanish samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish 158
***L.U.Akbarova***
Main trends in the formation of modern technologies to increase the competitiveness of business entities 165
***K.Sh.Shodiyev, A.B.Farxodov***
Turizm sohasi yuksalishida internet va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarning o‘rni 169

## O‘QITISH METODIKASI / TEACHING METHODOLOGY

***L.M.Sharipova***
Chet tilini o`qitishda interaktiv metodlarning ahamiyati 175
***Sh.B. Oydinov***
Oliy o‘quv yurtlari tasviriy san’at mashg‘ulotlarida etyudlar ishlashni o‘rgatish metodikasi 178
***A. A. Avliyoqulov***
Umumta’lim maktablarida matematika fanini integratsiyalash metodologiyasining kontseptual asoslari 182
***M. N. Jurayeva***
Bo‘lg‘usi matematika o‘qituvchilariga noan’anaviy ta’lim metodlarini o‘qitish haqida 186
***М. Джораев, Б. А. Абдикамалов, Р.М. Хожаназарова***
Интерферометр Майкельсона как универсальный физический прибор для демонстрации интерференции света при преподавании курса оптики в высших учебных заведениях 189
***F.A.Xamroyeva, M.E.Abdirasulova***
Geografiya fanlarini o‘qitish va innovatsion yondashuv 195
**Mualliflarga**

UDK:9(5753141)

# SAMARQAND MADRASALARI TARIXIDAN

**Sh.S.G'afforov, O.J.Irisqulov**
*Samarqand davlat universiteti*
*olimjonirisqulov.gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston hududida qadimgi davrdan boshlab maktab va madrasalar faoliyat ko'rsatganligi keltirilgan. Shuningdek, Samarqanddagi Mirzo Ulug'bek madrasasi faoliyati manbalar asosida tahlil kilingan. Mirzo Ulugbek madrasasi va Samarqanddagi boshqa madrasalarning keyingi asrlardagi faoliyati, ularning XX-asrning 20-yillarida mavjud bo'lganligi kayd etilgan. Maqolada Samarqand davlat universiteti Mirzo Ulug'bek madrasasi vorisi ekanligi xulosalangan.

**Kalit so'zlar:** Madrasai ulum, madrasai muallimun, mutavalli, mudarris, Shamsiya, a'lo, adno, avsad, mushkulot, universitet.

## Из истории медресе Самарканда

**Аннотация.** В статье на основании источников была проанализирована деятельность медресе Мирзо Улугбека в Самарканде. Отмечается, что деятельность медресе Мирзо Улугбека и других медресе просуществовала до 20-х годов XX века. В статье делается вывод о том, что Самаркандский государственный университет является правопреемником медресе Мирзо Улугбека.

**Ключевые слова:** Медресаи улум, медресеаи муаллимун, мутавалли, мударрис, Шамсия, ало, адно, авсот, мушкулот, университет.

## The History of madrasahs of Samarkand

**Abstract.** This article states that schools and madrassas have existed in Uzbekistan since ancient times. Also, the activity of Mirzo Ulugbek madrasah in Samarkand was analyzed on the basis of sources. It is noted that the activity of Mirzo Ulugbek madrasah and other madrasas in Samarkand in the following centuries, they existed in the 20s of the XX century. The article concludes that Samarkand State University is the successor of Mirzo Ulugbek Madrasah.

**Keywords:** Madrasai ulum, madrasai muallimun, mutavvalli, mudarris, Shamsiya, alo, adno, avsot, mushkulot, university.

Mamlakatimiz qadim ilm-ma'rifat, madaniyat markazlaridan biri sifatida o'zining shonli tarixiga egadir. Shu sababdan yurtimizdan ko'plab buyuk zotlarning, mutafakkirlarning yetishib chiqqani ham bejiz emas. Sababi yurtimizda qadimdan ilm-fan, madaniyat, ma'naviyatning shakllanishi uchun tarixiy asos mavjud edi. Jumladan, o'quv maskanlari, madrasalarning faoliyati, ulardagi ta'lim tizimi, shakli hamda o'quv jarayoni xususida ham shunday fikr bildirish mumkin. Biz masalaning shu jihatlariga alohida e'tibor qaratishni maqsad qildik.

Sharqda, jumladan, O'zbekiston hududlarida ta'lim tizimi bizgacha yetib kelgan manbalar asosida qator olimlar tomonidan tadqiq etilib, ularning natijalari turli tillarda nashr qilingan [1].

Ba'zi madaniyat va ta'lim tarixiga oid asarlarda, islom o'lkalarida madrasalarning vujudga kelishini X asrga tegishli bo'lib, birinchi madrasalar Nishopurda bunyod etilganligi qayd qilinadi. Ammo tarixiy manbalarning, jumladan Narshaxiyning «Tarixi Buxoro» asarida keltirilishicha, X asrdayoq Buxoroda madrasalar bo'lib, ulardan biri madrasai Farjak 937-yilda sodir bo'lgan yong'in vaqtida ancha zarar ko'rgan [10. –B. 84.].

Ta'lim tizimining muhim bosqichlaridan biri bo'lgan madrasalarning diyorimizdagi ikki muazzam shaharda - Samarqandu Buxoroda, islom dunyosida birinchilardan bo'lib bunyod etilishi VIII asrning oxiri va IX asrning boshlariga to'g'ri keladi.

Ta'lim-tarbiya tizimi uch bosqich hamda uning uch muassasasi-ibtidoiy maktab, o'rta yoki o'rta maxsus ma'lumot beruvchi madrasa va madrasai oliyalardan iborat bo'lgan. O'rta maxsus ta'lim madrasalari "madrasatun harbiya" (harbiy bilim yurti), "madrasatun muallimin" (pedagogika instituti) shaklida, yuqori bosqich ilm maskani-universitetlar esa "madrasai ulum" ("ilmlar madrasasi"- dorilfunun) nomi bilan mavjud bo'lgandir [4].

Bularning hammasi Vatanimiz hamda boshqa Turkiston xalqlari o'tmishidagi ta'lim tizimi mukammal va yetuk bo'lganidan va u o'sha davr hayoti talabiga to'la javob berganidan darak beradi.

Ta'lim tizimi tarixining eng porloq va takomilga yetgan bosqichi, shubhasiz buyuk sohibqiron Amir Temur va temuriylar davriga to'g'ri keladi.

XIV asrning oxirida Movarounnahrda Amir Temur saltanati oʻrnatilgach, mamlakatni birlashtirish va turli yurishlar uyushtirish bilan bir qatorda, poytaxt sifatida belgilangan Samarqandni obod qilish maqsadida turli xildagi qurilishlarni amalga oshirish, ta'lim tizimini yaxshilash, unga daxldor boʻlgan bilim oʻchoqlarini qurish sohasida ham keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida Samarqand atrofida Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma»sida tasvirlagan 12 ta bogʻ va qasrlar, shahar Arki, jome' masjidi, hazrat Muhammad paygʻambarning amakilari Abbosning oʻgʻli Qusam – Qusam ibn Abbos maqbarasi (hozirda bu Shohi Zinda nomi bilan mashhur) va uning atrofida qator maqbaralar, Samarqand tosh qoʻrgʻoni - Chaqar mavzeida Oqsaroy kabilar Amir Temurning bevosita topshirigʻi bilan bino qilindi.

Natijada Amir Temurning xotinlari – malikalardan Saroymulkxonim (madrasa), Tuman oqo (xonaqoh va qulohfurushon timi), amirlaridan Idigu Temur, Firuzshoh (madrasa), nabirasi Muhammad Sulton (madrasa), amaldorlaridan Samarqand sadri mavlono Qutbiddin (madrasa) va boshqalar tomonidan bir qator inshootlar, xususan madrasalar bunyod etildi.

Bu madrasalarning bunyod etilishi bejiz emas edi. Chunki Amir Temur saltanatiga asos solinib, u kengaytirilar ekan, uni yanada mustahkam idora etish uchun zarur boʻlgan amaldorlar, ziyolilarni yetishtirishga boʻlgan ehtiyoj ham paydo boʻldi. Ikkinchidan esa, Amir Temur muhtasham imoratlar, bogʻlarni barpo etish bilan saltanatning ulugʻvorligini, kuch-qudrati va iqtidorini namoyish etishni ham nazarda tutgan edi. Oʻzining bu maqsadlarini amalga oshirish uchun esa boshqa mamlakatlardagi mashhur olimlar, tabiblar, hunarmandlar, xullas iqtidorli mutaxassislarni oʻz poytaxti Samarqandga olib kelardi. Shuning uchun Samarqandda Movarounnahr, Xuroson, Rum, Eron, Shom, Hindistonning turli shahar va kentlaridan boʻlgan mutaxassislar toʻplanib qolgan edilar. Jumladan, olimlardan Sa'diddin Mas'ud Taftazoniy, Sayyid Sharif Jurjoniy, Salohiddin Muso Qozizoda-i Rumiy, Abu Sayid ibn Burhoniddin Sogʻarjiy, mavlono Kamoliddin Keshiy; hunarmandlardan me'mor va muhandislar Fahri Ali, Olim Nasafiy, Muhammad ibn Mahmud Isfahoniy; naqqosh va xattotlar Yusuf Sheroziy, Muhammad bin Hoji Bandgir al-Tugʻro-i Tabreziy va boshqalar. Bu mutaxassislardan unumli foydalanish uchun esa barcha sohalarda, jumladan, ta'lim tizimini yanada jonlashtirish, yangi-yangi asarlar yozib, Amir Temur va temuriyzodalar shuhratini yanada baland koʻtarish maqsadida madrasalar qurilishiga katta e'tibor qaratilgan edi.

Sohibqiron davrida qurilgan madrasalarning ayrimlari 20-25 tolibi ilmga moʻljallangan boʻlsa (Muhammad Sulton madrasasi), ba'zilari 100 tagacha tolibi ilmga moʻljallangan (Idigu Temur, Qutbiddin Sadr, Saroymulkxonim madrasalari). Madrasalar ma'lum darajada ixtisoslashtirilgan koʻrinadi, jumladan, boshqaruv kadrlarni tayyorlash (Mavlono Qutbiddin sadr madrasasi), umumiy mutaxassislar tayyorlash (ziyoli, imom, olim, maktab oʻqituvchisi) va boshqa sohalar (Idigu Temur, Saroymulkxonim madrasalari) tarzida.

Madrasalarda darslar uch tilda – arab, fors va turkiy (oʻzbek) tillarda olib borilgan. Har bir madrasada uning vaqfnomasidan belgilangan daromadlarga hamda ixtisosiga qarab tolibi ilmlar soni – miqdori belgilangan. Shunga muvofiq tarzda ularda sadr-mutavvali, mudarris, mu'id, hofiz, imom, noqit, mujovir, farrosh, musdir va boshqalar soni ham belgilangan. Sadr-mutavvaliga mudarrislar va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, madrasani ta'mirlab turish vazifalari ham yuklatilgan [7. –B. 66].

Markaziy Osiyo xalqlari ta'lim tizimidagi «oltin asr», shubhasiz, Mirzo Ulugʻbek (1409-1449) davridir. Ulugʻ olim va davlat arbobi, buyuk bobokaloni kabi ilm-fan va ma'rifat homiysi Mirzo Ulugʻbekning Movarounnahrdagi 40 yillik hukmronlik davrida mamlakat oʻsha davr dunyo sivilizatsiyasining eng peshqadam oʻrinlarida turar edi. Olim va hukmdorning sa'y-harakatlari tufayli Samarqand butun musulmon Sharqining ilm-fan va madaniyat markaziga aylandi.

Mirzo Ulugʻbek Samarqandda toʻplangan ilmiy kuchlar, mohir muhandislar maslahati bilan mamlakatda, jumladan poytaxt Samarqandda ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqotlarning samarali tarzda amalga oshirish maqsadida keng koʻlamli qurilish ishlarini boshlab yubordi. Shunisi borki, bu ishlarni boshlashdan oldin, ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqotlar uchun madrasa va madrasa majmualarining maqsadi, vazifasi, joyi, me'morlari hamda har bir inshooatning oʻsha davrda qoʻlga kiritilgan tajribalar va nazariy jihatdan asoslangan boʻlishiga katta e'tibor qaratilgan. Bu ishda esa muhandislar sultoni Gʻiyosiddin Koshiy, mashhur me'mor va naqqoshlar Muhammad ibn Mahmud Isfahoniy, Ismoil bin Tohir bin Mahmud Isfahoniy, Yusuf Sheroziy, Muhammad bin xoji Bandgir va boshqalardan iborat guruh mavlono Salohiddin Muso Qozizoda-i Rumiy va Mirzo Ulugʻbekning bevosita rahbarliklarida istiqbolli rejalarni yaratdilar.

Abdurazzoq Samarqandiy (1413-1482) oʻzining «Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn» asarida shunday yozadi:

«(Mirzo Ulugʻbek) Samarqand shahrining ichida, shaharning oʻrtasi va maydonining markazida, Arki Oliyga yaqin joylashgan Sar-i davonik deb atalgan mavzeda bir-biriga roʻbaroʻ madrasa va xonaqoh

bino qildi». Samarqanddagi madrasa oʻz koʻlami va inshootlarining koʻpligi tufayli 1417-1420-yillarda qurib bitkazilgan.

Madrasa meʼmoriy jihatdan nihoyatda muhtasham boʻlib, naqqoshlik xattotlik, toshyoʻnarlik, yogʻochkorlikning eng oliy namunasidir. Madrasa egallagan maydon sathining tarhi 81x56 metr boʻlib, uning old tomoni – peshtoqi kun chiqarga qaratilgan. Peshtoqda yulduzli osmon – koʻk tasviri, kirish darvozasi yogʻochda oʻymakorlik sanʼati asosida tayyorlangan. Old tomoni qismining janub va shimol tomonlarida uch qavatli ikkita guldasta minora, ularning yonlarida ikkita goʻzal gumbaz, madrasaning janubiy va shimoliy yon tomonlarida peshtoqli kirish darvoza va ayvonlar, madrasa hovlisi kun botar tomonining janub va shimolida esa yana ikkita guldasta-minora hamda ikkita gumbaz.

Madrasaning ikki qavatida 55 ta hujra bor. Har bir hujra oʻz navbatida, ikki qavatdan iborat. Birinchisida qoznoq, va mutolaa, suhbat oʻrni joylashgan boʻlib, ikkinchi qavat – yotoqxonadir. Bir hujra ikki kishining yashashi uchun moʻljallangan.

Madrasaning toʻrt tomonida toʻrtta darsxona, kun botar tomonida esa masjid mavjud. Mirzo Ulugʻbekning Samarqanddagi madrasa majmuasining boshqa madrasalardan farq qiluvchi xususiyati uning rasadxonani ham oʻz tarkibiga olganligida deb uqtirilgan edi. Shu fikrning tasdigʻi sifatida XVII asrda yashab ijod etgan shoir, adabiyotshunos va muarrix mavlono Mutribiy Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro» asaridagi ajoyib bir maʼlumot matnini keltirish oʻrinlidir. Mavlono Mutribiy shunday yozadi: (*mazmuni*) "Atorud fatinatli rasad bogʻlovchilar va Mushtariy xislat Qamar surat axtarshunoslar yetti iqlim va Yer maʼmurasi suratini sultoni shahid Ulugʻbek Koʻragonning Samarqand-i firdavsmonanddagi madrasasini devoriga shunday tasvir etganlar (alohida betda yetti iqlim xaritasining bu surati berilgan)"[8]. Mavlono Mutribiyning yozganlariga ishonmoq kerak. Ulardan koʻrinadiki, madrasada yetti iqlim xaritasi suratining chizilgani rasadxona ishga tushib, yetti iqlim samtlari aniqlangandan soʻng uning xaritasi tuzilgan hamda bu xarita nusxasining surati madrasa devoriga chizilgan. Madrasa davrlar oʻtishi bilan bir necha marta taʼmirlanganligi natijasida bu surat yoʻqolgan – koʻchirilib ketgan boʻlishi mumkin. Shuning uchun hozirgi kunda madrasa devorida chizilgan yetti iqlim xaritasi surati saqlanmagan.

Madrasa ish boshlaganda tolibi ilmlarning bilim saviyasi – darajasi aniqlanib, ular uch guruhga - aʼlo (yuqori), avsat (oʻrta) va adno (past) ga ajratilgan. Bu oʻrinda shuni ham eslatish joizki, tolibi ilmning qaysi guruhga mansubligini bilish maqsadida, ular imtihon qilinganlar. Imtihonni mavlono Qozizoda Rumiy rahbarligidagi maxsus hayʼat oʻtkazgan. Tolibi ilmlarni imtihondan oʻtkazish marosimida baʼzan Mirzo Ulugʻbek ham qatnashgan.

Madrasada oʻquv jarayoni yetti oy davom etgan. U mezon oyining birinchi kuni (21-sentyabr) boshlanib, hamal oyining birinchi kunigacha (21-mart) davom etgan. Hamal oyidan (21-martdan) mezon oyigacha (21-sentyabr) boʻlgan muddat taʼtil hisoblanib, tolibi ilmlar turli ishlar (dehqonchilik, hunarmandchilik, masjid imomligi va boshqalar) bilan shugʻullanganlar.

Madrasada taʼlim olish muddati uch bosqichni – adno, avsat, aʼlo nazarda tutgan holda 8 yil belgilanib, shu muddat ichida tolibi ilmga oylik va ulufa belgilangan.

Madrasani xatm qilgan tolibi ilmlarga dars oʻqishi, yaʼni mudarrislik qilish mumkinligini bildiruvchi ijozatnoma – diplom berilgan. Ijozatnoma – diplomda tolibi ilm tomonidan oʻzlashtirgan ilm va oʻrgangan asarlar nomi yozilgan. Ana shunday ijozatnoma – diplomlardan biri, yaʼni mirzo Ulugʻbek madrasasining bosh mudarrisi Salohiddin Muso Qozizoda Rumiy tomonidan 1435-yil tarixi bilan berilgan ijozatnoma hozirgi kunda Oʻzbekiston Respublikasi FanlarAkademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qoʻlyozmalari fondida saqlanyapti.

Mirzo Ulugʻbek vafotidan (1449) soʻng ham madrasa oʻz faoliyatini davom ettirdi. Mavlono Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asarida (1487-yil) xabar berishicha, bu davrda (1487-yilda) Mirzo Ulugʻbek madrasasida 100 dan koʻproq tolibi ilm tahsilni davom ettirgan. Bu tolibi ilmlarga esa Xoja Fazlulloh Abu Laysiy, Ali Qushchilar bilan birga Mir Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois"ida yozilishicha, mavlono Xoja Xurd ham mudarrislik qilgan. Jumladan, Mir Alisher Navoiy Samarqandda boʻlib, taʼlim olgan vaqtdan (1465-1469-yillar) Mirzo Ulugʻbek madrasasining bu mudarrisidan ham bahramand boʻlgan. Mir Alisher Navoiy yozadi: "Xoja Xurd - Samarqand taxtining yakkalama qozisi va Ulugʻbek Mirzo madrasasining mudarrisidur. Bovujudi fazlu kamol aql va donish hullasi bila orastadur va bovujudi zuhdu tavqo husni ahloq zevari bila piyrostadur… Faqir (Mir Alisher Navoiy) ning "Vaqfiya"-sining tasʼhehin qilurda"min vaqf-i Alisher "tarix topibdur". [2. –B.182].

Keltirilgan maʼlumotlardan koʻrinadiki yurtimizda oliy taʼlim tizimining qadimiyligi va ular oʻzining ajoyib anʼanalariga egaligi taʼriflangan. Shu fikrdan ham Turkistondagi taʼlim tizimining dunyoning boshqa hududlarida (aytaylik, Xitoy, Misr, Gʻarbiy Yevropa…) hukm surib kelgan maorif tizimlaridan hech bir tarafdan ortda emasligi, balki baʼzi jihatlari (tillarni oʻqitish, taʼlim jarayonini moliyaviy taʼminotini tashkillashtirish) nuqtai nazaridan ulardan ustun ekanligi namoyon boʻladi.

Turkistonning milliy maktablari hamda madrasalar tarixi xususida V.P.Nalivkin, A.P.Xoroshxin, K.E.Bendrikov qaydlari o‘zining keng qamrovligi, aniqligi va dalillarga boyligi bilan alohida ajralib turadi.

"Samarqand, Sirdaryo va Farg‘ona viloyatlaridagi, - deydi V.P.Nalivkin o‘z xotiralarida, madrasalarning umumiy soni 189 ta bo‘lib, shundan Farg‘onada 118 ta, Samarqandda 50 ta, Sirdaryo viloyatida esa 21 ta madrasa joylashgandir. Madrasalardan Qo‘qonda 34 tasi, Marg‘ilonda 25 tasi, Samarqandda 22 tasi, Andijonda 18 tasi, Namanganda 14 tasi, Toshkentda 14 tasi va 10 tasi Xo‘jand shahrida bino etilgan" [9. –B.49-60].

A.P.Xoroshxin o‘zining "Turkiston o‘lkasiga taalluqli maqolalar to‘plami"da [1. –B.41].Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududlarida taxminan 200 ta shunday madrasalar faoliyat ko‘rsatganligini ta’kidlab o‘tadi.

Samarqand viloyatining Gulxandoz va Nov qishloqlarida 1853-yili, Kattaqo‘rg‘on uezdining Payshanba qishlog‘ida 1891-yili, Panjikentda 1852-yili hamda 1877-yilgacha O‘ratepa va Urgutda oltita madrasa ochilgan. Sirdaryo viloyatining - Abdiq volostida 1848-yilda, Bo‘kada 1863, 1870-yillarda, Zangiotada 1835-yildan to 1850-yilgacha 3 ta madrasa ochilgan ekan. Chimkent uezdida 1875-yilda, Toshkent uezdining Kultepa qishlog‘ida 1840-yilda, Pskentda va Turkiston shahrida 1821 va 1875-yillarda, Chinozda esa 1874-1878-yillarda yangi madrasalar faoliyatini boshlagan" [3. –B.75.]. 1892-93 o‘quv yili Samarqand viloyatining reviziyasiga ko‘ra, viloyatda 58 ta madrasa mavjud bo‘lib, ulardan 40 tasi shaharlarda va 18 tasi qishloqlarda joylashgan. Viloyat barcha madrasalarining o‘rtacha yillik daromadi 28555 so‘mni tashkil qiladi. Ularning ichida o‘n ikkita madrasa 2000 so‘mdan ortiq daromadga ega bo‘lsa, yettita madrasa 100 so‘mdan 2000 so‘mgacha daromadga egadir. Shundan 9 ta madrasaning esa hech qanday daromadi yo‘qdir" [11. –B. 124-126.]. Keltirilgan dalillardan shu narsa ko‘zga tashlanadiki, o‘lkadagi madrasalar faoliyati ham iqtisodiy, ham ma’rifiy tomonlardan bir-birida keskin farqlangan. Ularning faoliyatiga o‘qitish usuli va moliyaviy-moddiy ta’minlanish darajasi nuqtai nazaridan nazar solsak, yana bir tarixiy haqiqat qaror topadi.

Endi an’anaviy maktablar va madrasalarning o‘qitish jarayoni va dasturlari haqdagi S.M.Grameniskiyning qaydlari diqqatga sazovor [5. –B. 54]. Maktab va madrasalarda dastlabki o‘qish ishlari bolalarga harflarni o‘rgatish bilan boshlangan. Harflar to‘liq o‘zlashtirilgach, arab tilida Haftiyak, keyin esa fors tilida Chor kitoblar yod olingan. Yuqori sinflar uchun esa Bedil, Hofiz Sheroziy, Sa’diy, Alisher Navoiy, So‘fi Olloyor kabi klassik ijodkorlar asarlari mutolaasi o‘rgatilgan.

Senator K.K. Palen yuqorida nomini zikr etilgan kitobida madrasalardagi o‘qish usuli uch bosqichga bo‘ladi.

Birinchi bosqich - "Adno" deb yuritilib, bu bosqichda toliblar 2, 4, 5 yil o‘qishgan. Darslar asosan arab, fors tillarida olib borilgan. Bu yillarda arab tili grammatikasi, fors tili o‘rganilgan. Arab tilidagi "Zanjoni", "Ixlabi", "Avomil", "Harakat", "Kofiya" (uning sharhi hisoblangan "Sharh - mulla" ham) va fors tilidagi "Avvali ilm" kabi asarlar mutolaa qilingan.

Ikkinchi bosqichda - tolibi ilmlar fiqh masalalari bilan mashg‘ul bo‘lib, islom qonunshunosligidan saboq olganlar.

Uchinchi bosqichda "Shamsiya" va uning sharhi hisoblangan "Hoshiya" hamda "Mushkilot" ni o‘rganganlar.

Shuningdek, "Aqoid" (dogmatika), "Tahzib" (dialektika) "Hikmatul-ayn" va astronomiyaga oid asarlarni o‘qiganlar, kosmografiyaga bag‘ishlangan umumiy bilimlar olishgan. Mantiq faniga ham e’tibor qaratilib bu soha bo‘yicha: "Tavzih", "Hadis", "Qiyos" va "Tavsifi qozi Boyzaviy" lardan ma’ruzalar tinglangan. Fiqh o‘rganuvchilar uchun esa ko‘proq quyidagi kitoblar dastur vazifasini o‘tagan: "Fiqxi Kaydoni", "Muxtasar ul-viqoya", "Hidoyai sharif" va boshqalar.

Toliblar ilmi hisob va tibbiyot bilan ham shug‘ullanganlar. Ayniqsa klassik shoirlarning g‘azallari va dostonlari qunt bilan o‘qitilgan. O‘quv yili oktyabrda boshlanib, aprelda tugagan. O‘qish haftaning to‘rt kuni: yakshanba, dushanba, seshanba va chorshanba kunlari olib borilgan. Ramazon va Qurbon hayitlarida ikki haftalik ta’tillar berilgan.

K.P.Fon Kaufman N.I.Ilminskiyga Turkistonga kelib mahalliy shart-sharoitlarni o‘rgangandan so‘ng, o‘qitish ishlarining aniq bir reja yo‘nalishini ishlab chiqishga da’vat etadi. Ana shu taklifga binoan N.I.Ilminskiy 1868-yilning bahorida K.P.Fon Kaufmanga bir qator xomaki reja va fikrlar bitilgan xatni yubordi. N.I. Ilminskiyning takliflarida O‘rta Osiyodagi maorif ishlarini keng ko‘lamda missionerlik yo‘li bilan olib borish kerakligi uqtiriladi. Bundan ko‘zlangan maqsad esa, mahalliy musulmon maktablarini ehtiyotkorlik bilan nasroniy tipidagi maktablarga aylantirish edi. Uni amalga oshirish uchun o‘quv ishlariga boshchilik qilishga Qozon diniy akademiyasidan chiqqan, tatar va arab tillari, madaniyati bilimdoni I.S.Yastrebov tavsiya etiladi. Biroq Fon Kaufman I.S. Yastrebovni Turkistonga olib kelishga erisha olmaydi. Chunki

I.S. Yastrebov oʻsha yillar Rossiya hukumatining ma'sul lavozimlaridan birida, ya'ni Rossiyaning Turkiyadagi konsulxonasida kotib vazifasida xizmat qilar edi. Shu bilan birga Turkistonda oʻquv ishlarini tashkil qilish boʻyicha Kaufmanning qarashlari, Ilminskiyning taklifiga muvofiq kelmaydi.Fon Kaufmanning fikricha, mahalliy aholining diniy qarashlariga yetkaziladigan ozgina tazyiq ham mustamlakachilarga nisbatan mahalliy xalqning nafrat va dushmanligi uygʻotish mumkin edi.

N.I.Ilminskiy Turkistonda maorif tizimi rejalarini ishlab chiqib uni amaliyotga tatbiq etish mushkulligini his qiladi va 1869-yilning avgust oyida general-gubernator Kaufmanga rad javobi bildirilgan oʻz xatini yoʻllaydi [6. –B.113-114].

Shundan soʻng, Turkiston ma'murlari bu ishni oʻz kuchlari bilan hal qilishga kirishadilar. 1870-yilda oʻquv ishlarini tashkil etish boʻyicha alohida Komissiya tuzildi. Komissiya xulosasiga koʻra, oʻlkadagi xalq ta'limi Rossiya imperiyasining manfaatlariga boʻysundirilishi kerak edi. Shu bilan birga mahalliy diniy qarashlariga hech qanday tayziq oʻtkazilmasligi ta'kidlanib, mahalliy musulmon maktablari rus hukumatining yordamiga umid qilmasligi nazarda tutildi.

1874-yilning 20-noyabrida Rossiya imperiyasi tarkibidagi barcha musulmon oʻquv yurtlarini Rossiya Xalq maorifi Ministrligi tasarrufiga oʻtkazish haqida qonun chiqarildi. Podshoning huzurida Turkistonni egallashda koʻrsatgan xizmatlari uchun alohida vakolatlarga ega boʻlgan general Kaufman Turkiston oʻlkasida bu qonunga amal qilmaslik haqida oʻzining buyrugʻini chiqaradi. Keyinchalik Fon Kaufman bu buyruqni imperiya manfaati va xavfsizligi hisobga olib chiqarilganligi haqida podshoga izoh beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Oʻzbekistonda keyingi yillarida ta'lim tizimida keskin oʻzgarishlar boʻlyapti.Maktabgacha ta'lim tashkiloti, 11 yillik oʻrta maktablar, Prezident maktablari, ixtisoslashgan matematika maktablarining ochilishi, Ulugʻbek nomidagi xalqaro astronomiya olimpiadalarining oʻtkazilishi alohida ahamiyatga ega. Shu oʻrinda masalaning yana bir jihatiga toʻxtalib oʻtish joyizdir. Yurtimiz dunyoning eng qadimiy oliy ta'lim tizimiga ega maskanlaridan biri ekan, biz ana shunday ta'lim tarixini oʻrganishimiz kerak va ularning tarixdagi maqomini oʻz oʻrniga qoʻyib, ularning tashkil topgan sanalarini yubiley darajasiga olib chiqish kerak. XV asr oliy ta'lim tizimidagi madrasalar, jumladan, Mirzo Ulugʻbek madrasasi haqiqatan ham oʻz davrining universiteti hisoblangan. Oʻrta asrlarda yevropa mamlakatlarida cherkovlar qoshida vujudga kelgan maktablarni universitetlar deb atadi. Samarqanddagi Ulugʻbek madrasasida diniy va dunyoviy ilmlar oʻqitilgan. Ushbu an'anaviy ilm dargohlari boʻlgan madrasalar XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida ham oliy ta'lim muassasasi sifatida faoliyat yuritgan. Yevropadagi universitetlar, jumladan, Varshava universiteti yuz yillab faoliyatini toʻxtatgan. Samarqanddagi Ulugʻbek madrasasi faqat XVIII asrning 20-30-yillarida jungʻorlar hujumi davrida vaqtincha toʻxtatgan. Keyin esa XVIII asrning 50-yillarida davom ettirib XX asrning 20-yillarigacha mavjud boʻlgan.

## Adabiyotlar


1. Mez A. Die Renaissance des Islams. 1922. Bu asar D.E.Bertels tomonidan rus tiliga oʻgirilib, "Musulmanskiy Renessans" nomi bilan Nauka nashriyotida (Moskva, 1966) chop etilgan. В.В.Бартольд. Сочинения. Т.П, ч.2. – М., 1964; Абдуллаев В., Валиходжаев Б. Дыхание веков. Самарканд 1970; E.Ihsanog'lu, Osmanli egitim muesseseleri. Qr.: Osmanli devleti ve medeniyeti tarihi, 2 cilt, Istanbul, 1998, ss. 232-251.
2. Алишер Навоий. Мажолис ун -нафоис. Илмий танқидий матни. Т.: ФАН, 1961. Б. 182 (араб алифбесида).
3. Бендриков К.Е. Очерки истории народного образования в Туркестанском крае. - М., 1961. С. 75.
4. Валихўжаев Б. Н. Темурийлар қурғон мадрасаи олиялар // Маърифат, 2001. 4 апр.
5. Граменицкий С.М. Положение инородческого образования в Сырдарынской обл.. Т.: 1916. С. 54.
6. Знаменский Н.Б. Участие Н.И.Ильминского в деле инородческого образования в Туркестанском крае. – Казань, 1900. Ч.4. С. 113-114.
7. Мукминова Р.Г. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. /Вакф-наме/ Т.: Наука, 1966. С. 66.
8. Мутрибий. Тазкират уш-шуаро. Қўлёзма. ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти фонди. Инв.2253. 158 а-в бетлар. Бу ҳақда қаранг: Валихўжаев Б. Сурати ҳафт иқлим дар мадрасаи Мирзо Улуғбек // Овози Самарқанд, 1992. 18 апр.

9. Наливкин В.П. Сведения о состоянии туземных мадрасе Сыр-Дарьинской области в 1890-91 учебному году. 1916. С. 49-60.
10. Наршахий. Бухоро тарихи. Т., 1966. Б. 84.
11. Отчет по развитии Туркестанского края, произведенньй по величайшему повелению сенатором графмейст. графом. К.К. Паленом. Учебное дело. – СПб., 1910. С. 124-126.
12. Хорошхин А.П. Сборник статей касающихся до Туркест. края. СПб., 1876. С. 41.

**UDK: 9 (575.1)**

## SUG'DIY TIL IJTIMOIY-MADANIY BIRLASHTIRUVCHI OMIL SIFATIDA

**E.B.Sattorov**
*Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Har qanday davlat, millat, xalq mavjudligining asosini til, madaniyat va urf-odatlar tashkil etadi. Ularning ifodasi til va milliy yozuv hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ishimizda keltirilgan omilga to‘xtalib, Buyuk ipak yo‘lining xronologik chegarasida “Sug‘d asri” nomini qoldirgan sug‘dliklarning til va yozuv tizimining ijtimoiy-madaniy birlashtiruvchi omil sifatidagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, maqolada sug‘diy tilning xalqlarga ta’siri va sug‘dliklar madaniyatiga oid masalalar tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** sug‘d yozuvi va tili, buyuk ipak yo‘li bo‘ylab faoliyat, turk-sug‘d diasporasi, Afrosiyob.

### Согдийский язык как фактор социально-культурного объединения

**Аннотация.** Язык, культура и обычаи составляют основу существования любого государства, нации, народа. Их выражение - язык и национальная письменность. Данное исследование фокусируется на факторе, упомянутом в нашей работе, и раскрывает важность языка и письменности согдийцев как социокультурного объединяющего фактора, который оставил название «согдийская эпоха» на хронологической границе Великого шелкового пути. В статье также анализируется влияние языка на народы и культуру согдийцев.

**Ключевые слова:** согдийская письменность и язык, деятельность на Великом шелковом пути, турецко-согдийская диаспора, Афросиаб.

### Sughd language as a factor of social and cultural union

**Abstract.** Language, culture and customs are the basis for the existence of any state, nation, people. Their expression is language and national writing. This study focuses on the factor mentioned in our work, and reveals the importance of the language and writing of the Sogdians as a socio-cultural uniting factor that left the name "Sogdian era" on the chronological border of the Great Silk Road. The article also analyzes the influence of the language on the peoples and culture of the Sogdians.

**Keywords:** Sogdian writing and language, activities on the Great Silk Road, Turkish-Sogdian diaspora, Afrosiab.

Hozirgi globallashgan dunyoda kechayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlar mamlakatdagi ta’lim tizmini rivojlantirish va mohiyatini yangicha anglashni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida Farmoni, 2020- yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun kabi narmativ xujjatlarning qabul qilinishi mazkur vazifasini bajarish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning ahamiyatini ko‘rsatib beradi. Mazkur jarayonda ta’lim-tarbiya sohasida tarixda erishilgan ilg‘or an’analarini tiklash va yangilash vazifasi dolzarb masala hisoblanadi. O‘zbekiston ta’lim tizmi tarixida, ko‘plab shonli davrlarni boshdan kechirgan. Masalan, IX-XII asrlar, Amir Temur va Temuriylar davri, jadidlar davri shular jumlasidan hisoblanadi. Ammo, yurtimiz ta’limining ildizlari yuqoridagi davrlardanda qadimroqqa borib taqaladi. Jumladan, ilk o‘rta asrlarda Buyuk ipak yo‘lining xronologik chegarasida “Sug‘d asri” nomini qoldirgan sug‘dliklarning til va yozuv tizimi etnik, ijtimoiy-madaniy birlashtiruvchi omil sifatida hozirgi kungacha deyarli tadqiq qilinmagan. Keltirib o‘tilgan omil tadqiqotimizning dolzarbligini belgilaydi.

Har qanday davlat, millat, xalq mavjudligining asosini til, madaniyat va urf-odatlar tashkil etadi. Ularning ifodasi til va milliy yozuv hisoblanadi. O‘rta Osiyo tarixiy rivojlanishining turli bosqichlarida bo‘lgani kabi ilk o‘rta asrlarda ham yozuv mavjud bo‘lgan. Shunday yozuvlardan biri sug‘diy yozuv

hisoblanadi. Sug‘d yozuvni o‘rganish Sug‘dning tarixiy va geografik chegaralari, ijtimoiy-maishiy madaniyatini tadqiq etishda muhim hisoblanadi.

O‘rta Osiyo xalqlari tillarida rivojlangan yozma tilning mavjudligi Xitoy solnomalari hisobotlarida, Beruniyning “O‘tmishdan qolgan yodgorliklar” asarida keltirilganidek nisbatan uzoq vaqtdan buyon ma’lum bo‘lgan. Biroq, ilm-fan sug‘diy yozuv bilan faqat XX asrning birinchi o‘n yilliklarida, Sharqiy Turkistondan sug‘diy tildagi ko‘plab namunalar topilganida tanishgan. Namunalarning tadqiq etilishi natijasida ma’lum bo‘ladiki, sug‘diy til xalqaro til darajasida bo‘lgan. Turli dinlarga oid ko‘plab - buddaviylik, nasroniylik, moniylik - diniy matnlar sug‘diy tilga tarjima qilingan. Masalan, hozirda Berlinda saqlanayotgan Turfon vohasidagi nestorianlarning Buloyiq ibodatxonasidan topilgan sug‘diy matnlar, moniylik matnlarining sug‘diy tildagi tarjimalari va ayni tilida yozilgan buddaviylik dinining matnlari yuqoridagi fikrimizni asoslashga xizmat qiladi.

Bunday matnlar bilan bir qatorda, shaxsiy xususiyatga ega xatlar, shuningdek, tibbiyot, mineralogiya va astronomiyaga oid asarlarning parchalari topilgan [25. –B.83-84]. Masalan, sug‘diy tilda yozilgan moniylik diniga oid matnlarda, kvaziologik matnlarning parchalarida (afsonaviy geografiya, yangi tug‘ilgan chaqaloqning jinsini aniqlash usullari, taqvim hisob-kitoblari), hayvonlar haqidagi ertaklar mavjud. Ba’zi matnlar haqiqatni aks ettirgan: xatning parchasida VIII asrning Mesopotamiyadagi moniylikning bid’atchi harakatlari - Mixiya (*myhry'nd*) va Miklasiya (*myql'syqt*) vakillari haqida ma’lumot keltirilgan [29.–B.156]. Bezeklikda topilgan va “Sharqning ustozi” (ya’ni patriarxi) nomiga yozilgan xatlardan Turfandagi moniylik jamoasining hayoti haqida ko‘p narsalarni bilib olish mumkin [1.–B.76]. Yuqoridagi matnlar sug‘d tilining turili etnik xalqlarni birlashtirishdagi o‘rnini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, sug‘diy til ijtimoiy-madaniy birlashtiruvchi omil sifatida adabiyot durdonalarida ham namoyon bo‘ladi. Jumladan, qahramoni mashhur Rustam hisoblangan epik doston sug‘diy tilida yozilgan [25.–B.93-95]. Kalila va Dimna, Ezopning afsonalari ham sug‘diy tiliga tarjima qilingan. Panchatantra hind to‘plamidan parchalar sug‘diy tilning ahamiyatini ko‘rsatishga xizmat qiladigan vositalardan hisoblanadi [27.–B.87-91].

Sug‘diy til sug‘d manzilgohlarini tadqiq qilishda ham bevosita birlamchi ma’lumotlarni beradi. Sug‘d manzilgohlarining shakllanish masalasiga E.V. Rtveladze, “Sug‘dliklarning Sharqqa ko‘chishi, Makedoniyalik Aleksandrning O‘rta Osiyoga harbiy yurishlaridan so‘ng boshlangan” mil.avv. IV-III asrlarda sug‘d va xitoy o‘rtasidagi aloqalar o‘rnatilgan degan fikrni bildirgan [18.–B.105-116]. Xitoy manbalarida sug‘dliklar haqidagi ilk ma’lumotlar milodiy II asrga oid. Sug‘dliklarning Sharqiy Turkiston va Xitoyda manzilgohlarinig ochishga undagan boshqa sabablar ham bo‘lgan. Chjan Szyan tomonidan G‘arbiy hududning ochilib, Buyuk Ipak yo‘lining paydo bo‘lishi natijasida Parfiya va Rim bilan diplomatik aloqalarning o‘rnatilishi, Xitoyning ushbu davlatlar o‘rtasidagi savdo-sotiq ishlarining rivojlanishi shular jumlasiga kiradi [21. –B.27]. Yuqoridagi ma’lumotlar bevosita va bilvosita sug‘diy til va sug‘dliklarning turli etnoslarga ijtimoiy-madaniy ta’siri ko‘rsatishining boshlanishidir.

Sug‘diy tilning ta’siri o‘z hudud bilan chegaralanib qolmay, Yettisuv, Ustrushona, Toshkent vohasi, Sirdaryoning o‘rta oqimi va qisman G‘arbiy Xitoy hududidagi aholining ijtimoiy hayotiga ham ta’sir qilgan. Masalan, VII asrning birinchi yarmida xitoylik sayyoh Syu an-Szyan Chu daryosi bo‘yidagi Siyob shahridan Keshgacha bo‘lgan hududlani Sug‘d deb, aholisini sug‘dliklar deb atagan [19. –B.35]. Syu an-Szyanning yuqorida keltirib o‘tgan ma’lumoti sug‘d tilining ta’siri borasidagi fikirimizni tasdiqlaydi.

Sug‘diy tilidagi ko‘plab topilmalar birinchi mingyillika tegishli. Uninig grammatik tuzulishini inobatga olgan holda Sug‘diy til qadimgi va o‘rta eron tillar orasidagi tillar sarasiga kirishini ta’kidlash joiz. Sug‘diy leksemalar bir xil holat paradigmasida beshtagacha shaklni ajrata oladi. Sug‘d tilidagi yozuvlarning katta qismi sug‘dliklar yashagan hududidan, Xitoy Turkistonining Shinjon vohalarida va Xitoyning Gansu viloyati kabi keng hududlardan ham topilgan. Mazkur omil Sug‘diy tilning ijtimoiy-madaniy jihatdan xalqlarni birlashtirishdagi o‘rninni ko‘rsatadi.

Sug‘diy tildagi matnlar fikrimizcha, etnik birlashtiruvchi omil siftida 2 guruhga bo‘lingan: Dunyoviy xususiyatga va diniy xusuiyatga ega matnlar. Mazkur matnlar xalqlarning ijtimoiy hayotinig turli jihatlarini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Chunki bir qator ijtimoiy-madaniy aloqalar faqat yozma matnlarda o‘z aksini topgan [11. –B.31-39]. Masalan, “Ko‘hna xatlar” nomini olgan sug‘diy tilda yozilgan hujjatlar kursiv shriftda yozilgan. Mazkur xat shaxsiy xatligini inobatga olib, xatning shrifti sug‘dliklar va xitoyliklar o‘rtasidagi madaniy aloqalarinig ijtimoiy hayotga tadbiqini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, maktubda savdo-sotiqda muomalada bo‘lgan tovarlarning ayrim turlari haqida ma’lumotlar keltirilib, Guzan shahridan Luxanga kosmetika, qalampir, kumush kabilar jo‘natganligini qayd qilgan. Xatlarda eslatib o‘tilgan tovarlar turli joylardan keltirilgan. Masalan, qalampir va kamfora Janubi-Sharqiy Osiyo yoki Hindistondan, mushk Tibetdan keltirilgan mazkur ma’lumotlar ta’kidlangan hududlarda ham sug‘diy tilning ta’siri bo‘lganligini ko‘rsatadi [30. –B.128]. Xitoy iyerogliflarini o‘rganish sug‘diy ёзувга nisbatan qiyin bo‘lganligi, bir xil shakldagi iyerogliflarning turli manolarni anglatishi natijasida yuzaga kelgan

tushunmovchiliklar sabab yuqoridagi jarayon tezlashgan. Umuman olganda, ilk o‘rta asrlarda sug‘diy til boshqa tillarda gaplashadigan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, maishiy va madaniy hayotiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Xorazm, Toxariston, Farg‘ona, Choch, Yettisuv kabi hudud aholisi sug‘diy tilda gaplashmasa ham topilgan numuzmatik materiallarda sug‘diy yozuvlar topilganligi yuqoridagi fikrimizni asoslaydi [16. –B.45].

Sug‘dliklarning til va yozuvdagi bunday ustunligi boshqa xalqlar bilan ijtimoiy-madaniy aloqalarining rivojlanishiga imkon yaratgan. Natijada sug‘dliklarning ijtimoiy-madaniy ta’siri nafaqat o‘troq xalqlar, balki ko‘chmanchilarining tamaddunida ham ko‘rishimiz mumkin. Xitoy manbalarida jujanlarning O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan sug‘dliklar bilan doimiy ravishdagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari bo‘lganligi ham fikrimizni tasdiqlaydi [3. –B.216].

Fikrimizcha, Sug‘diy tilning etnik birlashtiruvchi vositaga aylanishida yirik turk-sug‘d simbiozining shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Bundan tashqari, ko‘chmanchi davlatlar yozuvlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ularning yozuvi til va yozuv jihatdan yuqori darajada bo‘lgan qo‘shni davlatlarinig ta’siriga asoslangan, buni hattoki qudratli davlatlaring siyosiy hokimiyati ham cheklay olmagan. Masalan, Sug‘diy tilining alifbo negizida uyg‘ur yozuvi shakllangan [20. –B.57]. Shuningdek, sug‘diylar alifbosi mo‘g‘ul tilining yozuvini shakllantirgan. Keyinchalik mazkur yozuv Chingizxon imperiyasining davlat yozuvi sifatida qabul qilingan [7. –B.145].

Ta’kidlash kerakki, til jihatdan etnik bir bo‘lgan xalqlar ba’zan alohida talqin qilingan. Masalan, lingvistik jihatdan Buxoro vohasi, Qashqadaryo va Samarqand aholisi sug‘diy tilda gaplashgan bo‘lsalar-da, IV-VIII asrga oid manbalarda faqatgina samarqandlik va panjikentliklar sug‘diylar deb atalgan [4. –B.53-59]. Fikrimizni qadimgi turkiy yozuvlar ham tasdiqlaydi. Unga ko‘ra, *sug‘dliklar* (*sogdaq) buxoroliklar (buqaraq)* shaklida kelgan [6. –B.198-199]. Shunday bo‘lsa-da, Sug‘dning uch qismi, Buxoro, Samarqand va Qashqadaryo aholisi etnik jihatdan bir va madaniy jihatdan yaqin bo‘lgan deb hisoblash mumkin [9. –B.98-104]. Ushbu uch viloyatning aholisi yagona siyosiy tashkilot Sug‘d kanfedratsiyasiga kirganligi va ba’zi manbalarda [24. –B.118.] bevosita bo‘lmasada bilvosita “sug‘dliklar” nomi bilan atalganligi yuqoridagi ta’kidni asoslaydi.

Sug‘dliklarning keng tijoratchilik faoliyati sababidan ilk o‘rta asrlarda sug‘diy til xalqaro til bo‘lgan, Mazkur jarayonda Turk xoqonligi ma’muriy apparatida sug‘dliklarning egallagan muhim o‘rni ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Umuman olganda, mintaqadagi yagona til nafaqat ijtimoy hayot, balki siyosiy hayotga ham ta’sirini ko‘rsatgan. Manbalar tahlili asosida yagona tilni shakllantirishdan siyosiy qatlam vakillari ham manfaatdor bo‘lgan degan xulosaga kelishimiz mukin. Yagona til va yozuvdan ko‘zlangan asosiy maqsad nafaqat davlat ishini yuritishni osonlashtirish balki turli xalqlar va mamlakatlarni birlashtirishda xizmat qilgan. Bizningcha, sug‘diy til va yozuv Sug‘d konfedratsiyasini shakllanish jarayonida xuddi shunday vazifani bajargan.

Sug‘dliklar xalqaro karvon savdosining muhim qismini o‘z qo‘llarida ushlab turishgan. Bu esa, ularga sug‘d tilining yordamida yangi yutuqlarning tashuvchisi bo‘lish, ma’lumot tarqatish, ijtimoiy-madaniy aloqalarni birlashtirishga imkon yaratgan. Shuningdek, Yettisuv shahriga ko‘chib kelgan sug‘dliklar, o‘z manzilgohlarini tashkil qilgan. Bu yerda Sug‘d moddiy va ma’naviy madaniyatining ta’sirini ko‘rishimiz mukin. Yettisuvdagi Sug‘d kulollari yasagan sopol byumlari bilan bevosita o‘xshashliklarga ega sopol buyumlari topilgan. Topilgan topilmalar Oq-Beshim, Tali-Barzu, Kofirqal’a va Panjikentdan topilgan kulolchilik topilmalariga mos keladi. Sug‘diy til etnik birlashtiruvchi omil sifatida VI-IX asrlarda keng qo‘llanilgan. Buning natijasida, turli tarkibiy qismlar asosida shakllangan sug‘d ijtimoiy-madaniyati O‘rta Osiyoning boshqa vohalarida taqlid qilinadigan o‘ziga xos na’muna madaniyatga aylangan [12. –B.35].

E.V. Shavkunovning ta’kidlashicha, sug‘dliklar va sug‘d tili tadqiq qilinayotgan davrga kelib Primore o‘lkasi aholisining ijtimoiy-maishiy madaniyati rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan. Bunday holat, faqatgina faol aloqalar sharoitida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan[13. –B.25]. Fikrimizcha, Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab savdo va qator asos solingan sug‘dliklar manzilgohlari (kaloniyalari) sug‘diy til asosidagi savdo va diplomatik aloqalarni shakllantirgan. Shuningdek, sug‘diy tilning ijtimoiy va madaniy jihatdan xalqlarni birlashtirish yo‘lidagi rivojida budaviylik, moniylik, nasroniylik missionerlarinig turli etniklararo ichidagi targ‘ibot ishlari ham muhim ahamiyat kasb etgan. Umuman olganda sug‘d tili ta’sirida Yettisuv, Tarim havzasi, Labnor, Gansu, Ordos, Mo‘g‘u‘liston, qadimgi Xitoyning markaziy qismi va boshqa hududlardagi etnik xalqlar bevosita va bilvosita birlashgan.

Sug‘d tilinig ahamiyati halqaro maydondagi vaziyatlar bilan bog‘liq ravishda o‘zgarib borgan. Tahlillarmiz natijasida ma’lum bo‘ladiki, siyosiy vaziyatdagi o‘zgarishlar, yangi turkiy hoqonliklarning tashkil etilishi sug‘diy tilning yanada kengroq tarqalishini ta’minlagan. Uyg‘ur hoqonligi tashkil qilinganidan so‘ng Selenga daryosining bo‘ylarida yangi shahar Boybaliq shahriga, Baykal bo‘yi

mintaqasida Ungin manzilgohiga asos solishganligi mazkur hududlardagi xalqlar hayotiga sug‘d tilining kirib kelganligini ifodalab yuqoridagi fikrimizni asoslaydi.

Manbalar tahlil asosida dastlabki vaqtlarda Turk xoqonligi hududida sug‘diy tilning rasmiy til ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Buning sabablaridan biri sifatida, K. Shaniyazov miloddan avvalgi II va milodiy I asrlarda Sirdaryo bo‘ylarida turkiyzabon aholi (hunlar, usunlar, qang‘arlar) yashagan. Keyinchalik, turklar va sug‘diylarning ijtimoiy-madaniy jihatdan yaqinlashish jarayonlari boshlanib, sug‘diylarda turklashish jarayoni ro‘y bergan [8. –B.120-123].. XII asrda yashagan mashhur qomusiy olim Najmiddin Abu Xafsa an Nasafiy Sug‘d hukmdori G‘urak (710 - 738)ning nasabnomasida turkiy-sug‘diy ildizlar mavjudligni ta’kidlab, uning o‘g‘li turkiycha Banichur yoki Yanachur, nabiralari esa, Tarxun va Turkash Taki deb nom qo‘yilganligini keltirib o‘tgan [10. –B.89-91].

Sug‘dliklarning faol diplomatik aloqalari sababli, sug‘d tili va madaniyati yuqoridagi hududlardan tashqari boshqa o‘lkalarga ham o‘z ta’sirni o‘tkazganligini ko‘rishimiz mumkin. Shunday o‘lkalardan biri Yaponiya hisoblanadi. VII - VIII asrlarda sug‘dliklar Yaponiyaga yetib kelgan. Yaponiya poytaxti Naraga chet elliklar tez-tez kelishgan bo‘lsa-da, o‘zlari haqida ma’lumotlar qoldirishmagan. Shunga qaramasdan, professor Tono Xarayuki ta’kidlashicha, manbalar ichida 754-yilda Nara shahriga kelgan sug‘dlik Annejo haqida ma’lumotlar mavjud [28. –B.11]. Yapon manbalariga ko‘ra Annejo Buxoro vohasida tug‘ilgan bo‘lib, Yaponiyada buddaviylik rohibi Ganjinning hamrohi sifatida qayd qilingan. Shu bilan birga, Uzoq sharqdagi yana bir xalq koreyaliklar hamda sug‘dliklar o‘rtasida aloqalar bo‘lgan. Afrosiyobdan Sug‘d ixshidi Varxuman saroyini qazish jarayonida topilgan VII asrning ikkinchi yarmiga oid devorda sug‘dliklarning etnik va diplomatik aloqalarini ko‘rsatib berishda muhim. Devoriy suratda turli hududlardan kelgan elchilar tasviri tasvirlangan. Elchilar orasida tashqi ko‘rinishi sharqiy, xususan xitoyliklarning kelib chiqishini ko‘rsatadigan elchilarning suratlari mavjud. Shuningdek, faqat o‘sha paytda Koreyaning Koguryo qirolligi vakillari uchun xususiyatli bosh kiyim, holat (qo‘llar ko‘krakka keltirilgan bo‘lib, tirsaklar bukilgan yenglariga yotqizilgan) va antoropologik jihatlar yoritilgan. Mazkur surat sug‘dliklarning koreyaliklar bilan ijtimoiy-madaniy hayotdagi aloqalar o‘rnatilganligini yoritishga xizmat qiladi [31. –B.365-369]. Xususan, ilk o‘rta asrlarda sug‘dning ijtimoiy-madaniy aloqalarining geografik maydonining kengligini Afrosiyob devoriy suratlari orqali ham ko‘rishimiz mumkin [2. –B.74-75].

Sug‘dliklar ijtimoiy-madaniy ta’sir ko‘rsatgan davlatlardan biri Boxay davlati bo‘lgan. Boxay (kor. Parxe ) davlati ko‘p millatli aholiga ega bo‘lgan. Jumladan, tungus tilida gapiradigan moxelar, koguryoliklar, turklar, uyg‘urlar, xitan, shiber, xitoyliklar qatorida sug‘dliklar ham borligi keltirib o‘tilgan [23. –B.49]. V.E.Medvedev sug‘dliklarning Amur Chujerchenlari ijtimoiy-madaniy hayotiga, madaniyatiga ta’siri bo‘lganligini ta’kidlasa-da, lekin uning ta’siri qay darajada bo‘lganligi to‘liq o‘rganilmaganligi sababidan “madaniy ta’sir darajasi to‘liq aniq emas” degan fikrni bildirgan[15. –B.72]. Bundan tashqari, sug‘dliklar xalqaro savdo va kolonial faoliyati tufayli o‘sha davrning butun madaniy dunyosi bilan birlashgan. Sug‘d manzilgohlari V asrda hatto Seylonda ham mavjud bo‘lgan. Mazkur omil sug‘diy tilning Seylon mahalliy madaniyatiga ta’sirini ifodalaydi [26. –B.75].

Buyuq ipak yo‘lining sharqiy qism bo‘ylab sug‘d manzilgohlari tashkil qilingan bo‘lib, ular IX-X asrga qadar mavjud bo‘lgan. Ayniqsa, Xitoyning Chanan, Lanchjou, Dunxuan kabi shaharlarida sug‘dliklarning ta’siri kuchli bo‘lgan. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Shansi va Ninsya viloyatlarida ham sug‘dliklarning ijtimoiy-madaniy hayotga ta’sir aniqlangan. Miloddan avvalgi II asrda tashkil etilgan Guyuan (Ninsiya viloyati) shahri qadimgi davrlarda Dayuan deb nomlangan. Buyuk Ipak yo‘lining asosiy yo‘nalishida joylashgan mazkur shahar G‘arb va Sharq o‘rtasidagi madaniy almashinuvda katta rol o‘ynagan. Guyuandan sug‘dliklarining qabrlari, yo‘laklar, devoriy rasmlar topilgan bo‘lib shahar ijtimoiy hayotiga ko‘rsatgan ta’siri aks etgan. Masalan, sug‘dliklar Guyuanga III-V asrlar oralig‘ida Shahrisabzdan kelib savdoda asosiy o‘ringa chiqqanliklari hamda asosan ularning ko‘pchiligi Shi familyasida ekanligi yozib qoldirilgan [22. –B.133-139].

Shuningdek, sug‘d tili hozirigi Rossiya Federatsiyasi hududidagi ko‘pgina etnik xalqlarning ijtimoiy-madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Sug‘dliklar ijtiomoiy-madaniy ta’siri ko‘rsatgan xalqlardan biri Ural boshqirdlari bo‘lib, sug‘ddan keltirilgan sug‘d ipak matolari, zargarlik buyumlari, kulolchilik buyumlari, shuningdek shaharlarning qurilishida ishlatiladigan mahsulotlarni topilganligi fikrimizni asoslaydi [14.215-218]. Shuningdek, Amur va Primore mintaqalaridagi xalqlar ijtimoiy-hayotida sug‘d-turk unsurlari ta’sir qilgan. Buni biz arxeologik topilmalar natijasida topilgan kamarlardagi turk-sug‘d urfi tarqalgan hududlarga xos bo‘lgan bezaklar orqali ko‘rishimiz mumkin[5. –B.115].

V.I. Raspopova, uzoqdagi hunarmandchilik buyumlarining o‘xshashligi asosida sug‘diklarning ijtimoiy-madaniy ta’sirini quyidagicha asoslaydi: “Karpat havzasi hududlarida O‘rta Osiyodagi hunarmandchilik namunalariga o‘xshash qo‘l san’atlari topilishi, bu yerda Sug‘ddan kelgan kichik hunarmandlar guruhining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin” [17. –B.122]. Sug‘dlik

ishbilarmon hunarmandlar va savdogarlar o‘zlarining vatanlaridan juda olis joylarda joylashganlar: Xitoy, Tuva, Mo‘g‘uliston kabi hududlarga ham ta’sir qilganligi bilan fikrini asoslaydi.

Arxeologik va yozma manbalar xalqaro madaniy jarayonlarda sug‘diylarning sezilarli roli bo‘lganligni ko‘rsatadi. Biziningcha, bu jarayonlarga birinchi navbatda sug‘d tili ta’sir etgan bo‘lsa, ikkinchidan yirik hunarmandchilik markazlariga aylangan Sug‘d shaharlarining rivojiga bog‘liq. Aynan yirik shaharlar kichik shaharlar va aholi manzilgohlarining ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotiga ta’sir ko‘rsatgan. Umuman olganda insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyotida doimo rivojlangan madaniyat va til boshqa madaniyat va tillar rivoji uchun asosiy manba vazifasini bajarib kelgan. Yuqoridagi tahlillarimiz asosida Yevroosiyo materigining g‘arbiy qismi uchun bunday madaniy manbalar Vizantiya, Eron, Sug‘d, sharqda - Xitoy, Eron, Sug‘d bo‘lgan degan xulosa qilishimiz mukin.

Xulosa qilib aytganda, sug‘diy til milloddan avvalgi II asrdan to milodiy IX asrgacha bo‘lgan mingyildan ortiq vaqt xalqaro til vazifasini bajargan. Sug‘diy tildagi manbalarning keng geografik mintaqada topilishi ham yuqoridagi fikrimizni asoslaydi. Savdogarlar, diplomatik elchilar, missionerlarning faoliyatida sug‘diy tilning xalqaro ahamiyati arxeologik va yozma manbalar o‘z ifodasini topgan. Sug‘diy tildagi leksemalarning o‘zbek tilining rivojida ham ko‘rishimiz mumkinligi tilning hozirgi kunda ham madaniy birlashtirishdagi o‘rnini ko‘rsatadi.

## Adabiyotlar

1. Алексанян, А. Г.Манихейство в Китае (опыт историко-философского исследования). – М.: ИДВ РАН, 2008. – С.76.
2. Альбаум Л .И . Живопись Афрасиаба. – Ташкент, 1975. – С. 74-75.
3. Бичурин Н. Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. М.- Л., 1950. Т. I. С. 216.; http://www.vostlit.info/Texts/Dokumenty/china.htm (мурожаат этилган сана 07.07.2020)
4. Васильев Д.Д. О распространении грамотности у древних тюрков // Средневековый Восток. История. Культура. Источниковедение. – М.: Наука,1980. – С. 53- 59.
5. Васильев Ю.М. Покровская культура Приамурья (Ix–xIII вв. н.э.) // Российский Дальний Восток в древности и средневековье: открытия, проблемы, гипотезы. Владивосток, 2005. – С.115.
6. Гумилев Л.Н. Древние тюрки. – М.: Наука, 1967. – С.198-199.
7. Кара.Д. Книги монгольских кочевников. – М., 1972. – С. 145.
8. Кляшторный С.Г. Памятники древнетюркской письменности и этнокультурная история Центральной Азии. СПб.: Наука, 2006. – С.120-123.
9. Кляшторный С.Г., Савинов Д.Г. Древнетюркские этнополитические объединения и их роль в этногенезе Средней Азии и Казахстана // Проблемы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии и Казахстана. Вып. 1. М., 1990. – С. 98-104.
10. Кызласов И.Л. Рунические письменности Евразийских степей. М.: Восточная литература, 1994. – С.89-91.
11. М.Н. Боголюбов и О.И. Смирнова, Согдийские документы с горы Муг, 1963. Вып. Ш. Хозяйственные документы Л. 1963. – С.34-39.
12. Массон В.М. Исторические реконструкции в археологии. – Фрунзе: Илим, 1990. – С.35.
13. Мирбобоева Т.Х. Вклад согда и согдийцев в Великом шелковом пути:ВШП:Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Худжанд, 1997. – С.25.
14. Мажитов Н.А., Султанова А.Н. История Башкортостана. Древность. Средневековье. – Уфа, 2010. – С.215-218.
15. Медведев В.Е. Приамурье в конце I – начале II тысячелетия (чжурчжэньская эпоха). Новосибирск, 1986. – С.72.
16. О.И. Смирнова. Сводный каталог согдийских монет Бронза. –М., 1981. –С.45.
17. Распопова В.И. Согдийский город и кочевая степь // КСИА. 1970. Вып. 122.
18. Ртвеладзе Э.В. Великий Шелковый путь. – Ташкент, 1999. – С.105-116.
19. Сюань-цзан. Записки о западных странах [эпохи] Великой Тан (Да Тан си юй цзи). –М.: Восточная литература. 2012. –С.35.
20. Тугушева Л.Ю. Древнеуйгурский язик// Язики Мира. Тюркские язики. — М.: Индрик, 1997. - С. 57.
21. Ходжаев А. Великий Шелковый путь. – Ташкент, 2018. – С.27.
22. Чжао Сяоцзя. О памятниках согдийцев - эмигрантов по фамилии Ши 6-7 веков в китайском Гуюане // Актуальные проблемы Центральной Азии и Кавказа. – М.: Социум, 2015. – С.133-139.
23. Шавкунов Э.В. – Новосибирск, 1985. –С.49.

24. Шубинский,П.П. Очерки Бухары/ П.П.Шубинский// Исторический вестник. Год 13. Том XLIX.СПб.: Типография А.С.Суворина,1892. – С.118-142.
25. Benvenistein Textes Sogdiens edités, traduits et commentés.Paris.1940. – P.83-84.
26. Daffinà, "Sulla più antica diffusione del Buddismo nella Serindia e nell'Iran Orientale," 1975. – P.75.
27. Henning W. B. The Murder of the Magi // JRAS, 1945. - P.87-91
28. O.Kobzeva. Sogdian contribution to the development of international diplomacy and trade. The Great Sogdian Colonization of the Silk Road," International Relations: Politics, Economics, Law: Vol. 2018 : Iss. 3 ,. P.11.
29. Lieu S. N. C.Manichaeism in Mesopotamia & the Roman East.-Leiden, Boston: Brill, 1999. – P.156.
30. Sims-WilliamsN.Towards a New Edition of the Sogdian Ancient Letters//Proceedings of the Sogdians in China Conference. Apr. 23-25, Peking, 2004. – P.128.
31. Xe Su Lee. The Role of Uzbekistan as the cultural Route connecting to Korean peninsula (focused on the Historic Relations between Korea and Central Asian Turks) // Вклад Узбекистана в развитие исламской цивилизации. –Ташкент-Самарканд, 2007. – С. 365-369.

**UDK: 9 (575.1)**

# "KAN" FAMILIYASI VA UNING TARQALISHI XUSUSIDA

**B.S.G'oyibov**
*Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Muallif yozma manbalar va ilmiy adabiyotlarga tayangan holda *Kan* iborasining vujudga kelishi, mazmun, mohiyati va Xitoy hududlarida tarqalishi masalasini ochib berishga harakat qilgan. Sug'diy *knδ – kan* iborasi Sharqiy Turkistonda topilgan xristian, moniy, buddaviy matnlarda keng uchraydi. Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida ham bu so'z "shahar" nomi ma'nosini ifodalab kelgan. Dastlab toponimlarning bir qismi (Samar+qand, Tosh+kent, Kon+ibodom, Kan+duz, Kan+dahor va h.o.) sifatida ishlatilgan mazkur ibora, keyinchalik turli bosqinlar va savdo munosabatlari bilan Xitoy hududiga tarqalgan hamda "samarqandlik" ma'nosini ifodalash uchun ishlatilgan. Tadqiqotda ushbu iboraning kishi ismlaridan aks etishiga e'tibor qaratilib, *Kan* familiyasining ilk o'rta asrlar Sug'd va Xitoy tarixini o'rganishda onomastik ma'lumot sifatida muhimligi ko'rsatib berilgan. Bundan tashqari, maqolada *Kan* familiyasining Xitoy hududlariga tarqalishining tarixiy asoslari va bunga ta'sir ko'rsatgan omillar tahlil qilingan. Muallif mazkur iboraning turli manbalarda uchrashi va uning Samarqand bilan bog'liqligiga doir bir qator mustaqil fikrni ilgari surgan.

**Kalit so'zlar.** Sug'd, ilk o'rta asrlar, Sharqiy Turkiston, Loyang, Dunxuan, Samarqand, "shahar", onomastika, savdo aloqalari, Buyuk ipak yo'li.

## Об распостранении фамилии "Кан"

**Аннотация.** Автор стремился выяснить происхождение, содержание, значение и распространение выражения «Кан» и его распространение в Китае, основываясь на письменных источниках и научной литературе. Согдийское слово *knδ - kan* наиболее часто встречается в христианских, монихейских, буддийских текстах Восточного Туркестана. В согдийских документах с горы Муг это слово также означает «город». Эта фраза, первоначально использовавшаяся как часть топонимов (Самар + канд, Тош + кент, Кон + ибодом, Кан + Дуз, Кан + Дахор и т. д.), Позже распространилась в Китай через различные вторжения и торговые отношения, использовавшиеся для выражения что означает «самаркандский». В исследовании подчеркивается использование этого выражения в именах людей, подчеркивается важность имени Кана как ономастической ссылки в изучении раннесредневековой истории Согда и Китая. Кроме того, в статье анализируются исторические основы распространения имени *Кан* в Китае и факторы, которые на него повлияли. Автор выдвинул ряд самостоятельных представлений об использовании этого словосочетания в различных источниках и его связи с Самаркандом.

**Ключевые слова:** Согд, раннее средневековье, Восточный Туркестан, Лоян, Дуньхуан, Самарканд, «город», ономастика, торговые отношения, Великий шелковый путь.

## About surname "Kahn" and its spreading

**Abstract.** The author has sought to elucidate the origins, content, significance, and distribution of the expression *Kahn* and its spreading in China, based on written sources and scholarly literature. The Sogdian word *knδ – kan* is most common in Christian, Monixian, Buddhist texts found in East Turkestan. In the inscriptions of the Mugh al mountain inscriptions, this word also means "city". This phrase, originally used as a part of toponyms (Samar + kand, Tosh + kent, Kohn + ibodom, Kan + duz, Kan + dahor, etc.), later spread to China through various invasions and trade relations, used for expression the meaning "samarkandian". The study emphasizes the use of this expression the person names, highlighting the importance of the Kahn's name as an onomastic reference in the study of early medieval Sogd and Chinese history. In addition, the article analyzes the historical basis for the distribution of the *Kahn* name in China and the factors that influenced it. The author put forward a number of independent ideas about the use of this phrase in various sources and its connection with Samarkand.

**Keywords:** Sogd, Early Middle Ages, East Turkestan, Loyang, Dunhuang, Samarkand, "city", onomastics, trade relations, Great Silk Road.

Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida joylashgan Sug'd qadimgi yozma manbalarda Sugda yoki Suguda (qadimgi forsiy), *Sugda* va *Suxda* ("Avesto"), *šu-ug-da* (elam), *su-ug-du* (akkad) tarzida qayd etilgan. "Avesto" kitobida "Gava o'lkasida sug'diylar yashaydi" deb keltiriladi. Antik davr manbalarida ham Sogdiane o'lkasi (Sug'd) va sogdianoi ahli (sug'diy) haqida tafsilotlar keltirilib, sug'diylarning bu hududga kelib joylashuvi tarixi mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi va I ming yillik boshlariga daxldor [1].

Sug'd tarixini tadqiq etishdagi muhim masalalardan biri ba'zi sug'diy atamalarning tahlili va ularning tarqalishi masalasi hisoblanadi. Shunday iboralardan biri *knδ*(*h*) *– Kan* (yoki "Qand") sug'diy atamasi bo'lib, mazkur ibora bir qator toponimlar tarkibidagi komponent sifatida uchraydi. *knδh* – "shahar" yoki *kt* – "xona (uy)" ma'nolarini ifodalab kelgan. Ushbu komponent *kan, kent, kant, qand, kam* shakllarida ham uchraydi [2].

*knδ* (sug'diy) *kaṁθ* (xristian), *kanthā, kaṃtha, katha* (Xo'tan) shakllarida uchraydigan mazkur iboraning knδshakli (*čyn'nčknδ, sm'rknδ*) manbalarda ancha keng tarqargan Masalan, "Samarqand" toponimining ikkinchi qismini tashkil etgan "Kan" yoki "Qand" sug'diy tilda *knδ*(*h*) (*kand / t*) – شهر "shahar" ma'nosini ifodalab kelgan [3]. Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida ham bu so'z aynan "shahar" nomi (Konibodom shahri) ma'nosini ifodalagan. "Samarqand" toponimi esa sug'diy hujjatlarda *sm'rknδ* – Smarkand shaklida uchraydi [4]. IX-X asrlarga kelib sug'diy til unutila borgan va uning o'rniga kelgan forsiy (dariy) tilida *Smrakand* so'zi Samarqandga aylangan.

Mahmud Koshg'ariy "Samarqand" toponimini turkiy til asosida *samiz+kand* – "semiz (boy) shahar" deb keltiradi [5]. Toponimning birinchi qismi "semiz", "boy" ma'nosida talqin etilgan. Ba'zi tadqiqotlarda yevropalik olimlarning ma'lumotlariga asoslangan holda, bu nom qadimdan qolgan, sanskritcha (qadimgi hindcha) *samarya* so'ziga yaqin bo'lib, "yig'ilish, yig'in", "mashvarat" so'zidan kelib chiqqan deb izohlanadi [6]. Lekin bu fikr toponimni sun'iy ta'riflash bo'lib, asl ma'nodan yiroq. "Samarqand" toponimining birinchi qismi *s'm''r – samar* so'zisug'diy asosga ega bo'lib, "oraliq", "chegara" ma'nosini ifodalash uchun ishlatilganligi ehtimoli yuqori. Ushbu ma'no esa Samarqandning geografik holatiga ham yaqin [7]. M.Is'hoqovning fikriga ko'ra, *knδ – kent* "qazilgan", "o'yiq" ma'nosidagi so'zdir.

Ma'lumki, ilk o'rta asrlarda shaharlar devor bilan o'ralgan. Shaharning birinchi xususiyati bu mudofaa devori bilan o'ralganlik bo'lib, shahar devorlari "Kanpir (Kan+pir) devor" deyilgan. Bu so'z qo'sh o'zakli bo'lib uning birinchi qismidagi *kan* – "o'yiq joy", "qazilgan", "o'yib olingan" (shahar mudofaa inshootlarining handaq bilan o'ralgan qismiga nisbatan ishlatilgan) degan ma'noni anglatadi. Masalan, o'zbek tilidagi "kon" (foydali qazilmalar), "kom"(tanglay), "kan-al" (ariq), "kan-dagar" (hunar) kabi so'zlar ham ana shu so'z asosida shakllangan [8]. Masalan, Kan komponentining kelib chiqishiga asos bo'lgan *kām / käm* iborasi esa *Šāfur-kām* – Shofurkom, *Kāmi-šārγ* – Komi Sharg' kabi bir necha gidronimlarning tarkibiy qismi sifatida "kanal" ma'nosini ifodalash uchun ham ishlatilgan.Ushbu ma'no shaharlarning joylashgan o'rniga qarab ham ishlatilgan [9]. Masalan, Qandahor, Qandiza va h.k.

"Kan" so'zi davr o'tgani sayin tildagi tovush o'zgarishi natijasida *qan, qand, ken, kent* kabi shakllarga kirgan va o'zgargan [10]. *Kanpir* so'zining ikkinchi qismdagi *pr* – "pir" so'zi esa sug'diycha *p'u* – "himoyalamoq" degan ma'nolarni ifodalash uchun ishlatilgan [11]. "Piri ustoz", "pir", "piri murud" so'zlarining zamirida "himoyachi" ma'nosi anglashiladi (shaharni himoyalab turgan devorga nisbatan ishlatilgan). Ushbu ikki *kan+pir* so'zlarining qo'shiluvidan "shaharning handaq bilan o'ralgan himoyasi", ya'ni, umumiy ma'noda "devori" ma'nosi kelib chiqadi.

Sug‘dshunos V.A.Livshits *kat* so‘zi bilan *kand* so‘zining genezisi bir, tafovut shevaviy talaffuz oqibatida bo‘lib, sug‘diy hujjatlarda *Kan* – “shahar” ma’nosini ifodalab keladi degan fikrni bildirish orqali buni izohlashga harakat qiladi [12]. Darhaqiqat *Kan* toponimi *Kat* ko‘rinishda ham shahar nomini ifodalaganligi Xorazmning qadimgi poytaxti (Kat) nomlanishida yaqqol ko‘rinadi. *Kan* komponenti bilan yasalgan boshqa toponimlarda ham ayni ma’no anglashiladi. Ustrushonaning qadimiy shahri bo‘lgan Bunjikat toponimidagi *kat* komponentining kelib chiqishini A.R.Ayubov Sibir va Oltoyda yashagan oriy qabilalari bilan bog‘laydi. Unga ko‘ra, bu ibora din bilan bog‘liq bo‘lib, unga ko‘ra, sovuq havoda vafot etgan qabiladoshlarini ular to issiq kunlar kelguniga qadar *kada* (kede)da saqlashgan. *Kada* yoki *kata* ushbu qabila tilida “uy”, “xona” ma’nosini anglatgan [13].

Markaziy Osiyoda keng tarqalgan va keyinchalik “qishloq”, “shahar”, “ovul”, “qal’a” kabi ma’nolarni ifodalash uchun ishlatilgan *kat* (kad) atamasi, ibtidoiy *kad, kat* yoki *kata* so‘zidan kelib chiqqanligi ehtimoli yo‘q emas. Lekin bu iborani oriy qabilalari bilan bog‘lash qo‘shimcha dalillarga muhtoj. Shunday ekan *kent* – “shahar” ma’nosidagi ushbu so‘z kat iborasining dialektal shakli hisoblanadi. Mahmud Koshg‘ariyning *kent* atamasini turkiy deb hisoblab, turkiy so‘zlar lug‘atida keltirishiga sabab ham kent so‘zining dastlab sug‘diy aholi orasida ishlatilib, so‘ngra turkiy aholiga o‘tganligi deb hisoblash yuqoridagi asoslardan ma’lum bo‘ladi.

Xitoy manbasi “Tundyan”da Samarqand davlatining poytaxti Sabaoshuy daryosi (Siyob daryosi) bo‘yidagi *Aludi* shahri deb keltiriladi. “Aludi” toponimining hozirgi paytda qayerga to‘g‘ri kelishi masalasi bahsli hisoblanadi. A.Xo‘jayevning fikricha, “Aludi” Samarqand hukmdorlarining qarorgohi – “O‘rda” (“Markaz” yoki “Qal’a”)ning xitoycha transkripsiyasidir [14]. “Aludi” toponimini turkiy “o‘rda” bilan solishtirishdan ko‘ra, sug‘diy *diz* – “qal’a” so‘zi bilan tugaydigan joy nomi deb talqin qilish ham mumkin. P.B.Lurye ma’lumotlariga ko‘ra, *diz, diza, dēza, dezak* so‘zlari “istehkom”, “qal’a” ma’nolarini anglatadi [15]. Masalan, Kan+diza, Chokar+diza, Diz+ak va h.k. Ushbu iborani “qal’a” ma’nosida talqin etuvchi tarafdorlar ko‘proq.

Kan iborasi masalasiga qaytsak, Kan iborasi “shahar” ma’nosini ifodalash bilan birga “samarqandlik” tushunchasini ifodalash uchun ishlatilgan o‘ziga xos “familiya” ham bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Xitoy yilnomalarida keltirilishicha, Samarqand hukmdorlari ismiga ham *Kan* familiyasi qo‘shib ishlatilganligi kuzatiladi. Masalan, G‘arbiy turk xoqoni Tardu xoqon (567 – 600) o‘z qizini Kan Shifubi ismli Samarqand hukmdoriga turmushga berganligi xitoy yilnomalarida qayd etiladi [16].

Mazkur familiya asosan Xitoy manbalarida “samarqanlik”, “Samarqanddan”, “Samarqand fuqarosi” ma’nolarini ifodalashda ishlatilgan. *Kan* familiyasining Xitoy hududiga tarqalishi asosan sug‘diylarning Xitoyga ko‘chib borishi bilan bog‘liq.

Sug‘diylarning o‘z yurtini tashlab Xitoy va Sharqiy Turkiston hududlariga kirib borishi asosan mil. avv. IV asrda yuz berib, bunga asosiy sabab Sug‘d hududiga makedoniyalik Aleksandrning yurishlari sabab bo‘lgan [17]. Keyingi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar ham mazkur fikrni tasdiqlaydi [18].

Xitoy yilnomalarida keltirishicha, *Kan* (Samarqand), *Mi* (Maymurg‘), *Shi* (Kesh) va boshqa bir qator “Xu mamlakatlari”dan savdogarlar Xitoyga borib, bu mamlakatdagi Gansu, Dunxuan (sug‘diylar eng ko‘p joylashgan viloyat) o‘lkalarida [19] va Sharqiy Turkistondagi Turfon, Kucha, Koshg‘ar, Xo‘tan shaharlarida bir necha savdo koloniyalarini barpo etishgan [20]. Xitoyda o‘z savdo manzilgohlarini barpo etishga uringan Sug‘ddan kelgan samarqandliklar, keshliklar, maymurg‘liklar bitta mavzeda istiqomat qilishsa-da, o‘zlari mansub bo‘lgan hukmdorlik fuqarosi bilan qo‘shni bo‘lishni afzal bilishgan va shu asosda sug‘diylar jamoalari birgalikda yashaydigan manzil qishloqlarni bunyod etishga urinishgan.

Sug‘diylarning Xitoy va Sharqiy Turkiston bo‘ylab joylashuvi Buyuk ipak yo‘lining vujudga kelishi bilan yanada jonlandi. Natijada Tarim vohasi, Lobnor atrofi va Gansuda, Ordos va Mo‘g‘ulistonda Sug‘d manzilgohlari vujudga kelgan. Bu esa Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab sug‘diy til va yozuvning ahamiyatining oshishiga olib kelgan [21]. Mazkur hududlarda o‘nlab sug‘diylar yashaydigan qishloqlar vujudga kelgan [22].

Dunxuan, Gansu va Sharqiy Turkistondan topilgan milodiy III-VII asrlarga taalluqli sug‘diy hujjatlar ham muammoning mohiyatini anglashda yordam beradi. Xususan, “Ko‘hna xatlar” (hozirda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda) deb yuritiluvchi Xitoy devorining qorovul bekatidan topilgan (Dunxuan) sug‘diy bitiklarda Samarqand mamlakatidan Turfon va undan so‘ng Xitoyga borgan savdogarlar jamoasining savdo marshrutlari hamda mazkur mintaqalarda samarqandlik sug‘diylarning alohida manzilgohlar barpo etganliklari haqida gap boradi [23].

IV asrda dastlabki moniy ibodatxonalari – monastirlari paydo bo‘ldi. Ta’limotning VI asrda turkiylar orasidagi targ‘ibotida samarqandlik Kan Syuan – Chan Min (“Mangu yog‘du”)ning munosib hissasi bor edi. Sug‘diylar ta’sirida Moniy ta’limoti Xitoyga yoyilib, 584-yilda Xitoy sharqida moniy jamoalarining ilk ibodatxonasi qurildi. 694-yilda esa bu ta’limot poytaxt Chan’angacha yetib bordi [24].

Sharqiy Turkistondan topilgan 639-yilga taalluqli sug‘diy hujjatda esa (Chinanchkand / Turfon) oldi-sotdida ishtirok etib, hujjat tuzilishida guvohlik qilgan sug‘diy etnos vakillar – samarqandlik, kushoniyalik shaxslar nomi birgalikda uchraydi. Chinonchkand bozorida samarqandlik savdogar *Vaxshubirt To‘dak* o‘g‘lining va xitoylik rohib *Yon-Siyon Uta* o‘g‘liga *Upachah* ismli cho‘rini sotishiga bag‘ishlangan. Unda *Upachah*ning turkiy va sug‘diylar yurti – Turk xoqonligi tasarrufidagi hudud – Turkistondan ekanligi alohida ta’kidlangan [25]. Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinadiki, ilk o‘rta asrlarga qadar o‘tgan ming yillik bir davr mobaynida sug‘diylar Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab Turfon va Xitoyga qadar bo‘lgan hududlarda o‘z koloniyalarini barpo etib, yangiliklarning hamda madaniy ilg‘or alomatlarning tashuvchilari bo‘lishgan.

K.Baykapovaning fikricha, V-VII asrlarda Talos vodiysi Chu, Ili daryolarida aholisi mutloq sug‘diylardan iborat bo‘lgan 300 dan ziyod shahar va aholi manzilgohlari (qishloq) vujudga kelgan. Faqatgina, Chu vodiysida VI-VIII asrlarda asosiy aholisi sug‘diylar bo‘lgan 18 ta yirik shahar va ko‘plab kichik manzilgohlar bo‘lgan [26].

Sug‘diylarning VIII asr o‘rtalarida Dunxuan hududida bo‘ylab tarqalishi xususida muhim ma’lumotlar Xokkaydo universiteti professori Ikeda Onning xitoy qo‘lyozmalarining tahlili natijasida oydinlashdi. L.I.Chiguyevskiyning Ikeda Onga tayanib keltirishicha, birgina Sunxuasyan qishlog‘idagi umumiy aholining 236 nafarini erkaklar tashkil etib, ular 22 xil familiyada bo‘lishgan. Mazkur familiyalarning yarmidan ko‘pi (60 % taxminan) 4 ta tarmoqqa, jumladan, Samarqand (*Kan*, 48 nafar), Buxoro (*An,* 39 nafar), Toshkent (*Shi,* 31 nafar), Kabudon (*Sao,* 30 nafar) (jami: 148 nafar) hukmdorliklariga mansub familiyalar hisoblanadi. Shuningdek, hujjatlarda Sug‘d va Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalariga mansub familiyalar ham qayd etiladi. Masalan, Toxaristondan (*Lo*) 23 nafar, Kushoniyadan (*Xe*) 20 nafar va Maymurg‘dan (*Mi*) 20 nafar shaxs familiyasi manbalarda tilgan olingan. Ikeda On tuzgan jadvalga ko‘ra, otasi sug‘diy familiyada, o‘g‘il xitoycha yoki aksincha holatlar ham mavjud bo‘lganligi keltiriladi. Shuningdek, bir ota-onaning farzandlari ham sug‘diy va xitoycha familiyada bo‘lgan holatlar ham mavjud [27]. Bir so‘z bilan aytganda mazkur mintaqada har ½ biri sug‘diy familiyali kishi bo‘lgan.

Xitoyning Sunxuasyan hududi aholisining ro‘yxati aks etgan “Majburiyatlar kitobi”da nomi zikr etilgan eng yoshi katta fuqaro 66 yoshli *Kan Nu-szi* bo‘lgan. *Kan Nu-szi* taxminan 635-yilda Samarqandda tug‘ilgan bo‘lib, u Xitoyga borgandan keyingina ushbu ismni olgan [28]. Yuqoridagi ma’lumotlar ko‘rsatadiki, VII-VIII asrlarda Dunxuan va unga qo‘shni mintaqalardagi aholi manzilgohlari Sug‘ddan, asosan, Samarqanddan borganlar hisobiga shakllangan. Bu esa “Ko‘hna xatlar”da keltirilgan ma’lumotlar asosida o‘z tasdig‘ini topadi [29].

Turfondagi sug‘diylar Samarqanddagi o‘zlarining qavmdoshlari bilan doimiy aloqada bo‘lib turganlar. Bu haqda taxminan 313-yillarda bitilgan “Ko‘hna xatlar”da ham ma’lumot keltirilgan bo‘lib, maktub Turfondan Samarqandga jo‘natilgan, ammo manziliga yetib kelmagan. “Ko‘hna xatlar” sanasi eronshunos V.B.Henning tomonidan aniqlangan [30] bo‘lib, bunga asos sifatida olim 307 yilda Ye va 312 yilda Loyang shaharlarining egallanishini keltiradi [31]. Ushbu fikr F.Grene va N.Sims-Vilyams tomonidan ham qo‘llab-quvvatlangan [32]. Y.Xarmatta esa ushbu hujjatlarning sanasi milodiy 196-yilga daxldor deb ko‘rsatishni taklif etib, bu sanani yuz yildan ortiqroq muddatga qadimiylashtirishga harakat qiladi [33]. Bizningcha, V.B.Henning talqini to‘g‘ri bo‘lib, unda xunlarning hujumlari va Loyangning yong‘in ostida qolishi bilan bog‘liq tarixiy jarayon haqida gap boradi. Bu esa o‘sha zamon tarixiy jarayonlariga mos keladi.

“Ko‘hna xatlar”ning birinchisi Minayning onasi Chatisga o‘z ahvoli haqida, ikkinchisida Nanay Kanakning Varzakka nomasi, uchinchisida Nanaydotga Shayon ismli qizning maktubi va beshinchisi savdogar Aspandotning Frixvatavga yozgan xati edi [34]. Dunxuandan Samarqandga jo‘natilish uchun yozilgan maktublarda sug‘diy savdogarlar jamoasi (qaysi shahar ekanligi nomi maktubdan o‘chib ketgan), Loyangdagi sug‘diylar, Samarqand shahri va Dunxuandan Sug‘dga boradigan savdo yo‘nalishlariga doir ma’lumotlar keltiriladi [35].

Dunxuan viloyatidan topilgan R-3559 raqamli sug‘diy tilda yozilgan hujjatda keltirilishicha, ushbu viloyatda jami 13 ta qishloq bo‘lib, ulardan biri Sungxua deb atalgan. Mazkur hududda Markaziy Osiyo vakillarini ko‘plab uchratish mumkin bo‘lgan. Masalan, *Sao* davlatidan kelgan *Sao Syaosyao, Sao Tulichji*; *Kan* (Samarqand) davlatidan kelgan *Kang Fu*. ... [36].

Ta’kidlash lozimki, Xitoy yilnomalarida Kang iyeroglifi Samarqand toponimining qisqartirilgan xitoycha transkripsiyasi ekanligi keltiriladi. Ikkinchi iyeroglif *guo* “davlat” yoki “hukmdorlik” ma’nosini anglatadi. Qadimgi xitoyliklar Samarqanddan kelgan kishilarni shuning uchun ham hukmdorlik nomidan kelib chiqib *Kan* familiyasi bilan atashgan [37].

Xitoyshunos A.Xo‘jayevning ta’kidlashicha, ilk o‘rta asrlarda Tan imperiyasining tashqi dushman muhofazasini qaytarishda yordam berganligi uchun Uyg‘ur xoqonligiga (745 – 840) berilgan savdo imtiyozlaridan sug‘diylar ham foydalanib, o‘zlarini uyg‘ur deb tanishtirishgan va shu tariqa *Kan* familiyasi

Sharqiy Turkistonga ham keng tarqalgan. Koʻplab holatlarda samarqandlik sugʻdiylar uygʻur ayollarga uylangan. Loyang shahrida samarqandlik kishiga mansub qabrlar oʻrganilganda marhumlarning ismlari *Kang Mojya* va yana bir qabrda dafn qilingan (647 yil) kishining ismi *Kang Danung* ekanligi aniqlangan [38]. Ismlarga "Kang"ni qoʻshib ishlatish samarqandlik ekanligini bildirish uchun xizmat qilgan.

Sugʻdiylar Buyuk ipak yoʻlining sharqidagi savdo aloqalarida ham muhim rol oʻynagan. Vey sulolasi tarixining 102 bobida "Sugʻd davlati savdogarlari ilgari koʻproq Lyang zaminiga kelib tijorat qilar edi. Guzangda ularni koʻp uchratish mumkin edi" deb yozilgan. Tarixiy Lyang va Guzang (hozirgi Uvey) shaharlari qadimgi Xesi yoʻlagida joylashgan yirik savdo markazlari boʻlgan [39].

Bunga yana bir misol. Turk xoqonligi Xitoyning Suy sulolasini magʻlub etgach, sugʻdiylar Kumul shahri yaqinidagi Xami viloyatini nazoratga olib, bu yerda xoqonlik boshqaruvini joriy qilishgan. Samarqandlik *Kan Su-mi* Ordosdagi Beyan okrugi gubernatori lavozimiga tayinlangani, ilk oʻrta asrlarda Turfon vohasi samarqandlik sugʻdiylarning oʻziga xos oʻringa ega ekanliklaridan dalolat beradi. Sugʻdshunos A.Otaxoʻjayevning taʼkidlashicha, mazkur jarayon Sugʻddan muhojirlarning kelishini kuchaytirgan. Jumladan, VII asrning ikkinchi yarmida samarqandlik *Kan Yan-tyan* (manbada "Kan davlatidan buyuk yoʻlboshchi" deb keltiriladi) guruhi Tarim soyi sharqdagi Lob Nor koʻli atrofidagi tashlandiq shaharga oʻrnashib, bu yerda uchta qishloq bunyod etgan. Ulardan biri Putaochen – "Uzumzor" deb atalgan. VII asrdan soʻng sugʻdiylarning bu hududdagi nufuzi oshib borgan. Buni Dunxuandan topilgan hujjatlar tasdiqlaydi. Ularda VII–VIII asrlarda Lob Nor koʻli janubida toʻrtta sugʻdiylar shahri boʻlganligi qayd etilgan [40].

Soʻnggi yillarda Datang viloyatida topilgan Shimoliy Vey sulolasi davriga oid sugʻdiylar madaniyatiga xos buyumlarning, jumladan, kumush va tilladan yasalgan idish tovoqlarning koʻplab topilganligining guvohi boʻlish mumkin. Mazkur topilmalarning talqini natijasida maʼlum boʻladiki, Xitoyda sugʻdiylar nafaqat savdo ishlari balki maʼmuriy va harbiy ishlarga ham jalb etilgan. Mansabdorlar orasida *Xuchjifu Kangji* kabi 20 dan ortiq samarqandliklar boʻlganligi keltiriladi. Taʼkidlash lozimki, Shimoliy Vey sulolasi Loyang shahrini oʻz davlatlarining poytaxti etib belgilashgan. Shu bois Markaziy va Janubiy Osiyodan kelganlar, jumladan, sugʻdiylar ham mazkur shaharga joylashishgan va Loyangda zardushtiy ibodatxonalarini qurishda jonbozlik koʻrsatishgan [41].

Xullas, dastlab Markaziy Sugʻd – "Samarqand" toponimining bir qismini ifodalagan *Kan* iborasi keyinchalik "samarqandlik" maʼnosida Xitoyda keng tarqalgan. Shu tarzda "Kan" atamasi ham joy nomi, ham Samarqand sulolasi nomi sifatida Xitoy manbalaridan joy olgan. Bu Xitoydan topilgan *Kan* familiyasi keltirilgan sugʻdiy hujjatlarda va qabr toshlarida keltirilganligi bilan asoslanadi. Bu esa hozirda ham Xitoyda *Kan* familiyasida boʻlganlarning kelib chiqishi Samarqand bilan bogʻliqligi ehtimoli yuqoriligidan dalolat beradi.

**Qisqartmalar:**

ИВЛ – Издательство восточной литературы
ППВ – Писменные памятники Востока
СДГМ – Согдийские документы с горы Муг
СНВ – Страны и народы Востока
СС – Согдийский сборник
ЎМЭ – Ўзбекистон миллий энциклопедияси
BSOAS – Bulleten of the School of Oriental (and African) Studies
St Ir – Studia Iranica
TTK – Türk Tarih Kurumu

## Adabiyotlar

1. Пьянков И.В. Средняя Азия в античной географической традиции. Источниковедческий анализ. – Москва: ИВЛ РАН, 1997. – С. 342.
2. Лурье П. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии: Дисс. … канд. филол. наук. – СПб.: 2004. – С. 88.
3. Gharib B. Sogdian Distionary. Sogdian-Persian-English. – Teheran: Farhangan Publications, 1995, XXLII. – P. 190.
4. Согдийские документы с горы Муг. Вып. II (СДГМ II) / Юридические документы и письма / Чтение, перевод и комментарии В.А. Лившица. – М.: ИВЛ, 1962. – С. 79, 111.
5. Махмуд ал-Кашгари. Dūвāн Лугāт ат-Турк / перевод, предисловие и комментарии З.А.М.Ауэзовой. Индексы составлены Р.Эрмерсом. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005. С. 852.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: ЎМЭ, 2004. – Том 8. – Б. 458.

7. Gharib B. Sogdian Distionary. ... – P. 351.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: ЎМЭ, 2004. – Том 8. – Б. 439.
9. Лурье П. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии: ... – С. 181.
10. Lurje P.B. The element – *kath* / *kand* in the place names of Transoxiana // ST. 32, fascicule 2, 2003. P. 185-212.
11. СДГМ II. – С. 206.
12. СДГМ II. – С. 89-90.
13. Аюбов А.Р. Топонимы Уструшаны: истоки их происхождения и значения. – СПб.: 2009. С. 32-48.
14. Ходжаев А. Сведения древнекитайских путешественников о Самарканде // Цивилизация и культура Центральной Азии в единстве и многообразие. 2009 г. 7-8 сентябрь. – Самарканд: 2009. – С. 142-144.
15. Лурье П. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии: Дисс. … канд. филол. наук. – СПб.: 2004. – С. 111.
16. Бичурин Н.Я. Собрание сведений. ... II. – С. 311; Ходжаев А. Сведения китайских источников о государстве Самарканд в V-VII вв. / СС. Выпуск 2. Редактор Шамсиддин Камолиддин. LAP Lambert Academic Publishing, 2015. – С. 13.
17. Чигуевский Л.И. Новые материалы к истории согдийской колонии в районе Дуньхуана / СНВ. Х. – Москва: Наука, 1971. – С. 147.
18. Рахимов Н.Т. Согдийская колонизация: история изучения и новые данные / НОМАИ ДОНИШГОҲ. УЧЕНЫЕ ЗАПИСКИ. SCIETIFIC NOTES. 2016. №2 (47). – С. 32.
19. Mori M. Soğdlularin Orta Asya'daki Faaliyetleri. TTK, Belleten, Ocak. – Ankara: 1983. – S. 341-345.
20. Хўжаев А. Хитой манбаларида суғдларга оид айрим маълумотлар. ... – Б. 57-58.
21. Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. – Ташкент: ART-FLEX, 2010. – Б. 8-10.
22. Зуев Ю.А. Китайские известия о Суябе // Изв. АН Казахской ССР. – Алма-Ата, 1960. – Вып. 3 (14). – С. 19.
23. Ртвеладзе Э.В. Великий шёлковый путь. Энциклопедический справочник. – Ташкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1999. – С . 107-112.
24. Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. ... – Б. 56.
25. Vaissière de la E. Sogdian traders: a history. Translated by J. Ward. (Handbook of Oriental studies = Handbuch der Orientalistik. Section eight, Central Asia; v. 10). Brill, Leiden - Boston, 2005. – P. 170; Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. – Б. 23.
26. Байпаков К.М. Средневековая городская культура Южного Казахстана и Семиречья. – Алма-Ата: 1986. – С. 29-31.
27. Чигуевский Л.И. Новые материалы к истории согдийской колонии в районе Дуньхуана / СНВ. Х. – Москва: Наука, 1971. – С. 150.
28. Чигуевский Л.И. Новые материалы к истории согдийской колонии в районе Дуньхуана. ... – С. 153
29. Лившиц В.А. Согдийские «Старые письма» (I, III) // ППВ. – М.: 2008. – № 1 (8). – С. 173.
30. Henning W.B. The date of Sogdian Ancient Letters // BSOAS. – 1948. – vol. 12. – P. 601-615.
31. Лившиц В.А. Согдийские «Старые письма» (I, III) // ППВ. – М.: 2008. – № 1 (8). – С. 173.
32. Grenet F., Sims-Williams N. The Historical Context of the Sogdian Ancient Letters. Transition Periods Iranian History. Actes du Symposium de Fribourg-en-Brisgeu, St Ir. (22-25 мai 1985). – Cahier-Leuvan: 1987. – vol. 5. – P. 101-122.
33. Harmatta J. Sogdian Sources for the history of Preislamic Central Asia // Probegomena to the History of Preislamic Central Asia. – Budapest, 1979. – P 153-165.
34. Henning W.B. The date of Sogdian Ancient Letters // BSOAS. – 1948. – vol. 12. – P. 601-615.
35. Vaissière de la É. Sogdian traders:. ... – P. 43-45; Ртвеладзе Э.В. Великий шелковый путь / Энциклопедический справочник. – Ташкент: ЎМЭ, 1999. – С. 107-112.
36. Хўжаев А. Хитой манбаларида суғдларга оид айрим маълумотлар. ... – Б. 58.
37. Ходжаев А. Сведения древнекитайских путешественников о Самарканде // Цивилизация и культура Центральной Азии в единстве и многообразие. 2009 г. 7-8 сентябр. – Самарканд: 2009. – С. 142-144.
38. Хўжаев А. Хитой манбаларида суғдларга оид айрим маълумотлар. ... – Б. 59-60.

39. Хўжаев А. Хитой манбаларида суғдларга оид айрим маълумотлар. ... – Б. 56.
40. Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. – Б. 21.
41. Хўжаев А. Хитой манбаларида суғдларга оид айрим маълумотлар. ... – Б. 58-59

**УДК 9(584,4)**

## BUXORO XALQ SOVET RESPUBLIKASINING TASHQI IQTISODIY ALOQALARI

**Z. B. Junayev**
*Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*
*junayev_zuhriddin@mail.ru*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Buxoroda amirlik tuzumi ag'darilishi oqibatida tashkil topib, 1920-1924-yillarda faoliyat yuritgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) hukumatining xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik munosabatalari va o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalarning mohiyati ilmiy adabiyotlar va arxiv materiallari asosida yoritiladi. Shuningdek, davlatlar o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash va savdo aylanmasi miqdori aniq raqamlar bo'yicha ilmiy tahlil qilinib, xulosalar berilgan.
**Kalit so'zlar:** BXSR, Nozirlar Sho'rosi, "Germaniya-Qora dengiz", "Shreder va uning sheriklari", "Rus-nemis savdo tashkiloti", XXSR, Buxoro-Afg'oniston munosabatlari, RSFSR, Tashqi Savdo xalq komissarligi (NKVD), Davlat savdo idorasi.

### Внешнеэкономические отношения Бухарской Народной Советской Республики

**Аннотация.** В статье раскрывается на основе научной литературы и архивных материалов, сущность дипломатических и торгово-экономических отношений Бухарской Народной Советской Республики с зарубежными странами, сложившихся в результате свержения Бухарского эмирата в 1920-1924 гг. Кроме того, был проведен научный анализ объемов двусторонней торговли и товарооборота между странами и сделаны выводы на конкретных цифрах.
**Ключевые слова:** БНСР, Совет Назириатов, "Германия-Черное море", "Шредер и его партнеры", "Российско-германская торговая организация", ХНСР, Бухарско-афганские отношения, РСФСР, Народный комиссариат внешней торговли (НКВТ), Государственное торговое управление.

### Foreign economic relations of the Bukhara People's Soviet Republic

**Abstract.** The article reveals, on the basis of scientific literature and archival materials, the essence of diplomatic, trade and economic relations of the Bukhara People's Soviet Republic with foreign countries, which developed as a result of the overthrow of the Bukhara Emirate in 1920-1924. In addition, a scientific analysis of the volume of bilateral trade and trade turnover between the countries was carried out and conclusions were drawn based on specific figures.
**Keywords:** BNSR, Council of Naziriats, "Germany-Black Sea", "Schroeder and his partners", "Russian-German trade organization", KhNSR, Bukhara-Afghan relations, RSFSR, People's Commissariat of Foreign Trade (PCFT) , State Trade Administration.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi qo'shni davlatlar bilan diplomatik munosabatlar va iqtisodiy hamkorlik qilishga alohida e'tibor qaratgan. BXSR mustaqilligini RSFSRdan keyin birinchilardan bo'lib 1920-yil 26-oktyabrda Afg'oniston e'tirof qilgan edi. 1920-yil 17-dekabrda BXSR Nozirlar Sho'rosi raisi va Tashqi ishlar noziri Fayzulla Xo'jaev bilan Afg'oniston Tashqi ishlar vaziri Mahmud Tarziy (1865-1933) har ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganligi to'g'risidagi yorliqni o'zaro almashtirishdi. Afg'oniston davlati Buxoroga Abdulhodihon boshchiligidagi yangi elchilarni yubordi. Amirlik davrida Buxoroda turgan afg'on diplomatlari o'z yurtiga chaqirib olindi. 1921-yil kuzida Afg'onistonning Buxorodagi elchisi Abdurasulxon bo'lgan. 1921-yil 11-yanvarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi o'z navbatida Kobulga Abdurahim Yusufzoda rahbarligidagi elchilarni jo'natgan[1].

Buxoro Respublikasi bilan Afg'oniston o'rtasida an'anaviy mavjud bo'lgan savdo-sotiq sohasidagi hamkorlik bu davrda ham davom etgan. Ikki davlat o'rtasidagi savdo-sotiq aloqalarida Karki shahri muhim rol o'ynaganligi manbalarda keltirilgan. "Buxoro axbori" gazetasida 1922-yil aprel oyida yozilishicha, "so'nggi vaqtlarda Buxoro Jumhuriyatining Karki viloyati va shahriga Afg'oniston savdogarlari kelib, kumush (nuqra), pul barobariga qorako'l va yung (jun) olib, Afg'onistonga uzatyaptilar"[2]. Boshqa bir gazeta xabarida keltirilishicha, "Afg'oniston-Buxoro munosabatlari kundan-kun kengayib boradur.

Afg‘onistondan yung, paxta va oyoqlik mol kelib, ular barobariga Buxorodan kerosin, qand kabi mollar yuboriladur”[3].

Karkiga kelgan Buxoro savdogarlari afg‘on vakillari olib kelgan mahsulotlarni BXSRning boshqa viloyat va shaharlariga sotish uchun olib ketgan. Bir paytning o‘zida Karki shahri Buxoro va Afg‘oniston o‘rtasidagi turli aloqalar to‘g‘risidagi xabarlarni o‘zaro almashtirib turuvchi markaz ham bo‘lgan. U strategik jihatdan qulay hududda joylashgan bo‘lib, xullas, ikki mamlakat o‘rtasida tranzit savdo vazifasini ham muayyan darajada bajarib turgan[4].

Buxoro va Afg‘oniston o‘zining milliy sanoatini endigina oyoqqa qo‘yayotgan, zamonaviy iqtisodiyot asoslari yaratilayotgan bir davrda asosan xom ashyo bilan savdo-sotiq qilingan. Lekin istiqbolda BXSR hukumati Buxoro-Afg‘oniston savdo munosabatlarini kengaytirish, kooperativlar ittifoqini tashkil qilish, xorijiy savdo shu’basini ochish, bojxona tizimini takomillashtirish niyatida bo‘lgan.

1922-yil iyunda Buxoroning Afg‘onistondagi yangi elchisi qilib Hoshim Shoyiq tayinlandi. U bundan avval BXSR Tashqi ishlar noziri lavozimida ishlagan. O‘sha yilning oxirida Hoshim Shoyiq BXSR hukumati mamlakat hududidan qizil armiya chiqarib yuborilishiga rozi ekanligi haqidagi maxfiy bitimni Afg‘oniston bilan imzolaydi. Bu bitim oshkor bo‘lgach, xalqaro miqyosida katta shov-shuvga sabab bo‘ldi. Rossiyaning tazyiqi bilan 1923-yil 18-iyunda Kobuldagi Buxoro elchixonasi tugatilib, endilikda Buxoroning Afg‘onistondagi manfaatlarini SSSR vakili “himoya” qiladigan bo‘ldi.

O‘sha davrda Turkiston, Buxoro va Afg‘onistonda bo‘lgan shiddatli jarayonlarning markazida turgan Ahmad Zakiy Validiy (1890-1970)ning yozishicha, Hoshim Shoyiq Buxoroning musulmonlashgan yahudiylaridan bo‘lgan. Turkiyada tahsil olgan. U iste’dodli shoir bo‘lib, keyinchalik Buxorodagi adabiy muhit va shoirlar haqida tadqiqotlar ham olib borgan. 1923-yil yozida Validiy uni Turkiston Milliy Birligi tashkilotining Yaponiyadagi bo‘limiga ishga yuboradi[5]. Shunday qilib, Hoshim Shoyiq butunlay xorijda qolib ketgan.

Fayzulla Xo‘jaev Eron, Turkiya, Afg‘oniston, Ozarbayjon, Yaponiya kabi Sharq davlatlaridan tashqari G‘arb mamlakatlari Angliya, xususan, Germaniya bilan diplomatik aloqalar o‘rnatishga katta kuch-g‘ayrat sarfladi. Buxoro bilan Germaniya o‘rtasida madaniy va iqtisodiy hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, savdo-sotiq avj oldirilgan. Fayzulla Xo‘jaev 1922-yil sentyabr-noyabr oylarida Germaniyada bo‘lib, turli banklar va kompaniyalar bilan shartnomalar tuzgan(1). U nemis tilini juda puxta bilgan.

Fayzulla Xo‘jaev Berlindan turib, Buxoroga jo‘natgan “Berlin maktublari” nomli maxsus xatida BXSR sanoat va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, kanallar chiqarishda nemis sarmoyasidan foydalanish imkoniyati borligini ta’kidlaydi. Uning yozishicha, “Ovrupa bozorlaridan quvilib, mustamlakalaridan mahrum qolg‘on olmon sarmoyasidan foydalanib, ... mushtarak tijorat va sanoat shirkatlari tashkil etmoq, shubha yo‘q, zarar qilmas edi”[6].

Fayzulla Xo‘jaev Yyevropadagi ishchi va xizmatchilarning iqtisodiy hayoti Buxoro Respublikasidagi baqqol va savdogarlardan ham ustun ekanligiga e’tiborni qaratar ekan, qoloqligimizni tugatishning asosi – sanoat va qishloq xo‘jaligini zamonaviy texnologiya bilan qurollantirishdadir, degan to‘g‘ri xulosaga keladi. Taniqli siyosat va davlat arbobining bu fikrlari bugungi kun uchun ham o‘z qimmati va dolzarbligini yo‘qotgan emas.

1923-yilning boshlarida Fayzulla Xo‘jayev bilan Mukammil Burhonov yana Germaniyada bo‘lishgan. Ular Berlinda BXSR, Buxoroda esa Germaniya elchixonasini ochishga ko‘p urinishgan. Huquqshunos jurnalist Fayzulla Qilichevning yozishicha, o‘sha paytda Fayzulla Xo‘jaev o‘z yaqinlariga quyidagi fikrlarni aytgan ekan: “Nemislar zo‘r xalq, Germaniya kuchli mamlakat. Ular har qanday vaqtda ham o‘z so‘zini ayta oladilar. Ularning bizda elchixonasi ochilsa va aloqalarimiz yo‘lga qo‘yilsa, Rossiya o‘z ta’sirini hadeb tiqishtiraverishining oldi olinishi mumkin”[7].

Fayzulla Xo‘jaev Germaniya vakolatxonasini Buxoroda ochish orqali yosh respublikaning siyosiy mustaqilligini ta’minlash barobarida iqtisodiy hamkorlik munosabatlariga keng yo‘l ochilishini nazarda tutgan. Chunki u Germaniya iqtisodiy imkoniyatlarini sarhisob qilib chiqqan edi. Fayzulla Xo‘jaev Germaniyadagi siyosiy ahvol qanday bo‘lishidan qat’iy nazar iqtisodiy imkoniyatlar kengligini chamalar ekan, BXSR sanoat va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish yangi kanallar chiqarish ishida nemis sarmoyasidan foydalanish istiqbolini ko‘ra bilgan. Shuning uchun diplomatik aloqalar iqtisodiy hamkorlikka keng yo‘l ochishi kerak edi[8].

BXSR bilan Germaniya o‘rtasida iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalarini o‘rnatish uchun Buxoro hukumati Germaniyada yashovchi tatar millati vakili Olimjon Idrisiy (3), o‘z davrining millioneri Amin Sulaymon, buxorolik yahudiy savdogar Eydelman vositachiligidan foydalanganligi manbalardan ma’lum. Bundan tashqari “Milliy ittiqod” tashkiloti xazinachisi Mukammil Burhonov Buxoro-Germaniya o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini o‘rnatish va rivojlantirish uchun ikki mamlakat orasida muttasil qatnab turgan.

Fayzulla Xo‘jayev Germaniyada bo‘lganida (1922 yil noyabr) nemis davriy matbuoti: “F. Xo‘jayev Olmoniyaga siyosiy va tijorat ishlar bilan kelgan. Berlindan Angliyaga, Italiyaga, Fransiyaga, Belgiyaga, Chexoslovakiyaga, Turkiyaga boradur emish”, -kabi o‘nlab xabarlarni bosib chiqargan [9].

Shu narsani alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, Germaniya sanoatchilarining “Germaniya-Qora dengiz”, “Shreder va uning sheriklari”, “Sinkup” kabi shirkatlari hamda “Rus-nemis savdo tashkiloti” BXSR bilan savdo-sotiq aloqalarini o‘rnatish harakatida bo‘lganlar. Bu davrda BXSR Savdo va sanoat nozirligi huzurida savdo shu’basi mavjud bo‘lib, nozirlarning o‘zlari savdo shu’basiga rahbarlik qilishgan. Germaniyaga o‘xshagan mamlakatlardan takliflar tushganidan so‘ng, 1922 yil sentyabr oyida Davlat savdo idorasi tashkil qilinib, u mustaqil o‘z-o‘zini mablag‘ bilan ta’minlash asosida ish boshlagan. “100.000 pud paxta, 100.000 shirinmiya, 50.000 dona qorako‘l teri, 10.000 pudga yaqin yung” sotish uchun tashqi bozorga olib chiqilgan[10].

Germaniya savdogarlari BXSRdagi mavjud tovarlardan qorako‘l teri, paxta, ipak va ipak mahsulotlari, shirinmiya dorivor o‘simligi hamda yung(jun) kabilarni sotib olishga xohish va istak bildiradilar. 1922-yil yozida BXSRning Moskvadagi vakiliga Germaniya hukumatidan maxsus murojaatnoma olingan. Bu murojaatnomada nemis hukumati BXSR vakilidan fabrika mashinalari va boshqa narsalar evaziga qorako‘l teri so‘ragan. “Buxoro axbori” gazetasining yozishicha, “Hukumatimiz tarafidan Germaniyaning bu taklifiga muvofiq, Germaniya so‘rag‘on narsalarni Maskovga yubormoq choralariga kirishiladur”[11].

BXSR hukumati Mirzo Abdulqodir Muhitdinov boshchiligidagi xususiy savdo hay’atini 1922-yilning iyulidayoq nemis vakillari bilan uchrashish uchun Moskvaga yuborgan edi. RSFSR Xalq Komissarlari Soveti Sharq shu’basi mudiri Fonshteyn, BXSR vakili A.Muhitdinov va Germaniya savdo vakillari ishtirokida Moskvada uch tomonlama muzokaralar bo‘lib o‘tgan. Muzokaralar tugagach, “O‘rtoq Muhitdinov Latviya elchisiga xorij (Germaniya)ga chiqarmoq sharti bilan 40.000 dona qorako‘l teri sotibdur. Bu sotishni Buxoro Nozirlar Sho‘rosi tasdiq etgan”[12].

O‘z navbatida Germaniya, RSFSR va boshqa xorijiy davlatlar dan Rossiya shaharlaridan mavsumiy yarmarkalarda, sotib olingan tovarlar poroxodda Chorjo‘yga olib kelingan. Keyin esa bu mollar BXSR viloyatlar va shaharlari bo‘ylab tarqatilgan.

1923-yil fevral-noyabr oylari oralig‘ida Germaniyadan BXSRga 4 vagon kasalxona asbob-uskunalari, 20.000 so‘mlik dori-darmon keltirilgan. Savdo-sotiq munosabatlarini kengaytirish va hisob-kitoblarni tartibga solish uchun Germaniya savdo shirkati Buxoro Davlat banki bilan shartnoma tuzib, o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan[13].

BXSR bilan Germaniya o‘rtasidagi savdo-sotiq munosabatlarida shifobaxsh dorivor o‘simlik-shirinmiya savdosi muhim o‘rin tutadi. Chorjo‘y viloyatida shirinmiya presslaydigan maxsus zavod tashkil qilinib, “Shirinmiya shirkati” tuzilgan. Zavodda qisqa vaqt ichida 200.000 pud miqdorida shirinmiya urug‘i va ildizlari to‘plangan[14]. Chorjo‘y shirinmiya zavodi har kuni yarim vagon miqdorida shirinmiyani presslab, qisqa vaqt ichida 20.000 oltin so‘mlik 10 vagon shirinmiya Germaniyaga jo‘natish uchun tayyorlab qo‘yilgan.

Bundan keyingi voqealar jarayoni shuni ko‘rsatadiki, 1923-yilning oxirlarida 10.000 pudlik shirinmiya va 60 vagon miqdorida paxta toylari Batumi va Astraxaнь portlari orqali Germaniyaga jo‘natilgan.

Albatta sovet Rossiyasi, qolaversa SSSR rahbariyati Buxoro Xalq Sovet Respublikasining mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritishiga qarshi bo‘lgan va uni cheklashga harakat qilgan. Xususan BXSRning Germaniya kabi G‘arb davlatlari bilan har qanday aloqalarini to‘xtatishga uringan.

1921-yildayoq Buxoro Xalq Sovet Respublikasi G‘arbiy Yevropa va Amerika bozorlari uchun import va eksport operatsiyalarini mustaqil o‘zi bajarishga harakat qilgan edi. Biroq RSFSR NKVT (Rossiya Tashqi savdo xalq komissarligi) BXSR hukumatiga bu masalada u bilan maslahatlashib ish ko‘rish talabini qo‘ygan.

BXSRning Moskvadagi savdo bo‘limi boshqaruvi yosh respublikaning Yevropa mamlakatlari bilan savdo-sotiq aloqalarini koordinatsiya qilib turgan. 1923-yil oktyabrda Moskvada bo‘lgan savdo bo‘limi boshqaruvining majlisida BXSRning Berlindagi savdo komissiyasi raisi Muqimboev ishdan olinib, o‘rniga boshqa kishi tayinlangan[15].

Xulosa qilib aytganda, yosh Buxoro Xalq Sovet Respublikasida milliy davlat qurilishiga kirishilar ekan, hukumatning demokratik ruhdagi rahbarlari xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil tashqi savdo aloqalari o‘rnatishga intildilar. BXSR tuzilgan dastlabki kunlardan boshlab, u mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritishga intilgan. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi nafaqat RSFSR (keyinchalik SSSR) va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) bilan, balki Afg‘oniston, Turkiya, Eron, Ozarbayjon, Germaniya, Yaponiya bilan iqtisodiy aloqalar o‘rnatishga harakat qilgan. G‘arbiy Yevropa davlatlari, xususan, Germaniya bilan

iqtisodiy va madaniy aloqalar yo‘lga qo‘yilib, u savdo-sotiqdan tashqari boshqa yana bir qancha jarayonlarni ham o‘z ichiga qamrab olgan. Biroq BXSRning mustaqil tashqi siyosati sovet Rossiyasi, keyinchalik SSSR rahbarlariga yoqmagan. Ular Buxoro Xalq Sovet Respublikasi bilan tuzilgan turli shartnoma va iqtisodiy bitimlar asosida BXSRning tashqi iqtisodiy aloqalarini cheklashga, keyinchalik butunlay to‘xtatib qo‘yishga erishganlar. Xullas, 1923-yil oxirlaridan boshlab BXSR faqat RSFSR, qisman XXSR orqali savdo-sotiq ishlarini olib borishga majbur bo‘lgan.

**Izohlar:**

1. Ba’zi tadiqotchilarning fikricha, XX asr boshlarida Fayzulla Xo‘jayev Germaniyada tahsil olgan va ayni paytda bu erdan turib otasining Yevropadagi savdo ishlarini yuritgan. Biroq biz haligacha arxivlardan ushbu ma’lumotni tasdiqlovchi birlamchi manbani topa olmadik.
2. Fayzulla Xo‘jayev 1922-yil noyabr oyi o‘rtalarida Berlindan turib BXSR MIQga “Berlin maktublari” nomi bilan xat yo‘llagan. “Buxoro axbori” gazetasining 1922-yil 19-noyabrda chop etilgan 111-sonida xat to‘liq chop etilgan. “Berlin maktublari” 4 qismdan iborat bo‘lib, bu qismlar “Umumiy ahvol”, “Baynalmilal ahvol”, “Uch masala”, “Ijtimoiy inqilob” deb nomlangan.
3. Sherali Turdiev va Naim Karimovlarning yozishicha Olimjon Idrisiy bir vaqtning o‘zida sovet, nemis, amerika razvedkalarining ayg‘oqchisi bo‘lgan.

## Adabiyotlar


1. «Бухоро ахбори», №20, 1921 йил 18 январ.
2. Карки шаҳрида Афғон савдогарлари // «Бухоро ахбори», №79, 1922 йил 23 апрел.
3. Афғонистон билан савдо муносабатлари // «Бухоро ахбори», №207, 1923 йил 27 сентябр.
4. Ҳайитов Ш., Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси ва Шарқ мамлакатлари (1920-1924 йиллар). – Бухоро, 2004.-Б.28.
5. Аҳмад Закий Валидий Тўғон. Бўлинганни бўри ер. Туркистон халқларининг миллий мустақиллик учун кураши тарихидан хотиралар. Бошқирд тилидан Ш. Турдиев таржимаси. – Т.: Адолат, 1997. –Б. 222-223.
6. Файзулла Хўжаев. Берлин мактублари // «Бухоро ахбори», №111, 1922 йил 19 ноябр.
7. Қиличев Ф. Зулматдан садолар.-Т.: «Адолат», 1994.-Б. 25-26.
8. Файзулла Хўжаев. Берлин мактублари // «Бухоро ахбори», №111, 1922 йил 19 ноябр.
9. Ҳайитов Ш., Раҳмонов К. Бухоро Халқ Республикаси ва Германия: ҳамкорликнинг тарихий лавҳалари (1920-1924 йиллар). –Т.: «Фан», 2004. –Б.11.
10. Файзулла Хўжаев. Берлин мактублари // «Бухоро ахбори», №111, 1922 йил 19 ноябр.
11. Давлат савдоси // «Озод Бухоро», №6(291).1923 йил 31 октябр.
12. Германиянинг бизга мурожаати // «Бухоро ахбори» №89, 1922 йил 8 июл.
13. Москвда бизнинг қоракўл // «Бухоро ахбори», №89, 1922 йил 8 июл.
14. Ҳайитов Ш., Раҳмонов К. Бухоро Халқ Республикаси ва Германия: ҳамкорликнинг тарихий лавҳалари (1920-1924 йиллар). – Т.: Фан, 2004. – Б.21-22.
15. Ширинмия ширкати // «Бухоро ахбори», №205, 1923 йил 23 сентябр.
16. O‘zbekiston MDA, 48-fond, 1-ro‘yxat, 43-ish, 50-varaqlar; O‘zbekiston MA, 49-fond, 1-ro‘yxat, 3-ish, 26-varaqning orqasi.


**UDK:94 (575.152)**

# ОБ ГЕОЛОГОРАЗВЕДОЧНОМ ИЗЫСКАНИИ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ В ПЕРИОД ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

**О.Б.Бахтиёрзода**
*Ташкентский университет информационных технологий*

**Аннотация.** В статье анализируется состояние развития научных геологических изысканий в Туркестанском крае в годы Первой мировой войны, послужившей своеобразным катализатором для их активизации. Рассматривается деятельность ряда научных обществ, члены которых, занимались работами в области геологии.

**Ключевые слова**: история геологии, Первая мировая война, Туркестанское отделение Российского Технического общества, горные инженеры, почвоведы, геологи - нефтяники.

**Birinchi jahon urushi davrida Turkiston mintaqasida geologik qidiruv ishlariga doir**

**Annotatsiya.** Maqolada Birinchi Jahon urushi davrida Turkiston mintaqasida ilmiy geologik tadqiqotlar rivojlanishining holati, ularning faollashuvi uchun o‘ziga xos katalizator bo‘lib xizmat qilgan.

A’zolari geologiya sohasida ish olib borgan bir qator ilmiy jamiyatlarning faoliyati o‘rganib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar**: geologiya tarixi, Birinchi jahon urushi, Rossiya texnik jamiyatining Turkiston bo‘limi, tog‘ muhandislari, tuproqshunoslar, neft geologlari.

**About the geological research in Turkestan region during the first world war**

**Abstract.** In the article analyzes the development of scientific geological surveys in the Turkestan region during the First World War, which served as a kind of catalyst for their activation.

The activities of several scientific societies, the members of which were engaged in work in the field of geology, are examined.

**Keywords**: history of geology, First World War, Turkestan branch of the Russian Technical Society, mining engineers, soil scientists, oil geologists.

Первая мировая война тяжело отразилась на Туркестанском крае. Разрушались сельское хозяйство, значительно сократились посевные площади, в деревне не хватило рабочих рук. На железной дороге царил хаос, практически она была загружена лишь военными перевозками. Были нарушены все хозяйственные связи. Российская экономика не была приспособленной к ведению войны такого масштаба. Финансы государства потерпели крах. Увеличивались налоги, сокращались расходы на просвещение, развитие культуры и практически исчез мелкий кредит. Только за один год войны в Туркестанском крае налоги выросли на 50% [1].

Изыскивая дополнительные средства для восполнения потерь и роста военных расходов, царское правительство решило переложить значительную часть расходов на ведение войны на свои колонии, в частности, на Туркестан.

С 1915 г. в Туркестане были введены постоянные государственные цены на хлопок, которые при общем росте цен не покрывали даже затрат хлопкоробов на его производство. За 1914-1915 гг. цена на хлеб, который шел в обмен на хлопок, увеличилась на 100%, а в 1916 г. – на 400%, а цена на хлопок выросла всего на 50%.

Против хлопкоробов, пытавшихся продавать хлопок по ценам выше монопольных, принимали «драконовские» меры, вплоть до конфискации имущества.

В 1916 г. местное население обязали вносить «добровольные» пожертвования в пользу царя на ведение войны. Они превратились в обязательные принудительные налоги с каждого дома, семьи или юрты.

В ходе войны появились и другие дополнительные поборы, и натуральные повинности. В Туркестане все это привело к глубокому кризису хозяйства. Девальвация, непосильные налоги и ростовщическая кабала довели до крайнего предела народные страдания. Дехкане за бесценок продавали землю, в результате более 50% из них становились безземельными. За долги отбирали рабочий скот и орудия труда. В результате ухудшения состояния сельского хозяйства падала урожайность хлопка, и наблюдалось резкое снижение интенсивности труда.

В годы Первой мировой войны колониальные власти Туркестана усилили дискриминацию местного населения в области труда, принудительно взимали с коренного населения деньги в счет государственного займа и введенного в конце 1914 г. военного налога, ввели трудовую повинность, использовавшуюся для всевозможной безвозмездной эксплуатации.

На коренное население Туркестана были возложены все материальные тяготы по содержанию депортированных в край 200 тыс. пленных солдат и офицеров Австро-Венгрии и Германии, и 70 тыс. беженцев из оккупированных кайзеровскими войсками районами России[2].

Таким образом, Российская империя оказалась не готовой к ведению продолжительных боевых действий. Сказывались все недостатки сложившейся колониальной системы. Имперская экономика начинала давать сбой.

В этих условиях возникла острая необходимость в отыскании новых запасов сырья и минеральных ресурсов, и в первую очередь необходимых для нужд фронта.

Необходимо отметить, что попытки промышленного освоения Ташкентского оазиса активизируются еще в конце XIX в. В долины р. Чирчик и его притоков промышленники (Соловьев, Колесников, Первушин, Кулибин) направляют геологические партии.

В это время начинают появляться и первые прогрессивные теории геологических знаний (Н.М. Пржевальский, П.П. Семёнов-Тян-Шанский, И.В. Мушкетов, В.А. Обручев, В.В. Бартольд и др.) народов Средней Азии.

В середине 1891 г. официально открылось Туркестанское отделение Российского Технического Общества в г. Ташкенте.

Цель общества состояла в содействии распространения технического образования и новой техники. Уже к началу 1892 г. в нем было 92 члена, среди них 12 гражданских инженеров, 10 военных, 22 горных инженера [3].

Один из членов Общества – горный инженер Д.К. Мышенков опубликовал статью, в которой был дан обзор состояния изученности минеральных богатств Туркестана. В ней перечислялись попытки разработки и применения полезных ископаемых в Туркестане и в целом и самое положение горного промысла в крае. Автор писал «в крае, встречается такая масса минеральных богатств и разнообразных, как нигде на земном шаре. Там есть золото (россыпное), серебро, медь, железо, цинк, свинец, сурьма, марганец, мышьяк, графит, уголь, асфальт, нефть, горный воск, поваренная соль, глауберова соль, селитра, нашатырь, затем: бирюза, малахит, аметисты, гранаты и далее разные строительные материалы, как то: всевозможного рода камни, превосходные мраморы, гипс, огнеупорные глины, сланец, дающий отличный водоупорный цемент и другие [4].

Публикация Д.К. Мышенкова содержала призыв к членам Общества сосредоточить внимание на вопросах дальнейшего изучения природных богатств для использования их в интересах промышленного развития края.

Другой член Отделения А.П. Михайлов выступил на одном из заседаний с докладом «О горном деле в Туркестанском крае. Исторический очерк этого дела в крае и развитие его в ближайшем будущем» [5].

Его доклады были посвящены вопросам разведки полезных ископаемых, добычи нефти, каменного угля, соли, технологии чугуноплавильного, железоделательного и сталелитейного производства.

С начала XX в. по Чирчику работает Александр Николаи, в ходе изысканий которого были открыты следы древнего горнорудного производства и металлургии [6].

С 1909 по 1920 г. известный ученый почвовед, профессор Н.А. Димо совместно с крупными учеными организует почвенные исследования в бассейнах рек Сырдарьи и Амударьи.

Организует географические экспедиции и профессор Н.Г. Маллицкий.

В 1914 г. в Ташкент прибывает известный профессор-геолог М.М. Протодьяконов (впоследствии председатель геологического отделения физмата САГУ) [7], организует изыскания минеральных ресурсов.

Сферой его научных интересов становится изучение горных выработок, рудничной вентиляции, организации горных работ [8].

Для работавших в годы Первой мировой войны в Туркестане геологов, наибольший интерес представляли древние и средневековые рудники и более мелкие следы разработки полезных ископаемых. Изучение форм горных выработок, положение последних по отношению к рудным телам и геологическому строение позволяло судить об эмпирических знаниях древних и средневековых рудокопов: о знания ими условий залегания полезных ископаемых, о приемах, примененных при их поисках, вскрытии и добыче. Сопоставление данных изучения этих рудников с историческими сведениями позволило ученым той эпохи воссоздать с документальной точностью отдельные этапы добычи полезных ископаемых и судить о характере горного дела и геологоразведочных знаний в древние и средние века.

Особенный интерес к истории древних выработок вызывало то обстоятельство, что в подавляющем большинстве случаев под сравнительно неглубокими работами древних рудокопов обнаруживались руды ценных элементов, очень часто в скоплениях, пригодных для промышленного освоения, на что обратили внимание российские горные инженеры в 1914-1916 гг.

Они сделали вывод о том, что горное производство в Средней Азии могло явиться материальной базой для возникновения геологических представлений.

Истории горного дела Средней Азии был посвящен ряд работ. О наличии здесь древних рудников писали в 1917 году, Д.Л. Иванов.

В поисково-разведочных целях памятниками древнего и средневекового горного дела в начале нашего столетия занимался горный инженер П.С. Назаров.

Доктор геолого-минералогических наук Валериан Николаевич Вебер (1871-1940) выпускник Петербургского горного института на основе своих наблюдений, сделанных в 1910-1913 гг. и в годы

Первой мировой войны в Туркестане опубликовал ряд работ, а в 1925 г. составил геологическую карту горного Туркестана [9].

В 1913-1914 гг. В.Н. Вебер в своих работах подчеркнул «перспективность Туркестанского края в рудоносном значении» и отметил, что «настало уже время разведок и определения тех месторождений, которые можно разрабатывать».

В 1917 году В.Н. Вебер опубликовал в журнале «Поверхность и недра» обстоятельную статью «Древняя и современная рудопромышленность Туркестана». В статье имеется краткая историческая справка (начиная от древнейших времен), для нашего времени устаревшая. Затем дается также краткий обзор древних рудников и предварительная оценка, с учетом (насколько это в то время было возможно их) исторических данных. В конце статьи делается вывод: «Нам кажется, что если месторождение работалось, то его стоило работать (не надо забывать, что работать кустарно), а бросить могли по различным, указанным выше причинам, из которого многие не могут иметь значения в глазах современных техников, так как мы видели насколько несовершенны туземные приемы добычи и выплавки».

Указывая на плачевное состояние горного дела в Туркестане, автор призывает к помощи местных предпринимателей в освоении полезных ископаемых. Надо добавить, что Н.В. Вебером еще в 1916 году была опубликована первая, наиболее полная в то время сводка по полезным ископаемым Туркестана, составленная в значительной части по материалам обследования древних рудников [10].

Казимир Петрович Калицкий (1873-1941) геолог-нефтяник, профессор, один из крупнейших профессоров по геологии нефтяных месторождений провел многочисленные геологические исследования в Средней Азии, разработал метод структурных карт для разведки и эксплуатации нефтяных месторождений.

На основе изучения запасов нефти в Туркестанском крае в 1914-1916 гг. обосновал гипотезу генезиса нефти на месте её залегания.

Его работы «Геология нефти» и «Научные основы поисков нефти» были опубликованы посмертно.

В 1914 году К.П. Калицкий, после поездки по Фергане впервые выдвинул идею «о необходимости разведки её нефтеносных площадей» [11].

Таким образом, начавшаяся Первая мировая война послужила толчком для усиления геологоразведочных работ в Туркестанском крае.

С одной стороны, организация этих работ осложнялась недостатком финансирования и часто зиждилась на одном лишь энтузиазме ученых-геологов.

С другой, мы происходило сближение геологоразведочные работы российских ученых с местными краеведами, туркестановедами, ходили вместе.

В целом, мы можем подчеркнуть, что именно в годы Первой мировой войны здесь перспективных месторождений золота, ртути, мышьяка, нефти, каменного угля, солей и других минеральных ресурсов.

**Литература**

1. Туркестан в начале XX века: к истории истоков Национальной независимости. //Коллект. Авт. – Т.: Шарқ. 2000. – С. 87.
2. Исхаков Ф. Центральная Азия и Россия в XVIII – нач. XX вв. – Т., 2009. – С.163.
3. Смесова К.А. Культурно-просветительская и научная деятельность русских учреждений в Туркестанском крае (вторая половина XIX – начала XX вв.). – Т., 2014. - С.47.
4. Смесова К.А. Культурно-просветительская и научная деятельность русских учреждений в Туркестанском крае (вторая половина XIX – начала XX вв.). – Т., 2014. – С.47.
5. Заметка о минеральных богатствах Туркестанского края горного инженера Д.К. Мышенкова. – Т., 1891. – 42 с.
6. Смесова К.А. Культурно-просветительская и научная деятельность русских учреждений в Туркестанском крае (вторая половина XIX - начала XX вв.). – Т., 2014. – С. 48-49.
7. Буряков Ю.Ф. Горное дело и металлургия средневекового Гелана. – М., 1974.
8. Буряков Ю.Ф. Вклад краеведов и археологов в изучение древних городов Ташкентского оазиса. // Вторые Востоковедческие чтения. Сб. мат. – Т., 2010. – С.84.
9. Вебер В.Н. Полезные ископаемые Туркестана. –СПб., 1913. – 208 с.; Вебер В.Н. Геологические исследования в Ферганской области, имеющие целью издания 10-верстной

геологической карты/Изв. геол.ком. – СПб., 1912. Т.XXI - № 1.; Вебер В.Н. Плавка железных руд в Бухарском ханстве.//Горный журнал № 8. –СПб., 1908. –С.17-32.

10. Вебер В.Н. Полезные ископаемые Туркестана. –СПб., 1913. – 208 с.

11. История геологического изучения Кыргызстана // тщентkq.com/istoria-geologicheskih… 14.07.2015.

**UDK: 94.3.8.01**

## BUYUK IPAK YO‘LI TARIXINING XORIJIY TARIXSHUNOSLIKDA TADQIQ ETILILISHI

**N. X. Xushvaqtov**
*Samarqand davlat universiteti*
*nodirjonkhushvaktov@gmail.com*

**Annotatsiya.** Buyuk ipak yo‘li nafaqat hududlar o‘rtasida savdo-sotiq aloqalarini, balki davlatlar va qit’alar o‘rtasida sivilizatsiylararo muloqat almashuvini ta’minlab, madaniy qadriyatlar, ilm-fan va shaharlarning rivojlanishida muhim vosita vazifasini bajargan va shu tariqa sivilizatsiyalararo muloqot uchun shart-sharoitlar yaratilgan. Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekiston hududidan kesib o‘tuvchi qadimiy Ipak yo‘li tarixining xorijiy tarixshunoslikda o‘rganilishi tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Buyuk ipak yo‘li, tarixshunoslik, Xitoy, Samarqand, Yevropa, Osiyo, sivilizatsiylararo muloqat, madaniyat, tarixiy adabiyotlar.

### Исследование истории великого шелкового пути в зарубежной историографии

**Аннотация.** Великий шелковый путь предоставил важный инструмент не только для торговли между регионами, но и для обмена цивилизациями между странами и континентами, а также в качестве важного инструмента для развития культурных ценностей, науки и городов, создавая тем самым условия для межкультурного диалога. В данной научной статье анализируется изучение истории древнего Шелкового пути, пересекавшего территорию Узбекистана, в зарубежной историографии.

**Ключевые слова:** Великий шелковый путь, историография, Китай, Самарканд, Европа, Азия, диалог цивилизаций, культура, историческая литература.

### The research of the history of the great silk road in foreign historiography

**Abstract.** The Great Silk Road provided an important tool not only for trade between regions, but also for the exchange of civilizations between nations and continents, and as an important tool for the development of cultural values, science, and cities, thus creating the conditions for intercultural dialogue. This scientific article analyzes the study of the history of the ancient Silk Road crossing the territory of Uzbekistan in foreign historiography.

**Keywords:** The Great Silk Road, historiography, China, Samarkand, Europe, Asia, dialogue between civilizations, culture, historical literature.

Buyuk ipak yo‘li insoniyat rivojining barcha davrlarida taraqqiy etib kelayotgan tarixiy ahamiyatga molik yo‘l hisoblanadi. Har bir xalqning rivojalnishi uchun muhim belgilaridan biri ushbu xalqning insoniyat sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi bilan o‘lchanadi.

Buyuk ipak yo‘li – ushbu tarixiy fenomen doirasida bugungi kunda jahon miqyosida turli sohalarda keng miqyosda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, ushbu keng ma’no va mazmunga ega bo‘lgan tarixiy ahamiyati orqali sharq-g’arb davlatlarining tarixiy yo‘l bo‘ylab almashinilgan milliy madaniy meroslarining tub ahamiyatini chuqur ilmiy jihatdan qiyosiy tahlil qilish mumkin.

Insoniyat sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo‘shgan O‘zbekiston azaldan dunyodagi ko‘plab olim va tadqiqotchilar diqqat-e’tiborini tortib kelgan.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev 2017-yilning 14-15-may kunlari Xitoy Xalq Respublikasida bo‘lib o‘tgan “Bir makon, bir yo‘l” xalqaro forumida “Bir makon, bir yo‘l” – manfaatlarimiz mushtarak” mavzusida so‘zlagan nutqida “Biz qayta tiklayotgan Buyuk ipak yo‘lida Samarqand, Buxoro, Xiva kabi bir necha ming yillik tarix va boy madaniyatga ega bo‘lgan shaharlar joylashgan”, deb e’tirof etgan edi.

Markaziy Osiyoning ichki va tashqi aloqalari tizimida O‘zbekistonning tutgan o‘rnini xorijiy tarixshunoslik asosida yoritib berish vatanimiz tarixshunosligida muhim ahamiyatga ega masaladir. Bu

O‘zbekiston hududining Sharq va G‘arb dunyosi o‘zaro muloqotga kirishadigan muhim tranzit yo‘llar kesishgan chorrahada joylashganligi bilan izohlanadi.

O‘lkamiz tarixida o‘z yechimini kutayotgan voqealar talaygina. Ayniqsa, dunyo fani va madaniyatining ravnaqiga, hunarmandchilik hamda sanoat markazlarining tarkib topishiga, davlatlararo siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarining o‘rnatilishi, hatto zamonaviy temir va avtomobil yo‘llari tarmoqlarining qurilishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan Buyuk ipak yo‘lining ko‘pgina qirralari hanuzgacha jumboqligicha qolmoqda. So‘nggi paytlarda bu masalaga dunyo olimlar, sayyohlari, umuman keng jamoatchilikning e’tibori ancha kuchaydi. Jumladan, YUNESKO homiyligida XX asrning so‘nggi 90-yillari Buyuk ipak yo‘lining “o‘n yilligi” deb e’lon qilindi. Shu munosabat bilan O‘rta Osiyo respublikalari va xorijda Buyuk ipak yo‘lining shakllanish tarixi bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga bag‘ishlangan ko‘plab anjumanlar o‘tkazildi va turli mavzularda ilmiy hamda ilmiy-amaliy ekspeditsiyalar uyushtirilmoqda. Buyuk ipak yo‘lining O‘zbekiston hududi bo‘ylab barpo etilgan shaharlar tarixini o‘rganish mavzuning dolzarbligini tashkil qiladi.

Mustaqillik sharoitida Buyuk ipak yo‘li tarixshunosligi borasida xorijiy olimlarning tadqiqotlari, turli xildagi manba va adabiyotlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Bundan xolisona foydalanib, Buyuk ipak yo‘lining asoslaridan bo‘lgan qadimiy shaharlarimiz tarixini xorijiy tarixshunos olimlar tadqiqotlarida yoritilishini o‘rganish, ular foydalangan uslublarni tahlil etish, rivojlanish dinamikasini o‘rganish imkoniyatidan keng foydalangan holatda tarix fanini o‘rganish va o‘rgatishning o‘ziga xos har tomonlama zamonaviy metodologik asoslarini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ushbu tarixiy ahamiyatga molik bo‘lgan yo‘lning o‘tmishini o‘rganish orqali Osiyo va Yevropa davlatlari tarixchilari tomonidan yozilgan bugungi kungacha ma’lum bo‘lgan qimmatli ma’lumotlarning o‘zaro bir-biri bilan aloqadorlik tomonlarini tadqiq etishdir. Buning uchun avvalo, tarixshunoslikni ilmiy metodologik tomonlarini o‘rganishning qiyosiy tahlil metodologiyasidan unumli tarzda foydalanish kerak.

Buning uchun avvalo biz “Buyuk ipak yo‘li tarixi” mavzusida O‘zbekistonda bugungi kunga qadar shug’ullangan tarixchilarning ilmiy tadqiqot ishlari haqida o‘z fikr-mulohazalarimizni keltirib o‘tamiz.

O‘zbekistonda bugungi kunga qadar bir guruh olimlar tomonidan Buyuk ipak yo‘lining tarixshunosligi haqida ilmiy tadqiqot ishlari olib orilgan. Biz olib o‘rgangan ilmiy tadqiqotlar natijasida Buyuk Ipak yo‘lining hududlar bo‘yicha o‘rganilish tarixshunosligini quyidagilarga taqsimlab chiqdik:

- G’arbiy Yevropa davlatlarida Buyuk Ipak yo‘lining tarixshunosligini o‘rganish. Asosan Angliya va Fransiyalik tarixchilari tomonidan Ipak yo‘li tarixini o‘rganish;
- Osiyo davlatlarida Buyuk Ipak yo‘lining tarixshunosligini o‘rganish. Asosan, Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya, va Yaponiya tarixchilari tomonidan Ipak yo‘li tarixini o‘rganish;
- O‘rta Osiyo davlatlarida Buyuk Ipak yo‘lining tarixini o‘rganishga alohida ahamiyat beriladi. Chunki ushbu hudud savdo yo‘lining eng muhim hududlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda Buyuk Ipak yo‘li tarixshunosligini o‘rganish quyidagilarga bo‘linadi:

- Xitoy va yapon tilida yozilgan manbalardan to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘rganish;
- Xitoy va yapon tilida yozilgan manbalarni ingliz, rus, fransuz, nemis va boshqa tillarga tarjima qilingan adabiyotlar orqali o‘rganish;
- Osiyo, Yevropa va Amerikalik tarixchilar tomonidan yozilgan adabiyotlar orqali o‘rganish;

O‘zbekiston tarixini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish jarayonlarida, Buyuk ipak yo‘li tarixini o‘rganish masalasi, tarixshunoslikda O‘zbekiston tarixini o‘rgatishdagi yangi yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Buyuk ipak yo‘lining shakllanishi yo‘nalishlari, uning butun jahon taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi kabi masalalarni o‘rganishda ko‘pgina olimlarimiz ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Ushbu tadqiqot mavzusininning dolzarbligidan kelib chiqqan holatda, tadqiqotning o‘rganilganlik darajasini mazmun va mohiyatini tahlil qilib, bir nechta yo‘nalishga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. O‘zbekistonning sovet davri tarixshunoslarning tadqiqotlarida;
2. Mustaqillik yillarida mahalliy tadqiqotlar;
3. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar olimlarining ilmiy tadqiqotlari;
4. Yevropa va Osiyo davlatlarida joylashgan Buyuk ipak yo‘li bilan bog‘liq tadqiqot mussasalaridagi ilmiy izlanishlar;
5. Markaziy Osiyo shaharlarining sivilizatsiyalararo taraqqiyoti tarixini o‘rgangan xorijlik tarixchilarning tadqiqotlari;
6. Samarqand shahrida joylashgan Markaziy Osiyo Xalqaro tadqiqotlar markazida olib borilgan ilmiy izlanishlar.

Tadqiqotning o‘rganilish darajasini yoritib berish ilmiy ishning deyarli asosini tashkil etishidan kelib chiqqan holda, mavzuning o‘rganilganlik darajasini yoritib berishda, ilmiy tadqiqot

metodologiyasining yangicha o‘ziga xos usullaridan foylanildi. O‘rganilishi rejalashtirilgan ilmiy tadqiqot metodologiyasining tarkibiy qismlari quyidagilar:

– **Tadqiqotni geografik holatining ilmiy-tahliliy asoslari:**

a) ilmiy tadqiqot mavzusiga aloqador hududlarning tarixiy-geografik chegarasining o‘rganilish darajasi;

b) ilmiy tadqiqot mavzusining xorijiy tarixchilar tomonidan o‘rganilishining geografik holatini qiyosiy tahlili;

c) O‘zbekistonga tashrif buyurgan holatda mavzuga aloqador ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan olimlarning geografik holatining tahlili;

**- Tadqiqotni yo‘nalishlar va sohalar tarkibining holatining ilmiy-tahliliy asoslari:**

a) Buyuk ipak yo‘lida shaharlarning o‘zaro rivojlanish darajasining o‘rganilishi;

b) Markaziy Osiyo shaharlarining sivilizatsiyalararo muloqotlardagi o‘rnini o‘rganish;

c) Markaziy Osiyo shaharlarining taraqqiyotiga sharq va g‘arb madaniyatining ta’sirini o‘rganish;

d) dunyoning yetakchi davlatlaridagi muzeylarda Buyuk Ipak yo‘li, xususan yurtimiz tarixini aks ettiruvchi ma’lumotlarning tahlili.

Buyuk ipak yo‘li tarixini o‘rganishda mahalliy olimlardan akademik Edvard Rtveladze, Ablat Xo‘jayev, tarix fanlari doktori professor O.P.Kobzeva [1], Abduxaliq Abdurasul o‘g‘li, A.K.Qirg‘izboyev, A.Berdimurodov, A.Anarbayev, G.A.Agzamov, A. Aytboyev, O‘.Mavlonov [3] va boshqa bir nechta tarixchi olimlar mavzuning ayrim jihatlarini o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida yoritib berilgan.

O‘zbekiston hududidan o‘tgan Buyuk ipak yo‘lining tarixiy manzilgohlari haqida, taniqli arxeolog olim, akademik Rtveladze Edvard Vasilevich “Buyuk ipak yo‘li” kitobida juda ko‘plab moddiy madaniyat haqida ma’lumotlar yozilgan. Kitobda Xitoyning qadimgi O‘zbekiston savdogarlari faoliyati bilan bo‘g’liq Buyuk ipak yo‘li manzilgohlari haqida ma’lumotlar yozilgan. Ablat Xo‘jayevning “Buyuk ipak yo‘li: munosabat va taqdirlar” [4] nomli kitobida Ipak yo‘li tarixi haqida juda ko‘plab ilmiy ma’lumotlar yozilgan. Abduxaliq Abdurasul o‘g‘lining “Buyuk ipak yo‘li” [2], “Chin va Mochin”, va boshqa ilmiy adabiyot tadqiqotlarini aytishimiz mumkin. O‘zbekistonning Buyuk ipak yo‘lini tiklash borasida Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligi A.K.Qirg‘izboyevning “O‘zbekiston Respublikasining Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi” monografiyasida chuqur tahlil qilib berilgan.

Mavzuga yaqin bo‘lgan tadqiqotlarda ayrim fikrlar aytilgan bo‘lsa-da, biroq yaxlit tarzda tarixshunoslikning zamonaviy metodologik tahlili aniq isbotlab berilmagan. Buning uchun xorijiy tarixshunoslikka murojaat qilishimiz lozim. Mavzuga doir rivojlangan xorijiy davlatlar tarixchilari tomonidan juda ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Xorijiy mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotni chuqur ilmiy tahlil qilib, ularda keltirilgan yangi tarixiy bilimlarni O‘zbekistonda Buyuk ipak yo‘li tarixini o‘rgatishda keng jalb qilish tadqiqotning o‘rganilishining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Mavzuni o‘rganishda xorijiy tarixchi olimlardan Peter Frankopan [5], Agnew Neville[6], Valeria Hansen[7], Nils Ambolt [8], Prabodh Chandra [9], Beckwith Christopher [10], Blunt Wilfrid [11], Bonavia Judy [12], Hedin Sven [13], Hopkirk Peter [14], Liu Xinru [15], Nebenzahl Kenneth [16], Tucker Jonathan [17], Whitfield Susan [18], Whitlock Monica [19], Wood Frances [20], Nile Green [21], Jacqueline Moore [22], Bernard Ollivier [23] va boshqa ko‘plab xorijiy tarixchilarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan.

O‘zbekistonda tarixshunoslik borasida yangi yo‘nalishni boshlab berish, buning uchun, avvalo, bugungi kunda tarixiy tadqiqot olib borishda eng rivojlangan xorijiy universitetlar olimlarining ilmiy tadqiqotlaridan foydalanish, xalqaro miqyosda e’tirof etilayotgan ilmiy jurnallardagi soha bo‘yicha o‘zining yetuk mutaxassislari tomonidan nashr ettirilgan risolalarni tahlil qilib ulardan namuna sifatida tadbiq etish, xorijiy davlatlar tarixshunosligida yurtimiz tarixi bo‘yicha nashr ettirilgan ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahliliy usullardan foydalangan holda xulosalar chiqarish orqali jahon tarixshunosligida foydalanilayotgan zamonaviy tarixiy metodlarni O‘zbekiston tarixshunosligida joriy etish, ilmiy tadqiqot mavzusini yanada aniqlashtirish maqsadida ma’lum bir tarixiy davr, dolzarb tarixiy tematik yo‘nalish, tanlangan dolzarb tematik yo‘nalishning tarixiy geografik hududi, tarixiy tematik yo‘nalishni yagona bir maqsadga jipslashtirish maqsadida ma’lum bir ijtimoiy yo‘nalishni belgilab olish muhim hisoblanadi.

Tadqiqotlar Buyuk ipak yo‘lida joylashgan shaharlarning ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi tarixiga oid hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston hududida ta’lim tizimining rivojlanishi tarixida Buyuk ipak yo‘lining ahamiyati mavzusida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, ilmiy izlanishlarimda Samarqand hududida ta’lim tizimining rivojlanishi tarixiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buyuk ipak yo‘lida joylashgan Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarning ta’lim tizimining rivojlanish tarixini o‘rganilmoqda. Maqsad, Buyuk ipak yo‘lida joylashgan Osiyo davlatlarining ta’lim tizimi tarixini qiyosiy tahlil asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish hisoblanadi. Buyuk ipak yo‘lida joylashgan davlatlardagi universitetlar ta’lim tizimida tarix fanlarini o‘qitishning qiyosiy tahlil etib,

ularning o‘xshashlik va farqli tomonlarini tadqiq etish orqali tadqiqot doirasida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu ilmiy tadqiqotimiz obyektini zamonaviy tadqiqot uslublari asosida Buyuk ipak yo‘li shaharlari xorij tarixshunosligida o‘rganilishi qiyosiy tahlili tanlangan.

O‘zbekiston tarixshunosligida Buyuk ipak yo‘li tarixini tadqiqot qilish o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bugungi kunga qadar dolzarb tarixiy ilmiy tadqiqot yo‘nalish sifatida tarixchilar tomonidan bu mavzu o‘rganilib kelinmoqda.

O‘zbekistonning qadimiy shaharlari Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent Buyuk Ipak yo‘lida o‘z o‘rniga ega mashhur shaharlar sirasiga kiradi. O‘zbekistonning qadimiy shaharlaridan Ipak yo‘lining eng muhim tarmog‘larida joylashgan. Shuning uchun ham ushbu shaharlar tarixi bo‘yicha tarixiy ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan tarixchilar, albatta Ipak yo‘li tarixiga ham to‘xtalib, mazkur shaharlarning sivilizatsiyalararo muloqotdagi o‘rni haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Markaziy Osiyo shaharlarining Buyuk ipak yo‘lidaga tarixini xorijiy tarixshunos olimlari tadqiqotlarida o‘rganilishini ilmiy tahlil qilishga qaratilgan. O‘zbekistonning butun insoniyat tarixida mashhur bo‘lgan tarixiy hudud Markaziy Osiyodagi o‘ziga xos o‘rni, sivilizatsiyalararo muloqotning rivojlanishida yurtimiz shaharlarining tarixini Osiyo va Yevropa tarixchilari tomonidan yozilgan ilmiy tadqiqotlarini Markaziy Osiyolik xususan, O‘zbekiston tarixchilarining ilmiy tadqiqotlarini o‘zaro qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan.

Buyuk ipak yo‘li ulkan salohiyatga ega bo‘lgan, o‘zining ulkan imkoniyatlari bilan sharq mamlakatlarinin tarixiy rivojlanish davrlarida muhim omil bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Buyuk ipak yo‘li insoniyat tarixida faqatgina savdo – sotiq bilan bog‘liq bo‘lib qolmasdan, o‘zining bir necha ming yillik ulkan tarixi davomida sharq-u g’arbning turli xalqlari orasida madaniyatlararo almashinuv yo‘li sifatida ham o‘zgacha tarixiy xarakteri bilan ajralib turadi.

Buyuk ipak yo‘li faqat karvon yo‘li bo‘lib qolmasdan, Yevrosiyo xalqlari sivilizitsiyasi tarixida o‘chmas iz qoldirgan, uning har tomonlama taraqqiy etishida ulkan omil bo‘lib xizmat qilgan jarayondir. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Buyuk ipak yo‘li tarixini keng miqyosda tarixiy ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish orqali, alohida “Buyuk ipak yo‘li madaniy-ma'rifiy merosi ilmiy tadqiqotlari” yo‘nalishiga asos solish mumkin. Bunday ilmiy tadqiqot yo‘nalishi biz tarixchilarga Buyuk Ipak yo‘li tarixini turli yo‘nalish va tarmoqlarga taqsimlagan holatda o‘rganishimiz uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston tarixida Buyuk ipak yo‘lini o‘rganish bo‘yicha barcha asoslar yetarlicha, chunki O‘zbekiston ilm- fani va madaniyatining ravnaqiga, qadimiy shaharlarining rivojlanishiga, diplomatiyani rivojlanishiga, iqtisodiy va madaniy aloqalarning o‘rnatilishiga Buyuk ipak yo‘li ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

## Adabiyotlar

1. Кобзева О.П., Джалилов О.З. Узбекистан и Китай на возрождающемся Шелковом пути (Монография). – Ташкент, 2015. –С. 103.
2. Абдухолиқ Абдурасул ўғли. Буюк ипак йўли // Мулоқот. – Тошкент, 1994.
3. Мавлонов Ў. Ўрта Осиёда қадимги йўлларининг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан. Республика конференсия материаллари тўплами. –Тошкент: Академия, 2001.
4. Xo‘jayev A. Buyuk ipak yo‘li: munosabatlar va taqdirlar. – Toshkent: O‘zME, 2007.-280 b.
5. Frankon. P. The Silk Roads (a new history of the world). – London. Bloomsbury Press, 2015.-656 p
6. Agnew Neville. Conservation of Ancient Sites on the Silk Road. Los Angeles, The Getty Conservation Institute, 1997
7. Hansen. V. Silk Road a new history. -London. Oxford university Press, 2012. -320 p.
8. Ambolt, Nils. Caravan. Travels in Eastern Turkestan. London, Blackie & Son Ltd., 1939.
9. BagchI, Prabodh Chandra. India and Central Asia. Calcutta, National Council of Education, 1955.
10. Beckwith Christopher. Empires of the Silk Road. A History of Central Eurasia from the Bronze Age to the Present. Princeton, Princeton University Press, 2009.
11. BlunT, Wilfrid. The Golden Road to Samarkand. London, Hamish Hamilton, 1973.
12. Bonavia Judy. The Silk Road. Xi’an to Kashgar. Hong Kong, Odyssey, 1992.
13. Hedin, Sven. The Silk Road. London, George Routledge & Sons Ltd., 1938.
14. Hopkirk, Peter. Foreign Devils on the Silk Road. The Search for the Lost Cities and Treasures of Chinese Central Asia. London, John Murray, 1980.
15. Liu, Xinru. The Silk Road in World History. New York, Oxford University Press, 2010.
16. Nebenzahl Kenneth. Mapping the Silk Road and Beyond. 2000 Years of Exploring the East. New York, Phaidon Press, 2004.
17. Tucker Jonathan. The Silk Road. Art and History. London, Philip Wilson, 2003.

18.Whitfield Susan. Life Along the Silk Road. London, John Murray, 1999.
19.Whitlock Monica. Beyond the Oxus. The Central Asians. London, John Murray, 2002.
20.Wood Frances. The Silk Road. Two Thousand Years in the Heart of Asia. London, British Library, 2003
21.Nile Green. Writing Travel in Central Asian History. Indiana university press. 2014.
22.Jacqueline M. Moore, Rebecca Woodward Wendelken**.** Teaching the Silk Road: A Guide for College Teachers. SUNY press. 2010.
23. Bernard Ollivier. Walking to Samarkand: The Great Silk Road from Persia to Central Asia. 2020. 312 p.

**UDK: 94.3.8.01 (075)**

## TURK RUNOLOGIYASI VA UNING TARIXIY MOHIYATI

**N.A.Nazarov**
*Toshkent Arxitektura-qurilish instituti professori, falsafa fanlari doktori, siyosiy fanlar doktori.*
*nasrid@mail.ru*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada turk runologiyasi va uning ijtimoiy-tarixiy ahamiyati haqida nazariy jihatdan asoslangan fikrlar ilgari surilib, run yozuvlari mohiyati ochib beriladi. Dastlab sirli yozuvlar deb e’tirof etilgan. O‘rxun-Enisey yozma yodgorliklariga murojaat qilinib, ma’naviy merosning ilk namunalari sifatida tadqiq etiladi. Tarix fanining tafakkur taraqqiyoti rivojini ta’minlashda turk runologiyasining mohiyati va mazmunini targ‘ib etishga e’tibor qaratilishi lozimligi ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Turk runologiyasi, tarix, qadimgi turklar, O‘rxun-Enisey yozma yodgorliklari, Oltoy, Ashina, ma’naviy meros, an’ana, vorisiylik.

### Тюркская рунология и ее историческая сущность

**Аннотация.** В данной статье выдвигаются теоретически обоснованные мысли о тюркской рунологии и ее социально-историческом значении, раскрывается сущность рунических надписей. Первоначально признанные таинственными надписями, Орхоно-Енисейские письменные памятники рассматриваются и изучаются как ранние образцы духовного наследия. Подчеркивается, что в обеспечении развития мышления исторической науки следует уделять внимание сущности и содержания тюркской рунологии.

**Ключевые слова:** история, Тюркская рунология, исторические монументы, древние тюрки, Орхоно-Енисейские письменные источники, Алтай, Ашина, духовное наследие, традиция, преемственность.

### Turkic runology and its historical essence

**Abstract.** In this article article puts forward theoretically grounded ideas about the Turkic runology and its socio-historical significance, reveals the essence of runic inscriptions. Originally recognized as mysterious inscriptions, the Orkhon-Yenisey written monuments are viewed and studied as early examples of spiritual heritage. It is emphasized that in ensuring the development of thinking in historical science, attention should be paid to the essence and content of the Turkic runology.

**Keywords:** History, Turkic runology, historical monuments, ancient Turks, Orkhon-Yenisey written sources, Altai, Ashina, spiritual heritage, tradition, continuity.

### Kirish

Ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyot jarayonida tarix sabog‘i ahamiyatli bo‘lib, jamiyat a’zolarini el va yurt manfaatlari yo‘lida bunyodkorlik va qahramonlik intilishlariga yo‘naltira olish salohiyati bilan e’tiborlidir. Ajdodlarimiz tarixiy tafakkurida mustahkam o‘rin olgan Turk hoqonligi davridagi (VI-VIII asrlar) voqea va hodisalar idroki tarix sabog‘i sifatida ijtimoiy tafakkurda mustahkam o‘rin egallab, har-bir tarixiy davrdagi zafar va muvaffaqiyatni, demakki rivojlanishni ta’minlash uchun jamiyat a’zolari faoliyatini muyyan yo‘nalishga sola bilish imkoniyati bilan qadrlidir. Qadimgi turkiy tafakkurdagi bunyodkorlik va qahramonlikka undovchi g‘oyalar keyingi davr madaniyatlarida ham o‘z in’ikosini topganligi vorisiylik an’analari asosida rivojlanib, turkiy xalqlar tafakkur taraqqiyotini ta’minlab keldi.

Tafakkur sohibi bo‘lgan insoniyat mavjud ekan o‘zining shakllanish jarayonlari va bu jarayonda inson sifatida tadrijiy takomil bosqichlarini, ushbu bosqichlarni vujudga keltirgan ma’naviy intellektual omillarni o‘rganishga ehtiyoj sezib, aqlu zakovatini ushbu maqsad sari yo‘naltira boradi. Zero, tafakkur

doimo oʻzining boshlangʻich nuqtasini qoʻmsab. unga intilgan sari charxlanib boraveradi. Shu bois, qadimgi turklarning ilk yozma manbalari – turk runologiyasining shakllanishi, grafikasi hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan uygʻunligi masalalarini oʻrganish bugungi yangilanayotgan Oʻzbekiston sharoitida tarixiy qadriyatlarga munosabat ijobiy tomonga oʻzgarayotgan bir pallada muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev: «…mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar va oʻzgarishlar, keng koʻlamli dasturlar yagona va ulugʻ bir maqsadga qaratilgan. U ham boʻlsa, xalqimiz hayotini yanada obod va farovon qilish, farzandlarimizni har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalashdan iborat.

Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulugʻ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va ishonaman, Xudo xohlasa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham boʻladi» [1: B. 412-415]. Va bunday tarixiy tafakkur orqali kelajakni bunyod etish strategik maqsad sifatida davlat rahbari tomonidan belgilanishi – oʻtmish, bugun va kelajak mustarakligini teran anglagan holda milliy taraqqiyot yoʻnalishini ta’minlashdan iborat.

Tadqiqot maqsadi

Tadqiqotning maqsadi ma’naviy qadriyatlarimiz sarchashmasi boʻlgan turk runologiyasi va uning tarixiy mohiyatini tadqiq etish asosida jamiyat a’zolari, xususan yoshlarda tarixiy tafakkurni yuksaltirib, Vatan va xalq manfaatlari yoʻlida mas’uliyatlarini oshirishga hissa qoʻshishdan iborat. Shuningdek, qadimgi turkiy yozma yodgorliklar boʻlgan Oʻrxun-Yenisey bitiktoshlarini tarixiy nuqtai-nazardan oʻrganib, xalqimiz tafakkur taraqqiyotini ta’minlashda ularning oʻrnini koʻrsatishdan iborat.

Tadqiqotning usuli va obyekti

Maqolada tarixiylik asosida oʻtmish manbalari haqidagi ma’lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish, taqqoslash, ilmiy qarashlar va kontsepsiyalarning qiyosiy tahlili, xolislik tamoyillari kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot obyektini Oʻrxun-Yenisey havzalari hamda Markaziy Osiyo hududlaridan topilgan turk-runik yozuvlariga aloqador boʻlgan tarixiy yodgorliklar tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi

Turk-runik yozuvlari sifatida e’tirof etilgan tariximizning ilk manbalaridan biri boʻlgan Oʻrxun-Yenisey yozma yodgorliklari turkiy qadriyatlar namunasi boʻlishi bilan bir qatorda umuminsoniy sivilizatsiyaning muayyan bosqichini oʻzida mujassam etganligi bilan e’tiborni tortadi. Umuminsoniy taraqqiyotda muhim oʻrin tutuvchi turkiy xalqlar madaniy rivojlanish bosqichlari bevosita moddiy madaniyat namunalari bilan bir qatorda ma’naviy madaniyat namunalarini ham qamrab oladi. Moddiy madaniyat namunalari – tarixiy inshoot, obidalar, yodgorliklar, shuningdek moddiy olamda mavjud boʻlgan real voqelik nazarda tutilsa, ma’naviy madaniyat – tafakkur taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiluvchi yozma va ogʻzaki ijod namunalarini qamrab oladi. Shu bois, turk runologiyasini oʻrganishning tarixiy-retrospektiv asoslari, Yevroosiyo etnoslari yozma taraqqiyotida sharq va gʻarb grafik qadriyatlari simbiozining oʻrni masalalari hamda umuminsoniy qadriyatlar va tarixiy-tsivilizatsion jarayonlarda turk runologiyasining ahamiyatiga e’tibor qaratish muhim. Zero, turk runologiyasining tarixiy tadqiqi ajdodlarimiz bosib oʻtgan sharafli va sinovli yoʻlning bir tekisda kechmaganligi, bugungi milliy ma’naviyat va gʻoyaviy barkamollik ibtidosi ajdodlarimiz tomonidan solingan soʻqmoqlarga borib tutashishi – barchamizni ma’naviy qadriyatlarimizga ehtiromona munosabatda boʻlishimizni taqozo etadi

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti bevosita mavhum, noma’lum va sirli deb hisoblangan voqea-hodisalar, jarayonlar hamda artefaktlarning ixtiro va kashf etishi bilan chambarchas bogʻliq. Zero, tafakkur sohibi boʻlgan inson ixtiro etishga hamda oʻzidan oldin oʻtgan ajdodlaridan qolgan moddiy va ma’naviy meros namunalari mohiyatini anglashga moyilligi bilan insondir. Har qanday artefakt mazmun va mohiyati anglanguncha sirli xarakter kasb etib boradi. Run (run) – qadimgi skandinaviya tilida sir, sirli ma’nolarini anglatsa-da, fanda run, runik tushunchalari sirli yozuv va belgilarga nisbatan ishlatilgan. "Runo - yashirin, sirli, sehrli demakdir" [2: R. 226].

Dastlab, «Runlar, runik yozuvlar II-XIII asrlar mobaynida qadimgi skandinav va german xalqlari tomonidan yogʻochlar va toshlarga oʻyib bitilgan belgilarga nisbatan qoʻllanilgan» [3: S. 545]. Lekin, dastlab etimologik va qoʻllanish tarixi yuqorida ta’kidlangan omil bilan bogʻliq boʻlsa-da, XVIII – asrdan boshlab, qadimgi turk yozma yodgorliklariga nisbatan faol qoʻllanila boshlandi. Manbalarda ta’kidlanishicha: «Runik yozuvlar oromiy yozuvlari asosida bitilgan qadimgi turk yozuvlaridir» [4: S. 545].

Turkiy xalqlar ma’naviy merosining ilk bosqichlarini oʻrganishda Oʻrxun-Yenisey yozma yodgorliklarining oʻrni ahamiyatlidir. Bu belgilarga yuz yilliklar davomida hech kimning tishi oʻtmasdan, oʻqilmay kelganligi bois, sirli mohiyat kasb etib, runik degan atamani oldi. «Runo – mohiyati yashirin, sirli. sehrli» [5: R. 276]. Va bu sehrli belgilar faqatgina oʻn toʻqqizinchi asrning oxirgi oʻn yilligiga kelib, oʻz

siri va sehrini insoniyatga ocha boshladi. «Bizning eramizdagi birinchi ming yillikning ikkinchi yarmidan boshlab Yenisey va O‘rxunning yuqori oqimlaridagi havzalarda joylashgan turk qabilalari o‘zlarining yozuv tizimidan foydalanganlar. Ushbu qadimgi turkiy yozuvlarni ayrim tadqiqotchilar noto‘g‘ri talqin etishgan» [6: S. 14].

Ma’lumki, tarix fani odam va uni o‘rab turgan olamning shakllanib, tadrijiy takomil bosqichlarini o‘rganuvchi fan sifatida insoniyat vakillariga tarixiy ong va tarixiy xotirani o‘yg‘otishda muhim o‘rin egallab kelmoqda. Har bir tarixiy davr va sharoitda shakllanib, rivojlanib kelgan sivilizatsiyalar ham tarix fanining o‘rganish obyekti sifatida e’tibor qaratishni talab etadi. «Tarix fani o‘tmishda sodir bo‘lgan jarayon va hodisalar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ularning ildizi, tarixni harakatlantiruvchi sabablar, uning mantig‘i va ma’nosini ko‘rish imkonini beradi» [7: B. 274].

Bizning eramizning dastlabki asrlarida Oltoydan Xinganga qadar bo‘lgan kengliklarda yilqichik va chorvachilik bilan shug‘ullanib, yaylovlarda ko‘chib yurgan qabilalar xitoy manbalarida umumiy «tele», yoki «gaogyuy» umumiy atama bilan ataluvchi xunnu avlodlari ko‘chib yurishgan. Ayrim manbalarda «tele» - telejka, arava, «gaogyuy» esa – hajmi uzun aravalar, ma’nosini anglatgan» [8: S. 5] deyishadi. Atrofdagi xalqlar bizning ajdodlarimizni uzun aravalarda yuruvchi xalq sifatida e’tirof etgan ekanlar, demak, g‘ildirakli aravalar ixtirsida ham turkiy omilning o‘rni kuzatiladi.

Tele qabilalari o‘zlarini "o‘g‘uzlar" deb atashib, turkiy qabilalar ittifoqini tashkil etishgan. 552-yili birinchi turk hoqonligiga asos solingach, tele qabilalari uning aholisining asosini tashkil etishgan. Ellik yildan, ya’ni 603-yili, so‘ng yaxlit turk hoqonligining g‘arbiy va sharqiy hoqonliklarga bo‘linishi tele qabilalari ittifoqini ikkiga bo‘lib yubordi. Bu orada raqobat kurashlari bo‘lib turgan, turklar orasidagi bu raqobatni jujanlar hamda Xan imperiyasi rag‘batlantirib turgan.

Turk hoqonligi - Yevroosiyodagi Ashina avlodidan bo‘lgan hukmdorlar yetakchiligidagi qadimgi turklarning qabila ittifoqi tomonidan tuzilgan harbiy-siyosiy birlik sifatida o‘rta asrlarning yirik davlati bo‘lib, insoniyat tarixiy taraqqiyotida o‘ziga xos o‘rin tutgan. U VI-asrning ikkinchi yarmida Oltoy, Mo‘g‘uliston, Shimoliy-Sharqiy Xitoy (Manjuriya), Sharqiy Turkiston, G‘arbiy Turkiston (O‘rta Osiyo), Qozog‘iston, Qrim va Shimoliy Kavkaz hududlarini o‘z ichiga olgan.

Turklar Oltoy tog‘larida yashab, dastlab jujanlarga qaram bo‘lib, jujanlar uchun temir qazishgan. Yettisuvning shimoliy-sharqiy qismida, Irtish daryosi havzasi va Jung‘ariya hududlarida istiqomat qiluvchi tele – turkiy qabilalar ittifoqi jujanlarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarib, 482-yilda o‘z davlatlarini tuzadilar. Lekin, 516-yilda tele – turk qabilalari ittifoqi jujanlarga qayta qaram bo‘lib qoladi.

Oltoyda Ashina qabilalar ittifoqi doirasida turk nomini olgan mahalliy qabilalar ittifoqi yana birlashishga muvaffaq bo‘ladilar. Mo‘g‘ul Oltoyi tog‘lari hududida mavjud bo‘lgan davrda tukyuy turklari jujanlarga qaram bo‘lib, VI-asrning o‘rtalariga qadar vassal edilar.

Turklar ushbu atama, ya’ni turk atamasi bilan mangu el sifatida ilk bor VII—VIII asrlardagi qadimgi O‘rxun yozuvi yodgorliklarida uchraydi. Ushbu bitikning tarixiy-falsafiy ahamiyati shundan iboratki, unda el – turk budun atalib, siyosiy mohiyat kasb etuvchi harbiy birlik sifatida qaraladi.

Yozma manbalarning guvohlik berishiga ko‘ra Bumin va Istami hoqonlar ajdodlarimiz bo‘lgan turk elining yaxlit, mustahkam davlatchiligini shakllantirib, muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoitda uning rivojini ta’minlashda muhim o‘rin egallaydi. Bumin hoqon eramizning oltinchi asrining o‘rtalarida Turk hoqonligining asoschisi va uning birinchi hukmdori sifatida turk elining birlashishi uchun harbiy-siyosiy asos yaratgan tarixiy siymodir. U jujan hukmdorligiga tobe bo‘lgan ashina urug‘ini jujanlarga qarshi bosh ko‘tarishga chorlab, g‘alaba qozonadi. «Bumin «elxon» unvoni bilan ilk Turk hoqonligi taxtiga o‘tiradi» [9: S. 102-103]. Garchi, Bumin hoqon ajal bois hoqonlik taxtida ko‘p o‘tirmagan bo‘lsada, lekin ilk turk davlatining asoschisi sifatida turkiy tafakkurda abadiy o‘rin olganligi bilan e’tiborlidir. Ushbu jihatlarni jamiyat a’zolari, xususan yoshlar ongiga singdira borish ularda elparvarlik va vatanparvarlik xislatlari rivojida muhim o‘rin egallaydi. «532 yilda ukasi Bumin vafotidan keyin Istami yagona Buyuk xon, barcha turklarning xoqoniga aylandi. O‘zbeklarning xonlari, So‘g‘d va Toharistоn shaharlariga hukronlik qilgan shajara uning kenja o‘g‘li Jan Suyiqdan kelib chiqqan. Arg‘in Sibir Xondan - O‘rta Juz va Arg‘in urug‘i. ... naymanlar, qipchoqlar yagona ildizga ega bo‘lib, bu – Attilaga borib taqalar edi» [10: B. 79-80]. Bunday umumiy ildizga ega bo‘lgan tarixiy haqiqat targ‘ibi ham turkiy xalqlarning birligini ta’minlashda muhim. Istami hoqon Bumin hoqonning ukasi sifatida Bumin hoqon vafotidan so‘ng turklarning g‘arbga qarab harbiy yurishlariga qo‘mondonlik qilgan. «Istami hoqon qo‘shinining soni yuz ming bo‘lgan» [11: B. 271]. Albatta, yuz ming qo‘shin yirik miqdor. Lekin, bu miqdordagi qo‘shinni birlashtirib, ular faoliyatini yagona maqsad sari yo‘naltirish ham muayyan tashkiliy qobiliyat va rahbarlik mahoratini talab etadiki, Istami hoqonda ana shunday xususiyatlarning mavjudligi uning hoqonlik faoliyatida muvaffaqiyatlarni ta’minlab keldi desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Milodning birinchi ming yillikning ikkinchi yarmidan boshlab, Yenisey va O‘rxunning yuqori oqimidagi havzalarda joylashgan turk qabilalari ilgaridan, ya’ni miloddan avvalgi IV-III asrlardan buyon ma’lum bo‘lgan mustaqil yozuv tizimiga ega bo‘lganligi sababli, melodiy davrlarga kelib, xususan melodning VI-VIII asrlariga kelib Yevroosiyo hududlarida keng tarqalganligini tarixiy, arxeologik hamda Turkologiya sohasidagi ma’lumotlar tasdiqlab turipti.

«Eramizning V-VIII asrlarida zamonaviy turkiy xalqlarni tashkil etuvchi asosiy qabilalar Mo‘g‘uliston, Oltoy va Qozog‘iston hududlarida yashaganligini e’tibordan chetda qoldirish kerak emas. Bu turkiy xalqlar tarixidagi eng murakkab davr bo‘lib, xalqlarning buyuk ko‘chishi davridan keyin va mo‘g‘ullar istilosidan oldin, urushlar, to‘qnashuvlar va boshqa sabablarga ko‘ra turkiy ko‘chmanchi qabilalar doimiy harakatda bo‘lib, joydan joyga ko‘chib yurishib aralashib, qo‘shilib ketish holatlari faollashgan: ba’zi qabilalar yo‘q qilingan, yoki hukmron qabilalar tarkibiga singib ketishgan; shu tariqa “butun qabilalar, urug‘lar paydo bo‘ldi yoki g‘oyib bo‘lishgan” va ularning tili yoki dialektlari bir-biridan juda farq qilmaydigan darajada bir-birini yutib, bir-birini boyitib boravergan» [12: S. 10].

Tarixiy manbalarga murojaat etsak, insoniyat sivilizatsiyasi rivojini ta’minlashda turkiy xalqlarning o‘rni beqiyosligi o‘z-o‘zidan ravshan bo‘lib boraveradi. Yevroosiyo kengliklaridagi sivilizatsiyalashuv jarayonlari bevosita turkiy xalqlarga xos ijtimoiy-madaniy intilishlar bilan bog‘liq. «Nemis turkologi G. Derferning fikriga ko‘ra, turklarning umumiy etnik atamasi ma’nosini “hukmron xalq” deb tushunish mumkin» [13: S. 166]. Bu borada mashhur turkolog olim S.Klyashtornый: «Turk-qipchoqlar deganda shuni tushunish mumkinki, o‘sha paytda qipchoqlarning yetakchi urug‘i hukmronlik qilgan» [14: S. 162], - deydi. Har holda manbalarning guvohlik berishicha turkiylar o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yetakchi rol o‘ynab, tarixiy sivilizatsiyalashuv jarayonlari ko‘p jihatdan turkiy omil bilan chambarchas bog‘liq.

Turk runologiyasining tarixiy jihatlariga e’tiborni qaratib, Yenisey havzasida tadqiqot ishlarining boshlanishiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu jarayon o‘n yettinchi asrning oxirgi yillari bilan bog‘liq. "1692 yilda Amsterdam burgomisteri Nikolay Vidzen jarlikdagi Verxoteriyadan uncha uzoq bo‘lmagan jarlikda bir nechta noma’lum xatlarning yozuvlari topilganligini xabar qildi ... Shu sababli, Vidzen run matnlarini nazarda tutadimi-yo‘qligini aytish qiyin. ammo, rasmlar va yozuvlarning taqqoslanishiga qarab, bu nafaqat Sibirdagi, ayniqsa Minusinsk o‘lkasida keng tarqalgan xatlarga, balki Sibirni o‘rgangan boshqa sayohatchilar va olimlarni qiziqtirgan run yozuvlari to‘g‘risida edi" [15: S. 11]. Shunday qilib, turk runik yozuvlari o‘sha davr ziyolilarining diqqat-e’tiborini jalb eta boshlaydi. Tevarak-atrofdagi jamoatchilik ushbu mavzuga qiziqib, muayyan doiralarda muhokamalar jonlanib ketadi. Ulkan toshlardagi bunday belgilar nafaqat Yenisey havzasida, balki Mo‘g‘ulistondagi O‘rxun havzasidagi hamda Markaziy Osiyoning boshqa hududlaridagi toshlarda va ro‘zg‘or buyumlarida o‘yilgan belgilar bilan bir xilligi o‘sha davr ziyolilarini qiziqtira boshlaydi. Natijada, alohida shaxslar orasida bitikli toshlar mohiyati bilan qiziqish jarayoni boshlanib ketadi. "1696 yilda Tobolskiylik boyar o‘g‘li Semyon Remezov xarita tuzib, 1697 yilda xaritalarda "O‘rxun toshi»ni belgiladi. Ya’ni, xaritada alohida O‘rxun daryosi va Talas daryosi bo‘yida O‘rxun toshlar mavjud", deb yozilgan» [16: S. 11-12]. Ushbu jihatlar turk runik yozuvlari haqida ilk tadqiqotlar doirasiga kirsa-da, lekin bunday yozma tadqiqiy jarayonlarning boshlanguniga qadar, tabiiyki asrlar davomida bu borada bahs va muhokamalar ijtimoiy tafakkurda, ya’ni jamiyatning peshqadam vakillari doirasida davom etganligi ham aniq.

Umuman olganda o‘n yettinchi asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘n sakkizinchi asr va undan so‘ng Yevropa va Rossiyada ilmiy-tadqiqiy ekspeditsiyalar faoliyati jonlana boshlaydi. Rossiya imperatori Petr 1 (o‘n yettinchi asrning oxirgi choragi va o‘n sakkizinchi asrning birinchi choragi davomida hokimiyatni boshqargan) iqtisodiy islohotlarni amalga oshirib, ilmiy nufuzga ham e’tibor bera boshlaydi. Natijada nemis tibbiyotchi olimi D.G.Missershmidtni Rossiyaga taklif etib, Sibirning tabiiy boyliklari, nabotot dunyosi haqida tadqiqot ishlarini olib borishga vazifalantiradi. Natijada olim ekspeditsiya rahbari sifatida Sibir kengliklarida uchraydigan belgili toshlar – turk-runik yozuvlari haqida ham o‘z hisobotlarida to‘xtalib o‘tiladi. "Run yozuvlarining yozma dalillari D.E. Missershmidtning kundaligida ham mavjud"[17: S. 12].

Turk-runik yozuvlari ilk kashfiyoti haqida gap ketganda D.G.Missershmidt ilmiy doiralarda ushbu runik yozuvlar haqida ilk tasavvurlarni hosil etgan tadqiqotchi sifatida e’tiborga loyiq. Aynan o‘sha qadimgi Sibir yozuvi yodgorliklarini kashf etgan shaxs Daniil Gotlib Missersshmidt bo‘lib, bu yozuv dastlab runik deb ataldi. U rahbarlik qiluvchi ekspeditsiya ulkan toshda chizilgan belgilarga duch kelib, ularni qog‘ozga ko‘chirib oladi. Lekin, noma’lum belgilarni o‘qishning imkoni yo‘q edi. «Bu ekspeditsiya Sankt-Peterburgdan Moskvaga, so‘ngra Tobolsk va Tomsk yo‘nalishlari bo‘ylab belgilangan bo‘lib, 1721 yil 5-iyulda ekspeditsiya Tom daryosining yuqori havzasi tomon harakatlanib, Kuznetska yetib boradi va so‘ngra Baliqsuv daryosining labi bo‘ylab harakatlanadi» [18: S. 9-10]. Kuznetsk Olatovi tizmalari hamda

Terensu daryosi havzasi orqali Uybat daryosi yuqori qismidan serhosil xakas kengliklariga tushadi. Va ilk tarixiy kashfiyot shu yerda qilinib, insoniyat sivilizatsiyasida Yevroosiyo madaniy taraqqiyotining, jumladan turklarning ijtimoiy-tarixiy oʻrnini belgilashda muhim oʻrin tutdi. «1721 yil avgust oyining quyoshli kunida Uybatning shimoliy qirgʻogʻida "Bey daryosi quyilishidan bir necha verst yuqorida", D.G.Missershmidt "venger qirgʻichi shaklida" egilgan yon tomonlari nomaʼlum yozuv bilan qoplangan baland toshni topdi. Tadqiqotchi "oʻzi bilan birga olib borgan shved bolasini toshning eskizini chizish uchun buyurdi". Karl Shulman tomonidan bu ish ehtiyotkorlik bilan amalga oshirildi… Shunday qilib, deyarli 300 yil oldin, Xakas kengliklaridagi Uybat daryosi havzasida vodiysida uzoq ajdodlar tomonidan avlodlariga yetkazishga intilgan hikmatlarni ifodalovchi yangi fan dunyoga keldi» [19: S. 10]. Bu fan keyinchalik Turkologiya deb atalib, bugungi kunda nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnologiya va turkiy xalqlar tafakkur taraqqiyotini ham oʻrganayotganligi ahamiyatlidir.

**Xulosa**

Maʼlumki, tarixiy ongni shakllantirish masʼuliyatli vazifa boʻlishi bilan bir qatorda turkiy runik yozuvlar tarixiy jarayonlar subyekti sifatida, yaʼni tarixning muayyan davr zanjiridagi bogʻlovchi halqa sifatida muhimdir. Run yodgorliklarining paydo boʻlishi Ikkinchi Turk xoqonligi vujudga kelgan davrga toʻgʻri kelishi bejiz emas. Chorvador turkiylar ijtimoiy va siyosiy hayotidagi murakkablik ularning ongida tabiiy oʻzgarishlarni keltirib chiqardi, ular boshqa qadriyatlar qatorida tarixni eʼzozlab, bugunni yaratib, kelajakka ijobiy asoslarni yaratish gʻoyasining barqaror mohiyat kasb etishida ham namoyon boʻldi. Ushbu gʻoya davr oʻzgarishlari va turkiy mental xususiyatlarni mujassamlashtirgan holda yodgorliklar matnlarida aks ettirilganligi eʼtiborlidir. Runik yozuvlarni nafaqat qadimgi til yoki yozuvning manbai sifatida, balki turkiy tilli xalqlarning umumiy va yagona tarixiy ildizi sifatida oʻrganish oʻzligimizni anglab, turkiy xalqlarning birligini mustahkamlashda muhim.

Demak, runik yodgorliklari matnlari tadqiqi va targʻibi asosida jamiyat aʼzolarining hoqonlar hukmronligi yoki qadimgi davrning harbiy sarkardalari boshchiligida ozodlik uchun kurashlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlardan xabardor boʻlishi ijtimoiy dunyoqarashning yuksalishiga xizmat qiladi. Qadimgi turklar tarixiy ongining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini, ularning tarixiy voqealarni umumiy jarayonlardan ajratib olib, ajdodlar bosib oʻtgan sharafli va saboq beruvchi yoʻllar sabogʻini oʻz vujudlarida his etishlariga ulkan imkoniyat yaratadi.

## Adabiyotlar


1. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. Tom 1. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2018. – B. 412-415.
2. Arntz H. Handbuch der Runenkunde. – Halle, 1944. P. 276.
3. Словарь иностранных слов и выражений. Автор-составитель Е.С. Зенович. – Москва: Олимп: ООО «Фирма «Издательство АСТ», 2000. – с. 545.
4. Батманов И.А., Арагачи З.Б., Бабушкин Г.Ф. Современная и древняя Енисеика. – Фрунзе: Изд-во АН Киргизской ССР, 1962. – С. 14
5. Oʻzbekiston Milliy entsiklopediyasi. Tom 8. – Toshkent: Oʻzbekiston Milliy entsiklopediyasi, 2004. – B. 274.
6. Евстигнеев Ю.А. Кыпчаки / половцы / куманы и их потомки: к проблеме этнической преемственности. Москва: «Астерион», 2011.– с. 5.
7. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавщих в Средней Азии в древние времена. – Москва_Ленинград, 1950. – С. 102-103.
8. Искакова М.К. Тамга казахов. – Алматы, 2012. – С. 79-80.
9. Oʻzbekiston Milliy entsiklopediyasi. Tom 4. – Toshkent: «Oʻzbekiston Milliy entsiklopediyasi», 2002. – B. 271.
10. Ахметов М.А. Глагол в языке Орхоно-Енисейских памятников ( в сравнительном плане с современным башкирским языком). – Саратов: Изд-во Саратовского Ун-та, 1978. – С. 10.
11. Ушницкий В.В. Происхождение древних тюрков-Ашина //Актуальные вопросы истории кыргызского народа: прошлое, настоящее и будущее: Сборник статей в честь 70 летия кыргызского ученого-востоковеда, профессора Мокеева А.М. – Бишкек, 2019. – С. 166.
12. Кляшторный С.Г. Кыпчаки в рунических памятниках //Turkologika. К восьмидесятилетию академика А.Н.Кононова. – Ленинград, 1986. – С. 162.
13. Бернштам А. Социально-экономический строй Орхоно-Енисейских тюрок VI-VIII веков: Восточно-тюркский каганат и кыргызы. – Москва-Ленинград: «Изд-во АН СССР», 1946. – С. 11.
14. Кызласов И.Л. Енисейская письменность древнехакасского государства. Рассказы археолога Издание 2-е, переработанное и дополненное. Москва-Абакан, 2017. – С. 9 – 10.
15. Поливанов Е.Д. Идеографический мотив в формации орхонского алфавита //Бюллетень Среднеазиатского государственного университета. – Ташкент, 1925. – С. 179

УДК: 94 (575.152)

# ПРОБЛЕМЫ СТАНОВЛЕНИЯ СОВЕТСКОЙ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ В 20-е ГОДЫ XX в

**Н.Р.Махкамова**
*Ташкентский университет информационных технологий*
*mnadira2000@mail.ru*

**Аннотация.** В статье анализируется состояние советской интеллигенции в 20-е гг. XX века. Автором подготовлена и проанализирована динамика численности и состава интеллигенции в Узбекистане. В статье подчеркивается, что представители старой интеллигенции подвергались всяческим гонениям со стороны новой власти и были, по сути, ею отвергнуты. А новая советская интеллигенция только еще начинала формироваться. Однако, несмотря на целый ряд трудностей, возникших на этом пути, в составе советской интеллигенции к концу 20-х гг. XX в. были специалисты, которые, пройдя путь практической работы, самообразования, учебы без отрыва от производства, стали крупными компетентными руководителями.

**Ключевые слова:** интеллигенция, советская власть, кадры, гонения, духовенство, высшее образование.

## XX asrning 20-yillarida O‘zbekistonda sovet ziyolilarining shakllanish muammolari

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asrning 20-yillaridagi sovet ziyolilarining holati yoritib berilgan. Muallif tomonidan O‘zbekistondagi ziyolilarning dinamikasi va tarkibi tahlil qilingan. Maqolada “eski” ziyolilarning sovet hokimiyati tomonidan qatag‘onga uchrashish holatiga urg‘u beriladi. Bu davrda yangi sovet ziyolilari hali shakllanmagan edi. Mavjud murakkabliklarga qaramasadan XX asrning 20 yillari oxirilarida ishlab chiqarish va amaliyot jarayonida yangi ziyolilar qatlami shakllandiki, ular yirik rahbarlik lavozimlarini egalladilar.

**Kalit so‘zlar:** ziyolilar, sovet hokimiyati, kadrlar, qatag‘on, din ulamolari, oliy ta’lim.

## The problems of formation of soviet intelligence in Uzbekistan in the 20 years of the XX century

**Abstract.** The article analyzes the state of the Soviet intelligence in the 20 years of the twentieth century. The author has prepared and analyzed the dynamics of the number and composition of the intelligence in Uzbekistan. The article emphasizes that the representatives of the old intelligence were subjected to all kinds of persecution by the new government and were, in fact, rejected by it. And the new Soviet intelligence was just beginning to take shape. However, despite a number of difficulties that arose along this path, as a part of the Soviet intelligentsia by the end of the 1920 years of the XX century there were specialists who having gone the way of practical work, self-education, study on the job, became major competent leaders.

**Keywords:** intelligence, Soviet power, cadres, persecution, clergy, higher education.

В середине 20-х годов, завершая восстановление разрушенного хозяйства и начиная широкомасштабные акции – индустриализацию, культурную революцию, а несколько позже коллективизацию сельского хозяйства, советская власть располагала очень незначительными кадрами квалифицированных специалистов. Об этом свидетельствуют данные всеобщей переписи населения 1926 г.

Таблица 1[1].

Численность и состав интеллигенции в Узбекистане в 1926 г.

| | Городская | | Сельская | | Всего по республике | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Общее число | В т.ч. женщины | Общее число | В т.ч. женщины | Общее число | В т.ч. женщины |
| Руководящий аппарат | 5915 | 560 | 1455 | 54 | 7370 | 614 |
| Работники суд. органов | 606 | 20 | 37 | - | 643 | 20 |
| Инженеры | 441 | 8 | 13 | - | 454 | 8 |
| Агрономы | 260 | 37 | 112 | 14 | 372 | 51 |
| Ветеринары | 55 | 5 | 8 | - | 63 | 5 |
| Врачи и зуб врачи | 862 | 364 | 47 | 13 | 909 | 397 |
| Преподаватели вузов | 303 | 60 | - | - | 303 | 60 |
| Учителя школ | 3628 | 1379 | 905 | 145 | 4533 | 1524 |
| Журналисты и редакторы | 226 | 14 | 11 | - | 237 | 14 |
| Работники библиотек и музеев | 174 | 122 | 9 | 3 | 183 | 125 |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Работники искусств | 603 | 146 | 20 | - | 623 | 146 |
| Всего | 13073 | 2735 | 2617 | 229 | 15690 | 2969 |

Перепись показала, что интеллигенция республики была очень слабой социальной стратой. Она была малочисленна (составляла всего 0,7 % всего занятого населения), испытывала острый дефицит в квалифицированных специалистах (47,5 % в ее составе были руководящие административные работники). Чрезвычайно остро стоял вопрос с кадрами специалистов из коренного населения: их не было в числе инженеров на промышленных предприятиях, в строительстве и на железнодорожном транспорте, очень мало среди врачей, преподавателей вузов, но они составляли половину руководящей администрации, учителей, работников издательств. Мало было в составе интеллигенции республики женщин, особенно коренных национальностей, даже среди учителей, малочисленна была сельская интеллигенция. Комиссия Средазбюро ЦК ВКП(б), обследовавшая социально-экономическое положение кишлака в 1925 г., отмечала, что «интеллигенции как обособленной группы, влияющей или организующей дехкан, в кишлаке нет. В некоторой мере эту миссию выполняет духовенство»[2]. И действительно в 1926 г. в Узбекистане в составе сельского населения по официальным данным было 1157 квалифицированных специалистов и 2578 священнослужителей, а по мнению американской исследовательницы Ш. Келлер их было 6 тысяч в соотношении 1 : 543[3].

Кроме 15,6 тыс. специалистов, работающих в советских учреждениях, в середине 20-х годов все еще сохранялась небольшая социальная группа из 1089 человек, представляющая независимую интеллигенцию, которая занималась частной практикой. За период 1923-1926 гг. их число в городах республики уменьшилось на 1,5 тыс., а удельный вес снизился с 1,6 % до 0,8 %. Это был образованный потенциал республики, по-прежнему игнорируемый советской властью.

Что же касается старых кадров технических специалистов, пришедших работать в советские учреждения, то по отношению к ним продолжала сохраняться атмосфера «классового» недоверия из-за дореволюционного образования, а значит «буржуазного происхождения». По мере нарастания волны недоверия к этим специалистам, как к «агентам мировой буржуазии», число их неуклонно сокращалось в результате систематических чисток, классовых проверок, а затем и массовых репрессий. Ситуацию в советском обществе с кадрами старых специалистов в конце 20-х годов хорошо охарактеризовал председатель ЦСНХ Уз ССР в докладной записке в ВСНХ СССР: «В аппарате ЦСНХ на 1 октября 1929 г. имелось 8 человек с законченным высшим техническим образованием. Но из них недавно двое были арестованы и двое будут удалены в результате чистки аппарата. В такой обстановке какое-либо сносное техническое руководство промышленностью конечно невозможно»[4].

Во второй половине 20-х–начале 30-х годов ужесточается государственная политика по отношению к дореволюционной национальной интеллигенции, работающей в советских учреждениях. В мае 1926 г. компартия Узбекистана потребовала от партийных органов усилить борьбу на идеологическом фронте против растущей буржуазной идеологии, носителем которой, по ее мнению, была национальная интеллигенция. Была дана директива отстранить ее от работы в идеологических учреждениях, где она действительно занимала лидирующее положение и пользовалась большим влиянием[5]. Выполнение этой директивы вылилось в массовые чистки.

Партия стремилась добиться единомыслия всех слоев населения, установив систему безоговорочной поддержки ими позиций пролетарской идеологии, заменить свободу слова и творческой мысли полным подчинением только одной официальной идеологии. Но весь трагизм ситуации тех лет заключался в том, что национальная интеллигенция была думающей частью общества и не могла безоговорочно принимать к исполнению все мероприятия и нововведения новой власти, крутые повороты ее политики, вызывавшие у нее естественную критическую реакцию. Она была недовольна свертыванием нэпа, последствиями национально-государственного размежевания, земельно-водной реформы, атеизацией общественного сознания, пролетаризацией национальной культуры, волюнтаристской заменой арабского алфавита, совершенно неподготовленной эмансипацией женщин коренных национальностей, отстаивая интересы своего народа, выступала против усиления хлопковой монополизации Узбекистана, необоснованного преобладания некоренных национальностей в органах власти и управления, среди учащихся средних и высших учебных заведений и др.[6] Но, поскольку партия не признавала альтернативных вариантов своей политики, все высказывания критического характера определялись как «антипартийные уклоны, проявления буржуазной идеологии» и их носителей называли «классово-враждебными, буржуазно-националистическими элементами».

Так, заявление группы ведущих партийных работников – Р. Рафика, Мухтара Саиджанова, И. Хидыралиева, Р. Рахимбаева и др. в ноябре 1925 г. о своем недовольстве обстановкой диктаторства и командного стиля работы, складывающейся в центральных партийных органах республики, получило название «группы 18»[7]. «Иногамовщиной» были названы взгляды трезво и самостоятельно мыслящей части интеллигенции, работавшей в органах просвещения и печати, выступившей в 1926 г. во главе с Р. Иногамовым, занимавшим посты народного комиссара просвещения республики, а затем зав.отделом

печати ЦК КП(б)Уз[8]. В начале 30-х годов все, причастные к этим критическим высказываниям, были репрессированы.

В печати прошли широкие идеологические кампании, переходящие в настоящую травлю, критиковавшие творческую деятельность историка Пулата Салиева[9], главы правительства республики Файзуллы Ходжаева, опубликовавшего в 1926 г. работу «К истории революции в Бухаре»[10], известных журналистов Ходи Файзи и Абдуллы Мустакаева[11].

Новые разногласия интеллигенции с позицией официальных властей выявила, организованная в 1927 г. партийными идеологами, дискуссия о характере и путях формирования социалистической национальной культуры Узбекистана. Интеллигенция отстаивала лозунг развития национальной культуры, без привнесения в нее элементов классовости и идеологических оттенков, выступала против классовой и безрелигиозной школы, введения нового узбекского алфавита, за самостоятельное развитие самобытной культуры. III пленум ЦК КП(б)Уз (октябрь 1929 г.) инкриминировал такие высказывания, как проявление классовой борьбы на фронте культуры, стремление к свержению новой власти. «Ориентация на Восток, – говорилось в резолюции пленума, – и разговоры о предпочтительном значении культурного наследия Востока (арабского, персидского, османского) по существу являются явной реакцией, ведущей к буржуазной реставрации. По сути дела в основе этих разговоров лежит неприкрытое стремление к свержению диктатуры пролетариата и восстановлению господства буржуазии»[12].

Во второй половине 20-х годов в официальных кругах утверждается доктрина негативной оценки культурного наследия «дореволюционного прошлого», как не соответствующая стандартам «пролетарской культуры». Воспитанные на передовых идеях джадидизма, высокообразованные деятели национальной культуры осознавали, насколько важное место занимает культурное достояние прошлого в самосознании народа, в духовном развитии общества и стремились его пропагандировать. Насколько сильны были разногласия позиций партии и национальной интеллигенции в этом вопросе, показала травля А. Фитрата и А. Хашимова, подготовивших и издавших в 1929 г. сборник «Образцы узбекской литературы». Они были обвинены в пропаганде «абстрактной схоластической мысли, религиозного идеализма и мистицизма», а изданная ими книга расценена как «одно из явлений, отражающих сопротивление классового врага», «преступление на фронте идеологической борьбы»[13].

В конце 20-х годов партийной организацией республики была развернута ожесточенная борьба за идейное развенчание позиций национальной интеллигенции. Все проявления свободомыслия и желания помочь своей республике в ее развитии активно и «единодушно» осуждались пропагандистским аппаратом, жестко пресекались в административном, а затем и в правовом порядке. Проводились шумные кампании чисток, когда из школ, учебных заведений, редакций газет и журналов, издательств, других организаций изгонялись способные компетентные люди. Завершающим этапом политики недоверия национальным специалистам явились аресты и судебные процессы конца 20-х годов. В 1928 г. была арестована и осуждена группа работников Средазводхоза, в 1929 г. арестован известный деятель джадидского движения Мунаввар кори Абдурашидханов, возглавлявший организацию «Милий истиклол». Были репрессированы, приговорены к смерти или к длительным годам заключения члены организации «Миллий иттиход» Рамзи, Носир Саидов, Бату, Хосил Василов, Собир Кодиров и др.[14]

Во второй половине 20-х годов еще более ухудшилось положение мусульманского духовенства. Только за 3 года с 1923 по 1926 гг. его удельный вес в городах республики сократился с 1,1 % до 0,5 %. Лояльная политика партии по отношению к религии и духовенству, проводимая в первой половине 20-х годов, по словам секретаря ЦК КомпартииУзбекистана А. Икрамова, была не уступкой, а только тактикой[15], во второй половине 20-х годов она все более ужесточается. В постановлении VI пленума компартии Узбекистана (июнь 1927 г.) «О мусульманском духовенстве и школе» было жестко сказано, что «Ислам, как и другие религии, является большим препятствием на пути развития культуры, развития и укрепления идей пролетариата и строительства социализма»[16]. Это заявление знаменовало начало активной экстремистской кампании борьбы с религией, духовенством, верующими, национальными и бытовыми традициями народа. В 1928 г. в Узбекистане создается «Курашчан худосизлар» (Союз воинствующих безбожников). Он начинает издавать журнал «Худосизлар», а затем и газету с таким же названием[17]. Характеризуя деятельность этого союза, проф. Д.А. Алимова пишет: «СВБ стал подспорьем в искусственном нагнетании обстановки всеобщей подозрительности, а по отношению к духовенству и верующим, был поистине воинствующим. Все без исключения представители духовенства считались классовыми врагами. Их требования вернуть верующим мечети представлялись как проявления «классовой ненависти к комсомолу и клубам». В этих условиях, конечно, отвергались все предложения прогрессивного духовенства о сотрудничестве с общественными организациями в области культуры, образования и раскрепощения женщин»[18].

Антирелигиозная кампания в Узбекистане была по существу грубой, преимущественно антиисламской пропагандой. Как считает Ш.Келлер, наибольшая ошибка ее организаторов состояла в том, что они «исходили из предположения, что Ислам в Центральной Азии имеет среди населения такое

же влияние, как и христианство в России и пытались отделить религию от национального самосознания»[19]. Журнал «Худосизлар» не играл, да и не мог играть той роли, на которую рассчитывала партия. Он печатался смешанным арабско-латинским алфавитом, так что даже образованной национальной интеллигенции было трудно его читать, не говоря уже об основной массе малограмотного населения, тираж его был всего 2-3 тыс. экземпляров. В целом деятельность «Союза безбожников» большой эффективности не имела[19]. Поэтому власть чаще прибегала к открытым административным мерам. Во второй половине 20-х годов в республике в массовом порядке стали закрываться мечети, церкви, старометодные мактабы, мадраса, корихона, ликвидировались оставшиеся вакфы, казийские суды. Если в 1925 г. действовало 37 казийских судов, то в 1927 г. их осталось семь[20]. Весной 1928 г. они вообще прекратили свою деятельность как национальный правовой институт. Большая часть духовенства была отправлена в лагеря. Было уничтожено огромное количество рукописей и книг религиозного содержания. Даже хранение нерелигиозной литературы на арабской графике грозило арестом на срок от 10 до 15 лет. Отправление религиозных обрядов уходило в глубокое подполье[21].

Уничтожая национальную интеллигенцию, советское государство во второй половине 20-х годов продолжало работу по формированию новой советской интеллигенции, развивая вузовское образование и решая одновременно задачу коренного изменения классового предназначения и социального облика студентов и преподавателей. Стремясь создать новую пролетарскую систему высшей школы, оно предоставило рабоче-крестьянскому студенчеству большие права участвовать не только в общественной жизни своих вузов, но и в организации учебного процесса. В результате революционной активности студентов, во второй половине 20-х годов он стал полигоном самых разнообразных экспериментов, не имеющих аналогов в мировой истории высшей школы. Так, по инициативе студентов, был изменен порядок оценки их знаний, предоставивший им право утверждать на общем собрании курса, поставленную преподавателем оценку; были отменены традиционные, оправдавшие себя в мировой вузовской практике, лекционные и лабораторные занятия, а взамен был введен «лабораторно-бригадный метод» обучения.

В ноябре 1929 г. партия поставила задачу «всемерно усилить подготовку новых пролетарских специалистов, на которых советская власть могла бы полностью и целиком опереться в своей грандиозной работе по строительству социализма». Для ее решения вузы должны были ускорить темпы подготовки специалистов, привести их в соответствие с темпами индустриализации и социалистического переустройства сельского хозяйства[22]. В ответ на эту партийную установку, в конце 1929 г. в вузах появились группы «ускоренных выпусков со встречными планами». Студенты брали обязательства пройти курс обучения за три года, вместо положенных пяти, достигая этого за счет всемерной активизации учебного процесса. Отменялись зачетные сессии, написание и защита дипломных работ, сокращались учебные программы за счет «ненужных» с точки зрения студентов предметов. Взамен устанавливался «общественный контроль над улучшением и углублением проработки учебного материала». Появились даже планы перехода вузов на непрерывный учебный год и перестройки их работы по заводскому принципу[23]. Все эти эксперименты тормозили развитие учебного процесса, отрицательно сказывались на усвоении необходимого материала, а, следовательно, и на качестве знаний подготавливаемых специалистов – советской интеллигенции.

В учебном процессе по-прежнему большое внимание уделялось преподаванию общественно-политических дисциплин, которые должны были вырабатывать у будущих специалистов марксистско-ленинское мировоззрение борцов за повышение классовой бдительности. Студенты, не принимавшие его или подвергавшие сомнению его отдельные положения, объявлялись враждебными строю элементами и немедленно исключались из вузов. Из-за возможной угрозы потери партийного влияния, в 1927 г. были возвращены 39 студентов из Узбекистана, обучавшиеся в различных высших учебных заведения Германии. Решение было принято, несмотря на то, что почти все они в следующем 1928 г. заканчивали курс своего обучения и должны были получить дипломы специалистов[24].

Работа вузовских партийных и комсомольских организаций была направлена на сохранение чистоты социального состава студенчества. Анкетные данные каждого студента тщательно проверялись общественностью. Глава правительства Узбекистана Ф. Ходжаев в своем докладе на III съезде советов с большим беспокойством говорил о том, что в вузах безжалостно отчисляют студентов «только потому, что они находятся в родственной связи с бывшими купцами, торгашами или чиновниками, …несмотря на то, что им осталось учиться год или полтора, что они через год могут выйти уже настоящими спецами»[25].

Во второй половине 20-х годов в Узбекистане, кроме открытого в 1927 г. в Самарканде Узбекского высшего педагогического института (преобразованного в 1931 г. в Педагогическую академию), специалистов по всем необходимым республике профессиям готовило одно высшее учебное заведение – Среднеазиатский государственный университет (САГУ). Несмотря на материальные трудности, сложности с комплектованием контингента, число его студентов постепенно росло. В 1925 г.

оно увеличилось в 2 раза, по сравнению с первым годом его работы, и составило 2852 человека, в 1927 г. в нем обучалось уже 3657, в 1928 г. – 3949 человек[26]. Росло и число преподавателей. Если в 1920 г. их было 170 человек, в том числе 43 профессора, то в 1927 г. – уже 265 человек, в том числе 65 докторов наук и профессоров и 85 кандидатов наук и доцентов[27]. В конце 20-х годов университетом были подготовлены первые специалисты с высшим образованием из местных национальностей Т. Кары-Ниязов, А.Аскаров, Н.Исмаилов, Т.Захидов, И.Исламов, А.Шамсиев, З.Саиднасырова[28].

Но в целом из-за целого ряда объективных и субъективных причин число выпускников было все еще очень незначительным. В 1925 г. (это был год, когда университет окончили студенты первого набора 1920 г.) было выпущено 149 специалистов, в 1927 г. – 261, в 1928 г. – 250, в 1929 г. – 398[29]. Очень медленно решалась задача подготовки специалистов из молодежи коренных национальностей. В 1925 г. в САГУ занималось 157 студентов коренных национальностей (5,5 % всего контингента), в 1927 – 253 (6,9 %), в 1928 – 319 (8,1 %). Для решения этой проблемы, начиная с 1928/29 учебного года, при всех факультетах вузов и техникумов стали создаваться подготовительные курсы для молодежи коренных национальностей (в 1930 г. они были преобразованы в подготовительные отделения с дневным и вечерним обучением). В результате в 1929 г. студенты коренных национальностей среди зачисленных на первый курс САГУ составили почти 1/5 часть набора, а среди студентов, принятых в 1930 г., их было уже 37,5 %[30].

Помимо высококвалифицированных специалистов в этот период в республике подготавливались и специалисты среднего звена. В 1925 г. в Узбекистане функционировало 34 средних специальных учебных заведения, в которых обучалось около 5 тыс. учащихся, в 1929 г. было уже 46 техникумов, в том числе 4 индустриальных, 11 сельскохозяйственных, 3 социально-экономических, 24 педагогических, 3 медицинских, 1 художественный. В них обучалось 8,5 тысяч учащихся, среди которых 28 % составляла молодежь в возрасте 16-18 лет, 28 % – 18-19 лет, 18,7 % – 20-22 года, остальные учащиеся были более зрелого возраста[31].

Во второй половине 20-х годов продолжало действовать «выдвиженчество», как путь пополнения советской интеллигенции, работающей в административном аппарате, для которой, по мнению партии, в силу сложившихся в тот период специфических политических условий, главенствующее значение имела не степень образования, а социальное происхождение. «Выдвиженчество» особенно активизируется по принятии 7 марта 1927 г. постановления ЦК ВКП(б) «О задачах партии в деле выдвижения рабочих и крестьян в госаппарат», обязывающее партийные и профсоюзные организации улучшить эту работу и оказывать выдвиженцам необходимую помощь. Уже в 1927 г. в республике было выдвинуто на руководящую работу 202 рабочих местных национальностей, в 1928 г. – 268. Но большинство из этих выдвиженцев, как и в начале 20-х годов, имело крайне низкий образовательный уровень. Такие специалисты, отмечает профессор Д.Алимова, «часто создавали иллюзию решения проблемы, а на деле приводили к разжижению интеллигенции малоквалифицированными людьми, способствовали консервации таких нежелательных явлений, как некомпетентность, грубость, бюрократизм, конформизм и т.п.»[21]

Правда, нельзя отрицать тот факт, что в числе выдвиженцев были талантливые и упорные люди, которые, пройдя путь практической работы, самообразования, учебы без отрыва от производства, стали крупными компетентными руководителями. Многие из них закончили высшие учебные заведения, стали дипломированными специалистами и действительно пополнили ряды интеллигенции республики. Например, Карим Балтаев (народный комиссар земледелия Узбекистана), Убайдулла Рузыбаев (ректор Узбекской высшей сельскохозяйственной школы), Акбар Исламов (народный комиссар финансов Узбекистана), Джурабек Тюрабеков (заместитель председателя правительства республики) и мн. др.[32]

Выпускники вузов и техникумов, руководители административного аппарата из выдвиженцев постепенно увеличивали число советской интеллигенции, но ее качественный уровень был не высоким. Его определяли малограмотные, без опыта практической работы руководители-выдвиженцы, а также слабые знания специалистов, оканчивающих советские высшие и средние учебные заведения, обусловленные классовым принципом формирования их контингента, экспериментированием учебного процесса, бедной материальной базой высшей школы. Именно этими факторами, а не происками «врагов народа», объяснялись многочисленные просчеты и ошибки в проектных, сметных и монтажных работах, срывы сроков завершения строительства новых объектов, низкое качество выпускаемой продукции и другие негативные явления, имевшие место в народном хозяйстве республики в этот период[26]. Но даже и таких слабых специалистов в общем составе населения республики было очень мало, и новая советская интеллигенция не могла играть сколько-нибудь значительной роли в жизни общества, влиять на его поступательное развитие.

**Литература**

1. Всесоюзная перепись населения 1926 г. Т. XXXII. Узбекская ССР. Отдел II. Занятия. – М.: ЦСУ СССР, 1929. – С. 73-78.

2. Современный кишлак Средней Азии. Социально-экономический очерк. – Ташкент: Средазбюро ЦК ВКП(б), 1926–1927. Вып. III. Китабская волость. - С. 68.

3. Keller Sh. To Moscow, Not Mecca. The Soviet Campaign Against Islam in Central Asia. 1917-1946. – Westport, Connecticut. London. 2001. – P. 168-170.

4. НА Уз, ф. Р-89, оп. 1, д. 420, л. 15.

5. Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК. В 4-х томах. – Ташкент: Узбекистан, 1987. Т. 1. (1925–1937 гг.). – С. 200.

6. Хасанов Б.В. Национальная интеллигенция Узбекистана и исторические процессы 1917 – начала 50-х годов. – Ташкент, 2000. – С. 70.

7. Резолюции и постановления XIV пленума Средазбюро ЦК ВКП(б). 8-10 октября 1927 г. – Ташкент, 1927. – С. 38; Зайченко Ж. Из истории одного заявления // Человек и политика. – Ташкент, 1991. – № 1. – С. 90-96; Очерки истории Коммунистической партии Узбекистана. – Ташкент, 1974. – С. 210-213.

8. Резолюции и постановления IX пленума Средазбюро ЦК ВКП(б). – Ташкент, 1926; Резолюции и постановления XII пленума Средазбюро ЦК ВКП(б). – Ташкент, 1927; Постановление Президиума ЦК КП(б)Уз от 16 октября 1927 г. по делу Иногамова // Правда Востока. 1927, 7 ноября; Очерки истории Коммунистической партии Узбекистана. – Ташкент, 1974. – С. 224-226.

9. Германов В.А. Профессор Пулат Салиев и его время (Жизнь и трагедия основателя узбекской исторической школы). – Ташкент, 2002.

10. Туркестанский Г. Кто такие были джадиды. – Ташкент, 1926; Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях. Т. 1. … – С. 274; Ходжаев Ф. Избранные труды. – Ташкент, 1970. Т. 1. – С. 71-75.

11. Турон тарихи. – Тошкент, 1994. Август. – Б. 23.

12. Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях. Т. 1. … – С. 487-488.

13. Қизил Ўзбекистон. 1929. №№ 110-112, 163-164, 215-216; За партию. 1929. № 3; Байбулатов Д. Чагатаизм – пантюркизм в узбекской литературе. – М.-Ташкент, 1932; Алимова Д.А., Худайкулов А. Ўзбекистон маданияти тарихшунослигининг асосий йўналишлари // XX асрнинг дастлабки ўттиз йиллигида Ўзбекистонда тарих фани. II кисм, V боб. – Тошкент, 1994; Хасанов Б. Национальная интеллигенция Узбекистана и исторические процессы 1917 – начала 50-х годов. – Ташкент, 2000.

14. Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари. – Тошкент, 2001. – Б. 85.

15. Икрамов А. Избранные труды. – Ташкент, 1974. Т. III. – С. 301.

16. Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях. Т. 1. … – С. 301-304.

17. Алимова Д.А., Худайкулов А. Ўзбекистон маданияти тарихшунослигининг асосий йуналишлари // XX асрнинг дастлабки ўттиз йилигида Ўзбекистонда тарих фани. … – Б. 272-274.

18. Алимова Д. История как история, история как наука. – Ташкент: Узбекистан, 2008. Т. 1. История и историческое сознание. – С. 240

19. Keller Sh. Op. cit. – P. 162-164.

20. ЦГА РУз, ф. Р-904, оп. 1, д. 150, л. 3.

21. Алимова Д. История как история, история как наука. Т. I. … – С. 157.; С. 228.

22. КПСС в резолюциях. Т. 4. … – С. 113-114.

23. Овсянников К. Классовая борьба в высшей школе и задачи комсомола. – М., 1931. – С. 129-132.

24. ЦГА РУз, ф. Р-94, оп. 1, д. 475, л. 12-15; Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1993, 28 май.

25. Ходжаев Ф. Изб. труды. Т. II. … – С. 336; С. 533-534.

26. Средняя Азия в цифрах. – Ташкент: Средазгосплан, 1931.– С. 278.

27. Университет в цифрах. – Ташкент: Ёш гвардия, 1980. – С. 12.

28. Валиев А. Формирование и развитие советской национальной интеллигенции в Средней Азии. – Ташкент, 1966. – С. 114.

29. ГА г. Ташкента, ф. 38, оп. 1, д. 263, лл. 10-12.

30. Ташкентский государственный университет. 1920-1970 гг. – Ташкент, 1970. – С. 52.

31. Подготовка кадров в СССР. – М.-Л., 1933. – С. 64-65.

32. Революцией призванные. Биографические очерки. – Ташкент, 1991. Вып. 2.

UDK: 1:004.9

# TASAVVUF FALSAFASI – FAN SIFATIDA

**S.K.Karimov**
*Samarqand davlat universiteti*
*sayimnazarkarimov@gmail.com*

**Annotatsiya**. Mazkur maqolada tasavvuf falsafasini fan sifatida o‘rganilishining zarurligi haqida fikr yuritiladi. Tasavvuf falsafasining yangi fan sifatida shakllanishi, uning predmeti, maqsad va vazifalari hamda qonun va kategoriyalari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** tasavvuf, tasavvuf falsafasi, maqsad, vazifalar, predmet, obyekt, qonun va kategoriyalar.

## Философия суфизма как наука

**Аннотация.** В статье обсуждается необходимость изучения философии суфизма как наука. Как новая наука научно-религиозная философия, охватываются ее предмет, цели и задачи, а также законы и категории.

**Ключевые слова:** Суфизм, философия суфизма, цель, задачи, предмет, объект, законы и котегории.

## The philosophy of sufiz as a science

**Abstract.**The article discusses the need to study the philosophy of Sufism as a science. As a new science, scientific and religious philosophy, its subject, goals and objectives, as well as laws and categories are covered.

**Keywords:** Sufism, philosophy of Sufism, purpose, objectives, subject, object, laws and categories.

Tasavvuf musulmon olami halqlarining diniy, ijtimoiy, falsafiy, madaniy-ma'naviy xayotida ommalashgan, murakkab, o‘zaro ziddiyatlarga to‘la g‘oyaviy oqimlardan biridir. Tarkidunyochilik, bu dunyo ne'matlaridan tiyilish, Alloh visoliga yetish uchun qalb va ruhni poklash, halol, o‘z mehnati hisobiga yashash, faqirlik tasavvuf ta'limotining xos xususiyatlaridan hisoblanadi va bu xususiyatlar, o‘z navbatida, islom tamadduni uchun ma'naviy-ruhiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sharq xalqlari tarixida O‘rta asrlarda va undan keyingi davrlarda ham tasavvuf ta'limoti davr mafkurasi nuqtai nazardan o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan. Markaziy Osiyoda tasavvufning yassaviya, naqshbandiya, kubraviya tariqatlarining ta'siri kuchli bo‘lgan.

Mamlakatimizda milliy g‘oya va mafkurani shakllantirish ehtiyoji tug‘ilgan bugungi kunda milliy qadriyatlarimizga, ayniqsa, insonning ma'naviy-ruxiy kamolotga eltuvchi tasavvuf ta'limotini o‘rganishga kuchli zarurat sezilmoqda. Zero, mustahkam e'tiqod, islom ilmi va mafkurasini keng targ‘ib qilish va uni yosh avlod qalbiga singdirish hayotiy zarurat o‘laroq e'tirof etilmoqda. Chunki tasavvuf ta'limotining tarkibida eng yaxshi, ideal jamiyat haqidagi qarashlari vujudga kelgan. Tasavvuf namoyondalari nazarida bunday ideal jamiyat solih kishilar jamiyati sifatida talqin qilinib, unga, inqilobiy yo‘l bilan emas, balki ruhiy kamolot vositasida erishish mumkinligi targ‘ib qilingan. Tasavvuf ta'limotining negizida ezgulikka, savob ishlarni qilishga da'vat, xalqning g‘am-tashvishlarini kamaytirish bilan bog‘liq harakatlar yotadi.

Mashhur rus sharqshunos olimi, prof.E.E.Bertelsning qo‘yidagi fikri tasavvufni o‘ziga xos ta'limot sifatida o‘rganishda muhim nazariy-metodologik xaraktyerga ega: “Tasavvuf adabiyotini o‘rganmasdan turib, o‘rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida aniq-ravshan tasavvurga ega bo‘lish mumkin emas. Bu adabiyotdan voqif bo‘lmasdan, Sharqning o‘zini ham to‘la-to‘kis anglash qiyin”[Qarang: E.E.Bertels Sufizm i sufiyskaya literatura. – M.: Nauka, 1965. S.54].

Tasavvuf ta'limotini o‘rganish mamlakatimizda taraqqiyotning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan yosh avlodni halol, pok, ruhiy barkamol, ma'naviy mustahkam qilib tarbiyalashda yassaviya, kubroviya, naqshbandiya tariqatlarini yanada chuqur o‘rganish, ularni yosh avlod ong-u shuuriga asl holida yetkazib berish eng dolzarb vazifalarimizdan biri ekanligini ko‘rsatmoqda. Istiqlol tufayli Xoja Ahmad Yassaviy, Shayh Najmiddin Kubro, Xoja Bahovuddin Naqshband singari buyuk mutasavvuflarning poklik, to‘g‘rilik, mehr-shafqat, adl-u insof, iymon, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi umumbashariy meroslaridan xalqimiz bahramand bo‘la boshladi.

Tasavvufning o‘ziga xos falsafiy yo‘nalish sifatida yuzaga kelishi XIII-XIV asrlarda yashab ijod etgan bir qator mutafakkirlarning sa'y-harakati bilan bog‘liq. Bunda Ibn al-Arabiy, Abu Xomid G‘azzoliy,

Fariduddin Attor, Aziziddin Nasafiy, Yaxyo Suxravardiy, Ibn Saboiy, Abdurazzoq Koshoniy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Abdulqodir Bedil, Boborahim Mashrab kabi mutassuflarning dunyoqarashi muhim rol o‘ynagan. Aslida tasavvuf falsafiy asoslarining yaratilishi bu ta'limotning mohiyatidan kelib chiqadi. O‘rni kelganda ta'kidlash joizki, falsafiy tafakkur aqliy (ratsional) va hissiy (irrotsional) bilimlarni yonma-yon o‘rganish orqali shakllanadi va takomillashadi. Chunki tasavvufda inson aqli va ruhi, zamon va inson, suvrat va siyrat, vaqt va zamon, o‘zlikni anglash kabi qarashlar o‘z aksini topgan. Unda inson va uning ma'rifati, insonning ruhiy kechinmalari, uning komillik darajasiga erishishi kabi masalalar birgalikda tahlil qilinadi.

Tasavvuf Sharq va G‘arb mamlakatlarida ham islom tarixi bilan birga rivojlanib, islom madaniyati va ma'rifatiga katta hissa qo‘shdi. Agar biz hind o‘lkasida tasavvuf g‘oyalarining paydo bo‘lishi va o‘ziga xos xususiyatlari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, bu mamlakatga tasavvuf g‘oyalari VIII asrda savdo karvonlari orqali sufiylar tashrifi bilan bog‘liq holda kirib kelganini ko‘ramiz. Tasavvuf ta'limotining Hindistonda keng tarqalishi esa Mahmud G‘aznaviyning Hindistonga yurishi va sufiylar migratsiyasi davri bilan bog‘liq.

Boburiy Akbarshoxning vaziri, olim va adib Abulfazl Allomiyning “Oyin-i Akbariy” asarida yozilishicha, Hindistonda tasavvufiy suluklar 14 ta bo‘lib, ular orasida eng ko‘p tarqalganlari 6 ta, ya'ni Qodiriya, Chishtiya, Suxravordiya, Shattariya, Firdavsiya va Naqshbandiyadir. Shuning uchun hindistonlik musulmonlarning ma'naviyati, urf-odatlari va hatto, e'tiqod qiladigan islom dini ham Misr, Turkiya, Eron musulmonlarinikidan ajralib turadi.

Tasavvufda turli yo‘nalishlar, jumladan, zohidona tasavvuf, orifona tasavvuf, oshiqona tasavuf, rindona tasavvuf bo‘lgani kabi sufiylar ham turli qarashlarga ega bo‘lgan har xil tabiatli kishilar bo‘lgan. Ular orasida zohidlar, mo‘tadil oriflar, isyonkor oshiqlar, majzub devonalar, darbadar qalandarlar, donishmand faylasuflar ham bo‘lgani manbalardan ma'lum.

Ilmiy izlanishlar tasavvufning ta'limot sifatida falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinmaganini ko‘rsatadi. Tasavvuf ta'limoti ehtirosni emas, ko‘proq falsafiy mushohada va tahlilni talab qiladi. Uning har bir rukni, yo‘nalishi, rashxasi va qolaversa, har bir bosqichi falsafiy tadqiq va mushohadaga muhtoj. Bunga amal qilmaslik esa nafaqat tasavvufning rivojlanish bosqichlari, qonun-qoidalari, balki uning mohiyatini ham tushunib olishimizda yuzakilikka yoki biryoqlamalikka olib keladi. Chunonchi, tasavvufni xudoga qo‘shilish haqidagi ta'limot sifatida talqin qilish uning mohiyatini soxtalashtirishdan boshqa narsa emas. Chunki Jaloliddin Rumiy o‘zining” Ma'naviyi masnaviy” sida

“Kimki hamma Haq desa, ahmoq turur,
Kimki hama nohaq desa, badbaxt erur”(215-bet) deb yozadi.

Shu paytgacha biz Mansur Hallojni “Anal Haq” degani uchun xudosizlikda ayblab keldik. Aslida Mansur Hallojga tegishli bo‘lgan quyidagi misralar uning yelkasidan bu og‘ir gunohni olib tashlaydi. Bunga ishonch hosil qilish uchun uning quyidagi so‘zlarini keltirishning o‘zi kifoya: Furqati lavlam takun fi za-s-sukun, Lam yaqul inna ilayxi roji'un”, - deydi. (Mazmuni: Ey mening ishonchli do‘stlarim, meni qiynab o‘ldiring. Chunki doimiy hayotim o‘limdadir. Chindan ham hayotim o‘limdadir, ey yigit. Qachongacha yurtimdan, elimdan ayri yashayman. Bu dunyoda turishim ayriliq bo‘lmasa, “Biz yana unga qaytamiz”, deyilmasdi.

Sufiylikning bu darajadagi holatini Jaloliddin Rumiy ham o‘zining “Ma'naviy masnaviy”sida “Xanjar-u shamshir rayhonim mening, Bas, o‘limimdir aysh-u janonim mening”, deya ta'riflaydi. Jumladan, Jaloliddin Rumiyning “Ma'naviy masnaviy” sini chuqur bilgan Boborahim Mashrab ham Mansur Hallojning izidan borib, uning ta'limotini chuqur egallagan: Bu uning “Vahdat mayini piri mug‘on ilkidin ichdim, Mansur kabi boshimni dorga tuta qoldim,” degan so‘zlari fikrimizni to‘liq tasdiqlaydi.

Tasavvuf falsafasini o‘rganishning zarurligi haqida gap ketganda uning dolzarbligini ifodalaydigan qo‘yidagi jihatlariga e'tibor qaratish lozim. Avvalo, tasavvuf falsafasini o‘rganish milliy g‘oya va mafkurani shakllantirish hamda komil insonni tarbiyalash bilan bog‘liq bo‘lib, u, o‘z navbatida, tasavvufiy qadriyatlarni har tomonlama o‘rganish, keng xalq ommasiga yetkazishni taqazo qiladi.

Prof. N.Komilov tasavvuf ta'limotining ijtimoiy mohiyatlari haqida to‘laroq va qiziqarliroq mulohaza yuritgan. Olimning ta'kidlashicha, “Tasavvuf garchi islom bag‘rida kurtak yozib, Qur'on va hadislar hikmatidan oziqlangan, ko‘p hollarda shariat axkomiga suyangan bo‘lsa-da, ammo u rasmiy, diniy mutaassib ruhoniylarning zohiriy aqidaparastligi hamda hokim tabaqalarning aysh-u ishratga g‘arq turmush tarzi, talonchilik va manfaatparastligiga zid o‘laroq mehnatkash xalq noroziligini ifodalab keldi. Shu sabab bu ta'limot tezda el orasiga yoyilib, fikriy izlanishdagi, Haq va haqiqatga tashna ziyolillar, ilmu adab ahlining yuragini band etdi” [Qarang: N.Komilov. Tasavvuf va badiiy ijod. “Yoshlik”, 1997, 8- 73-bet].

Istiqlol yillarida tasavvuf ta'limotini o‘rganish sohasida ancha ijobiy ishlar amalga oshirildi. Tasavvufga oid nodir manbalar o‘rganildi, nashr etildi. Kubraviya, Yassaviya, Naqshbandiya tariqatlarining shakllanishi va ta'limotlarining bugungi ma'naviy yuksalishimizdagi o‘rni va axamiyati ochib byerildi.

Insoniyat taraqqiyot bosqichlarida yuzaga kelgan ta'limotlarning ko‘pchiligi tasavvuf ta'limotiga kelib qo‘shilgan va uning zamirida taraqqiy etgan. Shu sababli tasavvufda turli sohalar, qarashlar, g‘oyalar tutashib va to‘qnashib ketganiga, uyg‘unligi va ichki ziddiyatiga guvoh bo‘lamiz. Tasavvuf diniy e'tiqod va badiiy ijod birlashgan joyda yuzaga kelgan ta'limotdir. Attor, Rumiy, Nasimiy, Mashrab kabi sufiy shoirlar asarlari shu asosda dunyoga kelgan.

Tasavvufning falsafiylanish davri XIII-XIV asrlarda tasavvufni falsafa bilan yaqinlashtirishga va uni bog‘lashga harakat qilgan bir qator mutafakkirlarning sa'y-harakati tufayli paydo bo‘ldi. Jumladan, Ibn al-Arabiy, Abu Xomid G‘azzoliy, Farididdin Attor, Aziziddin Nasafiy, Yaxyo Suxravardiy, Ibn Saboin, Abdurazzoq Koshoniy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Abdulqodir Bedil kabilarning dunyoqarashi muhim rol o‘ynagan. Aslida, tasavvufning falsafiy asoslarining yaratilishi bu ta'limotning asl o‘zagidan kelib chiqadi. Chunki, tasavvufni tushunish va tushuntirish chuqur falsafiy mushohadani talab qiladi. Shu o‘rinda, ta'kidlash joizki, falsafiy tafakkur aqliy (ratsional) va hissiy (irrotsional) bilimlarni yonma-yon o‘rganish orqali takomillashadi. Zero, bu mutafakirlarning ijodlarida inson aqli va ruhi, zamon va inson, suvrat va siyrat, vaqt va zamon, dunyoni bilish kabi qarashlar o‘z aksini topgan. Asosiy mezon sifatida inson va uning ma'rifati, insonning ruhiy kechinmalari uning komillik darajasiga erishish bilan qo‘shib tahlil qilinadi. Bu mutafakkirlarning ma'rifiy qarashlarining asosini irfoniy tasavvuf tashkil qiladi va bu yo‘l sufiyona ma'rifatga erishish yo‘li sifatida tasvirlanadi. Ular aynan ilohiy muhabbatni irofoniy ma'rifat yo‘nalishida talqin qiladilar. Irfon aslida kashf va ilhom bilan hosil bo‘ladigan bilimdir. Ya'ni ma'naviy va ichki tajriba orqali erishiladigan zavqiy ilmdir. Bu ilm orqali ular ma'rifat, insoniy kechinmalar tasviri va tahlilini hamda komil inson va uning xislatlari haqidagi qarashlarni har tamonlama ishlab chiqqanlar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tasavvuf hech qachon falsafiy tizimda ta'limot sifatida nufuzli o‘rin egallashga harakat qilmagan. Aksincha, falsafa tasavvufning mohiyatini ochish uchun unga murojaat qiladi. Shu bilan birga uning o‘zi bir tomondan diniy, ikkinchi tomondan falsafiy irfoniy qarashlardan oziqlangan va shu asosda inson ruhiyati, erki, ichki olami va tuyg‘ulari majmuasini ifoda etgan axloqiy nizomlar majmui sifatida Sharq ijtimoiy tafakkur tarixida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan.

Shuni ham alohida ta'kidlash joyizki, irfoniy tasavvufni rivojlantirishning asosiy yo‘li sifatida irfoniy bilishni tan olganlar va o‘z asarlarida ramzlar orqali so‘fiyona ma'rifatga erishishni ta'kidlaganlar.

Shu o‘rinda Fariduddin Attor o‘zining “Tazkirat ul-avliyo asarida” Abulhasan Nuriy tomonidan tasavvufga berilgan ta'rifni keltiradi: “Yana so‘radilar:

-Tasavvuf nima?

Shayx Hasan Nuriy:

-Tasavvuf bu rusumdir, ilm emas. Va lekin tasavvuf Alloh xulqlaridan biridir. Alloh o‘z kalomida ishora qilganidek, tasavvuf Allohning xulqlari bilan xulqlanishdir. Va yana tasavvuf bu-ozodlik va mardlikdir. Allohdan nasiba uchun takallufni tark qilmoqdir hamda dunyoni dushman tutish. Oxiratni do‘st tutishdir!”. (Qarang: Fariduddin Attor. Tazkirat ul-avliyo. –B.368). Abu Sa'id Harroz ham tasavvuf haqilda qimmatli fikr bildirib shunday yozadi:” So‘radilar:

Tasavvuf nima?

Aytdi:

-Tasavvuf arab lug‘atida “so‘zlamoq” degani. Barcha shahvat va tashvishlardan xolis bo‘ladi. Ko‘ngli ichida va tashida Allohdan o‘zga hech narsa qolmaydi. Qachonki odam shunday bo‘lolsa, uni so‘fiy deydilar”. (Qarang: Fariduddin Attor. Tazkirat ul-avliyo. –B.361-362).

Tasavvuf falsafasi haqida gapirganda G‘arb va Sharq olimlarining bu masalaga yondashishini ham nazarda tutishi zarur. G‘arb olimlari tasavvuf falsafasini mistika-g‘ayritabiiy kuchlarga ishonish deb tushuntiradilar. Arab fors mamlakatlarida paydo bo‘lgan tasavvuf tariqatlarida islom asoslaridan chekinishlar sezilib turadi. Lekin yurtimizdagi tariqatlarning bari Qur'on va Sunnatga mosligi bilan ajralib turadi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida tasavvuf falsafasi unchalik rivoj topmagan. Aksincha, tasavvufning amaliy tomoni bo‘lgan Allohga yaqinlashtiradigan zikr va riyozatga, ruhiy tarbiyaga ko‘proq e'tibor qaratilgan. Bizning nazarimizda tasavvufni falsafiy asoslarini o‘rganishda uning nazariy va amaliy jihatlarini mushtarakligi e'tiborga olish turli xatoliklardan asraydi. Shuning uchun ham adabiy badiiy asarlar yoki islomdan tashqaridagi falsafiy g‘oyalardan qidirish ham tasavvuf falsafasidan chalg‘itadi. Lekin shuni nazardan qochirmaslik kerakki, tasavvuf falsafasi haqida gapirganda dunyoda tasavvuf degan yagona g‘oya, hodisa yo‘qligini, balki ruhiy tarbiyani birinchi o‘ringa qo‘yadigan tariqatlar – oqimlar borligini hisobga olish zarur. Zero, har qaysi tariqat tasavvuf deganda o‘ziga xos tushunchani birinchi o‘ringa olib chiqadi.

Bugungi zamon fanida tasavvuf falsafasi degan tushuncha ham bor deb, yozadi tasavvufshunos olim Musurmon Namoz. Biz bu tushunchani butunlay inkor etmagan holda, jumlani biroz kengroq tushunish tarafdorimiz. Chunki tasavvuf umumiy nom bo‘lib, ruhiy tarbiyani anglatishi ma'lum bo‘lsa-da, har bir tariqatda ruhiy tarbiyaning yo‘li va yo‘nalishi, uslub va usullari, hattoki mohiyat negizi turlicha bo‘lganini ko‘rinadi. Tarixda hatto shariatni ayrim qoidalarini tan olmaydigan yoki asliga xilof sur'atda talqin qiladigan tariqat yo‘nalishlari ham ko‘p bo‘lgan.

Shuningdek, G‘arb dunyosida botiniy ilmlar bilan shug‘ullangan tasavvuf ustozlarining zohiriy amallariga qarab, bu ilmni rasmiy islom falsafasining tor qobig‘idan chetga chiqishga urunish, deb baholovchilar, hatto islomni inkor etuvchi falsafiy oqim sifatida tushunadiganlar ham bor. Sho‘rolar mamlakatida olimlari orasida tasavvufni rasmiy islomga oppozitsiya deb tushunishga moyillik bor edi. Islom dunyosidagi tasavvufiy tariqatlar tarixini o‘rgangan olimlarning aksariyati uni ilohiyatshunoslikdan yiroqlashib ketgan metafizika deb qaraydilar. (Musulmon Namoz, Bahouddin Naqshband. 50-bet).

Bizning nazarimizda tasavvuf falsafasiga bunday yondashish bir tomonlamalikdan darak beradi. Chunki har bir ta'limot va uning amal qilishi falsafiy asosga ega bo‘lishi shart. Tasavvuf falsafasi ham ta'limot sifatida, ham dunyoqarash sifatida o‘zining falsafsiga ega bo‘lishga haqli. Ta'limotlar tarixini o‘rganish shundan darak beradiki, tarixda hech bir ta'limotning falsafasi o‘zini sof holda namoyon qilgan emas. Ular shu ta'limot ichidagi oqimlar, yo‘nalishlar, sifatida u yoki bu yo‘nalishda ma'lum darajada bir biriga muholif sifatida faoliyat ko‘rsatganlar. Tasavvuf ta'limoti ham o‘zining tarkibidagi tariqatlar dunyoqarashi falsafasidagi farqlar tasavvuf falsafasi kerak emas, degan ma'noni anglatmaydi. Aksincha, tasavvuf falsafasi tariqatlarning ilohiy va dunyoviy mohiyatlarini chuqurroq va teranroq ochishga yordam beradi.

Tasavvuf falsafasi shu vaqtgacha mustaqil fan sifatda o‘rganilmagan bo‘lsa-da, lekin uning jamiyat bilan aloqadorligi, ta'siri va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviyligi uni fan sifatiga o‘rganishni talab qiladi. Tasavvufga fan sifatida yondashish uning ijtimoiy fanlar tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, o‘zining predmet sifatidagi qonun va kategoriyalariga ham egadir. Bizga ma'lumki, qonun insonning jamiyatdagi xatti-harakatlarini belgilab beruvchi yo‘l-yo‘riq va qoidalar yig‘indisidir. Shu bilan birga qonun har qanday sharoitda zaruratni ifoda etadi. Chunki har qanday qonun barqarorlik va sokinlikning yig‘indisi bo‘lib, bu sokinlik munosabatlar orqali ifodalangan. Tasavvufning ta'limot siftidagi munosabatlar yig‘indisining markazida inson muammosi turadi. Demak, tasavvuf falsafasining fan sifatidagi qonuniyati ahloqiy va huquqiy qonunlarga asoslanadi. Shu bilan birgalikda tasavvuf falsafasi umumiy qonunlar bo‘lgan jamiyat va tafakkur rivojlanishining eng umumiy aloqadorliklari va taraqqiyot tendensiyalariga tayanadi. Tasavvuf falsafasining asosiy xususiyatlaridan biri bashorat qilish bo‘lganligi sababli ularni ko‘pincha nazariy qonunlar deb ham ataydi. Tasavvuf falsafasining bunday qonunlar jumlasiga quyidagilar kiradi: 1. Tasavvuf falsafasining ijtimoiy fanlar tizimiga moslik va xoslik qonuniyati 2. Tasavvuf falsafasining inson ma'naviy-ruhiy dunyoqarashini shakllantirish qonuniyati 3. Tasavvuf falsafasining inson ruhiy kamolotiga erishtirish qonuniyati.4. Tasavvuf falsafasining islom falsafasi va qadriyatlari bilan uyg‘unlik qonuniyati. 5. Tasavvuf falsafasining dinamik o‘zgaruvchanlik qonuniyati 6. Tasavvuf falsafasining umuminsoniy ta'limot qonuniyati.

Shu bilan birga tasavvuf falsafasi fan sifatida insonning atrof-muhitda sodir bo‘layotgan hodisa va jarayonlar bo‘lgan munosabati va uni bila olish xususiyatlarini aks ettiruvchi kategoriyalarga ham ega. Tasavvuf falsafasining boshqa ijtimoiy fanlar, kategoriyalardan farqi ular o‘zlarining nihoyatda umumiyligi bilan farqlanadi. Tasavvuf falsafasi kategoriyalari insonning ma'naviy-ruhiy kamoloti pag‘onalari va tayanch markazlarini ifodalaydi. Tasavvuf falsafasining kategoriyalari o‘zining asosiy muammosi bo‘lgan inson tafakkurining yetukligiga va tashqi olam bilan munosabat darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Boshqa kategoriyalar kabi tasavvuf falsafasining kategoriyalari ham mazmun jihatdan tashqi olam qonuniyatlariga mos keladi. Tasavvuf falsafasining kategoriyalari o‘z manbai mazmuni jihatdan obyektiv, lekin shakl jihatdan subyektivdir. Chunki tasavvuf falsafasi kategoriyalari tafakkur kategoriyalari sifatida faqat kishilar miyasidagina mavjuddir. Bunday kategoriyalar jumlasiga botin va zohir, tariqat va shariat, komil inson, vaxdat ul-vujud, mehr-shafqat, tasavvuf va futuvvat, zikr, tariqat va mehnat, ilohiy bashorat va ishorat, qalb, rux, tajalliy, valiylik, oriflik, zohidlik, zikr, zohiriy va botiniy ilm, poklik, nafs, axloqlardir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda o‘tmish merosimizni o‘rganish, unga doir asarlarni tarjima qilish, atoqli mashoyixlarning maqbaralarini qayta qurish va ta'mirlashga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, Hakim Termiziy, Iso Tyermiziy, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Hoja Ahror Vali, Shayh Zayniddin, Zangi Ota, Shayh Hovandi Toxurlarning hayoti va ijodlarini chuqur o‘rganish, ularning bebaho merosidan xalqimizni bahramand etish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

Mustaqillik sharofati bilan yirik tasavvuf namoyondalari va islom ulamolari tug‘ilgan kunlarining nishonlanishi bu ulug‘ zotlar hayoti va ijodiy merosini chcqur o‘rganish zaruriyatini kun tartibiga olib chiqadi.

Eng muhimi – hozirgi demokratik davlat va fuqarolik jamiyati bunyod etilayotgan bir sharoitda insonning barcha imkoniyatlarini namoyon qilishga va oʻzligini anglashga sharoit yaratilganidir. Bu sohalarda qator gʻoya, nazariya va tajribalar mavjudki, ularni nafaqat talaba yoshlar, balki ilmiy tadqiqotchilar ham oʻrganishlari maqsadga muvofiq.

**Adabiyotlar**


1. Komilov N. Tasavvuf. Movarounnahr. –T., 2009.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. –T.: Sharq, 2012.
3. Navroʻzova G. Bahouddin qalamiga mansub risola. Bahouddin Naqshband. Avrodi. Avrodi bahoiya. – Buxoro. 2000.
4. Navroʻzova G.N. Naqshbandiylik tasavvufiy ta'limoti va barkamol inson tarbiyasi: fal.fan.dok. ...diss. –T., 2002.
5. Nosirov R. Tasavvuf ta'limoti, uning mohiyati va ahamiyati. –T., 1996.
6. Ismoilov S. Naqshbandiylik –jahonshumul tariqat. –T.: Mumtoz soʻz. 2016.
7. Holmuminov J. Jomiy va vaxdat ul-vujud ta'limoti. –T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
8. Boltaboyev H. Islom tasavvufi manbalari. Tasavvuf nazariyasi va tarixi. –Toshkent: Oʻqituvchi, 2005.
9. Dilorom Salohiy . Tasavvuf va badiiy ijod. –Toshkent: Navroʻz, 2018.
10. Shodiyev R., Bahriyeva D.H. Sufizm v duhovnie jizni narodov Maverannaxra. (IXI-XII) – Samarkand, 2018.


**UDK 1(575.1)**

## KITOBXONLIK VA MUTOLAA MADANIYATINING INSON MA’NAVIYATIDAGI OʻRNI

**U.J.Nurmatova**
*Samarqand davlat universiteti*
*umidaxonnur2008@mail.ru*

**Annotatsiya.** Maqolada, kitobxonlik va mutolaa madaniyatini yuksaltirish muhim vazifa sifatida qaralib, kitobxonlikning mohiyati toʻgʻrisidagi fikr-mulohazalar, mutolaa madaniyati inson ma’naviy kamolotini yuksaltirishdagi ahamiyati, mutolaaning falsafiy jihatlari tahlil qilingan. Inson ma’naviy olamini boyitishda mutolaa madaniyatini yuksaltirish uchun kitobni tanlay bilish, aqliy kamoloti, ahloqiy barkamolligi hamda kitobga boʻlgan mehrini oshirish borasida bahs-munozaralar oʻrganilgan. Mazkur ishda, mamlakatimizda mutolaa bilan bogʻliq mavjud vaziyatlar oʻrganilib, ularning yechimiga oid metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit soʻzlar:** kitobxon, mutolaa, mutolaa madaniyati, oʻqish madaniyati, axborot madaniyati, elektron kitob.

### Роль библиотеки и читательской культуры в духовности человека

**Аннотации.** В статье рассматривается развитие культуры чтения как важная задача, анализируются взгляды на сущность чтения, значение культуры чтения в повышении духовной зрелости человека, философские аспекты чтения. Изучаются дебаты о возможности выбора книги для повышения культуры чтения с целью обогащения духовного мира человека, повышения его умственной зрелости, нравственного совершенства и любви к книге. Изучается текущая ситуация с чтением в нашей стране и даются методические рекомендации по их решению.

**Ключевые слова:** читатель, чтение, культура чтения, культура чтения, информационная культура, электронная книга.

### The role of library and reading culture in human spirituality

**Abstract.** The article considers the development of reading and reading culture as an important task, analyzes the views on the essence of reading, the importance of reading culture in raising the spiritual maturity of man, the philosophical aspects of reading. Debates have been studied on the ability to choose a book to enhance the culture of reading in order to enrich the spiritual world of man, to increase his mental maturity, moral perfection and love for the book. In this work, the current situation with reading in our country is studied and methodological recommendations for their solution are given.

**Keywords:** reader, reading, reading culture, reading culture, information culture, e-book.

Olamni oftob chorog‘on etadi. Odamning ko‘nglini, yo‘lini Kitob yoritadi. Olamning mavjudligi uchun oftob qanchalik zarur bo‘lsa, odamning kamolga yetishi uchun kitob shunchalik kerak. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Hozirgi paytda hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala, ya’ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo‘lgan muhabbatini, ularning ma’naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi”.[1] Darhaqiqat, kitob, kitobxonlik yoshlarga zamonaviy bilim asoslarini berish bilan birga ularda kitobxonlik madaniyatini ma’naviy ehtiyoj sifatida shakllantirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa o‘z-o‘zidan jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishga asos bo‘ladi.

Prezident tomonidan kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasi kun tartibiga bejiz qo‘yilmadi. Buning negizida kitobni bilib tanlash, anglab o‘qish, o‘qib amal qilish turadi. Tarixiy farmoyishda belgilab berilgan vazifalar ijrosi zamirida kitob yozish, chop etish, targ‘ibot qilish, o‘qish va o‘rganishdek ulkan maqsadlar mujassam. Chunki kitob – insonning ma’naviy borlig‘ini yaratuvchi buyuk kuch, insoniyatning tarixiy xotirasi, kelajak yo‘llarini yorqin ko‘rsatib berishga qodir mash’aladir. Yaxshi kitoblarni ko‘proq chiqarib, bolalarimizning savodxonligini oshirish – ertangi kunimiz bugundan-da go‘zalroq bo‘lishining kafolatidir.

Albatta, kitob rastalarida kitoblar ko‘p, shu barobarida, kitobxonlar ham oz emas. Lekin biz kitobni tanlab, saralab o‘qishni bilamizmi? Demak, kitobxonlik va mutolaa madaniyatini oshirishga qaratilgan barcha tadbirlarimizdan ko‘zlanayotgan maqsad – yoshlarimiz to‘g‘ri kelgan kitobni emas, aynan bizning millatimiz ruhiga mos, qalblarga ma’naviy oziq, boylik beradigan asarlarni o‘qishlarini targ‘ib etishdir.

A.Umarov ta’kidlaganidek, “Kitobxon” so‘zining lug‘aviy ma’nosi “kitob o‘quvchi”dir. Kitobxonlik esa faoliyat turi hisoblanadi. Ya’ni kitob o‘qishni tashkil etish, kitob o‘qish bilan shug‘ullanishdir. Ilmiy adabiyotlarda “kitob o‘qish” atamasi o‘rniga “mutolaa” tushunchasi ko‘proq qo‘llaniladi. Yana shuni ta’kidlash kerakki, keyingi paytlarda “mutolaa” deganda “kitob o‘qish”ga nisbatan kengroq tushuncha anglashiladigan bo‘ldi. Bugungi kunda kitob va gazeta jurnallarni o‘qishdan tortib, elektron matnlarni xatm qilishgacha “mutolaa” atamasi bilan ifodalanmoqda.[2]

Mutolaa madaniyati – o‘quvchilarda kitob o‘qishga qiziqishni shakllantirish, badiiy asarlarni tahlil etish va xulosa chiqarish, axloqiy-estetik ideallarni shakllantirishga qaratilgan yaxlit jarayondir. Kitobxonlik tor ma’noda kitob o‘qishni bildirsa, keng ma’noda tanlab, his qilib o‘qish, anglash, fikr bildirish tushunchalarini o‘z ichiga oladi. U badiiy adabiyotdan oziqlanadi, adabiy tanqid va pedagogika ko‘magida yuksala boradi.[3]

Gyotening yozishicha: “Kitobxonlikka o‘rganish uchun qanchalik ko‘p vaqt sarf qilinishini odamlar tasavvur qilmaydilar, buning uchun men hayotimning 80 yilini bag‘ishladim, lekin hali ham o‘rgandim, deb ayta olmayman”. V.F.Asmusning fikricha, kitobxonlik bu, “Mutolaa vaqtida asar bir ko‘zadan ikkinchi ko‘zaga quyilgan suv kabi kitobxon miyasiga quyilib qolmay, balki ijodkor kitobxon tomonidan qayta idrok etiladi”. “Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda,- deb yozadi X.To‘xtaboyev,- kitobxonlik fan darajasiga ko‘tarilgan. Kitobxonlik kitobni targ‘ib qilishgina emas, balki kitob o‘qishni, o‘qiladigan kitobni tanlay olishni, mag‘zini chaqishni, ya’ni kitob yordamida o‘zini anglashni o‘rgatish hamdir”.

Tarixiy manbalarimizda buyuk insonlar qoldirgan ilmu kashfiyotlar tarixiy yurushlar, komil insonlar to‘g‘risidagi va barcha sohadagi bilimlarimiz, dunyoqarashimiz tasavvurlarimiz aynan kitob orqalidir. Kitob mutolaasiga bo‘lgan qiziqish, yuksak e’tiborni buyuk allomalar Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiylarning hayoti va asarlaridagi fikr-mulohazalarida kuzatish mumkin. Beruniy faxr bilan shunday yozgan: “Mening fikr-u yodim, butun qalbim ilm-fanni targ‘ib etishga qaratilgan. Men bilim orttirishdek lazzatdan bahramand bo‘ldim, buni men ulkan baxt deb hisoblayman”, - deydi. Ibn Sino bolaligidan kitobatga qiziqdi, ko‘p kitoblar o‘qidi va tabib bo‘lib tanildi. O‘smirlik davrida o‘lim to‘shagida yotgan Buxoro hukmdorini davoladi. Sog‘aygan hukmdor unga “Tila tilagingni”, - deya murojaat qildi. Yosh xaloskor tabib ko‘pchilikni ajablantirgan holda hukmdordan saroy kutubxonasida mutolaa qilishiga ruxsat berishini so‘radi. Ha, u har qanday boylikdan kutubxonada kitoblar o‘qib, ilm javohirlarini terishni afzal bildi. O‘sha davrda dunyodagi eng boy kutubxonadan unumli foydalanish uning Sharqda – Abu Ali ibn Sino, G‘arbda – Avitsenna nomi bilan shuhrat qozonishiga zamin yaratdi.[4]

Yurtimizda kitobga nonday aziz ne’mat sifatida qaralgan, farzandlarga bolaligidan kitobga mehr ruhi singdirilgan. Xususan, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida yozilishicha, maktabda o‘qib yurgan kezlari muallim bolalarning har qaysisiga badiiy kitoblardan birini o‘qishni buyuradi. Kimdir Sa’diy Sheroziyning “Guliston”ini, boshqa birov uning “Bo‘ston”ini tanlaydi. Yosh Alisher esa Farididdin Attorning “Manqut ut-tayr”ini o‘qishga tushadi. U doston mutolaasiga shu qadar berilib ketadiki, ota-onasi bundan qattiq xavotirlanadi. Oxiri ular bolaning qo‘lidan kitobni olib, yashirishadi. “Foydasi yo‘q edi, -deb

yozadi Navoiy, - chunki men uni to‘liq yodlab olgan edim”.[5] Bu “Bolalikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqshdir” degan xalq maqolining isbotidir.

Xalqimiz bebaho kitoblari, kitobxonlik madaniyati bilan nom qozongan. O‘zbek xonadoni tokchasida hamisha kitob bo‘lgan, uyi to‘ri shiftidagi maxsus g‘ilofda saqlangan kitob xonaga nur taratgan.

Shunday ekan, kitob, kitobxonlik va mutolaa madaniyatini yuksaltirish har bir davrda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Kitobxonlik faoliyatining, madaniyatining negizi-o‘qish madaniyatidir. “O‘qish madaniyati” atamasi nuqtai nazarga qarab turli xil yo‘llar bilan izohlanadi, u turli xil mazmun va ma’no bilan to‘ldiriladi.

Falsafiy ma’noda o‘qish madaniyati “aniq bir makon sifatida, shaxsning axloqiy va intellektual uyg‘unligi nomidan o‘qish hodisasi tomonidan hosil bo‘lgan ajralmas muhit sifatida” tushuniladi.[6] “O‘qish madaniyati” tushunchasini turli formatlarda (yozma, bosma va elektron) taqdim etilgan og‘zaki ma’lumotni idrok etish, tushunish va tahlil qilish qobiliyati deb ta’riflash mumkin.[7] Binobarin, faoliyatga asoslangan bilish jarayoniga asoslangan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida o‘qish madaniyati jamiyatning intellektual va ma’naviy rivojlanish darajasini belgilaydi.

Yu.P.Melentevaning talqinidagi “o‘qish madaniyati” atamasi “ma’lumot dunyosiga sayohat qilish qobiliyati” bilan bir qatorda “kitobga bo‘lgan muhabbat”, “kitobxonlikka qiziqish”, “o‘qishni anglash” va “ijodiy o‘qish” kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, “o‘qish madaniyati ko‘proq ichki, shaxsiy, hatto samimiy tushunchadir”.[8] Shunday qilib, ko‘plab zamonaviy olimlarning nashrlarida o‘qish madaniyatiga murakkab ijtimoiy-ma’naviy hodisa sifatida qaraladi.

Mamlakatimizda kitobdan foydalanish qobiliyatini yuksaltirish uchun o‘qish madaniyati oshirish borasida bahs-munozaralarga e’tibor qaratsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. I.Yo‘ldoshev “O‘qish madaniyati – juda keng qamrovli tushuncha bo‘lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob va u bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo‘lishni, shuningdek, kitobdan to‘la ravishda foydalanishga yordam beruvchi ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishni taqozo etadi” desa, Safo Matchon: “Kitobxonlik – o‘qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o‘qish, ya’ni maqsadli o‘qishdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kitobxonning yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikrini nechog‘li o‘qishini, ya’ni asar “tili”ga tushunishi kitobxonlik madaniyati, talanti darajasini ko‘rsatadi. Shu tufayli adabiyotimiz talantli yozuvchilar bilan birga talantli kitobxonlarga ham hamisha ehtiyoj sezadi”. Uning fikricha, kitobxonlik talanti tug‘ma emas, balki tarbiya vositasida kamol topadi.

A.Umarov yozganidek, mutolaa madaniyatini egallagan kishi manbani to‘laqonli tushunadi, undan estetik zavq ola biladi, teran dunyoqarashga ega bo‘ladi, muallif fikri va g‘oyasini anglab yetadi hamda uni baholay oladi. Bundan tashqari kitob va kutubxonadan foydalanish, o‘zini qiziqtirgan masalalarga doir manbalarni topib olib, mushohada qilish yo‘llarini puxta o‘zlashtirgan bo‘ladi. Kitobni tanlay bilish, uni yuqori sur’at bilan o‘qish, avaylab saqlash, shaxsiy kutubxona tashkil etish, o‘qilgan kitoblarni boshqalarga tavsiya eta olish ham mutolaa madaniyatiga kiradi.[9] Demak, A.Umarov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, mutolaa madaniyatini shakllantirish masalasida “kimning nimani o‘qishi” juda muhimdir. Hozirgi matbaa imkoniyatlari natijasida kitob nashr qilish o‘ta ilgarilab ketdi. Elektron shakldagi kitoblar ham ko‘paymoqda. Bugungi zamonda har kim qaysi shaklda (elektron, qog‘oz) bo‘lmasin o‘z maqolalari, risolalari, kitoblarini ko‘paytiradi va tarqatadi, xullas, har kim o‘z fikrini, o‘z g‘oyasini o‘tkazmoqchi bo‘ladi. Bu juda katta xavf. Xalqimizda “Ustoz ko‘rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘alar” degan maqol bor. Endilikda yosh kitobxonlarga yordam berish kerak. Ularning qiziqishlarini to‘g‘ri o‘zanga solish lozim. Shuning uchun pedagoglar, olim va mutaxassislar, sotsiolog va psixologlar kim nimani o‘qiyotgani bilan qiziqishi, o‘rganishi kerak. Ayniqsa, mislsiz axborot oqimi orasidan (kitob ham axborot manbai ekanini unutmang) yaxshi, zarur, foydali axborotni, kitobni ajratib berishda tajribali murabbiylar, o‘qituvchilar va adabiyotshunoslar ko‘magiga ehtiyoj katta. Kitobxonlarni, ayniqsa, yosh kitobxonlarni, to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish uchun malakali maslahatlar, tavsiyalar zarur.[9]

Shunday ekan, inson ma’naviy olamini boyitishda mutolaa madaniyatini yuksaltirishda nimalarga jiddiy e’tibor qaratish lozim. Bugungi kunda juda ko‘p muammolar ko‘z oldimizga keladi. Xususan, 1).Kitobxonlikka havas, qiziqishni qanday uyg‘otish mumkin? 2). Qanday kitoblarni o‘qish kerak? 3). Kitobni qanday o‘qish kerak? Fikrimizcha, birinchi masala juda muhimdir. Agar shu masala hal etilsa, kitobxonlik madaniyati bilan bog‘liq barcha muammolarning yechimi topiladi. Kitobxonlikka havas uyg‘ongandan keyingina qanday kitoblarni o‘qish va ularni qanday o‘qish haqida mulohaza yuritish o‘rinli bo‘ladi. Chunki har qanday ish zavq-shavq, ishtiyoq bilan bajarilsagina kutilgan samarani beradi. Kitobxonlikda ham xuddi shunday. Kitobxonlik madaniyatini oshirishda kutubxonaning ham o‘rni muhim.

Ayniqsa, yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini oshirish bir qator obyektiv va subyektiv sabablar bilan chambarchas bog‘liq. Bu borada sifatli, arzon kitob mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda sotishni tashkil qilish, chekka tuman, qishloq joylarida kutubxonalar va kitob do‘konlari barpo etish, ularga

yoshlarni faol jalb qilish choralarini ko‘rish, ta’lim muassasalari, shuningdek mehnat jamoalari kutubxonalari moddiy-texnik bazasini takomillashtirish, ularni yangi nashrlar bilan to‘ldirish kabi masalalarni hal etilishi ham ma’lum bir ma’noda kitobga bo‘lgan mehr-muhabbatning ortishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotchi X.Haqnazarovning fikricha yoshlarni kitob bilan yetarli darajada ta’minlanmayotganligiga bir qator sabablar mavjud bo‘lib, ular orasida kutubxonalarning yetarli emasligi (38,2 %), kitob do‘konlarining kamligi yoki umuman yo‘qligi (20,7 %), kitob mahsulotlarining narxi nisbatan qimmatligi (18,0 %) va ayrim hollarda ularning sifatsizligi (2,8%) sabab bo‘lmoqda.

Yana shuni ta’kidlash o‘rinliki, 20,3 % yoshlarda bu borada hech qanday muammo yo‘q, lekin turli vajlar tufayli ular kitob o‘qishga shunchaki qiziqishmaydi. Uning vaqtini boshqa vositalar egallagan degan fikrni bergan va bu borada internetning imkoniyatlari oshib borayotgani kitobga qiziqish oshib bormayotganligining sabablaridan biri sifatida ko‘rsatib o‘tgan.[10]

Tadqiqotlarga ko‘ra, 2020-yilda dunyodagi bugungi davlatlar va mintaqalarda kitobxonlik darajasi quyidagicha ko‘rinishda. Bir yilda o‘qiladigan kitoblar soni: Yevropa davlatlarida har bir odam o‘rtacha 40 ta, Isroilda 35 ta, Rossiyada 12 ta, Turkiyada 10 ta, arab davlatlarida 8 ta. Achinarli tomoni shundaki, Markaziy Osiyo davlatlarida kitobxonlik darajasi eng past ko‘rsatkichga ega, ya’ni ushbu mintaqada 80 ta odam bir yilda 1 ta kitob o‘qir ekan. Xo‘sh, sizningcha bizda bir yilda qancha kitob o‘qishadi? Siz o‘zingiz o‘tgan bir yillik vaqtingizni emas, karantinda uyda qolgan olti oyni sarhisob qilsangiz, qanday raqamlar hosil bo‘ladi?!

Darhaqiqat, bugungi kunda kitobxonlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadigan ko‘plab sabablar mavjud: an’anaviy insonparvarlik qadriyatlari tizimining yo‘qolib borayotganligi, internet, xorij filmlari, uzluksiz berilayotgan turk seriallari ta’siri va boshqalar. Shuningdek, biz kitob o‘qishdagi to‘siqlarni kitoblarning yuqori narxi, kitob sotuvchilarning assortimenti, tez foyda olish, kutubxona fondlarining kamligi va kutubxonaga xizmat ko‘rsatishning qoniqarli ahvolda emasligi, deb bilamiz.

Shunga qaramay, bugungi kunda tarmoqda kitobxonlar jamoalari jadal rivojlanmoqda. Professional bo‘lmagan tavsiyalar institutining o‘z-o‘zidan shakllanishi, elektron kitoblar, kitobxonlar va boshqalar savdosi tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda.

Kompyuter texnologiyalari va mobil Internet texnologiyalari yordamida aholining katta qismi internet-trafiklardan foydalanmoqda. Buning yordamida elektron o‘qish asosan biznes, ta’lim yoki aloqa bilan shug‘ullanmoqda, shundan keyingina bo‘sh vaqtining ozgina qismida diniy va ma’naviy narsalarga ajratadi. Bugungi kunda elektron o‘qish tez dunyoviylashtirilmoqda. Xo‘sh, elektron kitob nima? “Elektron kitob - bu yozma matnni o‘qish, xaritalar va foto albomlarni ko‘rish, audiokitoblar va sevimli musiqalarni tinglash imkonini beradigan ixtisoslashtirilgan ko‘ngilochar vosita. Axborot madaniyati nazariyotchilari nuqtai nazaridan elektron o‘qish ekrandagi, interfaol, multimediya, elita, tarmoq orqali o‘qish bo‘lib, bu dunyo kutubxonasiga kirishga imkon beradi”.[11]

Shunday ekan, uzoq aholi punktlarida yashaydigan hamda kutubxonalarga borish imkoniyati cheklangan fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida ko‘chma kutubxona xizmatini rivojlantirish, kutubxonalararo abonoment va hujjatlarni elektron yetkazib berishni, kutubxona resurslaridan masofaviy foydalanishni yo‘lga qo‘yish, ushbu ziyo maskanlarida individual, guruh hamda ommaviy kitobxonlikni tizimli ravishda tashkil qilishni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini tarbiyalash, yuksak badiiy asarlarga oshno tutintirish, mamlakatimizdagi kutubxonalar imijini yaxshilash bo‘yicha aniq mexanizmlar taklifini berish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

Barcha davrlarda ham inson hayoti uchun eng zarur narsalar qadrlanib, e’zozlangan. Ulardan eng muhim va azizi–non, ikkinchisi kitobdir. Non – inson tanasiga kuch-quvvat beruvchi moddiy ne’mat bo‘lsa, kitob-hamisha insoniyat uchun ma’naviy boylik qudrat timsoli bo‘lib kelgan. Shu bois, xalqimiz uchun kitobxonlik–ma’naviy davlatmandlikdir.

Inson ko‘p kitob o‘qisa, fikr doirasi tiniqlashib boradi. O‘qish madaniyatini shakllantirish asosida “kitobxonlik madaniyati” rivojlanadi. Kitobxonlik madaniyati fan darajasiga ko‘tarilishi uchun kitob mutolaasini targ‘ib etish, muntazam kitob o‘qishga odatlanish, o‘qish uchun kitobni to‘g‘ri tanlay olish, voqelik bilan muloqotga kirishish asosida o‘z-o‘zini anglashga erishish o‘ta muhim sanaladi. O‘qish madaniyati keng qamrovli tushuncha bo‘lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishish, kitob bilan ishlash haqidagi maxsus bilimga ega bo‘lishni taqozo etadi. O‘quvchilar har qanday axborotga ongli, estetik munosabat bildira oladigan, undan to‘g‘ri foydalanadigan darajaga yetishi uchun ko‘p kitob o‘qishi, kitobxon undan tegishli huzur va ruhiy qanoat tuyishi lozim. Buni ixcham tarzda estetik to‘yinish deb ifodalash mumkin. O‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirish tizimli tavsifga ega bo‘lib, mazkur jarayon motivatsion, tashkiliy, qadriyatga yo‘naltirilgan harakatlar ketma-ketligini o‘zida ifoda etadi.[12]

Demak, **birinchidan,** kitobxonlik va mutolaa madaniyati inson ma’naviy borlig‘ida chuqur ildiz otganki, asrlar davomida insonlarda ahloqiy, badiiy, estetik taafakkurini shakllantirishda, olamni bilish, dunyoqarashini kengaytirish, ma’naviy borlig‘ini ma’nolar bilan boyitgan substansional elementi sifati doim dolzarbligini saqlab qoladi; **ikkinchidan,** kitobxonlik - bu insonning o‘z ustida ishlashi, faoliyatini ma’lum yo‘nalishga burib yuborish, ongida ma’lum tuyg‘ularni, e’tiqod va dunyoqarashni hosil qilish, uni o‘ylashga, hayotda qanday yashashga o‘rgatish, fikr yuritish, yozuvchining insonparvarlik, axloqiy, estetik, badiiy, fuqarolik nuqtai nazarini bilib olish, uning ma’naviy o‘gitlarini ilg‘ab olish va bular asosida o‘z hayot yo‘li dasturini belgilash, yozuvchi bilan munozaraga kirishish, har bir o‘qigan kitobidan yangilik topish, ma’naviy dunyosini boyitishdan iboratdir; **uchinchidan,** mutolaa madaniyati ijtimoiy maqsadlar, ehtiyojlar hamda mutolaa subyektlari intilishlarining o‘ziga xos uyg‘unlashuvidir. Mazkur hodisani jamiyatda ma’naviy-intellektual yuksalishga bo‘lgan intilishlarning o‘ziga xos namoyon bo‘lish shakli, deyish mumkin. Mutolaa madaniyati faqat umuminsoniy va gumanitar milliy qadriyatlar uyg‘unlashgan jamiyatlardagina yuksaladi; **to‘rtinchidan,** bugun yoshlar yuragiga Navoiy asarlaridagi olijanob tuyg‘ular, insonparvarlik g‘oyalari kirib bormaydigan bo‘lsa, ularning o‘rnini xorijdan kirib kelayotgan turli xil axloqsiz g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi “asarlar” egallab olishi qiyin emas. Shunday ekan, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish uchun oilaviy ta’limdan tortib davlat ishtirokigacha bo‘lgan barcha muassasalar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish lozim.

## Adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб –интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – Б.47
2. «Fan, ta’lim, madaniyat va biznesda Internet va axborot-kutubxona resurslari», Xalqaro konferensiya materiallari «Central Asia – 2017. 11; Namangan. Б-63
3. Сафо Матчон. Китоб ўқишни биласизми? – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. 4-бет
4. Kitob oftobiga aylanayotgan yurt. Til va adabiyot ilmiy-metodik jurnali. 2019 yil 7-son. 3-bet.
5. Sultonmurod Olim. Navoiy qanday mutolaa qilgan? Tafakkur jurnali 3-2017. 56-bet.
6. Галактионова Т. Г. Чтение школьников как социально-педагогический феномен открытого образования (теоретико-методические основы исследования) : моногр. – СПб., 2007. – 124 с
7. Перцовская Р. Ф. Развитие культуры чтения основа формирования инновационного мышления //Науч. лаб. "Социально информационные технологии" при каф. Информационно-аналитич. деятельности факультета менеджмента и социально-информац. технологий Мос. гос. Ун-та культуры и искусств [Электронный ресурс]. – УРЛ: ҳттп://мисит.усоз.ру/лоад/15-1-0-41 (дата обращения 18.11.2013)
8. Мелентьева Ю.П. Чтение, читатель, библиотека в изменяющемся мире. – М.: Наука, 2007. С. 134-135
9 «Fan, ta’lim, madaniyat va biznesda Internet va axborot-kutubxona resurslari», Xalqaro konferensiya materiallari «Central Asia – 2017. 11; Namangan. Б-64
10 Хақназаров Х.Д. Ўзбекистон ёшларининг кундалик турмуш тарзи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т.: 2019.40-44 б
11 Гудова Маргарита Юрьевна. Чтение в эпоху постграмотности: культурологический анализ. Дисс. … канд. наук/ Екатеринбург – 2015. С-81
12 Oqila To‘raqulova. Analitik tafakkur va kitobxonlik madaniyati. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali. 2019 yil, 3-son. 29-bet.

**UDK: 1:17**

# MUSTAHKAM OILA – JAMIYAT RAVNAQINI BELGILOVCHI OMIL SIFATIDA

**S. T. Sobirova**
*Toshkent davlat transport universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada oilaga doir konseptual g‘oyalar o‘z aksini topgan bo‘lib, unda oilaning ahamiyatli jihatlari, oila to‘g‘risidagi qarashlar reproduktiv bog‘liqligi kontent tahlil etilgan. Shuningdek, sharq va g‘arb mutafakkirlarning oilaga oid qarashlari o‘z aksini topgan. Shuningdek maqolada oilani saqlab qolish sifatlari va uning rivojlanishida jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy omillarning o‘rni haqida ham to‘xtalib, bunda Sharq xalqlariga xos jamoaviylik o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar**: ehtiyoj, boshqaruv, rahbarlik qobiliyati, liderlik salohiyati, axloq, adolat, siyosat, talab, shaxsiy xususiyatlar, salohiyat, jamiyat taraqqiyoti.

**Сильная семья как определение развития общества**

**Аннотация**. В статье отражены концептуальные представления о семье, проанализировано содержание важных сторон семьи, репродуктивная взаимосвязь взглядов на семью. Он также отражает взгляды восточных и западных мыслителей на семью. В статье также рассматриваются качества выживания семьи и роль социокультурных факторов в ее развитии в обществе, выделяются особенности коллективизма народов Востока.

**Ключевые слова**: потребность, менеджмент, лидерские качества, лидерский потенциал, этика, справедливость, политика, спрос, личностные характеристики, потенциал, развитие сообщества.

**A strong family as a determining development of society**

**Abstract.** The article reflects the conceptual ideas about the family, analyzes the content of the important aspects of the family, the reproductive relationship of views on the family. It also reflects the views of Eastern and Western thinkers on the family. The article also discusses the qualities of family survival and the role of socio-cultural factors in its development in society, highlighting the peculiarities of the collectivism of the peoples of the East.

**Keywords**: need, management, leadership skills, leadership potential, ethics, justice, politics, demand, personal characteristics, potential, community development.

## Kirish

Oila tinch, mustahkam, halol-pok bo‘lsa, jamiyat ham osoyishta va farovon bo‘ladi. Jamiyat ravnaqi oila ravnaqi bilan chambarchas bog‘liq. Oilani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ularni har tomonlama jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida barqarorligini ta‘minlash har bir mamlakatning doimiy e‘tiborda bo‘ladigan ustuvor yo‘nalishlardan biri sanaladi.

Bugungi ijtimoiy munosabatlarning yangi rivojlanish bosqichida, ya‘ni ma‘naviy omilga asosiy e‘tibor qaratilayotganligini inobatga olgan holda inson o‘z iqtidorini namoyon etishda turli vazifalarni bajarish asnosida oilaning funksional xususiyatlarini ham e‘tiborga olish talab etilmoqda. Garchi, bu oddiy holatday ko‘rinsa-da, bunda har bir oila a‘zosining individualligini hisobga olsak, bu masala dolzarb ijtimoiy-psixologik mavzu sifatida ahamiyatlidir. Ijtimoiy psixologiya fanidan ma‘lumki, inson hayoti davomida har xil vaziyatlarga tushadi va turlicha taassurotlar bilan yashaydi. Ammo har qanday vaziyatda, inson ma‘naviy lazzatni, tom ma’nodagi hordiq chiqarishni, o‘zini xotirjam his etishni faqatgina oiladan oladi. Shu sababli bo‘lsa kerak, oila institutiga “qutqaruv hikmat maskani” sifatida qarash lozim[1]. Oila, ijtimoiy institut sifatida inson va jamiyat hayotida qay darajada muhim o‘rin tutishini quyidagi holatlar bilan ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- insoniyat tarixi shuni ko‘rsatmoqdaki[2], biron bir jamiyat alohida muhim ijtimoiy buyurtmalarni bajaruvchi oilaning (turli shakllarda bo‘lsada) ishtirokisiz amal qilmagan;
- shu kunga qadar, oila yagona maskan sifatida inson kamolotini ta‘minlashda ishtirok etib, uning ijtimoiy-madaniy, axborot va ma‘naviy yaratuvchi sifatida tarbiyalab kelayotgan ijtimoiy institut hisoblanadi;
- biron bir institut (fond, birlashma, tashkilot va b.) qanchalik inson manfaatini himoya qilishga, ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallab tuzilmagan bo‘lsin, insonning psixologik jihatdan yolg‘izligini hal etolmaydi;
- oila, insonning jamiyat hayotiga kirib borishini ta‘minlab, ijtimoiylashuvini ikki (ong (tafakkur, hissiyot, iroda) va faoliyat) tarzda ta‘minlash uchun xizmat qiladi.

## Tadqiqotning maqsadi

Oila mustahkamligiga ta‘sir etuvchi omillarni ko‘rsatish va uning funksiyalarini tadqiq va tahlil etishdan iborat.

## Tadqiqotning usuli va obyekti

Mazkur jarayonda retrospektiv va qiyosiy tahlil, faoliyat mahsulini o‘rganish, kuzatuv, hujjatlarni o‘rganish kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekistonda oila va nikoh masalalarini tadqiq etildi.

## Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi

Oila, bu ijtimoiy hayot tarzini (yaqin qarindoshlik rishtalarini joriy etish, o‘zaro hurmat ko‘rsatish mas‘uliyati, manaviy ehtiyojlarni qondirish) ta‘minlash uchun munosabatlarning institutlashuvini ta‘minlovchi ijtimoiy institut hisobalanadi. Oilaning vujudga kelishiga oid turli, ya‘ni: falsafiy, tarixiy, iqtisodiy, huquqiy, sotsiologik va psixologik ta‘limotlar yaratilgan bo‘lib, har bir fan sohasi oila

institutining biron-bir jihatini yoki oila va uning a'zolari bilan bog'liq bo'lgan rishtalarning o'ziga xos jihatlarini o'z predmeti doirasida o'rganadi. Mazkur yondashuv, oila institutining tadqiqot obyekti sifatida serqirraligini ko'rsatib, nazariy-amaliy mazmunga egaligini belgilovchi ko'rsatkich hisoblanadi. Chunki oila, nafaqat shaxsiy baxt va xotirjamlikni ta'minlash uchun balki, nasl qoldirish, individning ijtimoiylashuvi va jamiyat hayoti muvozanatini ta'minlashda ham muhim o'rin egallaydi. Agarda, oila va uning vujudga kelishi hamda rivojlanish tarixida nazar solsak – guruhiy matriarxal, patriarxal, katta avlod vakillaridan iborat bo'lgan oila, faqatgina er-xotin va farzandlardan iborat bo'lgan nuklear oila singari tiplarini kuzatishimiz mumkin. Demak, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari jamiyat hayotining tarixiy davrlar bilan aloqadorligini ta'minlab kelgan.

Oilada amal qiladigan moslashuv mexanizmi individual oilaning muvaffaqiyaliligini belgilaydiki, buni "moslashuv hududi" deb ko'rsatsak xato qilmagan bo'lamiz. Negaki, "moslashuv hududi" o'zida oilaviy rollar taqsimoti va ularning individual bajarilishini, er-xotinlarning hissiy yaqinligini, bir-birlaridan kutishlari kabi ijtimoiy-psixologik majmualarni o'z ichiga qamrab oladi. N.Orlovaning ko'rsatishicha "oilaning muvaffaqiyatliligi er-xotin tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarning maromiga yetkazib bajarishiga bog'liqdir[3]. Bular quyidagilardan iborat:

• farzandli bo'lish va ularni tarbiyalash;
• maishiy-xo'jalik yuritish;
• ma'naviy;
• axboriy;
• madaniy;
• psixoterapevtik.

Oilaning vazifalari tushunchasi o'rnida, boshqa bir tushunchani qo'llab, masalaning mohiyatini yoritish jarayonini murakkablashtirish mumkin. Lekin, oilaning muvaffaqiyatli tarzda amal qilishi, bevosita oilaviy vazifalarni o'zaro aloqadorlikda er-xotin tomonidan bajarilishida namoyon bo'lishini inobatga olish lozim. Negaki, individual oilaning muvaffaqiyatli tarzda hayot guzaronlik qilishi, galdagi rivojlanish bosqichini egallashi turmush o'rtoqlarning oilaviy vazifalar mohiyatini anglab, ularni bajaraolishga qodirligiga bog'liqdir. Shu sababli, yoshlarni oilaviy vazifalarni bajarishga tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Negaki, O.Karpuxinni ta'kidlashicha, Rossiya Federatsiyasi yoshlarining hayotiy qadriyatlari qatorida birinchi o'rinda muhabbat (62.6%), ikkinchi o'rinda oila (54.8%) va uchinchi o'rinda sog'liq (38.5%) turar ekan[4]. Bu sotsiologik tadqiqot naijasi ham shuni ko'rsatmoqdaki, yoshlarni mustaqil oila hayotiga tayyorlashga e'tibor qaratib, ularni oilaning sarvari va bekasi bo'lib shakllanishida, o'zlari tarbiya topayotgan oila muhim o'rin tutadi. Negaki:

- yoshlar tarbiya topayotgan oilaning ma'naviy-axloqiy mikro muhiti;
- yoshlar tarbiya topayotgan oilaning moddiy va ijtimoiy mavqei;
- oilaviy muammolarni hal etishda ota yoki onaning ishtiroki;
- ota-onalarning ishlab chiqarishda bandligi;
- oilada muloqot madaniyatiga amal qilinishi;
- oila a'zolarining bir-biriga va atrofdigilarga bo'lgan munosabati;
- oila a'zolarida pozitiv "Men"ni shakllanganligi kabi ijtimoiy-psixologik xossalar, bo'lajak kelin yoki kuyov shaxsini shakllanishiga alohida ta'sir ko'rsatibgina qolmasdan, mustaqil oilaviy hayotda yo'l tutish uchun aniq xulq modellarini egallash (ko'chirish) uchun "manba" bo'lib xizmat qiladi.

Agarda mamlakatimizda, 2020 yilda qayd etilgan ajrimlar sonining statistika tahliliga e'tibor qaratsak, eng ko'p nikohdan ajralgan Toshkent shahri, Sirdaryo, Andijon va Toshkent viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa oilalar bilan ishlashda masalaga etnomadaniy jihatlarni e'tiborga olgan holda kontekstli yondashish lozimligini ko'rsatadi.

Shuningdek, har mingta oilaga nisbatan eng kam nikohdan ajrashganlar Qoraqalpog'iston Respublikasi (0,5), Qashqadaryo (0,6), Xorazm (0,6) va Surxondaryo (0,6) viloyatlarida kuzatilganligi qayd etilgan. Demak, bunda respublikamizda amalga oshirilgan "mahallabay" tizimi o'z samarasini berayotganligini ko'rishimiz mumkin. Tadqiqotchi S.S.Abdikarimova ta'biri bilan aytganda: "Lokal xususiyatga ega etnoan'analar har bir viloyat, tuman, hatto qishloqlardagi an'analarda ko'zga tashlanadi. Ushbu lokal xususiyatlar o'zbek etnoan'analarini zavqli, rang-barang qiladi. ... O'zbek oilasidagi er-xotin o'rtasidagi ahillik, mehr-muhabbat, bir-birini e'zozlash kabi axloqiy qadriyatlar etnoan'analarga gumanistik mohiyat baxsh etadi"[5.15].

Bundan tashqari, 2020-yilda kuzatilgan jami oilaviy ajrimlarning yarmida er-xotin o'rtasida farzand bo'lmagan, ajrashgan oilalarning 29,3 foizida bitta farzand hamda 20,6 foizida ikki va undan ortiq farzand bo'lganligi kuzatilgan. Eng muhim jihat COVID-19 pandemiyasi munosabati bilan ko'plab mamlakatlar oilaviy ajrimilar soni ortgan bo'lsa, mamlakatimizda esa bu holat 2019-yildagi nisbatan ijobiy

ko'rsatkichga erishilgan. Ya'ni, 2019 -yilda 31,4 mingta nikohdan ajralish holati qayd etilgan bo'lsa, 2020-yilga kelib bu ko'rsatkich 2,1 foizga kamaygan[6]. Shuningdek, 2021-yilning yanvar-mart oylari holatiga respublika bo'yicha 59 754 ta nikoh holati qayd etilgan. Bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10 243taga ko'pligi qayd etilgan[7]. Bu esa shunday og'ir va tahlikali vaziyatda ham xalqimizga xos bo'lgan kelajakka ishonch bilan qarash, o'z avlodini davom ettirish uchun intilishni yorqin ifodasidir.

O'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalariga ko'ra, tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning 67% (er-xotinlar) oilaviy vazifalarning mavjudligi va bajarishiga oid ilk saboqlarni o'zlari tarbiya topgan maskan, ya'ni oilada yanayam aniqrog'i bobo yoki buvisi, ota yoki onasining oilaviy hayot tarzidan olganliklarini ko'rsatib o'tgan. Bu ko'rsatkich ko'proq an'anaviy oilalarga, bir nechta avlod vakillaridan tarkib topgan oilalarga xos bo'lib, bunda oilaviy tarbiyada vorislikni amal qilishini kuzatish mumkin. Ammo, zamonaviy oilalarda, ya'ni er-xotin va farzandlarda iborat bo'lgan oilalarda bu ko'rsatkich qay tarzda kechishi oila masalalari bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilarning diqqat markazida turishi lozim. B.Kvashan va boshqalarning ta'kidlashicha, "vujudga kelgan yangi ijtimoiy sharoit, erkak va ayollarda yangi xulq turini yaratdi, buning natijasida bir qator yangi sifatlar ham shakllantirildi"[8.19]. Vujudga kelgan sifatlar individual oilalarning manfaatlariga qay darajada mos kelishini yosh oilalarning hayoti tarzida kuzatish mumkin. Bunda oila hayotining muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsizligini ko'rish mumkin bo'ladi. Boz ustiga, har bir oila a'zolarining o'z ma'naviy resurslarini namoyon etishga bo'lgan intilishlarini inobatga olsak, oila ma'naviyatini shakllantirish masalasi ijtimoiy mazmun kasb etgan holda muhim masalalardan hisoblanadi.

Reproduktiv vazifadoshlikni bajarishi natijasida oila a'zolarining soni ko'payadi, ya'ni oila kengayib, tarkibi-tipi o'zgaradi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan qarindoshlik (qondoshlik, yagona avlodga mansublik) rishtalari kengaygan, ya'ni ikki yoki uch avloddan iborat bo'lgan (ota-onalar va farzandlarning oilasi) oilalardagi munosabatlar psixologiyasi ilmiy o'rganish uchun murakkab tadqiqot obyekti hisoblanadi. Bunda qarindoshlik rishtasi tuzulishi, munosabatlar xarakteri, aloqadorlikning davomiyligi va mazmundorligi, kutishlar hamda hurmat ko'rsatish tarzi bo'yicha hissiy jihatdan ajralib turadi. Negaki qarindoshlik rishtasi vujudga kelishi jihatidan "Ota-O'g'il-Nabira"lar to'g'ridan to'g'ri, taqalishi jihatidan esa "Nabira-Ota-Bobo" tarzida ifodalanadi. "Aka-uka va opa-singillar"ning rishtalari jigar deb yuritiladi. Strukturaviy-funksionalligi jihatidan bu qarindoshlik rishtalri qamrovi jihatidan keng hisoblanib, kengayish aka-uka va opa-singillarning farzandlari hisobidan vujudga keladi. Bunda genelogik ta'limotning asosiy prinsiplariga tayangan holda vazifadoshlikni inobatga olib, ijtimoiy rollarni mavqeyi va ularning vazifalariga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Chunki, oilaviy munosabatlar tizimida qarindoshlik rishtasi bo'yicha ijtimoiy yaqinlikning darajalari ham amal qiladi. Masalan, ijtimoiy yaqinlikning birinchi darajasi "Ona-Qiz, Ota-O'g'il" va ikkinchi darajasi "Nabira (qiz bola) – Buvi" tarzida amal qiladi. Garchi, ko'rsatib o'tilgan qarindoshlik rishtalari gomeopatik (gomeo-yunoncha "o'xshash", "bir xil") mazmun kasb etmasa-da, lekin kamolot (rivojlanish) nazariyasi asosida qaraganda, aniqrog'i ta'lim-tarbiya yo'lida vorislikni saqlab kelinishi bo'yicha gomeopatik hisoblanadi. Shu sababli, ijtimoiy institutlar o'z vazifadorligi bo'yicha bir-biridan ajralib tursa-da, ammo inson shaxsini kamol topishida amaliy ahamiyatga egadir.

Oila ijtimoiy institut sifatida tarbiyalovchi, maqsadga yo'naltiruvchi, safarbar etuvchi, moslashtiruvchi, hordiq chiqaruvchi, nasl qoldiruvchi, psixoterapevtik, baxtga yetaklovchi kabi vazifalarni bajaradi. Ko'rinib turibdiki, oila bajaradigan vazifalar majmuasi boshqa institutlarning vazifalari qatorida ifodalanmagan. Shu sababli bo'lsa kerakki, oila ijtimoiy falsafa, sotsiologiya va ijtimoiy psixologiya kabi fan sohalarida oilaviy muloqot madaniyati, oilaviy munosabatlarda ijtimoiy yaqinlik, oilaviy rollarni transformatsiyalashuvi, oilaviy nizo va qadriyatlar kabi mavzular yo'nalishida o'rganib kelinmoqda.

Oila genezisi etnos, millat va davlatning kelib chiqishi, shakllanishi, transformatsiyaga muvofiqdir. Biroq u ikki jinsning "tabiiy ehtiyojlari" (Platon, Aristotel, Kant) ifodasi tarzida yuzaga kelgan. Ammo, bu ehtiyojlar ong, tafakkur va empirik tajribalarning ortishi bilan transformatsiyaga uchrab, ijtimoiy-demografik, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy ruhiy omillar bilan uyg'unlashgan. Natijada oila inson rang-barang ehtiyojlarini madaniyat va tartiblarga bog'lagan, pirovardida insonning o'zini ham yovvoyidan farq qiluvchi ongli, madaniyatli mavjudotga aylantirgan[9.18].

Professor G'.Shoumarov oila qurishda kuzatilishi mumkin bo'lgan muddatlar va oila yoshiga nisbatan munosabat bildirib, "1 yilgacha turmush tajribasi ega bo'lgan oilalar o'ta yosh oilalar, 1 yildan to 3 yil turmush tajribasiga ega bo'lgan oilalar esa yosh oilalar, 3 yildan 5 yilgacha turmush tajribasiga ega bo'lgan oilalar o'rta yoshli oilalar deb ko'rsatgan"[10]. O'z navbatida bu tarixiy vaqt (davr) davomida oilada kuzatiladigan muammolar vujudga kelish sababi, kechishi, davomiyligi kabi ko'rsatkichlari bo'yicha ham ajralib turadi.

Nazariy jihatdan oila turli belgilari asosida guruhlarga ajratiladi, bunda nikoh yoshi, er-xotinlarning millati va yoshi, kasbi, yashash joyi, ma'lumoti, kasbi (ixtissosligi) ajratuvchi belgi sifatida

inobatga olinishi mumkin. Bu tarzdagi guruhlanish oila va uning a'zolariga psixologik yordam ko'rsatish uchun (psixologik maslahat, psixologik diagnostika, psixokorreksiya va b.) qo'llaniladigan psixotexnikalarni maqsadli tanlab olish uchun amaliy mazmun kasb etadi[11, 12].

Amaliy jihatdan, oila uchun muhimi, bu oilaviy hayot bosqichlarini muvaffaqiyatli o'tash hisoblanib, kasbiy belgilari bo'yicha bu bosqichlar bir-biridan farqlanadi. Masalan, T.Semikina "harbiy xizmatchilar oilasida bu bosqichlar o'ziga xos tarzda kechib, bunda barcha mas'uliyat faqatgina er va xotinning zimmasidaligi, harbiy jamoaning amaliy yordami, turli darajadagi komandirlarning maslahati asosida o'tishini"[13] ko'rsatib o'tgan.

Tarixiy rivojlanish davrida har bir oila bir qator bosqichlardan o'tib, natijada oila institutida ijobiy va salbiy tendensiyalar kuzatiladi. Ijobiy tendensiyalari haqida professor V.Karimova quyidagicha munosabat bildirgan: "Oila va nikoh borasidagi ijobiy tendensiyalardan yana biri – bu yigit va qizlarning nikohga kirish yoshidagi o'zgarishlardir. Oxirgi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarimizdan ma'lum bo'lishicha, birinchi marta nikohga kirgan yigitlarning o'rtacha yoshi 24,3 va qizlarniki 21,5 yoshni tashkil etmoqda. Zero, agar eslaydigan bo'lsak, 90-yillarning boshida nikohning yosharishi bashorat qilingan edi"[14.12]. Oila hayotini silliq kechishidan, uning a'zolarini xotirjamligini ta'minlashdan nafaqat yoshlarning o'zlari, ota-onalari va yaqin qarindoshlari, balki mahalla, kasbiy jamoa, bir so'z bilan aytganda butun jamiyat manfaatdordir. Negaki, oila ijtimoiy institut sifatida shaxsning ijtimoiy-psixologik jihatdan yetilishini ta'minlaydi. Bu esa quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- tafakkur madaniyatini egallanganligida;
- nizoli vaziyatlarda o'zini tutish xulqini o'zlashtirilganligida;
- ma'naviy jihatdan birovni qo'llab-quvvatlay olishda;
- hissiyot madaniyatini o'zlashtirganligida;
- o'zgalar kamchiligiga sabr-toqat bilan munosabatda bo'lishda;
- o'zini nazorat qilish psixotexnikasiga ega bo'lishda;
- farzandli bo'lib, uni hamkorlikda tarbiyalay olishda.

## XULOSA

Ko'rinib turibdiki, oila insonni ma'naviy kamol topishini ta'minlash uchun xizmat qilib, individual ma'naviyatni shakllantirish vazifasini bajaradigan maskan hisoblanadi. Shu sababli, oila – bu eng yaqin munosabatlar amalga oshadigan, beg'araz va pok sadoqatning ta'sirida ma'naviyatni yaratuvchi va tarqatuvchi ijtimoiy institut hisoblanadi. Oilaning turli jihatlarini ilmiy o'rganish maqsadga muvofiq bo'lib, uni o'rganish davomida olingan natijalarni ta'lim-tarbiyani rejalashtirish va amalga oshirish uchun qo'llanilishi mumkinligini hisobga olib, oila instituti milliy taraqqiyotimizni ta'minlashning birlamchi manbasidir, deb ko'rsatsak xato qilmagan bo'lamiz.

## Adabiyotlar

1. Международный конгресс семьи. – М. , 1996. - С.33.
2. Савинов Л.И. Семья и общество: история, современность и взгляд в будущее. – Саранск, 1992. - С.37.
3. Орлова Н.Х. Семья как объект социально-философского исследования (Эволюция семейных отношений на рубеже XX-XXI столетий). Диссертация на соискание ученой степени кандидата философских наук. - Санкт- Петербург: СПбГУ, 2000. – С.67.
4. Фельдштейн Д.И. Молодежь в современном мире: проблемы и суждения // Материалы «круглого стола». Ж. Вопросы философии, 1990, №5.
5. Абдикаримова С.С. Замонавий ўзбек оиласи этноанъаналарида трансформация жараёнлари / Фалсафа фанлари бўйича фалс.д. (PhD) дисс. автореферати. – Самарқанд, 2020. – Б. 15. (Ум. 45 б.)
6. https://kun.uz/news/2021/01/18/ozbekistonda-2020-yilda-oilaviy-ajrimlar-kamaydi
7. https://kun.uz/news/2021/04/02/uch-oyda-qaysi-hududda-eng-kop-nikoh-qayd-etilgani-malum-boldi
8. Кваша Б.Ф. и др. Ценностные основы семьи: монография. - Спб., 1997. – С.19.
9. Абдикаримова С.С. Замонавий ўзбек оиласи этноанъаналарида трансформация жараёнлари / Фалсафа фанлари бўйича фалс.д. (PhD) дисс. автореферати. – Самарқанд, 2020. – Б. 18.
10. Шоумаров Ғ. Б., Шоумаров Ш.Б. Муҳаббат ва оила. – Т.: Ибн Сино, 1994.
11. Семья в психологической консультации: Опыт и проблемы психологического консультирования. – М.: Педагогика, 1989.
12. Бондаренко А. Психологическая помощь: теория и практика. – М.: Класс, 2001.
13. Семикина Т.А. Социально-психологические аспекты укрепления семьи офицера. Дис.. к...психол…наук. – М.: ВПА, 1990.

14. Каримова В.М. Оила ва никоҳ: ижобий ўзгаришлар // Оиланинг долзарб муаммолари: устувор вазифалар ва ривожланиш истиқболлари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. – Т., 2008. - Б. 12.

**UDK: 1.311.34**

## TEXNOLOGIK MADANIYAT SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

**J. A. Ochilov**
*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazining Samarqand viloyati mintaqaviy filiali*

**Annotatsiya.** Maqolada texnogen sivilizatsiya va shaxs texnologik madaniyatini shakllantirishning nazariy-metodologik ahamiyati ko'rsatilib, bu jarayon paradigmalarini, uni baholash mezonlarini universal bosqichlari asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** texnogen sivilizatsiya, shaxs texnogen madaniyati, begonalashuvi, texnologik marginalizm, texnika progressi, tabiat-jamiyat-inson-texnika-texnologiya, sivilizatsiya globallashuvi, determinlashtiruvchi omillar.

### Становление и развитие технологической культуры

**Аннотация.** Рассматривается теоретико-методологическая важность развития человеческой культуры и технологической техногенной цивилизации, следующие процессы парадигмы, определила универсальные этапы ее маркировки факторов.

**Ключевые слова:** Техногенные цивилизации, человеческая техногенная культура, становящая далеким, технологические маржинализма, процесс методов, природа-общество-человек-техника-технологии, глобализация цивилизации, факторы определения.

### Formation and development of technological culture

**Abstract.** It was shown theoretical-methodological importance of development of human technologic culture and technogen civilization on the following article, the following processes of paradigms, defined universal stages of its marking factors.

**Keywords:** technogen civilization, human technogen culture, getting stranger, technologic marginalism, process of techniques, nature-society-human-technique-technology, globalization of civilization, factors of determination.

Postindustrial-axborotlashgan jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichida: texnogen sivilizatsiya globallashuvi jozibasi ham, ijobiy yutuqlari ham, salbiy oqbatlari keskinlashuvi ham, planeta xalqlari e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda. Har qanday tarixiy davrda jamiyat mavjudligi darajasiga mos texnologik madaniyati vujudga kelgan hamda texnogen sivilizatsiya shaklini, jamiyat rivojlanish tendensiyasini belgilaydigan muhim omili va tarkibiy elementi hisoblangan. Zero, tarixiy yozma manbalarda, arxeologik topilmalarda, etnografik ilmiy-tadqiqot natijalarida qadimgi davrlarda ham kishilarning hayot tarzi bilan bog'liq va uni ifodalovchi texnogen sivilizatsiya elementlari – texnologik madaniyat shakllanganligi isbotlanmoqda.

Insoniyat tarixida XVIII oxiri XIX asr boshlarida, dastlab Yevropa va Amerika qit'asida industrial jamiyat qurilishi va ilmiy-texnika inqilobi boshlanishi bilan, tom ma'nodagi, texnogen sivilizatsiya "arxitekturasi" shakllanishi: tabiatshunoslik, texnika, texnologiya va boshqa fanlarining, inson intellektual salohiyatining g'oyat rivojlanishi natijasi bo'ldi. O'z navbatida, bu jarayon "an'anaviy jamiyat" paradigmalarini ham, inson hayot tarzini ham, tubdan o'zgartirib, uni baholash mezonlarini qayta ko'rib chiqishni taqazo qildi. [1,77].

Texnika progressi va texnologiyaning rivojlanishi: bir tomondan, yaratilgan "sun'iy muhit" ta'sirida insonning: texnikaga qaramligi, tabiatdan begonalashuvi, iste'molchilik, egoizm, individualizm psixologiyasi shakllanishiga, tarixiy merosga nigilistik munosabatga, oila va boshqa qon-qardoshlik qadriyatlar so'nishiga va an'anaviy jamiyatga xos bo'lmagan boshqa deviant xulq-atvorlar vujudga kelishiga asos bo'ldi. Ikkinchi tomondan esa, mehnat taqsimoti xarakteridagi o'zgarishlar, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va jarayoni intensivlashuvi, jamiyatning yuqori urbanizatsiyalashuv darajasi, inson ijtimoiy mobilligining kuchayishi – ishchilar bo'sh vaqtni ko'paytirib, intellektual salohiyati, texnik-texnologik madaniyati, ijodiy faoliyati rivojlanishiga imkoniyat yaratdi.

Texnotron sivilizatsiyaning hozirgi rivojlanish bosqichida texnologik madaniyat substansional mohiyati insoniyat hayotiy ehtiyojlarini qondirishda moddiy jihatlar emas, balki ma’naviy-ruhiy qadriyatlarga ehtiyoj ustuvorlashuvi bilan xarakterlanmoqda. Zero, jahon hamjamiyatining, umuman dunyoda, xususan industrial rivojlangan davlatlarda shiddat bilan keskinlashayotgan ma’naviy madaniyat inqirozi oqibatlari haqidagi: alarmistik, pessimistik, futurologik xulosalarga qaramasdan, Sharq va G‘arbning umuminsoniy qadriyatlarn integratsiyasi asosida butun dunyo uchun universal ma’naviy madaniyatini yaratish haqidagi nazariya tarafdorlari ko‘payib borishi tasodifiy emas. Shu bilan bir qatorda, ayrim optimistik ta’limotlar, tarixiy taraqqiyotning tendetsisi mantiqiy xulosalariga tayangan holda, aynan postindustial-axborotlashgan jamiyat texnologik madaniyati insoniyatni muqarrar ma’naviy halokatdan saqlab qolishi mumkinligini bashorat qilmoqdalar[2,113]. Bu nazariyalarning aksariyati insoniyatni global ma’naviy inqirozdan olib chiqishda dinning rolini mutlaqlashtirishi, ilohiy qudratdan najot kutishi bilan xarakterlanadi. Lekin hozirgi davr realligi ma’naviy taraqqiyotda din omili rolini mutlaqlashtirish boshqa muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Xususan, diniy fundamentalizm, estremizm, terrorizmning asosiy argumentini insoniyatni ma’naviy inqirozdan olib chiqishga harakat, deb asoslashlari bu ta’limotlarning g‘ayri ilmiy xarakterini ko‘rsatadi.

Bir qarashda ezgu va beozor bo‘lib ko‘ringan bunday nazariyalarning maqsadi ham, ularni amalga oshirish usul-vositalari ham gumanistik tamoyillarga, umuminsoniy axloqiy normalarga mutlaqo ziddir. Zero, texnogen sivilizatsiya (obyekt) va texnologik madaniyat (subyekt)ning korrelyatsion aloqadorligida: bir tomondan, texnologik madaniyat subyekti o‘z xususiy-individual manfaatlaridan voz kechishi orqali ijtimoiy faoliyatida umumiylikni namoyon qiladi. Ikkinchi tomondan, har qanday faoliyat obyekti, unga salbiy ta’sir qiluvchi faqat tashqi kuchlardan emas, balki ichki subyektivlik ustuvorligidan ham voz kechishni taqozo qiladi. Chunki bu jarayonda texnologik madaniyat subyektining faoliyati, uning ehtiyoji va maqsadi mazmuniga adekvat tarzda obyektivlashadi hamda ijtimoiylashadi.

Texnogen sivilizatsiya va texnologik madaniyatning o‘zaro taqozolanishi natijasida inson: o‘z moddiy borligi mohiyatini bilish – (ontologik), ma’naviy hayoti mazmunini anglash – (gnoseologik), dunyoni o‘zgartirish usul-vositalarini topish – (metodologik), borliqni ratsional o‘zgartirish – (praksiologik), sivilizatsiya kelajagini bashorat qilish – (futurologik), texnologik madaniyat ta’limi va tarbiyasi (pedagogik-didaktik) va boshqa faoliyat yo‘nalishlarida o‘zi yashayotgan moddiy va ma’naviy dunyoni qayta qurishi mumkin. Lekin, texnogen sivilizatsiya va texnologik madaniyat aloqadorligi dialektikasida, obrazli qilib aytganda, texnogen sivilizatsiya – insoniyatni kaltabinligi uchun “jazolash” usuli va vositasi, texnologik madaniyat esa – insonning konstruktiv-ratsional ijodiy faoliyatini, dinamik o‘zgarayotgan ijtimoiy va tabiiy muhitga moslashish qobiliyatini rag‘batlantiruvchi potensial imkoniyat sifatida baholanishi kerak.

Bu “antipodning” asosida mehnat yotishi, ularning umumiyligini ko‘rsatadi. Zero, texnogen sivilizatsiya ham, texnologik madaniyat ham, mehnat natijasidir. Bunda mehnatning yangi moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yaratishdagi “foydaliligi koeffitsenti indeksni” aniqlashda uning, tom ma’nodagi, umumisoniyat sivilizatsiyasi manfaatiga mosligi asosiy mezon bo‘lishi kerak.

Mehnatni texnogen sivilizatsiya va texnologik madaniyat subyekti – inson foliyati sifatida qaraydigan bo‘lsak: bir tomondan, uning: ongi, tafakkuri, bilimi, o‘zligini anglashi, irodasi, ehtiyoji, qiziqishlari, maqsadini belgilaydigan umumiy intellektual salohiyati; ikkinchi tomondan, amaliy ko‘nikmalari, malakasi, talanti, qobiliyati asosi bo‘lgan ijtimoiy tajriba tarixini o‘rganish va ijodiy rivojlantirishiga bog‘liqligini ko‘ramiz. Bunda ijodkorlik ma’naviy hodisa bo‘lib: bilimga, fanga, madaniyatga tayanganligi uchun yuqori ma’naviy va moddiy madaniyat qadriyatlarini yaratish jarayoni hisoblanadi.

Mehnatning yuqorida ko‘rsatilgan jihatlari birligi asosida yaratilgan texnika esa, muayyan maqsadga erishish (asosan, tabiatni inson ehtiyojlarini qondirish, unga optimal hayot sharoitini yaratish va o‘zlashtirish) uchun yaratilgan mehnat quroli yoki vositasi hisoblanadi. Uning samaradorligi, umuman subyekt intellektual salohiyati, xususan texnologik madaniyati darajasiga bog‘liqdir.

Shu o‘rinda hozirgi postindustrial-axborotlashgan jamiyatda texnikaning determilashtiruvchi rolini mutlaqlashtirib, inson uning “quliga” aylanib qolganligi haqidagi: pessimistik, skeptik, fatalistik, hatto alarmistik nazariyalarning muayyan doirada cheklanib qolayotganligini aytish joiz. Chunki inson, texnogen sivilizatsiyaning asosiy komponenti bo‘lgan: texnikaning mazmunini ham, funksional yo‘nalishini ham, ahamiyatini ham, belgilaydi. Ya’ni o‘z yaratuvchisidan, energiya bilan ta’minlash manbasi – Hazrati insondan yuqori qo‘yilgan texnika (hatto, yuqori darajada konstruktiv mukammal va “aqlli” bo‘lsa ham), inson qo‘lida oddiy “qo‘g‘irchoq” bo‘lib qolaveradi.

Shuning uchun, keyingi vaqtlarda maxsus ilmiy adabiyotlarda nisbatan keng tarqalgan: “dastlab inson texnikaning mohiyati, mavjudligi substansiyasi edi, hozir esa, aksariyat holatlarda, uning oddiy:

"texnik", "sotsial", "siyosiy", "axborot" vositasi bo'lib qolmoqda" degan xulosa munozaralidir. Umuman texnikani, ratsional va irratsional jihatlariga ko'ra, insondan yuqori qo'yish nojoiz.

Inson har qanday mukammal texnik vositasini yaratishi bilan o'zidan mutlaq begonalashmaydi, balki mohiyatini vaziyatga mos tarzda o'zgartiradi. Agar inson mohiyatini birlamchi, ikkilamchi va boshqa darajalarda mavjudligini e'tiborga oladigan bo'lsak, shaxs identifikatsiyasida ma'naviy omillarga – mifologiyaga, tarixiy an'analarga, dinga, falsafaga, san'atga, huquqga, tilga, siyosatga, madaniy merosga va boshqa sivilizatsiya komponentlariga munosabati xarakteridan, uning: tipini ham, rivojlanish darajasini ham, "sifatini" ham aniqlash mumkin. Lekin bunda shaxsning ijtimoiy va tabiiy vaziyatga moslashish imkoniyat potensiali individualligini ham e'tiborga olish kerak.

Insonning o'zini o'rab turgan tabiiy muhiti va ijtimoiy vaziyati ob'ektiv rivojlanish qonuniyatlarini bilish va oqilona o'zgartirishi jarayonida, madaniyatning: ham ob'ekti, ham sub'ekti maqomini doimiy saqlab qolishi – shaxsning erkinligini anglashiga va amalda himoya qilish faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Zero, bir tomondan, erkinlik – insonning dunyodagi o'rnini anglashiga, yashash imkoniyatini reallikka aylantirishiga va qadriyat mo'ljallarini belgilashiga imkoniyat yaratadi. Lekin, ikkinchi tomondan, insonning erkinlikni mutlaqlashtirishi va suiste'mol qilishi, sivilizatsiyalar natijalarini yo'qqa chiqarishi mumkinligini ham yoddan chiqarmaslik kerak.

Har qanday sivilizatsiya, shu jumladan texnogen sivilizatsiyaning umumiy rivojlanish qonuniyati, ularning ma'naviy madaniyat tizimiga ehtiyoji oshib borishida namoyon bo'ladi. Bu ehtiyojning dinamik rivojlanishi "texnologik madaniyat odami"ni, shaxs "texnologik madaniyati sifatini" shakllantirishni ustuvor vazifa qilib qo'ymoqda. Zero, hozirgi tarixiy taraqqiyot mantig'i postindustrial-axborotlashgan sivilizatsiyada "texnologik madaniyat odami"gina "tabiat-jamiyat-inson-texnika-texnologiya" tizimi ziddiyatlarini bartaraf qilishi va sivilizatsiya natijalarini saqlab qolishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Darhaqiqat faqat, umuman insoniyat madaniyati tarixini, xususan dunyo xalqlari texnologik ma'naviy madaniyatini har tomonlama ijodiy o'zlashtirgan odamgina, texnogen sivilizatsiya va texnokratiyaning negativ oqibatlari ta'siridan o'zining insonlik mohiyatini saqlab qolishi mumkin. Chunki jamiyatning tabiiy va sun'iy olamlari munosabatida paydo bo'lgan anomal-patologik holati – "mutant" ijtimoiy hodisalarni: marginal, manqurt insonni vujudga keltirmoqda va ularning populyatsiyasini kuchaytirmoqda.

Texnogen, texnotron sivilizatsiya globallashuvining xavfi faqat shu bilan chegaralanib qolgan emas. Ya'ni hozir umuminsoniyat madaniyati: g'arbda ham, sharqda ham, texnogen sivilizatsiya noborligi, texnologik madaniyat noshudligi sabablariga ko'ra chuqur inqirozni boshdan kechirmoqda, an'anaviy qadriyatlar "devalivatsiyaga" uchramoqda. Bu inqirozning hozirgi ko'lami va eskalatsiyasi tendensiyasi jamiyat: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayot sohalarini qamrab olishi bilan kompleks-universal xarakter kasb etmoqda. Jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarida, ijtimoiy ong shakllarida va institutlari tizimidagi o'zgarishlar, kishilarni sivilizatsiyaning mazmun-mohiyatidan, tarixiy ahamiyatidan shubhalanishga olib kelmoqda. Ayniqsa, dunyoda texnogen sivilizatsiya natijasida paydo bo'lgan: ijtimoiy begonalashuv, egoizm, individualizm, etnoegotsentrizm, ksenofobiya, kosmopolitizm, an'anaviy axloq normalari va oila instituti inqirozi va boshqa ijtimoiy illatlar sivilizatsiya mezonlarini ham, tamoyillarini ham, qayta ko'rib chiqishni taqozo qilmoqda.

Ayniqsa, bir tomondan, dunyoda XX asr oxiri va XXI asr boshlarida vujudga kelgan murakkab geosiyosiy vaziyat, keskinlashayotgan global muammolar kompleksi bevosita shu inqirozlarning natijasi bo'ldi va istisnosiz barcha davlatlarni qamrab olmoqda. Ikkinchi tomondan, global muammolarni ma'naviy-madaniy inqirozlar sababi sifatida qarash kerak. Bu jarayon amerikalik yirik sotsiol olim Pitrim Sorokin ta'biri bilan aytganda, dunyoda madaniyat shakllari va jamiyatlar o'zgarishi, hissiyotning empirik dunyosi va idealistik madaniyat sferasini – ulug'vor hissiy madaniyat sintezini yaratmoqda[3, 5-24].

P.Sorokinning bu konsepsisiga ko'ra, hozirgi zamonda: demokratiya va totalitarizm, erkinlik va despotizm, kapitalizm va kommunizm, patsifizm va militarizm, internatsionalizm va natsionalizm qarama qarshiligi asosiy muammo emas, balki, asosiy masala, hissiy madaniyat shakllari va hayot tarzining boshqa madaniyat va hayot tarzi shakllariga qarama qarshiligidir. Uning fikricha, G'arb jamiyatidagi hozirgi madaniy inqiroz yangi integratsiyani va yangi madaniyatni – idealistik, ideanatsional madaniyatni vujudga keltiradi.

Muayyan munozarali o'rni bo'lishiga qaramay, bu konsepsiyaning ratsional mazmunini: bir tomondan, insoniyat texnogen sivilizatsiya yutuqlaridan foydalanayotgan hozirgi davrda og'ir va keskinlashish tendensiyasiga ega bo'lgan inqirozni o'z boshidan kechirayotganligini; ikkinchi tomondan, bunday sharoitda insoniyatning uchinchi mingyillikda: yashashi, o'zligini va sivilizatsiyasi natijalarini saqlab qolishi uchun ma'naviy-madaniy dunyosini – pozitiv qadriyatlari tizimini, umuminsoniy ma'naviy-

axloqiy normalarini, gumanistik-demokratik tamoyillarini rivojlantirishga muqobil yo‘l yo‘qligini e’tirof etishi tashkil qiladi.

Yuqorida ko‘rsatilganlarga qo‘shimcha qilib shuni aytish mumkinki, bu vazifalarni amalda bajarishga erishish uchun, dunyo davlatlarining, umuman madaniyatni, xususan texnologik ma’naviy madaniyatni rivojlantirishga mutasaddi institutlari faoliyatlarida: buyuk davlatchilik shovenizmi, egoistik, etnoegotsentrististik, hamma sohada gegemontlikka intilish stereotiplaridan voz kechib, zamon talablariga mos tarzda, uyg‘unlashtirishning sivilizatsiyalashgan usul-vositalarini topishda inson omili rolini rivojlantirish taqozo qilinadi.

Taniqli olim, professor B.O.To‘rayev aytganidek “sivilizatsiyamizning kelajagini saqlab qolish har qanday vazifadan dolzarbroqdir”[4,22]. Jahon sivilizatsiyalari erishgan tajribalariga ko‘ra, insoniyat tarixiy merosiga, madaniyatiga asoslanib, global muammolarini hal qilishi (eng bo‘lmaganda, yumshatishi) mumkin. Shu jumladan texnogen sivilizatsiya tarixiga sinergetik yondashuv – olamshumul muammolarning vujudga kelish genezisini, retrospektiv asoslarini, rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashtirishi bilan muhim nazariy-metodologik ahamiyatga ega.

Texnogen sivilizatsiyaning namoyon bo‘lish shakli – texnologik madaniyat shakllanishi va rivojlanishi – inson omili, ayniqsa: muxandislar, mutaxassislar, texnika, tabiatshunoslik va ijtimoiy-gumanitar fan olimlarining integrativ ijodiy faoliyati bilan bog‘liq. Shuning uchun texnologik madaniyatning kompleks-sistemaligini va jamiyat va shaxs rivojlanishiga universal ta’sir qilish funksional ahamiyatini hisobga olgan holda: birinchidan, har bir davlatda texnologik madaniyat tarixini o‘rganish, milliy texnologik ma’naviy-madaniy merosni xalqaro miqyosda targ‘ibot-tashviqot qilish uchun axborotlar bankini, mutaxassislar tayyorlashni tashkillashtirish va ularning almashuvini yo‘lga qo‘yish; ikkinchidan, umuminsoniyat texnologik madaniyat tarixiy merosi transformatsiyasi infrastrukturasi va kommunikatsiyasini rivojlantirish sohasida xalqaro institutsional tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish uchun xalqaro jamoatchilik kengashini tashkil etish; uchinchidan, texnologik madaniyat differensiyalashishi natijasida vujudga kelgan turli yo‘nalishlarining o‘zaro korrelyatsion aloqadorligini va to‘ldiruvchanligini e’tiborga olgan holda, ularning integratsiyalashish imkoniyatlarini qidirib topish; to‘rtinchidan, jamiyat va shaxs texnologik madaniyatini rivojlantirishga mutasaddi institutlar va subyektlarining: etno-demografik, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, konfessional strukturaviy tuzilishidan qat’iy nazar, ularning potensial imkoniyatlarini birlashtirish va maqsadga muvofiq yo‘naltirish; beshinchidan, texnologik madaniyatning ilg‘or na’munalarini ommaviylashtirish usul va vositalarini, kommunikatsiya sistemasini vujudga keltirish masalalarini hal qilish, kun tartibiga qo‘yilmoqda.

Bu tamoyillar hozirgi zamon texnogen sivilizatsiyasi, texnologik madaniyatining mavjudlik holatini, rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy bilish jarayonida, turli fanlar integratsiyasi va differensiyasi dialektikasi, fanlararo va maxsus tadqiqotlar birligi, quyidagi asosiy tendensiyalarini namoyon qilmoqda, ya’ni umumlashtirib aytganda: birinchidan, texnogen sivilizatsiya va texnologik madaniyat rivojlanishining tarixiy-retrospektiv asoslari ilmiy dunyoqarashni shakllantirish shartidir. Ya’ni texnogen sivilizatsiya va texnologik madaniyat asosini tashkil qiladigan muqobil nazariyalarni, tarixiy an’analarni rivojlantirish: ham umuminsoniy, ham milliy texnologik dunyoqarash tizimini shakllantirmoqda. Boshqacha qilib aytganda, texnogen sivilizatsiya va texnologik madaniyat tarixi “tabiat-jamiyat-inson-texnika-texnologiya” tizimi elementlarining munosabatlarni o‘rganuvchi fanlar tarixiga bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘ladi. Ikkinchidan, hozirgi zamonda fanlarning differensiallashuvi jarayonida turli: tabiiy, texnik va ijtimoiy-gumanitar fanlarida texnogen sivilizatsiya va texnologik madaniyat tarixiga bog‘liq jihatlar ajralib chiqimoqda. Ularning nisbatan mustaqil tadqiqot yo‘nalishi maqomiga ega bo‘lishi: bir tomondan, texnogen sivilizatsiya mazmun-mohiyati, xarakteri o‘zgarishi bilan texnologik madaniyat rivojlanish darajasi o‘rtasidagi “to‘g‘ri” va “qaytar” bog‘lanish – korrelyatsion aloqadorlikni o‘rganishga ehtiyoj kuchayishi; ikkinchi tomondan, texnogen sivilizatsiya va texnologik madaniyatni rivojlantirish muammolarining: ijtimoiy, falsafiy, siyosiy, ma’naviy-axloqiy va boshqa jihatlarini o‘rganuvchi fanlar kooperatsiyasiga turtki berishi bilan xarakterlanadi. Uchinchidan, hozirgi zamon texnogen sivilizatsiyasi va texnologik madaniyati rivojlanish tarixi tadqiqotiga turli fanlar kompleksi yoki yo‘nalishlarining jalb qilinishi, bilish ob’ekti universalligi va murakkabligi bilan izohlanadi. Zero, texnogen sivilizatsiya va texnologik madaniyat globallashuvi ularni o‘rganuvchi fanlar tizimiga: insonning uzluksiz o‘zgarib borayotgan tabiiy-ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabat qonuniyatlarini, ijtimoiy va tabiiy borliqqa jismoniy va ruhiy moslashish imkoniyatlarini, texnokratik potensialini, texnologik salohiyati va madaniy saviyasini rivojlantirish muammolarini tadqiq etuvchi ilmiy bilish sohalari kiradi. To‘rtinchidan, umuman sivilizatsiyalar va madaniyatlar tarixi, xususan, texnogen sivilizatsiya va texnologik madaniyat tarixi qamrovi kengligi – tadqiqot obyektiga fanlararo kompleks-sistemali, tarixiy-mantiqiy yondashuvni taqozo qiladi. Lekin ilmiy muammoning: mahalliy, milliy,

mintaqaviy va global xususiyatlarini ilmiy bilish jarayonida, ularni falsafaning alohidalik, maxsuslik va umumiylik kategoriyasi kontekstida fundamental-nazariy tadqiq qilish, aniq ilmiy xulosalar chiqarishga asos bo‘ladi.

**Adabiyotlar**

1. Хантингтон С.П. Запад уникален, но не универсален//Мировая экономика и международные отношения. 1997. №8. − С. 77.
2. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования / Пер. с англ. под ред. В.Л. Иноземцев. −М.: Academia, 1999. −С.113.
3. Питирим Сорокин. Человек. Цивилизация. Общество. − М.: Политиздат, 1992. −С. 5-24.
4. Тураев Б.О. // “Инсон, унинг эътиқоди, жамият, коинот: тараққиёти муаммолари ва ҳозирги замон” мавзусидаги илмий семинар материаллари. -Т.: ИБХМ нашриёти, 2015. – Б. 22.

**UDK 1:13**

## ESTETIK PARADIGMADA SAN’AT TO‘G‘RISIDAGI BILIMLAR RIVOJI.

**Sh. T. Tursunkulova**
*Samarqand davlat universiteti*
*mstursunkulova@mail.ru*

**Annotatsiya.** Maqolada, Sharq falsafiy tafakkur tarzida san’at xususida bildirilgan g‘oya va nazariyalar tahlil qilingan. San’atning murakkabligi, uning doimiy xarakatdaligi masalalari klassik manbalar asosida keng yoritib berilgan. Shuningdek, zamonaviy estetikada san’atning xususiyatlari va mohiyatiga oid fikr mulohazalar berilgan.
**Kalit so‘zlar:** san’at, go‘zallik, badiiy asar, badiiy-estetik tafakkur, estetiklik, estetik bilish.

**The development of knowledge about the art in the aesthetic paradigm**

**Abstract.** The article analyzes the ideas and theories expressed about art in Eastern philosophical thinking. The complexity of art, issues of its constant movement are widely covered on the basis of classical sources. There are also comments on the nature and essence of art in modern aesthetics.
**Keywords:** art, beauty, work of art, artistic and aesthetic thinking, aesthetics, aesthetic knowledge.

**Развитие знаний об искусстве в эстетической парадигме**

**Аннотация.** В статье анализируются идеи и теории, высказанные об искусстве в восточном философском мышлении. Сложность искусства, вопросы его постоянного движения широко освещаются на основе классических источников. А также, дает представление об особенности и сущности искусства в современной эстетике.
**Ключевые слова:** искусство, красота, произведение искусства, художественно-эстетическое мышление, эстетика, эстетические познания.

San’at insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida makon va zamon bilan o‘zaro aloqadorlikda rivojlanib borgan, uning ko‘plab turlari, ko‘rinishlari shakllangan, inson va jamiyat hayotida madaniy xilma xillik, estetik borliqni yuzaga kelishiga ta’sir ko‘rsatgan. San’at inson hayoti bilan chambarchas aloqadorlikda rivojlanib borar ekan, estetik bilishda san’atni anglash, uning mohiyatini tushunishning tarixiy-ilmiy asoslari (g‘oya va nazariyalar) yaratilgan. Antik davrdan, hanuzgacha estetik bilishda san’atning mohiyatini anglash, muammolarini o‘rganish dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan. G‘arb va Sharq mutafakkirlari san’atning inson ongi va tafakkuriga ta’siri, ma’naviy ahamiyati, maqsad va vazifalari, qonuniyatlari, o‘ziga xos xususiyatlari tahliliga bag‘ishlangan salmoqli va ahamiyatli asarlar yaratishgan. Aytish mumkinki, san’at muammo sifatida har bir davrda eng dolzarb, qizg‘in va bahsli mavzulardan biri bo‘lgan.

Ayniqsa, O‘rta asrlar Markaziy Osiyo badiiy-estetik tafakkuri taraqqiyoti madaniyat, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. “Bu yerda turli ilmiy, diniy muzokaralar avj oldi, turli mamlakatlardan kelgan ilm vakillari tomonidan keng ilmiy muhokamalar uyushtiriladigan bo‘ldi, ilmgohlar vujudga keldi, kitob ko‘chirish, turli tillardan arab tiliga ilmiy kitoblarni tarjima qilish natijasida, maxsus tarjimonlar maktabi vujudga keldi, asar yozishga qiziqish kuchaydi. Bu davrda birinchi akademiya – “Donolik uyi” tashkil topdi va bu yerda turli ilmlarning rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Unda xalifalikning turli o‘lkalaridan kelgan arab, yahudiy, fors, turk, hind, yunon olimlari birgalikda ish olib bordilar”.

Umuminsoniy qadriyatlarga e'tiqod, insonparvarlik tamoyillariga sodiqlik ruhi mustahkam tizimga aylana boshladi. Markaziy Osiyo xalqlari tarixida "Uygʻonish birinchi navbatda, qaramlikdan qutulish, mustaqil tafakkur, mustaqil ijod, mustaqil ma'naviylik- mustaqillikning samarasi boʻldi".[1:68] Oʻrta asrlar Markaziy Osiyo estetikasi oʻzining goʻzallikka boʻlgan sharqona munosabati bilan, an'anaviylik va zamonaviylikni sintez qilgan yuksak ta'limot sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

IX-XI asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan, san'at va madaniyatning gullab yashnashida olamga va inson mohiyatini estetik anglashga boʻlgan intilishning ahamiyati katta boʻlgan. Qadimiy "Afrosiyob" harobalaridan topilgan qazilmalar oʻsha davr ijodkorlarining VII asrda ham turgʻun boʻyoqlarni bilganliklarini va mukammal rivojlangan tasviriy san'atga ega boʻlganliklarini yaqqol namoyon qiladi.

Buyuk mutafakkir alloma Abu Nasr al-Farobiy (873-950)ning ijodida san'at: amaliy va nazariyga ajratilgan. Aristotel fikriga qoʻshilgan holda, san'atni taqlidiylikdir deb biladi. Bu taqlidiylik idrok etuvchida hissiyot va tasavvurni uygʻotadi. San'atkor oʻz hayoliy kuchi, ijodiy qudrati bilan umumiy gʻoyalarni yakka qiyofalarda in'ikos ettiradi. San'at insonni taqlidiylikka oʻrgatadi. Ya'ni inson hayotida doimo taqlidiylikka buysunadi, doimo yaxshilikka intilib yashaydi, oʻzida yaxshi va goʻzal fazilatlarni shakllantirib, goʻzal hatti-harakatlarni, goʻzal qilmishlarni oʻrganadi, doimiy tarzda oʻz-oʻzini ustida ishlash lozimligini ta'kidlaydi.[3:112] San'at turlari xilma-xil predmet, alohida yoʻnalish va usullardan iborat boʻlishiga qaramasdan, ular odamlar tasavvuri va sezgilarini bir maqsadga – taqlid qilishga yoʻnaltiradi degan fikrni ilgari surgan. Alloma "goʻzal fazilatlar", "goʻzal ishlar" kabi iboralarga oʻz asarlarida juda koʻp e'tibor qaratgan. "She'r san'ati", "Shoirlarning she'r yozish san'ati qonunlari haqida" risola, "Musiqa haqida katta kitob" asarlarida san'atning yuzaga kelishida garmoniya, mukammallik, xaos, ichki va tashqi ta'sir, maromli harakat, taqlidning oʻrniga alohida e'tibor qaratgan.

Balzak "T.Manro qarashlari arab tilida ijod qilgan boshqa bir Oʻrta Osiyoning yirik olimi Farobiy fikrlari bilan hamohangdir. Manro tomonidan san'atga qiyoslangan oshpazlik, attorlik mollari bilan shugʻullanish, oʻzini tuta bilish qoidalarini oʻrganish, Farobiydagi san'at darajasiga koʻtarilgan tikuvchilik, tibbiyot, notiqlik san'ati va x.k.lar aslida badiiy ijod emas, aksincha, dunyoni anglashning har xil shakl va usullaridir, va ularda estetik element mavjud boʻlib, ular faqatgina maqsadga muvofiqlik qonuniyatlariga emas, balki, goʻzallik qonuniyatlariga ham asoslanadi. Ammo, Farobiy va Manro fikrlarida ratsionallik ham mavjud", deb ta'kidlaydi.[4:33] Garchi, Markaziy Osiyo hududlarida estetika fan sifatida shakllanmagan boʻlsada, biroq oʻrta asrlarning yirik qomusiy allomalari ijodida san'atning mohiyati keng tadqiq etilgan.

San'atning insonga ham ma'nan, ham jisman ta'sir koʻrsatishini asoslab bergan qomusiy olim **Ibn Sino** (980-1037) asarlarida san'atga taalluqli: she'r san'ati taqlidiy fikr natijasida uch xil yoʻl bilan yuzaga keladi ("Fan ash-she'r"), ya'ni "lahn-uygʻunlik", "kalom-soʻz" (majoziy obrazli soʻz), "vazn" xususida yozadi. She'r san'ati inson fe'l-atvori, ruhiyatiga kuchli ta'sir koʻrsatadi, insonni toʻlqinlantiradi, ya'ni inson hissiyotga beriladi, taajjubga tushadi, gʻarazli ishlardan tiyiladi deydi. Shuningdek, she'rga quyidagicha ta'rif beradi: "She'r deb, obrazli soʻzlardan iborat boʻlgan maromli, bir-biriga teng, vaznlari qaytariladigan, oxirgi tovushlari bir-biriga oʻxshash boʻlgan satrlarga aytiladi".[5:100] Musiqa san'ati esa insonga lazzat bagʻishlaydi, harakatga keltiradi, goʻzallikni xis qilishga undaydi. Allomaning "Salomon va Ibsol", "Yusuf qissasi", "Qush risolasi" asarlarida inson gʻam, alam bilan emas, xursandchilik, kulgi bilan yashashi lozim, inson umrini gul obraziga oʻxshatadi, inson ham gul kabi insoniyat hayotiga mazmun, goʻzallik va xushbo`y tarovat baxsh etadi deb ta'kidlaydi. Ibn Sinoning san'at haqidagi nazariyalari "Umar Xayyom, Mirzo Bedil singari Sharqning buyuk ruboiynavislariga namuna boʻlib xizmat qildi". [6:73]

Musiqa san'atini ramziy ma'noda "may" bilan tenglashtirilgan **Umar Xayyom** (1048-1123)ning asarlari va ruboiylarida, May ichimligi insonni qanday gʻam-alamlardan forigʻ etsa, musiqa san'ati ham insonda poklanish hodisasini vujudga keltiradi - hayotning hunuk voqealaridan jamiyatdagi pastkashlik, maydakashlik, manfaatparastlik singari holatlaridan oz muddat boʻlsada forigʻ etadi, ulardan bir bosh baland turish, bahor va yor goʻzalligidan, gul va koʻngil goʻzalligidan lazzatlanish imkonini beradi, mayni (musiqa) "shaxsni shaxs qiladigan" vosita deb hisoblaydi. Jumladan,

"Mayni togʻga bersang togʻ ham raqs etar,
Yomonlar yomonlab uni nahs etar.
Maydan asti tavba qilmayman, zero,
May tarbiya berar, shaxsni shaxs etar", deb yozadi. [7:78]

Tasavvuf falsafasining asoschisi, ilohiyotchi faylasuf **Imom Gʻazzoliy** (1058-1111) – "Ihyo ulum ad-din" asarida shaxsda nafis did, estetik hissiyotning shakllanishi, shaxsning goʻzallikka munosabati, uning komil insonga aylanishida din va san'atning oʻrni, muammolari aks etgan. "Gʻazzoliy oʻz zamondoshlaridan farqli ravishda, katta bilim sohibi boʻlib, antik falsafa va oʻz davri muammolarini chuqur anglab etgan. Falsafa va dinning murakkab masalalarini izohlashda Gʻazzoliyning antik fan va asarlarning

mualliflari va sharhlovchilari orqali emas, ularning o‘zini mutolaa qilish bilan erishgani ma’lumdir. Tasavvuf ta’limotini yirik namoyandalarining ijodini chuqur o‘rgangan G‘azzoliy sufiylarning haqiqat, go‘zallik va ezgulik haqidagi fikrlari muntazam o‘qish va fikr yuritish orqali emas, balki sinovlar, boshdan kechgan voqealar va qalb sifatlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq ekanligini anglagan”.[8:32]

G‘azzoliy san’atni she’r bilan taqqoslab tushuntiradi, oddiy so‘z san’at emas, qofiya, vaznga solingan bayt, hijolari tartiblashgan nutq, qisqa bo‘g‘inlarni cho‘zib, uzun bug‘inlarni kesib talaffuz etish, so‘zlarning ruknlarga buysundirilishi, unga musiqaning jo‘r bo‘lishi san’atdir, estetik tuyg‘ular esa, insonda tug‘ma mavjud, san’at vositalari, nafosat ta’siri orqali ular faqatgina anglab yetiladi deb ta’kidlaydi.[9:117]

G‘azzoliy qarashlariga monand fikrlarni buyuk o‘zbek shoiri **Alisher Navoiy** (1441-1501) ning “Xazoyin ul – maoniy”, “Majolis un – nafois”, “Mezon ul – avzon” asarlaridagi fikr-mulohazalarida kuzatish mumkin. San’at mutafakkir fikricha, yangilikning yaralishi, go‘zallikni madh etishdir, go‘zallik shaklan va mazmunan uyg‘unlikka ega bo‘lishi va albatta insonning ma’naviy kamoloti uchun xizmat qilishi lozim deb biladi. Darhaqiqat, “Navoiy asarlarini o‘qigan kishi, avvalo, birinchi o‘qish davomida boshdan-oxirigacha yangilikka uchrab boradi, undan keyin necha marta qayta o‘qisa, shuncha yana yangilik topaveradi”.[10:29] San’at asari bu yangi g‘oya, yangi fikr, yangi shakl, yangi usul, umuman olganda betakrorlik, mazmundorlik, ahamiyatlilikdir. San’at vositasida xalq dardi kuylanadi, inson doimo badiiylikka ehtiyoj sezadi, bu jarayon uning ijtimoiy-tabiiy ehtiyojlaridan biriga aylanib boradi. “Xazoyinu-l-maoniy” – asarida, ruboiy, tuyuq yoki lirik she’r - so‘zdan yaratilgan miniatyuradir” deb ta’kidlaydi.[11:152] “Hikmatlar”ida musiqa jon ozuqasi, ruh u bilangina tirik deydi.

O‘rta asr sharq mutafakkir allomalari qarashlarida san’at ma’naviyat, yaxshilik va go‘zallikka taqlid, inson kamoloti xazinasi, madaniy meros, tarbiya vosita sifatida ta’riflangan bo‘lsa, aynan ularning asarlari ma’naviy meros, vorisiylik nuqtai nazaridan nazariy metodologik manba bo‘lib xizmat qilib kelgan.

IX asrda yashagan Kashmirlik Anandavardxana o‘zining “Dxvanyaloka” traktat kommentariylarida san’atning mohiyatini quyidagicha ifodalaydi: ritorik shakllar, yutuq va uslub poeziya, she’riyatning tashqi qobig‘idir, uning qalbini ifodalab bo‘lmaydi, bu so‘z bilan aytib bo‘lmaydigan narsadir, uni san’atga oshufta kitobxon yoki tomoshabin anglashi va his qilishi mumkin. Uning fikriga ko‘ra, bu ichki sirli mazmun, ya’ni dxvanasiz – “qo‘ng‘iroq”, “jarang”siz haqiqiy san’at bo‘lishi mumkin emas. Anandavardxana “dxvani” atamasini grammatiklardan olgan, ularda tallafuz orqali jaranglaydigan so‘z orqali mohiyatning ichki ahamiyatini anglash imkoniyatini beruvchi sifat sifatida qo‘llanilgan. Dxvananing uch asosiy turini ko‘rsatgan: birinchisi, poetik figuralar orqali ifodalanadigan, ikkinchisi, mazmun va uchinchisi kayfiyat. Kalidasning “Shakuntala” asaridagi dxvana – kayfiyat mazmunini uchratish mumkin. Shoh Dushyanta sevgan ayoli chehrasi atrofida uchayotgan ariga qarab murojaat qiladi: “Sen uning harakatchan, serjilo hilpirayotgan ko‘zlariga tegishdan boshqa ishing yo‘q; garchi u qo‘llari bilan seni haydasada, biroq uning quloqlariga bir sirni so‘zlayotgandek nozik vizillab turasan; rohatlanib uning lablaridan bol olasan. O ari, sen maqsadingga etding, men esa haqiqat izlab sarson sargardonman!”. Bu misralardan shoir dramada Shoh Dushyantani qamrab olgan hissiyotlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri atamay, kitobxon yoki tomoshabinga muhabbat kayfiyatini singdirishga harakat qiladi.[12:390]

Sharqda “Kalila va Dimna”, hindlarning “Panchatantra” (“Besh hikmat”), “To‘tinoma” (“Shukasaptata-To‘tining etmish besh hikoyasi”), Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig” (“Baxt saodatga yo‘llovchi bilim”), Abduraxmon Jomiyning “Bahoriston”, “Risolai musiqiy”, Muslihiddin Sa’diyning “Guliston” va “Buston”, Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qissai Rabg‘uziy”, Zahiriddin Boburning “Boburnoma”, “Muxtasar”, Davlatshoh Samarqandiyning “Shoirlar bo‘stoni”, Hasanxo‘ja Nisoriyning “Muzakkiri as’hob”, Atoulloh Husayniyning “Badoe’ us-sano‘e”, Do‘st Muxammadning “San’atkorlar ahvoli”, Qozi Ahmadning “San’at gulistoni” kabi yuzlab manbalar (badiiy asar, tazkira, risola) badiiy tafakkur, san’at va madaniyatni rivojlanishi, uning ilmiy nazariy asoslarining shakllanib borishida muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qilgan.

San’at chorizm mustamlakasi davrida barcha sohalar kabi sho‘rolar mafkurasiga buysundirilgan. Ammo shunga qaramasdan ma’rifat bayrog‘ini baland ko‘tarib chiqqan jadidchilar Maxmudho‘ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab allomalar o‘z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib odamlarni ilm-ma’rifatga undaydi, ongi va tafakkurini o‘zgartirishga harakat qiladi, yoshlarning zamonaviy bilim olishlari uchun kurashadi. San’atdan ma’naviy, ma’rifiy targ‘ibot vositasi sifatida foydalanadi, ya’ni san’at tilida xalq o‘rtasida ma’rifatpavarlikni targ‘ib etadi, o‘sha davr zulmi va adolatsizliklarini ochib tashlaydi.

Keyinchalik Oybek, G‘.G‘ulom, A.Qahhor, Zulfiya, S.Ahmad, O.Sharafiddinov kabi adiblar, L.Sarimsoqova, H.Nosirova, O.Xo‘jayev, R.Hamroyev kabi san’atkorlar mamlakatimizda san’at va madaniyatning rivoji uchun xizmat qilgan. Shunday qilib, insoniyat hayoti taraqqiy etishiga monand ravishda san’at va ijod ham o‘zgarib, yangilanib, yuksalib, yangidan yangi, takrorlanmas nazariya va

qarashlar bilan boyib boraveradi. Yu.Borev ta'kidlaganidek, "…ilmiy izlanishlarni takrorlash mumkin, ammo san'atning ko'p asrlik tarixida har xil ijodkorlarning asarlarida o'xshashlik xech kuzatilmagan".[13:32] Demak, san'at insoniyat hayoti hamda badiiy tafakkuri mahsuli sifatida makon va zamon bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanib, yangilanib boruvchi betakror, o'z-o'zini tashkillashtiruvchi estetik voqelikdir.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixi, xalqimiz madaniyati, adabiyot va san'atida jiddiy siljish va o'zgarish sodir bo'lgandan so'ng san'atimiz mavzulari, g'oyalar o'zgarishi bilan bog'liq rassomlarimizning qalbida va qarashida ham badiiy-estetik siljishlar ro'y berdi. Ko'pchilik rassomlar bor va ma'lum narsalarga ergashishdan ko'ra ularni his qilish, ifodalash va shular tufayli yangi, milliy, zamonaviy badiiy tafakkur xulosalarini ommalashtirish, tarqatish yo'liga o'tdilar. Xayoldagi orzu va armonlar, xalq tarixi va taqdiri bilan bog'liq afsona va rivoyatlar tasvirida obrazlarni belgilagan badiiy-estetik echimlar, yo'llar va usullar jonlandi. San'atning xalq orasiga, tafakkuriga kirish yo'li turli individual tasvir yo'llari, uslublari orqali ochildi va kengaydi.[14:7]

Hozirgi kunda mamnuniyat bilan aytishimiz mumkinki, san'atning estetik, sinergetik, falsafiy tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar biroz kengayib bormoqda. Xususan, Yu.Borev zamonaviy nazariyotchi olimlarning san'at klassifikatsiyasi mavzusidagi baxslarini davom ettiradi. "T.Manro fikricha, san'atning turlari faqatgina adabiyot, teatr, musiqa, rassomchilik emas, balki, hayvonlarni boqish, plastik xirurgiya, kosmetika ishlab chiqarish, parfyumeriya ishlab chiqarish, oshpazlik, vino ishlab chiqarish, oziq-ovqat masalliqlari bilan shug'ullanish, kiyim-kechak modellarini yaratish, sartaroshlik, tatuirovka ishi va x.k.lardan iborat. Umumiy qilib olganda u 400 dan ortiq turini sanab o'tadi va san'atda chegara bilmaydi. Umuman olganda, chegaralarning bunday kengayishi ancha uzoq tarixga borib taqaladi. Ko'pgina xalqlarning tilida xalq hunarmandchiligi turlari san'at deb atalgan. Qadimgi yunonlarda san'at va hunarmandchilik bitta so'z bilan atalgan - techne; ilk rassomlar bu kulollar, toshga ishlov beruvchilar, duradgorlar va boshqa hunarmandchilik ustalari bo'lgan", degan fikrlarini keltirib: "Estetikaning vazifasi – san'atning hech bir narsa bilan alishtirib bo'lmaydigan maxsus qobiliyatidir, u birinchidan, inson estetik extiyojlari, qobiliyati va didini shakllantiruvchi qobiliyat, ikkinchidan, insonni olamga qadriyatlariga monand ravishda yo'naltirish qobiliyati, uchinchidan, ijodiy ruhni tug'dirish, shaxsning ijodiy asosini shakllantirish, go'zallik qonuniyatlariga asosan yaratishga intilish qobiliyatidir", deb ta'kidlaydi. [15:32]

San'atning tarixdagi ahamiyati to'g'risida "Fikrini jilovlay olgan inson o'z ustidan mutlaq hokimdir. Agar podshohlar xalqlarni ma'lum bir muddat boshqarsa, ijodkor asrlarni boshqaradi, u narsalarni yuzini o'zgartiradi, degrezlik shaklida inqilob qiladi, yer kurrasini shakli va tamoyilini o'zgartiradi", deyilgan. [16:191]

San'atning estetik tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar mamlakatimizda oxirgi yillarda biroz kengayib bormoqda. Lekin bu tadqiqotlar orasida fundamental estetik izlanishlarni uchratish o'ta murakkabdir. Chunki XX asrning oxirlarida T.Mahmudov san'at hodisalarini estetik jihatdan o'rganish uchun tizimli, kompleks yondashuv zaruriyati mavjudligini ta'kidlaydi: "San'at tahliliga majmuaviy yondashuv quyidagilarni anglatadi: 1) badiiy ijodni obyektiv va har tomonlama tahlili; 2) san'at asarining barcha qirralarini organik bog'liqligini yaxlit in'ikos tizimi sifatida ko'rib chiqish; 3) murakkab badiiy bilish jarayonida asosiy aspekt yadroni ajrata bilish".[17:6] Bunday metodologik yondashuv zamonaviy estetikaning metodologik bazasini tashkil etadi va murakkab tizimlar konsepsiyasida aqliy mushohadaning estetik ong darajasiga ko'tarish imkoniyatini kengaytiradi. Bu yondashuv zamonaviy estetikaning metodologik bazasini tashkil etadi va san'at tahlilida amal qilinadigan omillardir.

Fikrimizcha, insonning tabiiy, ijtimoiy va milliy voqelikka, umumbashariy qadriyatlarga, an'analarga bo'lgan estetik munosabatini o'rganuvchi estetika fani bu munosabatning oliy ifodasi bo'lmish san'atning barcha tur va janrlari to'plagan tajriba hamda badiiy jarayonda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni ham tadqiq etmoqda. San'atshunoslik ma'lum san'at turi, janri va tarixining obyektiv taraqqiyot yo'li xususiyatlarini tadqiq etsa, estetika bir necha yoki barcha san'at turlari uchun mavjud bo'lgan umumiy qarashlar, yo'nalish va tendensiyalarni o'rganadi.

San'at shunday tafakkur, nazariy aqldan yuqori turuvchi transendental bilimni hosil qiluvchi inson faoliyatining sohasiki, unda aprior his-tuyg'u va aprior aql, tafakkur o'zaro ichki uyg'unlikda (garmoniya) go'zallik va ulug'vorlik mezoni bilan baholanadigan transendental (ilohiy, intuitiv) bilim hosil qiladi.[18:45]

San`at, ma'naviy jarayon sifatida, o'z murakkab ichki tizimi tufayli inson tafakkurining barcha yorug' va qorong'u, baland va past, chuqur va yuzaki holatlarini ifodalaydi. U odamlarda tasvirlangan, ifodalangan narsa, hodisa va kechinmalarning estetik qadriyatliligini namoyon qiladi, narsa-hodisalarga nisbatan estetik baholash qobiliyatini shakllantiradi. O'quvchi va tomoshabin voqelikni san'atkor ko'zi

bilan koʻrishga majbur boʻlsa-da uning estetik didi, olam, tabiat va inson mohiyatini anglaydigan estetik ongini shakllantiradi.

Voqelik haqidagi san'atkor hukmi oʻquvchi va tomoshabin xulosasi bilan teng boʻlmasligi mumkin. Lekin eng qizigʻi shundaki, san'atkor oʻquvchi va tomoshabinga erkin fikr yuritish va erkin tuygʻularga burkanish imkoniyatini yaratadi. San'atning bunday tarbiyaviy xususiyati tufayli odamlarda tafakkur va hissiyot birligidan vujudga keluvchi estetik dunyoqarash shakllanadi. Oʻz navbatida, estetik ong va tafakkur insonning hayotga boʻlgan universal qobiliyatlarini va munosabatini voyaga yetkazish imkoniyatini yaratadigan murakkab jarayon hisoblanadi. Binobarin, estetik tafakkur asosida insonning hayotga boʻlgan ma'naviy-ijodiy munosabatini faollashtirish yotadi. "Estetik tuygʻu, goʻzallik haqidagi odamlardagi tushuncha, tasavvur bilan ularni oʻragan muhit oʻrtasida toʻgʻridan-toʻgʻri munosabat boʻlmasligi mumkin, lekin badiiy goʻzallik ularni hayotga boshqacha qarash va boshqacha e'tibor yuritish salohiyatni kuchaytiradi, insondagi yangi-yangi ma'naviy his-hayajon toʻlqinlarini kuchaytiradi".[19:21] Estetik kechinma, goʻzallikni his qilibgina qolmay, uni yaratishga boʻlgan ma'naviy ehtiyoj odamlarni goʻzal odatlar, koʻnikmalar va faoliyatga chorlashi kerak.

Yuqorida tahlil etilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, insonning san'atga boʻlgan estetik ehtiyoji, san'atning moʻjizaviyligi, hissiy bilishga asoslanganligi, tinimsiz harakatda va doimiy yangilanib borishi, san'at mohiyatini anglash, san'at effektini oʻrganishning dolzarbligini koʻrsatadi. Demak, **birinchidan,** san'at olam, tabiat, jamiyatdagi narsa va hodisalarning ijodkor inson badiiy-estetik tafakkuri, hayoli, tasavvuri, fantaziyalari yordamida obrazli tarzda aks etuvchi, ma'naviy, madaniy, badiiy-estetik voqelikdir; **ikkinchidan**, san'at tarixan shakllangan turlari (musiqa, tasviriy san'at, haykaltaroshlik, badiiy adabiyot va bq.) va vositalari (buyoq, nay, nogʻora, doira) bilan inson ongi va tafakkuriga ahloqiy, estetik, ma'naviy-ma'rifiy jihatlari bilan ta'sir koʻrsatib kelgan, falsafiy, tarixiy-ilmiy nazariy-metodologik asoslarga ega boʻlgan ijtimoiy-madaniy sohadir.

## Adabiyotlar

1. Oʻzbekiston falsafasi tarixi. I jild. T.: Noshir. 2013. -B.68.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –Toshkent. A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti,1993. 112-113 bet.
3. Борев Ю. Эстетика. Москва. Политиздат. 1988, -С.33.
4. Ibn Sino. Salomon va Ibsol. Toshkent. Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. 100-bet.
5. Abdulla Sher. Estetika. –Toshkent: Oʻzbekiston, 2015. -73-bet.
6. Umar Xayyom. Ruboiylar. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. 78-bet.
7. Mahmudova G. "Madaniy sivilizatsiya kontekstida Xojagon, Naqshbandiya tasavvufiy ta'limotlari ilmiy-ma'naviy merosining umumbashariy ahamiyati" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Navoiy, 2018. 32-bet.
8. Газали Абу Хамид. Воскрешение наук о вере. – Москва: Наука,1980. – С.117-122.
9. Qarang. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi san'at va adabiyot nashriyoti, 1979. –B.29.
10. Oʻsha manba. –B.152.
11. История Эстетики Памятники мировой эстетической мысли. Том I.– Москва: Издательство академии художеств, 1962. - С.390.
12. Борев Ю. Эстетика. – Москва: Политиздат, 1988. – С.32-33.
13. Mirzo A. Kallaxonalik yigitcha. – Roman. (Soʻz boshi, Moʻyqalamda yozilgan roman. Tilab Mahmudov). – Toshkent. Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 2018. –B.7-8.
14. Борев Ю. Эстетика. – Москва: Политиздат, 1988. – С.32-33.
15. Бальзак. Об искусстве. Москва-Ленинград: Искусство, 1941.– С.191.
16. Махмудов Т., Петров В. Вопросы методологии эстетического анализа искусства. – Ташкент: Фан, 1984. –С.6.
17. Olloyorov M. Olloyorova M. San'at ma'naviyatning tarkibiy qismi. – Samarqand: SamDU, 2013. 45-bet.
18. Oʻroqova O.J. Choʻlpon ijodining badiiy-estetik mohiyati. – Toshkent: Navroʻz, 2016. –B.21.

UDK: 111.1

# BOSHQARUVGA OID G‘OYALARNING FUNKSIONAL TAHLILI

**Sh. Q. Raxmonova**
*Toshkent davlat transport universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada boshqaruvga doir konseptual g‘oyalar o‘z aksini topgan bo‘lib, unda boshqaruvning ahamiyatli jihatlari, boshqaruv to‘g‘risida kishilik tarixining nodir manbalaridan biri sanalmish xalq og‘zaki ijodidan ayrim namunalar keltirilib, boshqaruvning genezisi uzoq o‘tmish bilan bog‘liqligi kontent tahlil etilgan. Shuningdek, sharq mutafakkirlarning boshqaruvga oid qarashlari, Amir Temurning boshqaruv faoliyati to‘g‘risidagi qarashlari o‘z aksini topgan. Shuningdek maqolada rahbarlik sifatlari va uning kamol topib rivojlanishida jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy omillarning o‘rni haqida ham to‘xtalib, bunda Sharq xalqlariga xos jamoaviylik o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** ehtiyoj, boshqaruv, rahbarlik qobiliyati, liderlik salohiyati, axloq, adolat, siyosat, talab, shaxsiy xususiyatlar, salohiyat, jamiyat taraqqiyoti.

## Функциональный анализ управленческих идей

**Аннотация.** В статье отражены концептуальные идеи управления, важные аспекты управления, некоторые примеры фольклора об управлении, которое является одним из редких источников истории человечества, и анализируется содержание генезиса управления в далеком прошлом. Также были отражены взгляды восточных мыслителей на управление, взгляды Амира Темура на управление. В статье также рассматриваются качества лидерства и роль социокультурных факторов общества в его развитии, выделяются уникальные особенности народов Востока.

**Ключевые слова:** потребность, менеджмент, лидерские качества, лидерский потенциал, этика, справедливость, политика, спрос, личностные характеристики, потенциал, развитие сообщества.

## Functional analysis of management ideas

**Abstract.** The article reflects the conceptual ideas of governance, the important aspects of governance, some examples from folklore, which is one of the rare sources of human history about governance, and analyzes the content of the genesis of governance in the distant past. It also reflects the views of Eastern thinkers on governance, Amir Temur's views on governance. The article also discusses the qualities of leadership and the role of socio-cultural factors in society in its development, highlighting the unique characteristics of the peoples of the East.

**Keywords:** need, management, leadership ability, leadership potential, ethics, justice, policy, demand, personal characteristics, potential, community development.

## KIRISH

Ehtiyoj bo‘lmasa hech narsa vujudga kelmaydi. Jamiyatdagi mavjud har bir narsa ehtiyojning mahsulidir. Kishilik jamiyatining ibtidosida ham qabilaning boshqa a‘zolariga nisbatan o‘zining muayyan xususiyatlari bilan ajralib turuvchi kishilar shakllanib, qabilani, jamoani o‘z orqasidan ergashtira olgan. Bunday kishilar kuchli bo‘lishi bilan bir qatorda, aqlu idrok, fahm-farosati bilan ham boshqalardan ajralib turgan. Ana shu xususiyatlari bilan bunday odamlar boshqalarga o‘rnak bo‘lib, ziddiyatli sharoitlarda muammolar yechimini izlashgan. Jamoaning boshini qovushtirishga, ushbu guruhni aql va idrok bilan idora etishga intilgan. Aslida 2017 yil 3 yanvarda imzolangan O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonunining 21-moddasida “Davlat organlarining xodimlari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo‘l qo‘ymasligi kerak”[1] ligi belgilab qo‘yilishi zamirida ham ayni talablar, ibtidodan buyon o‘zgarmas mezonlar turibdi, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida boshqaruv ishi murakkab shakl kasb eta borgani bois, jamiyatda rahbar shaxsining ahamiyati ham orta borgan. Bunga rahbarlar to‘g‘risida o‘tmishda yaratilib, bugungi kungacha saqlanib kelgan xalq og‘zaki ijodi namunalari ham guvohlik beradi. Rivoyatlar, afsonalar, dostonlar, laparlar, maqollar va ertaklarda el rahbarining yetakchilik salohiyati, u ko‘rsatgan qahramonlik, jasorat asrlar osha ulug‘lab kelingan. Bunga ma’lum va mashhur To‘maris to‘g‘risidagi afsona[2. 6] ham misol bo‘la oladi. Unda o‘z yetakchiligi ostida butun sak va massaget qabilalarini birlashtirib, Kir II ustidan g‘alaba qozongan haqiqiy yetakchi siymosi – jasur To‘maris ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, xalq og‘zaki ijodining nodir namunalari hisoblanmish “Go‘ro‘g‘li”, “Avazxon” va “Alpomish” singari dostonlarda ham rahbarning yetakchilik salohiyati ulug‘lanib, vaziyatni to‘g‘ri baholay olish, o‘z vaqtida tezkor qaror qabul qilish, qiyinchiliklarni mardonovor yengish, mardlik va jasorat singari rahbarga xos fazilatlar bo‘rttirib ko‘rsatiladi. Demak, rahbarda liderlik salohiyatini shakllantirish masalasining genezisi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Bu esa hech narsa o‘z-o‘zidan, yo‘qlikdan emas, balki asrlar sinovida orttirilgan hayotiy tajriba, bilim va ko‘nikmalar asosida shakllanishini, tizimga solinishi va kelajak avlod hayotiy faoliyatida qo‘llashi uchun manba sifatida xizmat qilishini anglatadi.

**Tadqiqotning maqsadi**

Boshqaruvga oid g‘oyalarni funksional tadqiq va tahlil etishdan iborat.

**Tadqiqotning usuli va obyekti**

Mazkur jarayonda kontekstli tahlil, tarixiy analogiya, hujjatlarni o‘rganish kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar, qarashlar, nazariyalar tashkil etadi.

**Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi**

Kishining rahbar sifatida kamol topib rivojlanishida jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy omillar ham muhim o‘rin tutadi. Sharq xalqlariga xos jamoaviylik, G‘arbdagi individualizmdan farqli ravishda, kishilarning o‘zaro birligini ta‘minlashga qaratilgandir. Jamoa ta‘sirida shakllanib, rivojlangan tafakkur doimo bir-birini qo‘llab yashash xususiyatiga moyil bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘zgalar taqdiriga mas‘uliyat hissi ham ortadi. Binobarin, rahbarning bir o‘zi barcha imkoniyat va salohiyatini yuzaga chiqarolmaydi. Buning uchun u muayyan jamoaga tayanishi lozim. U jamoaga tayangan taqdirdagina orzu-istaklarini kengroq ko‘lamda ruyobga chiqarish imkoniyatini qo‘lga kiritadi.

Sharqda jamoani boshqarishda yetakchi rahbarda muayyan axloqiy sifatlar mavjud bo‘lishi lozimligi to‘g‘risida ko‘plab g‘oya va qarashlar, fikr-mulohazalar bayon etilgan. Xususan, qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfusiy (eramizdan av. 551-479 yy.) shunday deydi: “Xalq ma‘muriy buyruqbozlik bilan boshqarilsa, uning xatti-harakatlari iskanjalari yordamida tartibga solinsa, oddiy xalq majburan o‘zini jinoyat sodir etishdan tiyib turadi, lekin jinoyatning isnodligini tushunib yetmaydi. Xalq muruvvat va ishontirish yo‘li bilan boshqarilsa va axloq qoidalari, adolatga asosan boshqarilsa, bunday xalq egri ish qilish isnodligini tushunadi. Shuningdek, o‘z xatolarini o‘zi to‘g‘rilay oladi”[3.22]. Bu mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, Sharqda qadimdan buyruqbozlik tizimi qoralanib, axloq va adolat qoidalari ustuvor g‘oya sifatida ilgari surilgan. Garchi Konfusiy tomonidan ilgari surilgan bu qarash bundan qariyb uch ming yil ilgari aytilgan bo‘lsa-da, shu kunga qadar o‘z ahamiyatini saqlab qolgani bilan qimmatlidir.

Zero, bugungi kunda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan siyosat va ilgari surilayotgan qarashlar zamirida, jumladan, “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy bo‘ladi”[4.6] degan g‘oyalar misolida ham buni ko‘rishimiz mumkin.

Bu borada Forobiy “inson o‘z taqdirini aql-farosat, ijodkorlik qobiliyati orqali yaratishini"[5.28] ta’kidlab shunday yozadi: “Agar kasb, hunar fazilati tug‘ma bo‘lganda, poshdolar ham o‘zlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo‘lgan, tabiat talab qilgan bir majburiyat bo‘lib qolar edi. Nazariy va buyuk fikriy fazilat, ulug‘ tug‘ma fazilat va ulug‘ (kasb-hunar) fazilati odat – malaka bo‘lib qolgan odamda bu fazilatlar irodani hosil qilishning va odatga aylantirishning sababi bo‘ladi. Bunday odamlar cheksiz va juda kuchli iroda egalaridirlar”[6.184]. Demak, Forobiy rahbar shaxsini tarbiyalash va kamol toptirishda irodaning kuchiga katta e’tibor qaratib, u rahbarlarni ilm-ma‘rifatli bo‘lishga, bunyodkorlik kuchini, salohiyatini ezgulik yo‘lida sarflashga undaydi.

Forobiy rahbarning fazilatlari xususida shunday yozadi: “o‘zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat’iyatli, sabotli, jur‘atli, jasur bo‘lishi, qo‘rqoqlik va hadiksirashlarga yo‘l qo‘ymasligi, ya‘ni kuchli irodali bo‘lishi lozim.[7.41-42]

Shuningdek, Forobiy jamiyat boshqaruvidagi ikki idora rahbariyati: birinchisi – “noto‘g‘ri xatti-harakatlar va jinoyatlarni nazorat qiluvchi idoralar – sohibi qonunlar”, ikkinchisi – “ijro etuvchi idora – hokimiyat rahbariyati”[8.64] faoliyati xususida ham o‘z qarashlarini bayon etgan.

Shuningdek, boshqaruv g‘oyalari ilgari surilgan manbalar ichida Amir Temurning “Temur tuzuklari”, mamlakat va saltanatni boshqarish haqida ilgari surilgan g‘oyalar siyosiy boshqarish sohasidagi xilma-xil muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi”[9.30]. Prezident Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “Buyuk sohibqiron Amir Temur bobomizning: “Adolat har bir ishda hamrohimiz va dasturimiz bo‘lsin!” degan chuqur ma‘noli so‘zlari har birimiz uchun hayotiy e‘tiqodga aylanishi zarur”[10.10].

“Temur tuzuklari”da rahbar xarakterining tayanch xususiyatlarini belgilashda quyidagi prinsiplar asos qilib olingan: adolat, to‘ra va tuzuklarga rioya etish; kengashish, maslahat, qat‘iy qaror, tadbirkorlik, hushyorlik va ehtiyotkorlik; sabr-toqat; shijoat-g‘ayrat[11. 12, 17, 18, 62].

Temur qarashlariga ko‘ra, hech bir kishi rahbar va uning shaxsiga qo‘yiladigan talablarni birdaniga mukammal egallay olmaydi. Ularni rahbarlikning xilma-xil tashvish-muammolari, chigalliklarni yechish davomida egallab boradi. Bu uzoq vaqt davom etuvchi jarayon bo‘lib, unda rahbar juda ko‘p qiyinchiliklarga duch keladi. Lekin rahbarlikning boshqa xususiyatlarini kasb etib borishi uchun rahbar, eng avvalo, yuqorida qayd etilgan xususiyatlarga ega bo‘lmog‘i lozim.

“Tuzuklar”da qo‘l ostidagi rahbarlar va rahbarlikka tayinlanayotgan kadrlarni tanlashda bir qator shaxsiy xususiyatlar bor-yo‘qligini tekshirish o‘zi uchun odatga aylanganini ta‘kidlab, bunda quyidagi jihatlarga e‘tibor qaratadi:

Birinchisi – adolat.

Ikkinchisi – ishonch-e‘tiqod.

Uchinchisi – ma‘rifatparvarlik va bunyodkorlik.

Amir Temur rahbarda bo‘lishi lozim bo‘lgan 12 ta asosiy xususiyati e‘tibor qaratgan. Bular quyidagilar:

1. Rahbar o‘z so‘zi va o‘z ishiga bir o‘zi ega bo‘lishi lozim. Bunga hech kim aralashmasligi, rahbar boshqa birovning gapi va ishiga ergashmasligi, rahbarlik ikki yoki undan ortiq kishilar sherikchiligidagi ishga aylanib ketmasligi va qo‘l ostidagilar rahbardan ustun bo‘lmasliklari shart.

2. Rahbarning muhim ishlarda maslahatlashadigan yaqin kishilari bo‘lmog‘i kerak va rahbar ularning faqat qilinayotgan ishlar, ko‘rilayotgan chora-tadbirlarni rivojlantirish bo‘yicha beradigan maslahatlariga quloq solmog‘i lozim.

3. Buyruq, farmoyish, ko‘rsatma berish ishi shaxsan rahbarda bo‘lishi shart.

4. Rahbar o‘z qarorida qat‘iy bo‘lmog‘i kerak.

5. Rahbar hukmi, qarori, farmon-toshirig‘i, ko‘rsatmasi ijro etilishi darkor.

6. Rahbar biron-bir sabab bilan rahbarlik ishini, undagi o‘zi hal qilishi lozim bo‘lgan muhim masalalarni hal etishni birovga topshirib qo‘ymasligi lozim.

7. Boshqaruv ishlarida rahbarni boshqarishga, o‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun uni o‘z yo‘liga solishga intiluvchilar ko‘p bo‘ladi. Shu tufayli har kimning so‘zini eshitib, har kimdan fikr olishi, qaysi biri foydaliroq bo‘lsa, uni vaqtida ishlatishi tavsiya etiladi.

8. Boshqaruv ishlarida, xususan, armiya va aholi ehtiyojlari bilan bog‘liq masalalarda boshqalarning so‘z va fe‘liga qarab ish yuritmasligi, bu boradagi yaxshi-yomon fikrlarni eshitib, shoshmasdan mulohaza bilan ish tutmog‘i kerak.

9. Rahbar siyosati jiddiy, so‘zi va hukmi salobatli bo‘lmog‘i kerak. Uning qaroriga hech kim qarishilik qilishga jur’at etmasin, itoat va tobe’likda bo‘lishi lozim.

10. Rahbar o‘z lavozimi doirasidagi vazifalarni o‘z erkicha bajarishi lozim. Agar qandaydir tazyiq, majburiyat yoki mutelikda ish yuritsa, o‘sha sohada rivojlanish bo‘lmaydi.

11. Rahbar hech qachon, hech bir ishda (saltanat ishlarida, hukm yurgizishda) hech kimni o‘ziga sherik qilmasligi lozim.

12. Rahbar o‘z maslahatchilaridan hamisha ogoh bo‘lishi, ularning ko‘pincha ayb axtarib, gaplarni tashqariga tashishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim[11.80-82].

Mazkur o‘n ikki tamoyil Temur davlatida rahbarlarni tayinlash va rahbarlikka tanlashning asosiy tamoyillari sifatida talqin etiladiki, agarda Forobiy o‘z qarashlarini nazariy asoslagan bo‘lsa, Amir Temur davlat rahbari sifatida o‘z qarashlarini amaliyotda sinab, uni amalga oshirish bo‘yicha daliliy fikr-mulohazalarini bayon etgan.

**Xulosa**

Demak, xulosa sifatida quyidagi fikr-mulohazalarni bildirish mumkin:

- **birinchidan,** Sharqda jamoani boshqarishda yetakchi rahbarda muayyan axloqiy sifatlar mavjud bo‘lishi lozimligi to‘g‘risida ko‘plab g‘oya va qarashlar, fikr-mulohazalar bayon etilgan. Bunda Forobiy va Amir Temur tomonidan ilgari surilgan qarashlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega;
- **ikkinchidan,** rahbarning yakka o‘zi barcha imkoniyat va salohiyatini yuzaga chiqarolmaydi. Buning uchun u muayyan jamoaga tayanishi lozim. U jamoaga tayangan taqdirdagina maqsadlarini ro‘yobga chiqarish imkoniyatini qo‘lga kiritadiki, bu jihat Forobiy asarlarida ham, Amir Temur tuzuklarida ham o‘z ifodasini topgan;
- **uchinchidan,** o‘tmishda yashab ijod etgan mutafakkirlar, mashhur davlat arboblari hayoti va faoliyati, ular tomonidan bitilgan va bugungi kungacha saqlanib kelayotgan nodir manbalar yillar sinovidan o‘tib, o‘zining ahamiyatini yo‘qotmagan holda texnik taraqqiyot va globallashuv jarayonlari kechayotgan

hozirgi davrda ham inson va uning manfaati, qolaversa, jamiyat taraqqiyotini ta’minlash uchun xizmat qiladi. Bunda Forobiy va Amir Temur qarashlari muhim manba sanaladiki, ulardan o‘rinli foydalangan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq.

**Adabiyotlar**


1. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni. - http://www.uza.uz/oz/laws/new-laws/korruptsiyaga-arshi-kurashish-t-risida-04-01-2017
2. Iskandarov B. O‘rta Osiyoda falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fikrning shakllanishi va rivojlanishi tarixidan lavhalar. – Toshkent: O‘zbekiston, 1993. – B. 6.
3. Konfutsiy. Suhbat va mulohazalar / Xitoy tilidan M.Maxmutxodjayev va N.Ismatullayeva tarjimasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – B. 22.
4. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. / Nashrga tayyor. M.Bekmurodov, Q.Quronboyev, L.Tangriyev. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2017. – B.6.5.
5. Karimov S.K. O‘rta Osiyo sotsiologik fikrlar tarixidan. – Samarqand, 2000. – B.28.
6. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy, 1993. – B.184.
7. Abu Nasr Forobiy Fozil odamlar shahri. – T.: Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – B. 41-42.
8. Ravshanov F. Milliy rahbarshunoslik: tarix va tajriba. – Toshkent: Akademiya, 2007. – B.64.
9. Ramazonov I., Mo‘minov E.Politologiya. Darslik. – Toshkent: Adolat, 1997. – B.30.
10. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2016. – B.10.
11. Temur tuzuklari. – Toshkent: Sharq, 2005. 160-b.


**UDK:10(09) R12**

## JALOLIDDIN RUMIY ASARLARIDA AXLOQIY TARBIYA VA NAFS DISKRIMINATSIYASI

**S. M. Raxmonov**
*Samarqand davlat chet tillar instituti*
*sunnat.rahmonov@inbox.ru*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Jaloliddin Rumiy asarlarida axloqiy tarbiya va nafs diskriminatsiyasi masalasi aks ettirilgan. Jaloliddin Rumiyning asarlari asosan falsafiy fikr mulohazalarni o‘z ichiga olgan. Jaloliddin Rumiy barcha faylasuflar kabi, inson o‘zgarishni o‘zidan boshlashi kerakligini ta’kidlaydi. Jaloliddin Rumiy insonlarga ezgulik va poklikni targ‘ib qilib komillikning namunasiga aylangan.

**Kalit so‘zlar:** Tasavvuf, tariqat, zikr, maxfiy zikr, jahriy zikr, samo‘, mavlaviya, naqshbandiya, komil inson.

### Проблемы нравственного воспитания и дискриминации нафса (желание) в произведениях Джалалиддина Руми

**Аннотация.** В данной статье отражены, проблемы нравственного воспитания и дискриминации нафса (желание) в произведениях Джалалиддина Руми. Произведение Джалалиддина Руми в основном охватывает философское размышление. Джалалиддин Руми, как и другие философы, подчеркивает, что человек должен начать изменение в себе. Джалалиддин Руми стал примером совершенства, проповедуя людям доброту и чистоту.

**Ключевые слова:** Суфизм, учения, зикр, тайный зикр, джахри зикр, само, мавлавия, накшбандия, совершенный человек.

### The problems of moral education and discrimination of desire (nafs) in the works of Jalaliddin Rumi

**Abstract.** This article reflects the problems of moral education and discrimination of desire (nafs) in the works of Jalaliddin Rumi. Jalaluddin Rumi's work mainly covers philosophical reasoning. Jalaliddin Rumi, like other philosophers, emphasizes that a person must begin to change in himself. Jalaliddin Rumi became an example of excellence, preaching kindness and purity to people.

**Keywords:** Sufism, teachings, dhikr, secret dhikr, jahri dhikr, samo, mavlaviya, nakshbandiya, perfect man.

“Aqlim har kun tavba qilar,
Nafsim har on tavbamni buzar!
Ikkisi orasida qolgan bir bechoraman...”
***Mavlono Jaloliddin Rumiy***

Tariqatlar islom dinining ruhi sanaladi. Shariat va boshqa ilmlarni o‘rganish yo‘llari turli-tuman bo‘lganidek, tasavvufda ham har xil tariqalar mavjud. Har bir tariqat o‘ziga xos yo‘ldan haqiqatga erishadi. Tasavvufiy tariqalar xilma-xil bo‘lsa-da, ularning asosiy maqsadi bitta, ya’ni Haqqa yaqinlashishdir.

Tasavvufda tariqatlar juda ko‘p bo‘lgan. Jumladan Naqshbandiya, Yassaviya, Kubraviya va hozirgacha ayrim Sharq mamlakatlarida saqlanib qolgan Qodiriya (Eron va Afg‘onistonda), Rifoiya (Eronda), Tayfuriya (arab mamlakatlarida), Mavlaviya (Turkiyada), Chishtiya (Hindiston va Pokistonda), Bektoshiya (Turkiyada), Savafiya (Eronda) va boshqalar shular jumlasidandir. Markaziy Osiyoda azaldan Naqshbandiya, Turkiyada Mavlaviya tariqatlari keng tarqalgan.

Mavlaviya tariqatiga 1240 yilda mashhur ilohiyotchi va shoir Jaloliddin Rumiy (1207-1273) tomonidan asos solingan. Jaloliddin Rumiyni ko‘pincha “Mavlono” deb atashgan va tariqat nomi ham shundan olingan. “Mavlono” - atamasi ustozlarni ulug‘lab, ularning nomlariga qo‘shib ishlatilgan va hurmat ma’nosida shaxs nomidan avval aytilgan. Dastlab ushbu tariqat faoliyati Turkiya va Eron hududlariga yoyilib, shahar aholisining o‘rta va quyi qatlamlari, keyinroq yuqori tabaqalari ham qo‘shilgan.

Jaloliddin Rumiy ming yillar davomida to‘planib kelgan Sharq falsafasi va hikmati bilan islomiy haqiqatlarni birlashtira olgan, tasavvuf va falsafani qo‘shib, inson ruhi dialektikasini ochgan ulug‘ mutafakkirdir.

Mavlaviya tariqatida Mavlono Jaloluddin Rumiy rahmatullohi alayhiga nisbat berilgan bo‘lib, bu tariqat Onado‘lida keng tarqalgan. U kishining nasablari ota tarafdan Abu Bakr Siddiqqa, ona tarafdan Movarounnahrda hukm surgan Xorazmshohlar sulolasiga borib taqaladi. U kishi ko‘plab safarlardan keyin Sulton Alouddin Saljuqiyning poytaxti Qo‘niya shahrida uzoq vaqt yashab, o‘sha yerda vafot etib, dafn qilinganlar. U kishi shar’iy ilmlarni ko‘zga ko‘ringan hanafiy faqih bo‘lgan o‘z otalaridan olganlar. Mavlono Jaloluddin Rumiy rahmatullohi alayhi mudarris, voiz va faqih keyinchalik esa so‘fiylik, shoirlik va hakimlik bilan shuhrat qozonganlar [10. B. 6-7].

Jaloliddin Rumiy mashhur ilohiyotchi, shoir va mavlaviya tariqatining dahosi sanaladi. Mavlaviya tariqati Rumiyning so‘fiyona yozilgan “Ma’naviy masnaviy”sining shuhrati natijasida xalq orasida mashhurlikga erishgan. Jaloliddin Rumiyning lirik she’rlar va to‘rtliklardan iborat buyuk asari hisoblanmish “Ma’naviy masnaviy”da Qur’oni Karimning botiniy ma’nosi aks etirillganligi sababli Abdurahmon Jomiy uni fors tilidagi Qur’on yani, “Xast Qur’on dar zabon-i pahlavi” deb atagan [3. B. 15].

Jaloliddin Rumiyning falsafiy qarashlariga ko‘ra Alloh borliqdan ko‘ra behad oliy mohiyatdir. U har qanday insoniy Ezgulik va Yovuzlik, Borliq va Yo‘qlikdan yuksakroqdir. Uning yaratilgan olam bilan munosabati anglab bo‘lmaydigan sir, Allohni bilish oddiy o‘tkinchi insonga xos emas. Bundan ko‘rinib turibdiki Rumiyning Alloh to‘g‘risidagi tushunchasi juda ham nafis va rang-barang, uni faqat bir tomonlama oddiy panteizm - borliq birligi (vahdat ul-vujud) tarafdori deb hisoblash mumkin emas [8. B.124].

Jaloliddin Rumiyning asarlari asosan falsafiy fikr mulohazalarni o‘z ichiga olgan. Mavlono Jaloliddin Rumiy o‘zining “Ichindagi ichindadir” asarida “Axir men huzurimga kelgan yoronning zerikmasligi uchun qo‘limdan kelgan barcha choralarni ko‘raman hatto she’r ham o‘qiyman”, deb ta’kidlagan [2. B. 71]. Bundan anglashiladiki mutafakkir she'riyatni ilohiy ma'noni xalqqa yetkazish borasidagi vosita deb bilgan. Bu - Rumiyning dunyodagi eng buyuk shoirlardan biri ekaniga dalildir. “So‘z libos. Ma’no unda yashirin asror”, degandi Rumiy. So‘zga ravon tilda, tushunishi oson usulda, teran ma’no berish Jaloliddin Rumiy she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan sanalagan.

Shu bilan birga Jaloliddin Rumiyning ilohiy salohiyati, nafaqat she’riyatda balki tasavvuf falsafasida ham namoyon bo‘ladi. Movlono Rumiy ulug‘ mutasavvif, ya’ni tasavvufiy tafakkurning buyuk namoyandasi sanaladi. Jaloliddin Rumiyning fikriga ko‘ra Inson - Xudoning Yerdagi xalifasidir. Inson Allohdan qo‘rqib emas, Uni sevib, o‘z borlig‘ini Unga bag‘ishlab yashamog‘i lozim. Muhabbat yuksak ma’naviy hodisa sifatida barcha hissiyotlarni bir maqsadga yo‘naltiruvchi nurdir. Nur ranglarni yaratgani kabi, musiqa ham qalbda ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan go‘zallikni yaratadi. Inson qalbi muhabbat tufayli zulmatdan forig‘ bo‘ladi va yorug‘likka intiladi. Eng yorqin yorug‘lik esa Allohdir. Ushbu mutlaq yorug‘likka intilish yo‘lida musiqa inson hislarini tarbiyalay olish qudratiga ega. Zero insonga jon ato etilishi va mahshar kuni qayta tirilishi musiqa - sur orqali ro‘y beradi [1. – B. 2].

Mavlaviylikda – samo‘ zikrining musiqa bilan oshkora hamda tasavvufda aytiladigan “shatahot” (“harakatda bo‘lmoq”, “jo‘sh urmoq” ma’nolarida so‘fiyning shaxsiy ichki kechinmalari) holati

ko'rinishlari aks ettiriladi. Samo' - arab tilidan tarjima qilinganda - eshitmoq, tinglamoq ma'nolarini bildirib, (zikru samo') asosan O'rta va Yaqin Sharqda tasavvuf mazmunidagi asarlarni musiqiy, ba'zida esa tana harakatlari vositasida ham ijro etish an'anasi sanalgan [6. – B. 407].

Zikru samo' IX-X asrlarda shakllangan bo'lib, keyinchalik deyarli barcha tariqatlarda turli ko'rinishlarda keng tarqalgan. Mavlaviya tariqati vakillari o'z mavlaviyaxona va xonqohlariga ega bo'lib, bu yerda zikru samo' jamoa bo'lib, musiqa tinglash, kuylash va quloch yozib gir aylanib zikr tushish marosimiga alohida e'tibor berilgan. Mavlaviya tariqati "gardi darveshlar" nomi bilan ham mashhurdir.

Ushbu zikri samo' oddiy e'tiqodiy manzara yoki islom tariqatlarining bir ibodat shakli sifatida ko'rinsada, aslida unda yaxlit olam yashirilgandek go'yo. Ya'ni o'rtadagi shayx - Allohga bo'lgan muhabbat ramzi, atrofdagi darveshlar esa - o'sha muhabbat o'qi atrofida aylanayotgan sayyoralar singaridir. Inson va tashqi dunyo bir butun olamdan iborat, ushbu olamni Allohga bo'lgan muhabbat harakatga keltirgani kabi zikri samo' ham e'tiqodiy-falsafiy va badiiy-estetik yaxlitlikka, teranlikka asoslangan.

Jaloliddin Rumiy samo' paytida musiqani qo'llar ekan, inson hissiyotlarini mohiyatga qarab yo'naltirish va inson qalbini eritish uchun musiqadan "so'zsiz so'z" sifatida foydalangan. Bu esa o'z navbatida Mavlaviya tariqatida zikru samo'ni yuksak pog'onaga olib chiqishga zamin yaratgan.

*Tingla, nay andoq hikoyatlar qilur*
*Ayriliqlardan shikoyatlar qilur.*

Nay tasavvufda oshiq ya'ni ilohiy ishq oshig'ining ramziy obrazidir. Orif va oqil insonning, o'zini ilohiy ishq yo'liga bag'ishlagan insoni komilning lutfi nihoyatda oshiqona va laziz bo'lishi kerak. O'zini toza hayotidan ayrilgan nayning "judolikdan shikoyatlar qilishi" orif insonning ruhi kabi hamisha boqiy ruhoniyat olamiga intilishi kabidir [2. B. 230].

Mavlono Jaloliddin Rumiy asosan diniy va ijtimoiy-falsafiy fikrlarida insonning axloqiy jihatlarini tasvirlagan. Shu bilan birga, mutafakkir o'sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidan namunalar ham olgan.

Mutafakkirning axloqiy qarashlari ham dialektik munosabat orqali bayon etiladi. Rumiy insonlarning mutlaq yomoni bo'lmasligini, shu sababdan bir inson ikkinchi insonga nisbatan yomon ko'z bilan qarab atayin yomonlikni qidirishga urinmasligini ta'kidlaydi. Zero, "Olam bir toqqa o'xshaydi. Yaxshi yoki yomon so'zingni aksi o'zingga, faqat o'zingga qaytadi" [2. B. 134].

Mavlononing fikriga ko'ra inson o'z nafsi orqali hamma ko'rguliklarga giriftor bo'ladi. Ollohni tanigan iymonli kishining barcha mashg'ulotlarida osudalik, xotirjamlik, sabr ustun turadi. Ammo nafs tufayli ko'ngilda paydo bo'lguvchi ishtiyoq shaytonning qarmog'iga ilinishga undaydi. Inson nafsning g'ulg'ula, chorlovidan qutulmas ekan albatta o'ljaga aylanadi. "Qarmoqni uzib qochish" kam nasib qiluvchi toledir. Nafsga qul bo'lishning oqibati muqarrar o'limdir. Nafs insonni har maqomga sola oladi. Undan sabr tufayli xalos bo'lish mumkin. Zero, sabr qilguvchilar Yaratganga yaqindirlar.

*Donni ko'rgan qush baland tom uzradir,*
*Ul qanot yozgay, vale dom uzradir.*

Qush donni ko'rgach, past-balandni, xavf-xatarni unutadi. Olisdan ko'ziga shodlik va quvonch baxsh etayotgan don qush hayotini poyoniga yetkazishidan bexabar. Shuningdek, molu dunyo hirsu g'aflat, imon yo'lidagi xatarnok tuzoqdir.

*Talpinursan davlatu izzat sari,*
*Senga Azroil degaykim, kel beri!*

Inson nafsi yo'lida orzu-havaslarini o'ylab boylikka intiladi. Maqsadi yo'lida jonini qiynab, ne mashaqqatga ro'baro' bo'lsa-da, har qanday yo'l bilan istiqbolga talpinadi. Natijada, orzulariga yetishganida nogoh ajal farishtasi uni o'ziga chorlaydi. Shundagina inson aziz umrini yelga sovurganini anglaydi. Mansabi va molu dunyosi endi uni ranju balolardan qutqara olmaydi.

*Yuz qarolik otash ichra gar nihon,*
*O't yonib bitganda bo'lgaydir ayon.*

Nafsning eng og'ir quli hirsdir. Hirs kuch olganda har narsa jozibali, totli, rohatbaxsh tuyuladi. Masalan, ko'mir qoralikning eng baland timsoli. Uning olovda yonishi ishtiyoq nuqtai nazaridan o'zgacha manzara kashf etadi. Garchand, olovda tillodek ko'zni olguvchi yarqiroqlik paydo bo'lsa ham, oqibatda yonib bitgan ko'mirdan kul qoladi. Shunday ekan, inson bolasi yodingda tut: olam senga musaxxar bo'lsa ham fursat kelganda ajal sharobini ichguvchisan - deya, "o'lim haq"ligini ta'kidlaydi Mavlono [4. B. 14-114].

Insonning o'z nafsi va xohishi boshiga kelajak noqulaylikni orttirishga xizmat qilar ekan, Rumiyning fikriga ko'ra ignadek nuqsonimiz mixga aylanadi. Nafs va shayton azaldan bir bo'lganidan insonga dushmandir, unga hasad qiladi. Shuning uchun, hoyu havas va nafsning istagi bilan kam do'st bo'l

chunki, seni Allohning yo‘lidan chiqargan, yo‘ldan ozdirgan hoyu havasdir - deya, ta’kidlaydi Mavlono [5. B. 100].

*Har do‘konda o‘zga savdo har mahal,*
*Masnaviy - yo‘qlik do‘konidir azal.*

Inson har qaysi do‘konga kirgan chog‘ o‘ziga kerakli molni xarid qiladi. Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy”si esa yo‘qlik do‘konidir. Undan nafs uchun emas, ruh va iymon uchun tasalli berguvchi Haqdan o‘zga narsani topish mushkuldir [4. B. 67].

Jaloliddin Rumiy barcha faylasuflar kabi, inson o‘zgarishni o‘zidan boshlashi kerakligini ta’kidlaydi. Mavlononing fikriga ko‘ra, inson toki jamiyatda yashar ekan, xalqqa xizmat qilishi kerak. Xalqqa xizmatda bo‘lmagan odam Haqqa xizmat qildim deb ayta olmaydi. Jaloliddin Rumiy ilgari surgan haqparvarlik g‘oyasi Naqshbandiya tariqatidagi haqparvarlik g‘oyasiga juda yaqindir. Xalqparvar bo‘lmasdan turib, xudbinlarcha yondashuv orqali haqparvar bo‘lishi mumkin emas, faqat bu dunyodagi ezgu amallargina, insonni Haqqa yaqinlashtiradi, banda o‘zini o‘zgalarga yaxshilik istashi orqaligina yaxshilanib boradi.

Mavlono Rumiy dunyoga ziyrak ko‘z bilan nazar solib, insonni qanday bo‘lsa shunday o‘rganadi va inson qalbi to‘ridagi eng nozik, yashirin sirlarni ko‘rsatib beradi. Rumiy insonni tadqiq etish asnosida uning tabiati va intilishlarini kuzatadi, qalb tug‘yonlarini qidirib topadi. Insonning buyukligi bilan birga, nuqsonlari ya’ni nafsi, hirsi oqibatida kelib chiqadigan yovuzliklarni tahlil etib, bulardan qutilish, poklanish yo‘llarini ko‘rsatadi. Rumiy asarlarida insonning ma’naviy kamolotga erishish yo‘llari, ma'rifatli bo‘lishi, va saodatga erishishi sodda harakatlar orqali bayon etilgan. Rumiy inson kamoloti uchun kurashchi shaxs sifatida maydonga chiqib, insonni o‘zligini anglashga, yomonlikdan nafratlanishga va yaxshilikdan faxrlanishga o‘rgatadi. Rumiy insonlarni to‘g‘rilikka, soflikka yo‘naltirishi va ilm olishga undashi bilan birga ezgulik va poklikni targ‘ib qilgan va o‘zi komillikning namunasi aylangan.

*Yaxshilik qil, zamon yaxshilik olsin,*
*Yaxshilar boshiga yaxshilik solsin.*
*Mol-dunyo barchadin, sendin ham qolur,*
*Yaxshisi mol emas, yaxshilik qolsin* [9. B. 232].

Mavlono Jaloliddin Rumiy qarashlarida biror bir mutaassiblik, aqidaparastlik namunalari ko‘zga tashlanmaydi. Rumiy falsafasining cho‘qqisi mazhablararo nizolarda bag‘rikenglik (tolerantlik) g‘oyasini ilgari surishidadir. Inson mazhablar va dinlar uchun yaratilmagan, aksincha, ular inson uchun yaratilgan.

Jaloliddin Rumiyning buyukligi yana shundaki, u islomning ulug‘ shoiri va mutafakkiri bo‘lgani holda barcha mazhablar va dinlardan yuqori ko‘tarila oldi, bani basharni birlashtiruvchi yagona ilohiy g‘oyalarni olg‘a surib, kishilarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi e’tiqod va iymon, ishq va sig‘inish, poklik va tavbadan so‘z ochadi: “Yo‘llar muxtalif ammo, maqsad bir ya’ni, Olloh huzuri”, deya Ulug‘ Tangri haqiqati oldida jami maxluqot barobarligini isbotladi [2. B. 7].

Jaloliddin Rumiydan so‘ng yashab o‘tgan deyarli barcha Sharqning buyuk allomalari uni o‘zlariga ustoz deb bilganlar. Rumiy ijodini yuksak baholab Abdurahmon Jomiy “Ma’naviy masnaviy” asarini “benazir kitob, forsiydagi Kur’on” deb ulug‘lagan bo‘lsa, o‘z davrining buyuk shoiri Alisher Navoiy o‘zining “Nasoyimul muhabbat” asarida Rumiyni yuksak hurmat va ehtirom bilan tilga olgan.

Jaloliddin Rumiy falsafasida inson va Alloh mohiyati va munosabatlari to‘g‘risidagi fikrlar bilish nazariyasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan Jaloliddin Rumiy o‘zining “Ma’naviy masnaviy” asarida o‘zining ta’limoti va dunyoqarashini bayon etgan bo‘lib, asarning mohiyatini hadis va oyatlar, xalq og‘zaki ijodidan olingan naqllar, latifalar, ibratli voqyealar va hikoyatlarga o‘ralgan falsafiy fikrlar tashkil etadi. Insonlarga tushunarliroq va tezroq yetib borishi uchun u o‘z fikrlarini ravon va sodda she’riyat tili bilan so‘zlab, mutafakkir shoir sifatida murakkab sufiyona fikrlarni, ramz bilan ishora qilingan mulohazalarni oddiy hayotiy tafsilotlar bilan solishtirib tushuntirib beradi.

Xulosa qilib aytganda Jaloliddin Rumiy jamiyatga yangi ruh bag‘ishlay oladigan falsafasi va dunyoqarashi bilan o‘z davrining islom olamida hayotga muhabbat bag‘ishlay oladigan, kuchli iymon va qalb sokinligiga erishgan kishi sifatida shuhrat qozongan.

Jaloliddin Rumiyning mashhur g‘oyasi “Haq va olamni bilishda qalbingni ko‘z qil”, shioridir. Rumiy asarlarida insonning nafsi, hirsi oqibatida kelib chiqadigan yovuzliklarni tahlil etib, ulardan qutulish, poklanish yo‘llarini bayon etadi.

Rumiyning har bir fikri bir mash’ala, bir chiroq, shundoqqina qalbga qo‘yiladigan ziyodir. Ulug‘ mutafakkir inson kamoloti uchun kurashib, insonni o‘ziga tanishtiradi, yomonlikdan nafratlanish va yaxshilikdan, ilohiylikdan faxrlanishga o‘rgatadi. Rumiy siymosida tafakkur asosida rivojlanadigan ilmlarning xatolarini to‘g‘rilab, ularda vujudga keladigan qiyinchiliklarni ustalik bilan yechadigan mutafakkir gavdalanadi.

Mavlono Jaloliddin Rumiy ijodi insonlarga yashashdan maqsad nimaligini ko'rsatuvchi shamchiroq kabidir. Jaloliddin Rumiy ijodi o'zidan keyingi avlodlarga bir maktab bo'lib, ma'naviyatning yuksak cho'qqilarini egallashga chorlaydi.

### Adabiyotlar


1. Abdulla Sher. Xalqni anglasang, haqni anglaysan. (Hindistondagi Kalikat universitetida Jaloliddin Rumiy tavalludining 800 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiyada ingliz tilida qilingan ma'ruzaning o'zbekcha matni). https://abdullasher.wordpress.com/ 2015/05/23.
2. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir. Toshkent: Yozuvchi, 1997. – 192 bet.
3. Jaloliddin Rumiy. Ma'naviy masnaviy. Tarjima sharhi bilan. Tarjimon Asqar Mahkam. Mas'ul muharrir T.Mahmudov. – Toshkent: Sharq, 1999. – 368 b.
4. Jaloliddin Rumiy. Nay nolasi: Hikmatlar. nasriy matn muallifi Xayrullo Qosim (Qosimov Xayrullo). - Toshkent:Yurist-media markazi, 2011. – 120 b.
5. Jaloliddin Rumiy. Qalb ko'zingni och. Mavlono Rumiydan hikmatli so'zlar. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Sabohat Bozorova. – Toshkent: Sano-standart, 2011. – 160 b.
6. Islom ensiklopediyasi. –Toshkent: O'zME, 2017. – 670 b.
8. Po'latov H., Mamatov M. Tasavvuf tarixidan lavhalar. – Toshkent: O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011. – 320 b.
9. Radiy Fish. Jaloliddin Rumiy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2005. – 240 b.
10. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. –Toshkent: Sharq, 2012. - 275 bet


**УДК: 111.1: 005.571:81(575.1)**

## AN'ANAVIY TAFAKKUR INERSIYASINI BARTARAF ETISHNING KOMMUNIKATIV ASOSLARI

**R.Xudayberganov**
*Toshkent davlat transport universiteti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada an'anaviy tafakkur inersiyasini bartaraf qilishda tilning tabiiy-ilmiy va madaniy-tarixiy jihatlari bilan bog'liq holatlar tahlil qilingan. Shuningdek, insonlar o'rtasida kommunikativ tafakkurni amalga oshirish hamda kommunikativ bilimlarini rivojlantirishda tafakkurning til va nutq kabi vositalari insonlararo muloqotning ijtimoiylashuvga xizmat qilishi kabi masalalar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tafakkur, tabiiy-ilmiy, til, inersiya, kommunikativ, muloqat, reprezentatsiya, semiotika, klassifikatsiya, nominativ, ontologiya, pragmatik.

### Коммуникативные основы исключения инерции традиционного мышления

**Annotatsiya.** В статье анализируется ситуация с естественно-научным и культурно-историческим аспектами языка в преодолении инерции традиционного мышления. Также охватывает такие вопросы, как реализация коммуникативного мышления среди людей и развитие коммуникативных знаний, таких как средства мышления, такие как язык и речь, социализация межличностного общения.

**Ключевые слова:** Мышление, естественнонаучное, языковое, инерционное, коммуникативное, репрезентационное, семиотика, классификация, номинатив, онтология, прагматика.

### Communicative fundamentals of eliminating the inertion of traditional thinking

**Abstract.** This article analyzes the situation with the natural-scientific and cultural-historical aspects of language in overcoming the inertia of traditional thinking. It also covers issues such as the implementation of communicative thinkihg among people and the development of communicative knowledge, such as the means of thinking, such as language and speech, the socialization of interpersonal communication.

**Keywords:** Thinking, natural-scientific, language, inertia, communicative, communication, representation, semiotics, classification, nominative, ontology, pragmatic.

Tafakkurning ijtimoiylashuvi tilning tabiiy-ilmiy va madaniy-tarixiy jihatlari bilan bog‘liq. Inson tilni o‘zining tafakkur faoliyati uchun taomillashtiradi. Uning yordamida atrof muhitga moslashishga, tabiat sirlarini ochishga va unga ta’sir ko‘rsatishga imkon yaratadi. O‘zining ongi, fikrlari, tasavvurlari bilan insonlar o‘rtasida kommunikativ tafakkurni amalga oshiradi. Shuningdek, o‘zining hayotiy bilish va kommunikativ bilimlarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlar va imkoniyatlarini beradi. Binobarin, tafakkurning til va nutq kabi vositalari insonlararo muloqotning ijtimoiylashuvga xizmat qiladi.

Til belgisi odatda so‘z bilan shunday bog‘lanadiki, bunda so‘z tilning minimal birligi deb qabul qilinadi. Har qanday belgining qandaydir hodisa, xossa, munosabatni ifodalash qobiliyati uning ma’nosi yoki tushunchasi deb ataladi. Shuni qayd qilish lozimki, «belgi» atamasi antik falsafadan tortib to bizning zamondagi bugungi kompyuterli modellashgacha bo‘lgan uzoq tarixga egadir. Tilning hodisalarni belgilovchi qobiliyatini ifodalovchi semiotik xususiyatlari belgining xossalarining izlanuvchanligi, universalligi va uning qo‘llanish imkoniyatlarining turli – tumanligi bilan o‘ziga jalb qiladi. Bir xil belgilar ikkinchilaridan o‘zlarining predmetlarni qanday belgilashi bilan farq qiladi. Har bir belgi insonning hayotiy faoliyatida muhim rol o‘ynaydi.

Hozirgi zamonda belgilarni klassifikatsiya qilishning birinchi urinishlari Ch.Pirs tomonidan uch turga bo‘linishini ta’kidlaydi. U belgilarni “ikonik belgilar”, “indeks – belgilar” va “simvolik – belgi” larga bo‘ladi. Ikonik belgi o‘zi belgilagan narsaga o‘xshashligi bilan, indeks – belgi esa alomat, nishonani (masalan, tutun – alangandan nishona, alanga alomati), yoki simptomni (isitma – yuqori temperatura simptomi), simvolik – belgi nimani belgilashni ifoda etadi.[1; 412]

Belgilar klassifikatsiyasining eng ko‘p tarqalgani odatda ularni tilga tegishli va tilga tegishli bo‘lmagan turlarga bo‘lishidir, bu bo‘linishni tabiiy va sun’iyga bo‘lish deb ham yuritiladi. Masalan, Gusserl belgilarni “ko‘rsatkich – belgilar” va “ifoda – belgilari”ga ajratadi. “Belgi – ko‘rsatkich”lar – biror predmetni namoyon etadigan yoki o‘rnini bosadigan – tilga tegishli bo‘lmagan belgilardir. Bu belgilar ongni ifodalamaydi va muloqot vositasi bo‘lolmaydi. Belgilar – tilga tegishli belgilardir. Ular ong aktlarini belgilaydi va odamlar orasidagi muloqot vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Yanada umumiyroq bo‘lgan bo‘linish ham mavjud. Bu klassifikatsiyada barcha belgilar tabiiy va sun’iy belgilarga bo‘linadi; shu bilan birga sun’iy belgilar o‘z navbatida – til belgilari va tilga tegishli bo‘lmagan belgilarga bo‘linadi. [2; 489]

Bundan tashqari, til belgilari – tabiiy til (milliy til) belgilar va sun’iy til (masalan, fan til) belgilarga bo‘linadi. Tilga tegishli bo‘lmagan belgilar – bularga signallar, simvollar va boshqa belgilar kiradi. Matematikaning simvolik mantiqning, ximiyaning sun’iy tillari xossalari inson muloqotidagi tabiiy tillarining belgi xususiyatlarining hosilasi sifatida paydo bo‘ladi.

Shunday qilib, qanday klassifikatsiyaga kirgan bo‘lmasin belgilarning farqi nisbiydir. Belgi bilan u belgilagan narsa orasida hech qanday sababiy bog‘lanish bo‘lmaydi. Faqat belgi o‘zi belgilagan narsaning elementlari bilan o‘xshashlikka ega bo‘lishi mumkin, u bilanhech qanday o‘xshashlikka ega bo‘lmasligi ham mumkin. O‘zi qanday o‘zshashlikka ega bo‘lmasligi predmetli xossalar va munosabatlarni umumlashtirishda belgining o‘rnini hech nima bosa olmasligini bildiradi. Har qanaqa ko‘rinishdagi belgilarning ma’nosi «o‘qilishi» uchun uning qanday vazifani bajarishi belgilangan shartnoma qoidalari va shartlari kelishib olinishi, shuningdek, belgilanishdagi o‘xshashlik munosabatlari til sohiblari o‘xshashlik xarakterini belgilab berish kerak.

Til belgisining ixtiyoriyligi odamlarning xohishlariga muvofiq uning xossasini biror bir predmetga o‘xshatgan holda korreksiyalanishi, yoki aksincha, belgilovchi bilan belgilanuvchining o‘xshashlik darajasi odamlar hamkorligida kelishib olingan qoida – konvensiyalarga mos ravishda kamayishi yoki zo‘rayishi mumkin. So‘z – belgi ma’nosida mustahkamlangan bilim inson hotirasining til qobiliyatlari tufayli qabul qilinishi va ma’nosi o‘qilishi mumkin. Xususan, Gademerning fikriga ko‘ra, til ongni gapga, va shu bilan, muloqotga aylantiradi. Qonunlar, sabablar, hodisalar, xossalar, munosabatlar avvaldan til orqali aniqlanadi. Olamda hodisalar, xossalar va munosabatlarning mavjudligi hech kimni shubhaga solmaydi. Biroq, ular til tomonidan konstruksiya qilinadi (yasaladi) va tilning konstruksiyalari bo‘ladi. Til olamni onglangan holda konstruksiya qilish vositasi bo‘lib qoladi. [3; 164-168]

Insonlarning tafakkuri o‘zida mantiqiy, ensiklopedik, mantiqiy -semantik va pragmatik qobiliyatlar elementlariga ega. Mantiqiy qobiliyatlar deduktiv va induktiv xulosalarda yoki tegishli mos belgilar bilan qilinadigan amallarda gavdalanadi. Ensiklopedik qobiliyatlar bizning til bilishimizni ifodalaydi. Leksik – semantik ko‘nikmalar turli sinonimiya, polisemiya, omonomiyalarning turli usullarini bilish, shuningdek metafora, metonimiya va tilning boshqa ma’noli figuralarni ishlata bilishni taqozo qiladi. Pragmatik ko‘nikmalar bizning til tajribalarimizga bog‘liq, bunday tajriba mazkur madaniyat tilini uning tarixiy, ijtimoiy va boshqa hayotiy cheklanishlarini va bizning maqsadlarimiz, ehtiyojlarimiz, hoxish va manfaatlarimizga muvofiq foydalanishga imkon beradi. Til yordamida biz hayotimizda olgan bilimlarni

qayd qilamiz, eslaymiz, saqlaymiz, qayta tiklaymiz va avloddan avlodga uzatamiz, turli madaniyatlarda to‘plangan bilimlar bilan almashamiz.

Nutq insonning tilga ijtimoiy va madany hodisa sifatida individual murojaat akti hisoblanadi. Nutq gapirayotgan odamning qombinatorlik qobiliyatini, uning xissiy obrazlar, fikrlar, emotsiya, iroda, xotirani tildan foydalanib ifodalash malakasini ko‘zda tutadi. Nutq inson so‘zlash organlarining resurslari bilan ta’minlanadi, bu resurslar artikulyasiya (imo - ishora) qilish, tovushlar va tovush birikmalarini aytishga imkon beradi. Biroq, S. Kripke: “ontologik, ilmiy, axloqiy, diniy manbalarning tahlili til va kommunikatsiyaning ichki hodisalarga qarshilik qiluvchi tashqi ijtimoiy fenomenlarga bog‘liq ekanligi tadqiq etadi”. [4; 256]

Belgilarni erkin kombinatsiya qilish va ularni kerakli ketma – ketlikda joylashtirish – og‘zaki yoki yozma shaklida aytilgan gaplar – nutqning asosiy vazifasidir. Shuning uchun nutqsiz til bo‘lmaydi, deb gapiriladi, biroq aksincha, aytish ham to‘g‘ri bo‘lardi: til bo‘lmasa, insonning nutqiy qobiliyati to‘g‘risida hukm qilib bo‘lmaydi. Insonlar muloqoti ehtiyojlari nutqda tilning shakliy va normativ qoidalariga: orfografik (yozuvdagi), fonologik (talaffuzdagi), sintaktik (gap tashkil qilinishi), semantik (so‘z va tilning boshqa elementlari) va pragmatik (tilni konkret vaziyatlarda foydalanish xususiyatlari) qoidalariga rioya qilishni talab qiladi. Ong aktlari va jarayonlarini nutq bilan shakllantirish tilning fonologiya, sintaksis, semantika va pragmatikasi vositalarida amalga oshiriladi. Til va nutq birgalikdagi kuchlari bilan ongning ifodaliyligini (ayoniyligini) ta’minlaydi.

Nihoyat, nutqning pragmatik xususiyatlari tildan qanday foydalanishga bog‘liq bo‘lgan holda, fonologik, sintaksis, semantik korreksiyalariga bo‘ysunadi. Ongni nutqiy shakllantirish tilning norma va qoidalariga qancha yaqin tursa, til bilan nutq oralig‘i shuncha kichik bo‘ladi. Pragmatik nuqtai-nazardan til inson faoliyatining shunday usuli sifatida qaraladiki, bunda u asosan instrumental, operatsional va situatsion ahamiyat kasb etadi. Til va nutq bizning dunyo to‘g‘risidagi tasavvurimizni shakllantirishda hozirgi zamon til falsafasiga ham murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Bu borada G.Rayl, P.Strousonlarning “Insonning hayotiy prinsiplarini ifodalovchi faoliyati jarayonida shakllanuvchi til va kommunikatsiya mutanosibligining qoida sifatida yuzaga kelishi nutqli aktlar nazariyasi rivoji bilan bog‘liq bo‘lgan [5; 408] deya takidlagan fikrlari alohida ahamiyatga ega.

XX asrda til falsafasining shakllanishi tilning tabiatiga qiziqishni uyg‘otadi, turli qarashlar va ular orasida raqobatni kuchaytiradi. Biroq an’anaviy ontologiya va bilish nazariyasida empirik va ratsionallik paradigmalaridan farqli o‘laroq, tilning yangi modellari umumiy tezisni birlashtirdi, bu tezisga ko‘ra, ongning borliqqa munosabati til orqalidir. Til, ong va borliqning barcha strukturalari o‘z ichiga qamrab oladi. Borliqni anglash faqat til shakllari va til vositalari orqali ifoda etiladi. Biz, ongimizdan tilni, borliqni ifodalash uchun foydalanamiz.

Bugungi kunda bilishda va muloqatda tilning rolini tadqiq qilish eng muhim yondashuvlardan biri bo‘lib, uning tabiati to‘g‘risida yetarlicha to‘liq tasavvur beradi. Birinchi tomondan, til ongning organik qobilyatidir va ongning barcha qolgan strukturalari, shuningdek, psixikasi, ongsizligi, tanasi bilan bog‘langan. Ikkinchi tomondan, til muloqotning universal vositasidir va bundan ijtimoiy va madaniy-tarixiy oqibatlarini ham o‘z ichiga oladi.

Tilga bunday munosabatning afzalligi fanlararo imkoniyatlarning ko‘pligidadir, bunday imkoniyatlar falsafiy kuzatishlarning universalligini va bilimning bir qator maxsuslangan sohalarining (langvistika, psixolingvistika, psixologiya, shuningdek, tarixiy, ijtimoiy va kulturalogik sikldagi fanlarning) konkret ma’nolarining birlashtirishini ta’minlaydi. Tilning funksional vazifalarini bu paradigma doirasida muhokama qilish ongning turli-tuman mexanizmlari va strukturalariga ravshanlik kiritadi. Tilning fonologik, sintaktik, semantik va pragmatik o‘ziga xosliklari tufayli uning ongda faoliyat ko‘rsatishiga zaruriy sharoitlar yaratiladi. Tilning faoliyati (vazifalari) tafakkurning yangi bilimlar yaratishidagi ijodiy potensialini amalga oshiradi. Boshqa odamga bizning ongimiz mazmunini, bizga boshqa odam onginig mazmunini tushunish imkonini beradi.

Jumladan, S.A.Rustamiy: “Dunyoda o‘rta asr olimlarining tilga oid nazariy va amaliy masalalarni qamrab olgan tilshunoslikka oid qarashlari sertarmoq va murakkab ilmiy nazariyalar majmui sifatida rivojlanib, uning o‘rganish ob’ekti til, til hodisalari va til ifodasi bo‘lgan nutqdan iborat bo‘ldi. Til – murakkab ramzlar tizimi sifatida baholandi. Til hodisalarini nazariy o‘rganish jarayonlarida G‘arb lingvistika maktablari tilning kommunikativ, kognitiv, nominativ va akkumulyativ funksiyalariga e’tibor qaratdi. Shu bois G‘arb olamida tilshunoslikning sotsiolingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika, antropolingvistika kabi sohalar rivojlandi” [6; 5], – deb ta’kidlaydi.

Tafakkurning bunday kognitiv va kommunikativ aktlari bilish va muloqat qilish kishilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishlari usuli bo‘lganida alohida ahamiyat kasb etadi. Borliqni inson ongida reprezentatsiya qilish qobiliyati haqli ravishda tilning bazis vazifasi hisoblanadi. Bu funksiya til belgisining

predmetlar dunyosini,uning xossalari va munosabatlarini belgilashi, o‘rnini olishi va umumlashtirishi qobiliyatlarida amalga oshadi. Til dunyoni ongda reprezentatsiya qiladi. Bunda uning reprezentatsiya qilish qobilyatiga tayanadi. Reprezentatsiya - bu insonning faqat tilnigina emas, uning tanasining psixologik jarayonlarini hamda ong va til kelib chiqishining faqat ijtimoiy, madaniy-tarixiy, psixik va biologik xususiyatlarini ifoda etadi.

An’anaviy tafakkur inersiyasini bartaraf etishda tilning reprezentativ funksiyasi uning intensional qobiliyati bilan juda mustahkam o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Tilning yo‘nalganligi yoki intensionallik hossasi inson muloqoti va ongining eng umumiy va chuqur sifatlarini ifodalaydi. Tilning intensionalligi avvalo ko‘rsatgich-so‘zlarda namoyon bo‘ladi. Tilning yo‘naltirish, ko‘rsatish funksiyalari tafakkurning bilish va kommunikativ potensialini kuchaytirib yuboradi.

Tilning nominativ funksiyasida so‘zning predmetlarni nomlash, ularni bilib olish va ma’lumotlarni uzatish qobiliyati amalga oshadi. Shuni aytish kerakki, nominatsiya faqat til va ongning repretsentativ va intensional resurslar tufayli amalga oshiriladi. Tilning nominativ vositalari, birinchidan, tafakkurning tushunchaviy shaklini aniqlaydigan bilish funksiyasini amalga oshirishga imkon beradi, ikkinchidan, bu tushunchalar shaklining muloqot talablariga muvofiqlashturuvchi kommunikativ funksiyasini amalga oshirishni ta’minlaydi. Bunday muvofiqlashtirish tafakkur strukturalarining tilning fonologik, sintaksistik, semantik va pragmatik talablariga mos holda nutqiy shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Jumladan, L.S. Vigotskiy: “fikr so‘zda shunchaki ifodalanmaydi, balki unla mukammallashadi, deb yozgan edi. Nominatsiya yoki nomlashtirishning hamma nutqda muloqat qilishga borib etadi. U insonning ana shu so‘z bilan nomlanadigan predmetni soha to‘g‘risidagi informatsiyalarga qay darajada egaligi, kompetensiyasi bilan muvofiq keladi”. [7; 316]

Tilning ekspressiv funksiyasi insonning tafakkur faoliyatida ko‘p vositalar bilan amalga oshadi. Albatta, tilning ekspressiv imkoniyatlari uning reprezentativ, intensional va nominativ qobiliyatlarining resurlaridan foydalanadi. Til vositalari bilan biz dunyo va insonlar bilan, avval avlod va kelajak avlod bilan ijtimoiy munosabatlarimizni ifodalaymiz.

## Adabiyotlar

1. Пирс Ч.С. Избранные философские произведения. – М.: Логос, 2000.
2. Гуссерль Эдмунд. Идеи к чистой феноменологии и феноменологической философии. Философские технологии Академический проект 2019.
3. Гадамер Г.-Г. Игра искусства / Пер. с нем. А. В. Явецкого // Вопросы философии. 2006.
4. Крипке С. Витгенштейн о правилах и индивидуальном языке / Перевод В. А. Ладова, В. А. Суровцева / Под общей редакцией В. А. Суровцева. — М.: «Канон+» РООИ «Реабилитация», 2010.
5. Гилберт Райл. Понятие сознания / Пер. с англ. Общая ред. В. П. Филатова. – М.: Идея-Пресс, Дом интеллектуальной книги, 2000.
6. Rustamiy S.A. O‘rta asrlar islom balog‘at ilmida tilshunoslikka oid qarashlar: Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2018.
7. Выготский Л.С. История развития вышсих психических функций. Собрание сочинений, Том 3. – М.: Педагогика, 2003.

**UDK: 37:301(575.1)**

# KICHIK SHAHARLAR INFRASTRUKTURASIDA IJTIMOIY SIYOSATNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR JIHATLARI

**Q. N. Qayumov**
*O'zbekiston Milliy universiteti*
*nqayumov@inbox.ru*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kichik shaharlarning ijtimoiy infratuzilmasi muammosi, kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasining boshqarish va rivojlantirish, hozirgi davrda ijtimoiy siyosatning uchta modeliga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda asosan o'tish davrida onalik va bolalikni himoya qilish, bepul sog'liqni saqlash, tarbiya va ta'limni rivojlantirish prinsiplari, aholining ijtimoiy himoyasiga alohida e'tibor qaratish, har bir fuqaroning jamiyat oldidagi o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishi asosidagina munosib hayot kechirish mumkinligini ilmiy-amaliy jihatdan asoslash orqali amalga oshirilish kabi dolzarb masalalar ekanligi tahlil qilingan. Maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik shaharlar infratuzulmasini yaxshilashda ijtimoiy siyosat tamoyillaridan samarali foydalanish, ijtimoiy siyosatni yuritishda real va potensial maqsadga muvofiqlikga erishish, ijtimoiy siyosatni rivojlantirishda ratsional faoliyat, izchillik, ijtimoiy va iqtisodiy siyosatning o'zaro muvofiqligini ta'minlash, joriy va kelajakdagi maqsadlarning izchilligini ta'minlash, ijtimoiy standartlashtirish, sog'lom raqobat, yuqori javobgarlik, tabaqalashtirilgan yondashuv, intellektual resurslar bilan muntazam ta'minlash, ijtimoiy siyosatni maqsadli, manzilli ijtimoiy yordam, ijtimoiy xizmatlardan foydalanishga yo'naltirish, pullik va bepul ijtimoiy xizmatlar o'rtasidagi muvozanat, ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy kafolatlar, shuningdek deklarativlik tamoyilini ustuvorligini ta'minlash to'g'risida xulosa berilgan.

**Kalit so'zlar:** kichik shahar, infratuzilma, ijtimoiy siyosat, huquq, majburiyat, strategiya, farmon, javobgarlik, model, kam ta'minlangan, ijtimoiy soha.

### Приоритетные аспекты развития социальной политики в инфраструктуре малых городов

**Аннотация.** В данной статье особое внимание уделяется проблеме социальной инфраструктуре малых городов, управлению и развитию социальной инфраструктуры малых городов, трем моделям социальной политики в текущий период. Было проанализировано, что это в основном актуальные вопросы, такие как защита материнства и детства в переходный период, развитие бесплатного здравоохранения, образования и воспитания детей, особое внимание к социальной защите населения, реализация прав и обязанностей каждого гражданина перед обществом, возможность жить достойной жизнью на основе научно обоснованных принципов. Рассматриваются вопросы эффективного использования принципов социальной политики при совершенствовании инфраструктуры малых городов в условиях рыночной экономики, достижения реального и потенциального соответствия целей при проведении социальной политики, рациональной деятельности при разработке социальной политики, последовательной реализации, обеспечения согласованности социально-экономической политики, обеспечения согласованности текущих и перспективных целей, социальной политики и социальной политики в целом., сделан вывод об ориентации на использование социальных услуг, сбалансированности платных и бесплатных социальных услуг, социального страхования, социальных гарантий, а также обеспечении приоритета принципа декларативности.

**Ключевые слова**: малый город, инфраструктура, социальная политика, закон, обязательство, стратегия, указ, ответственность, модель, малообеспеченные, социальная сфера.

### Priority aspects of social policy development in the infrastructure of small cities

**Abstract.** This article, special attention will be paid to the problem of social infrastructure of small cities, management and development of social infrastructure of small cities, and three models of social policy in the current period. It was analyzed that these are mainly topical issues, such as the protection of motherhood and childhood in the transition period, the development of free health care, education and upbringing of children, special attention to social protection of the population, the implementation of the rights and obligations of every citizen to society, the ability to live a decent life based on scientifically based principles. The article deals with the issues of effective use of social policy principles in improving the infrastructure of small cities in a market economy, achieving real and potential compliance of goals in the implementation of social policy, rational activity in the development of social policy, consistent implementation, ensuring coherence of socio-economic policy, ensuring consistency of current and future goals, social policy and social policy in General., balance of paid and free social services, social insurance, social guarantees, as well as ensuring the priority of the declarative principle.

**Keywords:** small city, infrastructure, social policy, law, obligation, strategy, decree, responsibility, model, low-income, social sphere.

Dunyo miqyosidagi murakkab o‘zgarishlar sharoitida kichik shaharlarning ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish va rivojlantirish buning uchun avvalo jamiyat hayotida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning kelib chiqishini oldini olish, aholi turmush darajasaning yaxshilash, er islohoti, uy-joy siyosatini barqarorlashtirish, bu hududlarni transport va ijtimoiy infratuzilmalar bilan ta’minlash, ipotekani kreditlash tizimini arzonlashtirish, turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga xorijiy investitsiyalar hamda tadbirkorlik sub’ektlarining moliyaviy resurslarini jalb qilish, shu jumladan kam va o‘rta daromadli oilalar uchun arzonlashtirilgan turar joylarni qurishga yo‘naltirilgan davlat siyosatini rivojlantirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar tashkilotining aholi punktlari bo‘yicha Dasturi (UN Habitat) hisobotiga ko‘ra, 2030-yilga borib нer yuzi aholisining uchdan ikki qismi jahon yalpi ichki mahsulotining 80 foizi to‘g‘ri keladigan shaharlarda istiqomat qiladi. Hozirgi davrda esa sayyoramiz aholisining beshdan bir qismi global yalpi ichki mahsulotning 60 foizi to‘g‘ri keladigan 600 ta shaharda istiqomat qilmoqda. Agar 1800-yilda dunyo aholisining atigi 2 % gina shaharlarda istiqomat qilgani hisobga olinadigan bo‘lsa, bugungi kunda yer shari aholisining 4 milliarddan ko‘proq qismi shaharlarda yashamoqda. Shu boisdan, jahon miqyosida shaharlar salohiyatidan foydalanish va infratuzilma, energiya manbalari, kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, shaharsozlik, innovatsion texnologiyalar, ekologik toza va iqtisodiy taraqqiy etgan, shu bilan birga, aholi bandligi ta’minlangan shaharlarni ko‘paytirish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishda Xitoy eksport-import banki, Koreya eksport-import banki, EDCF Fondi, Yapon xalqaro hamkorlik agentligi, Koreya xalqaro hamkorlik agentligi, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati, Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi, Fransiya taraqqiyot agentligi, Evropa hamkorlik komissiyalari faoliyati ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Hatto O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida “...atrof-muhitga, sog‘liqqa va aholining genofondiga zarar etkazadigan ekologik muammolarning oldini olish...” bo‘yicha vazifalar belgilab berilgan [1].

Kichik shaharlarning ijtimoiy infratuzilmasi muammosi XIX-asrning o‘rtalaridan beri ilmiy qiziqish ob’ekti bo‘lib kelmoqda. Kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish muammolarini o‘rganish natijalari R.Park, M.Veber, E.Dyurkgeym, P.Sorokin kabi G‘arb sotsiolog olimlari asarlarida keltirilgan [2,3,4,5]. Mazkur olimlar kichik shaharlarning ijtimoiy infratuzilmasida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish o‘rtasida qarama-qarshiliklarni aniqlash, ijtimoiy rivojlanishni iqtisodiy o‘sishga ta’siri, kichik shaharlarning ijtimoiy infratuzilmasi aholining ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlariga bog‘liqligi masalalariga alohida e’tibor qaratganlar. Bizning nazarimizda, kichik shaharlardagi ijtimoiy infratuzilma obyektlari ko‘pincha o‘z-o‘zidan rivojlanadi, ularni boshqarishda kompleks yondashuv mavjud emas. O‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan bozor sharoitida ijtimoiy institutlar notekis rivojlanadi. Umuman kichik shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotini rivojlanish darajasi va ijtimoiy infratuzilma elementlarining muvozanat va oqilona taqsimlanish darajasi bilan harakterlanadi. Kichik shaharlar infratuzilmasini rivojlantirishda ijtimoiy siyosatni ahamiyati va ko‘lami keng qamrovlidir. Shu o‘rinda mazuning asosiy jihatlariga e’tibor qaratamiz.

Hozirgi davrda sotsiolog olimlar tomonidan ijtimoiy siyosatning uchta modeliga alohida e’tibor qaratiladi. Bunday zamonaviy ijtimoiy siyosatning birinchi modeliga liberallar tomonidan amalga oshirilayotgan siyosatni kiritish mumkin. Ijtimoiy siyosatning ikkinchi modelini tarkibi jihatidan asosan “davlat arboblari” faoliyati tashkil etadi, ular asosan o‘zgarishlar davrida davlat, asosan o‘tish davridagi kabi rejalashtirish, onalik va bolalikni himoya qilish, bepul sog‘liqni saqlash, ta’lim, tarbiya va ta’limni rivojlantirish prinsiplariga tayanadi. Ijtimoiy siyosatning uchinchi modeli ushbu sohadagi ustuvor jihatlar va aholining ijtimoiy himoyasiga alohida e’tibor qaratish va jamiyatda birgina rivojlangan bozor iqtisodiyotini yaratish oliy maqsad emas ekanligini tushuntirish, har bir fuqaroning jamiyat oldidagi o‘z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishi asosidagina munosib hayot kechirish mumkinligini ilmiy-amaliy jihatdan asoslash orqali amalga oshiriladi.

Kichik shaharlar boshqaruv tizimi orqali ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, muntazam ravishda yuzaga keladigan nizolarni hal qilish zarurati tufayli aholining fikr va mulohazalarini hisobga olgan va insonparvar prinsiplarga rioya qilgan holda murakkab uslubiy va amaliy vazifalarni hal etishni taqozo etadi. Ushbu masalada optimal echimga erishish uchun quyidagilarga alohida e’tibor qaratish muhim hisoblanadi:

birinchidan, ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini tanlashda yuzaga keladigan eng muhim deb hisoblangan va keng tarqalgan qarama-qarshiliklarni o‘z vaqtida aniqlash;

ikkinchidan, ijtimoiy siyosatni insonparvar tamoyillar asosida rivojlantirish;

uchinchidan, jamiyatning ijtimoiy holati va farovonligi bilan bog‘liq ijtimoiy siyosat ustuvorliklarini oqilona tanlash kerak bo‘ladi. Ayniqsa D.Z.Ernazarov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj tabaqalariga ko‘mak berish orqali fuqarolar turmush sharoiti, osoyishtaligini va millatlararo totuvlikni ta’minlashning, islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning kafolati, aholining eng kam daromadli qatlamlariga – yolg‘iz keksalar, pensionerlar va nogironlarga, ya’ni iqtisodiy o‘tish sharoitida qiyin ahvolga tushib qolgan fuqarolarga amaliy yordam ko‘rsatish ijtimoiy himoya tizimining asosiy yo‘nalishi sifatida shakllandi. Manzilli ijtimoiy yordam ko‘rsatishning mutlaqo yangi zamonoviy tizimi yaratildi” [6].

Kichik shaharlar infratuzulmasini shakllantirishda ijtimoiy himoyalashning qay darajada bo‘lishi ijtimoiy siyosatni qaysi darajada shakllantirilganligi bilan bog‘liq. Davlat va jamiyat munosabatlari doirasida ijtimoiy siyosatning mazmun-mohiyati bu aholining turli qatlamlari o‘rtasida tabaqalanishning haddan tashqari chuqurlashuviga yo‘l qo‘ymaslik, ularning ma’lum darajada farovon hayot kechirishini ta’minlashga qaratilganligi bilan harakterlanadi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosat asosini aholi daromadlarini oqilona shakllantirish siyosati tashkil etadi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, kichik shaharlarning o‘ziga xos xususiyati unda ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarning qaysi darajada chambarchas bog‘lanib ketganligi bilan belgilanadi. Shu boisdan ham mustaqilligimizni dastlabki paytida F.J.Yormatov ta’kidlaganidek, “O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirishdan ko‘zlangan strategik maqsad bor edi. Birinchidan, sohani rivojlantirish orqali mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, aholi talab va ehtiyojlarini to‘laroq qondirish bo‘lsa, boshqa tomondan, kichik biznes xususiy tadbirkorlikni takomillashtirish natijasida mamlakatdagi mavjud ijtimoiy muammolarni hal etish edi. Kam ta’minlangan aholini ijtimoiy himoyalash, nogironlar, yetimlar, keksa fuqarolarni moddiy jihatdan qo‘llash, yoshlar muammolarini hal etish-bularning barchasi tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida bajarilishi mumkin bo‘lgan vazifalar edi” [7].

Kichik shaharlar aholisining daromad darajasi bu hudud farovonligining muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, unga qarab har bir fuqaroning moddiy – ma’naviy hayoti, ilm olish, sog‘liqni saqlash, dam olish va boshqa ehtiyojlarni qondirishi mumkinligini aniqlash lozim bo‘ladi. Shunga ko‘ra, kichik shaharlar darajasidagi ijtimoiy siyosati bu hududdagi amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning butun kompleksini tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan belgilanadi.

Kichik shaharlar infrastrukturasida ijtimoiy soha siyosatini rivojlantirish zarurati asosan quyidagilardan iborat: Birinchidan, jamiyatda ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarning uzviy va uzluksiz aloqadorligi;

ikkinchidan, davlat va jamiyat miqyosidagi ijtimoiy sohaning yirik shaharsozlik, ishlab chiqarish faoliyati bilan o‘zaro aloqadorlikda namoyon bo‘lishi kichik shahar aholisining turmush tarzida ham o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi;

uchinchidan, kichik shaharlarda ijtimoiy sohaning nisbatan markazlashganligini kuzatishimiz mumkin;

to‘rtinchidan, agar yirik korxona faoliyatdan to‘xtasa kichik shaharlarda keskin ijtimoiy muammolarni yuzaga kelishi tabiiy;

beshinchidan, kichik shaharlar mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish sub’ektlari hisoblanmagani uchun ham boshqa katta va o‘rta shaharlarga nisbatan huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy maqomi past darajada namoyon bo‘ladi.

Ayni shu muammolarni hal etish zaruratidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko‘lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo‘lgan tuman va shaharlarni, avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo‘li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish» kabi muhim vaziflar belgilangan edi. [8]

Ijtimoiy siyosatda to‘g‘ri ustuvor yo‘nalishlarning belgilanishi birinchidan, real voqelikda ularning amalga oshirilishini faolligini, tizimliligini, ko‘p qirraligini, polisubyektligini, ijtimoiy va iqtisodiy siyosatning biriligini, joriy va istiqboldagi maqsadlarning muvofiqligini belgilaydi.

Ikkinchidan, jamiyat hayotidagi ijtimoiy standartlashuv, asoslanganlik va prognozlanganlik, subsidar mus’uliyat, differensiallashgan yondashuv, resursli ta’minlanganlik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan esa ijtimoiy siyosatni rivojlantirishda ratsional qaror qabul qilish, yangi innovatsion texnologiyalar asosida ijtimoiy yordamning o‘z vaqtida manzilli etkazilishini ta’minlash, ijtimoiy xizmatlarning barchaga barobar bo‘lishi, pullik va bepul ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy sug‘urta, ijtimoiy kafolat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, hozirgi davrda ushbu soha quyidagi uch asosiy funksiyani bajaruvchi tizim sifatida namoyon bo‘ladi: 1) oddiygina ishlab chiqish yoki insonning shunchaki yashash funksiyasi 2) moslashuv funksiyasi 3) rivojlanish funksiyasi shular jumlasidandir. Shu boisdan ham D.Z.Ernazarov “Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda uni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish va zamon talablariga moslashtirishda NNTlarning salohiyatidan foydalanish muhim” deb hisoblaydi [9].

Ijtimoiy sohaning boshqa sohalardan farqi unda inson maqsad, barkamol shaxs, individual qobiliyat sohibi sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy sohaning zamonaviy sharoitlarda o‘zgarishidan bir qator tendensiyalar kuzatiladi: 1) funksional kamchiliklarning saqlanib qolishi 2) ijtimoiy soha va infrastrukturaning nomarkazlashtirish 3) ijtimoiy sohaning restrukturizatsiyasi 4) ijtimoiy soha va uning infratuzulmasi tijoratlashtirilishi 5) ijtimoiy siyosatning muvaffaqiyatli bo‘lishi ustuvor yo‘nalishlarning to‘g‘ri belgilanilishi bilan bog‘liq, bu avvalo quyidagi omillar o‘rtasida balans saqlanishini talab qiladi: a) qarama-qarashi qiziqishlar b) joriy istiqbolli manfaatlar v) iqtisodiy samaradorlik va ijtimoy adolat g) aholining iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy himoya d) texnik-iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va ekologik havfsizlik e) paternalistik va liberal qadriyatlar j) shaxsiy va ijtimoiy mulk z) aholining faoliyati va ehtiyojiga oid qiziqishlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini tanlash kichik shahar aholisi hayotidagi ziddiyatli jarayonlar va tendensiyalar o‘rtasida muvozanatni ta’minlash jarayoni bilan bog‘liq. Bunda eng muhimi ikki tomonlama

manfaatlarni qaror topishi muhim hisoblanadi. Shuningdek, bugungi kunda kelajakdagi manfaatlarga erishishni ta’minlovchi jihatlarga alohida e’tibor berish ham muhim. Bunga birgina misol, shahar byudjetining daromad qismini to‘ldirish va shu bilan bir qatorda, ishlab chiqaruvchini soliqlardan siqib qo‘ymaslik o‘rtasidagi ziddiyatni o‘z vaqtida hal qilish ham ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadi hisoblanadi. Shuningdek, kichik shaharlar iqtisodiyot sub’ektlari o‘rtasida, shuningdek, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat o‘rtasida muvozanatni ta’minlash ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, ijtimoiy ishlab chiqarish ishtirokchilarining tengsiz ravishda amalga oshiradigan iqtisodiy faoliyati ularning daromadlari o‘rtasidagi tafovutni yuzaga keltiradi va agar bu tafovutlar jamiyatdagi ijtimoiy adolat mezonini buzilishiga olib keladi. Shu boisdan ham bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy samaradorlik va aholini ijtimoiy himoya qilishning o‘zaro muvozanatini ta’minlash ijtimoiy siyosatning dolzarb muammosi bo‘lib qolaveradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini tanlashda aholining faolligi va iste’molchilik yo‘nalishlari o‘rtasidagi qarama-qarshilikni o‘z vaqtida oqilona hal qilish, ushbu yo‘nalishlar o‘rtasida maqbul muvozanatni topishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifaning dolzarbligi aholi farovonligi va bevosita real daromadlari o‘sishi bilan bog‘liqdir. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, aholi daromadlaridan maqsadli foydalanishning uchta varianti mavjud: 1) aholining joriy iste’mol darajasini oshirish, 2) aholining joriy iste’mol darajasini saqlash, 3) aholi daromadlaridan sarmoya maqsadlarida foydalanish. Kichik shaharlar infratuzulmasini yaxshilashda birinchi ikkita variant ustunlik qilsa-da, bugungi kunda uchinchi variantni takomillashtirish va rag‘batlantirish muhim hisoblanadi. Chunki AQSH, Shvetsiya, Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya va boshqa bir qancha shu kabi davlatlarning tajribalari ayni shu variantni qo‘llab quvvatlashga qaratilganligi bilan alohida ajralib turadi. Shu boisdan ham O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berildi [10].

Ijtimoiy siyosat ustuvor yo‘nalishlarini to‘g‘ri tanlash kichik shaharlar aholisining ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik holatiga asoslanadi, xususan: 1) hayotiy qadriyatlar iyerarxiyasi 2) hayotiy pozitsiya 3) ijtimoiy holat, ehtiyojlarning qondirilishi darajasi 4) ijtimoiy farovonlik 5) jamoatchilik fikri 6) xulq-atvor stereotiplari 7) ijtimoiy faoliyat darajasi va shakllari.

Umuman olganda aholi uchun hayotiy qadriyatlar ichida nisbatan muhim ahamiyatga ega bo‘lgani oila, oilaviy munosabatlar va bevosita moddiy farovonlik darajasi hisoblanadi. Shuningdek, kichik shaharlarda ko‘pincha aholining eng katta tashvishi bu ish haqining kamligi, shuningdek o‘z farzandlarining taqdiri, o‘z kelajagiga bo‘lgan ishonchsizlik, ekologiya, narkomaniya, jinoyatchilik, odam savdosi va boshqalar bilan belgilanadi. Olib borilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘ladiki, kichik shaharlarda mahalliy aholining mehnat salohiyati to‘liq ishlatilmaydi. Aholining tibbiy yordam ko‘rsatish xizmatidan noroziligi, bu asosan tibbiy xizmatlarning yetarli darajada yaxshi tashkil etilmaganligi va dori-darmonlarning qimmatligi bilan bog‘liq. Ta’lim sohasida ham bir qator muammolar mavjud, maktablarda moddiy-texnik bazaning eski va nochorligi, umumiy intizomning pastligi ko‘pchilikni eng ko‘p tashvishga soladigan jihatlardir.

Kichik shaharlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, unda ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarning charmbarchas bog‘lanib ketganidir. Ishlab chiqarish sohasi qarindosh urug‘chilik yoki qo‘shnichilik aloqalari bilan bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy soha esa o‘z navbatida, ishlab chiqarish aloqalar bilan bog‘liq. O‘z navbatida kichik shaharlarda hayot faoliyati biror bir yirik korxona atrofida shaharcha bunyod bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Funksional vazifasiga ko‘ra ikki xil turdagi kichik shaharlar bo‘ladi: monofunksional hamda ko‘p funksiyali shaharlar va ularga tutashgan, qishloq xo‘jaligiga va sanoat zonalari mavjud bo‘lgan hududlar. Kichik shaharlar ijtimoiy infrastrukturaning markazlashganligi bilan ajralib turadi, bu esa uni boshqarishni osonlashtiruvchi omil, ayni paytda, uning kamchiligi ham shunda hisoblanadi. Kichik shaharlarda yirik korxonalar faoliyati to‘xtatilishi yoki tugatilishi keskin ijtimoiy vaziyatni keltirib chiqarishidir. Masalan, buning natijasida butun bir shaxtyorlar yoki neftchilar shaharchalari qirilib ketadi. Ko‘pgina kichik shaharlar – tumanga qarovchi shaharchalar bo‘lib, amalda huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatidan diskriminatsiya maqomdaligicha qolmoqda.

Ta’kidlash lozimki, ko‘pgina ijtimoiy himoyaga oid masalalar hududiy va mahalliy darajada hal etilmoqda. Ijtimoiy himoyaning regional va mahalliy (shahar, tuman, qishloq) fondlari tashkil etilgan, dastrulari qabul qilingan va amaldagi harakatlar boshlab yuborilgan. Yana bir muhim tendensiya ijtimoiy sohaning o‘zgarishi – infratuzulmasining restrukturizatsiyasi. Ishlab chiqarish tamoyili asosida amal qiluvchi tashkiliy tomonlari hududdiyga aylantirilganligi hisoblanadi.

2016-2019 yillar oralig‘ida Respublika shahar joylaridagi kunduzgi maktablarda o‘qituvchilarni salmog‘i 31 % dan 36 % ga oshgan. Bu shahar joylaridagi maktab o‘quvchilarining salmog‘i ko‘payib borayotganligi va maktablar sonini ham ko‘payib borayotganini bildiradi.

2016-yilda bandlik darajasi Respublika bo‘yicha 68,7 % ni, 2017-yilda 69,2 % tashkil etgan bo‘lsa, 2018-yilda bu ko‘rsatkich 67,4 % tashkil qilgan. 2019-2020-yillar haqidagi ma’lumotlar hali e’lon qilinmagan. 2020-yilda pandemiya sharoitida bu ko‘rsatkich yanada pasayganligini prognoz qilish mumkin. Chunki, tashqi davlatlarda ishlayotgan fuqarolarni o‘z vataniga qaytishi, ba’zi obyektlardagi ish faoliyatini to‘xtashi natijasida ishsizlik darajasi yanada ortishini real ko‘rish mumkin. Ammo mamlakat miqyosida bu holni bartaraf qilish

maqsadida chora-tadbirlar amalga oshirilayotganini aytish mumkin. “Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilingan. Unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi deb yuritiladi) uchun 2018-yilda Respublika budjetiga qo‘shimcha tushumlar hisobiga 150 milliard so‘m ajratiladi, 2019-yildan boshlab esa budjet parametrlarida 300 milliard so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda qo‘shimcha mablag‘lar ajratish nazarda tutiladi [12].

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida ko‘radigan bo‘lsa, 2018-yilda eng yuqori ko‘rsatkich bu Toshkent shahrida 77,5% ni tashkil qilgan bo‘lsa, eng quyi ko‘rsatkich Jizzax viloyatida 61,6% ni tashkil etgan.

**(2-jadval)**




Shu o‘rinda ishsizlik darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ham keltirib o‘tamiz. Respublika miqyosida bu ko‘rsatkich 9,3% ni tashkil qilgan bo‘lsa, Qoraqolpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida eng past ko‘rsatkich Toshkent shahrida 7,9% ni tashkil etgan bo‘lsa, eng yuqori ko‘rsatkich 9,7 % ya’ni salbiy saldo bilan Farg‘ona va Qashqadaryo viloyatlariga to‘g‘ri keladi.

**(3-jadval)**



Xulosa qilib aytganda, bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik shaharlar infratuzulmasini yaxshilashda ijtimoiy siyosat tamoyillaridan samarali foydalanish asosan quyidagilar bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi. Birinchidan, ijtimoiy siyosatni yuritishda real va potensial maqsadga muvofiqlikga erishish, ikkinchidan, ijtimoiy siyosatni rivojlantirishda ratsional faoliyat, izchillik, ijtimoiy va iqtisodiy siyosatning o‘zaro muvofiqligini ta’minlash, uchinchidan, joriy va kelajakdagi maqsadlarning izchilligini ta’minlash, ijtimoiy standartlashtirish, sog‘lom raqobat, yuqori javobgarlik, tabaqalashtirilgan yondashuv, intellektual resurslar bilan muntazam ta’minlash, to‘rtinchidan, ijtimoiy siyosatni maqsadli, manzilli ijtimoiy yordam, ijtimoiy xizmatlardan foydalanishga yo‘naltirish, pullik va bepul ijtimoiy xizmatlar o‘rtasidagi muvozanat, ijtimoiy sug‘urta, ijtimoiy kafolatlar, shuningdek deklarativlik tamoyilini ustuvorligini ta’minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

## Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. PF-4947-son, 2017 yil 7 fevral. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017 y., 6-son, 70-modda

2. Парк Р. Город как социальная лаборатория // Социологическая теория: история, современность, перспективы. С-ПБ: «Владимир Даль», 2008. – С. 31.

3. Вебер М. Город// Избранное. Образ общества.: Пер. с нем. –М.: Юрист, 1994.- С. 309-446.

4. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда / пер. с фр. А.Б. Гофмана, примечания В.В. Сапова. М.: Канон, 1996. - 332 с.

5. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. – М.: Политиздат, 1992.-С. 295-424.

6. Ernazarov D.Z. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy siyosati samaradorligini oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining roli. Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2018. – 14-15 betlar.

7. Yormatov F.J. O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi: holati, shakllanish jarayoni, rivojlanish istiqbollari (1991-2010 yillar. Janubiy viloyatlar misolida). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2010. –B.21.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. PF-4947-son, 2017 yil 7 fevral. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017 y., 6-son, 70-modda.

9. Ernazarov D.Z. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy siyosati samaradorligini oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining roli. Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2018. – B.15.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. PF-4947-son, 2017 yil 7 fevral. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017, 6-son, 70-modda.

11. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2018 yildagi hisobot ma’lumotlariga muvofiq keltirilgan grafiklar.

12. “Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 14.07.2018.

**UDK: 711.6**

# YOSHLARNING KASBIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA TA‘LIMNING O‘RNI

**N. J. Nazarova**

*Toshkent davlat transport universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada yoshlarning kasbiy raqobatbardoshligini oshirishda ta‘lim tizimi ijtimoiy omil ekanligi, yoshlarning hayot sifatiga investitsiyalar tikish muhim strategik ahamiyat kasb etishi, talab yuqori bo‘lgan kasblar mutaxassisliklarining raqobati ilmiy tadqiq va tahlili keltirilgan. Yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirish murakkab jarayon hisoblanadi. Shu sababli kasbiy raqobatbardoshlikning elementlari tarzida ehtiyojlar, qiziqishlar, ustanovkalar, ishonch va kasb orqali qondiriluvchi va amalga oshuvchi shaxs motivatsion sohasining boshqa tarkibiy qismlari atroflicha yoritilgan.

**Kalit so‘zlar**: mehnat bozori, ta’lim sifati, bandlik masalasi, raqobat, inson taraqqiyoti, innovatsion yondashuv, masofaviy ta’lim, kasbiy mahorat.

### Роль образования в повышении профессиональной конкуренции молодежи

**Аннотация**. В статье подчеркивается тот факт, что система образования является социальным фактором повышения профессиональной конкурентоспособности молодежи, стратегическая важность инвестирования в качество жизни молодежи, исследование и анализ конкуренции в востребованных профессиях. Формирование соревновательных качеств у молодежи - сложный процесс. Таким образом, в качестве элемента профессиональной конкурентоспособности подробно рассматриваются потребности, интересы, установки, убеждения и другие компоненты мотивационной сферы личности, которые удовлетворяются и реализуются через профессию.

**Ключевые слова**: рынок труда, качество образования, занятость, конкуренция, человеческое развитие, инновационный подход, дистанционное обучение, профессиональные навыки.

### The role of education in increasing the professional competition of youth

**Abstract.** The article emphasizes the fact that the education system is a social factor in increasing the professional competitiveness of young people, the strategic importance of investing in the quality of life of young people, research and analysis of competition in demanded professions. The formation of competitive qualities among young people is a complex process. Thus, as an element of professional competitiveness, the needs, interests, attitudes, beliefs and other components of the motivational sphere of the individual are considered in detail, which are satisfied and implemented through the profession.

**Keywords**: labor market, quality of education, employment, competition, human development, innovative approach, distance learning, professional skills.

## Kirish

Yoshlarni mamlakatimiz kelajagi, ijtimoiy taraqqiyot davomchilari sifatida tadqiq etish va ular bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish yangi O‘zbekistonda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. “Jamiyatni taraqqiy ettirish, fan-texnika va texnologiya taraqqiyoti sur‘atlarini jadallashtirish, mamlakat hayotini takomillashtirish zamirida yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash mujassamki, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar yoshlarning yuksak bilim darajasiga ega bo‘lishlarini ta‘minlash bilan birga XXI asrda turgan murakkab muammolarni muvaffaqiyatli hal etishdek jiddiy mas‘uliyat yuklaydi”[1.78-80]. Ayniqsa, hozirgi davrda mehnat bozoriga birinchi marta kirib kelayotgan yosh mutaxassislarning raqobatbardoshlik sifatlarini shakllanishiga kuchli ta‘sir etuvchi ijtimoiy omillar ichida ta‘lim tizimi muhim o‘rin egallaydi. Shuning uchun ham yoshlarning ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan davlat siyosatida, yoshlar raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirish lozim hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida keng ko‘lamli islohotlarda, xususan yoshlarning sifatli ta‘lim olishi, bandlik masalasi, ularni uy-joy bilan ta‘minlash, yosh tadbirkorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va boshqa chora-tadbirlarni o‘zida mujassamlashtirilgan institutsional asoslarda, jumladan qabul qilingan qonunlarda, Prezident farmon va qarorlarida, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlarida, turli mas‘ul vazirlik va idoralar tomonidan ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar o‘z aksini topmoqda. Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan 2021 yilning 27 yanvar kuni “Mamlakatimizda yoshlar bandligini ta‘minlash va bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari”ga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida “mamlakatimiz aholisining qariyb 55 foizini, 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etib, ularning soni 18 milliondan ziyod”ligi ko‘rsatib o‘tildi [2]. Bu esa respublikamizda yoshlar masalasini o‘rganishga nisbatan, ayniqsa raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirish bilan bog‘liq xususiyatlarni tadqiq etish dolzarbligini ko‘rsatadi. Bu esa “jamiyatning yetakchi kuchi hisoblangan yoshlarning ongida tafakkur erkinligini shakllantirishda jamiyat ma‘naviy yangilanish jarayonlari bilan uzviylikda olib borish, ularning faoliyatida ma‘naviy-axloqiy, tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish ham talab etiladi. O‘z navbatida ta’lim jarayonida yangi pedagogik yondoshuvlar asosida erkin, har tomonlama barkamol, yuksak mas‘uliyatga ega yoshlarni tarbiyalashga katta e‘tibor berish zarur” [3.60-61]ligini ko‘rsatmoqda.

## Tadqiqotning maqsadi

Yoshlarning kasbiy raqobatbardoshligini oshirishda ta‘limning o‘rnini ko‘rsatish va uning funksiyalarini tadqiq va tahlil etishdan iborat.

## Tadqiqotning usuli va obekti

Mazkur jarayonda retrospektiv va qiyosiy tahlil, faoliyat mahsulini o‘rganish, kuzatuv, hujjatlarni o‘rganish kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida yoshlarning kasbiy raqobatbardoshligini oshirishda ta‘limning o‘rni masalalari tadqiq etildi.

### Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi

Manbalarda, yosh mutaxassislar konseptiga quyidagicha munosabat bildirilgan - bu ta‘lim muassasalari bitiruvchilari, birinchi marta ish izlayotganlar, tegishli soha bo‘yicha ma‘lumotga va ixtisoslikka ega bo‘lgan va ega bo‘lmagan yoshlar kiradi[4.6]. Ular an‘anaviy ravishda xavf ostida, chunki ular mehnat bozorining eng muammoli ishtirokchilari qatoriga kiradi.

Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va kundalik hayotidagi muammolarni hal etish kabi vazifalarning o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida 2021-yil “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb e‘lon qilinib, 2021-yil 3 fevralda Davlat dasturi qabul qilindi [5]. Dasturda yoshlar bilan bog‘liq bir qator masalalar, jumladan “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy muhofazaga muhtoj talabalarni himoya qilish tizimini takomillashtirish, ijtimoiy adolat tamoyilini ta‘minlash”, “Respublikada talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha iqtidorli mutaxassislarni nufuzli xorijiy ta‘lim, ilmiy va boshqa muassasalarda tayyorlashning samaradorligini tubdan oshirish”, “fizika fani va chet tillari bo‘yicha uzluksiz ta‘lim sifati va natijadorligini oshirish”, “Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ta‘lim olishi va kasb egallashiga ko‘maklashish, og‘ir kasallikka chalingan bolalarni davolash” va boshqa shu kabi amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar belgilab berildi.

XXI asr bilimlar jamiyati davri deb e‘lon qilindi. YUNESKOning Jahon ta‘limi monitoringi hisobotiga ko‘ra, bu asrda ta‘limning ahamiyati yanada ortib, uning darajasi, sifati va qulayligi nafaqat shaxsning taqdirini, balki butun sayyoramiz hayotini belgilaydi. BMT hujjatlarida: “Barqaror kelajakni yaratish uchun faqat ta‘lim yetarli emas; ammo, barqaror rivojlanish uchun ta‘lim va bilimsiz biz ushbu maqsadga erisha olmaymiz”[6] - deya ko‘rsatib o‘tilgan. Darhaqiqat barqaror kelajak, uning bunyodkori hisoblanmish yoshlarning bilim va ta‘lim olishiga intilishi bilan bevosita bog‘liq ekanligini inobatga olsak, bu esa yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirish mohiyatini anglash uchun yordam beradi.

Yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchi G.Z.Yefimova fikricha, “raqobatdoshlik darajasi “ijtimoiy qatlamga mansublik”, “hayotdan umumiy qoniqish”, “sog‘lig‘ini qadrlash”, “sog‘lom turmush tarziga intilish” kabi ijtimoiy omillarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lib, bunda ta‘lim-tarbiya muhim o‘rin egallashi qayd etiladi”[7.97]. Demak, raqobatbardoshlikning yuqori darajasini ta‘minlash uchun ta‘lim, sog‘liqni saqlash va shaxsning hayot sifatiga investitsiyalar tikish kabi omillar ham strategik ahamiyat kasb etadi. Bu borada professor M.Bekmurodovning yozishicha, “agar dunyoda insonning 3 yoshidan 22 yoshigacha bo‘lgan davrida unga kiritilgan investitsiya 19-22 marta foyda keltirsa, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich atigi 4 marta foyda berishi kuzatilmoqda”[8.22-25]. Demak, yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirishdan nafaqat yosh mutaxassis kadrlarning o‘zi balki, butun bir jamiyat va qolaversa davlat manfaatdordir. Shu bois professor T.U.Abdullayev yoshlarning raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirish jarayonining murakkab ekanligini nazarda tutib, “Bu jarayon bir tekisda kechmaydi, chunki yoshlar bilimi va saviyasi turli darajada namoyon bo‘ladi. Shuning uchun fanning vazifalaridan biri – hayot tajribasi bilan birga yoshlar bilimini va bilish qobiliyatini oshirib borishdir”[9.5-7] – deya masalaga funksional tarzda yondashdiki, bizningcha bu jarayonda ijtimoiy omillar rolini ham e‘tiborga olish maqsadga muvofiq sanaladi.

Yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirish murakkab jarayon hisoblanadi, bunda bilim va tafakkur yosh xodim va mutaxassislarni manbalarini aniqlashga, muhimi vujudga kelayotgan qiyinchiliklardan chekinmaslikka va qo‘rqmaslikka o‘rgatadi. Shu sababli ham T.U.Abdullayev sog‘lom raqobatni manbalari sifatida quyidagilarni e‘tiborga olish lozimligini ko‘rsatib o‘tgan:

- bozor iqtisodiyotini qonuniyatlariga amal qilish;
- korxona rahbarlarini zamonaviy ish uslublariga o‘tish (xodim va mutaxassislarni fikr mulohazalari bilan hisoblashish, ularni boshqaruv tizimiga jalb etish, iste‘dodlari bo‘yicha rivojlangan mamlakatlarga ilg‘or tajribalarni o‘rganish uchun safarbar etish va b.);
- jamoa o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni rejali shakllantirish va shu asosda plyuralizm fikrlariga real imkoniyatlarni yaratish;
- xodim va mutaxassislarni mehnatini samaradorligi asosida moddiy hamda ma‘naviy jihatdan rag‘batlantirib borish[10.5-7].

Bizningcha, yoshlar raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirishda ularning hayot strategiyasini tadqiq etish ham muhim. Shu sababli ulardan eng asosiylari sifatida quyidagi turlarini alohida ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin:

birinchidan, kunlik yoki kundalik strategiyalarni to‘g‘ri shakllantirish;

ikkinchidan, o‘z-o‘zini anglash strategiyasini shakllantirish va rivojlantirish;

uchinchidan, muvaffaqiyatga erishish strategiyasini rivojlantirish va takomillashtirish maqsadga muvofiq”[11.157-163].

Yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirish genezisi uzoq oʻtmishga borib taqaladi. Masalan, Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da "Pok va beayb tugʻilmoq, yoziqsiz dunyoga qadam qoʻymoq odamlar taqdiri va tirikligida nechogʻli ulugʻ toledir"[12.67] – deya qayd etilgan boʻlib, bunda har bir individning tugʻilishidan tortib, hayotiy qadriyatlarining shakllanishigacha boʻlgan jarayonlarning mazmun va mohiyatini anglash muhim ekanlik gʻoyasi mujassamlashgan desak mubolagʻa boʻlmaydi. Shu bois yoshlar raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirish masalasi bugun yoxud kecha paydo boʻlgan muammo emas. U insoniyatning "aqlli odam" bosqichiga oʻtgandan boshlab oʻylantirib kelayotgan masala sanaladi. Biroq bugungi zamonaviy taraqqiyot jarayoniga kelib, bu masalani tadqiq etishga nisbatan ehtiyoj va talab har qachongidan koʻra kuchayib bormoqdaki, buni turli omillar bilan izohlash mumkin. Bunda texnik, ilm-fan, taʻlim, madaniy va turmush tarzi singarilarni koʻrsatib oʻtish mumkin.

BMT Taraqqiyot dasturining "Inson taraqqiyoti hamma va hamma uchun" hisobotida XXI asr uchun yangi inson koʻnikmalariga eʻtibor qaratilib, "2020 yilga kelib ish uchun muhim boʻlgan bilim va koʻnikmalarning 1/3 qismidan koʻprogʻi oʻzgaradi. Oʻzlashtirish koʻnikmalari toʻrtta mezonga qaratilgan tanqidiy fikrlash, hamkorlik, ijodkorlik va muloqotni davom ettirishga qaratilgan umrbod oʻqitish jarayonining bir qismiga aylanishi kerak"[13]ligi koʻrsatib oʻtilgan. Bunda inson taraqqiyoti konsepsiyasi 2030 yilgacha Barqaror rivojlanishni muhim masala sifatida yangi mazmunga koʻtarish bilan birga yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarining koʻrinishi sanalmish tanqidiy fikrlash, kreativlik, oʻzaro hamkorlik va kommunikativlikni rivojlantirishda taʻlimiy vositalar muhim ekanligi eʻtirof etilgan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi ularoq, "Bugungi kunda sifatli taʻlimga sarmoya kiritish zarurligini maktab oʻquvchilari va talabalarining ota-onalari aniq tushunib yetdilar. Bu borada 2021 yil davlat dasturida davlat byudjetidan, taʻlimga sarflanadigan mablagʻlar umumiy tarkibida 2197 mlrd soʻm, fanga 168 mlrd soʻm, sogʻliqni saqlashga 3952 mlrd soʻm miqdorida mablagʻ ajratilishi"[14] belgilangan boʻlib, bu esa -"Oʻzbekistonda yangi Uygʻonish davri, yaʼni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish"[15] sifatida eʻtirof etishimiz mumkin.

COVID-19 pandemiya sharoiti barcha sohalarda yangi sharoitga moslashish va kreativlik, raqobatbardoshlik, novatorlik, sohalarni modernizatsiya qilish, soha rivoji uchun innovatsion yondashuv talabini kuchaytirdi. Natijada masalaga funksional yondashgan holda kasbiy qadriyatlarni asrash, ularni rivojlantirish, mehnat bozoridagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularni ijtimoiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash uchun tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi vazifalarning amaliy ahamiyatini kuchaytirdi. Bu vazifani bajarish uchun maʻrifat masalasiga yangi nazariy yondashuv asosida munosabatda boʻlish lozim boʻladi. Yaʻni, taʼlim-tarbiya masalasiga anʻanaviy yondashuvning maʻrifiy samaradorlik darajasi nisbatan past ekanligini hisobga olib, mintaqa va jahon mehnat bozorining talablari, fan va texnika yutuqlarini maishiy va ijtimoiy hayotga tadbiq etilishi natijasida vujudga kelayotgan yangi ixtisosliklar paydo boʻlayotganligini, xizmat koʻrsatish tarmoqlarini institutsionallashuvini, bilim va axborot bozorining vujudga kelganligini inobatga olgan holda kadrlar tayyorlash lozim boʻladi. Bunda taʻlim sifatini oshirish maqsadga muvofiq boʻlib, bu esa quyidagilarga erishishni nazarda tutadi:

- innovatsion axborot mahsulotlarini ishlab chiqish;
- yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy usullarini joriy etish asosida innovatsion gʻoyalarni ishlab chiqish;
- taʻlim sifati va uzluksizligini taʼminlash;
- pedagogik kadrlarni kasbiy darajasi va malakasini doimiy ravishda oshirib borish;
- yangi texnologiyalarda foydalanish asosida oʻquv jarayonini uzluksiz takomillashtirib borish;
- kasbiy masalalarni yechishga talabalarni ijodiy yondashadigan va masʻuliyatli qilib tarbiyalash[16.35-38].

Yosh mutaxassislarning raqobatbardoshligini oʻrganish davomida tadqiqotchilar, olimlar, psixologlar, ularni ikki yondashuv asosida, birinchidan oʻquv va ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan, ikkinchisi motivatsion faolligi nuqtai nazaridan tadqiq etishni maqsadga muvofiq deb hisoblashadi. Ushbu ikki yondashuvdan tashqari yoshlar raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirishda quyidagilarga eʻtibor qaratish lozim:

-tanlagan kasbi boʻyicha bilim olish, ijtimoiy mavqeyini koʻtarish orqali pul ishlashni oʻrganish;

-oʻzini tanlagan sohasi mutaxassisi sifatida toʻliq anglashi, kasbga oid ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shugʻullanish istagi;

- yaqin kishini, sodiq doʻstini topish, baxtli oilani yaratish[17].

Ayniqsa, ilm-fan rivoji va taʼlim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi ham yosh mutaxassis kadrlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirish masalalariga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. "Taʻlim toʻgʻrisida"gi Qonunining 17-moddasida "Dual taʻlim taʻlim oluvchilar tomonidan

zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni olishga qaratilgan bo‘lib, ularning nazariy qismi ta’lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta‘lim oluvchining ish joyida amalga oshirilishi”[18] belgilangan bo‘lib, bu nazariya va amaliyot birligini ta’minlash uchun xizmat qilishi bilan birga yosh mutaxassislarda kasbiy kompetensiyalarining shakllanishi va rivojlanishi uchun institusional asos sifatida yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarining shakllanishiga ko‘mak beradi, deb hisoblaymiz.

Bir guruh psixolog olim va tadqiqotchilarning qayd etishicha, “Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta‘lim jarayonida talaba-yoshlar faoliyatiga qo‘yiladigan talablar uning ham kasbiy, ham shaxsiy kamoloti bilan bog‘liq masalalarni o‘z ichiga qamrab olgandir. Shu boisdan ta‘lim jarayonida talaba-yoshlarning shaxs va psixologik yetukligini rivojlantirish kasbiy kamolotning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi”[19.25]. Taraqqiyot davomida yuzaga kelgan turli xarakterdagi muammolar o‘zining ilmiy yechimini topishi ehtiyoji sifatida namoyon bo‘lib, soha mutaxassislarining e’tiborini jalb etib kelmoqda. Ulardan biri bu aniq kasb uchun nomzodlarni tanlab olish, tarbiyalash va qayta tayyorlash masalasidir. Shu bois, kasbiy faoliyatni tashkil etish, boshqarish va takomillashtirish uchun ilm-fan yutuqlarini qo‘llash, maxsus uslublarni ishlab chiqish lozim. Bu o‘z navbatida faoliyat mahsuli hisoblanmish biron bir kasb egasi tomonidan yaratiladigan yoki ko‘rsatiladigan faoliyat mahsulini sifat jihatdan boyitilishiga xizmat qilishini inobatga olsak, bunda talaba kasbiy kamolotini belgilovchi omillarni tadqiq etishda, ta’lim-tarbiya va ilm-fan yutuqlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Yosh mutaxassislar mehnat bozoridan munosib o‘rin egalashida ularning ijtimoiy hayotdan qoniqish darajasiga ham e’tibor qaratish lozim. Negaki, W.Pavot va E.Diener[20.164-172] (1993) o‘z qarashlari orqali individning hayotdan qoniqishini hayotdan zavqlanish bilan tasvirlaydi. M.Frijns[21] (2010) fikricha, individlar o‘z hayotlarining sifatini hayotdan qoniqish yordamida umumlashtirishga harakat qilishadi, bunga esa hayotning ko‘p qirralari ta‘sir qiladi – deya munosabat bildirishgan. R.Veenhoven[22.1-46] (1996) yozishicha, sotsioental resurslar, ya‘ni iqtisodiy farovonlik, ijtimoiy tenglik, ijtimoiy pozitsiya kabi shaxsiy resurslar, oilaviy qadriyatlar va fiziologik holat, intellektual salohiyat, hamdardlik, muammolarni hal qilish va boshqa shu kabi shaxsiy qobiliyatlar hayotdan qoniqishni belgilovchi omillardir. Demak, yosh mutaxassisda raqobatbardoshlik sifatlarining shakllanishiga ta‘sir etuvchi omillar ichida hayotdan qoniqish darajasini aniqlash ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Shu bois shaxsning individual xususiyatlarni o‘rganish, kasbiy qadriyatlarning ta‘sir doirasini tadqiq etish, tashkiliy madaniyat darajasini aniqlash muhim hisoblanadi.

Kasbiy raqobatbardoshlikning elementlari tarzida ehtiyojlar, qiziqishlar, ustanovkalar, ishonch va kasb orqali qondiriluvchi va amalga oshuvchi shaxs motivatsion sohasining boshqa tarkibiy qismlarini ko‘rib chiqish lozim. Yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirish uchun yoshlarda zaruriy bilim va qobiliyatlarga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq.

T.V.Mishenko[23.24] o‘z ilmiy ishlarida yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirishni kasbiy faoliyat kontekstiga nisbatan ko‘rib chiqib, bunda subyekt ijtimoiy muhit bilan kasbiy o‘zaro ta’sirga kirishadi va o‘z-o‘ziga nisbatan hurmati oshadi. Muallif fikricha, kasblar olamiga yo‘naltirishni ta‘minlovchi shaxs xarakterlariga, faoliyatda shaxs potensialining to‘la namoyon bo‘lish shartiga, qolaversa, kasb tanlashning mumkin bo‘lgan oqibatlarini oldindan ko‘ra bilishga alohida e’tibor qaratadi. Kasbiy sifatlar insonning kasbni tushunishi, o‘zini mutaxassis sifatida qabul qilishi, o‘zining kasbiy vazifalarini a‘lo darajada va boshqalar uchun foydali tarzda amalga oshirish bilan belgilanadi.

O‘tkazilgan tadqiqotlarda shuni ko‘rsatmoqdaki, raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirish integral xarakterga ega va mutaxassislarning o‘zgacha madaniyat doirasidagi kasbiy faoliyatga moslashishlarini universal asosi hisoblanadi. Bu sifatlarning ko‘p tarkibiy qism ekanligi haqidagi xulosani keltirib chiqaradi. Kasbiy mahoratning yuqori darajasi bilan bir qatorda yangicha sharoitdagi ish joyida ko‘nikma va malakalarni qo‘llash qobiliyati tarkibiga kommunikativ qobiliyatlar, emotsional-irodaviy sohaning shakllanganligi, faollik, sobitqadamlik, keskinlik, stressga barqarorlik, qolaversa, mehnat jamoasining axloqiy meyorlariga amal qilish kiradi.

Professiogenez konsepsiyasining muallifi Ye.P.Yermolayeva raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirish faqatgina kasbni yuqori darajadagi mahorat bilan boshqarish orqali shakllanadi va faoliyat jarayonining asosiy elementlarini barqaror muvofiqligi sifatida namoyon bo‘ladi, degan xulosani ilgari suradi[24]. Kasbni egallash bosqichi va shunga muvofiq kasbiy sifatlar darajasini tahlil qilish subyektning o‘zi bilan kasbni identifikatsiya qilish darajasi kasbiy sifatlar funksiyasini amalga oshirish imkonini aniqlash mumkinligini ko‘rsatdi. Ushbu yondoshuvda kasbiy sifatlar shaxs komponenti, ya‘ni muvaffaqiyatli kasbiy moslashishni ta‘minlovchi va kompetentlik, kasbiy egiluvchanlik, ishga qiziqish va muhit bilan kelishishga asoslangan kasbiy karyeradagi ustuvor omillar sifatida ko‘rib chiqiladi.

**Xulosa**

Shunday qilib, yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, shuni aytishimiz mumkinki, yosh mutaxassisning raqobatbardoshligi quyidagilarga bog‘liq:

- kasbiy mahoratga asoslangan kasbiy faoliyat sifati madaniyati;
- o‘zaro hamkorlik madaniyati (hamkorlik);
- o‘zini tutish madaniyati, ya‘ni yuqori axloqiy meyorlar.

Shunga asoslanib, korxona tashqi muhit tomonidan belgilab qo‘yilgan o‘zgarishlarga moslashishga yordam beradigan, tashkiliy barqarorlik holatini yaratadigan, shu bilan birga rivojlanish uchun kompaniyada qulay muhitni saqlab turadigan xatti-harakatlar va o‘zgarishlarni idrok etish turini shakllantirishi kerak. Binobarin, yosh mutaxassislarning raqobatbardoshligi nafaqat mamlakat uchun iqtisodiy o‘sishning qudratli vositasi, balki uning ma‘naviy hayotini yaxshilash, yosh avlodning o‘zlarining munosib ish kelajagiga, o‘zlarini ijodkor, mazmunli ish sifatida anglab yetish imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash uchun bir xil darajada muhim vosita hisoblanadi.

Shunday qilib, yosh mutaxassislarning raqobatbardoshligini oshirish uchun qulay tashkiliy madaniyatni yaratish ta‘lim muassasalari+ish beruvchilar,barcha davlat muassasalarining vazifasi va mas‘uliyati hisoblanadi. Tashkiliy madaniyatni baholash ko‘rsatkichlari tizimini ochib berish bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar davom ettirilishi kerak.

**Adabiyotlar**

1. Исақова З.Р. Миллий ва умуминсоний қадриятлар-ёшлар маънавий камолотининг муҳим омили. /Ўзбекистон Республикасини 2017-2021 йилларда ривожлантиришнинг Ҳаракатлар стратегиясини жамиятга тадбиқ қилишда фалсафа фанининг ўрни ва аҳамияти. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. – Фарғона: ФарДУ, 2019. – Б. 78-80.

2. Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 2021 йилнинг 27 январь куни “Мамлакатимизда ёшлар бандлигини таъминлаш ва бўш вақтини мазмунли ташкил этиш чора-тадбирлари”га бағишланган видеоселектор йиғилиши -https://yuz.uz/news/yoshlar-bilan-manzilli-va-tizimli-ishlash-boyicha-dolzarb-vazifalar-belgilandi

3. Эватов С. Ёшларда мустақил фикрлаш маданиятини шакллантиришнинг фалсафий жиҳатлари. /Ўзбекистон Республикасини 2017-2021 йилларда ривожлантиришнинг Ҳаракатлар стратегиясини жамиятга тадбиқ қилишда фалсафа фанининг ўрни ва аҳамияти. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. – Фарғона: ФарДУ, 2019. – Б. 60-61.

4. Маршак А.Л. Общая социология. Ростов н/Д., 2004. С.236. Социология молодежи. Учебник/под ред.д-ра социол.наук, проф., чл.-корр. РАН В.Н.Кузнецова. – М.: Гардарики, 2007. - С.6.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 3 февралдаги “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини "Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили"да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-6155-сонли Фармони -https://lex.uz/pdfs/5260791

6. Десятилетие образования в интересах устойчивого развития / ООН. 2002 [Электрон. ресурс]. Режим доступа: http://ru.unesco.org/node/263843

7. Ефимова Г. З. Конкурентоориентированность и конкурентоспособность в оценке студенческой молодежи. //Образование и наука. Том 19, № 7. 2017 /The Education and Science Journal. Vol. 19, № 7. 2017. -С. 97.

8. Бекмуродов М. Ижтимоий ривожланиш жараёнларининг социологик асослари. /Ахборотлашган жамиятда замонавий социологиянинг долзарб масалалари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент: ЎзМУ, 2019. -Б. 22-25.

9. Абдуллаев Т.У. Ёшлар фаоллигини ўсиб боришида фалсафанинг ўрни. / Ўзбекистон Республикасини 2017-2021 йилларда ривожлантиришнинг Ҳаракатлар стратегиясини жамиятга тадбиқ қилишда фалсафа фанининг ўрни ва аҳамияти. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. – Фарғона: ФарДУ, 2019. – Б. 5-7.

10. Абдуллаев Т.У. Ёшлар фаоллигини ўсиб боришида фалсафанинг ўрни. / Ўзбекистон Республикасини 2017-2021 йилларда ривожлантиришнинг Ҳаракатлар стратегиясини жамиятга тадбиқ қилишда фалсафа фанининг ўрни ва аҳамияти. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. – Фарғона: ФарДУ, 2019. – Б. 5-7.

11. Nazarova Nilufar Juraevna. (2020). Universal Factors In Provision Of Youth Life Strategy. *International Journal for Social Studies*, *6*(1), 157-163. Retrieved from https://journals.eduindex.org/index.php/ijss/article/view/19580

12. Авесто: тарихий-адабий ёдгорлик / Н.Жўраев; таржимон А.Маҳкам. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 2015. – 732 б.

13. Инсон тараққиёти тўғрисидаги доклад. Human Development Report, 2016. http://hdr.undp.org/sites/default/files/2016_human_development_report.pdf

14. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини «Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.02.2021 й., 06/21/6155/0082-сон)https://lex.uz/docs/5260791

15. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 30 сентябрдаги Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги “Ўқитувчи ва мураббийлар – янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир” мавзусидаги нутқи - www.xs.uz

16. Мамадалиева Н. Таълим жараёни сифатини бошқаришнинг социал муаммолари. /Ахборотлашган жамиятда замонавий социологиянинг долзарб масалалари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент: ЎзМУ, 2019. -Б. 35-38.

17. Shkutina L., Mikhaiylova N.B., Kubanov A. Moral and psychological portrait of the modern student, his components and characteristics https://articlekz.com/en/article/14636

18. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги N ЎРҚ-637-сонли Қонуни. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси 2020 йил 24 сентябрь - www.lex.uz.

19. Сафаев Н.С., Одилова Н.Г., Мираширова Н.А., Сагиндикова Н.Ж., Рахимова И.И. Шахс психологик етуклигининг илмий- назарий асослари. Илмий-услубий қўлланма. - Тошкент, НАШРИЁТ, 2017. –Б. 25.

20. Pavot W., Diener E. Review of the Satisfaction with Life Scale. // Psychological Assessment, 1993. 5 (2): 164-172.

21. Frijns M. (2010). Determinants of life satisfaction, Cross Regional Comparisons. Maastricht University.

22. Veenhoven, R. (1996). Developments in satisfaction-research. Social Indicators Research, 37(1), 1-46.

23. Мищенко Т.В. Становление профессиональной идентичности студентов педагогического вуза. / Автореф. дис. …канд. психол. наук. – Ярославль, 2005. – 24 с.

24. Ермолаева, Е.П. Психология социальной реализации профессионала. – Москва: Институт психологии РАН, 2008. – 353 с.

**UDK: 711.6:502(575.141)**

## SHAHAR EKOTIZIMIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING JAMIYAT HAYOTIGA SALBIY TA’SIRI (SAMARQAND SHAHRI MISOLIDA)

**X.X.Xaydarova**
*O‘zbekiston Milliy universiteti*
*hilolahaydarova@mail.ru*

**Annotatsiya.** Bu ishda shahar ekotizimi boshqarish jarayonida e’tibor berilishi lozim bo‘lgan muammolar va ushbu muammolarga nisbatan kurashishda qonuniy choralarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada Samarqand shahri ekotizimidagi muammolar statistik ma’lumotlar tahlili asosida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, O‘zbekistonda bu borada amalga oshirilgan islohotlar, yutuqlar va istiqbollar haqida so‘z yuritiladi. Samarqand shahari ekotizimidagi muammolar va ularning joriy holati sotsiologik so‘rov orqali o‘rganilgan. Maqola so‘ngida shahar ekotizimidagi muammolarning oqilona yechim topishi uchun beshta vazifaga alohida e’tibor berish lozimligi tavsiya etilgan.

**Kalit so‘z:** Shahar ekotizimni boshqarish, shovqin, elektromagnit nurlanish, epidemiologik vaziyat, chiqindilar, havoning ifloslanishi, ma’naviy tubunlashish.

### Проблемы городских экосистем и факторы воздействия их в управление городской экосистемы

**Аннотация.** В статье подчеркивается важность мер по борьбе с проблемами и вызовами, которые необходимо решать в процессе управления городской экосистемой. Рассматриваются проблемы экосистемы Самарканда на основе статистического анализа, обсуждаются реформы, достижения и перспективы в этой сфере в Узбекистане. Проблемы экосистемы города Самарканда и их современное состояние изучены с помощью социологического опроса. В конце статьи рекомендуется уделить особое внимание пяти задачам, чтобы найти рациональное решение проблем городской экосистемы.

**Ключевые слова:** Управление городскими экосистемами, шум, электромагнитное излучение, эпидемиологическая ситуация, отходы, загрязнение воздуха, духовная деградация.

**Problems of urban ecosystems and their impact factors in the management of urban ecosystems**

**Abstract.** The article emphasizes the importance of measures to combat the problems and challenges that need to be addressed in the process of urban ecosystem management. The article also examines the problems of the Samarkand ecosystem on the basis of statistical analysis, discusses reforms, achievements and prospects in this area in Uzbekistan. The problems of the ecosystem of the city of Samarkand and their current state have been studied using a sociological survey. At the end of the article, it is recommended to pay special attention to five tasks in order to find a rational solution to the problems of the urban ecosystem.

**Keywords:** Urban ecosystem management, noise, electromagnetic radiation, epidemiological situation, waste, air pollution, spiritual degradation.

Jahondagi zamonaviy jamiyatlarning rivojlanishini ularning iqtisodiy ko‘rsatgichidan tashqari shaharlarning ko‘payishi va shahar aholisining o‘sishida yaqqol ko‘rish mumkin. Shaharlar qanchalik ko‘paymasin, yer kurrasida qanchalik joy egallashidan qat’iy nazar ularning har biri “ekotizimi boshqarilishi lozim bo‘lgan hududlar” sarasiga kiradi. Bilamizki, dunyodagi shaharlarning umumiy maydoni 0,5 mln. $km^2$ tashkil etadi. Bu Yer kurrasi territoriyasining 0,3%i ekanligini anglatadi. 100 mingdan ortiq bo‘lgan shaharlarda dunyo aholisining 45 %i yashaydi. Shahar aholisi AQSh butun aholining 74%ni, Yevropada 69%ni, Buyuk Britaniyada 80% tashkil etadi [1, 28 bet]. Mamlakatimiz aholisining 17 milliondan ziyodi ham shahar aholisidir [2].

Shahar ekotizimini boshqarishda esa muammolarni chetlab o‘tishning imkoni yo‘q. Shu sababli muammolar doimo olimlar diqqat markazida bo‘lib kelgan. RAN institutining sotsiologlaridan biri I.V. Sherbakova “Shaharlar sotsiologik tadqiqoti: muammolar diagnostikasi va fuqaroviy diplomatiya” nomli ilmiy maqolasida ajoyib reklamadagi iborani davom ettirdi “Sizda muammo bormi – unda biz siz tomonga boryapmiz!” ya'ni “Agar sizda muammo bo‘lmasa, unda biz sizga uni topamiz!” deya davom ettiradi [3,78 b.]. I.V. Sherbakovaning ushbu iborasi darhaqiqat muammo yo‘q deb hisoblangan shahar ekotizimida aslida ko‘plab muammo borligini va hech bir muammo hatto u kichkina bo‘lsa ham sotsiologlar nazaridan qocha olmasligini anglatadi.

Ularning ta’siri esa muammolarning ko‘lami bilan bog‘liqdir. Ayrim muammolar shaharning turli qismida har xil bo‘lsa, ayrim muammolarni esa barcha hududda bir xilligini kuzatish mumkin.

Aytaylik, Germaniyadagi shaharlarda ko‘p hollarda shahar aholisining sezilarli kamayishi, ko‘p sonli bo‘sh shahar kvartiralarining mavjudligi, immigratsiya, segregatsiya, etnik bo‘linish, ijtimoiy chetga chiqish, jinoyatchilik va qashshoqlikning o‘zaro bog‘liqligi; shahar va uning tarixiy markazlarini qayta qurish paytida yuzaga keladigan muammolar nafaqat shahar ekotizimida balki mamlakat miqyosida yechilishi lozim bo‘lgan muammolar sarasiga kiradi [4, 69 bet]. Shahar aholisining sezilarli kamayishi O‘zbekiston hududidagi hech bir shahar ekotizimining muammosi emas. Bu esa shaharlarimizning yutug‘idir.

Biroq shovqin, havoning ifloslanishi, atrof muhitning turli chiqindilar bilan ifloslanishi, insoniyatning ma’naviy jihatdan tubanlashishi va shu kabi boshqa bir qancha ekologik muammollar deyarli ko‘pgina shahar ekotizimidagi og‘riqli nuqta hisoblanadi.

***Havoning ifloslanish*** muammosi deyarli ko‘pchilik shaharlar uchun dolzarb muammo bo‘lib, eng toza havo okean suvlari ustida bo‘lar ekan. Biroq, shaharlar ustida havodagi chang 35 barovar ortiq. Bir insonning kuniga 25 kg havoni nafas olish uchun sarflashini inobatga olsak [1,19 bet] shahar aholisining sog‘lig‘i tahlikada ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu muammoning va shunga o‘xshagan muammolarning Samarqand shahar ekotizimida ko‘lami qanday ekanligini aniqlash maqsadida “Shahar ekotizimidagi muammolar” mavzusida sotsiologik so‘rov o‘tkazildi. Anonim anketa so‘rovida qo‘yilgan “Samarqand shahridagi havoning ifloslanish muammosini qanday baholaysiz?” degan savolga 62 foiz respondentlar “shaharda moshin ko‘p, toza havo muammo” degan javobni ko‘rsatishgan. Respondentlarning atigi 16 foizi Samarqand shahridagi havo normal holatda ekanligini va bunda hech qanday muammo yo‘qligini ta’kidlashgan. Javoblardan ko‘rinib turibdiki, demak, ushbu shahar ham havoning ifloslanishi muammosidan holi emas. Biroq havoning ifloslanishiga sababchi manbalarni ham unutmasligimiz lozim. Anonim so‘rovnamada gaz qo‘yish shahobchasi (11%), benzin quyish shahobchasi (4%), sanoat korxonasi (17%), tamaddixona (7 %), maxsus chiqindilar punkti (19%) va transport vositalari (43%) bugungi kunda Samarqand shahridagi havoning ifloslanishiga sababchi va aholining sog‘lig‘iga zarar keltirayotgan manbalar ekanligi aniqlandi. Demak ushbu manbalarni o‘rganish shahar ekotizimi boshqaruvida o‘rganilishi lozim bo‘lgan muhim vazifadir.

Shahar ekotizimidagi muammolardan yana biri hududni ***chiqindilar***dan tozalashdir. Aholi zichlashgani sari o‘sha hududdagi chiqindilar ko‘lami kengayib boraveradi. Biroq chiqindilar muammosini

bartaraf etish uchun aholi bilan ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish lozim nazarimizda. Mamlakatimizda 2002 -yil 5-aprelda “Chiqindilar to‘g‘risida”gi 362-II-sonli O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi va bu qonun doirasida ko‘plab ishlar amalga oshirildi [5]. Muammoning shahar ekotizimida ko‘lami qanday ekanligini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovda javob bergan respondentlarning 36 foizi “atrof muhitni turli chiqindilar bilan ifloslanishi” deya javob berishdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, xali-hanuz bu muammo to‘laligicha o‘z yechimini topgani yo‘q. Oxirgi uch yilda mamlakatimizda chiqindilar borasida qonuniy choralar ko‘rish kengaytirildi. 2019 yil 6 fevralda “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 95-sonli qarori, 2020-yil 29 sentyabrda “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4845-sonli Qarori, 2019-yilning 30-oktyabrida “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №5863 sonli Farmoni shular jumlasidandir. Bundan tashqari 2021-yil 28 yanvarda “Qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 40-sonli qarori xali kuchga kirmagan bo‘lsada shahar ekotizimidagi chiqindilar muammosi yuzasidan olib borilgan eng muhim choralardan biri bo‘ldi [5]. Biroq “Aholi tomonidan bu qonunlarning ijrosi qay darajada amalga oshmoqda? Aholi chiqindilar muammosiga echim topishga harakat qilayaptimikan?” degan savol shahar ekotizimini boshqaruvidagi og‘riqli nuqtadir. Shu sababli chiqindi muammosini sotsiologik nuqtai nazardan ham o‘rganish maqsadga muvofiq. O‘tkazgan sotsiologik so‘rovimizda respondentlarga “Siz yashaydigan xududda qanday chiqindi bilan bog‘liq muammo mavjud?” deya murojaat etilganida respondentlarning 53 foizi chiqindi bilan bog‘liq muammo yo‘qligini aytishgan bo‘lsa, 42 foizi esa “ko‘chalarda chiqindilarni tashlab ketish muammosi” degan javobni, 5 foizi esa “Hududimizda axlatlarni yig‘ish va olib ketish tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi” degan javobni ko‘rsatishgan. Tadqiqot natijasi ko‘chalarda chiqindilarni tashlab ketish muammosi shaharimizda hali yetarlicha o‘z yechimini topmaganligini ko‘rsatadi.

Sankt Peterburg mustaqil sotsiologik tadqiqotlar markazi xodimlari Olga Brednikova hamda Olga Tkach o‘z tadqiqotlarida “Shahar kvartirasida asosan eski narsalar,chiqindilar uydan olib tashqariga tashlanadi, uy ichkarisida esa chiqindi idishlari oshxonaga joylashtirilgan (kamdan-kam hojatxonada) bo‘ladi . Shuningdek, chiqindi qutilarining usti mahkam bo‘lib, hatto begonar ko‘zi tushmaydigan joyda bo‘ladi. Bir martali ishlatiladigan chang torbalar qo‘shimcha chiqindining izolatsiyasini ta’minlaydi, hatto axlat qutisining o‘zini ifloslanishdan himoya qiladi” deya ta’kidlashadi. Olga Brednikova hamda Olga Tkachlarning kuzatuviga ko‘ra qishloq aholisi esa narsalarni chiqindiga tashashda juda diqqatlidir [6, 338-344 betlar]. Darhaqiqat, ko‘p qavatli binolarda istiqomat qiluvchilarning deyarli hammasi chiqindilarni satillarda yoki maxsus idishlarga tashlashadi. Ba’zi ko‘p qavatli binolarning yonida bir martalik ishlatiladigan salafanda turli chiqindiga to‘la tashlab ketilganlik holati insonni jahlini chiqaradi. Nahotki, xonadonini asrab chiqindisini salafanga solib, hatto chelagini rasvo bo‘lishini istamagan kimsalarga atrof muhitning ifloslanish holati qiziqtirmasa. Ayrim hollarda texnika vositalarining ham ko‘chada yotganligini kuzatish mukin. Bu borada Olga Brednikova hamda Olga Tkachlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlari o‘rinlidir. Anonim so‘rovnomada aholini chiqindilarga qarshi kurashishda olib borayotgan faoliyatini aniqlash maqsadida “Siz tomoningizdan shahardagi chiqindilar muammosini bartaraf etishda qanday chora ko‘rilayapti?” degan savol qo‘yilganida respondentlarning aksariyati ushbu savolga javob bermaslikni avfzal bilishgan. Javob berganlarning 48 foizi esa “chiqindilarni saralamasam ham ularni maxsus chiqindi punktiga olib boraman” deb, 40 foizi “ko‘chaga chiqindilarni tashlamayman” deb, 33 foizi “chiqindilarni saralab, so‘ng maxsus chiqindi punktiga olib boraman” deb javob berishgan. Respondentlarning 7 foizining “hech qanday chora ko‘rmaganman va bu haqida o‘ylab ham ko‘rmaganman” degan javobi shahar ekotizimi boshqaruvida bu muammoga e’tiborni yanada kuchaytirish lozimligini ko‘rsatadi.

Shaharlarda ko‘p kuzatiladigan muammolardan yana biri ***shovqin*** bo‘lib, u ham ekologik, ham ijtimoiy muammo hisoblanadi, shuningdek, insonlarning sog‘lig‘iga jiddiy ta’sir etuvchi omillardan biridir. Bilamizki, 2 dan 20 Db gacha bo‘lgan shovqinning inson sog‘lig‘iga salbiy ta’siri yo‘q, biroq undan yuqorisi insonlarda turli xil kasalliklarni shakllantirishi mumkin. Aytaylik, uyqusizlik, asabiylik, xotiraning pasayishi va xokazo.

Shahar hududlaridagi shovqin tabiiy va antropogen manbalariga ko‘ra farqlanadi. Aytaylik, zilzilaning tovushi, dengizning tovushi, kuchli shamol tufayli yuzaga keladigan shovqinlar tabiiy shovqinlardir. Biroq, bekatlarda transport xodimlarining mijoz chaqirishi natijasida yuzaga kelgan shovqini, bozorlarda o‘z mahsulotini reklama qilayotgan savdogarlar shovqini, janjal asosida yuzaga kelgan shovqin, konsertlardagi shovqin antropogen manbalariga misoldir.

Shuningdek, shahar hududlaridagi shovqinning kelib chiqish manbalariga ko‘ra yana ikkita asosiy guruhga ajratish ham mumkin ekan: majmuaviy shovqin manbasi va mustaqil shovqin manbasi. Mustaqil shovqin manbasiga ayrim transport vositalari, ventilyatsiya tizimi, energetik korxonalar yoki sanoat qurilmalari kiradi. Majmuaviy shovqin manbasiga sport va o‘yin majmualari kiradi [7, 28 bet]. Majmuaviy manbalarga qo‘shicha ravishda bozorlarni, bekatlardagi holatni, istirohat bog‘larni ham kiritish mumkin. Biroq barcha shaharlardagi shovqinning manbasi ba’zi hollarda bir xil yoxud farqli ekanligini ham inobatga olishimiz lozim.

Xususan, Rossiya Fediratsiyasidagi Koluge shaharining ko‘chalarida qatnayotgan transport vositalarining ichida yengil avtomobillar, mikroavtobuslar va avtobuslar qatnovi ko‘proq bo‘lib, aynan ular shahardagi shovqinni yuzaga keltirayotganligi o‘rganilgan. [8, 80-83 bet ]. Deyarli ko‘pchilik shaharlarda asosan transport vositalari shovqin manbasi ekanligini kuzatish mumkin. Biroq, sport va o‘yin majmualari esa hamma shaharlarda ham shovqin manbasi bo‘la olmaydi. Demak, boshqaruv tizimida shahar ekotizimidagi ayrim shovqin manbalari ustidan nazorat o‘rnatish va tartibga solish muhimdir. Mamlakatimizda 2020-yil 29-dekabrda qabul qilingan “Turar joylarda, jamoat binolarida, aholi yashash hududlarida va dam olish zonalarida ruxsat etilgan shovqin darajasining sanitariya qoidalari va me’yorlari” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining 0008-20-sonli Qarori shovqin muammosiga qaratilgan eng yaxshi choralardan biri bo‘ldi [5]. Qarorda shuningdek, kunduzgi vaqtda 80dBA dan yuqori darajada shovqin hosil qiladigan shovqinli transport vositalarini harakatlanishini cheklash choralari ko‘rilishi mumkinligi transport vositalari shovqin manbasini jilovlashda eng samarali ish bo‘ldi, desak adashmagan bo‘lamiz. Zero, yengil avtotransportda magnitafon ovozini keragidan ortiq kuchaytirib, shahardagi shovqinning ortishiga sababchi bo‘lgan insonlar ham mavjud. Samarqand shahari hududlarida “shovqin” qay darajadagi muammo ekanligini aniqlash shahar ekotizimi boshqaruvida eng muhim vazifalardandir. Shu maqsadda anonim so‘rovnomada “Siz uchun shovqin shahrimizda yuzaga kelgan muammolardan biri bo‘la oladimi?” ,“Siz yashaydigan hududda shovqin sizni bezovta qiladimi?”, “Sizningcha shaharimizda shovqinni keltirib chiqaruvchi manbalar..” kabi savollar qo‘yildi. Bu savollarga berilgan javoblar shahar uchun bu jiddiy muammo ekanligini ko‘rsatmoqda. Xususan, birgina “Siz uchun shovqin shahrimizda yuzaga kelgan muammolardan biri bo‘la oladimi?” degan savolga 25 foiz respondentlar “Ha, bu men uchun jiddiy muammo”, 13 foizi “Ba’zan tinchligim buzilganida muammodek tuyuladi”, 27 foizi “Shovqinning qanaqaligiga qarab”, 6 foizi esa “Shovqinning qayerda bo‘lishiga qarab” degan javobni ko‘rsatishgan.

Yana bir shahar ekotizimidagi muammolardan biri ***elektromagnit nurlanish*** bo‘lib, biroq uni ko‘zga ko‘rinmaganligi, eshitib bo‘lmasligini inobatga olsak shahar aholisi tomonidan muammo sifatida ko‘p ham inobatla olinavermaydi. To‘g‘ri, insonning o‘zi ham elektromagnit to‘lqinlariga ega, biroq bir vaqtning o‘zida yana boshqa manbalardan kelayotgan elektromagnit nurlari inson tanasiga og‘irlik qilishi va salomatligiga zarar yetkazishi mumkin. Tojikistonlik olimlardan F.I. Odinayev, Sh.F. Odinayev, Sh.I. Shafiev, S.V. Shutovalar elektromagnit nurlarining texnogen manbasi inson elektromagnit to‘lqinlariga qaraganda ancha kuchli ekanligini va u insonning shaxsiy bioritmini buza oladi, deya ta’kidlashadi [9, 1716 bet ].

Hududiy olib qaraganimizda qishloq hududlariga qaraganda shahar hududlarida aholi elektromagnit nurlarini uzatuvchi manbalardan kundalik hayotida ko‘proq foydalanishini kuzatish mumkin. Shu sababli shaharda iste’qomat qiluvchi aholiga elektromagnit nurlarini uzatuvchi manbalarning zararli jihatlari ham borligini aytish va ulardan tartibli holda foydalanishi lozimligini ogohlantirish bu muammoga kurashda o‘rinli jarayondir. Biroq, buning uchun avval aholi qanday elektromagnit nurlarini uzatuvchi manbalar qurshovida ekanligini o‘rganish lozim. Bilamizki, texnika vositalari insonlarning ishlarini yengillashtirib, ko‘pgina qulayliklarni yaratmoqda. Biroq, ularning salbiy ta’siri to‘g‘risida esa ma’lumotga egamikanlar? Dastlabki sotsiologik so‘rovda “Sizningcha texnika vositalari inson sog‘lig‘iga zarar etkazadimi?” degan savolga 44 foiz respondent “Xa, zarar etkazadi” deb, 49 foizi “qanday ishlatishga bog‘liq” degan javobni tanlashgan. Biroq respondentlar orasida “Yo‘q zarar etkazmaydi” deb xisoblovchilar ham mavjud bo‘lib ular 7 foizni tashkil etmoqda. Ko‘rinib turibdiki, Samarqand shahri aholisi uchun elektromagnit nurlanish muammosi ham mavjud. Shu sababli dastavval Samarqand shahri aholisining texnik vositalari bilan ta’minlanganlik darajasini o‘rganishni maqbul bildik. So‘rovnomada qatnashgan respondentlarning javoblari quyidagi natijani ko‘rsatdi (1jadval).




Epidemiologik vaziyatni shakllantiruvchi ***og‘ir kasalliklar*** ham ekologik muammo sifatida shahar ekotizimidagi insoniyat olamiga, shahardagi barcha zonalarga, sohalarga birdek ta’sir etuvchi va insoniyatni tahlikaga soluvchi muammodir.

Epidemiologik vaziyatni shakllantiruvchi kasalliklar afsuski faqatgina bugun paydo bo‘lgani yo‘q. Tarix sahifalarini varoqlar ekanmiz, ayrim shaharlarda turli xil kasalliklar avj olib epidemiologik vaziyatni shakllantirganini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, 1506-1508 -yillar Novgorod va Pskov shaharlari chumo epidemiyasiga mubtalo bo‘lishgan, natijada esa 15 ming kishi dunyodan ko‘z yumgan. 1892-yilda esa dunyodagi 21 ta davlatda xolera kasalligi kuzatilgan. Bu pandemiya holati Germaniyada 267 ta, Avstriyada 35 ta shaharni sarosimaga solgan [10. B.294-297].

Bugun esa dunyodagi barcha shaharlarni tahlikaga soluvchi Covid-19 koronavirusi pandemiya deya e’tirof etilmoqda. 2021-yil 23 fevral holatiga ko‘ra O‘zbekistonda 79717 ta ushbu kasallik bilan og‘rigan fuqarodan 78185 tasi sog‘ayib, 910 tasi esa davolanmoqda[11]. Afsuski, Covid-19 koronavirusi tufayli dunyodan ko‘z yumgan fuqarolarimiz ham mavjud bo‘lib, ular 622 kishini tashkil etmoqda [12]. Dunyo bo‘ylab olib qaraganimizda esa Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2 million 462 mingdan ortiq insonlarni tashkil etmoqda [11].

2021-yil 22 fevral holatiga ko‘ra kasallanish holatini o‘rganish jarayonida Andijon (3), Farg‘ona (1), hattoki Toshkent viloyatiga (15) nisbatan olinganda ham Toshkent shahrida kasallanish holati (17) yuqori ko‘rsatgichni ko‘rsatmoqda[11]. Ushbu natijalar Toshkent shaharining ekotizimini boshqarishga yanada jiddiy e’tibor berish lozimligini ko‘rsatadi.

Bu kasallik dunyodagi barcha shaharlarning ekotizmiga jiddiy zarar yetkazdi, desak adashmagan bo‘lamiz. Birgina dastlabki karantin e’lon qilingan vaqtda barcha shahar zonalaridagi faoliyatning to‘xtatilgani insonlarga ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham ijtimoiy, ham psixologik jihatlama ta’sir etgani hammaga ayon. Shu sababli, shahar ekotizimini boshqaruvida ushbu kasallikga nisbatan qonuniy choralar ko‘rilmog‘i lozim. Ko‘pgina davlatlarda, shu jumladan O‘zbekistonda ham, shahar ekotizimini boshqaruvida ushbu muammoga bir talay qonuniy choralar ko‘rildi.

Shahar ekotizimidagi muammolar ichidan joy olgan ***ma’naviy tubanlashish*** muammosi ham eng dolzarb muammolardan biridir. Afsuski, ham shahar taraqqiyotiga, ham mamlakat taraqqiyotiga, ham millat taraqqiyotiga bolta uruvchi ushbu muammo ba’zi taraqqiy etgan shaharlarda avj olgani sir emas. Vatanparvarlik, millatparvarlik kabi ma’naviy fazilatlar haqida gapirganimizda zo‘ravonlikni, bosqinchilikni, yovuzlikni ko‘ngliga tugib va uni amalga oshirayotgan kimsalar shahar ekotizimning eng og‘riqli nuqtasidir. Ushbu og‘riqli nuqtani biz bugun topib aniqlamasak, unga davo choralarini ko‘rmasak, shahar ekotizimi taxlikada qoladi, shahar aholisi esa halovatini yo‘qotadi.

Zo‘ravonlik, yovuzlik, bosqinchilik kabi ma’naviy tubanlashish holatlari hali ham jamiyatimizda bor ekan, kelajak avlodning taqdiri qanday bo‘lishi insonni qo‘rqitadi ba’zan. Birgina zo‘ravonlik muammosini qarasak, uning bir qancha ko‘rinishini ko‘rishimiz mumkin: jinsiy, iqtisodiy, ruhiy va jismoniy. Jismoniy zo‘ravonlikni 79,4 foizdan 92,4 foizgacha vaqtincha ishsizlar va mavsumiy ishchilar tomonidan sodir qilinishini [13, 51 bet] inobatga olsak, shahar ekotizimida aholining bandligini ta’minlash boshqaruvda asosiy vazifalardan biri ekanligini ko‘rish mumkin. Biroq zo‘ravonlikni moliyaviy pul ishlash manbasiga

aylantirish darajasiga borgan ma’naviy tuban insonlar ham bor. Zo‘ravonlikni qo‘lidagi telefon aparatiga tasmaga olib, internetga joylab, kuzatuvchilarini ko‘paytirayotgan shaxslar aynan o‘sha toifaga kiradilar nazarimizda. Mamlakatimizda jinsiy zo‘ravonlik holati ham mavjud bo‘lib, 2020 yil ko‘rsatgichiga ko‘ra 217 ta erkak tomonidan sodir etilgan holat nomusga tegish va nomusga tegishga urinish deb baholandi. 2020 yil ko‘rsatgichiga ko‘ra mamlakatimizda 728 ta talonchilik va bosqinchilik holati aniqlanib, shundan 43 tasini ayollar, 685 tasini erkaklar tashkil etadi [5]. Mamlakatimizda tobora insonni o‘zini namoyon qilishi uchun imkoniyatlarning kengayib borishi va bu borada islohotlarning ko‘payishiga qaramasdan, ayrim jinoyatlarning yildan-yilga ko‘payib borayotgani esa insonni hayratga solmoqda (2 jadval).

| ***Jinoyat turi*** | **2019 yil kishi soniga ko‘ra** | **2020 yil kishi soniga ko‘ra** |
|---|---|---|
| | | |
| **nomusga tegish va nomusga tegishga urinish** | 208 | 728 ta |
| **talonchilik va bosqinchilik** | 664 | 728 |
| **badanga qasddan og`ir jarohat yetkazish** | 1034 | 1225 |

***2-jadval.Jinoyatning ko‘payish ko‘rsatgichlari***
***(https://stat.uz da keltirilgan ma’lumotlar asosida tayyorlandi).***

Jinoyat sodir etish holatining ko‘payishi shahar ekotizimiga jiddiy muammodir. Toki bu muammo judayam avj olib ketmasidan boshqaruv tizimida jiddiy chora ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

Shahar ekotizimini boshqarishda ekologik zonalarga ham katta ahamiyat berish lozim. Xususan, bu borada bir qancha olimlar o‘z fikr mulohazalarini bildirishgan. Shunday olimlardan biologiya fanlari nomzodi D.SH.Yodgorova, L.SH.Egamberdiyeva, D.O.Azimovalar shahar hududini aholi turar joylari, sanoat korxonalari, kommunal xo‘jalik obyektlari, omborxonalar, tashqi transport shahobchalari va dam olish zonalariga bo‘lgan [14]. Shahar ekotizimini boshqarish jarayonida ushbu zonalarning har qaysida o‘ziga xos ekologik muammoga duch kelish mumkinligini unutmaslik lozim.

Shaharlarda olib boriladigan to‘g‘ri boshqaruv jarayoni mamlakatdagi boshqaruv jarayoninng rivojlanish tendensiyalarini o‘rganishga yordam beradi. Bu borada mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining faoliyatini erkinlashtirish ham katta ahamiyatga ega. Zero, mahallalardagi ayrim muammolarga shu mahallada istiqomat etuvchilarning kuchlari, zakovati va shaxsiy resurslari orqali ham yechim topish mumkin. Mamlakat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar esa doim ham muammolarni yechimida yetarli bo‘lmasligini unutmasligimiz lozim.

Har bir mintaqada hal qilinadigan muammolar yechimi boshqaruv idoralarining vazifalariga mos bo‘lishi lozim [15].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sotsiologik tadqiqotlarni olib borish orqali shahar ekotizimidagi muammolar ko‘lamini o‘rganish mumkin. Olib borilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalari esa shahar ekotizimini boshqaruvida ko‘makchi dasturdir. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra shahar ekotizimini boshqaruvida muammolarni o‘rganish va ularga yechim berishda quyidagi beshta vazifaga e’tibor berish lozim.

Birinchidan, shahar hokimiyati qoshida sotsiologik markaz shakllantirish va barcha shaharlardagi sotsiologik markazlarni poytaxtda joylashgan bosh markazga buysundirilishi shahardagi kichik muammolarni aniqlashda quyiladigan ildam qadam bo‘ladi. Shuningdek, bu sotsiologik markazlar shahar ekotizimini boshqaruvida mahallalar kesimida sotsiologik so‘rov o‘tkazib borishi, muammolar ko‘lamini o‘rganib borishi lozim. Aytaylik, chiqindi muammosi bo‘ladigan bo‘lsa, sotsiologik so‘rov orqali aynan kim atrof muhitni ifloslanishida sababchi bo‘layotganligini aniqlash va o‘sha insonga nisbatan nazoratni kuchaytirish lozim.

Ikkinchidan, texnika vositalari sotuvida uning foydali jihatlari bilan birgalikda zararli omillari ham haridorlarga aytilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Texnika vositalaridan foydalanishda tartibli yondashish lozimligini tashuntirish lozim. Zero, bu bilan elektromagnit nurlanishdan aholini biroz bo‘lsa ham himoya qilgan bo‘lar edik.

Uchinchidan, shahar boshqaruvida ma’naviy tubanlashishga sababchi vositalarni aniqlash va ularni tag-tugi bilan yo‘q qilish lozim. Bunda vosita teleserial bo‘lsa uni dasturdan olib tashlash, biror bir dastur bo‘lsa uni cheklash lozim. Zero, ijtimoiy fanlar ko‘lamini kengaytirish ham bunga qaratilgan odilona choradir. Afsuski, oxirgi 3 yil jamiyatimizda ijtimoiy fanlarning mavqeyining tushishi quyidagicha muammolarning avj olishiga sababchi bo‘ldi, desak adashmagan bo‘lamiz.

To‘rtinchidan, shaharda xizmat ko‘rsatish sohalarining tekis joylashuviga erishish lozim. Bu borada ham sotsiologik so‘rov o‘tkazib, aholiga kerakli xizmat ko‘rsatish sohasini aniqlash va sharoit yaratib berish, kerak bo‘lsa shu sohani boshqarishni xoxlagan insonlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash lozim.

Beshinchidan, shaharda dam oladigan milliy bog‘larni ko‘paytirish lozim. Yashil daraxtlarga boy milliy bog‘larning ko‘payishi shahardagi aholiga ma’naviy dam olish bilan birgalikda, shahardagi ayrim muammolar(shovqin, chang, toza havo)ga yechim bo‘la olishini ham unutmasligimiz kerak.

**Adabiyotlar**


1. Gazinazarova S., Axmedov I., Muxamedgaliyev B., Xojiyev A. Ekologik xavfsizlik. – Toshkent, 2010. –B.28.
2. https://stat.uz
3. И.В. Щербакова. Социологическое исследованиние города: диогностика проблем и гражданская дипломатия. Портрет территории: аналитический журнал о комплексном развитии территории. Территории и планирование. №5 (29). С. 78
4. А.А. Иудин , Д.А. Шпилев. Основные проблемы современных немецких городов с точки зрения немецкой социологии города. Социология и социальная работа Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. Серия Социальные науки, 2009, № 4 (16), с. 69–77.
5. https://lex.uz
6. Ольга Бредникова , Ольга Ткач. «Грязная деревня» и «замусоренный город» (обыденные практики обращения с мусором в разных сообществах). Антропологический исследования . Форум №8 СТ.338, 344
7. Васильев А.В . Журнал NOISE Theory and Practice.2015 г. Ст. 28.
8. И. Н. Лыков, Т. С. Николаева, К. В. Рахимов. Экологические и социальные аспекты шумового загрязнения окружающей среды. Журнал Экология. №2, 2019. Ст.80.83
9. Ф.И. Одинаев, Ш.Ф. Одинаев, Ш.И. Шафиев, С.В. Шутовалар. Электромагнитные излучения и здоровье человека. Вестник ТГУ, т.20, вып.6, 2015. Ст. 1716
10. Прохоров Б.Б. Социальная экология. 3-издание. – Москва: Академия, 2008. – С.294-297.
11. http://ssv.uz/
12. https://coronavirus.uz/
13. Zo‘ravonlikdan jabrlanganlar huquqlarini himoya qilish va zo‘ravonlikning oldini olish. Uslubiy qo‘llanma / Sh. A. Pulatova, A. Sh. Murodov — Toshkent: Baktria press, 2020. –B. 51.
14. D.Sh.Yodgorova, L.Sh.Egamberdieva, D.O.Azimova. Shahar ekologiyasi. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2013. – B.13.
15. Токарева Е. А., Токарев А. А. Социальные, экологические, экономические проблемы и их взаимосвязь. Экономическая наука и практика: материалы V Междунар. науч. конф. (г. Чита, апрель 2017 г.). Чита : издательство Молодой ученый, 2017. В.10.


**UDK: 711.6:502**

## SOHALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGIDA SOTSIOLOGIK TADQIQOTLAR AMALIYOTI

**F. B. Fayziyeva**
*O‘zbekiston milliy universiteti*
*faro_fb@mail.ru*

**Annotasiya.** Maqolada amaliy sotsiologik tadqiqotlarning dolzarbligi tahlil qilingan bo‘lib, mamlakat rivojlanishida, turli sohalar faoliyatida sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti muhim omil sifatida ko‘rib chiqilgan. Amaliy sotsiologik tadqiqotlar samaradorligi va usullar haqida tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** amaliy sotsiologiya, sotsiologik tadqiqotlar, samaradorlik, metod, metodologiya, so‘rov, amaliyot, sotsial injenering, boshqaruv sotsiologiyasi, buyurtmachi, makro omil, mikro omil.

**Практика социологических исследований в эффективности деятельность различных сфер**

**Аннотация.** В статье анализируется актуальность практических социологических исследований и рассмотрена практика социологических исследований как важный фактор развития страны, функционирования различных сфер. Представлен анализ эффективности и методов прикладного социологического исследования

**Ключевые слова:** прикладная социология, социологические исследования, эффективность, метод, методология, опрос, практика, социальная инженерия, социология управления, заказчик, макро-фактор, микро-фактор.

**The practice of sociological research in the effectiveness of field activities**

**Abstract.** The article analyzes the relevance of practical sociological research and considers the practice of sociological research as an important factor in the development of the country, the functioning of various spheres. The analysis of the effectiveness and methods of applied sociological research is presented.

**Keywords:** applied sociology, sociological research, efficiency, method, methodology, survey, practice, social engineering, management sociology, customer, macro-factor, micro-factor

**Kirish**

Jahon miqiyosida amaliy sotsiologik tadqiqotlar bo‘yicha fundamental g‘oyalar va kontsepsiyalar XIX – XX asrlardan boshlab tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg‘otadi. Amaliy sotsiologik tadqiqotlar - ijtimoiy texnologiyalarning modellari, texnika, usullari va tartiblari majmuini ifodalovchi maxsus bilim turi bo‘lib, uning maqsadi buyurtmachilarga iqtisodiy yoki ijtimoiy samaraga erishish uchun amalda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berishdir. Uning sotsial boshqaruv tizimidagi o‘rni hozirgi kunda nihoyatda katta bo‘lmoqda. Mustaqillikdan oldingi davrlarda kadrlar xizmatlarining roli kadrlar hujjatlarini yuritish va hisobot berish bilan cheklangan.

Bugungi kunda jahon mamlakatlari qatori mamlakatimizda ham turli sohalar kabi, huquqiy va siyosiy sohalarda ham sotsiologik tadqiqotlarning dolzarbligi va muhimligi alohida omillar bilan belgilanmoqda. **Birinchidan,** huquqning ijtimoiy bog‘liqligi sohasida tadqiqotlar o‘tkazish, shuningdek Qonunchilik faoliyatining omillarini tadqiq etish qabul qilinayotgan qonunlar sifati va samaradorligini oshirishda muhim hisoblanmoqda. Bu esa, qonunchilikni isloh qilishni bugungi kunda qonun ijodkorligining demokratik amaliyotini va bevosita, Qonunchilik jarayonini takomillashtirishga qaratilgan qonunning umumiy sotsiologik kontsepsiyasini shakllantirmasdan turib tasavvur etib bo‘lmasligini anglatmoqda.

**Ikkinchidan,** sotsiologik tadqiqotlar ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyati ustidan parlament nazorati samaradorligini, parlamentning o’zi qabul qilgan qonunlarning holatini o’rganishga hamda rahbarlar va mansabdor shaxslarning o’zlari yetakchilik qilayotgan ish uchastkalarida qonuniylik printsipiga, qonun ustuvorligiga so’zsiz va aniq rioya qilishi ustidan javobgarligini oshirishga qaratilgan nazorat-tahlil faoliyati samaradorligini ta’minlovchi ta’sirchan yordamchi vositasi hisoblanadi.

**Uchinchidan,** sotsiologik tadqiqotlar fuqarolarning huquqiy va siyosiy madaniyatini, mamlakatimizda huquqiy ta’lim va ma’rifatni tubdan yaxshilash ishida beqiyos vosita hisoblanadi. [1.]

Albatta, ushbu maqsadlarda amaliy sotsiologik tadqiqotlar darajasini takomillashtirish muhim omil hisoblanadi. Jahon miqiyosida sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti bo’yicha, **ICC/ESOMAR** xalqaro kodeksi [2.] mavjud bo’lib, ushbu kodeks, jahon bo’yicha ijtimoiy va marketing tadqiqotlarini o’tkazish, ijtimoiy fikrni o’rganish va tahlil qilish amaliyoti uchun mo’ljallangan bo’lib, butun dunyo tadqiqotlar amaliyoti uchun qo’llaniladi. Kodeks asosan, tadqiqotlar amaliyotidagi ahloqiy qoida va normalarga asoslanadi. Lekin shuni aytib o’tish kerakki, aynan tadqiqotchi, sotsiolog himoyasi, ularning faoliyatining qonuniy asoslari dolzarbligicha qolmoqda. Bu esa, barcha mamlakatlarda sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti mavjud, tadqiqotlarga ehtiyoj bor, lekin faoliya sifatida mukammal emasligidan dalolat bermoqda.

Ko’plab tadqiqotchilar «Har qanday rahbar ish vaqtining 30% ni tadqiqotga bag’ishlashi kerak» [3,174-193], deya e’tirof etadi. Chunki, ish unumdorligi koeffitsienti yuqori tashkilotning rahbari amaliy sotsiologik tadqiqot usullarini qo’llagan tarzda, o’z natija va hulosalari asosida tashkilotni boshqaradi. Bunga misol tarzda, Ford kompaniyasi rahbarining tadqiqotlarini misol tarzda keltirish mumkin. Kadrlar xizmatidagi sotsiologlar ishining asosiy maqsadi kadrlar masalalarini hal qilishda inson omilini eng to’liq amalga oshirish uchun sharoit yaratish xisoblanadi. Lekin hozirgi kungacha barcha davlat tashkilotlarda sotsiolog shtati belgilanmagan. Chunki, "Sotsiolog" kasbi hali ham Mehnat vazirligining kasblar klassifikatoriga kiritilmagan, shu sababli korxona va muassasalarda sotsiologlarning shtat birliklari shakllantirilmagan.

Amaliy sotsiologik tadqiqotlarni olib boruvchi mutaxassislar asosan, iqtisodiy ahamiyatga ega bo’lgan marketing tadqiqotlari bilan cheklanmoqdalar. Sotsiologlar fikrini bilish va sotsiologik tadqiqotlarni o’tkazish bo’yicha buyurtmalari boshqaruv qarorlarini qabul qilishda umumiy amaliyot hisoblanadi. Shu asosida, sotsiolog boshqaruv faoliyatida ishtirok etadi, bu esa kadrlar siyosatida yaxshiroq qarorlar qabul qilishga va inson resurslaridan samaraliroq foydalanishga olib keladi.

O’zbekistonda boshqaruv faoliyati va qaror qabul qilish metodologiyasining sotsiologik tarkibiy qismi – sotsial bo’lib, uning mohiyati muhandislik yondashuvi va ilm-fan sig’imkorligi yuqori bo’lgan

texnologiyalardan foydalanishga asoslangan ijtimoiy voqelikni tadqiq etish va o'zgartirishga kompleks yondashuv sifatida belgilangan.

O.A.Urja sotsial injenering haqida gapirganda, shunday deydi: aynan u «sotsiologiya» va «boshqaruv»ni bog'laydigan ko'prik hisoblanadi.[4, 87-96]

E'tibor qaratadigan bo'lsak, Amerika sotsiologiyasida sotsial injenering tashqari «klinik sotsiologiya» atamasi ham qo'llanilib, uning vazifasi muayyan ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun biror ob'ektga amaliy aralashuvni o'z ichiga oladi. Lekin ijtimoiy klinik mutaxassisi oddiy xodimlar bilan ishlaydigan va muammolarni tahlil qilish usuli sifatida chuqurlashtirilgan intervьyudan foydalanadigan bo'lsa, sotsial injenering asosan yuqori turuvchi hokimiyat bilan ishlaydi.

Amalga joriy etishdan oldin keng qamrovli amaliy sotsiologik tadqiqotlar amalga oshirilib, ularning olib borish jarayonida turli usullardan foydalaniladi:

- hujjatlar tahlili, shu jumladan, ichki hujjatlar (xodimlarning kasbiy va malakaviy tarkibi, jins va yosh tarkibi, mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari, ish vaqti yo'qotishlari, kadrlar qo'nimsizligi va inson resurslari bo'yicha boshqa statistika ko'rsatkichlar);
- o'rta va yuqori lavozimdagi rahbarlar bilan noan'anaviy intervyular (erkin suhbat);
- ish joyida oddiy xodimlarni so'rovnomadan o'tkazish;
- quyi lavozimdagi boshqaruvchilar bilan standartlashtirilgan (an'anaviy) interv'yular (oldindan tayyorlangan savol-javoblar bilan).

Amaliy sotsiologik tadqiqotlarda allaqachon ishlab chiqilgan va aprobatsiyadan o'tgan vositalardan foydalanib, ularni muayyan tashkilot ehtiyojlariga moslashtiradilar. Usullarning bunday moslashuvi zarur, chunki to'plangan ma'lumotlarning sifati tayyor metodologiya tomonidan taqdim etilganidan ko'ra boshqa tanlov uchun ancha past bo'lishi mumkin. Sotsial injenering ishlab chiqilgan "ijtimoiy texnologiyalar" deb nomlangan vosita va usullardan foydalanadi.

Usullarni standartlashtirish g'oyasi amaliy sotsiologiyada eng qadimgi va keng tarqalgan g'oyalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy texnologiya, aslida, maqsadga erishishga olib keladigan harakatlarning muayyan ketma-ketligidir. Unda ishni kim bajarishi va qanday ish, qay tartibda, qaysi joyda, qanchalik tez-tez va har bir harakat natijasida nima olish kerakligi tasvirlanadi. Eng past iqtisodiy va vaqt xarajatlari bilan maqsadga erishish imkonini beradigan harakatlar va amallarni tanlash taxmin qilinadi. Bu standartlashtirish optimal qarorlar qabul qilish imkonini beradi. [5,19-22.]

Estoniyada va Kaluga zavodlarida joriy etilgan moslashuvchan ish jadvalini tartibga soluvchi ijtimoiy texnologiyaning misoli ham mashhur. Ishchilarga ish kuni chegaralarini (ishga kelish va ketish) va uning davomiyligini aniqlash huquqi beriladi. Shart shundan iborat bo'ladiki, hisobga olingan vaqt davomida qonun hujjatlarida belgilangan ish vaqtining umumiy soni to'liq bajariladi. Natijada Kaluga «Oka» ishlab chiqarish jamiyatida, ishdan bo'shatish xatlari soni 2,3-5.0 marta kamaydi, kadrlar ko'nimsizligi kamaydi, kechikib kelishlar butunlay yo'qoldi va kichik bolalari bo'lgan ayollar tomonidan ishlangan ish vaqtlari chorakka oshdi. [6, 207]

Amaliy sotsiologik tadqiqotlarda ijtimoiy texnologiyalardan foydalanishning ikki yo'li mavjud. Birinchisi, ishlab chiqilgan texnologiyalar mavjud bo'lganda va korxonada shunday holat yaratish kerakki (yoki bunday korxonani topish kerakki), ular ishlashi kerak. Ikkinchisi, tayyor ishlanmalar bo'lmasa-da, amaliy sotsiologik tadqiqot olib boruvchining faolligini belgilovchi ijtimoiy-madaniy holatning mavjudligi. Bunday holda, amaliy sotsiologik tadqiqotni olib boruvchi, ushbu vaziyatda ishlaydigan ishlanmalar va namunalarni qurishi kerak. Ijtimoiy texnologiyani qurish - bu ijtimoiy jarayonni va uni tartibga solish usullarini alohida tartibli operatsiyalar va qoidalar shaklida namoyish etish, uni amalga oshirish jarayoniga rahbarlik qilish va vaqti-vaqti bilan yangi talablarni qondirish uchun yangilashdir. Ya'ni, birinchi holatda, mavjud o'zgarishlar uchun holatni tashkil etish masalasi, ikkinchi holatda - mavjud holat uchun ishlanmalarni shakllantirish haqida masala turadi.

Ishlab chiqarishda amaliy sotsiologik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari nimalardan iboratligini tahlilini ko'radigan bo'lsak, sotsiologlar boshqa mutaxassislar bilan birgalikda quyidagi masalalarni hal qiladilar:

- monitoring o'tkazish; mehnat jamoalarini barqarorlashtirish; jamoalar tarkibini shakllantirish va o'zgartirish; ijtimoiy-psixologik moslashish;
- ijtimoiy tanglikni, nizolarni oldini olish, bartaraf etish; qulay ijtimoiy-psixologik iqlimni shakllantirish; yuqori malakali xodimlarning fazilatlarini baholash;
- xodimlarni tanlash va joylashtirishni ta'minlash;
- rahbarlik uslublarini tahlil qilish; xodimlarni boshqarishda ishtirok etish va mulkka birgalikda egalik qilish muammolarini hal qilish;
- ishni tashkil etishni takomillashtirish; xodimlarni rag'batlantirish va motivatsiyani rivojlantirish.

Inqirozga uchragan korxona sotsiologlarining vujudga kelgan holatiga baho berishi va kadrlarni amaliy tadqiqotlar asosida o'rganish natijalari tashkilotning xodimlarni boshqarish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturini inqirozli sharoitini asoslab berish tajribasi qiziqarlidir. Bunda qulay ijtimoiy-psixologik iqlim yaratish, xodimlar motivatsiyasi va sadoqatini boshqarish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. [7.]

Shuni ta'kidlash lozimki, amaliy sotsiologik tadqiqotlarning ishlab chiqarishdagi o'rni va roli masalasi aniq emas. Ularning nafaqat tarafdorlari, balki betaraflar ham bo'ladi. Bu texnologiyalar tarafdorlari standart texnika (ijtimoiy texnologiyalar)dan foydalanish, amaliy sotsiologik tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirish mumkin, deb hisoblaydi. Betaraflarning fikricha, ijtimoiy texnologiyalar moddiy ishlab chiqarishda foydalaniladigan texnologiyalar namunasi bo'yicha quriladi, bu esa ijtimoiy muammolarni hal etishda ularni samarasiz qilib qo'yadi, deb hisoblaydilar.

Amaliy sotsiologik tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish va ijtimoiy texnologiyalardan foydalanish eng murakkab muammolardan biri bo'lib, rahbar va xodimlarning sotsiologik savodxonligi pastligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Tadqiqot buyurtmachilari tashkilotning rahbarlari bo'lib, sotsiologik tadqiqotlarni qo'llash imkoniyatlaridan har doim ham to'liq xabardor bo'lmaydilar.

Olingan natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi, natijalarning haqqoniyligi, tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarning korxonaning rahbarlik amaliyotida qo'llanilishi va ushbu tavsiya asosida korxonaning ish samaradorlik koeffitsientining oshishi, aynan amaliy sotsiologik tadqiqotning samaradorlik natijasi hisoblanadi

Innovatsiyalarning samaradorligi ko'p jihatdan sotsiologik tadqiqotlarga asoslangan qaror va tavsiyalarni ishlab chiqishda korxona funktsional xizmatlari xodimlari va rahbarlarining qay darajada ishtirok etganliklari bilan belgilanadi. Amaliy sotsiologik tadqiqotlar orqali boshqaruv qarorlari loyihalarini ishlab chiqadi.

Ba'zida amaliy sotsiologik tadqiqotlardan olingan natijalar va tavsiyalar hatto bo'lishi mumkin. Bu, olib borilgan amaliy sotsiologik tadqiqotning samarasizligidan dalolat beradi. Quyidagi kasbiy kamchiliklar amaliy sotsiologik tadqiqot samaradorligini kamaytiradi:

1. (Agar tadqiqot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lsa) Ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini bilmaslik, bu esa amaliy tavsifdagi malakali tavsiyalar bera olmaslikka olib keladi.
2. Korxona xodimlari uchun tushunarli bo'lgan atamalar bilan tadqiqot maqsadlari va aniq usullarining o'ziga xos xususiyatlarini izohlab bera olmaslik.
3.Tadqiqotning o'ziga xos metodologiyaning maqsadga muvoffiq yaratilmaganligi.
4. Tadqiqot metodini to'g'ri tanlay olinmaganligi.
5. Tadqiqot maqsadidan chetga chiqib ketish.
6. Tadqiqot qatnashchilari bilan sog'lom aloqaning shakllanmaganligi.

O'zbekiston sotsiologik bozorida tadqiqot natijalari buyurtmachiga yoki kompaniya egasiga bog'liqligi haqidagi fikrlari bilan bog'liq nufuzga oid risklar kabi muammolar ham mavjud bo'lib, ular tadqiqot ishonchliligiga putur yetkazadi. [8.] Ijtimoiy texnologiyalar muvaffaqiyatli bo'lishi uchun quyidagi yo'nalishlarda dastlabki ishlarni olib borish kerak.

Birinchisi, ijtimoiy texnologiyalar bilan bog'liq innovatsiyalarga munosabatni aniqlash. Agar xizmat xodimlari va birinchi navbatda, ularning rahbarlari yangi ishga qarshilik ko'rsatishsa, innovatsiyalar amalga oshirilmaydi yoki kerakli samaraga ega bo'lmaydi. Bunday vaziyatlarda asosiy shart betaraflarni kamaytirishdir va bu ko'pincha sotsiolog vakolatidan tashqarida bo'lgan xizmatlarni boshqarishni o'zgartirishni talab qiladi.

Ikkinchisi zarur harakat - ijtimoiy texnologiyalarni joriy etish oqibatlarini aniqlash, jumladan, qarashlari ma'lum darajada ta'sir etiladigan yoki o'zgartiriladigan xodimlar guruhlarini aniqlashdan iborat. Turli xil qiyinchiliklar va to'siqlarni aniqlash mumkin.

Demak, amaliy sotsiologik tadqiqotlarlar va loyihalarning eng muhim masalasi ularning samaradorligi hisoblanadi.

Samaradorlik muammosida iqtisodiy va ijtimoiy samaralar farqlanadi. Ular o'zaro bog'liq, chunki ijtimoiy zaxiralarning amalga oshirilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarga nisbatan natijadorlikni oshirish imkonini beradi.

Bizga ma'lumki, insoniyat yuz bergan voqea-hodisalarni bir tomondan, nazariy jihatdan, ikkinchi tomondan esa ilgari surilgan g'oya, nazariy fikrlarni amaliyot natijalari orqali asoslab berishga harakat qilgan. Ijtimoiy yoki iqtisodiy faoliyat, ijtimoiy-iqtisodiy qonunlar ham real hayotda, amaliyotda yuz berayotgan munosabatlarni nazariy jihatdan asoslashni, ilgari surilgan nazariy fikrlar, takliflarni amalda qo'llash natijalarini o'rganishni ob'ektiv zarur qilib qo'yadi. Ma'lumki, dastlab amaliy sinovlar natijasida tajriba ortib hayotiy tafakkur rivojlanib borgan. Ya'ni hayotiy tafakkur ijtimoiylashuv jarayonida shakllanib boradi. Insonlar amaliy masalalarni yechishda oqilona maqsadga, natijaga asoslangan. Hayotiy tafakkur

ratsional tanlovning dastlabki qoidalarini aniqlash, ishlab chiqish imkoniga ega bo'lgan. Bu qonun-qoidalar xalq donishmandligi sifatida avloddan avlodga o'tib kelgan. Ularning ko'pi xalq maqollari, donishmandlarning o'gitlarida o'z ifodasini topgan. Masalan, o'rmonda o'tin bilan savdo-sotiq qilinmaydi, ko'l bo'yida esa baliq bilan. Hayotiy tafakkur o'zining tarixiy chegarasiga ega. Bu ko'p asrlik qo'l mehnatining hukmronligidir.

Samaradorlik mazmunini ta'riflashda uch: klassik, neoklassik yoki marjinal va neoinstitutsional yo'nalish namoyondalarining fikrlari farqlanadi. "Samaradorlik – bu to'g'ri maqsad qo'yib, uni amalga oshirish uchun manbalar sarflash orqali ijobiy natijaga erishishdir", [9,3] deya ta'rif keltiradi professor D.Tojibieva. Ya'ni maqsad, maqsadga erishishda to'g'ri manbani tanlash va bu orqali ijobiy natijaga erishish. Samaradorlik esa aynan ushbu natijaning ijobiyligi. Samaradorlikka jamiyat va uning hayotiy jihatidan qaraydigan bo'lsak, ijtimoiy samaradorlik sifatida, butun bir tizimning tutgan o'rnini tahlil etish mumkin. Ijtimoiy samaradorlik – bu xo'jalik faoliyatining natijalarini jamiyatning maqsadi va ehtiyojlariga, uning a'zolari manfaatlariga mos kelishini anglatadi.

Samaradorlikka iqtisodiyotni qamroviga ko'ra yondashsak, milliy iqtisodiyot (makro-miqyos), lokal (regionlar) darajada, hududiy (viloyatlar), mikromiqyosdagi (korxona, firma) samaradorlik sifatida qarash mumkin.

Taniqli iqtisodchi Y. Shumpeter samaradorlikka tadbirkorlik nuqtai nazaridan yondashib, resurslar uyg'unlashuvining eng optimal nisbatini topish orqali xarajatlarni pasaytirishga diqqat qaratadi. Uning tili bilan aytganda, tadbirkorning vazifasi ishlab chiqarish omillarini yangi nisbatlarini (kombinatsiyasini) izlab, vujudga keltirib, muqobil xarajatlarni minimal darajasida mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlashdir. Uni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Q = f\ (N:K:L).$$

Bunda: N –yer, K-kapital, L-mehnat. [10, 169-170].

Tashkilotlardagi amaliy sotsiologik tadqiqotlarning maqsadi – mehnat unumdorligining o'sishi, kadrlar qo'nimsizligining kamayishi, ish vaqtining yo'qolishi va mahsulot sifatini yaxshilash kabi inson omili bilan bog'liq faoliyat ko'rsatkichlarini yaxshilashdan iborat. Mehnatdan qoniqish darajasininig oshishi, ishga bo'lgan munosabat, ijtimoiy-psixologik iqlimni yaxshilash kabi tadqiqotlarning ijtimoiy samarasi pirovardida ham iqtisodiy samara beradi, chunki u xodimlarni boshqarish tizimidagi salbiy tendentsiyalarning kamayishiga olib keladi. Birgalikda to'g'ri olib borilgan bunday tadqiqotlar tashkilotni ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan samarali va raqobatbardosh qiladi. Boshqarish tizimiga kiritilgan sotsiologik usullar, boshqaruv qarorlarining yuqori sifatini ta'minlash, shu jumladan, kadrlar salohiyatini oshirishga ko'maklashadi.

**Xulosa**

Bugungi O'zbekiston hayotida yuz berayotgan jarayonlarni doimiy ravishda o'rganilishini amalga oshirish, aholining ommaviy ongini, aholining mamlakatda yuz berayotgan voqealarga munosabatini tahlil qilish, shuningdek olingan ma'lumotlar asosida kelgusi rivojlanishning tahliliy prognozlarini yaratish lozim. O'zbekiston aholisining ijtimoiy kayfiyatini o'rganish sotsiologik tadqiqotlarning ahamiyatini oshirish va qabul qilinayotgan siyosiy qarorlarda ularning rolini oshirish bilan bog'liq. Boshqaruvning turli tarmoqlari, idoralari ishida ijtimoiy fikrlarni hisobga olish zarurati bu demokratik davlatning asosiy alomatidir.

Sotsiologik axborotni olish, shuningdek uning to'g'ri talqin etilishi bu fuqarolar hayotini yaxshilash, huquqbuzarliklarning oldini olish, qonuniylik va huquqiy tartibot, shuningdek fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan to'g'ri qarorlarni o'z vaqtida qabul qilinishining kafolati hisoblanadi.

Asosan O'zbekistonda zamonaviy sotsiologiya sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar ko'lami, amaliy sotsiologiyadagi qo'llaniladigan metodlar ko'proq statistika bilan cheklanib qolmoqda, bu esa zarur ijtimoiy baholashni to'liq amalga oshirishga imkon bermaydi. O'zbekistonda amaliy sotsiologik tadqiqotlar davlat idoralari va turli konsalting markazlari tomonidan o'tkazilib kelmoqda, lekin shunday bo'lishiga qaramay ushbu sotsiologik tadqiqotlarning samaradorligini oshirish uchun to'laqonli bir mexanizm yaratilmaganligi asoslash mumkin.

O'zbekistonda amaliy sotsiologik tadqiqotlarning hozirgi vaqtda qo'llanilayotgan uslublari o'tkazilayotgan tadqiqotlar ko'pincha tor muammoning hal qilinishiga xizmat qilmoqda, shu bilan bir vaqtda talab qilinmay qolgan sotsiologik axborot ma'lum bir ma'lumotlar bazasida qolib ketadi. Bu esa, olib borilgan sotsiologik tadqiqotning past samaradorlikka ega bo'lishiga olib keladi. Olingan sotsiologik axborotdan barcha muassasa va xizmatlarning faoliyatini doimiy ravishda monitoring qilish, ularning ish sifatini aholi tomonidan qabul qilinishi va ularning faoliyatini o'z vaqtida to'g'rilash maqsadida ular uchun foydali ma'lumotlarning imkon tarzda mumkin bo'lgan hajmidan foydalanish zarur.

**Adabiyotlar**

1. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 2012 y. 29 avgustdagi 531-II-sonli qarori. Toshkent sh. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2012 y., 8-son, 230-modda
2. ICC/ESOMAR Xalqaro kodeks. 2016. https://iccwbo.org/
3. Yurasova M.V. Integrirovannые sistemы issledovaniy kachestva (kachestvo issledovaniy i issledovanie kachestva) // Vestnik M.: Ser. 18. Sotsiologiya i politologiya. 2014. № 1. b.174-193
4. Urja O.A. Sotsialьnaya injeneriya kak metodologiya upravlencheskoy deyatelьnosti // Sotsiologicheskie issledovaniya. 2017. № 10. b. 87-96.
5. Ubaydullayeva R.T. Gumanisticheskaya Sotsiologiya: Teoriya, metodologiya i metod. – Toshkent: Universitet. 2010. b.19-22.
6. Zaytsev A.K. Sotsiolog na predpriyatii: posobie praktiku. Kaluga: Kalujskiy in-t sotsiologii, 1993. b.207
7. Sotsialnaya injeneriya. http://evolkov.net/soc.engi-neering/articles/ What.is.soc. engineering. html.
8. Ubaydullayeva R.A., Ata-Mirzaev O.B., Ganieva M.X., M.X.Karamyan. Sovremennaya identichnost uzbekistantsev. – Tashkent: Ijtimoiy fikr, 2017.
9. Tojiboeva D. Camaradorlik va unga nazariy jihatdan klassik va neoklassik yondashuv “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 5, oktyabr, 2017 yil 3 b.
10. Shumpeter Y. A. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya.M.: Progress, 1983. –B.169-170.

**UDK: 297.1(575.1**

# ISLOM HUQUQI RIVOJIDA “USUL AL-FIQH”NING TUTGAN O‘RNI

**D. K. Nishanova**
*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi doktoranti*
*dnishanova@yahoo.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada islom huquqi asoslari keng yoritilgan bo‘lib, bunda ayniqsa “Usul a-Fiqh” ilmiga katta urg‘u berilgan. Shuningdek, muallif tomonidan islom manbalari ham batafsil sharhlanib, fiqh rivojida uning tutgan o‘rni tadrijiy holatda bosqichma-bosqich yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Islom huquqi, fiqh, faqih, “Usul a-Fiqh”, islom dini manbalari, mazhablar.

## Роль “Усула Аль-фикха” в развитии исламского права

**Анотация.** В статье рассматриваются основы исламского права с особым акцентом на науке усул аль-фикх. Автор также подробно комментирует исламские источники и постепенно объясняет свою роль в развитии фикха.

**Ключевые слова:** исламское право, юриспруденция, право, «усул а-фикх», исламские источники, секты.

## The role of “Usul al-fiqh " in the development of islamic law

**Abstract.** This article discusses the basics of Islamic law with particular emphasis on the science of usul al-fiqh. The author also comments in detail on Islamic sources and gradually explains his role in the development of fiqh.

**Keywords:** Islamic law, jurisprudence, law, usul a-fiqh, Islamic sources, sects.

Fiqh – Islom qonunshunosligi, Sharq xalqlari va islom madaniyati erishgan buyuk qadriyatdir. U nafaqat diniy-huquqiy va ma’naviy-axloqiy muammolarni, balki musulmonlarning butun turmush tarzini o‘z ichiga oladi [1: 209].

Islom huquqshunosligining asosini arab tilidan tarjima qilinganda “bilim”, “tushuncha” ma’nosini anglatuvchi “fiqh” iborasi tashkil etadi [13: 213]. “Fiqh” so‘zi lug‘atda “fahmlamoq”, “anglamoq”, “tushunmoq” kabi ma’nolarni aks ettirsa-da, u faqat bilish emas, balki chuqur anglash, mukammal va mufassal tushunishdan dalolat beradi. Shunday qilib, “faqih”, ya’ni fiqh olimi shariat humlarini bilishi, yod olishi bilan birga ularning barcha sabab va hikmatlarini chuqur bilgan hamda shariat asosining maqsadlarini anglagan bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham shariat hukmlarini sodda uslubda bilgan kishi olim deyilsa ham, faqih hisoblanmaydi.

Al-fiqh haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, u boshqa islom fanlariga qaraganda ancha oldin paydo bo‘lganligini alohida ta’kidlash lozim. Zamonaviy huquqshunoslikning barcha asosiy yo‘nalishlarini (fuqarolik, oilaviy, jinoiy, ma’muriy yoki konstitutsiyaviy huquq) garchi turlicha nomlansada, aslida ular

fiqhning turli sohalari deyish mumkin [18: 21]. Al-fiqhning bir qismi namoz oʻqish va boshqa diniy amallarni bajarish qoidalariga bagʻishlangan, ikkinchisida esa har bir musulmon hayotida zarur boʻlgan amaliy qoidalar kiritilgan.

Fiqh ilmi taraqqiyot yoʻlida bora-bora oʻziga xos mustaqil mohiyatga ega boʻlib, qiroat, tafsir va hadis ilmlaridan ajralib chiqqan [8: 23].

Islom huquqi Qur’oni Karimda keltirilgan adolat tamoyillari va bir necha qoʻshimcha manbalar asosida shakllangan. U inson va jamiyat hayotining turli sohalarini tartibga soladi, insonlarning oʻzaro hamda hokimiyat bilan munosabatlarini muvofiqlashtirib boruvchi huquqiy mezonlardan iboratdir.

Shar’iy hukmlar olinadigan *muttafaq* manbalar toʻrtta boʻlib, tartib boʻyicha quyidagicha, ya’ni Qur’on, sunnat, ijmoʻ va qiyos ekanligiga toʻrtala ahli sunna mazhabidagi islom ulamolari hamfikr ekanliklarini izhor etganlar [1: 7]. Ibn Xaldunning ta’kidlashicha, ijmoʻ va qiyos sahobalar zamonida topilgan va ular bilan fiqh usullari toʻrttagacha etib bordi [11: 359].

Mazkur toʻrtta asosiy manbaning haqqoniyligiga hamda shu tartibda kelishiga Qur’oni Karimning Niso surasi, 59 oyati dalildur:

Ya’ni, “Ey imon keltirganlar! Allohga itoat etingiz, Paygʻambarga va oʻzlaringizdan (boʻlmish) boshliqlarga itoat etingiz! Bordi-yu biror narsada (din ishida) kelisha olmay qolsangiz – Allohga va oxirat kuniga ishonadigan boʻlsangiz – uni Allohga va Paygʻambariga havola qilingiz. Mana shu yaxshiroq va echimi chiroyliroq (ish) dir” [15: 87].

Usul al-Fiqh uchta usul asosida amalga oshiriladi va ularning oʻziga xos xususiyatlari mavjud.

A) - al-Fuqaha (fakih soʻzining koʻpligi - huquqshunos) - hanafiy mazhabi.

B) - al-Mutakallimun (mutakallim soʻzining koʻpligi - ilohiyotchi) - Shofiiy mazhabi.

B) - al-Mamzudj (aralash) [14: 11].

Ushbu birikmada “Usul” soʻzining “dalil” ma’nosida ishlatilishi maqsadga muvofiqdir, chunki fiqh ratsional ravishda dalillarga asoslangan [21: 14].

Bundan tashqari, bir nechta *muxtalaf*, ya’ni ba’zi mazhab egalari ularning manbaligini e’tirof etsalar, ba’zi bir mazhab egalari e’tirof etmagan manbalar ham bor [1: 7].

Musulmon huquqi - bu moslashuvchanligi bilan ajralib turadigan va yuzaga keladigan har qanday muammoni har tomonlama koʻrib chiqishni talab qiladigan jonli, umumbashariy ta’limotdir [13: 42]. Huquqshunoslikni chuqur bilish ulamolarga ustuvorlikni toʻgʻri belgilashga, murakkab muammolarni izchil hal qilishga, kerak boʻlganda e’tiqod tamoyillarini himoya qilishga va ruxsat etilgan joylarda diniy amaliyotni osonlashtirishga imkon beradi.

Musulmon huquqi oʻzida Sharqning avvalgi huquqiy madaniyatlari elementlarini, ya’ni huquqiy urf-odatlar va an’analarni aks ettirgan. Ummaviylar sulolasi davrida ham Eron huquq tizimining institutlari, shuningdek, Vizantiya va qisman Rim huquqi ham qoʻllanilgan. Shariat arkonlarining yaratilishida Sharq va Gʻarb sivilizatsiyalari oʻrtasidagi ushbu bogʻliqlik qisman boʻlsa-da seziladi. Islom huquqidagi qonun me’yorlariga paygʻambar va undan keyingi toʻrtta solih xalifa asos solgan. Shuningdek, paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v.) ning hukmlari, soʻzlari va amallarini sharhlash orqali musulmonlarning muqaddas kitoblari - Qur’on va Sunan toʻplangan.

VIII asrda shariat ijtimoiy munosabatlarning feodal shakllari bilan toʻqnashganda, u ilohiy huquqiy tafakkurdan – ratsionalistik, huquqiy me’yorlarni qabul qilishning tasodifiy usullaridan – mantiqiy-tizimli qoidalargacha boʻlgan transformatsiya jarayonlarini bosib oʻtdi. Biroz vaqt oʻtgach, IX asrda huquqshunos olimlar musulmon huquqiga me’yoriy xatti-harakatlarni oqilona baholashni kiritadilar, ya’ni insonning amallari huquqiy xatti-harakatlar sifatida baholanadi, ammo bu Qur’on va Sunnatda bayon qilingan konservativ asoslardan ajralib turishni anglatmaydi. Oʻz mamlakatidan tashqarida boʻlgan har qanday musulmon Islom asoslarini kuzatishi va hurmat qilishi kerak edi. Asta-sekin Islomning tarqalishi bilan shariat dunyo huquqiy tizimiga aylandi. Bu uni Gʻarbiy Yevropa davlatlarining oʻziga xos xususiyati, cheklangan harakatlar doirasi va ichki kelishmovchilik bilan ajralib turadigan qonunlaridan ajratib turardi.

Shuningdek, shariat qonunlari Yaqin va Oʻrta Sharq chegaralaridan tashqarida, Markaziy Osiyo va Kavkazorti oʻlkalariga, Shimoliy, shuningdek qisman Sharqiy va Gʻarbiy Afrikaga, Janubi-Sharqiy Osiyodagi bir qator mamlakatlarga yoyildi. Biroq, islom va shariatning bunday keng tarqalishi individual yuridik institutlarni talqin qilishda va huquqiy nizolarni hal qilishda oʻziga xos xususiyatlar va farqlarning paydo boʻlishiga olib keldi. Keyinchalik Islomda ikkita asosiy yoʻnalish paydo boʻldi [12: 40].

Shariatda boʻlinish bu – sunniylik va shialik edi. Ushbu sohalar oʻrtasidagi kurash davlat va jamiyat hayotining turli jihatlariga oid huquqiy normalarda aks ettirilgan. Masalan, shialar davlat hokimiyatini meros orqali oʻtkazish, dunyoviy va diniy hokimiyatni ruhoniylar - imomlar qoʻlida mustahkamlash tarafdori edilar. Shialar faqat Xalifa Ali hukmronligidan kelib chiqqan afsonalarni tan olishgan [25: 207]. Sunniylar vakillari oʻz navbatida mustaqil yuridik maktablarga boʻlinib, taniqli

musulmon huquqshunoslari: Hanifiylar, Molikiylar, Shofe'iylar, Hanbaliylar nomi keng shuhrat qozondi. Ulardan eng keng tarqalgani Misr, Turkiya, Hindistonda joylashgan hanifiy yuridik maktablari edi.

Shialik ham bir qator mustaqil maktablarga boʻlingan [9: 69]: Ismoiliylar, Ja'fariylar va Zaidilar. Haddan tashqari keng qamrovli fikrlash va islom amaliyoti odamlarning Qur'on asoslarini tushunishiga nisbatan ba'zi tartibsizliklarni yuzaga keltirdi. Zero, shariatning asosiy gʻoyasi - hayot sharoitining oʻziga xos xususiyati shundaki, u faqat musulmonga va musulmonlar oʻrtasidagi munosabatlarga tegishli.

Shariat kodeksi uch qismdan iborat: *ibodat* (diniy ibodat bilan bogʻliq vazifalar), *muamalat* (sof huquqiy normalar) va *uqubat* (jazo tizimi). Bunda qoidalar qat'iy oʻrnatilgan boʻlib, ular oila va jamiyatdagi inson munosabatlarining barcha me'yorlarini belgilaydi, fuqarolik huquqiy munosabatlarini, mulkiy nizolarni hal qilish jarayonini tartibga soladi. Shariat qonunlarini buzganligi uchun muayyan jazo tizimi ham mavjud edi.

Musulmon huquqida shariatning asosiy birligi fiqhdir (musulmonlarning xulq-atvor qoidalari toʻgʻrisidagi ta'limoti, shuningdek, ijtimoiy me'yorlar majmuasi), uning rivojlanish jarayoni bir necha bosqichdan iborat [24: 142].

*Birinchi bosqich* – paygʻambarimiz Muhammad ibn Abdulloh (s.a.v.) (610–632 milodiy) ning islom yoʻlidagi faoliyatlari davri. Oʻsha paytdagi musulmon qonunlarining yagona manbai Qur'on boʻlib, keyinroq Sunnat ham paydo boʻlgan edi. Qur'on shariatning shakllanishiga asos boʻlgan va bu asosni paygʻambar tomonidan kundalik hayotda (sunnatda) qoʻllanilishi Qur'onda belgilangan asoslarni tushuntirishdan iborat edi. Shunday qilib, islom huquqi axloqsizlik, zino, mastlik, sudxoʻrlikni ta'qiqlangan. Yolgʻon bilan bogʻliq boʻlgan tijoriy ishlar qoralangan. Xullas, islom insonlarga zararli boʻlgan barcha holatlarni rad etdi va foydali boʻlgan jihatlarni ma'qulladi [23: 401]. Bu muhim me'yorlarning huquqiy qismi paygʻambarimiz hayoti davomida shakllandi va keyinchalik bu me'yorlar manbaga aylandi. Ammo ular musulmonlarning barcha munosabatlarini etarli darajada tizimli boshqarish uchun etarli emas edi.

Fiqh rivojlanishining *ikkinchi davri* solih xalifalar davriga, ya'ni Abu Bakrdan boshlab, toʻrtinchi xalifa Ali (vafoti 632–661) vafotiga qadar davom etdi. Bu davrda islomning ta'sir doirasi kengayib, zabt etilgan hududlar madaniyati va urf-odatlariga ijobiy ta'sir koʻrsatish fiqhning asosiy vazifasi boʻlib qoldi. Bu bilan bogʻliq holda mahalliy xalqlarda yuzaga kelgan koʻplab muammolarni hal qilish zarurati ham fiqhning rivojlanishi uchun katta turtki boʻldi.

Bu davrda xalifalar tomonidan muammolarni hal qilishning yangi usullari shakllandi. Musulmonlar harakatlarining qonuniyligi va adolatliligini baholashning yagona tizimi ishlab chiqildi. Bunga quyidagi harakatlar ketma-ketligi kiritilgan:

1) Qur'ondan yechim izlash;

2) agar Qur'onda javob boʻlmagan boʻlsa, yechim izlashda – sunnat, Paygʻambarning soʻzlari va harakatlaridan foydalanish;

3) agar sunnatda javob boʻlmagan boʻlsa, unda Paygʻambarimizning etakchi sahobalarining yigʻilishi chaqirilib, munozara natijasida bir ovozdan qaror qabul qilinishi mumkinligi (ijmoʻ);

4) agar yakdillikka erishilmasa, koʻpchilikning fikri inobatga olinishi mumkinligi;

5) agar majlis biron-bir qarorga kelmagan boʻlsa, unda xalifa uni oʻzining talqini - ijtihod asosida yakunlashi mumkinligi qayd etilgan.

Ushbu ijtihod pretsedentga aylandi va keyinchalik shunga oʻxshash vaziyatlarni hal qilishda ham undan foydalanilgan.

*Uchinchi davr* – Ummaviylar sulolasi hukmronligi davriga toʻgʻri keladi. Bu davr turli nizolar va koʻplab yangi tendensiyalar paydo boʻlishi bilan xarakterlanadi. Ushbu harakat vakillaridan biri taniqli xalifa Umar ibn Abdul Aziz edi [22: 313]. Ba'zilar uni beshinchi solih xalifa deb atashadi, chunki u paygʻambar Muhammadning hadislarini yigʻishni boshlash uchun koʻrsatmalar bergan. Bu davrda ijtihodlar soni sezilarli darajada oshib, hadislar keng tarqala boshladi.

Milodiy 750–950 yillarda, ya'ni Abbosiylar sulolasi davrida islom huquqi ancha rivojlandi. Bu davrda mazhablar soni tobora kamayib, asosiy yoʻnalishlar saqlanib qolindi. Har bir mazhabning oʻziga xos xususiyati shundaki, ushbu huquqiy fikr maktabiga xos boʻlgan oʻz ijtihodlari paydo boʻldi va har bir maktab oʻz yoʻlini boshladi, ularning izdoshlari oʻzlarini mazhab nomlari bilan atay boshladilar.

1258 yildan – XIX asr oʻrtalariga qadar boʻlgan davrda fiqh sohasi muayyan ma'noda turgʻunlik jarayonini boshdan kechirdi. XIX asrda boshlangan birlashish va tiklanish jarayoni esa bugunga qadar davom etmoqda. Bu mazhab aqidaparastligining zaiflashishi, musulmonlarning diniy an'analari oʻrganilayotgan zamonaviy ta'lim muassasalarida qiyosiy fiqhning keng qoʻllanilishi bilan bogʻliq jarayonlarni oʻz ichiga oladi.

***Musulmon huquqining asosiy manbalari.***

1. Islom huquqining birlamchi manbasi bu – Qur’oni karimdir. Arab tilidan tarjima qilinganda Qur’on – “ovoz chiqarib o‘qish” degan ma’noni anglatib, musulmonlar uchun muqaddas kitob sanaladi. Islom dini aqidalariga ko‘ra bu Muhammad ayg‘ambarga Alloh tomonidan yuborilgan vahiylar to‘plamidir. Qur’on oyatlari farishta Jabroil orqali qariyb 22 yil davomida yetkazilgan [2: 27].

IX–X asrlardan boshlab musulmon huquqi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan diniy va huquqiy maktablar shakllana boshladi, ijtihod taqiqlanib, nazariy ta’limotlar islom qonunlarining asosiy manbaiga aylandi. Qozilar muayyan huquqiy vaziyatni hal etish uchun Qur’on va Sunnatdan tashqari faqihlarning asarlariga ham murojaat qila boshladilar [17: 102].

Ushbu nazariy ta’limotlarning roli XIX asrning o‘rtalariga qadar saqlanib qoldi. XIX asrda fiqhiy me’yorlarning batafsil kodifikatsiyasi bo‘lib o‘tdi, yangi qonun manbai paydo bo‘ldi, shariat sudlarining roli kamaydi. G‘arb yuridik institutlari va tushunchalarini qabul qilish musulmon huquqi mamlakatlari huquqiy tizimlarining dualizmini belgilab berdi. Keyinchalik, XX asrda Arabiston yarim oroli va Fors ko‘rfazi mamlakatlarida musulmon huquqi o‘z mavqeini saqlab qoldi va fiqh shaklida ijtimoiy munosabatlarni universal tartibga soluvchi huquqiy me’yor sifatida harakat qildi.

XX asr o‘rtalariga kelib evropalashgan arab mamlakatlarining huquqiy tizimlari, ba’zi bir og‘ishlar bilan roman-german va anglo-sakson kabi ikki asosiy modellar asosida shakllana boshladi [10: 33].

2.Barcha musulmonlar uchun yana bir nufuzli va majburiy qonun manbai Sunnat (“muqaddas an’ana”) edi. U Muhammad (s.a.v.) ning hukmlari va xatti-harakatlari to‘g‘risida ko‘plab hikoyalardan iborat bo‘lib, arab jamiyatidagi ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishini aks ettiruvchi huquqiy qatlamlarni o‘z ichiga olgan.

Hadislarning to‘liq tahriri IX asrda amalga oshirilib, olti sunnan to‘plamlari yaratilgan [7: 193]. Sunnat shariatda turlicha ta’riflarga ega. Sunnat qonundan ko‘ra ustun emas, aksincha hayotiy jarayonlarda o‘rnak olish zarur bo‘lgan hodisalar yig‘indisidir. Payg‘ambarimizning ijtimoiy-siyosiy va diniy qarashlari evolyusiyasi ulamolar tomonidan tahlil qilinib, diniy ta’lim qonunlari va jamiyat taraqqiyoti o‘rtasida muvozanatni topishga imkon beradigan shariatning asosiy tamoyillarini keltirib chiqarishda ulardan keng foydalanish o‘rinlidir. Bu kabi xususiyatlar inson hayotidagi ko‘p qirrali muammolarni bartaraf etishda eng mo‘tadil yechim ko‘rsatish uchun maqbuldir. Aynan ushbu xususiyatlar tufayli haqiqiy musulmon olimlari sivilizatsiya yutuqlarini inobatga olgan holda, zamon talablariga etarlicha javob berishga qodir hukmlarni izlab topishga qodir. Bunga esa musulmon huquqi o‘zining insonparvarlik hususiyatilari bilan to‘liq javob bera oladi.

3. Ijmo‘ – nufuzli musulmon huquqshunoslarining umumiy fikridir.

Aytish mumkinki, uchinchi o‘rinda islom huquqi manbalari iyerarxiyasida “nufuzli islom huquqshunoslarining umumiy fikri” deb hisoblangan ijmo‘ turadi. Ijmo‘ Qur’on va Sunnat bilan bir qatorda, shariatning nufuzli manbalari guruhiga kiradi. Ijmo‘ diniy va huquqiy masalalar bo‘yicha turli xil qarama-qarshi fikrlardan iborat bo‘lib, ularni Muhammad (s.a.v.) tarafdorlari yoki keyinchalik eng nufuzli musulmon yuridik ilohiyotchilari bildirgan. Qur’on yoki Sunnat matnining talqini ushbu uchinchi manbaning taxminiy tarkibidir. Ammo u endi Muhammad (s.a.v.) bilan bog‘liq bo‘lmagan yangi normalarni shakllantirish orqali ham yaratilishi mumkin edi.

4. Qiyos - huquq masalalaridagi hukm.

Qiyos islom huquqining manbai bo‘lib, “bu qoidalardagi o‘xshashlik bilan chiqarilgan hukmdir”, – deb ta’rif berish mumkin.

Bunda shariatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri matnlari mavjud emas. Qur’on, Sunnat va Payg‘ambarimiz (s.a.v.) sahobalarining bir ovozdan qabul qilgan fikrlari kabi nufuzli manbalar qiyosdan foydalanishning to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

Olimlar shariat shartlari bog‘liq bo‘lgan to‘rtta asosiy [6: 120] narsani ajratib ko‘rsatadilar:

1) asl - o‘xshashlik keltiriladigan pozitsiya;

2) far - o‘xshashlik keltiriladigan pozitsiya;

3) hukm - ikkinchisiga taalluqli birinchi qoidaning huquqiy normasi;

4) illa - shariat tomonidan ushbu huquqiy me’yorning tayinlanishiga sabab bo‘lgan ikkita qoidaning bir-biriga bog‘langan umumiy asoslari.

Shunday qilib, musulmon huquqshunoslari “vahiyni inson aqli bilan birlashtira oldilar”. Qiyosga berilgan ta’riflarda ta’kidlanganidek: Qur’onda, sunnatda yoki ijmo‘da belgilangan qoida ushbu qonun manbalarida bevosita ko‘zda tutilmagan ishlarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin. Islom qonunchiligi hokimiyat prinsipiga asoslanganligiga qaramay, o‘xshashlik asosida mulohaza yuritish mavjudligi sababli islom huquqi manbalarini oqilona talqin qilish imkoniyati yaratildi; ammo bu asosiy me’yorlarni yarata olmaydi.

Qiyosning ikki turi mavjud: “aniq” va “yashirin” [2: 316]. Jarayonning sababi musulmon qonunlarining qonun chiqaruvchisi tomonidan aniqlanganda, aniq qiyos bunday taqqoslash sifatida tushuniladi. Yashirin qiyos, qonun chiqaruvchi biron bir hukmning sababini aniqlay olmaydigan va tushunish qiyin bo‘lgan holatni nazarda tutadi.

Boshqalar, qiyos – islomning birinchi asrida, tarixiy manbalarga, Qur’on va Sunnatga asoslanib, diniy masalalarni hal qilishning mantiqiy, oqilona usullaridan foydalanish tarafdorlari o‘rtasida nizolar yuzaga kelganda paydo bo‘lgan deb hisoblashadi. Huquqiy masalalar, ya’ni u yoki bu savolni musulmonning shaxsiy fikri orqali hal qilish imkoniyati deb tahlil ham qilinadi [4: 337].

Shuningdek, qiyosni “jannat” tushunchasi bilan bir guruhga birlashtirgan hanifiy ilohiyotshunoslari va fakihlari ham bor. Boshqa sunniy mazhablar buni tan olmaydilar va musulmon yuridik maktabining vakillari - zahiriylar, o‘zlarining huquqiy amaliyotlarida “Qur’on va Sunnatning tashqi manbalari”, “aniq ma’nosi va so‘zma-so‘z tushunchasi” deb talqin qilishadi [5: 302].

Ta’kidlash joizki, musulmon huquqi islom dinisiz mavjud emas, shuningdek islom ham musulmon huquqisiz [22: 42] rivojlana olmaydi.

Lekin musulmonlar hayoti uchun faqatgina fiqhning o‘zi etarli emas; texnik jihatdan fiqh insonning hayoti uchun hukm chiqarishga qaratilgan. U inson hayotining ma’naviy, g‘oyaviy va axloqiy tomonlarini chuqur o‘rganmaydi. Ushbu tarmoqlar boshqa bir bilim sohasi, ya’ni musulmon axloqi bilan qamrab olingan. Bu dunyodagi halollik, solihlik, baxt uchun, shuningdek, oxiratdagi Xudoning najoti va qoniqishi uchun asos yaratadi [3: 37].

Payg‘ambar va xalifalarning rivoyatlarida harbiy asirlarga nisbatan inson huquqlariga rioya qilish bo‘yicha qat’iy ko‘rsatmalar mavjud. Islom huquqshunoslari manbalarga tayanib, musulmonlarga dushmanni qiynoqqa solishni, tinch aholini va harbiy amaliyotlarga borganlarni o‘z ixtiyori bilan emas, balki majburan o‘ldirishni taqiqlaydilar; jang maydonidan chekinganlarni, mahbuslar va yaradorlarni yo‘q qilish; harbiy asirlarni qiynash, tinch aholining mol-mulkni yo‘q qilish va iqtisodiy blokadaga olish, jangovar harakatlar paytida zaharli moddalardan foydalanish, cherkovlarga va boshqa muqaddas joylariga hujum qilish, [19: 54] – kabi insoniylikka zid bo‘lgan amallardan qaytarganlar.

Musulmon huquqi ko‘plab diniy manbalarga ega bo‘lishiga qaramay, fuqarolar barcha qoidalar, ko‘rsatmalar va qonunlarning ahamiyatiga ko‘ra farqlashlari mumkin. Ta’kidlash joizki, musulmon huquqi asrlar osha rivojlanib, yangi-yangi hukmlar hamda shariat muammolariga oqilona echim ko‘rsatib kelmoqda. Hozirda esa o‘rnatilgan shariat arkonlaridan farq qiladigan “zamonaviy” musulmon huquqining shakllanishi ham amalga oshmoqda.

**Adabiyotlar**


1. Абдулваххоб Халлоф. Усулул фиқҳ (Ислом қонуншунослиги асослари) / Биринчи, иккинчи қисмлар. – Тошкент: Адолат, 1997. – Б. 7 б.
2. Абу Хамид аль-Газали Весы деяний / Хамид аль-Газали Абу. – М.: Изд. дом "Ансар", 2007. – С. 27.
3. Аль-Кардави Юсуф. Фикх мусульманских меньшинств в свете Корана и Сунны: перевод с арабского Ю.А.Косенко; М.А.Снежко. – К.: Ансар Фаундейшн, 2015. – С. 37.
4. Баширов Л. А. Государство и религиозные организации в регионах традиционного распространения ислама // Мировой опыт государственно-церковных отношений. - М., 1999. – С. 337.
5. Ван ден Берг Л. В. С. Основные начала мусульманского права согласно учению имамов Абу Ханифы и Шафии. (пер. с голланд.) / Л. В. С. Ван ден Берг. – М.: Наталис, 2005. – С. 302.
6. Васильев Л. С. История религий Востока: в 2 т. / Л. С. Васильев. - М.: Ун-т Ростов н/Д.: Республика, 1999. – С. 120.
7. Грязневич П. А. Ислам и государство (К истории государственно-политической идеологии раннего ислама) // Ислам: Религия, общество, государство. – М., 1984. – С. 193.
8. Доктор Абу Юсуф Мусо. Ислом фиқҳи тарихи. – Қоҳира: Табъу-нашр, 1958. – Б.23.
9. Дорошенко Е. А. Шиитское духовенство в современном Иране / Е. А. Дорошенко. – М.: Наука, 1975.
10. Жидков О. А. История государства и права зарубежных стран: учебник / О. А. Жидков. – М.: Изд-во МГУ,1998. – Ч. 1. – С. 33.
11. Ибн Халдун. Ал-Муқаддима. – Бейрут: Матбааи Шарқиййя, 1986. – Б. 359.
12. Ибрагим Т. Ислам: вероучение и обряды // Ислам и мусульмане в России. – М., 1999. – С. 40.
13. Игнатенко А. А. Средневековые "поучения владыкам" и проблематика власти // Социально-политические представления в исламе. История и современность. - М., 1987. – С. 42.
14. Ильм Усуль аль-фикх. (Наука об основах юриспруденции. Книга подготовлена по материалам книги. «FIKIH USÛLÜ» Doç. Dr. Fahrettin Atar, Istanbul 1988) / Перев. с тур.Т.Хабибулин. Islamhous.com. 2009 (1430).

15. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва тафсир муаллифи А.Мансур. – Тошкент: Тошкент Ислом университети, 2007. – Б.87.
16. Лившиц Р. З. Теория права / Р. З. Лившиц. – М: БЕК, 1994. – С.102.
17. Массэ А. Ислам: Очерк истории / А. Массэ. – М.: Наука, 1982. – С. 313.
18. Мехди Санаи. Мусульманская права и политика: Учебное пособие. – М., 2004. – С. 21.
19. Пиотровский М. Б. Исторические судьбы мусульманского представления о власти // Социальнополитические представления в исламе: История и современность. – М., 1984. – С. 14.
20. Прозоров С. М. Шиитская (имамитская) доктрина верховной власти // Ислам: Религия, общество, государство. – М., 1984. – С. 207.
21. Фахреддин Атар. Основы теории и методологии Фикха. – Стамбул: ЭРКАМ, 2018. – С. 14.
22. Хайдарова М. С. Основные направления и школы мусульманского права // Мусульманское право (структура и основные институты). – М., 1984. – С. 42.
23. Хашнми Мухаммед Али Личность мусульманина согласно Корану и Сунне / Мухаммед Али Хашнми. – М.: ГУП ПИК, 1999. – С. 401.
24. Шарль Р. Мусульманское право / Р. Шарль; под ред. и с передисл. Е. А. Белаева; пер. С. И. Волк.- М. : Иностр. лит., 1959. – С. 142.

**УДК: 711.6:502**

## НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА РЕЛИГИОЗНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ В ГОСУДАРСТВЕННОЙ СИСТЕМЕ МАЛАЙЗИИ

**Г. У. Шарипова**
*Международной исламской академии Узбекистана*
*sharipova01@gmail.com*

**Аннотация.** В статье приводится теоретический анализ формирования новых независимых государств в Юго-Восточной Азии, а также развитие культуры межнациональных и религиозных отношений в Малайзии.

**Ключевые слова:** Юго-Восточная Азия, Малайзия, мультикультурализм, полиэтничное общество, поликультурное общество, толерантость.

### National policy of religious tolerance in the Malaysian state system

**Abstract.** The article provides a theoretical analysis of the formation of independent states in Southeast Asia, as well as the development of the culture and religious relations in Malaysia.

**Keywords:** South-East Asia, Malaysia, multiculturalism, polyethnic society, polycultural society, tolerance.

### Malayziya davlatchilik tizimida diniy bag'rikenglik milliy siyosati

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Janubi-Sharqiy Osiyoda yangi mustaqil davlatlarning shakllanishi hamda Malayziyada millatlararo va diniy munosabatlar madaniyati rivoji nazariy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Janubiy-Sharqiy Osiyo, Malayziya, multikulьturalizm, polietnik jamiyat, ko'pmadaniyatli jamiyat, tolerantlik.

…Толерантность означает уважение, принятие и правильное понимание богатого многообразия культур нашего мира, наших форм самовыражения и способов проявлений человеческой индивидуальности. Толерантность - это обязанность способствовать утверждению прав человека, ... демократии и правопорядка… [3]

Конец XX века характеризуется существенной трансформацией и фундаментальными изменениями в формировании новых независимых государств в Юго-Восточной Азии, что было обусловлено активизацией демократических процессов этих государств. Существовавшая колониальная система, объединявшая многие страны и народы, являлась тормозом на пути общения человечества во всемирном масштабе, препятствовала развитию не только экономики, но и международных отношений. Исторически сложившаяся ситуация характеризуется переходом к эпохе новой демократии, что способствует началу формирования национальной государственности, и становится важнейшей силой современного мирового прогресса, позволяющей развивать процесс всемирной интеграции.

Регион Юго-Восточной Азии включает в себя следующие страны: Бруней, Вьетнам, Индонезия, Камбоджа, Лаос, Малайзия, Мьянма, Сингапур, Таиланд и Филиппины. Площадь этого региона - примерно 1,2 млн. кв. км, а население - более 300 млн. человек. Здесь проживает множество народов и народностей, говорящих на разных языках и наречиях, исповедующих разные религии, имеющих богатые многовековые культурные традиции [7. По данным World Economic Forum оценивший 144 страны мира по конкурентоспособности их экономического развития [9]. Страны Юго-Восточной Азии как Сингапур (2 место), Малайзия (20 место), Таиланд (31 место), Индонезия (34 место, обогнавшая Испанию, Чехию и Италию), Филиппины (52 место, также обогнавшая Российскую Федерацию), Вьетнам (68 место) и Мьянма (134 место) сильно отличаются друг от друга не только административно-территориальным положением, политической системой, но и уровнем экономического развития.

Опыт Юго-Восточной Азии в определении путей и тенденций развития как в отдельных регионах, так и в мире, в целом очень интересен. Одной из основных проблем , вставших перед странами Юго-Восточной Азии после обретения независимости, стало сохранение внутриполитической, экономической, социально-культурной и религиозной стабильности. С обретением независимости Малайзии в 1957 г, встал вопрос о необходимости реформирования всей государственной структуры страны, что подразумевало необходимость учитывать наследие колониального прошлого с ее политическими, национальными и религиозными группами. В силу различия политического, экономического, культурного и религиозного уровня развития стран Юго-Восточной Азии, религиозная деятельность в каждой стране региона имеет свои особенности и отличия. Исторический опыт доказывает, что для государства актуальность национального вопроса и необходимость его решения является главным вопросом, а невозможность его решения может привести к обострению внутриполитической обстановки.

Малайзия является полиэтничным, полирелигиозным, поликультурным обществом. «Особенность этноконфессиональной структуры Малайзии (малайцы -всего 48% населения, китайцы - 32%, индийцы - 8,5%)» [8]. А также «более половины населения (52%) исповедует ислам. Другие религии, которым следуют в Малайзии, - это буддизм, даосизм, индуизм, христианство и сикхизм. Кроме того, шаманизм практикуют в Восточной Малайзии» [2].

Развитие культуры межнациональных и религиозных отношений и гармонизации этнических взаимоотношений, вызвано геополитическим положением Малайзии как многонационального и многоконфессионального государства, в котором проживают представители многих национальностей, имеющих свою историю, религию и обладают уникальными особенностями материальной и духовной культуры. А также в Малайзии можем наблюдать «мультикультурализм - это объединение в единое гражданское общество той или иной страны различных этнических групп с сохранением их культурной идентичности» [6].

«Отчет федерального судьи Раджи Азиана Шаха о конституционном верховенстве особенно показателен: Конституция ... является высшим законом страны, воплощающим три основных концепции: одна из них заключается в том, что у человека есть фундаментальные права, в отношении которых даже власть государства не может посягать. Второй распределение суверенной власти между Штатами и Федерацией, что 13 штатов будут осуществлять суверенную власть в местных делах и в делах, затрагивающих страну в целом. В-третьих, … вся власть распределена между ветвями исполнительной, законодательной и судебной власти» [5]. «… Конституция Малайзии не запрещает установление религии. В статье 3 (1) говорится, что ислам является религией Федерации, но другие религии могут исповедоваться в условиях мира и гармонии в пределах Федерации» [8] .

«Несмотря на приведенные выше аргументы, следует отметить, что установление определенной религии над государством не является уникальным в Малайзию. В Норвегии первенство христианства означает, что король и большинство членов кабинета должны быть членами государственная церковь [4]. Кроме того, в Англии англиканская церковь остается в центре государственной политики и пользуется значительной поддержкой от государства» [4].

В 3-ей статье первого пункта Конституции Малайзии [1] гарантируется свобода религии, религия ислам является официальной религией Малайзии, а также другие религии могут исповедоваться в мире и согласии в любой части Федерации, что обеспечивает гарантию свободы вероисповедания в стране. Законы предусматривают права и интересы всех малайзийцев независимо от их религиозной и этнической принадлежности.

Первый и второй пункт 8 статьи Конституции Малайзии [1] говорится что все граждане равны перед законом и пользуются равной защитой со стороны закона, а также защищённость

граждан от религиозной дискриминации, что доказывает существование свободы совести и отсутствия принуждения при определении гражданином своего отношения к религии.

Второй пункт 11 статьи Конституции Малайзии [1] допускает религиозную пропаганду, конечно, с учетом ее законности.

Второй пункт 12 статьи Конституции Малайзии [1] гарантирует религиозным группам как мусульман, так и других вероисповеданий учреждать и содержать учебные заведения в соответствии с законом. В государственных школах преподают курс исламского религиозного обучения, который является обязательным для учащихся-мусульман, а учащиеся-немусульмане проходят курс морали и этики.

Третий пункт 12 статьи Конституции Малайзии [1] гарантирует не вмешательство в религиозные обряды немусульманских общин. Таким образом гарантирует своим гражданам защиту государства. Исторический опыт доказывает, что изучение истории религии и ее ценностей, является хорошей основой для сохранения мира в стране.

Государственная политика Малайзии содействует дальнейшему укреплению религиозной, культурной государственности и формирует фундамент достижения межконфессионального согласия.

**Литература**

1. Contitution of Malaysia - https://worldconstitutions.ru
2. Culture and Religion in Malaysia. (2017, May 03). Retrieved from https://phdessay.com/culture-religion-malaysia/
3. Declaration of Principles on Tolerance approved by Resolution 5.61[Deklaraciya principov tolerantnosti, utverzhdennaya rezolyuciej 5.61]
4. Dinah Shelton & Alexander Kiss, A Draft Model Law on Freedom of Religion (1996) in INTERNATIONAL HUMAN RIGHTS IN CONTEXT: LAW, POLITICS, MORALS supra note 18, at 575.
5. Loh Kooi Choon v. Gov't ofMalaysia, 2 M.L.J. 187, 188 (1977).
6. Malinkovich V. The Crisis of Multiculturalism in Germany and Other Western European Countries / The Crisis of Multiculturalism and Issues of National Policy. Ed. by M.B. Pogrebinsky and A.K. Tolpygo. Moscow: All World, 2013, p. 134. [Malinkovich V. Krizis multikulturalizma v Germanii i drugih zapadnoevropejskih stranah / Krizis multikulturalizma i problemy nacionalnoj politiki. Pod red. M B. Pogrebinskogo i A.K. Tolpygo. M.: Ves Mir, 2013, s. 134.]
7. Nguyen Thi Thuy. Bibliographic activities in Southeast Asian countries: History, current status and development trends. Author's abstract for VAK 05.25.03. Moscow, 1998. [Nguen Thi Thy. Bibliograficheskaya deyatelnost v stranah Yugo-Vostochnoj Azii: Istoriya, sovremennoe sostoyanie i tendencii razvitiya. Avtoreferat po VAK RF 05.25.03. M., 1998 g.]
8. Novoseltseva V.A. National Policy of Mahatha Mohamad Government in Malaysia (1981-1999). M. 1999. 17 pp. [Novoselceva V.A Nacionalnaya politika pravitelstva Mahathnra Mohamada v Malajzii (1981-1999 gg.). M.1999g. 17 str]
9. The Global Competitiveness Index 2014-2015. World Economic Forum. Table 3. 29 p
10. UNESCO General Conference, 16 November 1995. [Generalnoj konferencii YUNESKO ot 16 noyabrya 1995 goda]

UDK: 159.9

# OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA O‘QUV JARAYONI NIZOLARI PROFILAKTIKASI TIZIMINI TAKOMILASHTIRISH (PEDAGOGIK HAMKORLIK ASOSIDA)

**T. E. Eshquvvatov**
*Samarqand davlat universiteti*
*t.eshquvvatov@mail.ru*

**Annotatsiya.** Maqolada OTMda o‘quv jarayoni nizolari, o‘rganilganlik darajasi, sabab va motivlari, ko‘rinishlari, “o‘qituvchi-talaba” tipidgi nizolar va ularning tahlili, ularni boshqarish san’atini o‘rganishlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ular oliy maktabga psixologik xizmat ko‘rsatish maqsadida bajarilgan va bo‘lajak pedagoglarga metodik yordam qiladi, deb o‘ylaymiz

**Kalit so‘zlar:** O‘quv jarayoni nizilari; nizolarning yaratuvchanlik imkoniyati; nizolarning funksiyalari; boshqaruv uslublari; nizo belgilari.

**Совершенствование системы предотвращения конфликтов в образовательном процессе в высших учебных заведениях (На основе педагогического сотрудничества)**

**Аннотация.** В статье рассмотрены конфликты образовательного процесса в вузе, степень изученности, причины и мотивы, проявления, конфликты типа "учитель-ученик" и их анализ, изучение искусства управления ими, которые, по нашему мнению, выполняются в целях психологического обслуживания высшей школы и оказывают методическую помощь будущим педагогам.

**Кулючевые слова:** конфликт образовательного процесса; возможность конфликтообразования; функции конфликта; стили управления; признаки конфликта.

**Improving the system of conflict prevention in the educational process in higher educational institutions (On the basis of pedagogical cooperation)**

**Abstract.** The article deals with the conflicts of the educational process at the university, the degree of study, causes and motives, manifestations, conflicts of the "teacher-student" type and their analysis, the study of the art of managing them, which, in our opinion, are performed for the purpose of psychological service of higher education and provide methodological assistance to future teachers

**Keyword:** conflict of the educational process; the possibility of conflict formation; conflict functions; management styles; signs of conflict;

Oliy ta’lim tizimi, boshqa ijtimoiy institutlarga nisbatan, funksional jihatdan, shaxslararo va guruhlararo munosabatlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu munosabatlarning murakkabligi va noaniqligi pedagogik, ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy, huquqiy va hayotning boshqa ko‘plab sohalarini qamrab olishida ko‘rinadi. Bunday turlilik manfaatlar, munosabatlar, fikrlar, pozitsiyalar va odamlarning ehtiyojlari to‘qnashuvini yuzaga keltirishi tabiiy.

Nizo, ziddiyat, qarama-qarshilik tabiat va jamiyatda, shaxs ruhiyatida va shaxslararo munosabatda har doim mavjud, shu jumladan, oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida ham. Bu, ayniqsa, talabalar, ularning ota-onalari, hamkasblari va boshqalar bilan muloqot jarayonida yuzaga keladigan turli nizoli vaziyatlarga to‘la bo‘lgan o‘qituvchilar uchun ham taalluqlidir.

Oliy ta’lim muassasalarida sub’ektlar o‘rtasidagi muloqot shakllari ko‘p jihatdan yuqoridagi komponentlar bo‘yicha ijtimoiy-madaniy va individual psixologik sifatlarga, shuningdek, universitet jamoasida o‘rnatilgan an’analar, me’yorlar va o‘rnatilgan qoidalariga bog‘liq.

Ijtimoiy munosabatlar jarayonida nizolar tabiatini psixologik jihatdan o‘rganish va yaratuvchanlik imkoniyatlarini rivojlantirish usullari, metod va vositalari ishlab chiqish, hamda ularni vaziyatlarda qo‘llashga doir tavsiyalar berish dolzarblik kasb etadi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, 80% nizolar ularning ishtirokchilari xohish va irodasiga qarama-qarshi o‘laroq, ular istagiga qarshi ravishda vujudga keladi, ya’ni, kamdan kam hollarda nizo ataylab tayyorlanib, amalga oshiriladi. Inson boshqalardan kelayotgan axborotni diqqat bilan tahlil qilib, o‘zi yuborayotgan axborotni esa – tahlil qilmasdan, to‘g‘ri jo‘natadi. Odatda o‘zgalardan kelayotgan axborotga emotsional yondashib, ketayotgan axborotni esa ko‘proq boricha yuborish kuzatiladi. Nizoli vaziyat esa yuborilayotgan va qabul qilayotgan axborotlar orasidagi hissiy - emotsional hamda psixologik muvozanat buzilganda yuzaga kelishi mumkin.

Bugungi kunda jahon miqyosida turli pedagogik vaziyatlarda nizolarning yuzaga kelish bosqichlari, ularda subyekt xususiyatlarining o‘rni, ijtimoiy-pedagogik muhit ziddiyatlari, nizoli muammolarni bartaraf etishning aniq mexanizmlariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

A.Zasobina, S. L.Kabilniskaya, N. V.Savinlarning fikriga ko‘ra pedagogik ziddiyatning o‘zi oddiy ijtimoiy hodisadir. Biroq o‘qitishdagi ziddiyatlar ko‘pincha o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi munosabatlar tizimini doimiy ravishda izdan chiqaradi, o‘qituvchining chuqur stress holatiga, o‘z ishidan qoniqmasligiga sabab bo‘ladi. Shu munosabat bilan o‘qituvchi pedagogik jarayon ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlari muammosi keskinlashib borayotganligi sababli nizoli vaziyatlarning oldini olish va hal etish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishi lozim [3; 42-b].

S.V.Banikina va Ye.I.Stepanovlar o‘z ilmiy izlanishlarini konfliktologik ta’limga qaratilib, konfliktologik ta’lim deganda kishilarning jamiyatdagi biron-bir sohada taraqqiy etgan muloqot qurish va ular o‘rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlar, nomutanosibliklar va keskinliklarni bartaraf etishga munosib yo‘l topishga imkon beruvchi nazariy bilimlar, texnologik ko‘nikma va malakalar majmuasini ishlab chiqish sifatida tushunilishi ta’kidlanadi. Ularning fikricha, pedagogik ziddiyatlarni o‘rganilishining amaliy vazifasi ta’lim muassasalarining asosiy sub’ektlari – nafaqat o‘qituvchilar va talabalar, balki ma’muriyat va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlarni normallashtirish va insonparvarlashtirishga erishishdan iborat [4].

G.I. Kozirevning ta’limdagi nizolar masalasiga yondashuvini ichki va tashqi ta’sirlashuv guruhlar sifatida ajratib ko‘rsatishida ko‘rish mumkin. Ichki ta’sirlashuv bevosita muassasaning ichki muhitida sodir bo‘lib, “Ma’muriyat-o‘qituvchi”, “o‘qituvchi-o‘qituvchi” va “ma’muriyat-ma’muriyat” shaklidagi o‘zaro ta’sir chiziqlari bo‘yicha vertikal va gorizontal ziddiyatlarni tipik tashkiliy ziddiyatlar sifatida e’tirof etiladi [6].

O. Poenko nizolarni hal qilish muammolarini o‘rganib chiqib, ularning yuzaga kelishi muayyan harakatlar va o‘qituvchining muloqot xususiyati, muassasadagi umumiy vaziyat bilan ajralib turishiga e’tibor qaratadi [6].

Nizoli vaziyatning rivojlanib borishini o‘zgartirish bo‘yicha harakatlar muammolarini tadqiq qilgan S. Yu. Temina shuni ta’kidlaydiki, o‘qituvchining nizoga bo‘lgan tegishli munosabati o‘quvchilar diqqatini o‘zgartiradi, zo‘riqishni hazil bilan yengillashtiradi yoki ular uchun kutilmagan harakatlarni amalga oshiradi. Shu bilan birga o‘qituvchining o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi sifati va psixologik jihatdan o‘z-o‘zini tartibga solish qobiliyati dolzarbdir [8].

Nizoga subyektlar munosabati asosida yuzaga keladigan tabiiy holat sifatida ham qarash mumkin. Nizo qanchalik murakkab bo‘lmasin, unda har vaqt ikki tomon – buzg‘unchilik va yaratuvchanlik mavjud bo‘lib, agar nizo to‘g‘ri hal etilsa, u yaratuvchanlik qudratiga ega bo‘lishi, tomonlar munosabatlarini yanada mustahamlab, yangi mazmunda qayta qurilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

O‘qituvchi-talaba nizolari quyidagi sabablarga ko‘ra (o‘qituvchilarning o‘ziga ko‘ra) yuzaga kelishi mumkin: intizomni buzish; uy vazifasini yomon bajarish; talabalar o‘rtasidagi nosog‘lom munosabatlar kabi.

Talabalar nuqtai nazaridan o‘qituvchilar bilan nizolarning sabablari esa o‘qituvchilar tomonidan haqoratlar, qo‘pollik, sustkashlik; bilimlarni baholashda tarafkashlik; o‘qituvchi darsni qiziqarsiz o‘tishi;

Oliy ta’limda ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchi va ular tayyorlayotgan talabalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir xarakteri bilan belgilanadi, bu o‘zaro bog‘liqlik, hissiy ko‘rinishlar va shu kabilardan iborat xilma-xil munosabatlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Tabiiyki, bu o‘zaro ta’sir jarayonida doimo qiyinchilik, muammo va ziddiyatlar yuzaga keladi. Misol uchun, an’anaviy ta’limda o‘qituvchi va talaba ko‘pincha bir-biriga qarshi talablarni qo‘yadi, ya’ni birinchi tomon doimo o‘z talablarini ilgari suradi, ikkinchisi ularni bajarish kerak. Talabni bajarilmasligi esa bir subyekt boshqa subyektni “dushman” sifatida qabul qilishiga olib keladi.

“O‘qituvchi-talaba” va “talaba-o‘qituvchi” nizolarining o‘ziga xosligi talaba pedagogik jarayonning ancha mustaqil subyekti hisoblanishi bilan izohlanadi. Aslida u ta’limning “buyurtmachi” turi vazifasini bajaradi va “unga taklif etilayotgan mahsulot” ni ongli ravishda baholay oladi.

Talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda nizolarning quyidagi sabablari keng tarqalgan:

- qadr-qiymat yo‘nalishidagi farqlar;
- munosabatdagi qo‘pollik, odobsizlik;
- hamkorlikdagi natijalardagi farqlar;
- o‘qituvchilarning kasbiy darajasi va talabaning o‘zlashtirishi.

Ta’lim jarayonidagi ziddiyatlarning asosiy muammolaridan biri, didaktika sohasida ham mavjud, jumladan [4; 118-b]:

- talabalarga taklif etilayotgan o‘quv materialining murakkabligi, tafakkurni shakllantirish darajasiga mos kelmasligi;
- materialning ortiqcha nazariyalanishi, asoslantirilmaganligi, amaliy faoliyat bilan bog‘lanmaganligi;
- talabalarning muayyan mavzuni o‘rganishi va muayyan kasbni egallashi uchun motivatsiyani yetishmasligi kabi.

Bundan tashqari “O‘qituvchi-o‘qituvchi” shaklidagi nizolar ham uchradi, bunday nizolar asosan professor-o‘qituvchilarning ijtimoiy-kasbiy darajasi va individual psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida yuzaga kelgan nizoli vaziyatni hal qilishda oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchisining faolitdagi o‘z harakatlari tabiati va natijalarini tushunishi, salbiy holatlarning tub sabablarini o‘z xato va kamchiliklaridan izlay olishi, buning uchun aniq sharoitlarda sinchkov bo‘lishi, talabaning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini aniqlashtirishi, taklif etilayotgan o‘quv axboroti mazmunini idrok etishlariga erisha olishlari kerak bo‘ladi.

Har bir o‘qituvchi talabalar bilan munosabatlardagi nizoli vaziyatlarda inversiya va empatiya usullaridan alohida va bevosita foydalanishi mumkin. Ma’lumki, inversiya an’anaviylikka qarama-qarshi yo‘nalishda yechim izlashdir, masalan, o‘qituvchi talaba payqagan bir vaqtning o‘zida hazilga javoban o‘ziga qaratilgan zararli va provokatsion hazildan “kuladi”.

Ba’zan o‘qituvchi ziddiyatni “hokimiyat” avtoritar usuli bilan o‘z foydasiga hal qilishga harakat qiladi va ba’zan muvaffaqiyat qozonadi, biroq, bu yashirin nizoni shaklantirishi mumkin.

Demak, bu jarayonda boshqaruv uslubi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ma’lumki, boshqaruvning uchta asosiy uslubi mavjud: avtoritar, demokratik va liberal. Avtoritar yoki direktiv uslub hokimiyatning yuqori markazlashuvi, qaror qabul qilishda buyruqning birligi va bo‘ysunuvchilar faoliyatini qattiq nazorat qilishni nazarda tutadi.

Demokratik yoki kollegial uslub eng muhim ishlab chiqarish muammolari va jamoaviy mas’uliyatning jamoaviy muhokamasiga asoslanadi. Boshqaruvning bu uslubi qo‘l ostidagilar tomonidan tashabbuskorlikka undaydi va jamoada qulay psixologik iqlim o‘rnatishga yordam beradi.

Liberal yoki ruxsat beruvchi uslub menejerning jamoani boshqarishda minimal ishtirokini talab qiladi. Boshqaruvning bu uslubi bilan bo‘ysunuvchilar o‘zlariga qoldiriladi va ularning ishi kamdan-kam nazorat qilinadi.

Zamonaviy o‘qituvchi turli boshqaruv usullari bo‘yicha malakaga ega bo‘lishi kerak, chunki turli vaziyatlarda boshqaruvning u yoki bu uslubi eng samarali va maqbul bo‘lishi mumkin. Masalan, ekstremal vaziyatlarda tez qaror qabul qilish va buyruqlarni so‘zsiz bajarishni nazarda tutib, avtoritar uslub oqlanadi. Oddiy operatsion sharoitlarda demokratik yetakchilik uslubi yanada samarali va maqbuldir.

Boshqaruv uslubi asosan tashkilotning tuzilishi, a’zolarining miqdoriy va sifat tarkibi va ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Tashkilotning ijodiy va intellektual salohiyati qanchalik yuqori bo‘lsa, demokratik va ma’lum darajada liberal uslub boshqarish uchun mos keladi.

Ko‘p hollarda nizoli vaziyatlarda o‘qituvchilar quyidagi harakatlarni amalga oshirishi kuzatiladi: repressiv harakat: talabaning xatti-harakati yoki bilim darajasini ommaviy ravishda salbiy baholash, talabani masxara qilish, dekanat yoki ma’muriyatga shikoyat qilish va boshqa ma’muriy harakatlarni amalga oshirish; nokonstruktiv: muammoni hal qilishda kechikish, kelajakda talaba uchun salbiy oqibatlar xavfini oshirish; konstruktiv harakat: talabalar diqqatini jalb qilish, vaziyatni o‘nglash va uni me’yorlashtirish.

Auditoriyadagi yaxshi intizomning kaliti talabaning ishga faol qo‘shilishidadir, shuning uchun mashg‘ulotlarni faollashtiruvchi shakllarini ko‘paytirish zarur. Talaba muammolarni hal qilishga, savollarga javob berishga, tajriba o‘tkazishga va boshqa foydali mashg‘ulotga jalb etilsa intizomni buzishni o‘ylamaydi.

Ma’ruzalar universitetdagi faoliyatning asosiy shakli hisoblanadi. Bugungi kundagi vaziyatda oliy ta’lim muassasalarida seminar va amaliy mashg‘ulotlar orqali ma’ruzalarni qisqartirishga urinishlarga qaramay, 50-60% ga yaqin vaqt ma’ruza shakliga asoslanib qolmoqda. Ma’ruzalar asosan monologli ko‘rinishda bo‘lib, individual yondashuvni amalga oshirish, o‘qituvchi tomonidan tezkor nazorat qilish imkoniyatlari cheklangan.

Shu sababli universitetda o‘quv faoliyatining turli shakllarini hisobga olib, ta’lim jarayoni uchun qulay muhitini yaratishga e’tibor qaratish lozim.

Bu maqsadda qo‘llanayotgan metodikalar muayyan darajada murakkab bo‘lib, har doim ham to‘g‘ri natija beraveradi, deb bo‘lmaydi. Pedagogik amaliyotda o‘qituvchilar shaxsning alohida sifatlarini o‘rganadilar, lekin olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ular har doim ham bunga erisha olmaydilar, chunki

pedagogik tajriba uzluksizligini ta'minlash yalpi yondashuvni taqazo etib, har yoqlama tahlilgina uning yechimiga ijobiy ta'sir etadi.

Talabalarning shaxsiy-tavsifnomaviy fazilatlarini aniqlash, hech bo'lmaganda oddiy metodikasini egallash, uni tadbiq etish, kasbiy pedagogik tayyorgarlikning muhim unsurlaridan biridir. Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik amaliyotlari jarayonida, ko'pincha, yoshlarning aqliy qobiliyatlarini o'rganishga e'tibor qaratadilar. Shu bilan birga «Davlat- jamiyat-shaxs» kategoriyalarini to'laqonli anglash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu yo'nalish yangi O'zbekistonning har tomonlama rivojlanishida, turli-tuman etnik qatlamlarning ma'naviy-ma'rifiy hayotida paydo bo'lgan muammmolarini muvaffaqiyatli hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir jamiyat infrastrukturalarida shaxsga qo'yiladigan talab o'z mezon va tamoyiliga ega bo'lgan. Mustaqil yurtimizda shaklanib kelayotgan yosh avlodga yangicha qarash va munosabat va unga qo'yilgan mas'uliyat ham nihoyatda oshib bormoqda.

«Shaxs va davr» yoki «davr va shaxs» munosabati muammolari tahlilida uchta holat ko'zga tashlanadi:

Birinchi toifa shaxslar o'z davrining ruhi maqsad va vazifalarini anglay olmaydi, ya'ni zamondan orqada qoladi.

Ikkinchi toifa shunday shaxslar borki, ular davr bilan hamnafas, o'zi yashagan zamonning yalovbardori sifatida namoyon bo'ladi.

Uchinchi toifa insonlar yetakchilar sanalib, ular voqelikdan o'zib ketadi, ayni paytda o'z davrining ruhini chuqur his yetadi va anglaydi. Bunday shaxs hayotiy qarashlari, g'oyasi va faoliyat yo'nalishida kelajakni ko'ra oladi.

Ikkinchi va uchinchi xususiyaga ega bo'lgan, ma'naviyati yuksak shaxslarni tarbiyalash bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega. Shaxsning sotsiomadaniy xislatlari yuqori bo'lsa, tabiiy ravishda bu uning amaliy faoliyatida ham o'z ifodasini topadi, uning g'oyalari jamiyatga singadi.

Har bir odam faqat ta'lim, ijtimoiy tarbiya va ma'naviy kamolot, kasb-hunar o'rganish tizimi vositasidagina shaxs bo'lib shakllanadi. Natijada shaxsning ijtimoiy kamol topishi – uning jamiyat uchun foydali funksiyalarini bajarishi, o'z vazifa va burchlarini puxta va ijodiy anglab, boshqalar bilan teng, mustaqil munosabatlarga kirishuvi yuz beradi.

Ta'lim jarayonida yoshlarda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulq-atvor malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish kezida yoshlarning ongiga, hissiyotiga, irodasiga tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi. Mazkur talablar va mulohazalar bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida nizoli vaziyatlarni oldini olish imkoniyatlariga ahamiyat qaratish zaruratini belgilab beradi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va muammoni amaliy o'rganis shuni ko'rsatdiki, bo'lajak o'qituvchilarni nizoli vaziyatlarga tayyorlash jarayonining metodologik, nazariy va texnologik asoslari hali pedagogika fanida yetarlicha o'rganilmagan. Bu esa talabalarning oliy ta'limdan keyingi mehnat faoliyatlari samaradorligiga salbiy ta'sirini o'tkazib, ta'lim muassasalarining oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan ehtiyojni o'z vaqtida bartaraf etishga to'sqinlik qilmoqda. Bu hol, o'z navbatida, bo'lajak o'qituvchilarning nizoli vaziyatlarga tayyorgarlashning dolzarbligini bildiradi. Bu dolzarblik bo'lajak o'qituvchilarni nizoli vaziyatlarga tayyorlashning samarali yo'llarini aniqlash va uni oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga tadbiq etish zaruratini asoslaydi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish pedagogik tajribani umumlashtirish asosida quyidagicha muammolar mavjudligi ko'rinadi: o'qituvchi faoliyatida nizoli vaziyatlar pedagogik jarayonlarni izdan chiqishiga asosiy sabab bo'lishi ilmiy asoslangan bo'lsa-da, ayni sharoitda tayyorlanayotgan pedagoglar kelgusi faoliyatlarida ijtimoiy hamkorlikdagi inqirozlarni hal qilish, pedagogik jarayon subyektlari bilan yuzaga keladigan pedagogik nizolar oldini olish, bunday jarayonlarga nisbatan pedagogik jihatdan mos konstruktiv munosabatlarga kirishisha olish layoqatiga yetarlicha ega emasliklari, bo'lajak o'qituvchilarni nizoli vaziyatlarga tayyorlashning hozirgi holati o'quv mazmunini ishlab chiqish va o'quv jarayonlarni tashkil etishda nizoli vaziyatlarga oid kompetensiyaviy yondashuvlar asosiga qurilmaganligi, talabalarni bu borada layoqatlarini baholash tizimi hal etilmagan.

Aniqlovchi-ta'kidlovchi tajriba-sinovlarda o'tkazilgan so'rovnomalarda qatnashgan talabalarning(jami talaba respondentlar 220 ta) 37 foizi talaba-o'qituvchi nizolarining salmoqli qismi o'qituvchilarning kasbiy saviyasi yetarli emasligi tufayli yuzaga keladi, deb hisobladilar. Aksariyat talabalar fanlar mazmunining real hayotdan ajratilganligiga, 32% talaba o'quv kursi dasturlari tuzilishiga salbiy munosabat bildirdi.

O‘z navbatida professor-o‘qituvchilar (jami o‘qituvchi respondentlar 86ta) ta’lim jarayonining past samaradorligi va muloqotdagi nizoli vaziyatlarni quyidagi sabablar bilan izohladilar:

- bilim olishga bo‘lgan salbiy munosabat, dangasalik, o‘rganishni istamaslik (34%);
- mustaqil fikrlash yo‘qligi, umumiy ta’lim va siyosiy madaniyatning pastligi, fanlarning ahamiyatini anglamaslik (12% );
- bo‘lajak kasbiga qiziqishning yo‘qligi yoki o‘z istiqbolini ko‘rmaslik (56%);
- o‘ta izzattalablik (27%).

Ishtirokchi respondentlar “O‘qituvchi-o‘qituvchi” munosabatidagi nizoli vaziyatlarni aksariyat hollarda hamkasblarning ishchanlik salohiyatini yetarli emasligi (22%), o‘zgalarning faoliyat natijalari soyasiga o‘tib olish (27%), o‘quv materiallari mazmuniga shaxsiy xissa qo‘shmaslik (24%), faoliyatdagi o‘zaro hamkorlikning yetishmasligi bilan bog‘ladilar.

Shu bilan birga “Universitet-o‘qituvchi” munosabatlaridagi noqulay vaziyatlar omili sifatida oliy ta’lim muassasasi tomonidan o‘qituvchidagi tashabbuskorlikning yetishmasligi, dars o‘tishdagi bepisandlik, jamoat ishlaridagi mas’uliyatsizlik, muassasa rivojlanishi va istiqboliga befarqlik, o‘z ustida ishlamaslik, axborot texnologiyalari bilan ishlash va tillarni o‘rganishga bo‘lgan harakatning yetarli emasligi kabilar keltirilgan bo‘lsa, professor-o‘qituvchilar tomonidan bildirilgan asosiy e’tirozlar muassasadagi infratuzilmaning yetarlicha rivojanmaganligi (38%), o‘qituvchilarning mehnatiga yarasha munosabat ko‘rsatilmasligi (44%), tashabbus qo‘llab-quvvatlanmasligi (36%) kabilarda namoyon bo‘ldi.

Tadqiqotning “Universitet-talaba” munosabatlariga qaratilgan qismida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra amaldagi vaziyatda oliy ta’lim muassasasi talabalarning ichki tartibga rioya qilmasliklari, shaxslararo muloqotlardagi mas’uliyatsizliklari va madaniy saviyaning pastligi, bilim olishga nisabatan dangasalik, shijoat va tashabbuskorlikning pastligi, axborot texnologiyalari va til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani yetishmasligini ta’kidlagan bo‘lsalar, talabalar tomonidan oliy ta’lim muassasasidagi ichki tartib-qoidalarning o‘ta rasmiyligi (72%), erkin muloqot va harakatning cheklanganligi (64%), infratuzilmaning qoniqarsizligi (64%), anonim tarzda esa ayrim hollarda yashirish korrupsiyaning davom etayotganligini bildirib o‘tdilar.

Mazkur tahlil oliy ta’lim muassasalarida o‘rganilgan subyektlarning o‘zaro munosabatlarida ma’lum nizoli vaziyatlarni yuzaga kelishi uchun sharoit yaratayotganligini ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida “Universitet-jamiyat” munosabatlariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

G.I. Kozirev “Universitet-jamiyat” [5] o‘zaro munosabatidagi nizolarning yana bir guruhi o‘quv jarayoni va uning natijalari bilan bevosita bog‘liqligini ajratib ko‘rsatadi:

- universitet bitiruvchilarining intellektual va ijodiy darajasining zamonaviy jamiyat ehtiyojlaridan orqada qolishi;
- oliy ta’limning zarur yo‘nalishlar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashda yetarlicha moslashuvchan emasligi natijasida bitiruvchilarining asosiy qismining malakasizligi;
- akademik (fundamental) ilm-fan, san’at, adabiyotga yo‘naltirilgan yuqori darajadagi ta’lim va aql-zakovatga ega, mutaxassislar va xodimlarga talabning mavjud emasligi.

Bizning nazarimizda “Universitet-jamiyat” munosabatlaridagi qarama-qarshiliklarning asosiy mazmuni bu ikki sub’ektning bir biriga qo‘yayotgan talablarining o‘lchamli ko‘rinishga keltirilmaganligida, ya’ni o‘z funksional vazifalaridan kelib chiqib, amalga oshirilayotgan natijaning o‘zaro solishtirma qiymati belgilanmaganligida. Bunda, faoliyatdagi natijaga ko‘ra subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning nizoli tus olishi va siklik holatga tushib qolishi mumkinligini ko‘rsatadi. Buni quyidagi sxemada ko‘rish mumkin (1-rasm):




**1-rasm.** Oliy ta’lim muassasalarida faoliyat natijalari asosida subyektlarning siklik munosabatlari.

Olib borgan tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’lim muassasalarining bevosita ishtirokchi subyektlari munosabatlaridagi yuzaga keluvchi nizoli vaziyatlar profilaktikasiga oid tashkiliy-pedagogik shart-sharoit yaratish orqali yuqorida ta’kidlangan “Universitet-jamiyat” munosabatlaridagi talablarni yagona o‘lchamli ko‘rinishga keltirish, ya’ni maqbullashtirish asosida o‘quv jarayonlari samaradorligini oshirish, kutilayotgan ta’lim sifatini ta’minlash imkoniyatlari ortadi.

Bundan tashqari talabalarni pedagogik faoliyatga samarali tayyorlanishiga ham ahamiyat qaratish, jumladan, ularning o‘quv-tarbiya jarayonidagi nizoli vaziyatlarda tegishli pedagogik pozitsiyaga ega bo‘lib yetishib chiqishlariga ta’sir etuvchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni inobatga olish maqsadga muvofiq.

Pedagogik-psixologik jihatdan bo‘lajak pedagoglarning nizolar va ularning tabiatini o‘rganish faqat nazariy emas, balki juda muhim amaliy ahamiyatga ham egadir. Talabalarning fani bu sohasini o‘rganishi turli vaziyatlarda yuzaga keluvchi nizolarning oldini olishga, ularni hal qilish uchun samarali choralarni qo‘llashga yordam beradi.

Tayyorlanayotgan o‘qituvchi-murabbiylarning nizoli vaziyatlarga tayyor emasligi, bu boradagi layoqatsizligi, past malaka darajasi uning obro‘si hamda kasbiy va shaxsiy imidjiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchilarning pedagogik faoliyati nizoli vaziyatlarga boy bo‘lib, ular profilaktikasiga yetarlicha e’tibor qaratilmasligi natijasida pedagogik jarayonning yaxlitligi buziladi. O‘qituvchilarni kasbiy faoliyatlaridagi ziddiyatlarning oldini olish va hal qilishga tayyorligini shakllantirish oliy pedagogika sohasi oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

Aniqlovchi-ta’kidlovchi tajriba bosqichi natijalariga ko‘ra yuqoridagi mezonlar bo‘yicha talabalarning ko‘pchiligi past darajada (41,3%), o‘rtacha darajada – 42,4%, yuqori darajada faqat 16,3% qayd baholandi.

Bu tahlillar bo‘lajak pedagog shaxsi va uning kasbiy integratsiyalashuvida nizolarni hal qila oluvchi o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonlari, tegishli bilimlar, ko‘nikmalar, munosabat va shaxsiy fazilatlarni shakllantirishda nizoli vaziyatlarni oldini olish imkonini beruvchi kompetentlikka alohida e’tibor qaratish zarurligidan dalolat beradi.

Bu esa tadqiqotimiz davomida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonlariga nizolarning oldini olish va hal etish masalalarini integratsiyalovchi maxsus kurs ishlab chiqish zaruratini belgilab beradi. Maxsus kurs maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda nizolarni oldini olishga oid muayyan komponentlardan iborat fazilatlar, pedagogik faoliyatda nizolarni hal qilish uchun motivatsion bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat etib belgilanadi.

Tadqiqotimizda o‘quv jarayoni nizolari profilaktikasining ta’lim-tarbiya sohasidagi tutgan o‘rni va ahamiyatidan kelib chiqib, nizo omillarini chuqurroq tahlil qilinishi maqsadga muvofiq deb hisoblandi.

Pedagogik munosabatlarda bir ishtirokchi tashkiliy muammoni hal qilish, ikkinchisi esa uni amalga oshirish uchun harakatlarini qat’iy yo‘naltiradi. Bunda shaxslararo va shaxsning o‘zida muntazam ravishda qondirilmagan ishtiyoq, yechilmagan masala, taqsimlanmagan moddiy ob’ekt yoki ish va boshqa yechimi ochiq qoldirilgan holatlarga bo‘lgan reaksiyasi – tushunmovchilik, axborotni turlicha qabul qilish va talqin qilinishi kabilar nizodan avvalgi – “qo‘shilmaslik” holatini yuzaga keltiradi.

Nizo belgilariga bo‘lgan e’tiborsizlik esa uning kelgusida rivojlanib, nizoga aylanishida asosiy o‘rin tutadi.

Olib borgan tadqiqotlarimiz asosida nizo belgilarini quyidagicha guruhlash mumkinligini ko‘rsatdi (2-rasm):




**2-rasm.** Nizo belgilarining harakatga aylanish jarayoni.

**Faoliyat sustlashuvi.** Pedagogik munosabat jarayonida faoliyat bilan bog‘liq biror bir masala (obyekt)ning tartiblanmaganligi, izohlanmaganligi, sharhlanmaganligi, tushuntirilmaganligi, ochiqlanmaganligi yoki shunday deb anglanishi va qabul qilinishiga sabab bo‘luvchi yondashuvlar sub’ektning navbatdagi faoliyatini (muloqot, hatti-harakat, fikrlash, ishtirok etish, tashabbus va h.k.) sustlashuviga olib kelishi, amalga oshirilayotgan harakatga nisbatan ishonchsizlikni vujudga keltirishi mumkin. Masalan, talabalarning mashg‘ulot mobaynida bilimlariga qo‘yilgan joriy baholarni shunchaki e’lon qilish bilangina kifoyalanish, qaysidir talabaning olgan bahosi bo‘yicha tushuntirish bermaslik, ochiqlamaslik “qo‘shilmaslik” holatni keltirib chiqaradi. Mazkur holat yuzaga kelganda (yoki takrorlanganda) talabada kelgusi mashg‘ulotlarda muloqot, hatti-harakat, fikrlash, ishtirok etish, tashabbus ko‘rsatish sustlashadi, fanga bo‘lgan qiziqish va ishonch pasayadi.

**E’tirozlar.** Pedagogik munosabatlarda ochiq qoldirilgan masala sababli yuzaga kelgan “qo‘shilmaslik” holati faoliyat obyekti (taklif, xulosa, qaror, axborot, ma’lumot va boshqalar) ga nisbatan subyekt tomonidan e’tirozlar va rad etuvchi fikrlar bildirilishi, muhokama etilishi, o‘z mulohazasini himoya qilinishi kabilarni keltirib chiqarishi mumkin. Albatta, obyektga nisbatan bildirilgan har qanday (jumladan tanqidiy) fikr uning rivojlanishiga sabab bo‘lishi tabiiy, biroq, avvaldan tahlillar asosida eng optimal va samarali deb topilgan obyektga nisbatan bildirilgan e’tirozning asosiy havfi shundaki, ushbu e’tirozlar subyektlarning o‘zaro hamkorligi va hamfikrliligida masofalanishni paydo qilib, obyektga oid faoliyatning tanazzuliga sabab bo‘lishi mumkin.

**Muloqotdagi og‘ishuv**. Har qanday oydinlik kiritilmagan masala sababli “qo‘shilmaslik”ning yuzaga kelishi natijasida ko‘p hollarda o‘zaro muloqot sifatining buzilishi kuzatiladi, bunda muloqot mavzusidan chetlashish, muloqot odobining buzilishi, noo‘rin so‘zlar va jestlar (imo-ishora) dan foydalanish kabi holatlar ko‘zga tashlanadi. Masalan, ma’lum munozara davomida chiqarilgan qarorning yetarlicha izohlanmasligini biror sub’ekt tomonidan adolatlik sifatida baholanishi va “qo‘shilmaslik”ni yuzaga keltirishi mumkin. Natijada u keyinchalik muloqotga bee’tibor bo‘lish, asabiylash, qo‘pollashish kabilarni namoyish etishi mumkin.

**Natijasizlik**. O‘zaro munosabatlar doirasida munosabat ishtirokchisida biror obyekt (tavsiya, ko‘rsatma, topshiriq va boshqalar)ni bajarmaslik, mehnat, o‘quv faoliyatida mas’uliyatsizlik kuzatiladi. Bunday holatni quyidagi masol orqali izohlash mumkin: o‘quv jarayonida faoliyatga oid bo‘lgan turli topshiriqlar berish nazarda tutiladi. Biroq, qaysidir subyekt o‘ziga berilgan topshiriqni murakkab deb hisoblasa va uni bajarish yuzasidan o‘qituvchidan biror yo‘nalish yoki yordam ko‘rinishidagi izoh olmasa, ushbu subyektda topshiriqni bajarmaslik, mas’uliyatsizlikka bo‘lgan moyillik ortib boradi,

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, nizolar asosini bu subyektlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik ortida yuzaga keluvchi belgilar tashkil qiladi. Nizolar profilaktikasiga oid mavjud ilmiy izlanishlar nizo belgisini idrok qilish, uning nizoga aylanish chegarasini anglash va erta bartaraf etish masalalariga yo‘naltirilgan.

Bunda nizolarni hal qilishning eng maqbul va natijali yo‘li sifatida subyektlarning o‘zlari tomonidan ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan harakatlarga e’tibor qaratiladi, ya’ni subyektning nizoli vaziyatni bartaraf etuvchi tashabbuskorligi muhim hisoblanadi. Biroq, bu yo‘lning natijadorligi ziddiyat ko‘rinishlari (ochiq, yashirin, obyektli, obyektsiz va h.), darajalari, subyekt xususiyatlari, shuningdek, nizoni to‘xtatishga intiluvchi kuchlar ixtiyoridagi imkoniyatlar va boshqa turli omillar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, samaradorlikka ta’sir etuvchi omillarning xilma-xilligi esa mazkur yo‘lning har doim ham aniq natija bermasligini anglatadi.

Subyektlar o‘rtasidagi munosabatda oydinlik kiritilmagan har qanday masalaning nizoli vaziyatni keltirib chiqarishi va uni o‘z vaqtida bartaraf etishdagi natijasizlik keyinchalik ijtimoiy faoliyatlarga, ayniqsa, ta’lim samaradorligiga, kafolatlangan sifat ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ham inobatga olish lozim.

Tadqiqotimiz doirasida olingan ilmiy natijalarga tayanib, nizoli vaziyat belgilari paydo bo‘lganda yoki harakatga aylanganida va yoki to‘laqonli nizoli vaziyatda tegishli choralar ko‘rish emas, balki ushbu choralarga qadar subyektlarning ma’lum funksiyasini shaxslararo munosabatga quriladigan har qanday faoliyat yakuni o‘ta ochiq va tushunarli bo‘lishiga erishish nuqtai nazaridan tartibga solish taklif etiladi.

Bunda o‘quv jarayonining har bir tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari bilan bog‘liq bosqichlarida subyektlar o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni oldini olishga qaratilgan va avvaldan puxta o‘ylangan funksiyalarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

Olib borgan tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, oliy ta’lim muassasalarining bevosita ishtirokchi subyektlari munosabatlaridagi yuzaga keluvchi nizoli vaziyatlar profilaktikasiga oid tashkiliy-pedagogik shart-sharoit yaratish orqali yuqorida ta’kidlangan “Universitet-jamiyat” munosabatlaridagi talablarni

yagona o‘lchamli ko‘rinishga keltirish, ya’ni maqbullashtirish asosida o‘quv jarayonlari samaradorligini oshirish, kutilayotgan ta’lim sifatini ta’minlash imkoniyatlari ortadi.

**Adabiyotlar**

1. G. To‘ychieva . Yoshlar va konfliktlar: Konfliktlar yechimiga o‘rganish. –Toshkent, 2008.
2. D.Q.Yergeshova, M.K.Najimov. Yuridik konfliktologiya. – Toshkent, 2007. -129b.
3. Засобина Г. А., Кабыльницкая С. Л., Савин Н. В. Практикум по педагогике: учебное пособие. – Москва: Просвещение, 1986. – 111с
4. Баныкина С.В., Степанов Е.И. Конфликты в современной школе: Изучение и управление
5. Козырев Г.И. Введение в конфликтологию: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Гуманит. изд. Центр ВЛАДОС, 2001. – 176 с
6. Поенко О.Н. Понимание учителем личности ученика подросткового возраста как фактор решения межличностных и педагогических конфликтов: дис. канд. психол. наук: 19.00.07. – Киев, 2001. – 199 с.
7. Зайцев, А. К.Социальный конфликт Текст. / А. К. Зайцев. - М. :1. Academia, 2000. 464 с.
8. Темина С.Ю. Конфликты школы и «школа конфликтов»? (Введение в конфликтологию образования) / С.Ю. Темина. М.: Московский психолого-социальный институт; Воронеж: НПО МОДЭК, 2002. - 144 с.

**УДК: 159.9**

## МОДЕЛЬ СТРУКТУРЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ИМИДЖА СОВРЕМЕННОГО УЧИТЕЛЯ

**Ф. Б.Нарзикулова**
*Самаркандский региональный центр повышения и переподготовки квалификации работников народного образования*
*firuza-narzikulova@mail.ru*

**Аннотация.** В статье представлена модель реализации системы развития профессионального имиджа учителя, которая представляет собой систему, состоящую из отдельных, взаимосвязанных между собой элементов, что обеспечивает целостность процесса развития профессионального имиджа учителя. Важным моментом апробации предложенной автором модели, представлено внедрение гипотетически прогнозируемых педагогических условий. В статье представлено специально организованное эмпирическое исследование с целью уточнения актуальности полученных теоретических выводов.

**Ключевые слова:** профессиональный имидж учителя, профессиональная модель, профессиональные условия, профессиональное образование, профессиональная система, развитие педагогического имиджа, эмпирическое исследование и т.д.

### Zamonaviy o‘qituvchi obrazining professional modeli

**Annotatsiya.** Maqolada o‘qituvchining kasbiy imidjini rivojlantirish tizimini amalga oshirish modeli keltirilgan bo‘lib, u o‘qituvchining kasbiy imidjini rivojlantirish jarayonining yaxlitligini ta’minlaydigan alohida, o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan tizimdir. Maqolada muallif tomonidan taklif qilingan modelni dastlabki baholashda muhim nuqta taxminiy pedagogik shartlarning kiritilishi hisoblanadi. Maqolada nazariy xulosalarning dolzarbligini aniqlash uchun maxsus tashkil etilgan empirik tadqiqotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘qituvchining kasbiy qiyofasi, kasbiy model, kasbiy sharoit, kasb-hunar ta'limi, kasbiy tizim, pedagogik imidjni rivojlantirish, empirik tadqiqotlar va boshqalar.

### Model of the structure of professional image modern teacher

**Abstract.** The article presents a model for the implementation of the system for the development of a teacher's professional image, which is a system consisting of separate, interconnected elements, which ensures the integrity of the process of developing a teacher's professional image. In the article, an important point of approbation of the model proposed by the author, the introduction of hypothetically predictable pedagogical conditions is presented. The article presents a specially organized empirical study in order to clarify the relevance of the theoretical conclusions.

**Keywords:** professional image of a teacher, professional model, professional conditions, vocational education, professional system, development of a pedagogical image, empirical research, etc.

В современном обществе особенно актуальны вопросы повышения престижа педагогической профессии и утверждения высокого социального статуса педагога. «В условиях Узбекистана с сегодняшнего дня самый уважаемый и почитаемый человек – это учитель. Судьба государства, судьба общества, судьба нации связаны с уважаемыми учителями….» [1]. На наш взгляд, в этом процессе важную роль играет создание целостного профессионального имиджа педагога, который становится необходимым атрибутом социально-профессиональных отношений.

В последнее время социально-психологические науки постоянно уделяют внимание вопросам самообразования, самосовершенствования и самоопределения личности, полагаясь все больше на стремление человека создать в себе силу своей профессии, путем построения жизненной стратегии и планирования профессиональной деятельности. Такое стремление должно выступать основной задачей профессионального образования, как будущих учителей, так и в процессе повышения квалификации педагогических кадров. Привлечение личности к созданию в воображении образа, или же в контексте нашего исследования модели, будущей профессии, как результат профессиональной подготовки, может стать побудительной силой, превратиться в целенаправленное формирование модели профессионального имиджа [7].

Как показывает практика в психологических исследованиях под моделью, как правило, понимается некая схема, или план действий, направленный на реализацию соответствующей цели. Диапазон характеристик современных моделей довольно широк и может охватывать как структурное содержание того или иного явления, иерархию взаимосвязей содержательных элементов, так и последовательные временные этапы определенного процесса, характеристику ожидаемых результатов, прогнозные показатели, их взаимообусловленности пр. [8].

В свою очередь моделирование, как метод исследования соответствующих явлений, а также процессов широко применяется в современной психологии, составляя основу психологического эксперимента. В данном аспекте, большинство учёных придерживаются мнения о том, что моделирование психологического явления, процесса позволяет наглядно представить природу структуры изучаемого, заранее прогнозировать различные возможные преобразования и применение этих факторов при решении поставленных задач [2; 4; 5; 6; 9]. Многие ученые исследователи, рассматривая моделирование в целом отмечают, что модель должна отражать воображаемую или материально реализованную систему способную воспроизводит объект исследования и замещать его таким образом, что её изучение даст возможность получения новой информации об объекте [3; 10]. Исследователи выделяют следующие основные качества модели: соответствие; целеустремлённость; нейтральность к субъективным оценкам и предпочтениям участников моделирования; абстрагирование от некоторых деталей и параметров системы-оригинала.

Согласно нашей позиции, моделирование в нашем психологическом исследовании даёт нам возможность формализовать, схематизировать и существенно упростить и систематизировать понимание исследуемого явления, которое позволило бы предположить о взаимосвязях и условиях совершенствования, отследить те его характеристики, которые играют роль определяющих в исследовании и подлежат дальнейшему исследованию.

Таким образом, опираясь на существующие в психологических исследованиях подходы к моделированию, в аспекте нашего исследования, при разработке модели структуры профессионального имиджа современного учителя полагаем целесообразным основываться на понимание её, как на целостном множестве взаимообусловленных структурных элементов, где каждый из них рассматривается с учётом степени влияния на изучаемое явление в целом.

По своей сущности модель структуры профессионального имиджа современного учителя представляет собой упорядоченную совокупность взаимосвязанных, взаимообусловленных и условно выделяемых содержательных элементов, которые в совокупности отражают природу целостного понимания изучаемого явления. Такая модель даёт возможность более обоснованно подойти к исследованию процесса развития изучаемого явления. При этом понятие целостность не исключает, а наоборот, должно содержательно сочетаться с понятиями динамизм, инвариантность, обновление, усовершенствование. Речь идёт о том, что подобная, подготавливаемая модель структуры должна быть открытой для дальнейшего совершенствования, поскольку любая, даже хорошо разработанная модель никогда не может быть совершенной. Данное обстоятельство предполагает постоянное дополнение, обновление модели структуры новыми научно обоснованными данными.

Таким образом, придерживаясь вышеизложенного сформулированного подхода к процессу моделирования структуры профессионального имиджа учителя, нами была организована и

проведена экспертная оценка обобщённых индивидуально-психологических особенностей, характеризующих имидж. В качестве экспертов приняло участие 135 специалистов, как женского, так и мужского пола, имеющих значительный опыт работы в сфере образования (рис. 1).




**Рис. 1 Характеристика экспертов оценки структурных составляющих профессионального имиджа учителя начального образования (n=135)**

В целях стандартизации получаемых результатов, упрощения организационных вопросов, экспертная оценка проводилась по заранее подготовленному экспертному опроснику, основу которого составляют 32 выделенных, по результатам теоретического анализа, обобщённых индивидуально-психологических особенностей (структурные составляющие), характеризующих имидж учителя. Для дифференцирования структурных составляющих, в опросник включена пятнадцати бальная шкала оценки, где диапазон:

- от 1 балла до 3 баллов - низкий уровень соответствия оцениваемой структурной составляющей (не значимые);
- от 4 баллов до 6 баллов - ниже среднего уровня соответствия оцениваемой структурной составляющей (не значимые);
- от 7 баллов до 9 баллов - средний уровень соответствия оцениваемой структурной составляющей;
- от 10 баллов до 12 баллов - выше среднего уровня соответствия оцениваемой структурной составляющей (высоко значимые);
- от 13 баллов до 15 баллов - высокий уровень соответствия оцениваемой структурной составляющей (высоко значимые).

Кроме того, в целях разъяснения порядка проведения экспертной оценки в опроснике предусмотрена подробная инструкция, охватывающая все необходимые аспекты для плодотворной работы с подготовленным инструментарием.

По итогам проведения экспертной оценки все полученные результаты были обобщены в единой таблице для вычисления базовых статистических данных (среднестатистический балл, медиана и др.) по каждой оценённой структурной составляющей профессионального имиджа учителя. Так, анализ в разрезе среднестатистических баллов показывает, что по мнению экспертов, из 32 структурных составляющих 12 (37,5 %) характеризуют профессиональный имидж современного учителя на высоко значимом уровне, т.е. на высоком (15,6 %, 5 характеристик) и выше среднем (21,9 %, 7 характеристик) уровнях (рис.2).




**Рис. 2. Результаты экспертной оценки структурных составляющих профессионального имиджа учителя начального образования в разрезе среднестатистических баллов (n=135)**

Соответственно, остальные 20 (62,5 %) структурных стравляющих, по мнению экспертов, характеризуют изучаемое явление на: - низком уровне - 9,4 % / 3 характеристики; - ниже среднем уровне - 25 % / 8 характеристик; - среднем уровне - 28,1 % / 9 характеристик.

Проведённый анализ полученных результатов экспертной оценки в разрезе другого показателя, так называемого центра распределения (медиана) показал практически идентичные данные предыдущему анализу. Так, к числу высоко значимых (37,5 %, 12 характеристик) структурных составляющих отнесены в целом абсолютно те же структурные составляющие: - выше среднего уровня соответствия - 18,8 % / 6 характеристик; - высокий уровень соответствия - 18,8 % / 6 характеристик (рис. 3).




**Рис. 3. Результаты экспертной оценки структурных составляющих профессионального имиджа учителя начального образования в разрезе центра распределения (медиана) баллов (n=135)**

Соответственно, остальные 20 (62,5 %) структурных стравляющих, по мнению экспертов, характеризуют изучаемое явление на: низком уровне - 6,3 % / 2 характеристики; ниже среднем уровне - 25 % / 8 характеристик; среднем уровне -31,3 % / 10 характеристик.

Анализируя в целом в разрезе других базовых статистических данных, полагается целесообразным отметить, что при оценки экспертами 20 (62,5 %) структурных составляющих, которые отнесены к низкому, ниже среднему и среднему уровню соответствия, минимальный и максимальный оценочные баллы в среднем варьировались от 3,15 до 9,4. Вместе с тем, при оценки высоко значимых (37,5 %, 12 характеристик) структурных составляющих минимальный и максимальный оценочные баллы в среднем варьировались от 9,08 до 14,83. Данный факт также подтверждает результаты вышеизложенных анализов и позволяет выделить перечень актуальных структурных составляющих профессионального имиджа современного учителя (таб. 1).

Таблица 1

**Актуальные структурные составляющие профессионального имиджа современного учителя (n=135)**

| № | Наименования оцениваемых характеристик учителя начального образования | Максимальный оценочный балл | Минимальный оценочный балл | Среднестатистическ ий оценочный балл | Стандартное отклонение | Медиана |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | умение регулировать своё поведение в коммуникативных ситуациях | 15 | 12 | 14,09 | 0,89 | 14 |
| 2 | способность адаптироваться к условиям социальной среды | 15 | 12 | 13,72 | 0,92 | 14 |

| № | Наименования оцениваемых характеристик учителя начального образования | Максимальный оценочный балл | Минимальный оценочный балл | Среднестатистический оценочный балл | Стандартное отклонение | Медиана |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 3 | умение самостоятельно преодолевать возникающие жизненные проблемы | 15 | 10 | 13,1 | 1,03 | 13 |
| 4 | низкий уровень конфликтности | 15 | 8 | 12,94 | 1,27 | 13 |
| 5 | коммуникативные и организаторские способности | 15 | 9 | 12,78 | 1,44 | 13 |
| 6 | эмоциональный интеллект | 15 | 8 | 12,45 | 1,44 | 13 |
| 7 | способность к саморегуляции эмоциональных состояний, возникающих в коммуникативной ситуации | 15 | 9 | 12,33 | 1,43 | 12 |
| 8 | сбалансированная эмоциональность | 15 | 8 | 12,24 | 1,95 | 12 |
| 9 | эмпатические способности | 15 | 8 | 12,22 | 1,5 | 12 |
| 10 | развитая рефлексивность | 15 | 8 | 11,94 | 1,45 | 12 |
| 11 | коммуникативная толерантность | 14 | 9 | 11,41 | 1,15 | 11 |
| 12 | стремление к саморазвитию | 14 | 8 | 11,4 | 1,18 | 11 |
| Среднестатистические значения | | 14,83 | 9,08 | 12,19 | 1,42 | 12,11 |

В целях облегчения восприятия выделенного перечня актуальных структурных составляющих изучаемого явления осуществлена их классификация по принципу значимости экспертных оценок. Так, в первый компонент вошли актуальные структурные составляющие, получившие максимальные показатели центра распределения (медиана - 14 баллов), а также максимальное среднестатистическое значение экспертных баллах:

- умение регулировать своё поведение в коммуникативных ситуациях - 14 баллов;
- способность адаптироваться к условиям социальной среды - 14 баллов.

Во второй компонент профессионального имиджа современного учителя начального образования вошли такие актуальные структурные составляющие, которые были оценены экспертами 13 баллами (медиана):

- умение самостоятельно преодолевать возникающие жизненные проблемы - 13 баллов;
- низкий уровень конфликтности - 13 баллов;
- коммуникативные и организаторские способности - 13 баллов;
- эмоциональный интеллект - 13 баллов.

Соответственно третий компонент охватил актуальные структурные составляющие, которые оценены экспертами в 12 баллов (медиана):

- способность к саморегуляции эмоциональных состояний, возникающих в коммуникативной ситуации - 12 баллов;
- сбалансированная эмоциональность - 12 баллов;
- эмпатические способности - 12 баллов;
- развитая рефлексивность - 12 баллов.

В заключительный четвёртый компонент изучаемого явления вошли оставшиеся актуальные структурные составляющие оценённые в 11 баллов (медиана): - коммуникативная толерантность - 11 баллов;

- стремление к саморазвитию - 11 баллов (рис. 4).

Таким образом, проведённый анализ методологических подходов к процессу моделирования показывает, что с учётом цели и задач нашего исследования, под моделью структуры профессионального имиджа современного учителя полагается целесообразным понимать - целостное множество взаимообусловленных структурных элементов, где каждый из них рассматривается с учётом степени влияния на изучаемое явление в целом. По своей сущности исследуемая модель представляет собой иерархически упорядоченную систему взаимосвязанных, взаимообусловленных и условно выделяемых содержательных элементов, которые в совокупности отражают природу целостного понимания имиджа современного учителя. Такой поход, даёт

возможность обоснованно подойти к процессу построения соответствующей модели, конкретизировать этапы её разработки, а также наметить оптимальные пути эффективного развития имиджа современного учителя. Таким образом, проведённая нами экспертная оценка (n=135) теоретически выделенных индивидуально-психологических особенностей, характеризующих в той или иной степени профессиональный имидж учителя, позволил подготовить его структурную модель, состоящую из четырёх компонентов включающие двенадцать актуальных структурных составляющих:

- первый компонент - умение регулировать своё поведение в коммуникативных ситуациях, способность адаптироваться к условиям социальной среды;
- второй компонент - умение самостоятельно преодолевать возникающие жизненные проблемы, низкий уровень конфликтности, коммуникативные и организаторские способности, эмоциональный интеллект;
- третий компонент - способность к саморегуляции эмоциональных состояний, возникающих в коммуникативной ситуации, сбалансированная эмоциональность, эмпатические способности, развитая рефлексивность.
- четвёртый компонент - коммуникативная толерантность, стремление к саморазвитию.

Выделение актуальных структурных составляющих профессионального имиджа современного учителя, а также их классификация и ранжирование по степени значимости основывались на анализе полученных базовых статистических данных (среднестатистический балл, медиана и др.) экспертный оценки.




**Рис. 4. Модель структуры профессионального имиджа современного учителя**

**Литература**

1. Мирзиеев Ш.: «…без изменения школы не изменить человека, общество….» на совещании по вопросам образования. - // Режим доступа: https://www.gazeta.uz/ru/2019/08/23/schools/.

2. Афонин В.В. Моделирование систем: Учебно-практическое пособие / В.В. Афонин. - М.: БИНОМ. ЛЗ, ИНТУИТ, 2012. - 231 с.

3. Ахмедова А.А. Модель и моделирование: Теоретический аспект. // Режим доступа: https://files.scienceforum.ru/pdf/2018/5571.pdf

4. Браже Р.А., Гришина А.А. Моделирование в научном познании. - Ульяновск: УлГТУ, 2007. - 58 с.

5. Дружинин В.Н. Экспериментальная психология - СПб: Издательство «Питер», 2000. - 320 с.

6. Марасанов Г.И. Методы моделирования и анализа ситуаций в социально-психологическом тренинге. Киров, 2003. - 152 с.

7. Нарзикулова Ф.Б. Социально-психологическая модель и условия развития профессионального имиджа учителя в последипломном образовании. // ВЕСТНИК

ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ. Международная Академия Психологических Наук. Журнал для психологов. № 20. - 2020 год. РОССИЯ. - СТР. 89 -93.

8. Нарзикулова Ф.Б. Теоретико-методологические основы исследования развития профессионального имиджа педагога в психологической науке. // Монография. – Самарканд: изд. РЦППКИППКРНОСО, - 2019. - 215 стр.

9. Никандров В.В. Метод моделирования в психологии. - СПб.: Речь, 2003. - 64 с.

10. Черданцев А.Ф. Модель, как мысленный образ. // Режим доступа: https://uchebnikfree.com/gosudarstva-prava-teoriya/model-kak-myislennyiy-3601.

**УДК: 159.9+301.085.15**

# ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФЕНОМЕНА ОДИНОЧЕСТВА

**М.Б. Юлдашева, З. Т. Эргашова**
*Ферганский государственный университет*
*myuldasheva229@gmail.com*

**Аннотация.** Одиночество включает в себя тревожные чувства по поводу отсутствия связи или общения с другими существами, как в настоящем, так и в будущем. В данной статье рассматривается вопрос о чувстве одиночества как социально-психологический феномен, анализируются теоретико-методологические основы данного аспекта, а также раскрываются результаты эмпирического изучения чувства одиночества на развитие личности студенческой молодёжи.

**Ключевые слова:** феномен одиночества, фактор активности, фактор силы, фактор оценки, изоляция, уединение.

## Empirical study of the phenomenon of loneliness

**Abstract.** Loneliness involves anxious feelings about the lack of connection or communication with other person, both in the present and in the future. This article dedicated the issue of loneliness as a socio-psychological phenomenon, analyzed the theoretical and methodological foundations of this aspect, and also revealed the results of an empirical study of the feeling of loneliness on the development of the personality of students.

**Keywords:** phenomenon of loneliness, activity factor, strength factor, evaluation factor, isolation, solitude.

## Yolg‘izlik fenomenining empirik tahlili

**Annotatsiya.** Yolg‘izlik hozirgi kunda va kelajakda o‘zga insonlar bilan aloqa o‘rnatish yoki muloqot qilish yo‘qligi haqida xavotirlanishni ifodalaydigan his-tuyg‘ularni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada yolg‘izlik hissi ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ko‘rib chiqiladi, uning nazariy-uslubiy asoslari tahlil qilinadi, shuningdek, talaba-yoshlarning tasavvurida yolg‘izlik kechinmasini empirik o‘rganish natijalari bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** yolg‘izlik fenomeni, faollik omili, kuchlilik omili, baholash omili, yakkalanish, tanholik.

В настоящее время человек своими рациональными действиями создаёт величайшие материальные и духовные благосостояния и проносит их сквозь тяжелые и трудные испытания эпохи. На протяжении веков влияние цивилизации на общество происходило от изменения условий жизни. Но один вопрос - вопрос о самом человеке, его внутреннем душевном состоянии и истинном смысле его существования до сих пор остается спорным [4, с. 6]. В этом смысле изучение, исследование и анализ молодежной психологии с точки зрения сегодняшнего дня показывает необходимость научно раскрыть ее значение в воспитании совершенной личности.

Проблема одиночества вызывала интерес во все исторические периоды и в настоящее время является темой обсуждения философов, культурологов, психологов, социологов, социальных психологов. Одиночество как специфическое переживание индивида изучается с психологической точки зрения в работах Р. Вейса, К. Хорни, Д. Мейерса, З.Фрейда, К. Юнга и других. На основе анализа эмпирических данных феномен одиночества описывается в трудах Д. Рассела, К. Роджерса, Дж. Янга и других [6]. Сквозь призму социальных процессов одиночество осмысливают К. Боумен, Э.Дюркгейм, Р. Мертон, А. Маслоу, Д. Рисмен, А.Д.Еляков, А. Камю, Ж.Липовецки, Э. Фромм.

Вопросы, связанные с изучением одиночества студенческой молодежи, рассматриваются в исследованиях В. Вейса, К Солано, Дж. Янга, Р.Фридмена, Ю.Д. Бабаева, С. Грофа, Э. Кляйненберга. В большинстве работ указанных авторов проблема одиночества очерчена в контексте отсутствия необходимых социальных навыков у молодых людей [2, с. 17].

В рамках неофрейдистской модели вопрос одиночества изучают Г.Зилбург, Ф.Фромм-Рейхман, Гарри С. Салливан, Ф. Фромм; с точки зрения социологической модели - К.Боумен, Д. Рисмен, Р. Слейтер. Когнитивную модель представляют Литиция Э. Пепла и У. Садлер. Роберт С. Вейс является ярким приверженцем интеракционистской модели. Приватную модель в своих работах рассматривают В. Дерлег и С. Маргулис. С точки зрения экзистенциальной модели вопрос изучают К. Мустакас и Б. Миюскович. Гуманистическая модель близка А. Маслоу, С. Н. Соловьеву, Н. А. Бердяеву, Е.Н. Трубецкому, И. А. Ильину. Общесистемная модель была рассмотрена Дж.Фландерсом. К. Роджерс, Д. Бернштейн и Е.Рой изучали феномен одиночества с точки зрения феноменологической модели [1, с. 26-57].

В настоящее время в связи с глобальными трансформациями в экономической, социокультурной, политической и других сферах общества изменилось отношение к проблеме одиночества. С 90-х г. XX века в мировой психологии появляются научные труды, посвященные осмыслению феномена одиночества. Интерес представляют работы А.А.Артамоновой, С.А. Ветрова, Т.И. Гольман, О.Б.Долгиновой, С.В. Куртиян, Д.А.Матеева, Е.В. Неумовой, А.В. Нечаева, Ж.В.Пузановой, В.А. Сакутина, С.Г. Трубниковой, Г.Р.Шагивалеевой, Л. А. Пьянковой, Е.Н. Заворотных и других [3, с. 4-5].

Исследования узбекских психологов Э.Г.Газиева, Н.Г.Камиловой, Г.К.Тулагановой, Б.М.Умарова, А.Б.Сабировой, Н.Ш.Муллабаевой направлены на изучение психологических особенностей феномена одиночества в детском и подростковом возрасте, в котором основное внимание уделяется проблемам девиантного поведения, акцентуации характера, суицидальном поведение подростков, самооценки и самоконтроля [5, с. 7]. Тот факт, что чувство одиночества в Узбекистане не изучался как предмет психологических исследований в разрезе других возрастных периодов, свидетельствует об актуальности темы исследования в нашей стране.

Целью исследования является разработка феноменологии социальнопсихологического одиночества и на этой основе раскрыть его роль в развитии психологической науки.

Задачи исследования включают следующее:

- Уточнить содержание и специфику определения социальнопсихологического одиночества в рамках изучения этого понятия в студенческой среде
- Рассмотреть причины возникновения социально-психологического одиночества в студенческой среде;
- Разработать методологию исследования социальнопсихологического одиночества в студенческой среде.

В получении эмпирических данных приняли участие студенты Ферганского государственного университета. Возрастное ограничение составляло 17-25 лет, всего 126 респондентов.

В исследование использованы такие методы, как объективность, системность, сравнительный анализ, анализ и синтез, обобщение, историзм, логика научного и психологического знания. Также использовались эмпирические методы - социально-психологическая анкета.

В ходе проведения нашего экспериментального исследования мы составили анкету. В нем мы постарались подчеркнуть специфические стороны проявления социально-психологического чувства одиночества исходя из психологического образа студентов.

На первый вопрос: “Что вы понимаете под термином одиночество?”, мы получили следующие ответы. Оказалось, что многие респонденты понимают одиночество как сочетание физического и духовного одиночества. По их мнению, отсутствие достаточного количества общения приводило к приходу физического одиночества, в котором они подчеркивали количественный аспект круга общения. А духовное одиночество было связано с качественной стороной общения, то есть с его эмоционально-психологической составляющей. Респонденты отметили, что человек может быть один то есть наедине с самим собой при этом он может чувствовать себя эмоционально спокойно и комфортно. Но, не будучи внутри людей, можно также чувствовать себя одиноким. Чувство одиночества зависит от категорий человеческого характера: интроверт на некоторое время даже в физической изоляции не чувствует себя одиноким, а экстраверт, наоборот, нуждается в постоянном общении, чтобы он мог сохранить свое одиночество в адекватной фигуре. По мнению респондентов, наличие приятного собеседника

для самого человека будет способствовать прощению чувства одиночества. Студенты 1-го курса отметили, что одиночество это физическое торможение . Студенты 3-го курса утверждают, что в современном обществе, которое сейчас полно глобальных изменений, восприятие одиночества занимает больше времени, потому что молодые люди выступают в качестве объекта постоянного общения, и даже восприятие внутренней пустоты отклоняется. Даже без близкого человека человек испытывает влияние в результате постоянного движения, что делает одиночество далеким от нашей жизни. Можно сделать вывод, что более глубокое понимание социальной жизни, особенностей в ней, личностной идентификации и рефлексии студентов 3-го курса по отношению к студентам 1-го курса позволяет увидеть в них направленность феномена одиночества на позитивность. Первокурсник приобретая статус студента в существовании в воображении вызывает некоторые сложности и личная идентификация осуществляется недвусмысленным образом.

Следующий вопрос "Что помогает преодолеть чувство одиночества?" Из ответов на этот вопрос были выделены социальные и личностные детерминанты. Личностные детерминанты включали уверенность в завтрашнем дне, приятные впечатления от окружающих, искренность в общении, открытость к новостям и т. д. Студенты 3-го курса также подчеркивали место личной воли и решимости в одиночестве. А студенты 1-го курса опирались в основном на искренность при вступлении в общение с другими людьми. В качестве социальных детерминант были введены все методы социального воздействия, поддерживаемые друзьями и близкими, профессиональная зрелость в рамках своей специальности, хобби, туризм, то есть отвлекающие занятия человека. Все опрошенные ставят семью на первое место. На самом деле, будучи членом семьи, зная индивидуальные психологические особенности каждого члена семьи, они способны эффективно влиять на нее. Студенты 3-го курса ответили, что решение проблем вместе со своими сверстниками также считается важным определяющим фактором.

"Что мешает преодолеть одиночество?" Здесь также включается в число личностных детерминант чувства, черты характера, возникновение сложности при вступлении с незнакомыми людьми, застенчивость, неспособность к общению, фобии. Студенты третьего курса отметили, что при восприятии одиночества важно понимать его позитивность. А первокурсники констатировали, что одиночество еще более тяжело сказывается на интровертах и мешает им преодолеть это чувство. В качестве социальных детерминант выступают резкое усиление информатизации общества, социальный статус, образ жизни, негативное отношение окружающих людей, место жительства, неправильное восприятие одиночества в окружающей среде и др. В современном обществе перенос основного времени студентов в социальных сетях приводит к искусственности общения. В результате показатель эмоционального принятия собеседника в эмоциональном плане снижается, а склонность к одиночеству возрастает. Преобладание субъективных выводов в отношениях молодых людей также вызывает чувство одиночества, сужая круг общения в них.

"Каковы, на ваш взгляд, причины проявления чувства одиночества у студенческой молодежи?" Отвечая на этот вопрос, респонденты уверенно опирались на личный жизненный опыт. Причины интерпретировались как личностные и социальные проявления. То есть высокая видимость индивидуализма, риск отвержения, самооценка, личностные недостатки, вариативность системы ценностей, ограниченность. Эти причины возникают в связи с психологическими дисбалансами, повсеместной блокадой, воспитанием и т. д. Среди социальных причин отсутствие жизненного опыта, хрупкость людей, информатизация общества, неспособность удовлетворительно проводить свободное время, утрата толерантности. Хотя студенты 1-го курса часто говорят, что несбывшие ожидания создают сложности в реальной жизни, и это состояние тяготеет к одиночеству, студенты 3-го курса также утверждают, что одиночество в такой ситуации помогает. У молодых людей повышение самостоятельности, укрепление их социального статуса и четкое выражение стремления приводят к позитивному восприятию чувства одиночества. В результате было отмечено, что они будут использовать одиночество как возможность для самовыражения. Студенты 1-го курса подчеркивали, что они должны отдаляться друг от друга, считая, что переход общения в интерактивную форму формируются как новая социальная группа. Было также отмечено, что непонятность незнакомцев создает для них основу для одиночества.

"Назовите методы для преодоления одиночества". Конечно, в ходе беседы была дана обратная связь и по решению этой проблемы. Их отличие состоит в том, что на 3-м курсе студенты отмечали, что не нужно преодолевать это явление, а нужно использовать его с умом, если процесс самосознания человека и выявления одиночества адекватны. При этом была отмечена важность таких особенностей,

как правильный способ общения, потребность в личностном росте, проявление настойчивости в самосовершенствовании. Мнение студентов 1-го курса было в другом направлении, они выражали необходимость ориентироваться на восприятие недостатков и фобий на этапе перехода на статус студента. Было также отмечено, что на 1-м курсе целесообразно осуществлять на основе принципов нравственности характеристики выражения эмоциональных переживаний, присущих человеку духовности по всем направлениям.

В конце беседы мы разделили социальные и личностные детерминанты чувства социально-психологического одиночества с точки зрения феноменологического подхода.

**Таблица 1**

| **Социальные детерминанты чувства одиночества** | **Личностные детерминанты чувства одиночества** |
|---|---|
| Неполноценная семья | Фобии |
| Семья | Высокий уровень эмоциональности |
| Принудительная изоляция | Высокий уровень рефлексии |
| Слабые коммуникативные отношения | Высокая степень зависимости |
| Проблема идентификации ролей в семьях | Комплекс неполноценности |
| Социальная изоляция | Фрустрация |
| Процесс адаптации | Развитие интроверсии |
| Самоизоляция | Высокий уровень самосознания |
| Развитие лидерских качеств | Высокий уровень коммуникации |
| Девиантное поведение | Психические отклонения |
| Гендерные проблемы | Половое развитие |

В рамках феноменологического подхода можно сделать вывод, что сочетание вышеперечисленных детерминант приводит к переживанию чувства одиночества. Каждый компонент, приведенный в таблице, может служить отдельной исследовательской основой. Оказывается, изучение феномена одиночества обширно и безгранично.

**Литература**

1. Корчагина, С.Г. Психология одиночества: учебное пособие. – М.: Московский психолого-социальный институт, 2008. -228 с.
2. Рашидова, Т.Р. Одиночество человека: философско-антропологическое осмысление проблемы: автореф. дисс. … канд. филос. наук. Москва, 2012. 220 с.
3. Филиндаш, Е.В. Феноменология социально-психологического одиночества в среде студенческой молодежи: дис. ... канд. психол. наук : 19.00.05 / Е. В. Филиндаш; Моск. гос. ун-т. – Москва, 2015. –202 с.
4. Юлдашев Ф. Абу Наср Форобийнинг “Фи-маъоний-ал-ақл” асарида гносеологик масалалар. Монография. – Т.: Тамаддун, 2012. -136 б.
5. Юлдашева М.Б. Ёлғизлик психологияси. Монография. – Ф.: 2020, -96 б.
6. Yuldasheva M.B. Socio-psychological features of feeling loneliness among students. // European Journal of Educational and Reflection Sciences. Volume 7 Number 12, 2019 part VIII, United Kingdom, page 28-33.

**UDK: 159.9+301.085.15**

## XALQ TA’LIMI TIZIMI RAHBARLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIGI, BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH USLUBLARI VA INTEGRAL TASHKILIY QOBILIYATLARI

**A. M. Shonazarov**
*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*
*ashonazarov83@mail.ru*

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada umumta’lim tizimi rahbarlardagi ijtimoiy-psixologik kompetentlikning boshqaruv qarorlarini qabul qilish uslublariga bog‘liq holda namoyon bo‘lish xususiyatlari va integral tashkiliy qobiliyatlarga bog‘liq holda namoyon bo‘lish xususiyatlari yoritib berish nazarda tutilgan. kompetents

**Kalit so‘zlar:** Xalq ta’limi tizimi, rahbar, boshqaruv, ijtimoiy-psixologik kompetentlik, qaror, uslub, integral, tashkiliy, qobiliyat, namoyon bo‘lish, xususiyat.

**Система общественного образования социально-психологическая компетентность лидеров, методы принятия решений управления и комплексные организационные возможности**

**Аннотация.** Данная научная статья призвана осветить особенности проявления социально-психологической компетентности в системе общего образования применительно к методам принятия управленческих решений и применительно к целостным организационным навыкам.

**Ключевые слова:** система народного образования, лидер, менеджмент, социально-психологическая компетентность, решение, стиль, целостность, организационная, способность, проявление, характеристика.

**Public education system social and psychological competence of leaders, management decision methods and integrated organizational abilities**

**Abstract.** This scientific article is intended to highlight the characteristics of the manifestation of socio-psychological competence in the management of the general education system in relation to management decision-making methods and integral organizational skills.

**Keywords:** Public education system, leader, management, socio-psychological competence, decision, style, integral, organizational, ability, manifestation, feature.

**Mavzusining dolzarbligi.** Jahon ta’lim sohasidagi bugungi kunda rahbar xodimlarni tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi professional kompetentligi yuqori, raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalashgadan iborat. Jumladan, Buyuk Britaniyadagi maktab menejerlarini tayyorlash tizimini rivojlantirishning milliy markazi tomonidan 2000-yildan buyon amalga oshirilayotgan loyihalar, qator rivojlangan mamalakatlarda 2011-yildan boshlab amaliyotga joriy etilayotgan “Advanced certificate in education school leadership” loyihasi, 2016-yil 23-iyunda qabul qilingan “Ta’lim muassasasi rahbarining kasbiy talablari” dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar rahbar hodimlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish masalalarini o‘rganishga e’tibor berilmoqda.

Darhaqiqat mamlakatimizda ham rahbar xodimlarning kasbiy kompetentligini oshirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan “Yangi O‘zbekiston – yagicha dunyoqarash” shiori ostida yurtimizni yangi taraqiyot bosqichiga olib chiqish, ilm-ma’rifatni yanada rivojlantirish, xalq ta’lim tizimidagi islohatlarning samaradorligini va sifatini oshirish, rivojlangan mamlakatlarning ta’lim tizimi darajasiga yetkazish ustuvor masalalardandir. Shu nuqtai nazardan oladigan bo‘lsak “xalq ta’limi muassasalari rahbarlari – ta’lim sohasi menejerlari va o‘qituvchilar kasbiy kompetentsiyalari saviyasini belgilashning milliy standartlari tizimini amaliyotga joriy etish”, “xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi samaradorligini yanada takomillashtirish, ularning kasbiy kompetentligini doimiy rivojlantirish” kabi ustuvor vazifalarni bajarishni ta’minlashda psixologik ta’sir mexanizmlari va texnologiyalari muhim o‘rin tutadi. Bu esa o‘z navbatida mavzuning jamiyat hayoti uchun naqadar dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

**Tadqiqotning maqsadi** ta’lim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash asosida uni rivojlantirishning amaliy imkoniyatlarini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifasi sifatda** 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, 2018-yil 5-sentyabrdagi PQ-3931-son “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida hamda shu sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi. Chunki, boshqa sohalar singari ta’lim sohasida ham pedagogik jamoadagi ijtimoiy psixologik muhit albatta, rahbar xodimning boshqaruvchilik san’atiga bog‘liqdir. Shu nuqtai-nazardan qaralganda umumta’lim mktablari direktorlarini kasbiy kompetentligini aniqlash, ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini baholash, boshqaruv qarorlarini qabul qilishga o‘rgatish va boshqaruv uslublarni to‘g‘ri yo‘naltrishga doir tahlil natijalarini shlab chiqish, boshqaruvchanlik xususiyatlarini takomillashtirish, integral tashkiliy qobiliyatlari rivojlanirish tadqiqotda hal etilishi zarur bo‘lgan vazifalardan hisoblanadi.

**Tadqiqotning ob’ektini** A.Avloniy nomidagi xalq ta’limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining 412 nafar tinglovchilari tashkil etdi.

**Tadqiqotning predmetini** rahbar xodimlarning ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini shakllanishi, rivojlanishi va namoyon bo‘lishining ijtimoiy psixologik jihatlari tashkil etadi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Rahbar xodimlarning ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligi masalasini o‘rganilganlik darajasi haqida ma’lumot berishdan avval, mazkur tushunchaning mazmuniga to‘xtalib o‘tsak. Rahbarlarning ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligi pedagogik jamoadagi shaxslararo munosabatlarda ta’sir mexanizmlarini to‘g‘ri tanlay olish, jamodagi o‘zaro hamkorlik muhitini saqlab qola olish, boshqaruv qarorlarini qabul qila olish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olish qobiliyati bilan belgilanadi. Psixologiyada rahbar shaxsi va uning faoliyatini tashkil etishning psixologik mexanizmlari, kasbiy kompetentlik masalasi keng tadqiq etilgan. Jumladan, boshqaruv psixologiyasi, rahbar hodimlarning shaxsi va kasbiy faoliyati masalasi F.U.Teylor, Yu.A.Konarjeevskiy, V.Yu.Krichevskiy, M.M.Potashnik, P.I.Tretyakov, T.I.Shamova, R.X.Shakurova, E.G‘.G‘oziev, V.M.Karimova, G‘.B.Shoumarov, N.Boymurodov, N.Ro‘ziqulov, I.Maxmudov, D.G.Muxamedova, B.S.Qalmuratov tomonidan, rahbar shaxsining mutaxassis sifatida kasbiy shakllanishi, shaxsda kasbiy psixologik kompetentlikni rivojlanishi masalasi A.K.Markova, N.N.Rыbakova, E.V.Tarasova, N.V.Kuzmina, Yu.N.Kulyutkin, T.Yu.Konovalova, E.V.Mesheryankova A.V.Kvitchastiy, T.Yu.Bazarov, E.G.Islamgaliyev, Yu.N.Emelyanov, Sh.H.Abdullayeva, M.B.Narzullayeva, O.E.Hayitov tomonidan tadqiq etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ta’kidlash keraki, xorij, o‘zbek psixologlari tomonidan boshqaruv psixologiyasi masalalari, ta’lim tizimini boshqarish, rahbar shaxsiga qo‘yiladigan talablar chuqur tahlil qilib berilganligiga qaramay, aynan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan rahbar shaxsining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini namoyon bo‘lish mexanizmlari hamda uni rivojlantirish masalasi alohida tadqiqotlar predmeti sifatida tadqiq etilmagan.

Har qanday soha singari ta’lim sohasida faoliyat yurituvchi jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit, jamoa a’zolarining o‘z ichki salohiyatlarini to‘la-to‘kis namoyon etishi uchun shart-sharoit yaratish, jamoada sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish rahbar shaxsining boshqaruv kompetentsiyasiga egalik darajasiga bog‘liq. Shu boisdan ham Yer yuzida insoniyat paydo bo‘libdiki, hamisha jamoani boshqaradigan mahoratli rahbarlarni tanlash masalasiga jiddiy e’tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan umumiy o‘rta ta’limi tizimi rahbarlarining kasbga oid ijtimoiy-psixologik kompetentligini o‘rganish hamda maktab direktorlarini shaxsiy tajribalariga mos keladigan, ularni ijodiy fikrlashga undaydigan, ijodkor rahbarlardan har qanday sharoitda oqilona qarorlar qabul qila oladigan, tezkor axbarotlar zamonida faol, tashkilotchilik faoliyati davomida maqsadlari aniq, professional omilkorlik darajalarini tadqiq etish bugungi kundagi dolzarb masalalardandir. Bizga ma’lumki, rahbar faqat pedagogik jamoadagi shaxslararo munosabatlarining subyektigina emas, balki boshqaruv faoliyati, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonining yetakchisi hamdir. Shunday ekan, rahbarning ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligi bevosita boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ham namoyon bo‘lishi muhim hisoblanadi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda rahbar psixoemotsional holatining barqaror bo‘lishi optimal qaror qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi. Shuningdek, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitning sog‘lom bo‘lishi talab etiladi. Ma’lumki, pedagogik jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit ko‘p jihatdan rahbarning ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentsiyasiga bog‘liqdir.

Biz ilmiy tadqiqot ishimizda kasbiy kompetetlikning mohiyatini tushuntirib beruvchi vaziyatli yondashuvga muvofiq rahbarlarning qaror qabul qilishdagi individual uslublarini ijtimoiy-psixologik kompetentlik darajasida namoyon bo‘lish jihatlarini tadqiq etishni ham o‘z oldimizga maqsad qilib belgilagan edik. Shunga muvofiq, respondentlarimizda “Boshqaruvchanlik qarorlarini qabul qilish uslublarini baholash” metodikasini o‘tkazib oldik. Respondent rahbarlarning “hukm o‘tkazishga” yoki “muammoli vaziyatdagi xulq-atvori”ni namoyon qilishga moyilligini ijtimoiy-psixologik kompetentlik bilan aloqadorlik jihatlari 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval.**

**Rahbarlardagi ijtimoiy-psixologik kompetentlikning boshqaruv qarorlarini qabul qilish uslublariga bog‘liq holda namoyon bo‘lish xususiyatlari (N=412)**

| № | Mezonlar | 5 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan rahbarlar | 10 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan rahbarlar | 15 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan rahbarlar | 15 yildan yuqori ish stajiga ega bo‘lgan rahbarlar |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Hukmni o‘tkazish | 0,092 | 0,094 | 0,117* | 0,170** |
| 2 | Muammoli vaziyatdagi xulq-atvor | 0,151** | -0,88 | -,0135** | -0,55 |

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$.

Yuqorida keltirilgan 7-jadvaldan ko‘rinib turganidek, 5 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan rahbarlarda muammoli vaziyatdagi xulq-atvor (r=0,151; p≤0,01), 15 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan rahbarlarda hukmni o‘tkazish (r=0,117; p≤0,05), muammoli vaziyatdagi xulq-atvor (r=-0,135; p≤0,01), 15 yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan rahbarlarda hukmni o‘tkazish (r=0,170; p≤0,01) ahamiyatli statistik korrelyatsiyaga ega bo‘lgan. Qolgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha ahamiyatli bog‘liqlik aniqlanmagan.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda hukmni o‘tkazish pedagogik jamoa xulq-atvoriga rahbarning iroda kuchi, ijtimoiy obro‘si, huquqiy me’yorlar orqali ta’sir etishi nazarda tutiladi. Aynan mana shu boshqaruv qarorlarini qabul qilish uslubi rahbarning ijtimoiy psixologik kompetentligi bilan statistik ahamiyatli korrelyasiya bergan 15 yil va undan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan rahbarlarda ijtimoiy tajribaning ortishi bilan kognitiv, kommunikativ, ijtimoiy perseptiv qobiliyatini, interaktiv ta’sir usullarini optimal darajada qo‘llash ko‘nikmasini progressiv ortib borishidan dalolat beradi. Yosh rahbarlarda pedagogik jamoani boshqarish, ularga o‘z fikrini o‘tkazish, qaror qabul qilishda qat’iy fikrni bildirish ko‘nikmasining ijtimoiy tajribaga bog‘liq ravishda etarli emasligi ularning rahbarlik ijtimoiy-psixologik kompetentsiyasini namoyon qilishda hamkorlikka intilish pozitsiyasidan turib boshqaruvni amalga oshirishlaridan dalolat beradi.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muammoli vaziyatdagi xulq-atvorga yo‘nalganlik ko‘pincha yosh rahbarlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi bilan uyg‘un holda namoyon bo‘lgan. Bu yosh rahbarlarning yuqori darajadagi intellektual faolligi, faoliyat va muammoning asl sabablarini izlashga intilishining kuchliligidan dalolat beradi. Biroq rahbarning qarorlari muayyan vaziyatdagi muammoli holatga yo‘nalganligi uchun boshqaruv faoliyatidagi ayrim jihatlar mavhumligicha qoladi va rahbarda frustratsiya holatini chaqiradi. Mazkur holat esa rahbarning o‘zini-o‘zi himoyalashga, faoliyatning natijasi uchun javobgarlikni o‘z zimmasidan soqit qilishga va “rahbar-xodim” munosabatlari tizimida nizoli holatlarni rivojlanishiga olib keladi. Aynan mana shu nizoli holatlarni konstruktiv hal etishga hamda rahbar shaxsining emotsional barqarorligini saqlab qolishga intilishi uning ijtimoiy-psixologik kompetentsiyasi doirasida amalga oshadi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muammoli vaziyatdagi xulq-atvorga yo‘nalganlikning ijtimoiy-psixologik kompetentlikda namoyon bo‘lishi rahbarning ish stajiga bog‘liq ravishda regressiv xususiyatga ega ekanligi aniqlandi. Shu boisdan ham, 15 yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan rahbarlarning natijalarida teskari korrelyasiya aniqlangan. Bunda rahbarning tajribasi ortishi bilan u pedagogik jamoani boshqarish, shaxslararo munosabatlarni barqarorlashtirish, ijtimoiy psixologik muhitni sog‘lomlashtirishga oid qarorlarni qabul qilishda aynan muammoli vaziyatga emas, balki istiqboldagi rejalarga e’tibor qaratishi kuzatiladi.

Yuqoridagi empirik natijalarga asoslanib aytish mumkinki, rahbarning boshqaruv qarorlarini qabul qilishida, pedagogik jamoaga interaktiv ta’sir etishida ijtimoiy-psixologik kompetentlik muhim ahamiyatga ega. Chunki, rahbarning o‘z hukmini o‘tkazishida ham, muammoli vaziyatga yo‘nalgan xulq-atvor uslubidagi qarorlarni qabul qilishida albatta, pedagogik jamoadagi har bir xodimning individual psixologik xususiyatlarini bilishi va ularga ta’sir etish texnikasidan xabardor bo‘lishi kerak.

Biz ilmiy izlanishlarimizda rahbardagi ijtimoiy-psixologik kompetentlik boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan bir qatorda uni ijtimoiy vaziyatlarga yo‘nalganlikning o‘ziga xos uslubi ekanligini hisobga olib, rahbarlardagi kompetentlik va integral tashkiliy qobiliyatlarni o‘zaro bog‘liq jihatlarini tadqiq etishni ham o‘z oldimizga maqsad qilib olgan edik. Shu maqsadda L.I.Umanskiy va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan “Guruhda shaxsning tashkilotchilik qobiliyatini psixologik baholash” metodikasidan foydalandik. Mazkur metodikadan olingan natijalar quyidagi 2-jadvalda aks ettrildi:

**2-jadval.**

**Rahbarlardagi ijtimoiy-psixologik kompetentlikning integral tashkiliy qobiliyatlarga bog‘liq holda namoyon bo‘lish xususiyatlari (N=412)**

| № | Mezonlar | 5 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan rahbarlar | 10 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan rahbarlar | 15 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan rahbarlar | 15 yildan yuqori ish stajiga ega bo‘lgan rahbarlar |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Ijtimoiy persepsiya | 0,062 | 0,094 | 0,117* | 0,199** |
| 2 | Tanqidiy psixologik tafakkur | 0,085 | 0,102 | 0,018 | 0,014 |
| 3 | Psixologik takt | -0,043 | 0,111 | 0,214** | 0,334** |
| 4 | Ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish | 0,042 | 0,056 | 0,134* | 0,258** |
| 5 | O‘zgalarga talabchanlik | 0,002 | 0,016 | 0,056 | 0,102 |
| 6 | Tanqidchanlik | 0,012 | 0,004 | 0,051 | 0,110 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 7 | Tashkilotchilik faoliyatiga moyillik | 0,212** | 0,018 | 0,114* | 0,242** |

Izoh: * p≤0,05; ** p≤0,01.

Yuqorida keltirilgan 8-jadvaldan ko‘rinib turganidek, 5 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan rahbarlarda tashkilotchilik faoliyatga moyillik (r=0,212; p≤0,01), 15 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan rahbarlarda ijtimoiy persepsiya (r=0,117; p≤0,05), psixologik takt (r=0,214; p≤0,01), ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish (r=0,134; p≤0,05), tashkilotchilik faoliyatiga moyillik (r=0,114; p≤0,05), 15 yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan rahbarlarda ijtimoiy persepsiya (r=0,199; p≤0,01), psixologik takt (r=0,334; p≤0,01), ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish (r=0,258; p≤0,01), tashkilotchilik faoliyatiga moyillik (r=0,242; p≤0,01) ahamiyatli statistik korrelyasiyaga ega bo‘lgan. Qolgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha ahamiyatli bog‘liqlik aniqlanmagan.

Ijtimoiy persepsiya bizga ma’lumki, muloqotda shaxsning boshqa insonlar holatini to‘g‘ri idrok qilishi, tushunishi va anglashi jarayonidir. Shunday ekan ijtimoiy persepsiyani ijtimoiy-psixologik kompetentlikning muhim komponenti deyish mumkin. 15 yil va undan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan rahbarlarda ijtimoiy persepsiyaning refleksiya, indentifikatsiya mexanizmlari pedagogik jamoadagi shaxslararo munosabatlarda yaqqol namoyon bo‘lishi kuzatilgan. Yosh rahbarlarda esa “bunday bo‘lishi kerak”, “bunday deyish kerak” qabilidagi stereotipik fikrlar, haddan ortiq empatiya ijtimoiy tajribaning kamligi bois ko‘zga tashlanadi. Mazkur holat rahbarlarda ijtimoiy persepsiya va ijtimoiy-psixologik kompetentsiya ish stajiga bog‘liq ravishda ortib borishidan dalolat beradi. Rahbarning ish staji qanchalik yuqori bo‘lsa, uning ijtimoiy-psixologik kompetentsiyasi takomillashib boradi va ijtimoiy persepsiyaning namoyon bo‘lish jihatlari ham unga mos ravishda ortib boradi.

Navbatdagi integral qobiliyat psixologik takt bo‘lib, rahbarning xodimlar bilan munosabatlarni o‘rnatishida va ular bilan o‘zaro munosabatlardagi yondashuvini aniqlash qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Mazkur qobiliyat 15 yil va undan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan rahbarlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligida ahamiyatli statistik aloqadorlikda reprezentatsiyalanishi aniqlangan. Bu tajribali rahbarlarning emotsional, ijtimoiy intellektining yuqoriligidan, pedagoglar bilan muloqotga kirishishda “nutq madaniyati”ning sir-asrorlaridan xabardorligidan, muloqot jarayonida “yangilik effektini” ishlash mexanizmidan samarali foydalanishidan, “rahbar-xodim” munosabatlari tizimida “Kimga? Qanday?” munosabat qilishni bilishidan dalolat beradi. 5 va 10 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan rahbarlar ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish bilan bir qatorda atrofdagilar muloqotda ko‘proq kommunikativ funksiyani bajarishga e’tibor qaratganliklari bois tadqiq etilayotgan ikki o‘zgaruvchi orasida korelyasion aloqadorlik aniqlanmagan.

Ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish rahbarning pedagoglar jamoasiga ta’sir eta olishi, xodimlarga motivatsiya berishi bilan xarakterlanib, 15 yil va undan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan rahbarlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini ko‘rsatib beradi. Tajribali rahbarlar individual tarzda guruhga motivator sifatida, pedagogik jamoaning rahbar shaxsiga boshqaruv faoliyatini ijtimoiy nazoratchisi sifatida ta’sir eta olishi jihatlarini hisobga olgan holda yondashishlarini anglatadi. 5 va 10 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan rahbarlarda esa ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish ijtimoiy-psixologik kompetentsiya bilan ahamiyatli korrelyasiya bermaganligining sababi, ular o‘zaro munosabatlarda faqatgina ijtimoiy nazoratchi sifatida namoyon bo‘lishga intiladilar. Mazkur holat esa jamoadagi shaxslararo munosabatlarda rahbarning o‘z kasbiy “Meni”ni tasdiqlash ehtiyoji bilan bog‘liq bo‘lib, boshqaruvning dastlabki yillarida assertiv xulqning shaxslararo munosabatlardagi muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi bilan uyg‘un holda kechishidan dalolat beradi.

Navbatdagi integral xususiyatimiz bo‘lmish tashkilotchilik faoliyatiga moyillik har qanday rahbar va liderning muhim qobiliyati hisoblanadi. Chunki, har qanday rahbar avvalo tashkilotchi bo‘lishi kerak. Shu boisdan ham barcha guruh ishtirokchilarida ijobiy ahamiyatli korrelyatsiya bergan. Mazkur holat rahbarlardagi shaxslararo munosabatlarda eng nozik qirralarga e’tibor qaratishidan, rahbar – xodim munosabatlari tizimida emotsional holatning uyg‘unligidan, intellektning amaliy yo‘nalganligidan, xodimlarni uyushtira olishi, faoliyatni rejalashtira olishi, uning natijasini tahlil qila olishi, shaxslararo munosabatlarni nazorat qila olishi va refleksiya darajasidan dalolat beradi.

Umuman olganda shaxsning integral qobiliyatlari rahbar ijtimoiy-psixologik kompetentligini namoyon bo‘lishida muhim ahamiyatga ega. Xususan, rahbarning pedagogik jamoani boshqarishi, xodimlar bilan shaxslararo munosabatlardagi muloqot madaniyati, o‘z fikrini jamoaga yetkazib bera olishida ijtimoiy persepsiya, psixologik takt, ijtimoiy ta’sir etish, tashkilotchilik qobiliyatining o‘rni ahamiyatlidir.

Rahbarlarning boshqaruv qarorlarini qabul qilishida va integral qobiliyatlarini namoyon bo‘lishida ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentlikni o‘ziga xos tarzda yuzaga chiqishi masalasini empirik o‘rganish asosida quyidagi xulosalarni shakllantirishi mumkin:

- rahbar boshqaruv qarorlarini qabul qilishning hukm o‘tkazish va muammoli vaziyatdagi xulq uslublarini pedagogik ish stajiga bog‘liq ravishda amalda qo‘llashi va pedagogik jamoaga interaktiv ta’sir etishida ijtimoiy-psixologik kompetentlik muhim ahamiyatga ega;
- rahbarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi ijtimoiy persepsiya, psixologik takt, ijtimoiy ta’sir etish, tashkilotchilik qobiliyati kabi integral qobiliyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, rahbarning ish staji ortishi bilan integral qobiliyatlarning ijtimoiy-psixologik kompetentlikda reprezentatsiyalanish xususiyati ham ortib boradi.

Ilmiy izlanishlar tahlilidan kelib chiqib quydagi ijtimoiy-psixologik kompetentligini namoyon bo‘lishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tavsiyalarlar ishlab chiqildi:

- ta’lim tizimi rahbarning pedagogik jamoani boshqarishi, xodimlar bilan shaxslararo munosabatlarga kirishishida nutq madaniyatga va muloqot madaniyatiga rioya qilshiga doir kreativ yondoshuvlarni yo‘lga qo‘yish;
- haqiqiy rahbar sifatida o‘z fikrini jamoaga aniq va ishonchli tarzda yetkazib bera olishida ijtimoiy persepsiya, psixologik takt, o‘zaro ta’sir mexanizmlaridan samarali foydalnish orqali jamoaga ijtimoiy ta’sir eta olishni takomilashtirishga erishish;
- rahbar ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilishida va integral qobiliyatlarini namoyon bo‘lishida ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentlikni keng qamrovi ta’sirchan ifodalanishi masalasini empirik tarzda o‘rganish hamda tahlil qilish mexanizmlaini yo‘lga qo‘yish;
- rahbar boshqaruv qarorlarini qabul qilishning hukm o‘tkazish va muammoli vaziyatdagi xulq uslublarini pedagogik ish stajiga bog‘liq ravishda amalda qo‘llashi va pedagogik jamoaga interaktiv ta’sir etishida muhim ijtimoiy-psixologik kompetentlik darajasini oshirish;
- rahbarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi ijtimoiy persepsiya, psixologik takt, ijtimoiy ta’sir etish, tashkilotchilik qobiliyati kabi integral qobiliyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, rahbarning ish staji ortishi bilan integral qobiliyatlarning ham ijtimoiy-psixologik kompetentlikda reprezentatsiyalanish xususiyati ortib borishiga qratilgan uslublardan foydlanish;
- hozirgi kunda axborot oqimining jadalligi va ta’lim tizimidagi islohotlarning shaxs kognitiv, ijtimoiy, konativ sohasiga qo‘yadigan talablarning ortishi rahbar xodimlarning ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillarni o‘rganish orqali uni rivojlantirishning amaliy imkoniyatlarini oshirishni yo‘lga qo‘yish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, ta’lim tizimi rahbarlarida kasbiy kompetentlik reprezentatsiyasining dinamik xususiyatlari, ijtimoiy-psixologik kompetentlikning namoyon bo‘lish jihatlari va komponentlarini o‘rganish asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

- rahbarlarning kasbiy ijtimoiy-psixologik kompetentligi masalasini tadqiq etishda determinizm, rahbar faoliyatiga tizimli yondashuv, vaziyatli yondashish tamoyillaridan metodologik tamoyil sifatida foydalanish tadqiqot ishining ilmiylik darajasini oshirdi;
- ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi rahbar xodimlarning kasbiy kompetentlik darajasini ko‘rsatuvchi rejalashtirish, o‘z faoliyatini tashkillashtirish, faoliyat natijasiga yo‘nalganlik ish stajiga bog‘liq ravishda dinamik tarzda ortib borish xususiyatiga ega bo‘lsa, maqsadga intiluvchanlik, qat’iyatlilik, faoliyatni tizimlashtirish uchun qayd etib borish pedagogik ish stajiga bog‘liq holda notekis rivojlanish qonuniyatiga bo‘ysunishi kuzatildi;
- ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi rahbar xodimlarni lavozimga tayinlashda e’tibor qaratiladigan kasbiy kompetentlikning komponentlari ichida kognitiv va ijtimoiy komponent ustuvor xarakterga egaligi, rahbarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi ko‘proq hollarda shaxslararo munosabatlarda shaxsga ta’sir eta olish malakasida namoyon bo‘lishi, rahbarlarning ijtimoiy-psixologik kompetentlik darajasini namoyon bo‘lishiga to‘sqinlik qiluvchi omillarning aksariyati tashqi ta’sirlar bilan bog‘lab izohlanganligi aniqlandi;
- rahbarlardagi empatiya boshqaruv faoliyatida ish stajiga bog‘liq ravishda individual uslubda, ya’ni yosh rahbarlar pedagogik jamoada ijtimoiy mavqega ega bo‘lish va xodimlar tomonidan tan olinish istagi ta’sirida empatiya hissini turli darajada xodimlar bilan shaxslararo munosabatlarda ko‘proq namoyon qilishlari, rahbarlarning ish tajribasi va kasbiy mahoratining ortishi bilan empatiya hissini namoyon qilish darajasi individual tarzda, ratsional xarakterda ro‘yobga chiqishi kuzatildi;
- rahbarlardagi real refleksiya bilan muloqotdagi refleksiya darajasi shaxsning ijtimoiy pedagogik tajribasi va ish stajining ortishi bilan bog‘liq dinamik xususiyatga ega ekanligi asoslab berildi;
- boshqaruv faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlikning namoyon bo‘lishi rahbar-xodim munosabatlari tizimida ikki tomonning o‘zaro bir-birini anglashi, o‘zaro tushunishi, o‘zaro ta’sir eta olishi, ayniqsa rahbarning paralingvistik, tarbiyaviy ta’sir mexanizmlaridan unumli foydalana olishi, ijtimoiy faolligi, ijtimoiy yo‘nalganligi reprezentatsiyasining o‘ziga xos jihatlari ilmiy isbotlab berildi;

- rahbar boshqaruv qarorlarini qabul qilishning hukm o‘tkazish va muammoli vaziyatdagi xulq uslublarini pedagogik ish stajiga bog‘liq ravishda amalda qo‘llashi va pedagogik jamoaga interaktiv ta’sir etishida ijtimoiy-psixologik kompetentlik muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi;
- rahbarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi ijtimoiy persepsiya, psixologik takt, ijtimoiy ta’sir etish, tashkilotchilik qobiliyati kabi integral qobiliyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, rahbarning ish staji ortishi bilan integral qobiliyatlarning ijtimoiy-psixologik kompetentlikda reprezentatsiyalanish xususiyati ham ortib borishi tadqiq etildi.

Ilmiy tadqiqot doirasida olib borilgan izlanishlar asosida boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirish va pedagogik jamoaga interaktiv ta’sir o‘tkazish mexanizmini takomillashtirish uchun ta’lim tizimi rahbarlarining ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion tadbirlarni tashkillashtirishni maqsadga muvofiq, deb bildik.

Qolaversa, kelgusidagi tadqiqot ishlarida “rahbar-pedagogik jamoa-xodim” munosabatlari tizimida psixoemotsional barqarorlikni shakllantirish, pedagogik jamoadagi ijtimoiy psixologik muhitga boshqaruv taktikasi va strategiyasining ta’sirini insonparvarlik g‘oyalari bilan boyitish, ta’lim tizimidagi boshqaruv faoliyatini optimallashtirish orqali ta’lim sifati va pedagogik jamoada sog‘lom psixologik raqobatni shakllantirish maqsadida rahbar ijtimoiy-psixologik kasbiy kompetentligining kognitiv komponentlarini rivojlantirish mexanizmlarini tadqiq etish o‘rinli, deb hisobladik.

## Adabiyotlar


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-sonli Farmoni// http://lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi “Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarlikning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № 472-sonli Qarori / http://lex.uz.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. – B.6.
4. Abdullayeva Sh.H.Pedagog professional kompetentliligini shakllantirishning ijtimoiy psixologik mexanizmlari. Psixol.f.d… diss. avtoref. T.: O‘zMU, 2019. - 61 b.
5. Психология управления / Составитель Е.В.Мещерянкова. – Минск. БГТУ. 2004. - 57 с.
6. Карпенко Л.А., Петровский А.В., Ярошевский М.Г. Краткий психологический словарь. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1998. –С. 128-129.


**UDK: 370.153+15**

# OILA MUHITI RUHIY SALOMATLIKNING OMILI SIFATIDA

**M.T.Isakova**
*Farg‘ona davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Oiladagi o‘zaro munosabatlarning to‘g‘ri, samarali tashkillanishi va shaxslararo munosabatlar insonning ruhiy salomatligida muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, oilada har bir shaxs bajaradigan vazifalari va rollari mavjud bo‘lib, u shaxslararo munosabatlarda alohida ahamiyatga ega. Ushbu maqolada biz oiladagi rollar taqsimlanishi va shaxslararo munosabatlarni oila a’zolarining ruhiy farovonligiga ta’sirini tadqiqotimiz orqali o‘rgandik va natijalarini tahlil qildik.

**Kalit so‘zlar:** oila, shaxslararo munosabatlar, rollar, emotsional muhit, moddiy ta’minlanganlik, jinsiy sheriklik.

## Homelife as a factor of person mental health

**Abstract.** Proper organization of family relationships and interpersonal relationships play an important role in a person's mental health. There are also roles and responsibilities that each person performs in the family, which is especially important in interpersonal relationships. In this article, we describe the results of our research on the distribution of roles in the family and the impact of interpersonal relationships on mental well-being of family members.

**Keywords:** family, interpersonal relationships, roles, emotional environment, financial supplying, sexual partnership.

**Семейный очаг как фактор психологического здоровья**

**Аннотация.** Правильная организация семейных отношений и межличностных отношений играет важную роль в психическом здоровье человека. Существуют также роли и обязанности, которые каждый человек выполняет в семье, что особенно важно в межличностных отношениях. В этой статье мы описали результаты нашего исследования по изучению распределения ролей в семье и влияния межличностных отношений на психическое благополучие членов семьи.

**Ключевые слова:** семья, межличностные отношения, распределение ролей, эмоциональная среда, финансовое обеспечение, сексуальное партнерство.

Oila bu-yashash muhiti, murakkab oʻzaro munosabatlar majmui, inson shakllanadigan makon. Oila nikoh, oʻzaro qarindosh, qondosh boʻlgan shaxslarning oʻzaro gʻamxoʻrlik, tenglik, erkinlik asosida oiladagi madaniy- maishiy ishlarni hamjihatlikda hal qiluvchi shaxslar guruhi... [5].

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 14-bob 63-,66-moddalari va 65 - moddasining 2-qismi va Oila kodeksining 4-moddasining 1-qismiga binoan Oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasidadir. UzRes Ensiklopediyasida Oila a’zolari umumiy hayot, oʻzaro axloqiy javobgarlik va oʻzaro yordam bilan bogʻliq boʻlgan qarindoshlik kichik guruh sifatida qaraladi.

Oila koʻp funksionaldir. Oilaning koʻp funktsiyalari orasida eng muhimlari uning a’zolari shaxsini rivojlantirish uchun sharoit yaratishga qaratilgan ijodiylikdir (Yu.E. Aleshina, T.V. Andreyeva, V.M. Medkov, B.M. Levin, M.V. Petrovich va boshqalar). Shuning uchun oila biologik, ijtimoiy, moddiy, ma’naviy, mafkuraviy, psixologik va pedagogik munosabatlarni keltirib chiqaradigan kichik ijtimoiy guruh yoki jamiyat birligi sifatida koʻrib chiqilishi kerak [4].

Oila sogʻlom turmush tarzidagi eng muhim omil boʻlib, sogʻliq va sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda bebaho manbaaga ega [2]. Bu asosiy ijtimoiy qadriyatlarni tarbiyalash natijasida inson oʻzini tutadigan munosabat va insoniy xulq-atvorning asosini yaratadigan birinchi oila: "... hayotning ma’nosi jismoniy qobiliyatlar va salomatlik, muhabbat, goʻzallik, moddiy farovonlik, odamlar bilan muloqotda oʻzini namoyon qilishga qaratilgan .... ” [3].

Ushbu ezgu maqsadga erishishda ta’lim-tarbiya muassasalari oilaning eng yaqin koʻmakchisiga aylanadi. Bu fakt Oʻzbekiston Respublikasi Konstitusiyasida ham oʻz aksini topgan. Ota-onalar birinchi tarbiyachi sifatida qabul qilinishi kerakligi ta’kidlanadi. Faqatgina ular bolaning jismoniy, axloqiy va intellektual rivojlanishining asoslarini yaratishi mumkin.

Oilaning ruhiy salomatligi - bu oila a’zolarining oilaviy munosabatlardagi, ijtimoiy muhitdagi va kasbiy faoliyatidagi ijtimoiy-psixologik faolligining keng qamrovli umumlashtirilgan koʻrsatkichidir.

Bu oilaning ruhiy farovonligi holatidir, bu barcha oila a’zolarining yashash sharoitlariga mos keladigan xatti-harakati va faoliyatini tartibga solishni ta’minlaydi. Psixologik salomatlik - bu zamonaviy oila faoliyatining ajralmas koʻrsatkichi boʻlib, unda yuz berayotgan ijtimoiy, psixologik va pedagogik jarayonlarning sifat jihatlarini aks ettiradi.

Shaxs oʻzini yaxshi, qulay his qilishi, oʻzidan koʻngli toʻlishi, ruhiy salomatligining muhim omili - bu oilaviy muhit barqarorligidir. Oila muhitining barqarorligi oila a’zolarining bir-birlarini tushunishlari, qalban xis qilishlari, tarbiyalanganlik darajalari va oiladagi burch va mas’uliyatni qanchalar tushunib yetganliklariga va amal qilishlariga bogʻliq boʻladi. Shu oʻrinda oilaviy munosabatlarning turli tomonlarini yoritgan Abu Ali ibn Sinoning “Tadbiri manzil” kitobidagi “oila boshligʻi tajribasiz boʻlsa, u oʻz a’zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi, oxir oqibat u yaxshi ijobiy natijalarga erisha olmaydi yomon tarbiya nafaqat ushbu oilaga, balki qoʻshnilarga, mahalla kuyga ham yomon ta’sir qilishi mumkin”, deb fikr bildiradi. Olim bu orqali oilada ota-onaning, ayniqsa, otaning burch va vazifalarini har qanday holatda bola tarbiyasi oldida mas’ul ekanligi hamda oila hotirjamligining asosi ekanligini koʻrsatadi.

Oilaning eng muhim vazifalaridan biri bolaga tarbiya berish orqali ta’sir etishdir. Afsuski, ommaviy oilaviy tarbiyani hisobga olsak, koʻpincha bu qoniqarsiz tarzda amalga oshiriladi. Buning sababi shundaki, oilaviy tarbiya koʻpincha tanbeh, koʻrsatma va hokazolarga tayanadi yoki ota-onalariga koʻr-koʻrona taqlid qilish orqali shakllanadi.

Shu munosabat bilan, ota-onalar va bolalar oʻrtasidagi samarali oʻzaro munosabatlar uchun asos boʻlgan oiladagi hissiy munosabatlarning alohida ahamiyatini ta’kidlamaslik mumkin emas. Bu munosabatlar oila a’zolarining mehr-muhabbatiga va ularning oʻzaro hissiyotlariga asoslanadi. Oilaviy munosabatlar eng umumiy tarzda qaralganda er-xotin munosabati, ota-ona va farzandlar munosabatlaridan iborat. Oiladagi shaxslararo munosabatlar shaxs shakllanishining muhim omili hisoblanadi. Oilada oʻzaro munosabatlarning toʻgʻri tashkillanishi oila a’zolarining ruhiy salomatligiga ijobiy ta’sir qiladi.

Shu oʻrinda er-xotinlar uchun “Oilada rollarning taqsimlanishi” nomli oʻtkazilgan anketa-soʻrovnoma tahlilini keltiraman. Bu metodika rus psixologlari Yu.Ye.Aleshin, L.Ya.Gozman, Ye.M.Dubovskayalar hammualliflігида yaratilgan. Bu metodika er-xotinlarning oilaviy rollar haqidagi tasavvurlarini aniqlab beradi. Bilamizki, oiladagi rollarni muvaffaqiyatli ijro etilishi oila xotirjamligini, oilaviy baxtni, oila tinchligini ta’minlab beradigan omillar sirasiga kiradi.

Tadqiqot 2019-yilning dekabr oyidan 2020-yil mart oyigacha Fargʻona viloyatining turli hududlarida istiqomad qilayotgan 96 juft er-xotinlarda, ya’ni 192 nafar respondentlarda oʻtkazildi. Erkak va ayollar (oilali, oilaviy hayotlari 1 yildan 40 va undan ortiq yilgacha) oiladagi rollarni taqsimlanishi boʻyicha suhbat asosida oʻtkazilgan soʻrovnomada er va xotin soʻrovnomaga jalb etildilar. Oʻz fikrlari va kechinmalarini toʻliq yoritib bera olishga istak bildirgan respondentlar bilan suhbat oʻtkazildi. Suhbatlar respondentlar xonadonlarida er-xotin ma’lumotlari bir-birlaridan sir saqlangan holda oʻtkazildi. Soʻrovnomani toʻldirish paytida sodir boʻlgan savollarga va ikkilanishlarga tushuntirishlar orqali koʻmak berildi. Suhbat davomida respondetlarga oiladagi rollari haqida gapirishga toʻliq imkoniyat berildi. Har bir soʻrovnomaga javob berish uchun 30-50 daqiqa atrofida vaqt sarflandi. Ishtirokchilar intervyuda aytib oʻtilgan mavzular bilan bogʻliq boʻlgan fikrlari, his-tuygʻulari va xatti-harakatlarining tavsifini aniqlash uchun ma’lumotlar bosqichma-bosqich tekshirildi. Tadqiqot davomida jami 192 nafar respondentda suhbat oʻtkazildi. Respondentlarning barchasi oilali. Respondentlarning ma’lumoti oliy va oʻrta, ularning shugʻullanadigan ish turi: oʻqituvchi, yurist, shifokor, tadbirkor, quruvchi, tikuvchi, xarbiy, ishchi va talabalar. Respondentlardagi farzandlar soni 1 tadan - 4 tagacha. Yashash xududlari shahar va qishloq. Anketalar kodlangandan soʻng, olingan ma’lumotlar birlashtirildi.

Olingan natijalar boʻyicha, bola tarbiyasi bilan bogʻliq boʻlgan natijalar tahlilidan shu narsani koʻrish mumkinki (1-rasm), ushbu vazifani 21 % erkaklar va 8 % ayollar past darajada, 70 % erkaklar va 77 % ayollar oʻrta darajada, 9 % erkaklar va 15 % ayollar yuqori darajada deb belgilashgan. Oʻrta va yuqori darajalarda erkaklarga nisbatan ayollar bola tarbiyasi bilan shugʻullanishlari zarurligi koʻrsatkichi yuqori natijani koʻrsatmoqda.




1-rasm. Oilada bola tarbiyasi bilan bogʻliq boʻlgan natijalar.

Oiladagi emotsional muhit bola tarbiyasi bilan korrelyatsiya qilinganda 0,158848 natijani koʻrsatdi. Ya’ni oilada emotsional muhit boʻlsa bola tarbiyasida muvaffaqiyat boʻladi. Oila bagʻrini rohatli, farogʻatli, farzandlarini goʻzal xulqli boʻlishlarini istagan er-xotin har vaqt bir-birlarini hurmat qilib, ittifoq boʻlib yashashlari lozim. Er va xotin oilada bir-birlarini tinglay olsalar, bir-birlarini qoʻllab-quvvatlasalar, birga qaygʻurib, birga shodlansalar, albatta, bir-birlariga boʻlgan mehr-muhabbatlari oshadi. Oiladagi yoqimli va zarur boʻlgan emotsional muhit er va xotin oʻrtasidagi muxabbatdir.

Bola tarbiyasidagi qiyinchilik va mashaqqatlarning asosiysi onalar ustida boʻladi. Garchi bu holatlar qonunlarda belgilanmagan boʻlsa-da, onalar oʻzlarining mehri va yaxshiliklari bilan bajaradilar. Agar otalar farzandlarining onasi bilan goʻzal muomalada boʻlib, chiroyli hayot kechirsalar va ularni hurmat qilsalar, bolalar bunday vaziyatdan oliyjanoblikni, muomala qilish odobini oʻrganadilar. Onalariga otalari tomonidan bunday muomalani boʻlayotganini koʻrgan farzandlar otalarini qattiq hurmat qila boshlaydilar va oʻzlari ham oila qurganlarida ana shunday muomalada boʻlishni afzal biladilar.

Oiladagi emotsional iqlim boʻyicha natijalar tahlilidan shu narsani koʻrish mumkinki, ushbu vazifani 18 % erkaklar va 5 % ayollar past darajada, 69 % erkaklar va 59 % ayollar oʻrta darajada, 13 % erkaklar va 36 % ayollar yuqori darajada deb belgilashgan (2-rasm). Oilada ayollar asosan emotsional munosabatlarni vujudga keltiradigan figura hisoblanadi. Buni yuqoridagi 36 foiz ayollarning yuqori natijasidan ham bilsak boʻladi.



2- rasm. Oiladagi emotsional iqlimni o‘rganish bo‘yicha natijalar

Oilada emotsional iqlimning mo‘tadil bo‘lishligi ko‘proq oila bekasiga, ya’ni ayolga bog‘liq. Imom ibn Jarir Tobariy va Ibn Abi Hotimlar Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilgan hadisda Payg‘ambarimiz alayhissalom: “Ayollarning yaxshisi – nazar solsang xursand qiladigan, amr qilsang itoat etadigan va g‘oyib bo‘lsang, seni o‘z nafsida va molingda muhofaza qiladiganidir”, deganlar[6]. Ilmli, ziyoli bo‘lgan ayol huddi shunday xislatlarga ega bo‘lish bilan birga oila va farzandlarining tarbiyasida yutuqlarga erishadi. Ota-onalarining yaxshi va yomon odatlariga taqlid etuvchi bolalarning onalari dono va bilimli va ziyoli bo‘lsa, bolalar ilmga muhabbatli bo‘ladi, bilishi zarur bo‘lgan odob-axlok ko‘nikmalari tarbiya topib rivojlanadi. Ota qanchalar o‘qimishli, ma’lumotli bo‘lsada, farzandlarini tarbiyasiga vaqtlari yetmaydi, bu aniq fakt. Biroq ta’lim-tarbiya maskanlarida bolalarni o‘qish va yozishga o‘rgatsalarda, odob, axloq borasida onalarimizga teng keladigani topilmaydi. Shuning uchun ham bolalar tarbiyasi yuzasidan bo‘lgan takliflar-u xizmatlarning eng ulug‘i onalar zimasiga tushadi. Shu o‘rinda Rizovuddin ibn Faxruddinning “Oila” nomli asarida “Xotun o‘z erini xushnud etgan vaqt, qanday vaqtligini bilasizmi? Bu shunday vaqtki, bunda xotinning ochiq yuz bilan bolalariga axloq-odob to‘g‘risida nasihatlar berib turgan yoki o‘ltirib ish tikayotgan yoki peshonasiga durrachasini bog‘lab, ishlab yurgan vaqtidur”, degan fikrlarini keltirish joizdir[7].

Oilaning moddiy ta’minlanishi bo‘yicha past darajada deb erkaklar 18 %, ayollar 36 %, o‘rta darajada deb erkaklar 73 %, ayollar 59 %, yuqori darajada deb 9 % erkaklar, 5 foiz ayollar belgilaganlar (3-rasm). Bu natija oilaning moddiy ta’minlanishiga asosan erkaklar mas’ul ekanliklarini anglatib turibdi. Oilaning moddiy ta’minlashda erkaklarning o‘rta va yuqori darajalarida ko‘proq foizni berganliklari ham bejiz emas.



3-rasm. Oilaning moddiy ta’minlanishi bo‘yicha natijalar

Oilaning moddiy ta’minotchisi asosan erkaklardir va ularning zimmasidagi oliy vazifadir. “Dunyodagi eng buyuk saodat go‘zal maishatdir”-deb yozadi Rizovuddin ibn Faxriddin “Oila” asarida Abbosiy xalifalarining eng mashxurlaridan bo‘lgan al-Mutavakkil Aliy Alloh ibn Ja’farga: “yer yuzida sizdan baxtli kimsa hyech bo‘lmas” deganlarida, xalifa: “Xato so‘zladingiz, go‘zal uyi, ezgu xotini, yaxshi maishati bo‘lgan kimsa bizlardan ko‘ra baxtlidir”, deb javob bergan ekan. Odam bolasiga kasb-xunar o‘rganish buyurilgan. Kasbkorga ega bo‘lish, ishlash, mehnat qilib daromad olish inson bolasining salomatligi va ko‘nglining sofligiga sabab bo‘ladi.




4-rasm. Oiladagi relaksatsiya (ko‘ngil ochish tadbirlari) bo‘yicha natijalar

Ko‘ngil ochishlar, ya’ni turli tadbirlarni tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan natijalar tahlilidan shu narsani ko‘rish mumkinki, 16 % erkaklar va 22 % ayollar past darajada, 76 % erkaklar va 67 % ayollar o‘rta darajada, 7 % erkaklar va 11 % ayollar yuqori darajada deb belgilashgan (4-rasm). Past va yuqori darajalarda erkaklarga nisbatan ayollar oilada ko‘ngil ochishlarni tashkillash bilan shug‘ullanishlari ko‘rsatkichi yuqori natijani ko‘rsatmoqda. Oilada ko‘ngil ochishlarni tashkil qilish bola tarbiyasi bilan 0,149091 hamda oilaning moddiy ta’minlanganli bilan 0,328614 ga bog‘liqligi aniqlandi. Demak oila a’zolarining shaxslararo munosabatlarini samarali tashkillanishi, oilada ijobiy emotsional muhitni yaratilishi bevosita oiladagi ko‘ngil ochishlarga bog‘liqligi o‘rganildi. Oilada ko‘ngil ochish tadbirlari oila a’zolarining ruhiy barqarorligini, shaxslararo munosabatlar samarali bo‘lishligini ta’minlaydi, oila madaniyati, tarixi, urf-odatlari, qadriyatlari, moddiy va ma’naviy boyliklari, iqtisodiy-ijtimoiy hayotining barcha tomonlarini o‘z ichiga qamrab oladi.




5-rasm. Oilada er-xotin rolining taqsimlanishi bo‘yicha natijalar

Uy sohibi va sohibasi bo‘yicha 30% erkaklar va 28 % ayollar oiladagi o‘zlariga tegishli vazifalarini past darajada bajaradilar, 64 % erkaklar, 68 ayollar o‘z vazifalarini o‘rta darajada bajarsalar, 6 % erkaklar va 4 foiz ayollar o‘z vazifalarini yuqori darajada bajarishliklari ushbu 5-rasm orqali o‘z aksini topib turibdi. Uy sohibi va sohibalarining oiladagi o‘z rollarini ijro etishlari oilaning moddiy ta’minlanganligi bilan 0,271164, shuningdek, oiladagi ko‘ngil ochishlar bilan 0,287403 bog‘liqligi mavjud.

Uy sohibi va sohibasi, ya’ni er-xotinning oila qurib, birgalikda yashash, birgalikda farzandlar o‘stirish uchun oralarida tuzilgan bitm turmush qurishdir. Ularni bir-biriga bog‘lovchi narsa muhabbatdir. Bir-birlariga muhabbatli bo‘lgan er-xotin faqatgina dunyoning rohatlaridagina emas, balki mehnatlarida ham umrlarini soadatli kechiradilar. O‘rtalaridagi muhabbatni paydo bo‘lishi uchun er-xotinning shaxsan bir qancha ulushlari bo‘lishi kerak. Har ikki tomon bir birlariga intiladigan, bir-birlariga yaxshiliklarni ravo ko‘rib yashashni odat qilsalar oila mustahkam qo‘rg‘onga aylanib boraveradi. Er-xotinning oiladagi o‘z vazifalari va shu vazifalarni a’lo darajada bajarishlari uchun rollari mavjud. Mana shu rollarni mohirona ado etilishi chinakam oilaviy baxtga erishishni anglatadi. Qur’on Karimning “Baqara” surasi 233-oyatida “..Ularni yaxshilab yedirib, kiyintirish otaning zimmasidadir, Hech bir jonga imkondan tashqari taklif bo‘lmas, Ona ham, ota ham bolasi sababidan zarar topmasin...”[6]. Ota, ona vazifalarni nomigagina emas, balki ishni yaxshilab ado qilish zarurligi, munosabatlarda imkondan tashqari ortiqcha takliflarni qilinmasligi borasida fikrlar zikr qilinganligi fikrimizning dalilidir. Oilada ham go‘zal qoida,

me'yorga amal qilinishi zarur shartlardan biri. Oila a'zolarining bir-birlariga go'zal muomalada bo'lishligi, oiladagi ruhiy-emotsional muhitni vujudga kelishining eng muhim qoidalaridandir. Tarbiyali er xotiniga chiroyli munosabatda bo'lgani singari o'zining ulug'vorligini ham saqlab qoladi.




6-rasm.Oiladagi jinsiy sheriklik bo'yicha natijalar

Jinsiy sheriklik bo'yicha 22 % erkaklar va 45 % ayollar past daraja, 72 % erkaklar va 50 % ayollar o'rta daraja, 6 % erkaklar va 5 % ayollar yuqori darajada jinsiy sheriklik rollarini bajarar ekanlar (6-rasm). Jinsiy sheriklik muvaffaqiyatli amalga oshirilsa bola tarbiyasi bilan korrelyatsiyasi 0,142917 tengligi kuzatildi. Shuningdek, jinsiy sheriklik bilan oilaning moddiy ta'minlanganligi 0,186086 tengligi kuzatildi, ya'ni bir-biriga bog'liq. Jinsiy sheriklik uy sohibi va sohibasi darajasi bilan ham bog'liqligi mavjud 0,27933. Er va xotin bu ikki jinsdan iborat bo'lgan shaxslar. Ularning maqsadlari bir mustahkam oila qurish, chiroyli farzandlarni dunyoga keltirib, go'zal odob-axloqli qilib tarbiyalab, voyaga yetkazish. Bu mashaqqatli ishda er xotin bir-birlarini qo'llab-quvvatlashlari, o'z vazifalarini ado etishda bir-birlariga ko'mak berishlari oralaridagi muhabbat tuyg'ularini kuchayishiga, oila mustahkamligini oshishiga olib keladi.




7-rasm. Oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish bo'yicha natijalar

Oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish bo'yicha 31 % erkaklar va 26 foiz ayollar past darajada, 57 % erkaklar va 65 % ayollar o'rta darajada, 12 % erkaklar va 9 % ayollar yuqori darajani belgilaganlar (7-rasm). Oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish oilaning moddiy ta'minlanganligi bilan korrelyatsiyasi 0,248955 teng, oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish oilada ko'ngil ochishlarni tashkil etish bilan 0,255536 ga teng. Oilada hukm surayotgan qadriyatlar, marosimlarni tashkillash, urf-odatlarga amal qilishda oilalarning bir-birlaridan farq darajalari katta. Har bir oilada ichki madaniyat bir-birlaridan tubdan farq qiladi. Oilada uyushtirilayotgan tadbirlar farzandlar tafakkurining boyishiga, ma'naviyatining yuksalishiga, madaniyatining oshishiga, oiladagi emotsional iqlimni mo'tadillashishiga sabab bo'lgan. Shu tariqa oilalarda o'ziga xos tadbirlar oila a'zolari uchun o'ziga xos motivatsiya beruvchi bayramlar tusini olgan. O'z oilasi, nasl-nasabi bilan faxrlanish vatanparvarlik tuyg'usiga chuqur hamoxang. Bu eng avvalo, oilaviy an'analarni avaylab saqlash va boyitish, ota-bobolarning muborak nomlariga dog' tushurmaslikka intilish, o'z mehnati, bilimlari bilan nasl-nasabi obro'sini mustahkamlash, odamlarning hurmat – e'tiboriga sazovor bo'lish istagidir. Bunday oilaviy tadbirlar oilaning moddiy ta'minlanganligi bilan ham bog'liqligi

shundaki, er-xotinning oiladagi rollarni to‘g‘ri taqsimlanganliklari, oilaviy iqtisodni yaxshilash bo‘yicha tadbirli ekanliklariga ham bog‘liqdir. Qur’on Karimning “Niso” surasi 34-oyatida “Alloh ba’zilarini ba’zilaridan ustun qilgani va mollaridan sarflaganliklari uchun erkaklar ayollarga rahbardirlar,...”[6]. Alloh erkakni ayoldan afzal qilib yaratganligi ushbu oyatda o‘z aksini topgan. Darhaqiqat, erkak kishi o‘zining jismoniy tuzilishi, ichki va tashqi qiyofasi, asabiy, ruhiy-nafsoniy va boshqa jihatlaridan oila rahbari bo‘lishga mos yaratilgan. Buning ustiga, oilani qurish va uni tutib turish, bu yo‘ldagi barcha sarf-harajatlar ham erkak kishi zimmasida. U katta mehnat evaziga topilgan molu mulkining behuda ketmasligi lozimligini o‘ylaydi, oilani mustahkam holda tutib turishning chora-tadbirlarini ko‘rishga majbur bo‘ladi.

**1-jadval**

**UMUMIY NATIJALAR KORRELYATSIYASI**

| | Bola tarbiyasi | Oilada emotsional iqlim | Oilaning moddiy ta’minlanishi | Ko‘ngil ochishlarni tashkil etish | uy soxibi va soxibasi | Jinsiy sheriklik | Oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Bola tarbiyasi | | | | | | | |
| Oilada emotsional iqlim | 0,158848 | | | | | | |
| Oilaning moddiy ta’minlanishi | 0,113352 | -0,03425 | | | | | |
| Ko‘ngil ochishlarni tashkil etish | 0,149091 | 0,136169 | 0,328614 | | | | |
| Uy soxibi va soxibasi | 0,112134 | 0,133769 | 0,271164 | 0,287403 | | | |
| Jinsiy sheriklik | 0,142917 | -0,0504 | 0,186086 | 0,109286 | 0,27933 | | |
| Oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish | 0,048494 | -0,06875 | 0,248955 | 0,255536 | 0,050109 | 0,066609 | |

Erning hurmatini joyiga qo‘yib, unga itoat etgan mo‘mina, soliha ayollar oilaning ichki madaniyatini yanada mustahkam bo‘lishligini ta’minlaydi. Yuqorida 1-jadvalda ifodalangan natijalar korrelyatsiyasida oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish oilaning moddiy ta’minlanganligi bilan, oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish oilada ko‘ngil ochishlarni tashkil etish bilan bog‘liqligi aks etgan. Bu oilada emotsional iqlimni, shaxslararo samarali munosabatlarni mavjudligini bildiradi. Bu esa sog‘lom muhit hukm surishiga, oila a’zolarining ruhiy salomatligini mustahkam bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, shaxsning ruhiy salomatligiga ta’sir etuvchi oila ijtimoiy omili, undagi sog‘lom muhit, oila a’zolarining bir-birlarini tushunishlari, har bir ishda bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashlari, ota-ona – farzandlar munosabatlaridagi iliqlik, samimiyat, bundan tashqari, do‘stlar va yaqin qarindoshlar bilan o‘rnatilgan muomala maromlari, ishda, dam olish paytida bo‘ladigan muloqotlar odamning u yoki bu darajada ruhiy barqarorligini ta’minlab beradi. Oila kishilar hayotining eng asosiy va muhim qismi. Bolaga tarbiya, ilm berish, ma’naviyatli bo‘lishi, madaniyat durdonalaridan xabardor qilish ota-onaning birinchi galdagi vazifasidir. Bola bularni ko‘rib, anglagan paytdan boshlab ularni kuzata boshlaydi. Oiladagi samimiy munosabatlar iqlimini farzand sezsa, ota-onaning, avvalo bir-biriga, shuning barobarida, bolalari va atrofdagilarga o‘z hurmatini saqlagan holda, izzat ko‘rsatsa, bolani aynan shu fazilatlar boyitib boradi. Bola tarbiyasida oiladagi emotsional iqlim, oilaning moddiy ta’minlanishi, oilada ko‘ngil ochishlarni tashkil etilishi, uy sohibi va sohibasi hamda jinsiy sheriklik, shuningdek, oiladagi ichki madaniyatni uyushtirishga bog‘liqligi o‘tkazgan tajribamizda o‘z aksini topdi.

**Adabiyotlar**

1. Dadds MR et al. (1997). Prevention and early intervention for anxiety disorders: A controlled trial. Journal of Consulting & Clinical Psychology, 65: 627–635.
2. Перепелкина Т.В. Роль семейного воспитания в формировании здоровья младших школьников // Казанский педагогический журнал. 2013. №4(99). С. 80-85.

3. Павлов Б.С. Семья и самосохранительное поведение молодежи // Экономика региона. 2008. №2. С. 109-121. , . 113.
4. Ткаченко И.В. Проблемы развития личности в семейном взаимодействии // Научные исследования: информация, анализ, прогноз: монография / под ред. проф. О.И. Кирикова. Воронеж: ВГПУ. Книга 28, 2010. С. 357-371., п. 357; 2; 3; 9].
5. Ҳамидова В.А. Оилавий ҳуқуқий муносабатлар.-Т.:2015.-6 б.
6. Шайх Муҳаммад Юсуф Муҳаммад Содиқ. Тафсири Ҳилол. 2-нашр, 1-ЖУЗ. Москва.-2011. 535 с.
7. Зиёдов А. Ризовуддин ибн Фахриддин “Оила” асари ҳақида. Т.: 1991.- 22с

**UDK: 370.153+15**

## TALABALARDA IJOIDIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**G.A.Haydarova, M.I.Saloxutdinova**
*Samarqand davlat universiteti*
*gulshan_haydarova@mail.ru, saloxuddinovamusharraf@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola talabalarning ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad talabalarda kognitiv va kreativ munosabatlarni tarkib toptirish, shu orqali raqobatbardosh, zamonaviy kadrlarni tayyorlash, ularning kasbiy va axloqiy xususiyatlarni shakllantirish hamda aqliy harakatlarni muvofiqlashtirish orqali nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalarini psixologik jihatdan boyitib borishga qaratilgan.
**Kalit so‘zlar:** talaba, tafakkur, kognitivlik, kreativlik, aqliy harakatlar, mantiqiy tafakkur, reproduktiv, produktiv yoki ijodiy tafakkur, konvergent, divergent tafakkur, tushunchalar, hukmlar, xulosalar, umumlashtirish.

### Психологические характеристики развития творческого мышления у студентов

**Аннотация.** Данная статья направлена на развитие у студентов творческого мышления, основной целью которого является построение познавательных и творческих отношений, тем самым готовя конкурентоспособные современные кадры, формируя их профессиональные и моральные качества и координируя мыслительные действия посредством теоретических знаний, практических, направленных на психологическое обогащение своих навыков.
**Ключевые слова:** студент, мышление, когнитивные, творческие, умственные действия, логическое мышление, репродуктивное, продуктивное или творческое мышление, конвергентное, дивергентное мышление, концепции, суждения, выводы, обобщение.

### Psychological characteristics of developing creative thinking in students

**Abstract.** This article is aimed at developing students 'creative thinking, the main purpose of which is to build students' cognitive and creative relationships, thereby preparing competitive, modern personnel, shaping their professional and moral qualities and coordinating mental actions through theoretical knowledge, practical aimed at enriching their skills psychologically.
**Keywords:** student, thinking, cognitive, creative, mental actions, logical thinking, reproductive, productive or creative thinking, convergent, divergent thinking, concepts, judgments, conclusions, generalization.

**Tadqiqotning dolzarbligi:** Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan “Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash” shiori ostida yurtimizda ilm-ma’rifatni rivojlantirish orqali talaba-yoshlarni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan ijodiy yondoshuvlarga ega mutaxassislar bo‘lib yetishishlari uchun barcha ichki va tashqi imkoniyatlarimizni ishga solib harakat qilishimiz kerakligi alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida 2021-yil - "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb nom berilishi ham davlat va jamiyat hayoti uchun yoshlarning ta’lim-tarbiyasi uchun ham naqadar muhim ekanligidan dalolat beradi. Bunda aholi, ayniqsa, yoshlarimiz o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish – eng ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lishi lozim.

Umuman, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta’minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko‘lami va

samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz.

Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak.

Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib, xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqsad yo‘lida yoshlarimiz o‘z oldiga katta marralarni qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi.

Shu maqsadda, “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshiramiz.

Birinchidan, yosh avlodga bog‘cha, maktab va oliygohda sifatli ta’lim-tarbiya berishni yo‘lga qo‘yamiz, ular jismoniy va ma’naviy sog‘lom, vatanparvar insonlar bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz.

Ikkinchidan, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz.

Uchinchidan, o‘g‘il-qizlarimizni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasb-hunarlarga o‘rgatish, ularda tadbirkorlik ko‘nikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish, ish va uy-joy bilan ta’minlashga ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Bir so‘z bilan aytganda, bola tug‘ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo‘lgan davrda uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishi uchun ko‘mak beradigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratiladi.

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o‘n, yuz barobar ko‘p foyda keltiradi.

Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino bundan ming yil oldin, “Dovyurak va botir insonlar kelajakda sodir bo‘ladigan qiyinchiliklardan qo‘rqmaydi”, deb bejiz aytmagan.

Mamlakatimizda Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida xalq manfaatlariga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yoshlarni madaniyat, san’at va jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, kitobxonlikni targ‘ib etish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan 5 ta muhim tashabbus hayotga samarali tatbiq etilmoqda.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotning dolzarbligidan kelib chiqib ta’kidlash kerakki, har qanday davlat va jamiyatning rivojlanishi bu albatta ta’lim-tarbiyani rivojlanishi va uni tashkil etuvchilariga bog‘liq bo‘ladi.

**Tadqiqotning obyekti:** O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da nazarda tutilgan talablar barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyati, oliy ta’lim muassasalari talabalalari jamoasi va ularning ijodiy tafakkurlarini rivojlantirish kabilarni qamrab oladi.

**Tadqiqotning predmeti:** Talaba shaxsini shakllantirish, ularni ijodiy tafakkurni o‘z mutaxassisliklariga mos holda nazariy hamda amaliy tomondan asoslab berish bilan bir qatorda mustaqil fikrlashga oid asosiy kategoriyalarini, tafakkur qonuniyatlari, tamoyillari asosida tarkib toptirish ko‘nikmalarini hosil qilishning o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini singdirishdan iboratdir.

**Tadqiqotdan ko‘zlangan asosiy maqsad:** Talabalarni shaxsini haqiqiy ijodiy tafakkurga ega mutxassislar sifatida shakllantirish, ularni ijtimoiy-psixologik jihatdan barkamol inson sifatida tarbiyalash, ijodiy tafakkurning shaxsga oid turli o‘ziga xos xususiyatlari, kasbga doir munosabatlarning obyekti va subyektiga oid ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Yuqorida tadqiqotda nazarda tutilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda quydagi vazifalarni hal etish lozim deb topildi.

**Ilmiy tadqiqotning quydagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:**

1) Talaba-yoshlar ongida sog‘lom dunyoqarash va ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishning ilmiy, nazariy hamda amaliy ahamiyatini singdirish;

2) Talabalarda mustaqil fikrlashni, e’tiqodini, ijodiy tafakkurni milliy mafkura ruhidagi shakllantirish hamda har bir talabani istiqbolda mutaxassis sifatida jamiyatdagi ziyolilarning eng ilg‘or vakili sifatida vatan ozodligi va obodligi, millat taraqqiyoti, yurt ravnaqi yo‘lida xizmat qilishga o‘rgatish;

3) Bo‘lajak mutaxassislarga ijodiy tafakkurning asosiy tamoyillari, uslublari, qonuniyatlari hamda fikrlash shartlariga oid bilim berish ijodiy faoliyatini ilmiy tashkil etish, doimiy ravishda o‘z tafakkur tarzini yangilash va rivojlantirib borishga o‘rgatish;

4) Talabalarni ijodiy fikrlashiga doir tavsiya va xulosalar ishlab chiqish hamda tadqiqot natijalarida joriy etish va b.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqadigan bo‘lsak, talabalarni ijodiy tafakkur jarayonini asosini inson faoliyat va uning ongli xatti-harakatlari tashkil etadi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, Sharq mutafakkirlari, xorijiy davlatlar va mamlakatimizning yetuk psixologlari tadqiqotlarida shaxs xususiyatlari, uning bilish jarayonlari, tafakkur tarzi, uning turlari, psixologik xususiyatlarini keltirib o‘tish mumkin. Xususan, F.U.Teylor, A.Maslou, A.Smit, Yu.V.Andreyeva, V.L.Vundt, M.Snayder, E.G‘oziyev, N.Safoyev, V.Karimova, Z.T.Nishonova, N.Boymurodov, I.Maxmudov, Sh.R.Baratov kabi ko‘plab olimlarni ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, psixologiya fanida o‘z asosini topgan tadqiqot mavzusi bo‘lgan tafakkur shakllari, turlari, xususiyatlari, mazmun-mohiyati haqida fikr yuritamiz inson idrok qilgan, xotirasida saqlab qolgan narsalarning barchasi uning uchun ma’lum ma’no va mohiyatga ega bo‘ladi. Demak, bizning dunyoni, uning sir-asrorlarini tushunishimizning zaminida narsa va hodisalarning biz uchun shaxsiy aloqasi, ahamiyatliligi darajasi yotadi. Ana shunday dunyoni tushunishimiz, anglashimiz va unga ongli munosabatimizni bildirib, izhor qilishimizga aloqador bilish jarayoni psixologiyada ***tafakkur, fikrlash*** deb ataladi.

**Tafakkur –** inson ongining bilish obyektlari hisoblanmish narsa va hodisalar o‘rtasida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo‘lishini ta’minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish shaklidir. Tafakkur muammolari uzoq vaqtgacha o‘zining murakkabligi bilan psixologlar nazaridan chetda bo‘lgan, u asosan faylasuflar va mantiqshunoslar fikr yuritadigan masala hisoblangan. Psixologiya ilmining otaxoni hisoblanmish nemis olimi Vilgelm Vundt ham psixologiyani ikkiga bo‘lib - fiziologik psixologiya (eksperimental yo‘l bilan bilish jarayonlarini o‘rganuvchi fan) va xalklar psixologiyasi qismlariga bo‘lib, oxirgi psixologiyaning tarkibiga nutq va tafakkur psixologiyasini ham kiritgan va uni eksperimental tarzda o‘rganib bo‘lmaydi, ularni tushuntirish mumkin xolos deb hisoblagan. Bu xulosalar aslida tafakkur va fikrlash jarayonlarining naqadar murakkab tabiatga ega ekanligidan dalolat beradi. Lekin shunday bo‘lsa ham shuni ta’kildash joizki, birinchidan, tafakkur va fikrlash jarayonlari - bu bilish jarayonlari;

- ✓ ikkinchidan, ular ham shaxs tomonidan borliqni aks ettirish shakli, umumlashtirib, bilvosita aks ettirish shakli;
- ✓ uchinchidan, bu jarayonlar ham eksperimental psixologiya tomonidan o‘rganiladi;
- ✓ to‘rtinchidan, tafakkur bilishning eng oliy va yuqori darajadagi shaklidir.

Tafakkur predmetini belgilash uchun mukammal ta’rif O.K.Tixomirovning darsligida kuzatiladi: “Tafakkur- bu o‘z mahsuloti bilan voqelikni umumlashtirib, bevosita aks ettirishni xarakterlaydigan, umumlashtirish darajasi va foydalanadigan vositalariga hamda umumlashmalar yangiligiga bog‘liq ravishda turlarga ajratishdan iborat jarayon, bilish faoliyatidir”. Hozirgi davrda tafakkurning predmeti yuzasidan turli-tuman qarash va ta’riflar mavjuddir. S.L.Rubinshteyn fikriga ko‘ra tafakkurni psixologik jihatdan o‘rganishning asosiy predmeti-jarayon, faoliyat tariqasida namoyon bo‘lishdir, ya’ni u subyekt faolligini ta’kidlaydi. A.N.Leontev esa tafakkurni turli ko‘rinishlarga ajratib, fikr yuritish faoliyati ekanligini uqtiradi, lekin uni predmetli amaliy faoliyat deb nomlaydi. P.YA.Galperin fikriga ko‘ra, tafakkur - bu oriyentrlash tadqiqot faoliyatidir. A.V.Brushlinskiy tafakkurning muhim yangilikni qidirish va ochish, gipoteza va nazariyalarni bashorat qilish, oldindan payqash xususiyatlari kabi jihatlarini ko‘rsatib o‘tadi. U tafakkurni umumlashtirib, unda yangilikni izlash va ochish xususiyati mavjudligini isbotlab bergan olimdir.

Tafakkurning oliyligi va murakkabligi shundaki, u idrokdan farqli, bevosita aks ettirish bo‘lmay, narsalar va ularning xossalarini ular yo‘q paytda ham aks ettirishga imkon beradi. Masalan, Afrikaning subtropik hududlari to‘g‘risida gap ketganda, umrida biror marta Afrikaga bormagan odam ham subtropiklik xossasini bilgani uchun ham ushbu axborotni tushunib, uni qabul qila oladi. Sinov paytida talaba kecha o‘qigan, laborotoriya sharoitida sinab ko‘rgan qonuniyatlar xususida xuddi ro‘parasida namoyon bo‘layotganday, obrazli qilib gapirib berishi, ro‘y bergan hodisalarni yana formulalar va statistik hisob-kitoblar vositasida isbot qilib berishi ham mumkin. Bu operatsiyalarning asosida tafakkur jarayonlari yotadi.

Tafakkur qilishimizni ta’minlovchi organ - bu bizning miyamiz. Barcha hisob-kitob ishlari - eng elementar harakatlarni rejalashtirishdan tortib, murakkab mavhum teoremalarni isbot qilishga qaratilgan operatsiyalar miyada sodir bo‘ladi. Shuning uchun ham juda charchab turgan paytda odamdan biror qiyinroq masala xususida fikr bildirishini so‘rasangiz, «hozir boshim og‘rib turibdi, juda charchaganman, biroz o‘zimga kelay, keyin fikrlashamiz», deb javob beradi. Demak, miya faoliyati bilan fikrlash faoliyati

o‘zaro uzviy bog‘liq ekan. Miyamizning fikrlash qobiliyati va imkoniyatlari shunchalik salmoqliki, ayrim olimlarning fikricha, uning ishlash qonunlari hozir biz ishlatayotgan kompyuterlar emas, yana 100-200 yillardan keyin paydo bo‘ladigan murakkab, o‘ta «aqlli» kompyuterlar faoliyatiga yaqin ekan.

Kallamizga kelgan barcha o‘y-xayollar – bu *fikrlardir*. Normal insonni fikrsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, har o‘n, har daqiqada odam miyasi qandaydir fikrlar bilan band bo‘ladi. Ularni tartibga solish, keragiga diqqatni qaratish, ichki yoki tashqi nutq vositasida uni yechish - *fikrlash* jarayonidir.

Fikr yuritishning umumlashtirish operatsiyasi ushbu turlarga bo‘linadi: Mazmuniga ko‘ra: elementar; empirik; tushunchali; nazariy. Fikrning yo‘nalishiga ko‘ra: xususiydan umumiyga; umumiydan xususiyga; yakkadan umumiyga va undan xususiyga; umumiydan xususiyga va o‘sha umumiydan yanada umumiyga; kamroq umumiydan yanada umumiyga; yagona umumiy holatdan yanada umumiyroqqa bo‘linadi.

Fikrlash jarayoni aslida ma’lum bir masala, muammo, jumboqni hal qilish kerak bo‘lganda paydo bo‘ladi. Fikrlash doimo bir narsa xususida kamida bitta yechimni berishi shart, aks holda u boshqa jarayonga - hayol, fantaziyaga aylanib ketishi mumkin. Fikr, g‘oya, aniq yechim bo‘lmaganda, inson miyasining borliqdagi narsa va hodisalar mohiyatini aks ettirishi ***hayol*** deb ataladi. Shuning uchun ham do‘stlar davrasida ba’zan muammo xususida tortishuv bo‘lib qolganda, aniq bilimi yoki g‘oyasi yo‘qligi tufayli kallasiga kelgan narsani aytgan bolaga qarab «Juda olib qochishga ustasan-da, xayolparast» deyishadi.

Shunday qilib, muammo yoki jumboqlar bizni fikrlashga majbur etadi. Masalan, shunday masalani olib ko‘raylik. Sizga mixlar solingan bir karton quticha va ikkita sham, bolg‘acha berilgan. Vazifa: eshikka shamni o‘rnatib, yoqib qo‘yish kerak. Kim qanday yechadi? Albatta, birdaniga to‘g‘ri yechimga kelish qiyin. Agar qutichani bo‘shatish mumkinligi va uni shamdon sifatida eshikka qoqish mumkinligi to‘g‘risida fikr kallaga kelmaguncha, yechimni topish qiyin. Ayni shu masala ikki xil shart bilan berilgan: bittasida quticha mixlar bilan to‘la deyilgan, ikkinchisida quticha bo‘sh deb berilgan. Ikkinchi holatda bolalar uning yechimiga tezroq kelishgan.

Psixologlarning fikricha, har qanday masalani yechish mobaynida odam uning shartlarini bir necha variantlarda tasavvur qilsagina yechimga kelarkan. Agar idrok bilan bog‘laydigan bo‘lsak, figura fonga, fon esa figuraga aylanadi, ularning o‘rinlari almashadi va hakozo. Bundagi individual farq shundaki, ba’zi bolalar yechimga to‘g‘ridan-to‘g‘ri figura asosida keladi, boshqalar esa bir necha yechimning variantlarini ko‘zoldiga keltirib, so‘ng bir qarorga keladi. Kimdir juda tez fikrlaydi, kimdir juda sekin. Shuning uchun ham test yechish jarayonida yonma-yon o‘tirgan ikki bola bir xil yechimni belgilaydi, lekin o‘sha yechimga kelish yo‘llari har birida o‘ziga xos bo‘ladi. Aynan shu jarayonning qanday kechishini *tafakkur psixologiyasi* o‘rganadi. Muammoning yechimi ba’zan birdan, yorqin yulduzday yarq etib paydo bo‘ladi. Bunday psixologik holat psixologiyada ***insayt - oydinlashuv*** deb ataladi. Odam qachon ana shunday fikrlarda tiniqlik, insayt paydo bo‘lganini o‘zi ham bilmaydi. Eng iqtidorli, zukko olimlar ham o‘z fikr yuritish qonuniyatlariga e’tibor berib, yangi g‘oya qachon, qanday yo‘l bilan paydo bo‘lganiga javob topolmaganlar. Hattoki, ba’zan shunday ham bo‘ladiki, yangilik kashf etgan olim o‘zining fikri naqadar noyob ekanligini ham anglash imkoniyatiga ega bo‘lmaydi, qolaversa, kashfiyot go‘yoki uniki emasday, qayerdan kelib qolganini ham tushunmaydi. Shuning uchun ham ko‘plab genial kashfiyotlarning haqiqiy qadr - qimmati muallif o‘tib ketgandan keyin tarix tomonidan baholanadi. Xuddi shunday qadrga ega bo‘lgan kashfiyotlar yurtimizda yashab o‘tgan yuzlab allomalar ijodiga taalluqli. Masalan, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abu Nasr Farobiy, Al-Farg‘oniy, Xorazmiy, Zamaxshariy kabi allomalar o‘zlari ijod qilgan paytlarida yaratgan g‘oyalari va kashfiyotlarining qanchalik ahamiyatli va o‘lmas ekanligini keyingi avlod, butun bir insoniyat tarixi isbot qilib, tan oldi. R.Dekartning kallasiga analitik geometriya g‘oyasi kelganda, o‘zida yo‘q xursand bo‘lgan va cho‘kkalab, yig‘lab shu fikrni unga ato etgan Xudoga sajda qilgan ekan. Darhaqiqat, miyadagi tiniqlik, oydinlashuv, avvalo, Allohning inoyati, qolaversa, o‘sha fikr egasining mashaqqatli mehnati, tinimsiz ilmlar dunyosida to‘kkan zahmatli terlari evaziga ro‘y beradi. Umuman yangiliklar ochish, ijod qilishga aloqador tafakkur turi uning eng ahamiyatli va shu bilan birga eng qiyin turidir. Chunki ijodkor, yoki kashfiyotchi nimanidir kashf qilishni xohlaydi, tinimsiz izlanadi, lekin qachon, qanday sharoitda, qanday yo‘l bilan uni ochishi mumkinligini o‘zi ham bilmaydi. Shu o‘rinda akademik Kedrovning Mendeleyev davriy jadvalini kashf qilganligi xususidagi esdaliklari juda o‘rinli. Olim uzoq vaqt mobaynida barcha kimyoviy elementlarni ma’lum qonuniyat asosida jadvalga tushirishni o‘ylab yurgan. «Kallamga kelyapti-yu, uni ko‘rolmayapman», deb tashvishlanardi olim. Kunlardan bir kun u juda toliqib, yozuv stoli ustida uxlab qolganda, tushida davriy jadvalni «ko‘rgan». Xursand bo‘lib ketib, uyg‘ongan zaxoti moddalarni jadvalga joylashtira boshlagan. Tushdagi ishi bilan o‘ngidagi ishining farqi shu bo‘lganki, tushida yengil moddalar pastda joylashgan bo‘lgan, Mendeleyev ularni o‘ngida «to‘g‘rilab» chiqqan. Bu ham o‘sha insaytga bir misol. Insonning fikrlash jarayoni tahlil qilinganda, uning qanday

shakllarda kechishi ahamiyatli bo'lib, bu uning turlari va shunga ko'ra fikrlashdagi individuallik masalasidir. Jadvalda tafakkurning turli mezonlar asosidagi klassifikatsiyasi keltirilgan.

Hayot mobaynida o'qiganlarimiz, ma'lum shart-sharoitlarda konkret dalillar va nazariy bilimlar asosida mushohada qilgan bilim va g'oyalarimiz asosida yuritgan fikrlash jarayoni ***nazariy tafakkurdir***. Undan farqli ***amaliy tafakkur*** bevosita hayotda va harakatlarimiz mobaynida hosil bo'lgan fikrlarimizga asoslanadigan tafakkurimizdir.

**Shu o'rinda tafakkur turlarini keltirib o'tamiz:**

1.Shakliga ko'ra: Ko'rgazmali harakat, ko'rgazmali obrazli, mantiqiy.
2.Ko'riladigan masalaning xarakteriga ko'ra: Nazariy va amaliy.
3.Ijodiylik elementiga ko'ra: Konvergent va divergent.
4.Yangiligi va noyobligiga ko'ra: Reproduktiv va produktiv (ijodiy).

***Ko'rgazmali - harakat tafakkurining*** xususiyati shundaki, u ham odamning real predmetlar bilan ish qilayotgan paytdagi fikrlash jarayonini nazarda tutadi. ***Ko'rgazmali - obrazli tafakkur*** esa ko'rgan-kechirgan narsalar va hodisalarning konkret obrazlari ko'z oldimizda gavdalangan chog'da ularning mohiyatini umumlashtirib, bilvosita aks ettirishimizdir.

***Mantiqiy tafakkur*** - bu mavhum tafakkur bo'lib, so'zlar, so'zda ifodalangan bilim, g'oya va tushunchalarga tayangan holda bevosita idrokimiz doirasida bo'lmagan narsalar yuzasidan chiqargan hukmlarimiz, mulohazalarimiz bu tafakkurga misol bo'la oladi. Masalan, olam, uning noyob va murakkab hodisalarini falsafiy o'rganish faqat mavhum, abstrakt tafakkur yordamida mumkin bo'ladi.

Fikrlashimizning yana bir turi ***reproduktiv*** bo'lib, uning mohiyati - ko'rgan-bilgan narsamizni aynan qanday bo'lsa, shundayligicha, o'zgarishsiz qaytarish va shu asosda fikrlashga asoslanadi. Undan farqli ***produktiv yoki ijodiy tafakkur*** - fikrlash elementlariga yangilik, noyoblik, qaytarilmaslik qo'shilgandagi tafakkurni nazarda tutadi. Shunga bog'liq bo'lgan ***konvergent*** fikrlash masalaning yechimi faqat bitta bo'lgandagi fikrlashni nazarda tutsa, ***divergent tafakkur*** - fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi. Aynan ana shunday ijodiy tafakkur divergent shaklda bo'lsa, u ijodiy parvoz, yangiliklarni kashf etishga asos bo'ladi.

Fikrning kashf etish, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyati ba'zan uning *kreaktivlik* sifati bilan bog'lab tushuntiriladi. Kreaktivlilik - shunday xislatki, u go'yoki yo'q joyda bor qiladi, ya'ni oddiygina, jo'ngina narsalarga boshqacha, birovlarnikiga o'xshamagan yondoshuvlarni talab qiladi. Masalan, uchta so'z berilgan - «qalam», «ko'l», «ayiq». Uchalasini qo'shib, yangi jumlalar tuzish kerak. Har kim o'zidagi kreaktivlik darajasiga ko'ra turli xil jumlalar tuzsa bo'ladi, masalan, «Bola qalamni olib, ko'lda cho'milayotgan ayiq rasmini chizdi». Yoki «Terak qalamchalari ekib chiqilgan ko'l yoqasida bir ayiq bolasini cho'miltirardi». Shunga o'xshash ko'plab jumlalar tuzish mumkin.

Mashhur olim K.Yung insonlarni fikrlashlariga ko'ra asosan ikki toifaga bo'lgan edi:

**Intuitiv tiplilar.** Bu shunday toifali kishilarki, ularda ko'pincha hissiyotlar mantiqdan ustun keladi va miya faoliyati bo'yicha ham o'ng yarim sharlar faoliyati chapnikidan ustunroq bo'ladi. Ko'rib, his qilib, yorqin emotsional munosabat shakllantirilmaguncha, bunday odamlar biror xususda fikrlarini bayon eta olmaydilar.

***Fikrlovchi tiplar.*** Bunday kishilarda doimo mantiq, mulohaza hissiyotlardan ustun bo'ladi va miyasining chap tomoni o'ngiga nisbatan dominanta (ustun) hisoblanadi. Bundaylar gapira boshlashsa, ko'pincha, «Faylasuf bo'lib ket-e», deb ham qo'yishadi. Chunki ular o'zlarigacha bo'lgan bilimlar, mantiqiy fikrlash borasidagi yutuqlarga tayanib, doimo to'g'ri gapirishga, doimo fikrlarini mantiqan asoslash - argumentatsiya qilishga harakat qiladilar. Aniq va texnika, tibbiyot fanlari bilan shug'ullanuvchilarda ana shu tafakkur tipiga moyillik va psixologik hozirlik bo'lsa, ular o'z kasblari borasida juda yaxshi natijalarga erishadilar. Ulardan farqli birinchi toifa vakillaridan yaxshi yozuvchilar, shoirlar, tilshunoslar, psixologlar yetishib chiqadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib tafakkur shakllari haqida fikr yuritamiz tafakkur qilish shakllari yoki formasiga tushunchalar, hukmlar va xulosa chiqarish kiradi.

***Tushunchalar*** - tafakkurning shunday shakliki, unda narsa va hodisalarga xos bo'lgan eng umumiy va xarakterli xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Ular umumiy va juz'iy, konkret yoki mavhum bo'lishi mumkin. Masalan, «ong» tushunchasini oladigan bo'lsak, uning eng muhim va boshqa tushunchalardan farq qiladigan jihatlarini ajratishimiz kerak: faqat insonga xoslik, oliy darajadagi aks ettirish, olamni bilish mexanizmi ekanligi va hokazo.

***Hukmlar*** - atrofimizdagi narsalar va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi. Masalan, «Inson ongli mavjudot» degan hukm - fikr «odam, inson», «ong» va «mavjudot» tushunchalari o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalab turibdi. Ana shunday hukmlar bizning nutqimizda har kuni juda ko'p ishlatiladi va ular tabiatdan turli bog'liqliklarni yo tasdiqlaydi, yoki inkor qiladi, rost yoki yolg'on bo'ladi. Shaxsning

insoniyligi aslida u ishlatadigan iboralarning qanchalik mantiqqa, hayotiy haqiqatlarga to‘g‘ri kelishi, argumental ekanligi bilan baholanadi. Doimo to‘g‘ri, mantiqan fikr yuritgan odamni biz «bama’ni, gapida jon bor, haqiqatgo‘y» deb ta’riflaymiz.

***Xulosalar*** - mantiqiy tafakkurning yana bir shakli bo‘lib, ular fikrlar, hukmlar va tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishdan yangi bir fikrlarni keltirib chiqarishni nazarda tutadi. Masalan:

1- hukm: O‘zbekiston - mustaqil davlat.

2- hukm: Qirg‘iziston - mustaqil davlat.

3- hukm: Qozog‘iston - mustaqil davlat.

4- hukm: Turkmaniston - mustaqil davlat.

5- hukm: Tojikiston - mustqil davlat.

**Demak, Barcha Markaziy Osiyo davlatlari - mustaqildir.**

Shunga o‘xshash biz ba’zan ayrim fikrlardan umumiy bir fikr keltirib chiqaramiz (bu - induktiv xulosa chiqarish), ba’zan esa aksincha, umumiydan juz’iy - alohida fikr chiqaramiz (fikrlashning bunday harakati deduksiya deb ataladi).

**Tafakkur operatsiyalari** bundan tashqari, psixologiya bizdagi fikrlash jarayonini ta’minlovchi alohida ***operatsiyalarni*** ham o‘rganadi. Bular: analiz, sintez, mavhumlashtirish, taqqoslash, umumlashtirish.

Fikrlash operatsiyalariga ***analiz*** (fikran narsa va hodisalarga taalluqli sifat va xususiyatlarni alohida qilib ajratish, tahlil qilish), ***sintez*** (analiz jarayonida ajratilgan qismlarni yana fikran birlashtirish, qo‘shish), ***mavhumlashtirish*** (alohida biror xususiyatni ajratib, boshqalaridan fikrni chalg‘itish, ayrim xossani mavhumlashtirish), ***taqqoslash*** (predmetlar va ularga xos bo‘lgan xususiyatlarni fikran bir - biriga solishtirish, umumiy va farq qiluvchi jihatlarini topish), ***umumlashtirish*** (umumiy va muhim sifatlariga ko‘ra predmetlarni guruhlashtirish, umumiylashtirish) kabilar kiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta’kidlash kerakki, insonni barcha xatti-harakatlari fikrlash asosida ongli munosabatlar tarzida rivojlanadi va vujudga keladi. Bu esa o‘z navbatida inson ehtiyojlardan kelib chiqadi. Insonlarni shu bugungi ijtimoiy taraqqiyotga erishuvi, albatta, aqliy harakatlar va ijodiy tafakkurini mahsulidir.

Shaxs faoliyatni tashkil etuvchi predmetli harakatlarning aynan nimalarga yo‘naltirilganiga qarab farqlanadi masalan, aqliy harakatlar ijtimoiy munosabatlar tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Xo‘sh inson faoliyatiga aqliy harakatlarni qanday ahamiyatli tomoni bor? Aqliy harakatlarni o‘zi nima degan savollarni tug‘ilishi tabiiy holdir.

**Aqliy harakatlar** – shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli-tuman harakatlaridir.

- **perseptiv** – ya’ni, bular shunday harakatlarki, ularning oqibatida atrofdagi predmetlar va hodisalar to‘g‘risida yaxlit obraz shakllanadi;
- **mnemik faoliyat** – narsa va hodisalarning mohiyati va mazmuniga aloqador materialning eslab qolinishi, esga tushirilishi hamda esda saqlab turilishi bilan bog‘liq murakkab faoliyat turi;
- **fikrlash faoliyati** – aql, fahm-farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboqlarni yechishga qaratilgan faoliyat;
- **imajitiv** – («image» - obraz so‘zidan olingan) faoliyati shundayki, u ijodiy jarayonlarda hayol va fantaziya vositasida hozir bevosita ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini anglash va hayolda tiklashni taqozo etadi.

Yuqoridagi keltirilgan faoliyat turlarini hisobga olib, aytadigan bo‘lsak talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish ijtimoiy xulq-atvori motivlari va shaxs motivatsiyasi ijodiy jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot ishida keltirib o‘tilgan manbalarni hisobga olgan holda mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan quydagi tavsiyalarni ishlab chiqildi:

-talabalarning ijodiy tafakkurini va bilimlarini kengaytirish hamda yangi tushuncha va qarashlar bilan qurollantirish;

-dars jarayoniga ilg‘or tajribalarni tatbiq qilish orqali ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish;

-psixologik g‘oyalarga va ijtimoiy munosabatlarga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga mos keluvchi ijodiy tafakkurni shakllantiruvchi ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish;

-talabalar ongida ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan nazariy – metodologik, tabiiy- ilmiy asoslarini o‘rgatish;

-talabalarni mavjud muammoli vaziyatlarda kognitiv va kreativ yondashuvlarni va ijtimoiy voqeyliklarga to‘g‘ri munosabatni shakllantirish.

## Xulosa

Yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohatlar singari yoshlarga oid davlat siyosatini mazmun-mohiyati ham aynan talaba-yoshlarni har tomonlama barkamol, salohiyatli ijodiy tafakkurga ega kadrlar bo‘lib yetishishlariga jiddiy e’tibor qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu esa o‘z navbatida talaba-yoshlarni kelgusida yetuk kadrlar bo‘lib shakllanishiga hamda davlat va jamiyat manfaatlariga mos keladigan mutaxassislar bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiladi. Darhaqiqat talabalarni haqiqiy milliy kadrlar bo‘lib shakillanishiga mos keladigan istiqbolli chora-tadbirlarni ishlab chiqilishi va talaba-yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar buning yorqin dalilidir.

Ma’lumki, mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi yo‘lidagi sa’y-harakatlar yangi bir bosqichga ko‘tarilayotgani sir emas. Buning yaqqol misolini kundan kunga odamlar turmush-sharoiti yaxshilanib borayotganidan, ularning yuzidagi quvonch, ertangi kunga bo‘lgan ishonch tuyg‘ulari oshayotganidan bilish mumkin. Yurtimiz hayotidagi tub islohotlar shu zaminda yashayotgan har bir fuqarolarimizning dunyoqarashi o‘zgarayotgani, yurt taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi yanada kuchayayotganidan darak beradi.

Shaxs o‘z fikrini bayon etishi, boshqalarni tushunishida tafakkur muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun tafakkurning turlari: mantiqiy, nazariy. amaliy, konvergent, divergent, produktiv, reproduktiv, ko‘rgazmali harakat, ko‘rgazmali obrazlini bilish, tafakkur shakllari: tushuncha, hukm, xulosalarni bilish, tafakkur operatsiyalari: analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, mavhumlashtirishni bilish zarur. Mustaqil fikrlash – talaba-yoshlarda atrof-borliq to‘g‘risida xolis va obyektiv tasavvurlarning shakllanishi uchun psixologik shart-sharoit bo‘lib, yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish va erkin fikrlashni tarbiyalash muhimdir.

Shaxs va uning tashqi olamni bilish imkoniyatlari bilish jarayonlari, ya’ni psixik jarayonlar orqali tushuntiriladi. Ularga sezgilar, idrok, diqqat, tafakkur, xotira, hayol kiradi. Bu psixik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini va qonuniyatlarini bilish shaxsning faoliyatini ifodalashda yordam beradi. Shuningdek, uning faoliyati, masalan, o‘qish faoliyati, mehnat faoliyati samarali bo‘lishiga olib keladi. Ta’lim va tarbiya jarayonida bilish qobiliyatlarini takomillashtirishning psixologik tamoyillari va shartlari mavjud bo‘lib, bu o‘z navbatida shaxsning o‘zini-o‘zi anglashi va boshqarishi uchun katta ahamiyatga egadir.

## Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017.–11 b.
2. Campbell R. McConnell. Microeconomics. - Copyright 2015, Macmillan Publishing Company, a division of Macmillan, Inc. – P.-127.
3. G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2002.1-2 kitob.
4. Psixologiya. Uchebnik .- Pod red. A.Kro‘lova, - M., 1998.
5. Psixologiya. Uch.T-2. – Moskva: Prospekt, 2004.
6.Gamilton Ya.S. Chto takoe psixologiya. – “Piter”, 2002.
7.Drujinina V. Psixologiya. Uchebnik. – “Piter”, 2003.
8.www.psycho.all.ru.

**UDK: 370.153+15**

# ZAMONAVIY ISTE’MOLCHI XULQ-ATVORI VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**M. B.Narzikulova, M.I.Saloxutdinova**
*Samarqand davlat universiteti*
*malikanarzikulova55@gmail.com, saloxuddinovamusharraf@gmail.com*

**Annotatsiya.** Iste’molchi xulq-atvorini shakllantirish, iste’molchiga ta’sir etish uslublarini ishlab chiqish, inson tomonidan iste’mol qilinishi mumkin bo‘lgan moddiy va nomoddiy mahsulotlarni sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini aniqlash, bu borada yangi tadqiqotlar olib borish, madaniyatlararo istiqbolni belgilash, iste’molchi xulq-atvorini zamonaviylashtirishga doir bilim, ko‘nikma, malakalarni yanada tarkib toptirishni nazarda tutadi.

**Kalit so‘zlar:** Iste’mol, iste’molchi, xulq-atvor, zamonaviylik, psixologik munosabatlar, moddiylik, nomoddiylik, o‘z-o‘zini anglash, o‘z ustida ishlash.

**Современное поведение потребителя и психологические характеристики**

**Аннотация.** Формирование потребительского поведения, разработка методов воздействия на потребителя, определение качества и количества материальных и нематериальных продуктов, которые могут быть потреблены человеком, проведение новых исследований в этой области, определение кросс-культурной перспективы, дальнейшее закрепление знаний, навыков, компетенций для модернизация потребительского поведения.

**Ключевые слова:** Потребление, потребительство, поведение, современность, психологические отношения, материализм, нематериальность, самосознание, самосовершенствование.

**Modern consumer behavior and psychological characteristics**

**Abstract.** Formation of consumer behavior, development of methods of influencing the consumer, determining the quality and quantity of tangible and intangible products that can be consumed by a person, conducting new research in this area, defining a cross-cultural perspective, further consolidating knowledge, skills, and competencies for modernizing consumer behavior.

**Keywords:** Consumption, consumerism, behavior, modernity, psychological relations, materialism, immateriality, self-awareness, self-improvement.

**Tadqiqotning dolzarbligi:** Insoniyat paydo bo‘lgandan to bugungi kunga qadar odamlarning ehtiyojlari har jihatdan kengayib, hajmi toboro ortib bormoqda. Bizga ma’lumki, azal-azaldan rivojlanib kelayotgan ijtimoiy taraqqiyot bugungi davrga kelib zamonaviy shakl-shamoilga ega bo‘lishlikni taqozo etmoqda. Har bir jamiyat a’zosi borki, kundalik faoliyati davomida turli ehtiyojlar qamrovida bo‘ladi va iste’molchi sifatida o‘zining xulq-atvorini shakllantirib, o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan zamonaviy yashash madaniyatiga oid hayotiy tajribalarga ega bo‘lib boradi. Lekin jamiyatni barcha a’zosi ham iste’molchi sifatida o‘z xulq-atvorini manfaatli yo‘naltira olmaydi va kundalik faoliyati davomida o‘z mablag‘larini to‘g`ri taqsimlash imkoniyatiga ega bo‘lmasligi bugungi kunda mavzuning jamiyat hayoti uchun dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Bugungi kunda iste’molchilarni xulq-atvorini shakllantirish, ularda ongli munosabatni uyg`otish asosiy masala bo‘lib qolmoqda.

**Tadqiqotning obyekti:** Iste'mol psixologiyasi obyekti iste'molni ijtimoiy jarayon sifatida qabul qilishdir. Biz iste'molchining obyekti sifatida qaraymiz, chunki iste'molchi insonning ijtimoiy rollaridan biridir va iste'mol boshqa ijtimoiy jarayonlar bilan bir xil omillarga ta'sir qiladi, faqat boshqa darajada va boshqacha tarzda.

**Tadqiqotning predmeti:** Bizning fikrimizcha, iste'mol psixologiyasining asosiy predmeti iste'molchi shaxsi, mahsulot yoki xizmatga bo‘lgan ongli munosabatdir. Iste'mol psixologiyasi mavzusi iste'molchi va iste'molning psixologik qonuniyatlari, ilmiy-nazariy asoslari hamda o‘ziga xos psixologik xususiyatlatini tadqiq etadi.

**Tadqiqotdan ko‘zlangan asosiy maqsad:** Iste'molchilarning iste'mol qilish madaniyatini yanada takomillashtirish, yosh avlod ongiga iste'molga bo‘lgan munosabatni singdirish, haqiqiy zamonaviy iste'molchi sifatida yashashlari uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir. Yuqorida nazarda tutilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda quydagi vazifalarni hal etish lozim deb topildi.

**Ilmiy tadqiqotning quydagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:**

1) Iste’molchilarning ilmiy va nazariy qarashlarni mazmun jihatdan keng qamrovli yoritib berish;
2) Iste’molchi manfaatlarini rivojlantirishga qaratilgan fikr-mulohazalarni mazmunan yoritib berish;
3) Zamonaviy iste’molchi xulq-atvorini shakillantirishga yo‘naltirilgan takliflar, tavsiyalar va xulosalar ishlab chiqish.

Yuqorida keltirilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda fikr yuritadigan bo‘lsak, iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish to‘g‘risidagi farmonlar, qarorlar, tamoyillar xorijiy va mamlakatimiz olimlarining ilmiy tadqiqot ishlarining ilmiy-nazariy va metodologik asosini tashkil etadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, mamlakatimizning psixologiya va iqtisodiyot fanlari rivojiga o‘zlarining ilmiy adabiyotlari, asarlari bilan hissa qo‘shib kelayotgan ko‘plab professor-olimlar va tadqiqotchilarni keltirib o‘tish mumkin. Xususan, A.Smit, A.Maslou, F.U.Teylor, V.L.Vundt, N.Xoll, T.Elers, M.Snayder, A.Derkach, Yu.V.Andreyeva, V.Boyko, Ya.Strelyau, V.Gerbachevskiylar, Karitskiy I.N, Karipov A.V, N.Safoyev, V.Karimova, Z.Nishonova, Baratov Sh.R, E.G‘oziyev, N.Boymurodov, I.Maxmudovkabi bir qator nufuzli va salohiyatli olimlarni ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan. Tadqiqotning o‘rganilganlik darajasini chuqur talqin etadigan bo‘lsak, «iste'mol» va «iste’molchi» tushunchalari o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi va bir-biriga bog‘liq bo‘lgan tushunchalar hisoblanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan “Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash” shiori ostida yurtimizni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish maqsadida inson kapetaliga va manfaatlariga, hamda inson huquqlari sohasini yanada rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu esa o‘z navbatida inson omiliga bo‘lgan e’tibor, ularning haq-huquqlarini ta’minlash va shu orqali barcha sohalarni rivojlanishiga erishishga olib keladi. Bularning barchasi ta’lim muassasalarini o‘qitish tizimiga iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilishi, albatta, korxonalar, tashkilotlar faoliyatini samarali amalga oshirilishga olib keladi. O‘tgan davr mobaynida jahonda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy, sohalarda kuzatilayotgan keskin o‘zgarishlar, insonlarning dunyoqarashi, xulq-atvori, turmush tarziga hamda boshqaruv jarayonlariga o‘z ta’sirini o‘tkazib, jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Bularning barchasi iste’molchi xulq-atvorini shakillantirishga va ularni o‘z ustida ishlashlariga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Bu borada Mashhur iqtisodchi olim Adam Smit XVIII asrning ikkinchi yarmidayoq o‘zining “Jamiyat boyligi” nomli kitobini yaratdi va u ishlab chiqaruvchi hamda iste’molchining talabini qondirishdan boshqa qayg‘usi yo‘qdir – deb yozgan edi.

Marketing XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida xaridor talabini qondirishga mo‘ljallangan, korxonalarning ishlab chiqarish-sotish, savdo faoliyatlarini tashkil qilish va boshqarish tizimi sifatida paydo bo‘lgan. Ishlab chiqarish va umuman xo‘jalik yuritishga marketing nuqtai nazaridan yondashish xaridorga ta’sir qilishning xo‘jalik jabhalarini o‘z ichiga qamrab oladi. Bu bozor uchun bo‘lgan raqobat va kurashnining o‘zaga xos xususiyatlarini aniqlashga olib keladi. Bularning barchasi insonlarning o‘zaro manfaatlari to‘qnashuvga va insonlar uchun ruhiy sog‘lom muhitni yaralishga xizmzt qiladi.

Bugungi kunda iste'molchilar uchun yaratilayotgan har qanday mahsulot va tovarlar marketing xizmatlariga ehtiyoj sezadi.

Marketing xo‘jalikning ma’lum bir tarmog‘iga masalan ishlab chiqarishga yoki savdoga ta’aluqli deb o‘ylash noto‘g‘ri bo‘lur edi. U bozorga xizmat ko‘rsatuvchi barcha xo‘jalik subyektlarini o‘z ichiga oladi va ulardan birgalikda va yaxlit foydalanilganda, birgalikdagi faoliyatning so‘nggi natijasi uchun umumiy strategik yo‘nalishi mavjud bo‘lgan holdagina uning vosita va usullari samarali natija beradi.

Marketingda ***latent*** (yashirin, noaniq) o‘zgaruvchilar deb, odatda hisoblab bo‘lmaydigan ko‘rsatkichlarga aytiladi. Bunga zarurat asosidagi emas, balki hissiyotlar ta’sirida qabul qilingan xarid qilish to‘g‘risidagi asoslanmagan qarorlarni qabul qilish misol bo‘la oladi. Bilvosita statistik usullar bilan bunday xaridlar miqdorini prognoz qilish mumkin, yoki turli xil omillar ta’sirida (mamlakatdagi siyosiy holatning o‘zgarishi, quyosh faolligi yuqori bo‘lgan kunlar, reklamaning ta’siri, oiladagi munosabat va boshqalar) real xaridlar soni prognoz qilinadigan xaridlar sonidan ancha farq qilishi mumkin.

Firmalarning muvaffaqiyati iste’molchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni o‘rnatishga harakat qiluvchi rahbarlar, menejerlarning faolliligiga bog‘liq bo‘ladi. Bunga misol qilib Shimoliy Amerikadagi Honda North America kompaniyasi menejerlar komandasining tezkor va samarali faoliyatlarini keltirish mumkin. “Ford Tauras” markali avtomobillar bozorda ularning “Accord” nomli avtomobillarini siqib chiqarganda, ular o‘z avtomobillarining pirovard iste’molchilari bilan ishlashga e’tibor berish orqali holatni to‘g‘rilashga harakat qilishdi. Marketing omillari uchta omildan iborat: tovar, narx va joy. Boshqalari esa o‘z ichiga iqtisodiy, texnikaviy va ijtimoiy omillarni oladi. Bularning barchasi uning qora qutisiga kirib, xaridor munosabatini shakllantiradi [1].

Iste'mol psixologiyasi – boshqa versiyalardanfarq qilgan holda iste'molchi psixologiyasi, iste'molchilar psixologiyasining mohiyati o'zgarmaydi-iste'molchilarning xulq-atvorining psixologik xususiyatlarini va tovarlarga bo'lgan munosabatni o'rganadigan iqtisodiy psixologiya sohasi hisoblanadi.

O'lchash mumkin bo'lgan, organizmning xohlagan reaksiyasini ta’riflab berish qurbiga ega bo‘lgan umumiy atama – bu inson xulq-atvoridir. Nimani xulq-atvor deb aytish mumkin-u, nimani esa aytish mumkin emasligi bahsi bixeviorizm oqimining paydo bo‘lganidan buyon davom etib kelmoqda. Oqim tarafdorlarining fikriga ko‘ra, asosiy xulq-atvorni aniqlashda urg‘u faqatgina yaqqol va ko‘zga tashlanadigan reaksiyalarga beriladi. Yillar o‘tgan sayin atama ma’nosi ancha kengayib, hozirda undan qator yaxlit reaksiyalarni nomlashda, xususan, iste’molchi xulq-atvorining mazmuni va mohiyatini yoritishda foydalanilmoqda.

Iste’molchi xulq-atvorini o‘rganish faqat tijorat korxonalariga emas, balki davlat miqyosida ham katta ahamiyatga egadir. Korxona rahbarlari o‘z rivojlanish strategiyalarini rivojlantirishlari uchun iste’molchi xulq-atvorini bilishlari zarurdir. Jumladan, muhim vazifalardan biri korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar birinchi navbatda yo‘naltiriladigan segmentlar (iste’molchilar guruhi) aniqlanishi lozim.

***Iste’molchi xulq-atvori*** – mahsulotlar, xizmatlarni olish, iste’mol qilish va ulardan foydalanishga bevosita yo‘naltirilgan faoliyat hisoblanadi. Bu faoliyatga mahsulotlar, xizmatlarni olish, iste’mol qilish va

ulardan foydalanishdan oldin va keyin yuzaga keluvchi qarorlarni qabul qilish jarayonlari ham kiradi.

Iste'molchi xulq-atvorini iste'molchiga ta'sir etish, yangi tadqiqotlar olib borish, madaniyatlararo istiqbolni belgilash kabi ketma-ketlikda o'rganish mumkin.

Iste'molchini xabardor qilish, aldash va boshqa suiste'mol qilishlarni, boshqa amal qiluvchi sud himoyasini qo'llashni hamda kompensasiya olish imkoniyatini ko'zda tutadi. Iste'molchining hayotida foydali bo'lishi mumkin bo'lgan axborot dasturlari, motivatsiya va xulq-atvor bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga asoslanishi lozim. Har qanday iste'molchining bir necha variantdan anglab yetilgan va erkin tanlash huquqi erkin tadbirkorlik iqtisodiyotining asosi hisoblanadi. Ushbu huquq biznesdagi suiste'mol qilishlar natijasida buzilganda, hukumat monopoliyalar huquqini cheklashi va adolatsiz savdodagi ko'zbo'yamachiliklarni oldini olishi lozim.

Iste'molchilar huquqini himoya qilish to'g'risidagi qonunlar ko'pincha ushbu qonunlarni ishlab chiquvchi huquqshunoslarning uncha katta bo'lmagan guruhining fikr-mulohazalariga asoslanadi. Natijada ushbu qonunlar faqatgina samarasiz bo'lmay, balki ishlab chiqarish sohasi uchun zararli bo'lishi mumkin. Iste'molchilar huquqini himoya qilish to'g'risidagi qonunlarni ishlab chiqishda ko'proq ilmiy izlanishlarga e'tibor berilsa, iste'molchilarning himoyalanishini yanada oshishiga erishiladi.

Yaqin kunlargacha iste'molchini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar marketing manfaatlari yo'lida o'tkazilar va pozitivizm paradigmasi ko'rinishini olar edi. Bunda qonunlar va xulosalarni umumlashtirish uchun qo'pol empirik, ya'ni amaliyotda tekshirib ko'riladigan usullar qo'llanilar edi. Hozirgi kunda pozitivizm mazmuni turli usul va maqsadlarni o'z ichiga oluvchi tadqiqot shakli, ya'ni postmodern bilan to'ldirilmoqda.

***Pozitivizm*** – dunyoni bilib bo'lmasligi to'g'risidagi pospulatga asoslangan falsafiy oqim hisoblanadi. Amaliyotda ko'pincha "modern" (zamonaviylik) va "postmodern" (zamonaviylikdan keyin) tushunchalari asosan san'atdagi turli oqimlari sifatida qaraladi. Shu bilan bir qatorda ushbu tushunchaning siyosiy, iqtisodiy, marketing, psixologik va boshqa mohiyatlari e'tiborga olinmaydi. Modernizmning mohiyati mafkura, iqtisodiyot va bozor g'oyalarining umumlashuvidan iboratdir.

Postmodern nazariyalari XX asrning 60–70-yillarida modernizmning yumshoq g'oyalarini birlashuviga intiluvchi totalitar tuzumlarning tanazzulga yuz tutishiga javob sifatida yuzaga keldi. Postmodern tarafdorlari barcha uchun yagona g'oyaning mavjud bo'lishini inkor etadilar. Barcha muammolarga keng e'tibor berilishini hamda barcha vazifalarni hal etishga individual yondashuvni talab qilinishini, bu oqimning ijobiy tomoni sifatida qarash mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda zamonaviylik tushunchasiga e'tiborimizni qaratamiz.

Zamonaviy so'zi ***(arabchada – hozirgi zamonga oid, hozirgi zamonga xos, zamon talablariga javob beradigan, hozirgi)*** degan ma'nolarni bildiradi [2].

Barcha mamlakatlarda va barcha qit'alarda insonlarda iqtisodiy rivojlanish va yanada mustaqil bo'lishga intilish kuzatilmoqda. Sof daromadlarning oshib borishi bilan turmushning o'sib boruvchi standarti tovarlarni xarid qilishdagi ustuvor rag'batlantirishga aylanib bormoqda. Sinchkov tadbirkorlar hamma joylarda ham o'zlarining kelgusi iste'molchilarini bilishlari va ushbu iste'molchilarning ehtiyojlarini ularning madaniy kompetensiya (xususiyat)larini e'tiborga olgan holda qondirish orqali foyda olish mumkinligiga iqror bo'lmoqdalar. Masalan, "Xuoli-28" ("Power 28" nomli kir yuvish vositasining xitoycha nomlanishi) zamonaviy Xitoydagi modali atama bo'lib hisoblanadi. Bu kir yuvish vositasi darhol Xitoyda mashhurlikka ega bo'ldi. Televizion, radio va gazeta reklamasi yordamida uni sotish hajmi 10 baravar oshdi va katta miqdorda foyda keltirdi. Yoqimli hidga ega bo'lgan (yer tut, tarvuz, shokolad va boshqalar) bolalar poyafzalini Chilining Santyago shahrida joylashgan dunyodagi yagona zavod "Calzados Dolphitos" ishlab chiqaradi. Ushbu zavod 1986 yili ishga tushgan bo'lib, ushbu davrda sotish hajmi ikki baravardan oshib ketdi va bu mahsulotga bo'lgan talab taklifdan ancha yuqori turadi. "Procter & Gamble" kompaniyasi Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari bozorini bitta idishda ham balzam, ham qazg'oqqa qarshi vositalari bo'lgan shampunlar kabi mahsulotlarni taklif etish orqali egallab olgan [3].

Korxonalarning muhim vazifalaridan biri bo'lib, marketing strategiyasiga iste'molchini o'rganishni ketma-ket tadbiq etish hisoblanadi. Iste'molchini tushunishda quyidagi to'rtta tushuncha asos bo'lib hisoblanadi:

1) iste'molchi – xo'jayin;

2) biznesda muvaffaqiyatga erishish uchun iste'molchi motivatsiyasini va uning xulq-atvorini tushunish lozim;

3) iste'molchi xulq-atvori tashqi ta'sir ostida bo'ladi;

4) iste'molchi bilan ishlashda ijtimoiy qonunchilikka va axloqiy sezgirlikka rioya qilish zarurdir.

Iste'molchi xulq-atvori vamotivatsiyasini tushunish hamda ularni tovarlar ishlab chiqish va bozorga siljitish bo'yicha chora tadbirlarda e'tiborga olish raqobatli muhit sharoitida yashab qolishning absolyut

zaruriyati hisoblanadi.

Iste’molchi tovarlar va xizmatlar bo‘yicha o‘z tanlovida mustaqildir, biroq marketing agar taklif etilayotgan tovar yoki xizmatlar iste’molchining ehtiyojlari, zaruriyatlarini qondirishga mo‘ljallangan bo‘lsa, motivatsiyaga ham, xulq-atvorga ham ta’sir etishi mumkin (1-rasm).




Tovar va xizmatlarning sotilishi talabning latent (yashirin, noaniq) ko‘rinishida mavjud bo‘lganligi sababli ta’minlanadi va iste’molchi qulay sharoitlarda tovar va xizmatlarni tanlashi mumkin yoki aksincha tanlamasligi mumkin.

Iste’molchilarning ehtiyojlari va zaruriyatlari haqiqiy hisoblanib, foydali mahsulotlar va xizmatlarni taklif etish shubhasiz foyda keltiradi. Iste’molchilar tomonidan olinadigan foyda iqtisodiy tizimni jonlantiradi. Dunyoda mashhur bo‘lgan marketing bo‘yicha strateg *Leo Bogart* shunday deb ta’kidlagan edi: “har qanday maxsus (marketing) reklama kompaniyasining bozorga aniq mahsulot yoki firmani siljitishga yo‘naltirishdan tashqari, har bir iste’molchiga mo‘ljallangan va doimo unda yo‘q bo‘lgan tovarlar va xizmatlar to‘g‘risida eslatib turuvchi minglab reklama murojaatnomalarining keng aralash samarasi ham mavjuddir. Shaxsiy motivatsiya darajasida bu samara yanada ko‘proq iste’mol qilishga, xarid qilishga, ya’ni mukammallikka intilish sifatida seziladi. Jamoa darajasida esa u mamlakat iqtisodiy tizimining asosi va qo‘llab-quvvatlovchi iqtisodiy mexanizmi hisoblanadi”.

Amaliyotda esa ushbu qoidalardan chetlanishlar ham mavjud bo‘ladi. Ishlab chiqarish va savdo sohasida ko‘zbo‘yamachiliklarning va aldashlarning keng quloch yoyishi konsyumerizm harakatini yuzaga keltirdi hamda 1960 yilda AQSHda iste’molchilar huquqini himoya qilish to‘g‘risidagi qonunni qabul qilishga majbur qildi. Ushbu qonunning mazmuni quyidagilardan iboratdir: **(a)***xavfsiz bo‘lish,* ya’ni iste’molchi hayoti va salomatligiga xavfli bo‘lgan tovarlar va xizmatlardan himoyalanish huquqi; **(b)***axborot olish huquqi,* ya’ni axborot bilan ta’minlangan tanlovni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar bilan ta’minlash; yolg‘on takliflar, ko‘z bo‘yamachiliklardan himoya qilish; **(c)***tanlov erkinligi,* ya’ni raqobatli baholar sharoitida turli xil tovarlar va xizmatlarni kafolatli tanlash; **(d)***himoyalanish huquqi,* ya’ni iste’molchilarning manfaatlari to‘liq va tushunilgan holda bozorni tartibga solish bo‘yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda e’tiborga olinishi lozim hamda zararlarni adolatli qoplash kafolati; **(e)** toza va sof atrof-muhitdan *foydalanish huquqi*; **(f)** aholining kambag‘al qatlamlari va mayda millatlarning *o‘z manfaatlarini himoya qilish huquqi*.

Ushbu huquqlar mutloq va buzilmas hisoblanadi. Ko‘z bo‘yamachiliklar, past sifat, qonuniy shikoyatlarni e’tiborga olmaslik, atrof-muhitni ifloslantirish va boshqa shunga o‘xshash harakatlar qonuniy huquqlarni buzilishi deb qaraladi. Konsyumerizm sifatli tovarlar va iste’molchiga e’tibor uchun kurashuvchi AQSHdagi ijtimoiy harakat hisoblanadi. Ushbu harakat XX asrning 50-yillarini ikkinchi yarmida yuzaga kelgan va hozirgi kungacha amal qilib kelmoqda. Konsyumerizm harakatining maqsad va vazifalari doimo kengaymoqda va o‘zgarishga uchramoqda. Iste’molchilar huquqini himoya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni olib borilishi natijasida iqtisodiy (milliy) ongda siljishlar yuzaga keldi va bu holat biznes, jamiyat va siyosatda qo‘yiladigan axloqiy talablarning oshishiga olib keldi. Masalan, statistik ma’lumotlarga ko‘ra alkogolizm va chekish bilan bog‘liq bo‘lgan kasalliklarning o‘sishi natijasida afrikadan chiqqan amerikaliklar hayotining o‘rtacha davomiyligi yildan-yilga kamayishi kuzatilgan. Ushbu ma’lumotlar matbuotda e’lon qilinganida, iste’molchilar jamiyati bunday xavfli tovarlarni sotishga qarshi chiqdilar.Parallel holda tavakkalchiligi yuqori bo‘lgan aholi guruhlari o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borildi. Natijada spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlarini sotish hajmi ancha kamaydi. Jamoatchilik ta’siri ostida “G.Heileman Brewing Co.” kompaniyasi asosan afrikadan chiqqan amerikaliklar uchun yo‘naltirilgan o‘zining “Power Master” nomli solodli likyorini sotuvdan olib tashlashga majbur bo‘ldi. Bundan keyin “qora” kvartallarda bozorning ushbu segmenti uchun mo‘ljallangan mentolli sigaretlarni siljitish bo‘yicha ishlab chiqaruvchi va sotuvchilarning barcha umidlari ro‘yobga oshmasligi ayon bo‘ldi.

Iste’molchini o‘rganish tadqiqotlarning dinamik holda rivojlanayotgan sohasi hisoblanadi. Iste’molchini o‘rganish bilishning tizimli sohasi sifatida 1950-yillarning oxiri va 1960-yillarning boshida yuzaga kelgan. Bu davr ko‘pchilik mamlakatlarda iqtisodiy yuksalish davri edi. Menejment tizimining va umuman iqtisodiyotning boshidan kechirgan keng qamrovli (global) o‘zgarishlar, strategik marketing dasturlarini rivojlantirishga, jumladan iste’molchi xulq-atvorini o‘rganishga e’tibor berishni kuchaytirishga sabab bo‘ldi.

Iste’molchini tahlil etish deganda potensial iste’molchilarning hozirdagi va kelgusidagi zaruriyatlarini, ehtiyojlarini va istaklarini o‘rganuvchi usullari tizimi, did va istaklaridagi o‘zgarishlarga, umuman bozorda iste’molchining xatti-harakatiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash, qondirilmagan ehtiyoj sabablarini aniqlash hisoblanadi.

Bir qancha tadqiqotchilarning fikricha, iste’molchi xatti-harakati, xulq-atvorini o‘rganishning metodologik asosi umummilliy, analitik bashoratlash usul va uslublaridan tashkil topadi (*1-jadvalga qarang*).

1-jadval

**Iste’molchi xatti harakatini o‘rganishda qo‘llaniladigan usul va uslublar**

| **Umumilliy usullar** | **Analitik bashoratlash usullari** | **Motivlarni tadqiq etish usullari** | **Dastlabki ma’lumotlarni yig‘ishda qo‘llaniladigan usullar** |
|---|---|---|---|
| - tizimli tahlil;<br>- kompleks yondashuv;<br>- dasturiy maqsadli rejalashtirish. | - chiziqli dasturlash;<br>- ommaviy xizmat ko‘rsatish nazariyasi;<br>- aloqa nazariyasi;<br>- ehtimollar nazariyasi;<br>- iqtisodiy-matematik usullar;<br>- ekspert baholash. | - teran so‘rov;<br>- proyeksion shakl. | - tanlab-kuzatish;<br>- tajriba-sinov;<br>- tanlab-tekshirish;<br>- anketa so‘rovi. |

Bu usullardan tashqari motivlarni tadqiq etish bevosita savol bermasdan turib, shu tipdagi bizni qiziqtirgan savollarga ma’lumot olishdek o‘ziga xos san’at hisoblanadi. Shu maqsadlar uchun bilvosita yo‘llar bilan axborot olishda nozik usullar majmuasidan foydalaniladi. Test-topshiriq, test-so‘rov, proyektiv testlar, proyeksion shakllar xuddi shunday usullar sirasiga kiradi.

Proyeksion shakllar usulining maqsadi shaxsning ma’naviy olamiga kirib borish, tadqiq etiluvchi shaxslarning munosabatlari, harakatlari motivlarini o‘rganishdir. Bu shaxslarning boshqa insonlar va boshqa holatlar haqidagi mulohazalari yoki yozma fikrlari asosida, ularning ma’naviy olamiga kirib boriladi. Shaxs proyeksiyasi boshqa kishilarni, atrofdagi insonlarni, voqealarni baholashda so‘rovga javob beruvchilar (respodentlar) o‘zlarining ayrim tipologik xususiyatlari, kayfiyatlariga ham nisbat berdilar, degan qarashga asoslanadi. Masalan, tugallanmagan jumlalar testi, so‘zlar yoki fikrlar majmuasi testi va hokazolar.

Savollarga javoblar har xil bo‘lishi mumkin, ular har xil respodentlar xulqi namunalarini aks ettiradi, bu esa tatbiq qiluvchilarni alohida guruhlar bo‘yicha tasniflash va ulardan har birining qiymatini aniqlashga imkon beradi.

Marketing tadqiqotlarini olib borishdagi dastlabki ma’lumotlarni yig‘ishda keng miqyosda qo‘llaniladigan psixologik usullar jumlasiga quyidagilar kiradi: tanlab-kuzatish, tajriba-sinov, tanlab-tekshirish, anketa so‘rov.

Marketing tadqiqotlarini olib borishdagi iste’molchi xatti-harakatlarini o‘rganish uchun psixologiya fanining mazkur usullaridan yakka yoki ularni uyg‘unlashtirgan holda foydalanish mumkin. Eng oddiy usul – kuzatishdir, ba’zida tadqiqotchi o‘rganilayotgan omil bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni bevosita kuzatib boradi.

Tajriba-sinov tadqiqotlar jami o‘zgaruvchanliklarni tashkil etuvchi bir xil qiymatli, bir xil guruhlarni, hozir o‘rganilayotgan bir guruhni mustasno etganda qiyoslash yo‘li bilan o‘tkaziladi. Eksperimentni o‘tkazishda kuzatish usulida umuman uchramaydigan nazoratni amalga oshirish mumkin, bu esa tanlab-kuzatishga qaraganda arzonga tushadi. Ammo, sinov usuli o‘ziga xos kamchilikka ega, bir o‘zgaruvchan kattalikni o‘lchash g‘oyat qimmatga tushishi mumkin, o‘zgaruvchan miqdorlar bevosita tarzda eksperiment yakunlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin , bu ham o‘z navbatida sinov o‘tkazishni talab etadi. Tanlab-kuzatish hamda so‘rov eng mashhur va birlamchi ma’lumotlar olishda foydalaniladigan usul hisoblanadi. Firmalar kishilarning bilimi, e’tiqodi, didi, tasavvuri, asosiy ehtiyojdan qoniqqanlik darajasi va boshqalar haqida axborot olish uchun anketa so‘rovi o‘tkazadi.

*V.Karimova* va *F.Akramova*larning ta’kidlashlaricha, iqtisodiy xulqni, asosan, ijtimoiy ustanovkalarni

aniqlash hamda iqtisodiyotdagi modellashtirish usullari orqali o‘rganish mumkin. Bundan tashqari, iqtisodiy-psixologik eksperiment usulini ham ishlatish mumkin.

Zamonaviy iste’molchi xulq-atvori ijtimoiy ustanovkalarning amalda namoyon bo‘lishi sifatida qaralishini inobatga olsak, uning xususiyatlarini o‘rganishda ustanovkalarni aniqlash usullaridan foydalanish mumkin. Lekin ushbu metodikalar professional tayyorgarlik vamalakani talab etganligi bois, ishlab chiqarish korxonalarida qo‘llash biroz noqulaylikni keltirib chiqaradi. Masalan, ***shkalali o‘lchov va ijtimoiy masofani aniqlash usullari*** shular jumlasidan bo‘lib, ular faqat psixolog aralashuvida zarurat paydo bo‘lgandagina qo‘llanilishi mumkin.

Eng zarur makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, ya’ni iste’molchining talab va taklifidan kelib chiqib, kibernetika va statistikani maxsus usullari yordamida jamoalar va ulardagi xodimlarni mehnatga nisbatan munosabatlari, qoniqishlari, unumdorlik haqidagi tushunchalari va tasavvurlarini o‘rganish mumkin.

Modellashtirishning maxsus psixologik usullar bilan uyg‘unlashtirilishi esa o‘z navbatida professional sifatlar algoritmini aniqlashga yordam berib, mehnat malakalarini rivojlantirish istiqbollari to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plash imkonini beradi.

Psixolog va iqtisodchi olimlarning bir necha omillarga bog‘liqligini tadqiq etganlar.

Ushbularni hisobga olgan holda ijtimoiy-psixologik nuqtai-nazardan kelib chiqib iste’molchi xulq-atvorini takomillashtirishga doir tavsiyalarva xulosalar ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan tavsiyalar quydagilardan iborat:

- ✓ iste’molchi sifatida o‘zida sof axloqiy muhit paydo qila olishi va shu tariqa harakat qilishini ta’minlay olishi;
- ✓ mehnat faoliyatini tashkil etish mobaynida iste’molchiva iste’moltovarlari o‘rtasida o‘zaro yaxshi munosabatlarni qaror toptirish uchun shart-sharoityaratishi.
- ✓ o‘zida iste’molga bo‘lgan ijobiy munosabatni tarkib toptirish;
- ✓ iste’molchi sifatida o‘zida va atrofdagilarda iste’molga bo‘lgan haq-huquq mezonlarini shakllantirish;
- ✓ iste’molga yaroqli mahsulotlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish;
- ✓ iste’mol mahsulotlarini sifat va saviyasiga e’tibor berish madaniyatini o‘zida rivojlantira olishi;
- ✓ iste’molchi sifatida har bir kishining ruhiy-psixologik kayfiyatlariga mos ravishda muloqot qilishi.
- ✓ ishlab chiqarish va boshqa jabhalarda har xil muammolarni hal etishda eng qulay yo‘llarni izlab topish;
- ✓ vijdonlilik va adolatlilik mezonlariga amal qilish;
- ✓ moddiy va nomoddiy bo‘lgan iste’mol mahsulotlariga nisbatdan e’tiborli bo‘lish va ularga nisbatdan to‘g‘ri hamda ongli yondoshuvlarni tarkib toptirish;
- ✓ har bir jamiyat a’zosiga iste’molchi sifatida qaragan holda yoshligidan boshlab, turli axborot telekomunikatsiya vostalari, gazeta, jurnal va o‘quv adabiyotlari orqali ularni xulq-atvorini shakllantirish;
- ✓ boshlagan ishlarni oxiriga yetkazish va b.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ushbu maqolaning dolzarbligi, obyekti, maqsadi, vazifalari, xorij va mamlakatimiz olimlarining ilmiy-nazariy qarashlari, tadqiqotning metodologik asoslari, takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, tadqiqotning yoritilishga oid rasm va jadvallar keltirilgan. Jamiyatda iste’molchi xulq-atvorini va iste’molga bo‘lgan ongli munosabatni shakllantirish bu davlat va jamiyat taraqqiyotini muhim omili sifatida qaraladi. Bu esa bizni quydagi xulosalarni chiqarishga olib keladi:

1) iste’molchi xulq-atvorini ijtimoiy hayot tarzi bilan uyg‘unlashtirish;
2) kelgusida iste’molchi xulq-atvorini shakllantirishga doir ilmiy tadqiqot ishlarini davom ettirish;
3) iste’molchi xulq-atvorini shakllatirish orqali insonlarni iste’molga bo‘lgan kreativ yondoshuvlarni hamda xulq-atvorini rivojlantirish;
4) iste’molchi xulq-atvorini rivojlantirish orqali jamiyatda sog‘lom ijtimoiy ruhiy iqlimni yaratish va boshqalar.

Xulosamiz so‘ngida shuni ta’kidlash kerakki, iste’molchining hayoti, ruhiy holati, sog‘lig‘i yoki mol-mulkka va boshqa turdagi iste’mol mahsulotlarga nisbatan to‘g‘ri munosabatni shakllantirishga yo‘nalgan bo‘lishi zarur. Chunki iste’molchiga yetkazilgan zarar, agar u normativ hujjatlarda nazarda tutilgan tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati mobaynida, bunday muddat belgilanmagan taqdirda esa, tovar ishlab chiqarilgan (ish, xizmat qabul qilingan) paytdan e’tiboran belgilangan muddat mobaynida yuzaga kelgan bo‘lsa, qoplanishi lozimligini ongli ravishda bilishlarini o‘z vaqtida uqtirib borish jamiyat hayoti uchun muhim hisoblanadi. Shu tariqa iste’molchi iste’mol mahsulotlarini maqsadli ravishda o‘z manfaatlariga moslashtirishi hamda davlat va jamiyat talablaridan chiqmasdan ongli faoliyatga uyg‘unlashtirishi ijtimoiy-psixologik jihatdan samaradorlikka olib keladi.

**Adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 11 b.
2. Karimov I.A.Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 173 b.
3. V.M.Karimova, O.E.Hayitov, S.M.Djalalova. Boshqaruv psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Fan, 2008. – B.201-211.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya/ Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2007. – 176 b.
5. Phillip Kotler, Gary Armstrong. Marketing asoslari. 15-nashr. Darslik. Pearson Education Limited, 2014. –B.158.
6. E.Begmatov, A.Madvaliyev va boshqalar. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston, 1997. –B.129.
7. Campbell R. McConnell. Microeconomics. - Copyright 2015, Macmillan Publishing Company, a division of Macmillan, Inc. – P.-127.

**UDK: 15992**

## MAXSUS PSIXOLOGIYADA BOLALAR IDROKINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSI

**F. X. Kuchkarova**
*Samarqand davlat universiteti*
doktarant@samdu.uz

**Annotatsiya.** Maqolada idrokning bilish jarayoni sifatida aqli zaif bolalarda taraqqiy etishi tahlil etiladi. Eshitish idroki misolida aqli zaifbolalar psixik taraqqiyotidagi o‘ziga xosliklar psixologik tahlil etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Patologiya, defektologiya, rivojlanish, eshitish idroki, nutq, analiz, korreksiya, bilish jarayonlari.

### Проблема развития детского восприятия в специальной психологии

**Анноттация.** В статье анализируется развитие восприятия как познавательный процесс у умственно отсталых детей. На примере слухового восприятия психологически изучается психическое развитие умственно отсталых детей.

**Опорные слова:** патология, дефектология, развитие, восприятие слуха, речь, анализ, коррекция, познавательные процессы.

### The problem of child's perception development in special psychology

**Abstract.** This article is about process of mind’s realizing in stupid children. Mind’s realizing by hearing way in stupid children and their psychic development process, are analyzed.

**Keywords:** pathology, defektology, development, hearing mind, speech, analysis, correction, knowing process.

Bola yoshligidan atrofdagi kishilar bilan muloqotda bo‘lib, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydi. U dastlab oila sharoitida va maktabgacha tarbiya muassasalarida, keyinchalik maktabda ta’lim-tarbiya oladi. Bu bosqichlarda bolalarga ta’lim-tarbiya berishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish va uni egallash nutq orqali amalga oshiriladi. Inson nutqi yordamida o‘z fikrini, his-tuyg‘ularini bayon etadi, hamda boshqalarning hissiyotlarini bilib oladi.Nutq faoliyati aloqa o‘rnatish vositasidir. Nutq kishilarning til vositasi orqali aloqa qilish jarayonini tarixan tarkib topgan shaklidir. Nutqni egallash uchun qulay ijtimoiy va biologik omillar mavjud bo‘lishi zarur. Agar shu omillardan biri buzilsa yoki yetishmay qolsa nutq buzilishlari yuzaga kelishi mumkin. Nutq rivojlanish jarayonida bilish faoliyatining oliy shakllari tafakkur qobiliyatlari shakllanadi. Bolaning nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqning to‘g‘ri shakllanishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to‘g‘ri nutq muhiti va ta’lim-tarbiyaga bog‘liq. Eshituv idroki bolada erta rivojlanadi. 2-3 haftalik me’yorda rivojlanayotgan bolada nutqa, ovozga nisbatan ba’zi bir terma reaksiya boshlanadi; 5-6 oylarda u intonatsiyaga, keyinchalik nutqning ohangiga e’tibor beradi. 2 yoshga yetganda ona tilidagi hamma tovushlarni eshitadi va uni bir-biridan ajrata oladi. 2 yashar bolada eshitish nutqi tarkib topgan deb hisoblash mumkin, chunki u ona tilidagi hamma tovushlarni ajratadi, eshitish nutqining bunday darajada bo‘lishi nutq orqali amaliy aloqa qilish uchun yetarlidir. Aqli zaif bolalarda esa eshitish idroki kech shakllanadi. Bolalar atrofdagi odamlar

nutqidagi tovushlarni farqlay olmaydilar, yangi so‘zlarni o‘zlashtira olmaydilar, artikulyatsion jihatdan o‘xshash tovushlarni yaxshi ajrata olmaydilar. Eshitish idrokning yaxshi shakllanmaganligi bir tovushni ikkinchi tovushga almashtirishga, so‘zning tovush tarkibini analiz qilishda qiyinchiliklarga olib keladi. Maxsus tashkil qilingan mashg‘ulotlarda maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning eshtish idrokini shakllantirishda tovushlarni aniqlash, so‘zdagi tovushlarni ajratish, sonini, o‘rnini aniqlash ishlari olib borilishi lozim [3]. Nutqni to‘g‘ri shakllanishida fonematik eshituvning ahamiyati katta. Ta’limni oldiga qo‘ygan maqsadlaridan biri, maktabgacha tarbiya muassasalar turlarini ko‘paytirish va rivojlantirishdir, maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar nutqini o‘stirish masalasi kun tartibida turgan eng dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Ayniqsa, maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari bolalarining nutqni idrok etishda qiyinchiliklarga uchrashi sezilib qolyapti. Bu esa, bolaning boshlang‘ich maktabda o‘qish hamda yozish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishiga olib keladi. Ma’lumki, bola ijtimoiy va biologik omillar asosida nutqni egallaydi, ulardan birining buzilishi yoki yetishmasligi nutq patologiyasiga olib keladi U yoki bu nutq buzilishi bor bola atrofdagilarning nutqini tushuna olmaydi va o‘zi ham gapira olmaydi. Maxsus korreksion-pedagogik ta’sirsiz bolaning har tomonlama ma’naviy, jismoniy, nutqiy rivojlanishini va maktabga tayyorlashni ta’minlab bo‘lmaydi. Bola idrokini yaxshi rivojlanmaganligi, uning umumiy, aqliy, nutqiy taraqqiyotiga, umumiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Eshitish idroki nutqni tovush jihatdan o‘zlashtirishda asosiy omil hisoblanganligi sababli uni takomillashtirmasdan turib yuqori samaralarga erishish mumkin emas.

Mashhur olim A.S.Vigotskiyning*“o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan anomal bolalar ruhiyatining rivojlanishi normal bola rivojlanishida kuzatiladigan asosiy qonuniyatlarga bo‘ysunadi’’*degan qoidasi katta rol o‘ynaydi. L.S.Vigotskiyning ilmiy-metodologik konsepsiyasi anomal bolalarni, xususan nutqida buzilishlari bor bolalarni maxsus o‘qitish va tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishga yordam berdi[5].

L.S.Vigotskiy defektologiya muammolariga nuqtai nazarining umumiy tizimida quyidagilarni yetakchi sifatida ko‘rsatish mumkin:

- rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni ruhiy rivojlantirishning muhim imkoniyatlari g‘oyasi;
- rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar rivojlanishiga ijtimoiy ta’sirlarning, xususan pedagogik ta’sirlarning hal qiluvchi roli to‘g‘risidagi qoida;
- patologik rivojlanayotgan bola shaxsining shakllanishida jamoa faoliyatining (o‘quv, o‘yin, mehnat) yetakchi ahamiyati to‘g‘risidagi xulosa. Yana bir olim J.I. Shifning tadqiqotlari aqli zaif bolalar uchun harakterli bo‘lgan ko‘rish idrokining yetarli differensiyallanmaganligini ko‘rsatadi [7]. Bu ranglar bilan o‘tkazilgan tajribalarda aniqlangan. Aniqlanishicha, bolalar rangi jihatidan bir-biridan keskin farqlanadigan ranglarni (qizil, yashil) farqlaydilar, biroq oraliq ranglarni qo‘shib yuboradilar. Chunonchi, qizilni to‘q sariq bilan, ko‘kni binafsha rang bilan. Shuningdek, zaif ifoda etilgan rang tuslarini ham (och qizil, och ko‘k va och sariq bilan) qo‘shib yuboradilar. Aqli zaif bolalar rang obyektlarini (uch burchak, kvadrat, aylana) muayyan rang izchilligida joy-joyiga qo‘yib chiqish topshiriqlarini, aytaylik, yorug‘ tusdan xiraroq tusga yoki aksiga o‘tishda idrok etilayotgan obyektlarning rangi, shakli, hajmini hamisha ham to‘g‘ri payqay olmaganlar obyektni mazkur belgilariga ko‘ra to‘g‘ri umumlashtira olmaganlar. Yuqori sinf o‘quvchilarida bunday holat kamdan-kam uchragan [4].

Aqli zaif bolalar nutqini o‘stirish qiyin kechsa-da, ta’lim-tarbiya jarayonida nutq hamisha diqqat markazida turishi lozim. Nutq tarbiyasi ta’lim asosini tashkil qiladi. Aqli zaif bolalarda bilishning birinchi bosqichi – idrok qilishda yetishmovchiliklar kuzatiladi. Aqli zaif bolalar idrokining o‘ziga xos xususiyati bilan ajralib turishi berilayotgan o‘quv materiallarini idrok qilish uchun uzoq vaqt talab etilishi, asosiy narsalarni, muhim belgilar va alomatlarni ajratishda qiynalishi, yaxlitlikdagi qismlar orasidagi ichki bog‘lanishni tushunmasligi bilan belgilanadi. Aqli zaif bolalarning u yoki bu narsa va hodisalarning xususiyatlarini yetarlicha idrok etmasligi maxsus pedagogik amaliyotda allaqachon qayd etilgan. Aqli zaiflik asosida tashqi dunyoning ta’sirini zaif qabul qiluvchi, sezish organlarining to‘laqonli bo‘lmagan funksiyasi yotadi, degan fikr paydo bo‘lgan. Bunday qarash asosida ta’limning maxsus metodikasi yaratilgan. Bu metodikaning zamirida maxsus mashg‘ulotlarda sezish organlarini tanlab rivojlantirish vazifasi yotadi. Nerv sistemasining organik shikastlanishi natijasida miya po‘stlog‘i analiz va sintez faoliyatining oliy jarayonlari kuchsizlanadi. Aqli zaif bolalar o‘zgaruvchan ta’sirlarga asta-sekin moslashadi. Juda ko‘pchilik aqli zaif bolalarda muskul-harakat apparatlarida nuqsonlar bo‘ladi. Bu nuqsonlar motorikaning turli xil buzilishlarida namoyon bo‘ladi. Analiz sezish organida boshlanadi. Retseptorlarning shikastlanishi o‘tkaziladigan analizda, shubhasiz, o‘z aksini topadi. Lekin eng nozik analiz bosh miya po‘stlog‘ida ro‘y beradi. Shuning uchun aqli zaif bolalarda hissiy sensomotor tajribaning boyishiga sezish organlarini mashq qildirish, maxsus mashg‘ulotlar sistemasi bilan sezishli trenirovka qildirish sifatidagina emas, balki o‘quvchining bilish faoliyatini rivojlantirishning muhim yo‘llaridan biri

tarzida qarash kerak. Bu yo‘nalish psixolog L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgandi [2]. Sezish orqali bilishning rivojlanishi korreksion-tarbiyaviy ishning muhim jihati sifatida uning umumiy sistemasiga kiradi. Bu ishda ham butun o‘quv tarbiyaviy jarayon sistemasida amalga oshiriladigan sensor tarbiya katta ahamiyatga ega.

Bilish faoliyatida qanchalik ko‘p retseptorlar ishtirok etsa, uning natijasi shunchalik yuqori bo‘ladi, undagi nuqsonlarni korreksiyalash jarayoni ham shunchalik muvaffaqiyatliroq bo‘ladi. Aqli zaif bolalarda idrok etish jarayonida idrok etilgan narsaning yetarli differensiyalashmasligi qayd etiladi. Shuning uchun ularning dunyosi me’yorda rivojlangan bolalarnikiga qaraganda bir xil va qotib qolgan holda bo‘ladi. Aqli zaif bolalar narsalarga qarar ekan, uning barcha xossalarini, tuzilishining xususiyatlarini, fazoviy munosabatlarini hamisha ham farqlayvermaydilar. Ular predmetlarni bilishda o‘xshashlarini yomon farqlaydilar.

Idrok etishning xossalaridan biri, uning yaxlitligi va umumlashganligi, ya’ni predmet va hodisalar bizga ta’sir etganda, ongimizda ularning bo‘lak va qirralarini tashkil etuvchi muayyan o‘zaro aloqada bo‘luvchi yaxlit obrazi o‘zaro munosabatda paydo bo‘ladi. Idrok etishda faollikning yetarli emasligi aqli zaif bolalarning oxirigacha tugallanmagan, to‘ntarib qo‘yilgan predmetlarni, kontur tasvirlarni mashaqqat bilan tanishlarida namoyon bo‘ladi. Ular nuqtalardan iborat geometrik figuralarni qiyinchilik bilan farqlaydilar. Aqli zaif bolalarning predmetlar o‘zgarganda hajmini idrok etishlari E.S.Beyn tomonidan tadqiq etilgan. Bunda me’yorda rivojlangan bolalarga qaraganda aqli zaif bolalarda idrok etishning kam barqarorligi aniqlangan. [2]. Aqli zaif bolalar fazo va vaqtni idrok qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar, bu esa atrof-muhitda moslashishiga to‘sqinlik qiladi. Ko‘pincha 8-9 yoshga yetgan bolalar o‘ng va chap qo‘llarini ajrata olmaydilar. Ular soatdan vaqtni aniqlashga, hafta kunlarini, yil fasllarining ketma-ketligini bilishga qiynaladilar, ranglarni ajratishda muayyan xatolarga yo‘l qo‘yishadi. Nutqni idrok qilish va tushunish ongning o‘sishiga, uning yangi bilim va ko‘nikmalar hosil qilishiga ta’sir qilib qolmasdan, balki ong tarkibini tartibga soladi, insondagi oliy, o‘ziga xos ruhiy jarayonning vositaviy ko‘rilishini belgilaydi. Eshituv idrokini rivojlanmasligi tovushlarning ko‘pincha buzib talaffuz etilishi va nutqning kechikib rivojlanishiga olib keladi. Aqliy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarda eshitish idrokini rivojlantirishda keng qo‘llaniladigan usullar: predmetlarni yoki ularning tasvirini ko‘rsatish, vazifalarni so‘z bo‘yicha bajarish, tovushlar ichidan unli tovushlarni ajratish, so‘zda birinchi unli tovushning belgisini ko‘rish idroki bo‘yicha aniqlash va boshqa bir qancha metodikalar orqali olib boriladi. Idrok aqli zaif bolalarda ularning bilish jarayonlari yaxshi rivojlanishi uchun asosiy omil hisoblanadi. Bu masala psixologiya, pedagogika defektalogiya va boshqa bir qancha fanlar oldidagi asosiy yechimi kutilayotgan masaladir.

Ushbu masalaning amaliy yechimini topishda tibbiyot mutaxassislari bilan uzviy aloqa o‘rnatish o‘z natijalarini ko‘rsatadi. Kuzatish va tahlillarimiz bo‘yicha, Samarqand shahrida pedagoglar va ota-onalarning nafaqat aqli zaif bolalar, balki sog‘lom bolalarning ham nutqi va idrokida nuqsonlari bo‘lganligi sababli defektolog shifokorlarga ehtiyoji katta. Buning uchun yana bir eng muhim narsa terapevt, pedagog va ota-onalarning uzluksiz, birgalikda davolosh va korreksiyalash ishida ishtirok etishidir. Bola psixikasi elastik xususiyatga ega ekanligi sababli, psixokorreksion ishlar birmuncha tez samara beradi. Ota-onalar bilan suhbat o‘tkazilganda defektolog kabinetiga qatnayotgan bolalarning (16 nafar) 8 tasi (50 %) to‘liq 3 tasi (30%) qisman nutq buzilishlaridan xalos bo‘lgan. Bu psixokorreksion ishlar uchun 5-9 yosh optimal hisoblanib, kuzatayotgan guruhimizdagi bolalar 4,5 - 5,5 yoshli bolalardan iborat. Albatta, aqli zaif bolalar idroki va nutq xususiyatlari psixiatriya sohasi bilan ham bog‘liq bo‘lib, maxsus maktablarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda, inkluziv ta’limda bunga alohida e’tibor beriladi [2].

Maktabgacha tarbiya yoshida idrok buzilishlari o‘z vaqtida oldi olingan holda bolalarning maktabga tayyorligi darajasi ortadi. Idrok buzilishlari bo‘yicha zaruriy profilaktik, korreksion ishlar kelajakda – o‘smirlik va o‘spirinlikda ham bolalarning umumiy uzluksiz ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirishlariga yo‘l ochadi.

**Adabiyotlar**

1. Ayupova M.Y. Logopediya. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
2. Vigotskiy L.S. Sbornik sochineniy. 12 tomov. 6-tom. – 269 s.
3. Mo‘minova L.R., Ayupova M.Yu. Logopediya. –Toshkent: O‘qituvchi, 1993.
4. Salaxutdinova M.I., Musinova R.Yu. Obshaya psixologiya. Uchebnoye posobiye. – Samarkand, 2020. – 300 s.
5. Salaxutdinova M.I. Rivojlanish psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, 2020. – 150 b.
6. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. Darslik. – Toshkent, 2010. – 510 b.
7. Shif J.I. Razvitiye nauchnix ponyatiy u shkolnikov [Tekst]. J.I. Shif. – L., Uchpedgiz, 1935.

UDK: 338.439

# OZIQ-OVQAT XAFSIZLIGINI TA’MINLASHDA AGRAR SOHANING O‘RNI

**B.U. Bozorov, J.K. Boymurodov**
*Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya**. Hududlarda agrar sohani rivojlantirish orqali aholi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, ichki va tashqi bozorlarda sotish holati tahlil qilinib taklif va xulosalar ishlab chiqilgan

**Kalit so‘zlar:** Jamg‘arma, agrar soha, tabiiy-resurslar, tashkiliy-huquqiy asoslar, boshqaruv tizimi, innovatsion texnologiyalar, investitsiya

## The role of agriculture in ensuring food security

**Abstract**.The situation with the cultivation of agricultural products by the population through the development of the agricultural sector in the regions, the sale of internal and foreign markets was analyzed and proposals and concluision were producted

**Keywords:** Fund, Agrarian sphere, Natural resource, Organizational legal framework, Management system, Innovative technologies, Investments

## Роль сельского хозяйства в обеспечении продовольственной безопасности

**Аннотация.** Проанализирована ситуация с выращиванием сельхозпродукции населением за счет развития аграрного секторав регионах, реализации на внутреннем и внешнем рынках, разработаны предложения и выводы

**Ключевые слова:** Фонд, Аграрная сфера, природные ресурсы, организационный-правовые основы, система управления, инновационные технологии, вложение

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to‘g‘risida Oliy majlisga Murojatnomasida aytib o‘tilganidek; ”Qishloq xo‘jaligi sohasini boshqarish tizimini isloh qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish borasidagi ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, oziq-ovqat xafsizligini ta’minlash eng muhim vazifalarimizdir”[1]

Qishloq xo‘jaligi, eng avvalo, aholining oziq-ovqatga bo‘lgan talabini qondirishga xizmat qiladi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida juda katta yutuqlarga erishdi. Respublika qishloq xo‘jaligi oziq –ovqat mahsulotlarining deyarli asosiy qismini aholimiz uchun yetarli miqdorda yetishtiradi. Qishloq xo‘jaligi qayta ishlash sanoatini xom ashyo bilan ta’minlaydi. Respublikaning meva, sabzavot va poliz mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat to‘liq mahalliy xom ashyo mahsulotlari evaziga ishlaydi. Sut va go‘shtni qayta ishlash sanoati ham mamlakatda yetishtirilgan mahsulotlar hisobiga faoliyat ko‘rsatadi. Yog‘ – moy sanoatining xom ashyolari asosan o‘zimizda yetishtiriladi, faqatgina o‘simlik moyining ayrim turlarini xorijdan keltirilgan xom ashyodan ishlab chiqariladi. Masalan, mamlakat aholisi iste’mol qilayotgan yog‘ – moylarning sifati, assortimenti boy bo‘lishi uchun chetdan soya keltirmoqda. Albatta, bu jami yetishtirilayotgan Yog‘-moyning juda kam qismini tashkil etadi.

Mamlakat iqtisodiyoti jadal o‘sib borgan sari unda qishloq xo‘jaligining ulushi kamayib boradi. Natijada, rivojlangan sanoatlashgan, xizmat ko‘rsatish sohalari taraqqiy topgan mamlakatga aylanishimiz ta’minlanadi.

**Asosiy qism.** Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan qishloq xo‘jaligining rivojlanish darajasiga bog‘liq. Chunki qishloq xo‘jaligi mamlakatimiz uchun ham siyosiy, ham iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etgan soha bo‘lib, u quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- mamlakatmizni oziq-ovqat fondini shakllantiradi;
- yurtimizning oziq-ovqat sohadagi mustaqilligini, xavfsizligini ta’minlaydi;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan sanoat uchun xom ashyo yetkazib beradi;
- aholini ish joylari bilan ta’minlaydi.

Mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlar natijasida O‘zbekiston Resublikasi dinamik holda rivojlanib borayotgan murakkab iqtisodiy tizimga ega bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligi Respulika iqtsodiyotining yirik va muhim tarmog‘idir.

“Qishloq xo‘jaligida bilim va innovasiyalar markazlari tashkil etilib, ularda “yagona darcha” tamoyili asosida 100 dan ortiq agroxizmatlar ko‘rsatish yo‘lga qo‘yiladi. Bu markazlar orqali yerning sifatini yaxshilash, kasalliklarga qarshi kurashish, urug‘chiliklarni tanlash bilan bog‘liq muhim xizmatlar ko‘rsatiladi.

Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish, yerning unumdorligini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishga ilk bor 600 mln dollardan ziyod kredit va grand mablag‘lari jalb qilinadi. Suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etiladigan yer maydonlari besh barobarga ko‘paytirilib,430 ming gektarga yetkaziladi, 90 ming gektar yangi yerlar o‘zlashtiriladi. ”[2]

Bu borada Samarqand viloyati hududlarida ko‘pgina ishlar amalga oshirilmoqda.

2020-yilning yanvar-sentyabr oylari davomida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 23168,6 mlrd. so‘mni yoki 2019 yilning shu davriga nisbatan 100,7 foizni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklirida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi,** *mlrd. so‘mda (2020 yil 1 oktyabr holatiga)*

**2019 yil yanvar-sentabr** **2020 yil yanvar-sentabr**




Barcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning yakunida 2019-yilda dehqon xo‘jaliklari ulushi 76.1% ni, fermer xo‘jaliklari ulushi 20.9% ni va qishloq xo‘jaligi faolyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar ulushi esa 3.0% ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2020-yilga kelib dehqon xo‘jaliklarida 66.2%, fermer xo‘jaliklarida 31.0% ni bu 2.8% qishloq xo‘jaligi faolyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Viloyatda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati asosan dehqon xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmida dehqon ho‘jaliklarining ulushi 87,7 foizni, sut ishlab chiqarishda dehqon xo‘jaligida 91,6 foizni, tuxum ishlab chiqarishda ulushi 53,0 foizni tashkil etdi.

2020-yil yanvar-sentyabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda 203936 tonna go‘sht (shundan 87,7 foizi dehqon xo‘jaliklarida, 8,1 foizi fermer xo‘jaliklarida va 4,2 foizi qishloq ho‘jalik tashkilotlarida), 81534 tonna sut (shundan 91,6 foizi dehqon xo‘jaliklarida, 8,3 foizi fermer xo‘jaliklarida va 0,1 foizi qishloq ho‘jalik tashkilotlarida), 953265 ming dona tuxum (shundan 53,0 foizi dehqon xo‘jaliklarida, 20,4 foizi fermer xo‘jaliklarida va 26,6 foizi qishloq ho‘jalik tashkilotlarida), 35160 dona qorako‘l teri (shundan 74,4 foizi dehqon xo‘jaliklarida, 6,8 foizi fermer xo‘jaliklarida va 18,8 foizi qishloq ho‘jalik tashkilotlarida) ishlab chiqarildi.Bu esa o‘z navbatida mamlakat aholisini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlab qolmasdan balki xorijiy mamlakatlarga eksport qilish imkonyati borligini bildiradi.[3]

Mamlakatimiz iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashda qishloq xo‘jaligi sohasidagi tashqi iqtisodiy faoliyat doirasida amalga oshirilayotgan ishlarning ko‘lami e’tiborga loyiqdir. Bugungi kuning talabi chet elga xom-ashyo emas, balki tayyor mahsulotlarni eksport qilishga qaratilgandir. Raqamlarga murojaat etadigan bo‘lsak, 2018-yilda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan jami 1230,6 ming mahsulotlarni 874,5 mln AQSh dollari miqdorida eksport qilindi. 2018-yilda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan jami 1230,6 ming tonnadan ziyod mahsulotlardan 874,5 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi. 2018-yilda meva-sabzavod mahsulotlarining eksporti hajmida 670,1 ming tonnadan ziyod sabzavotlar, 307,6 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilingan bo‘lib, bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan jumladan uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarning ulushi ortib bormoqda. Bu borada fermer xo‘jaliklarining o‘rni salmoqlidir [3].

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev takidlaganlaridek,” Qishloq xo‘jaligini isloh qilish va oziq-ovqat xavfsizligini taminlash masalalari, hech shubhasiz biz uchun eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Eng avalo, agrasanoat kompleksi va uning lokomotivi, yani harakatga keltiruvchi kuchi bo‘lgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklariga izchil rivojlantirishga katta e’tibor qaratiladi”. Albatta, o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar negizida fermer xo‘jaliklari yetishtirilayotgan mahsulotlar eksporti, aholi bandligini taminlashdagi ishtirokini e’tirof etish lozimdir.

Qishloq xo‘jaligi sohasi nafaqat aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, balki sanoat ishlab chiqarishning xom-ashyoga bo‘lgan talabni qondirishda ham muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan, mazkur tarmoqni rivojlantirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy hamda mahaliy investitsiyalarni jalb qilishga qanday e’tibor berilyapti, degan savol barchamizni birdek qiziqtirishi tabiiy.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzurida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat ta’minoti jamg‘armasi faoliyat yurita boshladi. Oziq-ovqat muammosini hal etish faqat oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish bilan emas, balki tabiiy resurslardan maqbul foydalanish, ekologik muammolarni ham e’tiborga olish muhim hisoblanadi. O‘zbekistonda atrof-muhitni himoya qilish borasida ko‘p ish qilinmoqda. Ekologiya sohasida O‘zbekistonda hal etilishi lozim bo‘lgan milliy vazifalar va davlat dasturlari atrof muhiti hozirgi va kelajak avlod uchun muhofaza qilishga yo‘naltirilishini taminlash va tabiiy zaxiralarni asrab-avaylash jarayonini kuchaytirish, toza suvdan va sanitariya xizmatlaridan bahramand bo‘ladigan shahar va qishloq aholisining ulushini ko‘paytirishdan iborat. Milliy chora-tadbirlar bilan birgalikda mamlakatimiz iqlimining o‘zgarishi, biologik rang-baranglik, atrof muhitni himoya qilish va yerlarning unumdorligi pasayishi bilan bog‘liq juda ko‘p xalqaro ekologik loyihalarda ishtirok etmoqda va mamlakat doirasida ham keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Oxirgi yillari mamlakatimizda qishloq va suv xo‘jaligini rivojlantirish uchun zarur iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy asoslar yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil fevraldagi “Qishloq va suv xo‘jaligi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-5330-son farmoniga muofiq O‘zbekiston Respuplikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi negzida Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Suv xo‘jaligi vazirligi tashkil etildi. Tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va bozor munosabatlari mexanizmlari joriy qilishda fermer xo‘jaliklari uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ma’lumki, “Qishloq va suv xo‘jaligi davlat boshqaruvi tizimining tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2018-yil 17-aprel’ PF-5418 sonli farmonida qishloq va suv xo‘jaligi boshqaruvi sohasida uzoq vaqt davomida hal etilmasdan kelayotgan tizimli muammolarning mavjudligi va ularni hal etish masalalari ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faolyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 17-apreldagi PQ-3672-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida suv xo‘jaligi tizimiga zamonaviy axborot-kommunikasiya va innovasion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar qabul qilindi.

2018-yil 31-oktyabrda qishloq xo‘jaligini kompleks rivojlantirish sohaga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish,mahsulotlar eksportini oshirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda qishloq xo‘jaligida innovasion texnologiyalar ilmiy ishlanmalar, ayniqsa,tomchilatib sug‘orish texnologiyasini keng joriy qilish, 2019-2021-yillarda paxta to‘qimachilik klasterlari va fermerlar paxta maydonida tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy qilish xo‘jaligi tarmoqlariga investitsiyalarini, ayniqsa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarini jalb qilish zarurligi ta’kidlandi.

O‘zbekiston Respublikasi oziq-ovqat xafsizligini ta’minlash sohasida davlat organlari, xo‘jalik boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini muofiqlashtirish va takomillashtirish borasida; raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali iqtisodiyot tarmoqlari eksport salohiyatini oshirish va xorijiy investisiyalar va beg‘araz texnik ko‘mak mablag‘larini (grantlar) jalb qilish; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni chuqur qayta ishlash, mamlakatni oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining barqaror darajasini saqlab qolishga yo‘naltirilgan kompleks maqsadli, tarmoq va hududiy dasturlarini ishlab chiqish ta’kidlab o‘tilgan.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda tashqi iqtisodiy faoliyati tarkibini tahlili shuni ko‘rsatadiki, respublika eksportida asosiy salmog‘i xom- ashyo va materiallar, jumladan, energiya resurslari, qora va rangli metallar, paxta tolasi, mineral o‘g‘itlar tashkil etadi. Import tarkibida esa, oziq-ovqat va ularning ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xom-ashyolar salmoqli o‘rinni egallaydi.Agrar sohada olib borilgan islohatlarda mamlakatimizda 2019-yilda qo‘yilgan ustivor vazifalarini bajarishda “Qishloq xo‘jaligi sohasini boshqarish tizimini isloh qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish borasidagi ilg‘or texnologiyalarini qo‘llash. Qishloq xo‘jaligida keyingi yillarda klaster usulida paxta yetishtirishni kamida 52 foizga yetkazish uchun 48 ta paxta to‘qimachiligi klasterini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Shu bilan birga g‘alla va meva-sabzavot klasterlari faoliyatini har tomonlama rivojlantirish kerakligiga alohida e’tibor qaratilib o‘tildi”.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Respublika tarkibida xom ashyolar, import tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari katta salmoqni egallab kelmoqda. Mamlakatimizning iqtisodiy mustaqilligini to‘la

ta'minlashni bu tarkibdagi tashqi iqtisodiy faoliyat doirasida amalga oshirish juda murakkab ish hisoblanadi. Respublikaning barcha imkoniyatlari chet elga xomashyo emas, balki tayyor mahsulotlarni eksport qilishga zamin yaratadi. Shuning uchun ham bugungi kunda qayta ishlovchi sanoat korxonalari barpo etilmoqda va rivojlantirilmoqda. Bu, albatta, o'z navbatida, yirik miqdordagi investitsiyalarni talab etmoqda. Bugungi kunda dolzarb muammolarni ya'ni, aholini ish bilan o'zini-o'zi ta'minlash maqsadida fermer xo'jaliklar yer maydonlaridan yoshlarga yer ajratilib berilmoqda. Bu esa o'z navbatida aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda mahallalar kesimida tomorqalarda bir xil turdagi mahsulotlar yetishtirib chetga sotishni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Buning uchun esa sifatli urug' bilan ta'minlash va iste'molchilar bilan shartnomalarni mahalliy hokimyat bilan birgalikda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 30-dekabr

3. Samarqand viloyatining statistik axborotnomasi. 2020-yil

**UDK: 331.1, 330.1**

## MINTAQA IQTISODIYOTINING RAQAMLI RIVOJLANISHIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

**G'.Z.Ubaydullayev**

*Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali*

*gayrat.ubaydullayev@mail.ru*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda innovatsion raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida nazariy va amaliy yondashuvlarga ilmiy asoslar berilgan. Tarixiy-qomusiy olimlarimizning ijodlari bilan taqqoslash va ta'lim tizimini rivojlantirishdagi o'xshashliklarga hamda inson kapitalining o'sishidagi asosiy maqsadga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** та'lim tizimi, sog'liqni saqlash, inson kapitaliga investitsiyalar, milliy inson kapitali, ta'lim sifati, tarixiy-qomusiy olimlarimizning ijodlari, raqamli iqtisodiyot, jahon iqtisodiyoti, innovatsion iqtisodiyot, mehnat resurslari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, yalpi ichki mahsulot, inson kapitali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning innovatsion omillari sifatida.

### Факторы развития человеческого капитала в цифровом развитии экономики региона

**Аннотация.** В данной статье представлена научная база теоретических и практических подходов к развитию инновационной цифровой экономики в Узбекистане. Сравнение с работами наших историко-энциклопедистов и сходство в развитии системы образования, а также основная цель в росте человеческого капитала.

**Ключевые слова:** система образования, здоровье, инвестиции в человеческий капитал, национальный человеческий капитал, качество образования, труды наших ученых-историков и энциклопедиков, цифровая экономика, мировая экономика, социально-экономическое развитие человеческого капитала. как инновационные факторы.

### Factors of human capital development in the digital development of the economy of the region

**Abstract.** This article presents the scientific base of theoretical and practical approaches to the development of an innovative digital economy in Uzbekistan. Comparison with the works of our historical encyclopedists and similarities in the development of the education system, as well as the main goal in the growth of human capital.

**Keywords:** the education system, health, investment in human capital, Is the national human capital, the quality of education, the works of our historians and encyclopedias, the digital economy, the world economy, the socio-economic development of human capital. as innovative factors.

**Kirish.** Ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasi 2017-2021-yillarda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Bu albatta

inson kapitali va axborot tushinchasi, axborot texnologiyalarining bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligi bo‘lib, bundan tashqari, axborot kommunikatsiya texnologiyalarning o‘zi aynan axborot kategoriyalari va inson kapitali chorrahasida vujudga keladi, chunki axborot oqimi inson hayotining barcha sohalarini qamrab oladi va dunyo hamjamiyati globallashuvi sharoitida tobora o‘sib borayotgan rolni o‘ynaydi.

Prezidentimizning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomalarida.... “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib, xizmat qilishi lozim” deb ta'kidlab o‘tdilar. Bu butun O‘zbekiston xalqini yangi g‘oyalar sari ruhlantirdi. Chunki bunday poydevorni yaratilishining ortida ilmiy salohiyat, ma'rifat va ta'lim-tarbiya berish, inson kapitalining yuqori sifatiga erishish, innovatsion iqtisodiyot va axborot jamiyatlari asosida qonun ustuvorligi yotadi [1].

2017-yil 14-sentyabr kuni Prezidentimiz qarori bilan Mirzo Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishlariga oid fanlarni chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etildi. 2017-yil 29-noyabrda Prezident farmoni bilan Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi. Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida “ Yoshlar akademiyasi” tashkil topdi. Ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etilgan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agetligi faoliyat yuritmoqda. Agentlik tizimida pirovard natijada mamlakatimizda sifat jihatidan tamomila yangi maktablarning shakllanishiga, iste'dodli o‘quvchilar bilan ishlashning zamonaviy, innovatsion metodikasini yaratishga imkon beradi.

Ilm-fanni muntazam isloh qilib borish, ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, zamonaviy bilimga ega mehnat bozorida raqobatga bardosh bera oladigan mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayorlash, ilmiy infiratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida Prezident farmoniga muvofiq “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” tasdiqlandi.[2].

So‘ngi yillardagi Prezidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi, ta'lim sohasiga doir qonun hujjatlari, qarorlar va farmonlarni tahliliga nazar tashlasak, mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish maqsadida sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘risida aniq chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligini guvohi bo‘lamiz, xususan:

- O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi tasdiqlandi[3];
- mamlakatimizda so‘nggi yillarda 52 ta yangi oliy ta'lim muassasalari tashkil etilib ularning soni 132 taga yetdi, 22 tasi nufuzli xorijiy universitetlarning oliy ta'lim muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi;
- 22 ta xorijiy davlatning 107 ta yetakchi universiteti bilan hamkorlikda 144 ta qo‘shma ta'lim dasturi bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi, qamrov darajasi 20 % ga yetkazildi;
- Xorijiy mamlakatlardan jami 2722 nafar xorijiy mutaxassis oliy ta'lim muassasalar o‘quv jarayoniga jalb etildi;
- 1797 nafar professor-o‘qituvchi xorijda malaka oshirib qaytdi;
- Magistratura mutaxassisligi bituruvchilarini ilmiy faoliyatga yo‘naltirish bitiruvchilar soniga nisbatan 35 % ga yetkazildi;
- 2020-yilda davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida 10 ta nodavlat oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi;
- O‘zbekiston Respublikasida ta'limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg‘unlashgan 68 ta akademik litsey, 340 ta kasb-hunar maktablari, 147 ta texnikumlar tashkil etildi ( bu bilan xalqaro standartlar asosida professional kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish bo‘yicha aniq va konstruktiv yechim ko‘rsatib berildi );
- Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilga qadar rivojlantirish kotseptsiyasi tasdiqlanib, O‘zbekiston Respublikasining “ Maktabgacha ta'lim va tarbiya” to‘g‘risida qonun qabul qilindi [4];

Yangi tahrirdagi “Ta'lim to‘g‘rsida”gi qonun qabul qilindi[5];

- Xalq ta'limi tizimini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi[6];
- Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tashkil etildi;
- 3-7 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olish 85 % ga yetkazilmoqda;
- Hududlarda yangi 14 ta Prezident maktablari faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda;

- So‘ngi 3 yilda 345 ta nodavlat umumta'lim muassasalari tashkil etildi;
- Hududlarda nodavlat oliy o‘quv yurtlari, ya'ni Farg‘onada Koreya bilan, Xorazmda Malayziya bilan hamkorlikda sohalar bo‘yicha tashkil etilmoqda.

Mintaqani raqamli transformatsiya qilish, hududlardagi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, iqtisodiyotning real sektor korxonalari faoliyatiga ilg‘or texnologiyalarni keng joriy etish, raqamli iqtisodiyot sohasida yangi loyihalarni amalga oshirish maqsadida Prezident farmoniga muvoffiq “ Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi tasdiqlandi[7].

**Tadqiqotning maqsadi.** Inson kapitalini boshqarish asosida mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni takomillashtirish. O‘zbekiston iqtisodiyotida inson kapitali va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishidan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslarini o‘rganish. Mintaqa iqtisodiyotida tub tarkibiy islohotlarni amalga oshirish uchun hozirgi kunda ishlab chiqarish korxonalarini texnik qayta jihozlash va modernizatsiyalash, ko‘p tarmoqli texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Ilmiy mohiyati.** Milliy inson kapitalining rivoj topishi uning qiymati bilan o‘lchanadi, turli usullar - investitsiya, ya'ni ta'lim tarbiyaga, ilmga, ma'rifatga, sog‘liqni saqlashga, jismoniy va madaniy tadbirlarga jalb qilinadigan sarmoyalar va boshqalar bilan hisoblanadi. O‘zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish uchun ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, yuqori quvvatli texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijalari va nou-xau ishlanma ixtirolarni tatbiq etish, shuningdek xorijiy mamlakatlarning ilmiy muassasalarining tavsiyalaridan foydalanish hamda real iqtisodiyot ishlab chiqarish tarmoqlari o‘rtasida hamkorlikni o‘rnatish.

**Tadqiqotning o‘rganilganlik to‘g‘risida.** Inson kapitalini vujudga kelishi va rivojlanishi har bir millatning nasldan-naslga o‘tishi, uzoq yillar bilan bog‘lanishi fanda isbotlangan. O‘zbekiston xalqi juda kuchli qomusiy olimlarning avlodidandir. O‘rta Osiyoda ilm-fan, ta'lim-tarbiya, iqtisodiy ta'limning ilk poydevorini yaratilishida ulug‘ allomalarimiz Imom Buxoroiy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Abduholiq G‘ijduvoniy, Bahovuddin Naqshbandiy va boshqalarning hadislardagi ta'lim-tarbiya, ma'naviy va iqtisodiy g‘oyalarni insonlar tafakkuriga singdirilib borilishi hamda Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Muso al- Xorazmiy, Yusuf Xos Xojib, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur kabi mutafakkirlarimizning ijodida ilm-fan, ta'lim-tarbiya va iqtisodiy rivojlanishga qo‘shgan hissasi beqiyosdir[8].

Birinchi Renessans davri IX-XII asrlarda butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Zamahshariy singari o‘nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta'sir ko‘rsatdi. Allomalarimizning ulug‘ fazilatlaridan yana biri hamma sohalarda bilimliligi, chet tillarni bilishda tengsiz ekanliklari hatto to‘rta-beshtadan ortiq tillarda gaplashmagan mutafakkir allomalar bo‘lmagan desak, xato qilmaymiz. Sharqning ulug‘ olimi Abu Nasr Forobiy, Arastu falsafasi tahliliga bag‘ishlangan asarida hamda "Fozil kishilar shahri", asarida asosiy masalalardan biri bo‘lgan ilm-ma'rifat, iqtisodiy ehtiyojlarga katta e'tibor bergan. Uning ilmiy xulosasiga ko‘ra aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, yangiliklarni kashf va ixtiro eta oladigan kishilardir[8].

Abu Rayhon Beruniy bilim olishni lazzat va baxt deb tushunadi. “ Mening butun fikri-yodim, qalbim - deb yozgan edi alloma,- ilm oluvchilarni bilimini ortirish lazzatidan bahramand bo‘lishdir. Men buni katta baxt deb hisoblayman”. Kishilarni ilm olishga chorlaydi[8].

Abu Ali ibn Sino ilm va bilim olishni ma'naviyat va ma'rifat bilan o‘zaro bog‘liklikda o‘rganadi. U ilm aslo qarimaydi, dunyo kezadi, insonlarni jaholat va g‘aflatdan uyg‘otadi, degan g‘oyani ilgari suradi. O‘zining "Tib qonunlari” asarida odamlarni ilmu-ma'rifatga va iqtisodiy-ijtimoiy foydali mehnatga chorlaydi.

Sharq iqtisodiy tafakkurining rivojlanishida Yusuf Xos Hojibning "Qutadg‘u Bilig" nomli asari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asarda mehnatga to‘g‘ri haq to‘lash, mehnatni taqdirlash, uni qadriga yetish, moddiy manfaat, ta'lim olish, kasb-hunar egallash, kuchli ijtimoiy himoya kabi masalalarga katta o‘rin berilgan[8].

Ikkinchi Renessans davri Amir Temur nomi bilan bog‘liq. Haqiqatdan ham temuriylar davri ilm-fan, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat, ta'lim-tarbiya tizimining rivoj topishini ta'minlagan Sharq Uyg‘onish davri edi. Sohibqiron Amir Temurning ilm-fan, madaniyat ta'limni rivojlanishi, iqtisodiy g‘oyalari, uning ishlab chiqarish va amalda qo‘llangan iqtisodiy-siyosiy g‘oyalari muhim ahamiyatga ega. Amir Temur “Temur tuzuklari” asarida iqtisodiyotni tashkil etish, barqarorlashtirish, tartibga solish, barqaror sur'atlarda yuksaltirib borishning iqtisodiy tasavvurlari jamlangan.

Alisher Navoiy ilmiy merosi shu qadar boy va keng qirraliki, unda ilmga, bilim olishga, til o‘rganishga, ma'naviyat va ma'rifatga hamda iqtisodiyot masalalariga doir ko‘p qimmatli g‘oyalar o‘z ifodasini topgan. Uning ilmiy va iqtisodiy qarashlari "Mahbub-ul-qulub" va "Hamsa" asarlarida bayon qilingan[8].

O‘rta Osiyo mutafakkirlari ijodida iqtisodiy mafkura va yoshlarga ta'lim tarbiya ancha rivoj topgan. Mutafakkirlarimiz iqtisodiy merosi markazida inson va uning ehtiyojlarini qondirish masalasi turadi. Insoniyat ehtiyojlarini ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy yo‘nalishlarga ajratish mumkin.

Buyuk allomalarimiz va mutafakkirlarimizning o‘tgan davrlarda ta'lim-tarbiyaga, mehnat samaradorligi va iqtisodiyotning o‘sishiga qo‘shgan hissalari quyidagi tushunchalarda o‘z o‘rnini topgan, xususan: [8].

-Qur'oni Karim va hadislardagi ilm olish, ta'lim-tarbiya va iqtisodiy g‘oyalarni insonlar tafakkuriga singdirilishiga doir fikrlar;

- Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sinoning ilmu-ma'rifatga va ehtiyojlar haqidagi fikrlari;

-Yusuf Xos Xojibning ta'lim-tarbiya, mehnat va manfaat haqidagi qarashlari;

-Bahovuddin Naqshbandiyning ta'lim, ijtimoiy-iqtisodiy va mehnatning ahamiyati haqidagi g‘oyalari;

-Mirzo Ulug‘bekning ilm-fandagi ijodiy faoliyati, pul islohoti va imtiyozli soliq tizimiga doir tadbirlari;

-Alisher Navoiyning ilm olish, mehnatni qadrlash, savdo, tijorat masalalariga doir tejamkorlik, foyda, mulk to‘g‘risidagi fikrlari, yoshlarni tarbiyalash va boshqa amaliy tadbirlari;

-Bobur ishlab chiqqan iqtisodiy rivojlanish va bunyodkorlikga qaratilgan ilmiy qarashlar, soliq siyosati va davlatchilik asoslari borasidagi xalq manfaatlari yo‘lidagi tadbirlari.

**Tadqiqot metodlari.** Tadqiqotda milliy qadriyatlar, ilmu-ma'rifatni tizimli va ilmiy tahlil qilish metodlaridan, allomalar ma'lumotlaridan, zamondoshlar va safdoshlarning ta'rifu tavsiflari orqali solishtirish metodlaridan, ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy taraqqiyotning rivojlanish uyg‘unligini ta’minlash metodlaridan hamda induksiya va deduksiya kabi tahliliy metodlardan foydalanilgan.

**Asosiy natijalar.** Mamlakatda zamonaviy iqtisodiyotni jadal innovatsion rivojlantirish uchun ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, yuqori quvvatli texnologiyalarni joriy etish hamda ularda ishlay oladigan mutaxassis kadrlar tayorlash masalalariga katta e'tibor qaratish talab etiladi.

Mintaqada innovatsion iqtisodiyotni shakllanishi yangicha texnologiyalarni joriy etilishi bu, albatta, inson kapitaliga bog‘liq bo‘ladi, inson kapitaliga qilingan sarf-xarajatlar dunyo sivilizatsiyalari va dunyo mamlakatlari qatori rivojlanishiga olib boradi mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi hamda samarali bandlikni yuzaga keltiradi.

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy va innovatsion rivojlanish omili sifatida qo‘yilgan asosiy vazifalar qatorida aholiga ta'lim berish, o‘quv majmuasini rivojlantirish va ishchi kuchini sifat jihatidan yaxshilash orqali iqtisodiy faol aholidan foydalanish samaradorligini oshirish shartlari, talablari va shart-sharoitlarini aniqlash hisoblanadi. Ushbu maqsad asosida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi[9]:

- mehnat bozorida kadrlarning raqobatbardoshligini oshirish shakllari va usullarini har tomonlama o‘rganishni o‘tkazish;
- O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni joriy etishda foydalanish imkoniyatlarini aniqlash uchun kadrlar tayorlash va qayta tayorlash bo‘yicha rivojlangan mamlakatlarning tajribasini o‘rganish;
- zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimini baholash;
- kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish istiqbollarini belgilash;

-kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish tamoyillarini asoslash;

- kadrlar tayyorlash tizimini boshqarishni takomillashtirish choralarini ishlab chiqish;
- mehnat unumdorligining o‘sishi oilaviy daromadlarning oshishiga olib keladi.

Yangi innovatsion iqtisodiyotning asosini zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi inson kapitalini tashkil yetadi. Tadqiqot natijalarining ilmiyligi quyidagilardan iborat[9]:

- inson kapitali sifatini oshishining ilmiy asoslangan talqini, ta'lim, fan, bilimga sarflangan sarmoyalar evaziga va xorijiy mamlakatlarning ishlab chiqarish tajribasini olish jarayonida rivojlanadi, ishlab chiqarish sifatida va mehnat bozorida raqobatbardoshligini namoyon etadi;
- ta'lim tizimining hozirgi holatini o‘rganish va xorijiy tajribalardan foydalangan holda yangi tizimga o‘tishda inson kapitali va zamonaviy iqtisodiyotning rivojlanishidan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslarini baholash;

- o‘qitish usullari shaklidagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda malakali ishchi kuchi bozorini shakllantirishga uslubiy yondashuvlar, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va mehnat bozori ehtiyojlari asosida kadrlar tayyorlashning asosiy regulyatori sifatida ta'lim tizimi g‘oyasini aniqlashtirish;

- zamonaviy xorijiy shakllar va o‘qitish uslublarining asosiy yo‘nalishlarini O‘zbekiston Respublikasi mehnat bozorining ehtiyojlari asosida tizimlashtirish;

- mehnat bozorida ishchi kuchining raqobatbardoshligini oshirishni hisobga olgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish asosida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida zamonaviy bilimlar va raqamli iqtisodiy texnologiyalardan samarali foydalanib istiqbolli yo‘nalishlarga qaratilgan ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

-ishchi kuchini sifat jihatidan yaxshilashga yangi yondashuvlar asosini yaratish;

- innovatsion tizimning moddiy tarkibiy qismlari (AT-xizmatlarida texnologiya uzatish markazlari, texnoparklar, texnopollar, innovatsion markazlar, klasterlar, yuqori texnologiyali hududlarni rivojlantirish va boshqalar )ni rivojlangan axborot iqtisodiyotiga ega mamlakatlarning tajribalaridan samarali foydalanish;

- mintaqada innovatsion tizimning moddiy tarkibiy qismlaridan yuqori texnologiyali hududlarni rivojlantirishda ta'lim tizimini boshqarishning iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy va huquqiy tomonlarini, ularning o‘zaro aloqalarida va boshqa bozor mexanizmlari bilan birgalikda uzluksizligini ta'minlaydigan g‘oyalarini ishlab chiqish;

- mintaqada iqtisodiyotning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishning yangicha makroiqtisodiy siyosati tamoyillarini ishlab chiqish.

- mamlakatda milliy inson kapitali samaradorligini baholash uchun xalqaro indekslar va ko‘rsatkichlardan foydalangan holda omillarni tahlil qilish usullaridan foydalanish;

Farzandlarimizning (IT) texnologiyalariga qiziqishini yanada oshirish va ularning yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishi uchun sharoit yaratish maqsadida Hukumatimiz tomonidan hududlar bo‘yicha 2020-yilda 14 ta, 2021-yilda 82 ta, 2022-yilda 64 ta, 2023 yilda 45 ta axborot texnologiyasiga ixtisoslashgan maktablar tashkil etiladi[10].

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi iqtisodiyot globallashuvining moddiy asosini yaratadi. O‘zbekiston xalqaro Global innovatsion indeksi reytingida 2015-yilda 140 dan ortiq davlatlar ichida 122-o‘rinni egallagan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2020-yilda 131 dan ortiq dunyo mamlakatlari ichida O‘zbekiston 93-o‘rinni egalladi[10].

Dunyoda raqamli iqtisodiyot o‘sishining sur'atlari hozirning o‘zida yiliga deyarli 20 foizni tashkil etmoqda. Jumladan AQSh sanoatni “raqamlashtirilishi”dan 2025 yilgacha qo‘shimcha 20 trilion dollar daromad olishi kutilmoqda. Janubiy Koreyada esa “elektron hukumat” va “elektron vositachilik”ning joriy etilishi yiliga 10-15 milliard dollar miqdorida daromad keltiryapti. Bu raqamli iqtisodiyot uchun sarf qilinayotgan xarajatlardan 30-40 barobar ortiqdir[11].

**Xulosa.** Xulosa sifatida aytish kerakki, bugun O‘zbekiston jamiyati katta o‘zgarishlar, islohotlar o‘tkazishga qodir mamlakatga aylandi. Mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar tufayli navqiron avlodning zamonaviy bilim olishi, kasb-hunar egallashi uchun beqiyos imkoniyatlar yaratilgan. Eng muhimi bunday islohotlarning tashabbuskori sifatida maydonga yoshlarimizning o‘zi chiqmoqda. Yoshlarimiz ijtimoiy-ma'naviy faolligi poydevori qurilayotgan Uchinchi Renessansni real holatga aylantirmoqda

Shu nuqtai nazardan tariximiz ilm-fan, din, san'at sohasida yurtimizda yetishib chiqqan allomalar butun dunyoga dong taratganidan guvohlik beradi. Abu Nasr Forobiy jahon falsafasi rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan bo‘lsa, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Zamahshariy, Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek singari allomalarimiz jahon ilm-fanini yangi pog‘onalarga ko‘tarishdi. Imom Buxoroiy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Abduholiq G‘ijduvoniy, Bahovuddin Naqshbandiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abul Mu'in Nasafiy kabi ulug‘ ulamolar butun musulmon olamining faxru iftixori va millatning mafkuraviy qadriyatlarini tiklashda porloq yulduzlar hisoblanishadi.

Iqtisodchilarning hisob-kitoblariga ko‘ra, inson kapitaliga individual investitsiyalar umumlashtirilganda, turli mamlakatlarda inson kapitaliga kiritilgan investitsiya bilan aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar o‘rtasidagi tafovut 10 foizdan 30 foizgacha bo‘lishini ko‘rsatdi.

## Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi, 2020-yil 30-dekabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida ”gi 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-sonli farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni. O‘RQ-595-son. 16.12.2019.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta'lim to‘g‘risida”gi qonuni. O‘RQ-637-son. 23.09.2020.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta'limi tizimini 2030-yilga qadar rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli farmoni.

8. G‘.Z. Ubaydullayev “Iqtisodiy ta'lim berish usullari” o‘quv qo‘llanma. Toshkent-“Fan va texnologiya”-2020.

9. Убайдуллаев Г.З. “Будущее немыслено без образования”. Научно-просветительская Ассоциация Интеллигенции Узбекистана. Ташкент-2007 –с-31

10. N.Jumayev “Raqamli iqtisodiyotsiz mamlakat iqtisodiyotining kelajagi yo‘q”. Yangi O‘zbekiston gazetasi 2020-yil 30 sentyab 187-son.

11. Абдурахманов К.Х. “Анализ современных инновационных подходов к управлению человеческим развитием”. Научно-аналитический журнал «Наука и практика» Российского экономического университета имени Г. В. Плеханова. Т. 10, № 29, 2018 г.

**UDK: 338.48**

## TURIZM INFRATUZILMASINING RIVOJLANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**D.M. Abduraimov**
*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tadqiqotchisi*
*abduraimov_dilshod@mail.ru*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada turizm infratuzilmasini rivojlanishi va turistik-rekreatsion resurslar salohiyatini baholash ko‘rsatkichlari aniqlanib, respublikamizda hududiy turistik-rekreatsion tizimning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi hamda alohida resurslar bahosi va ularning kombinatsiyasi va omillari tadqiq qilingan.

**Kalit so‘zlar:** turizm, turizm infratuzilmasi, turistik-rekreatsion resurslar, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, turistik mahsulot, turistik xizmatlar, resurslar salohiyati.

### Совершенствование методов оценки эффективности развития туристической инфраструктуры

**Аннотация.** В статье определены индикаторы развития туристической инфраструктуры и оценки потенциала туристско-рекреационных ресурсов, организационно-экономического механизма региональной туристско-рекреационной системы в стране и стоимости отдельных ресурсов, их сочетаний и факторов.

**Ключевые слова:** туризм, туристическая инфраструктура, туристско-рекреационные ресурсы, организационно-экономический механизм, туристские продукты, туристские услуги, ресурсный потенциал

### Improving methods for assessing the development efficiency of tourism infrastructure

**Abstract.** This article identifies indicators for the development of tourism infrastructure and assessment of the potential of tourist and recreational resources, the organizational and economic mechanism of the regional tourist and recreational system in the country and the cost of individual resources and their combinations and factors.

**Keywords:** tourism, tourism infrastructure, tourist and recreational resources, organizational and economic mechanism, tourism products, tourist services, resource potential.

### Kirish

Respublikamizda turizm – milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va uning barqarorligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi daromadlarini

oshirish va turmush sifatini yaxshilash, investitsion jozibadorlikni oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Joylashtirish vositalari va infratuzilma obyektlarining, ayniqsa turizm mavsumida etishmasligi, turli transportlarda yo'lovchilarni tashish tizimining yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi, shuningdek, turistlarni mavjud turizm salohiyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashni tashkillashtirish darajasining pastligi, ichki turizmni, mamlakat hududlaridagi madaniy meros obyektlarining va ziyoratning o'ziga xosliklarini targ'ib qilish bo'yicha marketing kompaniyalarining samarasizligi turizmni jadal rivojlantirishga salbiy ta'sir qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida «Turizmni rivojlantirish bo'yicha 2021 yilda ham izchil islohotlarni davom ettiramiz. Ayniqsa, ziyorat turizmi va ichki turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, turizm obyektlari atrofidagi yer maydonlari, suv va yo'l infratuzilma-larini yaxshilash uchun byudjetdan 1 trillion so'm ajratiladi» deb [12] deb ta'kidlanishi muhim yo'nalish sifatida belgilab berilgan. Bu esa respublikamizning raqamli iqtisodiyotga o'tishi jarayonida hududiy turizm infratuzilmasini rivojlantirish samaradorligini oshirishning ahamiyati beqiyos ekanligi namoyon etmoqda. Shunga ko'ra, hududiy turizm infratuzilmasini rivojlantirish samaradorligini oshirishning o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda, mazkur sohani samarali rivojlanishining ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

Turizm bozori va uning infratuzilmasi mohiyati va mazmuni, funksiyalari, turizm industriyasi sub'ektlari, turizmnirivojlanish tamoyillari, turizm bozorini tartibga solish mexanizmlari, restoran va mehmonxona xo'jaliklari, turizm sohasida amalga oshirilayotgan siyosat bilan bog'liq muammolarning ilmiy asoslari Zorin I.V, Kvartalnov V.A. [10], Pardaev M.Q. [9], Birjakov M.B. [3], Beklaryan L.A., Pshennikov A.S. [4], Morozov M.A. [7], Tuxliev I.S., Hayitboev R., Safarov B.SH., Tursunova G.R. [11]asrlarida tadqiq etilgan.

Turizmbozorining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, tarkibiy qismlari elementlari, asosiy vazifalari va funksiyalari, turistik obyektlar, turoperatorlar va turagentlar, turizm bozori rivojlanishini tartibga solishning huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari, turizm sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, turistik xizmatlar samaradorligini baholash usullari, turistik ishlab chiqarish infratuzilmasi, turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari Jukova M.A. [5], Alimova M.T. [1], Mamatqulov X.M. [6], Arxipova V.F., Devizov A.S. [2] larning ilmiy asarlarida yoritib berilgan.

Shuningdek, turizm infratuzilmasining mohiyati va mazmuni, turizm infratuzilmasi iqtisodiyot va boshqaruv sohasida turli xil darajalardagi subyektlari faoliyati, turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha davlatning roli, hududiy turizm infratuzilmasining tashkiliy elementlari, turizm sohasi rivojlanishining ko'rsatkichlari va infratuzilmaviy elementlarini rivojlanishi darajalari doir masalalar Mamatqulov X.M. [6], Morozov M.A. [7], Norchayev A.N [8] larning ilmiy tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot jarayonda turizm infratuzilmasining rivojlanish samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish bo'yicha iqtisodiy tizimlar va nisbatlarni o'rganishga dialektik va tizimli yondashuv, kompleks baholash, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik va dinamik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi hamda turistik faoliyatni amalga oshirish jarayonida resurs salohiyatini baholashning optimal usullaridan foydalanish zarurati asoslandi.

**Tahlil va natijalar**

Muayyan hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'pincha uning jozibadorligi, raqobatbardoshligi, rivojlanish imkoniyatlari va istiqbollarini aniqlaydi. Hududlarda turistik-rekreatsion rivojlanish istiqbollarini aniq baholash uchun turistik-rekreatsion resurslar salohiyatini tahlilini o'tkazish zarur.

Turistik-rekreatsion resurslar salohiyatini baholashga yondashuvlar mualliflar tomonidan turlicha tadqiq etilgan. Iqtisodchi olimlarning turistik-rekreatsion resurslar salohiyatini baholashga yondashuvlari ushbu sohada tadqiqot olib borish uchun asos bo'ldi.

Turistik-rekreatsion resurslar salohiyatini tadqiq etish uchun uning asosiy elementlarini, ya'ni muayyan hududlarning rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari hamda iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari majmuini hisobga olish favqulotda muhim hisoblanadi.

Bunday elementlar haqida ma'lumotlar mamlakatda turistik-rekreatsion resurslar salohiyati haqida faqat yaqin tasavvurni shakllantiradi, biroq bu ma'lumotlar asosida aniq turistik oqimlarni ta'minlash bo'yicha hududlar imkoniyatlarini aniqlash mumkin emas. Umumiy baholash uchun iqtisodiyotning

alohida elementlari shakllanishini o‘zaro aloqadorligida va birligida hududlarning turistik-iqtisodiy imkoniyatlarini aniqlash talab etiladi.

Turistik-rekreatsion resurslar salohiyatini umumiy baholashda nafaqat uning asosiy elementlari to‘g‘risida etarlicha analitik axborotlar, balki kelgusidagi turistik oqimlar tavsifi, turistik sayohatning alohida ko‘rinishlariga talab, muayyan xizmat turlariga talab to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘lish zarur. Kerakli axborotlarga ega bo‘lish hudud ichida moddiy va mehnat resurslarini taqsimlashda mutanosiblikni aniqlash uchun zarur.

Shuning uchun, bizning fikrimizcha, metodologik nuqtai nazaridan ko‘rsatkichlar tarkibiga hududning turistik-rekreatsion resurslarini kiritish mumkin (1-jadval).

Shunday ekan, transport bilan ta’minlanganlik ko‘rsatkichi muayyan obyektga tashrif buyurish uchun turistlar sonini istiqbollashtirish hamda mehmonxona obyektlari soni va ko‘ngilochar infratuzilmani aniqlash imkonini beradi.

Yo‘llar bo‘yicha yaqin tuman markazi (har qanday aholi punktini kasalxona, magazinlar va rivojlangan infratuzilma)gacha bo‘lgan masofa ko‘rsatkichi muayyan transport vositasida yoki piyoda turistik obyektgacha yetib oluvchi turistlar soni sifatida aniqlanadi.

**1-jadval**

**Turistik-rekreatsion resurslarni baholash ko‘rsatkichlari**

| Resursning nomi | Ko‘rsatkichning ahamiyati |
|---|---|
| 1. Transport bilan ta’minlanganligi | |
| Avto yo‘llar bo‘yicha | 4 ball |
| Daryo bo‘yicha | 2 ball |
| Temir yo‘l bo‘yicha | 3 ball |
| Havo yo‘llari bo‘yicha | 1 ball |
| Magistrallar bo‘yicha | 5 ball |
| 2. Yo‘llar bo‘yicha hudud markaziga yaqin masofa (aholi punktidan kasalxona, magazinlar va rivojlangan infratuzilmagacha) | |
| 10 km.gacha | 5 ball |
| 10 km.dan 30 km.gacha | 4 ball |
| 30 km.dan 100 km.gacha | 2 ball |
| 100 km.dan ortiq | 0 ball |
| 3. Boshqa turistik ob’ektlar bilan qo‘shnichilik | |
| 5 km.gacha | 5 ball |
| 5 dan 20 km.gacha | 4 ball |
| 15 km.dan 50 km.gacha | 3 ball |
| 50 km.dan 200 km.gacha | 2 ball |
| 200 km.dan ortiq | 1 ball |

Bundan tashqari baxtsiz hodisa, kasallik holatida belgilangan obyektlarga yetib olishda turistlar uchun xavf-xatarni pasaytiradi, shuningdek tashrif buyurish turistik obyektlar jozibadorligini oshiradi.

Turistik-rekreatsion resurslarning boshqa obyektlari bilan qo‘shnichilik ko‘rsatkichi bir kunda bir qator obyektlarga turistlarni kelish imkoniyatini aniqlashni nazarda tutadi. Shunday ekan, bitta obyektning boshqasidan 5 km uzoqligi 1 kunda 2 tadan 7 tagacha obyektga tashrif buyurishi mumkin, shu vaqtda 200 km.gacha bo‘lgan masofada turistlar tashrif buyurishni rad etishlari mumkin, yoxud turistik muddat uzoq vaqtni olishi mumkin. Shuningdek, qo‘shnichilik ko‘rsatkichi turistlarni qisqa muddat ichida ko‘proq miqdordagi obyektlarni ko‘rish va infratuzilmani joylashtirish uchun tarmoq xaritasini tuzish va boshqa holatlarda hududda ko‘proq turistlarni jalb qilish imkonini beradi.

Respublikamiz hududlarida sub’ektlarning turistik-rekreatsion resurslar salohiyatini baholash hududiy turistik-rekreatsion tizimning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini optimallashtirish, alohida resurslar bahosi va ularning kombinatsiyasini aniqlashning muhim asosi bo‘lib hisoblanadi.

Respublika ichida boshqa mamlakatlardagi axborotlarning ommabopligi bilan solishtirish bo‘yicha hududiy turistik-rekreatsion holat haqida axborotlarni olish ancha soddalashtirilgan. Shuning uchun hozirgi vaqtda mamlakatimiz hududlarida turistik-rekreatsion salohiyatni baholash uchun quyidagi metodika tavsiya etiladi.

Turistik-rekreatsion salohiyatni shakllanishining asosiy omillari quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$C = v_1 M_0 + v_2 T_0 + v_3 N_0 + v_4 I_0, \quad (1)$$

bu erda: S – turistik-rekreatsion resurslar salohiyati;
$M_0$ – nisbiy tarixiy-madaniy salohiyat;
$T_0$ – tabiiy qo'riqlanadigan muhim hududlarning nisbiy salohiyati;
$N_0$ – tabiiy shart-sharoitlarning nisbiy salohiyati;
$I_0$ – nisbiy infratuzilmaviy salohiyat;
v1-v4 – vazn koeffitsientlari.

Nisbiy ko'rsatkichlar mamlakatning barcha hududlariga nisbatan har bir ma'muriy hududda salohiyatni namoyon etadi.

Ma'muriy hududda tarixiy-madaniy resurslar zichligi quyidagi formula asosida hisoblnadi:

$$K_i = \frac{n_i \times c}{m}, (2)$$

bu erda: $K_i$ – ma'muriy hududda tarixiy-madaniy resurslar zichligi;
$n_i$ – ma'muriy hududda ob'ektlar soni;
s – mahalliylashtirish koeffitsienti;
m – hududda ob'ektlar soni.

Mahalliylashtirish koeffitsienti mintaqada yoki uning alohida hududlarida tarixiy-madaniy salohiyat obyektlari bo'yicha turizm obyektlari sifatida konsentratsiyalashganligini ifodalaydi.

Mahalliylashtirish darajasini aniqlash uchun hududda jami tarixiy-madaniy yodgorlik obyektlarining xaritasini (gegrafik model) tuzish, ular o'rtasidagi masofani aniqlash, obyektlar to'plamini ko'rsatish, ular o'rtasidagi masofani minimallashtirish (5-4 ball), keyin ularni hududning ma'muriy markazidan, taklif etilayotgan turistik infratuzilma obyektlaridan, aholining yashash punktlaridan uzoqligini solishtirish zarur.

Ma'muriy kartada tarixiy-madaniy obyektlarning tuzilgan kartasi (geografik modeli)ni kiritish muvofiq ishlab chiqarish dasturlarini ishlab chiqish maqsadi bilan hudud infratuzilmasi muvofiqligini, ushbu maqsadda budjet mablag'larini ajratilishini, hokimiyat organlari va tadbirkorlik subyektlarining o'zaro munosabatlari bo'yicha shart-sharoitlarni yaratish va tadbirkorlarni jalb qilishni baholashni o'tkazish imkonini beradi. Keltirilgan ushbu geografik model quyidagi shaklda ifodalanishi mumkin. Bunda ikki tomonlama ko'rsatkich ob'ektga boradigan marshrutlarni ifodalaydi, bir tomonlama ko'rsatkichlar faqat oldindan borib ko'rish yo'li bilan qandaydir obyektga kirish imkoniyati hisoblanadi.

Tarixiy-madaniy meros obyektlari salohiyati hisob-kitobi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$R = R_1 \times v + R_2 \times v + R_3 \times v, (3)$$

bu erda: R – tarixiy-madaniy salohiyat;
$R_1$ – arxitektura yodgoliklari;
$R_2$ – tarixiy yodgorliklar;
$R_3$ – arxeologiya yodgorliklari;
v1-3 – vazn koeffitsientlari.

Vazn koeffitsientlaridan hisob-kitobda foydalanish $1<v<5$ diapazonida bo'ladi va ekskursiya faoliyati uchun resurslarning ustuvorligidan kelib chiqib aniqlanadi. Agarda turistik mahsulotda foydalaniladigan 45 predmetdan 80 %i arxitektura obyekti bo'lsa, u holda oshirilgan nisbiy zichlikning vazn koeffitsienti va arxitektura resurslari maksimal bo'ladi.

R – integral ko'rsatkichning qiymatiga bog'liq holda nisbiy tarixiy-madaniy salohiyati ($R_0$) hisoblanadi.

Nisbiy tarixiy va madaniy salohiyat respublikaning barcha hududlariga nisbatan nisbiy ma'muriy hudud salohiyatini ifodalaydi va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$R_0 = \frac{R}{R_{\max}}, (4)$$

bu erda: $R_0$ – nisbiy tarixiy-madaniy salohiyat;
R – respublikanig ma'muriy hududining tarixiy-madaniy salohiyati;
$R_{max}$ – respublikaning barcha ma'muriy hududlari o'rtasida maksimal tarixiy-madaniy salohiyat.

Turizm rivojlanishining eng muhim omillaridan biri bo'lib, tabiiy qo'riqlanadigan muhim hududlarning mavjudligi hisoblanadi.

Tabiiy qo'riqlanadigan muhim hududlarning salohiyatini baholash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$T = v \times U + v \times Q + v \times Q_p + v \times Q_m + v \times Y_t + v \times Y_m, (5)$$

bu erda: T – tabiiy qo‘riqlanadigan muhim hududlarning salohiyati;

U – milliy park;

Q – quriqxona;

$Q_p$ – milliy darajadagi qo‘riqxona;

$Q_m$ – mahalliy darajada qo‘riqxona;

$Y_t$ – respublika darajasidagi tabiat yodgorligi;

$Y_m$ – mahalliy darajadagi tabiat yodgorligi;

v1-2 – vazn koeffitsientlari.

Tabiiy qo‘riqlanadigan muhim hududlarning ma’muriy maqomi bilan muvofiqlikda 1<v<2 diapazonda bo‘lgan vazn qabul qilingan.

Modomiki, tabiiy qo‘riqlanadigan muhim hududlarga tashrif buyurish ko‘p miqdordagi vaqtni talab etadi, u holda cheklash koeffitsienti ushbu holatda foydalanilmaydi.

Biroq, bizning fikrimizcha, tabiiy qo‘riqlanadigan muhim hududlarning uzoqligi jarohat olish, kasal bo‘lib qolish, baxtsiz hodisalarda ularni tashrif buyurishi xavf-xatarilari kamayishini talab etadi, shuning uchun tabiiy qo‘riqlanadigan muhim hududlar salohiyatini baholash ko‘rsatkichlari tizimiga yaqin hudud markazigacha masofa ko‘rsatkichini kiritishni taklif etamiz. Ushbu formula quyidagicha ifodalanadi:

$$T = v_1Ua_1 + v_2Qa_2 + v_3Q_pa_3 + v_4Q_ma_4 + v_5Y_ta_5 + v_6Y_ma_6, \quad (6)$$

bu erda: a – yo‘llar bo‘yicha yaqin hudud markazigacha (kasalxona, magazinlar va rivojlangan infratuzilma bilan aholi punkti o‘rtasidagi) masofaning tuzatilgan koeffitsienti.

$$a = \frac{a_i}{a_{\max}}, \quad (7)$$

T – integral ko‘rsatkichning qiymatiga bog‘liq holda tabiiy qo‘riqlanadigan muhim hududlarning nisbiy salohiyati ($T_0$) aniqlanadi. Ushbu ko‘rsatkich respublikaning ma’muriy hududi salohiyatini respublikaning barcha hududlariga nisbati ko‘rinishida ifodalanadi.

$$T_0 = \frac{T}{T_{\max}}, \quad (8)$$

bu erda: $T_0$ – tabiiy qo‘riqlanadigan muhim hududlarning nisbiy salohiyati;

T – respublika miqyosida tabiiy qo‘riqlanadigan muhim hududlar salohiyati;

$T_{max}$ – respublika miqyosida tabiiy qo‘riqlanadigan muhim hududlarning maksimal salohiyati.

Turistik-rekreatsion tadbirkorlik rivojlanishi uchun tarixiy-madaniy resurslar va respublika miqyosida tabiiy qo‘riqlanadigan muhim hududlar salohiyatidan tashqari qulay tabiiy sharoitlar omili muhim ahamiyatga ega.

Iqlim sharoitlarini baholash quyidagi parametrlar byicha aniqlanadi: relef, iqlim, urmon resurslari, gidrografik tarmoq, landshaftning estetik salohiyati, mineral manbalar, atrof-muhit ifloslanishi darajasi.

Tabiiy sharoitlar potensiali (S) – bu barcha baholanadigan parametrlar hajmining summasini o‘zida namoyon etadi va quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$S = R + I + V + L + M + Z, \quad (9)$$

bu erda: S – tabiiy sharoitlar potensiali;

R – relef;

I – iqlim;

V – suv komponenti;

L – landshaftlarning estetik potensiali;

M – mineral suvlar manbai;

Z – hududlarning radioaktiv ifloslanish darajasi.

Tabiiy sharoitlarni to‘rt balli tizim bo‘yicha baholash taklif etiladi.

Integral ko‘rsatkichning qiymatiga bog‘liq holda tabiiy sharoitlarning nisbiy potensiali (**$S_0$**) hisoblanadi. Tabiiy sharoitlarning nisbiy potensiali respublika ma’muriy hududi potensialini respublikadagi barcha hududlarga nisbatini ifodalaydi va quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$S_0 = S / S_{\max}, \quad (10)$$

bu erda: $S_0$ – tabiiy sharoitlarning nisbiy potensiali;

S – tabiiy sharoitlarning nisbiy potensiali;

$S_{max}$ – respublikada tabiiy sharoitlarning maksimal potensiali.

Tabiiy sharoitlarni kompleks baholashni soddalashtirish uchun bir qator parametlar va ularning mos ballari keltirilgan (2-jadval).

Turistik-rekreatsion baholashning eng muhim omillaridan biri bo‘lib, turizm infratuzilmasi (N)ning mavjudligi hisoblanadi. Turizm infratuzilmasi salohiyatini baholash sanatoriya-kurort va mehmonxona tizimi tahliliga asoslanadi.

Infratuzilmaviy salohiyat hisb-kitobi quyidagi formula bo‘yicha amalga oshiriladi:

$$N = Q_1 + Q_2, \quad (11)$$

bu erda: N – infratuzilmaviy salohiyat;

$Q_1$ – sanatoriya-kurort va sog‘lomlashtirish tashkilotlari (bir vaqtdagi sig‘im);

$Q_2$ – mehmonxonalar va o‘xshash joylashtirish vositalari (bir vaqtdagi sig‘im).

**2-jadval**

**Tabiiy sharoitlarni baholash shkalasi**

| Xususiyati | Tabiiy sharoitlar ko‘rinishi | Ball |
|---|---|---|
| Relefning jonliligi | - tekis | 0 |
| | - past-baland | 1 |
| | - kamroq past-baland | 2 |
| | - ko‘proq past-baland | 3 |
| Suvlardagi sayozlik xususiyati | - gidrografik tarmoq mavjud emas yoki hudud markazidan (10 kmdan ko‘proq) ahamiyatli uzoqlikda kichkinagina anhor va kichkina ko‘l mavjud. | 0 |
| | - kam o‘chraydigan kichkinagina ko‘l, anhorlar; 2-10 km uzoqlikda joylashgan yirik ko‘l. | 1 |
| | - hudud markaziga bevosita tutashuvchi kichikroq daryo, ko‘l; qirg‘oq oldidagi masofa uzoq emas. | 2 |
| | - hudud markaziga bevosita tutash bo‘lgan o‘rta va yirik ko‘llar va daryolar. | 3 |
| Tog‘li hududlarda o‘rmonlarning mavjudligi va ularning joylashuvi | - o‘rmon qalinligi 1-5% (o‘rmon mavjud emas yoki onda-sonda bo‘tazorlar o‘chraydi) | 0 |
| | - o‘rmon qalinligi 6-35% (o‘rmon qalinligi o‘rtachadan pastroq). | 1 |
| | - o‘rmon qalinligi 36-65% (o‘rmon qalinligi o‘rtachadan yuqoriroq). | 2 |
| | - o‘rmon qalinligi 66-100% (o‘rmon qalinligi yuqori). | 3 |
| Mineral suvlar manbalarining mavjudligi | - 1-2 ko‘rinishdagi mineral manbalar mavjud. | 1 |
| | - 2 va o‘ndan ortiq mineral manbalari mavjud. | 2 |
| Hududning radioaktiv ifloslanish darajasi | - hududning zararlanish darajasi 137 Cs dan 185 kBk/m$^2$ va undan yuqori. | - 2 |
| | - hududning zararlanish darajasi 137 Cs dan 185 kBk/m$^2$ yoki 90 Sr 5,5 dan 11,1 kBk/m$^2$ gacha. | - 1 |
| | - hududning zararlanish darajasi 137 Cs dan 37 kBk/m$^2$ yoki 90 Sr 5,5 kBk/m$^2$ gacha. | 0 |

Bizning fikrimizcha, infratuzilma salohiyatini baholash yaqin hudud markazigacha masofadagi kirish ko‘rsatkichini talab etadi.

Ushbu formula quyidagicha shakllanadi:

$$N = Q_1 a_1 + Q_2 a_2, \quad (12)$$

bu erda: a – yo‘llar bo‘yicha hudud markazi (aholi punktini kasalxona, magazinlar va rivojlangan infratuzilma) yaqinigacha masofa (2.7-formula).

Bundan tashqari, transport bilan ta’minlanganligi muhim ahamiyatga ega, buni tuzatilgan koeffitsient bilan baholash mumkin. Ushbu ko‘rsatkich quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$N = Q_1 a_1 b_1 + Q_2 a_2 b_1, \quad (13)$$

bu erda: b – transport bilan ta’minlanganlikni tuzatilgan koeffitsenti.

$$b = \frac{b_i}{b_{\max}}, \quad (14)$$

bu erda: $b_0$ – nisbiy infratuzilmaviy salohiyat;

b – respublika ma’muriy hududining infratuzilmaviy salohiyati;

$b_{max}$ – respublikaning maksimal infratuzilmaviy salohiyati.

Hududning turistik-rekreatsion resurslari salohiyatini baholash ko‘rsatkichlari bir xil emas.

SHuningdek, 0,1<v<0,4 diapozonida turadigan qiymatning vazn koeffitsientlarini hisobga olgan holda ular qo‘shish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Turistik-rekreatsion resurslar salohiyatini baholash omillarining ta’siri va muhimligiga bog‘liq holda, ekspertlarni fikrlarini e’tiborga olib, quyidagi vazn koeffitsentlari aniqlandi: tarixiy-madaniy salohiyat – 0,4; tabiiy sharoitlar salohiyati – 0,3; tabiiy-hududiy salohiyat – 0,15; infratuzilmaviy salohiyat 0,15.

Turistik-rekreatsion resurslar salohiyati shakllanishining muhim omillarini baholashning umumiy ko‘rsatkichi ma’muriy hududlar uchun turistik-rekreatsion resurslar salohiyatini jamlanma ko‘rsatkichini aniqlash imkonini beradi.

**Xulosa va takliflar**

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, amalda har qanda hudud resurslarga ega bo‘ldi. Bu resurslardan u yoki bu darajada muayyan ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik sharoitlar mavjud bo‘lganda turistik-rekreatsion maqsadlarda foydalanish mumkin. Biroq har bir hududdagi mavjud salohiyat turli xil individual, miqdoriy va sifat tavsifidagi turistik-rekreatsion resurslarga bog‘liq holda o‘zgartiriladi. Shunday ekan, ularni baholash va tadqiq etish hududlarda turistik-rekreatsion tadbirkorlik rivojlanishini rejalashtirish uchun zaruriy shart-sharoit bo‘lib hisoblanadi.

Turistik-rekreatsion tadbirkorlik rivojlanishiga salbiy ta’sir etuvchi omillar bo‘lib, ijara vositalari, energiya resurslari va logistikaning yuqori bahosi, kadrlar malakasining past darajasi va servis faoliyati bo‘yicha kadrlar tayyorlash samaradorligining yuqori emasligi, chekka hududlarda telekommunikatsion infratuzilmaning rivojlanmaganligi, chekka tumanlarda yo‘llar va ijtimoiy infratuzilmaning yetarli darajada emasligi.

Turistik-rekreatsion tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha salbiy holatlarni bartaraf etish hokimiyat va biznes munosabatlarida hamkorlik munosabatlarini shakllanishi hamda tadbirkorlik tuzilmalari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish va tadbikorlik muhitini takomillashtirishga yo‘naltirilgan davlatning qo‘llab-quvvatlashini nazarda tutadi.

## Adabiyotlar

1. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // I.f.d. diss. – Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-b.

2. Архипова В.Ф., Девизов А.С. Об инфраструктуре как определяющем факторе развития туризма в регионе. URL:http://www.roman.by/r-78201.html

3. Биржаков М.Б. Введение в туризм. - СПб.: Издательский дом Герда, 2004.

4. Бекларян Л.А., Пшенников А.С. О некоторых аспектах методики исследования региональных проблем // Журнал Аудит и финансовый анализ.-№4. 2001.

5. Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе: учебное пособие. – 2-е изд., стер. – М.: Конкурс, 2006. – 193 с., 14 - с.

6. Mamatqulov X.M. Turizm infratuzilmasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2011. 4-5-betlar.

7. Морозов М.А. Инфраструктурное обеспечение предпринимательской деятельности в туризме: монография. – М.: РосНОУ, 2005.

8. Norchaev A.N. Turizm infratuzilmasida kutilayotgan o‘zgarishlar va imkoniyatlar. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2019.

9. Pardayev M.Q. va boshqalar. Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning echimlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Iqtisod-moliya», 2008. - B. 133.

10. Туристский терминологический словарь: справочно-методическое пособие / Авт.-сост. И.В.Зорин, В.А.Квартальнов. – М.: Советский спорт, 1999.

11. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.SH., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: Fan va texnologiya, 2014. 151-b.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 30.12.2020. https://review.uz/oz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu

13. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. – Toshkent, 2020.

**UDC: 330.14**

# MAIN TRENDS IN THE FORMATION OF MODERN TECHNOLOGIES TO INCREASE THE COMPETITIVENESS OF BUSINESS ENTITIES

**L.U. Akbarova**
*Tashkent state transport university*

**Abstract.** The article presents scientific and theoretical views on how to increase competitiveness in entities that intend to engage in entrepreneurship or are engaged in entrepreneurial activity. It also presents the ideas and theories put forward to achieve economic efficiency of enterprises, as well as modern technologies for their implementation. In addition, modern approaches to strategic planning, personnel policy, innovations in the organization of business processes, more advanced and effective methods of global evaluation, strategic planning, organizational performance and staff motivation, the degree of achievement of strategic goals, the effectiveness of business plans, the key performance indicators for each employee are closely related to the employee incentive system.

**Keywords:** market, market relations, demand, supply, competition, competitiveness, strategy, system, concept, efficiency, enterprise.

## Основные тенденции формирования современных технологий для повышения конкурентоспособности деятельности хозяйствующих субъектов

**Аннотация.** В статье представлены научно-теоретические взгляды на способы повышения конкурентоспособности субъектов, которые намерены заниматься предпринимательством или занимаются предпринимательской деятельностью. Также представлены идеи и теории, выдвигаемые для достижения экономической эффективности предприятий, а также современные технологии для их реализации. Кроме того, современные подходы к стратегическому планированию, кадровой политике, нововведениям в организации бизнес-процессов, более совершенные и эффективные методы глобальной оценки, стратегического планирования, организационной эффективности и мотивации персонала, уровня достижения стратегических целей, эффективности бизнес-планов, Ключевые показатели эффективности каждого сотрудника тесно связаны с системой мотивации сотрудников.

**Ключевые слова:** рынок, рыночные отношения, спрос, предложение, конкуренция, конкурентоспособность, стратегия, система, концепция, эффективность, предприятие.

## Tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish tendensiyalari

**Annotatsiya.** Maqolada tadbirkorlik bilan shug‘ullanishni maqsad qilgan yoxud tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanib kelayotgan subyektlarda raqobatbardoshlikni oshirishga doir ilmiy-nazariy qarashlar ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, korxonalar iqtisodiy samaradorligiga erishishga doir ilgari surilgan g‘oyalar, nazariyalar keltirlib, ularning joriy etishga oid zamonaviy texnologiyalar ko‘rsatilgan. Bundan tashqari strategik rejalashtirishning zamonaviy yondashuvlari, kadrlar siyosati, ish jarayonlarini tashkil etishda innovatsiyalarni joriy etish, global baholashning yanada rivojlangan va samarali usullari, strategik rejalarni tuzish, tashkiliy bo‘linmalar faoliyatini baholashda va xodimlarning rejalarni bajarish motivatsiyasini oshirish, strategik maqsadlarga erishish darajasi, biznes rejalarining samaradorligi, har bir xodim ishchilarni rag‘batlantirish tizimi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan faoliyatning asosiy ko‘rsatkichlari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** bozor, bozor munosabatlari, talab, taklif, raqobat, raqobatbardoshlik, strategiya, tizim, kontseptsiya, samaradorlik, korxona.

## Introduction

A special role in the development of a competitive strategy for the development of real sector entities belongs to the use of modern methods and mechanisms of strategic planning. At present, the competitiveness reserve based only on reducing costs, using assets, and logistics is practically exhausted. Corporations are looking for new ways to improve their operational efficiency. Balanced Scorecard Collaborative [1] provides the following data: - only 5% of the workforce understands the strategy of their company; - only 25% of managers receive remuneration directly related to strategy; - 60% of organizations do not associate budget with strategy; - 86% of leadership teams spend less than an hour a month discussing strategy. Since the end of the 80s of the twentieth century, there has been a rethinking and

development of the financially - oriented concept of business management towards a multilateral orientation [2]. New models based on the new concept have received the name Performance Measurement in the English-language literature on accounting (reporting) and controlling. Measurement of achievements aims to combine most of the currently existing systems of indicators in different areas of the enterprise (for example, costs, income, investment, innovation, marketing) to evaluate and analyze the effectiveness of actions at each organizational level. Development, implementation and application measurement of achievement is one of the most important tasks in controlling and accounting. In addition, it plays an important role in drawing up strategic plans, in assessing the performance of organizational units and in increasing employee motivation to fulfill plans.

**Purpose of the research**

It is a study of trends in the introduction of modern technologies to increase the competitiveness of business entities.

**Method and object of research**

The article used the methods of forming a balanced scoring system, methods of developing the company's strategy, a system of indicators, the definition of brand goals and hypotheses about their interconnection.

The object of the article is the conceptual ideas and scientific-economic theories put forward to achieve high economic efficiency and increase competitiveness.

**Research results and their discussion**

At the same time, the traditional measurement of the efficiency of an enterprise, based only on financial indicators obtained from accounting systems, is outdated and does not provide a complete representation and information on the state of the enterprise, and also does not allow building an accurate forecast of its development. In this regard, there is a need for more advanced and effective methods of global assessment of the entire enterprise. Modern approaches to strategic planning call for taking into account such non-financial components as personnel, business processes, innovation, and relationships with consumers.

With the transition of Uzbekistan to a market economy on the basis of its own model of a gradual transition to market relations, the external conditions of each enterprise have fundamentally changed. In order to become a full-fledged subject of the market system, he needs to independently search for investments for the acquisition of modern equipment and technology that can ensure the competitiveness of products, analyze sales markets, establish links with new suppliers of raw materials and materials, etc.

However, the solution of these tasks will become possible only if the enterprise is able to adapt to new economic conditions, and for this it is necessary to change its internal structure, to choose new forms and methods of strategic planning for both current production activities and processes of a reproductive nature directly related to introduction of scientific and technological progress.

The last time can be called a flourishing development of various models of the multilateral concept of ID in business. The most used and debated concept of ID today is the Balanced Scorecard (BSC) or Balanced Scorecard.

The Balanced Scorecard is a system for measuring the performance of the entire enterprise (strategic planning system), based on vision and strategy, which reflects the most important aspects of the business. The Balanced Scorecard concept supports strategic planning, implementation and further strategy adjustments by combining the efforts of all business units.

The introduction of this concept means a wide restructuring of the entire process of implementing the organizational strategy. In this regard, it is important to consider the following two circumstances. First, the use of a balanced scorecard is not a process of developing a strategy, but of its implementation, which presupposes the presence of a clearly formulated strategy at the enterprise. Second, the new concept should be viewed not so much as a system of indicators, but as an all-encompassing management system. When introducing it, one should also not try to systematize monetary and non-monetary indicators in one form or another. This system provides targeted monitoring of the enterprise, allows predicting and anticipating the emergence of problems, organically combines the levels of strategic and operational management, controls the most significant financial and non-financial indicators of the enterprise. The degree of achievement of strategic goals, the effectiveness of business processes and the work of the entire enterprise as a whole, each of its divisions and each employee is determined by the values of the so-called key performance indicators, which are closely related to the employee motivation system. Indicators with their target and boundary values are determined in such a way as to cover as much as possible all the critical areas that affect the implementation of the strategy.

The BSC is used as the main tool for business management, which makes it possible to set individually designated goals for an employee, business units and the corporation as a whole, and most importantly, bring them to performers at all levels of the organization. In this situation, the strategy seems to be a continuous process, in which all the processes occurring in the organization receive feedback and make adjustments to the strategy. The BSC combines the effective use of tangible assets with the mobilization of intangible assets, becoming an important source of efficiency and competitiveness. Enterprises are moving to the principle of studying the behavior, traditions, preferences of existing and potential consumers in order to reflect their results in their strategies.

The Balanced Scorecard provides a well-coordinated interaction of employees of the enterprise and provides all levels of enterprise management with ideas about how to improve the decision-making process and get closer to the set goals. The success of the strategy implementation depends on the achievements and initiative of employees, the correct allocation of resources and building feedback. By participating in the determination of key indicators and the implementation of the strategy, employees have the opportunity to improve their own qualifications and improve the efficiency of the enterprise as a whole.

The company's strategy is becoming an extremely important competitive tool and, at the same time, a unique trade advantage. If you look at the experience of leading corporations, you will notice that they are moving from traditional management and control to a strategy of building consumer-oriented organizations. Tactical decisions give way to strategic ones, and the efficiency of business processes is constantly adjusted taking into account the wishes of the consumer.

A balanced scorecard can measure business performance by linking financial and non-financial KPIs (for example, internal business processes, organizational development, learning, and innovation). The product allows you to develop a business strategy for the entire enterprise, formalize it in the form of a BSC map, logically link it with the budgetary and organizational structure of the company, decompose strategic goals to the level of structural divisions and then monitor its implementation. The weaknesses of this concept include the weak relationship with the strategy, the complexity of the periodic assessment due to the many parameters.

From our point of view, the best concepts meet the following characteristics:

- all processes and areas of use are clearly formulated and spelled out in them;
- for each area of the enterprise there is a system of indicators or a set of indicators;
- the quantitative assessment of indicators prevails over the qualitative one.

Enterprises usually choose the most regulated concept for measuring achievement, which is the balanced scorecard. The idea of a balanced scorecard met the management's requirements to find a balanced set of financial and non-financial indicators for intra-company management goals.

The new system is aimed, first of all, at linking monetary indicators with operational measures of such aspects of an enterprise's activities as customer satisfaction, intra-company business processes, innovation activity, and measures to improve financial results. Thus, it is designed to provide answers to four critical questions for the enterprise:

• how clients evaluate it (client aspect);
• what processes can provide him with an exceptional position (in-house aspect);
• how further improvements can be made (innovation and learning aspect);
• how the shareholders assess the company (financial aspect). The answers to these questions depend on the formulation of goals, which are "derived" from the strategy of the enterprise, and then "translated" into indicators of the management system. In the course of the discussions, not only target settings are discussed, but also indicators measuring goals, tasks for the planning period and the activities necessary for their implementation. "Balance" within the new concept is multifaceted, covering the relationship between financial and non-financial dimensions, strategic and operational levels of management, past and future results, as well as internal and external aspects of the enterprise.

Within a balanced framework, it is necessary to distinguish between indicators that measure the results achieved and indicators that reflect the processes that contribute to the achievement of these results. Both categories of indicators should be linked to each other, since in order to achieve the former (for example, a certain level of productivity), it is necessary to implement the latter (for example, to achieve a known load on the capacities of machines and equipment). In practice, managers tend to focus on the first category.

The balanced scorecard covers strategically important topics. Current, so-called diagnostic comparisons of actual and target indicators are the subject of other information systems.

Finally, the new system provides a basis for formulating hypotheses about setting brand goals and linking them to each other. The intended target links are tested and explored as part of the learning process. The accumulated experience allows us to give them quantitative estimates.

In the course of its application, the balanced scorecard has become a broad management system. Therefore, many see it as a framework structure for the entire operational management process, which includes a number of sub-processes.

• translation of long-term plans and strategies into the form of specific indicators of operational management;

• communication and switching of the strategy to lower levels of the corporate hierarchy using the developed management indicators;

• transformation of strategy into plans, including budget plans;

• providing feedback to test hypotheses and initiate learning processes.

Within the organizational hierarchy, a balanced system is implemented from top to bottom. It is believed that the system should start working at the level of the entire enterprise, and then descend to the levels of business units and even individual employees of the company. The implementation of the concept under consideration means a wide restructuring of the entire process of implementing the organizational strategy.

In this regard, the following two circumstances are important:

1. The use of a balanced scorecard is not a process of developing a strategy, but of its implementation, assuming the presence of a clearly formulated strategy at the enterprise.

2. The new concept should be viewed not so much as a system of indicators, but as an all-encompassing management system. When introducing it, one should also not try to systematize monetary and non-monetary indicators in one form or another. Kaplan and Norton specifically emphasize that a successful balanced scorecard must begin with the recognition that it is not a weights and measures project, but a project that is designed for change [3].

R. Kaplan believes that the process of implementing the new concept should consist of four stages: Economic Sciences Journal of Scientific and Applied Research Development of a balanced scorecard - the transformation of long-term plans and strategies into a set of goals and activities.

After development, the system should be integrated into the management process:

• cohesion - linking all hierarchical levels (from the top management level to auxiliary levels) by building appropriate goals and indicators, organizing strategic communication, providing compensation for proactive decisions;

• planning - determining ways to achieve planned results in time through specific planning tasks, resource allocation, design of strategic activities;

• feedback and training - testing the theoretical base of the strategy and updating the latter with the reflection of the knowledge gained [3].

The first implementation of a balanced scorecard is a complex project that must be structured and managed by a multi-disciplinary team. The project plan for the implementation of a new system may include the following stages (execution time is approximately 4 months):

1) creation of prerequisites for the implementation of the system (enterprise level);

2) establishment of the principle architecture (enterprise level);

3) achieving consistency on strategic goals (pilot level);

4) determination of units of measurement and targets (pilot level);

5) definition of action programs (pilot level);

6) establishing a plan for putting the project into operation and curtailing work.

This system can also be used for information to external consumers. It is especially convenient to use the balanced scorecard as a tool for strategic communication and specification in cases where the strategy is formulated unclear or illiterate. When implementing the Balanced Scorecard concept, software is not a major issue. However, the collection, evaluation and analysis of data plays a big role here. Therefore, today leading companies in the development and production of computer programs are working on the creation of appropriate special software.

## Conclusion

In conclusion, it should be noted that the balanced scorecard is a tool that allows you to fully link the strategy of the enterprise with the operational business, and the new system also makes it possible to make the right decisions in terms of resource allocation, which is one of the important elements in ensuring the competitiveness of the enterprise as a whole.

**References**

1. www.novatex.ru
2. Privatization and expansion of the private sector - the way of effective growth of the regional economy // Economic Bulletin of Uzbekistan. - Tashkent, 2004. - № 1-2. - P.17-20.
3. Kaplan R.S., Norton D.P. Balanced scorecard. From strategy to action. / Ed. 2nd, rev. and additional: translation in English - M.: CJSC "Olymp-Business", 2003, 320 p.

**UDK: 338.48 (470.47)**

## TURIZM SOHASI YUKSALISHIDA INTERNET VA AXBOROT – KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

**K.Sh.Shodiyev[1], A.B.Farxodov[2]**
*[1]Samarqand davlat arxitektura va qurilish instituti,*
*[2]Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali*
*kamoliddin.shodiyev@bk.ru, azizjon.farxodov.2003@mail.ru*

**Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy AKT va Internet tizimini turizm sohasida qo‘llash afzalliklari, jabhalari hamda samaradorligi keyingi 10 yillik ma’lumotlar asosida tadqiq etilgan, ularning turizm mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘sishidagi ulushi ekonometrik usullar yordamida aniqlandi.Tadqiqot natijalariga binoan turizm tarmog‘ining yuksalishida AKT ulushi 30 - 45 foizni tashkil etdi. AKTdan foydalanuvchilariga bilim va ma’lumotlarga kirish, yangi ma’lumotlarni to‘plash imkoniyatini beradi. Tadqiqot davomida mehnat va AKTga investitsiyalar bilan tarmoq o‘sishi o‘rtasida ijobiy korrelyatsiya, ammo mehmonxonalar soni bilan manfiy bog‘liqlik tasdiqlandi. Demak, turistlarni joylashtirishdagi kamchiliklar tarmoqni rivojlanishidagi to‘siqlardan biridir. Soha yalpi mahsulotining kapitalga nisbatan elastiklik koeffitsiyenti 0,794, ishchi kuchiga nisbatan 0,113 tashkil etdi.Bu jahonda o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga mos; Tarmoqda AKT ni qo‘llash natijasida korxonalarning transaksion xarajatlari pasayadi, innovatsiyalar tezlashadi, firmalarning raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorlik ortadi, bo‘lg‘usi sayyohlar mamlakatimiz turizm imkoniyatlari haqida axborotga ega bo‘lishadi.

**Kalit so‘zlar**: turizm, internet, AKT, model, korrelyatsiya, o‘sish, hissa

### Эффективность использования Интернет и ИКТ в туристической сфере

**Аннотация**: В статье на основе статистических данных за 2011 – 2019 годы рассмотрены преимущества, область и эффективность использования интернет и современных ИКТ в туристической отрасли. На основе эконометрических моделей доказано, что их доля в темпах прироста составляет около 35 – 45 %. Коэффициент эластичности производства сферы от капитала составляет 0, 794, от рабочей силы – 0,113.Это соответствует результатам прежних исследований ученых в мире. Использование ИКТ в отрасли снижает транзакционные издержки предприятий, ускоряют инновации, повышают конкурентоспособность и эффективность производства. потенциальные туристы будут информированы о возможностях нашего туризма.

**Ключевые слова:** туризм, интернет, ИКТ, модель, корреляция, рост и удельный вес

### The place of internet and information – communication technologies in turism development

**Abstract.** In the entry, effectiveness and advantages of modern ICT and Internet application in Tourism have been researched. The proportion of ICT and Internet in generation of tourism products has been identified through econometric approach. Based on the research ICT is responsible 30 – 45% of Tourism network development. ICT allows potential visitors to access necessary information and gather data. During the course of the research, positive correlation between the increase in Tourism network and the investment in ICT and conversely the opposite has been found between that and the number of hotels. Therefore, it clearly shows that the tourist accommodation pitfalls are the major obstacles in the network development. The elasticity coefficient per capita of the GDP of the field is 0,794, in workforce 0,113. It matches the results of the researches that have been conducted throughout the world. As a result of applying ICT in the network, companies’ transaction expenses are reduced, innovations occur more, becomes competitive and its financial effectiveness increases. In turn, future visitors can obtain more information about the tourism opportunities of our country.

**Keywords:** tourism, Internet, ICT, model, correlation, increase, contribute.

### Kirish

Globallashuv sharoitida turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash, tarmoqda tadbirkorlik faoliyatiga oid to‘siqlarni bartaraf etish, davlat va xususiy tarmoqlarning muqobil rivojlanishini ta’minlash kerak. Buning uchun ushbu sohaga chet el sarmoyasini jalb qilish, milliy turizm mahsulotlarining xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini va xizmatlarning sifatini oshirish, kadrlarni tayyorlash hamda marketing xizmatini

kuchaytirish asosida milliy turizm bozorini rivojlantirish zarur. Globallashuv jarayonida dunyodagi yuz berayotgan o‘zgarishlarni tahlil etishni, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz oqibatining turizm tarmog‘larini rivojlanishiga ta’sirini kompleks tahlil qilishni, respublikamizning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yirik transmilliy kompaniyalar (TMK) bilan hamkorlikni kengaytirish hamda mustahkamlashda zamonaviy strategik menejment va marketing strategiyalari asosida korxonalarni boshqarish, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishni taqozo etadi.

So‘nggi o‘n yilliklarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ning jadal rivojlanishining iqtiosdiy o‘sishga ta’siri ko‘plab olimlar va tadqiqotchilarning diqqat markaziga aylandi. Nazariy ta’riflarga ko‘ra AKT apparat, dasturiy ta’minot, tarmoqlar va axborot vositalarini to‘plash, saqlash, qayta ishlash, uzatish va taqdim yetish (ovoz, ma’lumotlar, matnlar, rasmlar) dan iborat. AKT raqamli telefon tarmog‘ini, uyali telefonlarni, Internet serverlari va statsionar keng polosali tarmoq va boshqa texnologiyalarni qamrab oladi. Dunyo bo‘ylab sayohat va turizm 2019-yilda jahon YaIMning taxminan 2,9 trln. AQSh dollarini tashkil etdi. O‘zbekistonning turizm sohasi mamlakatda rivojlanayotgan va gullab-yashnayotgan sohalardan biridir. Ushbu sektor mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb uch foizini tashkil qiladi. 2016-yildan keyin Ochiq eshiklar siyosati tufayli O‘zbekiston turizm industriyasi jadal rivojlanmoqda, keyin esa YaIM o‘smoqda. 2018-yilda har yili sayyohlar kelishi va sektorning umumiy daromadi 2017-yilga nisbatan ikki baravar ko‘paydi, 2019-yilda ular 26 foizni tashkil etdi.Bugungi kunda AKT sohasining o‘rni tobora ortib bormoqda. Jahon bankining statistik ma’lumotlariga ko‘ra AKT ulushi jahon yalpi ichki mahsulotining 5,5 foizidan ortig‘ini tashkil etadi. Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, AKTning ulushi qanchalik ko‘p bo‘lsa, YaIM o‘sishi shuncha ko‘p bo‘ladi. Uyali aloqa tarmoqlari orqali ma’lumotlardan foydalanishning ikki baravarga o‘sishi dunyo bo‘yicha YaIMni jon boshiga 0,5 foizga oshiradi. Shu sababli, AKT va turizm iqtisodiy o‘sishi o‘rtasida bog‘liqliklarni tadqiq etish katta ahamiyatga ega.

Respublikamizda 2017-yilda qabul qilingan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish sharoitida mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish, innovatsiyalarni keng joriy etish va shular asosida resurslardan oqilona foydalanish raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omilidir. Chunki boshqaruvda raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash, mamlakatimizda elektron hukumat tizimini joriy etish muammosi ijtimoiy rivojlanishning ko‘p variantligi va muqobilligini e’tirof etishga asoslangan. Shu tufayli mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 19-fevraldagi «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni qabul qilindi va sohani jadal rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilandi. Jumladan, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoyalar ishtirokidagi loyihalar hissasini oshirish zarurligi, joriy yilda kamida 200 million dollar, 2019-yilda esa investitsiyalar, ayniqsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoyalar hajmini 500 million dollarga yetkazish vazifasi qo‘yildi. Shuningdek «O‘zbektelekom» kompaniyasining nufuzini oshirish, «O‘zmobayl» milliy mobil aloqa operatorini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlari belgilagan.

## Adabiyotlar tahlili

So‘nggi o‘n yilliklarda AKTning iqtisodiy o‘sish darajasiga ta’siri bir qator tadqiqotchilar tomonidan turli xil usullar, ma’lumotlar to‘plamlari va turli vaqt oralig‘idan foydalangan holda, davlat yoki davlatlar guruhi darajasida o‘rganilgan. Jahon iqtisodiy forumining **[1]** tadqiqotiga ko‘ra, davlatda AKT sohasining 10 foizga o‘sishi, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIMning 0,76 foizga va bandlikning 1,03 foizga o‘sishiga olib keladi. AKT yangi ish o‘rinlari va daromad manbalarini yaratish orqali kambag‘allikni kamaytirishda, shuningdek, kam ta’minlanganlarning salomatligi va ta’limiga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirishda yetakchi o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Jahon banki **[2]** ta’kidlaganidek, AKT «jihoz, dasturiy ta’minot, tarmoqlar va ma’lumotlarni(ovoz, ma’lumotlar, matn, rasm) to‘plash, saqlash, qayta ishlash, uzatish va taqdim etish vositalaridan» iborat. Chet ellik olim A.Yusufi talqinicha AKT "raqamli telefon tarmog‘i, mobil telefonlar, internet imkoniyatlari, internet serverlari va statsionar keng polosali tarmoq, shuningdek boshqa texnologiyalar" degan ma’noni anglatadi **[3].** Ko‘pgina tadqiqotchilar ( J.Xaftu va boshqalar) AKT ko‘p jihatdan iqtisodiyotning tez o‘sishi uchun juda muhim ekanligini ta’kidlaydilar: AKTdan foydalanish uning foydalanuvchilariga bilimlar va ma’lumotlarga tezkor qo‘lga kiritishga imkon beradi **[4].** M.Farxadi fikricha axborot va kommunikatsiya texnologiyalari kompaniyalarning bog‘lanishini osonlashtiradi va tezlashtiradi, bunday yo‘l bilan ular ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va samaradorlikni oshiradi **[5];** S.P. Dimelis fikricha AKT yangi bozorlarga kirishga imkon beradi, moliyaviy bozorlar samaradorligini oshirish orqali kapital xarajatlarini kamaytiradi **[6];** S. Chou AKTdan foydalanish va hattoki birgina internetdan foydalanish, agentlik xarajatlarini kamaytirish va ma’lumot asimmetriyasini o‘zgartirish orqali har qanday biznesni rivojlantirishi mumkinligini e’tirof etadi **[7].**
Vatanimizning O‘zbektelekom tashkiloti olimlari **[8]** va B.X. Turayevning maqolalarida **[9,10]** O‘zbekistonda turistik sohani yanada rivojlantirishda internet tizimi va AKT muammolariga va mehmondo‘stlik industriyasini rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti masalalariga keng e’tibor qaratilgan. Ammo AKT ning turizm tarmog‘ining rivojlanishiga qo‘shayotgan xissasi va sohada innovatsiyalarni rivojlantirish masalalari kam tadqiq etilgan.

### Ma’lumotlar bazasi va uslubiyot

Mamlakatda Internet tarmog‘idan jamoaviy foydalanish shahobchalari soni ortib bormoqda (JFSh). Bunga ushbu shahobchalar faoliyatini litsenziyalash jarayonining soddalashtirilishi yordam bermoqda.

Internet tarmog‘ida ulanish uchun Wi-Fi texnologiyasidan foydlanish ham kengaymoqda. Natijada Wi-Fi foydalanish nuqtalari soni ortadi. Tadqiqot ma’lumotlar bazasi 2010-yildan 2020-yillar oralig‘ini qamrab olgan asosan, ikkita manbadan shakllantirildi: AKTga investitsiyalar Xalqaro telekommunikatsiya birligi saytidan, Jahon turizm tashkiloti hamda O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma’lumotlaridan to‘plandi. Bu ma’lumotlar jumlasiga mamlakatimiz va turizm tarmog‘ining iqtisodiy o‘sishi, investitsiyalar, ishchi kuchi, mehmonxonalar dagi joylari to‘g‘risidagi statistik va empirik ma’lumotlar kiradi. Ekonometrik modellarni tuzishda yuqoridagi indikatorlarning dinamikadagi vaqt qatorlari ishlatilgan. Tadqiqot mavjud iqtisodiy nazariyalarga tayangan holda sifat va miqdor tahlillari yordamida modellar yaratildi va deduktiv yondashuv qo‘llanildi. O‘zbekistonda turizm sohasining keyingi o‘n yildagi o‘rtacha statistik ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

**1-Jadval.**

**Modelga kiritilgan omillarning kuzatilgan davrdagi statistik tavsiflari**

| Ko‘rsatkichlar | Turizm sohasining mahsuloti Mln. $ | Tarmoqga investitsiyalar Mln.$ | Mehmonxona larning soni, dona | Tur operatorlarning soni, kishi |
|---|---|---|---|---|
| O‘rtachalar | 1312,6 | 43,9 | 725,0 | 432 |
| Standard xato | 190,9 | 4,3 | 58,8 | 30,6 |
| Mediana | 1262,0 | 46,4 | 705,5 | 415,5 |
| Standard farqlanish | 603,8 | 13,7 | 186,0 | 96,8 |

Manba: UNWTO va O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi materiallari

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki 2011 – 2019-yillarda turizm sohasining o‘rtacha yillik mahsuloti hajmi 1312,6 mln. dollarni, investitsiyalar hajmi 43,9 mln.dollarni tashkil etdi. Mexmonxonalarning soni 725 va tur operatorlar soni 432 kishini tashkil etdi. Kuzatilgan davr orasida turizm mahsulotining va investitsiyalashning tebranishi (variatsiyasi) kuchli bo‘lgan, ammo iqtisodiy parametrlarning taqsimlanishi normal funksiyaga to‘g‘ri keladi, chunki mediana bilan o‘rtachalar orasidagi farq kichik.

O‘zbekistonga 2019-yilda tashrif buyurgan turistlarning maqsadi va yoshi bo‘yicha taqsimlanishi quyidagi rasmlarda aks ettirilgan.







Demak, aksariyat turistlar qarindosh urug‘larni va do‘stlarni ko‘rish va keyinchalik ta’lim olish va davolanish uchun tashrif buyurgan ekan. Turistlarning yoshi jihatidan aksariyat turistlar 30 va 55 yosh oralig‘ida ekan. Tadqiqotni chuqurlashtirish maqsadida keyinchalik ekonometrik modellar tuzildi.

**Modeldagi o‘zgaruvchilarni tanlash**. Tadqiqot ishidagi omillar ya’ni o‘zgaruvchilar ta’riflari quyidagicha : Turizm sohasining real mahsuloti (**LnTDP), mln.** dollar), Yalpi ichki mahsulot **(LnGDP, mln. dollar),** investitsiyalar (**LnInvestment** mln. dollar), ishchi va xizmatchilar soni (**LnLabor** ) va mehmonxonalar (**LnHotel** , birlikda) o‘lchandi. Ekonometrik modellarni tanlashda empirik kuzatuvlar va ekonometrika fani **[11]** tomonidan tavsiya etilgan matematik taxminlar va bir nechta testlar qo‘llanildi. D.Gujarati **[11]** ta’kidlashicha, qisqa davrdagi dinamik qatorlarni statsionarlikka tekshirish zarur emas, chunki amaldagi ma’lumotlarning namunaviy o‘lchamlaridagi tebranishlar uncha katta bo‘lmaydi. Keyinchalik o‘zgaruvchilar orasidagi korrelyatsion aloqadorlik tekshirildi.

**2 - Jadval**

**Regression tenglamadagi omillarning korrelyatsion matritsasi**

| | ***Y*** | ***K*** | ***R*** | ***L*** |
|---|---|---|---|---|

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Y** | **1** | | | |
| **K** | **0,96658296** | **1** | | |
| **R** | **0,89370747** | **0,913521** | **1** | |
| **L** | **0,82574142** | **0,8334931** | **0,978536614** | **1** |

Tadqiqotda bir omilli chiziqli logarifm modellar:

**LnTDP = Lnβ0+β1 LnGDP + ui (1)**

**LnTDP = Lnβ0+β1 LnInvestment + ui (2)**

**LnTDP = Lnβ0+β1 LnLabor + ui (3)**

**LnTDP = Lnβ0+β1 LnGDP + ui**

va ko‘p omilli chiziqli logarifm modellar:

**Ln TDP = Lnβ0+ $\alpha$ Ln Investment+β1 LnLabor+ ui (4)**

**Ln TDP = Lnβ0+ $\alpha$ Ln Investment+β1 LnLabor+β2 LnHotel places+ ui (5)**

qo‘llanildi.

## Tadqiqot natijalari

Mamlakatimizda amalga oshirilgan tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy islohotlar mahsuli sifatida keyingi yillarda turizm tarmog‘i tezkor rivojlanmoqda. Pastda keltirilgan jadval ma’lumotlariga nazar tashlasak 2011-yilda turizm sohasining real hajmi 0,34 mlrd.dollarni tashkil etgan bo‘lsa, u 2019-yili 1,980 mlrd. dollarga yetdi yoki 6 baravarga ortdi.Investitsiyalar miqdori 2,8 baravar, mexmonxonalar soni 1,8 va tur operatorlar soni 1,8 baravarga ortdi. Ammo 2019-yil oxirida boshlangan koronovirus pandemiyasi global inqirozga sabab bo‘ldi va unda boshqa tarmoqlar singari turizm ham katta talofat ko‘rmoqda. Global inqirozning respublikamiz ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta’sirlarini yumshatish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Koronovirus pandemiyasi va global inqiroz xolatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora - tadbirlar to‘g‘risida” va “Kornovirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab – quvvatlashga doir qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida “ gi Farmonlari qabul qilindi va amaliyotda joriy etilmoqda. Farmonda ko‘rsatib o‘tilgandek jahon miqyosida koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashishda respublikamizda insonlarning harakatlanishiga cheklovlar kiritish va korxonalar faoliyatini to‘xtatish orqali misli ko‘rilmagan choralar ko‘rilmoqda. Bunda turizm, transport, farmatsevtika va to‘qimachilik sanoati kabi respublika iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlarini qo‘llab -quvvatlash va ularning barqarorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratish zarur.

**3 – Jadval**

**O‘zbekistonda turizm sohasining 2011 - 2020 yillardagi rivojlanish dinamikasi**

| **Ko‘rsatkichlar** | **O‘lchov birligi** | **2011** | **2015** | **2016** | **2017** | **2018** | **2019** | **2020 (reja)** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Turistik xizmatlar eksporti** | mlrd. doll. SShA | 0,342 | 1,187 | 1,336 | 1,510 | 1,722 | 1,980 | 2,316 |
| **Turizm tarmog‘iga investitsiya kiritish** | mlrd.sum | 20,5 | 46,3 | 46,4 | 48,2 | 51,6 | 56,8 | 65,3 |
| **Mexmonxona va shu tarzidagi binolar** | ed. | 500 | 661 | 750 | 825 | 880 | 943 | 1018 |
| **Tur operatorlar soni** | ed. | 332 | 398 | 433 | 471 | 511 | 553 | 596 |

Manba: UNWTO va O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi materiallari

Bizning tadqiqotlarimiz Kobb-Duglas funksiyasidan foydalanib, AKT investitsiyalari, ish kuchi, mehmonxonalar joylari va O‘zbekistondagi turizm mahsuloti o‘rtasidagi bog‘liqlikni tekshirish va ularning koyeffitsiyentlarini aniqlash uchun foydalanmoqda. Ular turizmga AKT investitsiyalarini samarali boshqarish uchun tarmoq asoslarini yaratishga yordam beradi. Boshqa tomondan, jamiyat ma’lum miqdordagi mahsulot ishlab chiqarishga intilganda, tadqiqotlar o‘zgaruvchan omillar qancha imkoniyat yaratishi mumkinligi haqida tavsiyalar beradi.

**4 – Jadval**

**Chiziqli logarifmik modellar**

| O‘zgaruvchilar | Bir omilli, o‘zgaruvchi - YaIM (1) | Bir omilli, o‘zgaruvchi - Ivestitsiyalar (2) | Bir omilli,o‘zgaruvchi - Ishchi kuchi (3) | Bir omilli, o‘zgaruvchi - Mexmon xonalar (4) | Ikki omilli regressiya (5) | Uch omilli regressiya (6) |
|---|---|---|---|---|---|---|

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Ln GDP | 2.844*** | | | | | |
| | 0.75 | | | | | |
| Ln Investment (K) | | 1.563*** | | | 0,7937*** | 1,642** |
| | | 0.146 | | | 0,1387 | 0,5886 |
| Ln Labor (L) | | | 2.183*** | | 0,1128* | 0,783*** |
| | | | 0.527 | | 0,0386 | 0.0,900 |
| Ln Hotel places (H) | | | | 2.022*** | | -0,725 |
| | | | | 0.255 | | 0,187 |
| Constant | -23,953** | 1.226 | -6.151** | -6.358** | 0,7062** | 0,953 |
| | 8,24 | 0.548 | 2.190 | 1.693 | 0,2573 | 0,323 |
| R-squared | 0.638 | 0.834 | 0.681 | 0.887 | 0.939 | 0.936 |

**** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1*

Manba: Muallifning Eviews -9 dasturi asosida ishlanmalari

Modellarning adekvatligi, koeffitsiyentlar barcha statistik testlar orqali tekshirildi va aloqalar tasdiqlandi. Tadqiqotning umumiy natijalari tanlangan ko‘rsatkichlarning har biri regressiya tahlilining barcha talablariga javob berishini ko‘rsatdi. Eng kichik kvadratlar usullarini qo‘llash uchun logarifmik chiziqli regressiya modellaridan foydalandik. Regressiya natijalari yuqoridagi jadvalda aks ettirilgan.

Boshqa omillar o‘zgarmagan holda aytish mumkinki, mamlakatimizning yalpi mahsuloti bir foizga ortganda turizmning mahsuloti 2,844 foizga ortadi.

Ko‘p omilli regressiyaga binoan soha yalpi mahsulotining kapitalga nisbatan elastiklik koeffitsiyenti 0,794, ishchi kuchiga nisbatan 0,113 tashkil etdi. Omillarning elastiklik koeffitsiyentlari asosida turizm tarmog‘i rivojlanishiga internet va AKT ta’siri va ulushini topdik. Unda jahonda keng qo‘llaniladigan “Solou qoldig‘i” tamoyilini qo‘lladik.

**5 - Jadval**

**O‘zbekiston turizm sohasining rivojlanishiga AKT ning hissasi dinamikasi**

| Indikatorlar | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 (reja) |
|---|---|---|---|---|
| AKT ning o‘sishdagi o‘rni, % | 6.98 | 77.6 | 11.83 | 7.88 |
| AKT ulushi, % | 56.3 | 85.8 | 45.3 | 30.2 |
| Real turizm mahsulotining o‘sishi, % | 12.4 | 90.4 | 26.1 | 26.1 |

Manba: Muallifning Eviews -9 dasturi asosida ishlanmalari

Tadqiqot natijalariga binoan turizm tarmog‘ining yuksalishida AKT ulushi 30 - 45 foizni tashkil etdi. AKTdan foydalanuvchilariga bilim va ma’lumotlarga kirish, yangi ma’lumotlarni to‘plash imkoniyatini beradi.

Tarmoqda AKT ni qo‘llash natijasida korxonalarning transaksion xarajatlari pasayadi, innovatsiyalar tezlashadi, firmalarning raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorlik ortadi, bo‘lg‘uvsi sayyohlar mamlakatimiz turizm imkoniyatlari haqida axborotga ega bo‘lishadi.

Pandemiya va global inqiroi mamlakatimiz turizm tarmog‘i rivojiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Inqiroz davom etayotgan davrida milliy iqtisodiyotning birinchi galdagi vazifalari bozor ishonchini tiklash, nobozor sektorini, birinchi navbatda renta munosabatlari ta’sir hududini qisqartirish, va raqobatchilikni rivojlantirishdan iborat. Shuningdek korxonalarning raqobatbardoshligi va ularning iqtisodiy xolatiga koronovirus pandemiyasining ta’sirini yumshatish maqsadida ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, mahsulot tannarxini arzonlashtirish, transaksion sarflarni tejash chora - tadbirlari tavsiya etilgan. Ular turizm tarmog‘iga ham bevosita tegishlidir. Moliyaviy nochor korxonalarga imtiyozli kredit berish, bankdan olgan kreditlarini so‘ndirishga imtiyoz yaratish, mahsulotlarning energiya va boshqa xom ashyo sig‘imini pasaytirishni rag‘batlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarini lokalizatsiya dasturlariga kiritish, ularning mahsulotiga bo‘lgan ichki talabni oshirish tadbirlari belgilangan. Ishlab chiqarishni yangi maxsulotlar va faoliyatlar bilan kengaytirish hisobiga diversifikatsiyalashni amalga oshirish, mahsulotlar va xizmatlar assortimenti va sifatini

oshirish, ulardagi qo‘shimcha qiymat sig‘imini oshirish, sotish kanallari va bozorlarini kengaytirish, bandlikni, o‘z – o‘zining bandligini ta’minlash chora –tadbirlari keng joriy etilmoqda.

## Xulosa

Joriy yil mamlakatimizda **“ Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyot yili”** deb e’lon qilinib davlat dasturi qabul qilindi. Raqamli iqtisodiyot har bir sohada Internet va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashni taqozo etadi**.** Ularni sohada qo‘llash iqtisodiy yuksalishning qisqa yo‘lidir. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar tufayli ko‘plab firmalar tashkil yetildi va AKT asosida zamonaviy boshqaruv tizimlari joriy etildi. Xozirgi kunda AKTning YaIMdagi ulushi 1,9% ni tashkil etadi va 2030-yilga borib uni 10 foizga oshirish rejalashtirilmoqda. Ammo turizmga yo‘naltirilgan investitsiyalardan daromad pastligicha qolmoqda. Ma’lumki, O‘zbekiston turizmiga yo‘naltirilgan sarmoyalar ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishga, firmalarning ma’muriy boshqaruvini yaxshilashga va odamlarning turmush sharoitlarini yaxshilashga olib keladi. AKTdan keng foydalanish zamonaviylashtirishning asosiy omiliga aylanmoqda.Ushbu ta’sir "Solou qoldig‘i" sifatida aniqlangan. Tadqiqot davomida ishlab chiqarish, ishchi kuchi va AKT investitsiyalari o‘rtasida ijobiy aloqa kuzatildi, sektor mahsuloti va mehmonxonalar o‘sishi sur’atlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik salbiy bo‘ldi. Kobb- Duglas funksiyasi kabi ishlab chiqarish funksiyalari oqilona hajm va samarani aniqlash uchun turizm mahsuloti va xarajatlar, marjinal daromad va marjinal xarajatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga imkon beradi. O‘zbekiston Respublikasida turistik firmalarning boshqaruv jarayonlarida AKT va uning yangi avlodidan foydalanishni kengaytirish, tarmoqni ularga tayangan holda modernizatsiyalash, innovatsiyalarni joriy etish mamlakatimiz biznes subyektlarning raqobatbardoshligini oshiradi. Bu amaliy ishlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini 2017 -2021 yillarda yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmonining ijrosini ta’minlashga olib keladi.

## Adabiyotlar


1. World Economic Forum.,2013. The Global Information Technology Report 2013, Digitization for Economic Growth and Job Creation. Available from: http://www3.weforum.org/docs/ WEF_GITR_Report_2013.pdf [accessed on 10 July 2018].
2. World Bank., 2002. Information and Communication Technologies: A World Bank Group Strategy. Available from: http://documents.worldbank.org/curated/en/421471468325303463/ Information-and-communication-technologies-a-World-Bank-Group-strategy [Accessed 11 February 2020].
3. Yousefi, A., 2011. The Impact of Information and Communication Technology on Economic Growth: Evidence from Developed and Developing Countries. Available from: https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/10438599.2010.544470 [Accessed 18 February 2020].
4. Haftu, G.G., 2018. Information communications technology and economic growth in Sub-Saharan Africa: A panel data approach. Available from: https://www.sciencedirect.com/science /article/abs /pii/S0308596117303737?via%3
5. Farhadi, M.; Ismail, R.; Fooladi, M., 2012. Information and communication technology use and economic growth. Available from: https://journals.plos.org/plosone/article?id=10.1371/journal. pone.0048903 [Accessed 18 February 2020].
6. Dimelis, S.P.; Papaioannou, S.K., 2010. FDI and ICT effects on productivity growth: A comparative analysis of developing and developed countries. Available from: https://link.springer.com/article/10.1057%2Fejdr.2009.45 [Accessed 12 January 2020].
7. [Accessed 28 February 2020].
8. Choi, C.; Yi, M.H., 2009. The effect of the Internet on economic growth: Evidence from cross-country. Available from: https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/ S0165176509001773?via%3 [Accessed 19 January 2020].
9. Uzbektelcom 2011, *Development of Telecommunication Networks During Independence years of the Republic of Uzbekistan*, viewed 10 May 2011, http://archive.uztelecom.uz/en/content.scm?contentId=7751.
10. Turayev B.X. Viyezdnoy turizm Uzbekistana: realii i perspektivы // Voprosi ekonomicheskix nauk. M.: 2008. №2. 89-92 str.
11. Turayev B.X. Osnovniye komponenti i napravleniya razvitiya turisticheskix uslug v regionax Uzbekistana // Ekonomika i finansi. – M.: 2008. №9.
12. Gujaraty D. Econometrics, Fourth edition. Addison – Wesley. 2011.

**UDK: 407:43**

# CHET TILINI O‘QITISHDA INTERAKTIV METODLARNING AHAMIYATI

**L.M.Sharipova**
*Samarqand davlat universiteti*
*laylo3356914@mail.ru*

**Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy texnologiya asosida, chet tilini, xususan, nemis tilini talabalarga o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish dars samaradorligini ta’minlovchi vositalardan biri ekanligi xususida fikr bildirilgan. Nemis tilini o'qitishda mazkur metodlar an`anaviy dars o‘tishga nisbatan ancha samarali hisoblanishi hamda uning hozirgi integratsion jarayonlar tezlashgan bir paytda ta`lim jarayoniga tatbiq etishda qo‘l kelishi tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** zamonaviy texnologiya, interaktiv metodlar, dars samaradorligi, interaktiv usullar, til o'yinlari, kommunikativ o'yinlar.

## Важность интерактивных методов в обучении иностранному языку

**Аннатация.** В статье утверждается, что использование интерактивных методов в обучении иностранному языку, особенно немецкому, является одним из инструментов, обеспечивающих эффективность описываемого урока. В частности, было отмечено, что этот метод более эффективен при обучении немецкому языку, чем традиционное обучение, и его можно использовать в учебном процессе в то время, когда текущие интеграционные процессы ускоряются.

**Ключевые слова:** Интерактивные методы, эффективность урока, интерактивное обучение, интерактивные методы, интерактивный урок, языковые игры, коммуникативные игры.

## The importance of interactive methods in teaching a foreign language

**Abstract.** The article argues that the use of interactive methods in teaching a foreign language, especially German, is one of the tools to ensure the effectiveness of the lesson. described. In particular, it was noted that this method is more effective in teaching German than traditional teaching, and it can be used in the educational process at a time when the current integration processes are accelerating.

**Keywords:** Interactive methods, lesson effectiveness, interactive learning, interactive methods, interactive lesson, language games, communicative games.

Hozirgi paytda integratsiya jarayonlari tezlashgan bir paytda jamiyatning barcha sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy vositalari kirib bormoqdaki, ularsiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur qilish murakkab bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonida q`ollanishining samaradorligi va sifatini oshirish, yangicha yondashuvlarga asoslangan ta'lim tizimini shakllantirish, uning maqsad va mazmunini oshirish hamda ularni ta`limning barcha bo‘g‘inlarida joriy etishda muhim rol o'ynashi namoyon bo‘lmoqda.

Texnologiya terminiga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da shunday ta`rif berilgan: Texnologiya [yun.techne –mahorat, san`at+ logos- ta`limot] 1. Ishlab chiqarishning biror sohasida xomashyo, material, yarim fabrikat va sh.k. larga ishlov berish yoki qayta ishlash, ularnig holati, xossalari va shaklini o‘zgartiruvchda qollanadigan usullar(metodlar) majmui[ 1., 81].

Pedagogik texnologiya tushunchasiga berilgan ta`riflar esa turlchadir:

- Pedagogik texnologiya –bu, o‘qituvchi amaliyotga joriy etish mumkin bo‘lgan pedagogik tizim loyihasidir(V.P. Bespalko).
- Pedagogik texnologiya, pedagogik maqsadlarning ro‘yobga chiqishi uchun foydalaniladigan shaxsiy, uskunaviy vositalarning tizimi majmuasini va faoliyat ko‘rsatish tartibini bildiradi (V. M. Klarkin).
- Pedagogik texnologiya –ta`limda rejalashtirilgan maqsadlarga erishish jarayonining tavsifidir (I.P. Volkov) [ 2., 8].

Pedagogik texnologiya – bu, o‘qituvchining ta`lim-tarbiya vositalari yordamida o‘quvchilarga muyayan sharoitda va ma`lum ketma-ketlikda ta`sir ko‘rsatishi va aks ta`sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini jadal shakllantirish jarayonidir[ 3., 15].

G.K. Selevko pedagogik texnologiyalarni tasnif qilib, ularning yuzga yaqin quyidagi xususiyatlarini belgilaydi:

-ijtimoiy shaxslarni tarbiyalshtirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar;
-o‘quvchilarning ishchanligini faollashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar;
-o‘quv faoliyati natijalarini amalda qo‘llashni faollashtituvchi pedagogik texnologiyalar;

-xususiy predmetlarga mo‘ljallangan pedagogik texnologiyalar;

-muqobil texnologiyalar;

-o‘quv texnologiyalarini rivojlantirish;

-yangi axborotlarning qo‘lanish tadbirlarini amalga oshiruvchi texnologiyalar;

-ijtimoiy tarbiya texnologiyalari;

-tarbiya texnologiyalari;

-ta`lim tizimidagi pedagogik texnologiyalar va hakazolar [4.,234].

Demak, pedagogik texnologiya o‘quv va tarbiyaviy faoliyatlarini belgilovchi metod va usullarning maxsus jamlanmasi hamda o‘qitishning rejalashtirilgan natijalarini tasvirlovchi maxsus jarayon hisoblanadi.

Pedagogik texnologia –o‘qitish jarayoni samaradorligini oshiruvchi hamda uning qo‘llanishini va optimillashuvini tashkil qiluvchi metodlar tizimidir.

Ushbulardan kelib chiqib, uning asosiy masalasi o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish orqali ta`lim oldiga qo‘yilgan maqsadga to‘laqonli ravishda erishishdan iborat ekanligini alohida ta`kidlash lozim bo‘ladi.

Keyingi paytlarda mamlakatimizda chet ellar bilan aloqalar yanada kuchayganligi bois chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va talab kun sayin ortib bormoqda. Bu esa til o‘rgatish jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etishni taqoza etmoqda.Bu esa o‘qituvchi zimmasiga nafaqat o‘quvchiga bo‘lgan munosobati, balki zamonaviy dars o‘tish texnologiyalaridan yaxshi xabardor bo‘lgan holda darslarni tashkil etishdek muhim vazifa yuklatilganligidan dalolat beradi.

Chettillarinio'qitishda, xususan, nemis tilini o‘qitishda avvalo, talaba ona tilisida muloqot qilish imkoniga ega bo‘lmaydi. Shuning uchun bu paytda til muhiti yuzaga keltirishga to‘g‘ri keladi. Bunda o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari, ya`ni o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan iborat zamonaviy ta'lim usullaridan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Chet tillarni interaktiv o'rganish orqali yaxshi natijalarni qo‘lga kiritish mumkin. Xususan, nemis tilini o'qitishning interaktiv usullari qolipga solingan an`anaviy darslarga qaraganda ancha samarali hisoblanadi. Interaktiv dars davomida o'qituvchi va talabalar teng sharoitda, bir xil darajada faoliyat ko‘rsatishi lozim bo‘ladi. Bunda nemis tilini o'rganishdatalabaning qulay va erkin his etadigan muhitni yaratish, talabaning manfaatlarini rag'batlantirish, uzoq masofada ham aloqada bo'lishga bo‘lgan ehtiyojini rivojlantirishga to‘g‘ri keladi.

Bugungi kunda ushbu ta'lim usuli hamma joyda keng qo'llaniladi: maktablarda, universitetlarda, kurslarda va treninglarda va ta`limning boshqa shakllarida keng istifoda etilmoqda. Chunki bu usul nafaqat bilim olish nuqtai nazaridan, balki shaxsiy ko'nikmalarni shakllantirish, til o‘rganuvchilarning xarakterini rivojlantirish nuqtai nazaridan ham juda samarali hisoblanadi. Interaktiv [ingl.Interactive]-q. interfaol. Interfaol Informatsiyani, axborotlarni kompyuter tarmog‘i orqali qabul qilish va uzatishga asoslangan. O‘qituvchi har qanday sharoitda muammoli, interfaol usulda dars o‘tishga tayyor bo‘lishi kerak. Gazetadan [5., 218]. Interaktiv ta'lim usullarini deyarli barcha ta'lim turlari uchun qo'llash mumkin: guruhlarda, internetda, telefon orqali so‘zlashish hamda shaxsiy uchrashuvlar va boshqa xildagi muloqotlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Chet tillarni interaktiv o'rganish orqali ajoyib natijalarni olish mumkin. Xususan, nemis tilini o'qitishning interaktiv usullari an`anaviy darslarga qaraganda, ancha samaralidir. Interaktiv dars davomida talabaningo'rganish uchun zarur bo‘lgan bilim hamda malaka va ko‘nikmalarning shaklllanishiga hamda tegishli mavzuni o‘zlashtirishi nuqtai nazaridan ko‘zlangan natijaga, muvaffaqiyatga erishishida o‘qituvchi zimmasiga quyidagilar yuklatiladi:

-talaba temperamentiga to'liq ta'sir ko'rsatish, uni his-tuyg'ularni fahmlaish usuliga jalb qilish;

-uning haqiqiy istaklarini hisobga olish, nutq, bilim va ixtiro qobiliyatlarini rag'batlantirish;

- talabani mashg‘ulot davomida turli ishtirokchilar bilan faol muloqot qilish orqali tilni o'rganish doirasida eng faol shaxsga aylantirish;

-o'rganilayotgan tilda amaliy muloqot qobiliyatlarini shakllantirishgan holda muloqotga kirishishga hamda suhbatdoshning replikatsiyasiga javob berishga o'rgatib borish.

Bunday tipdagi darslarda o'qituvchi nafaqat yetakchi, balkitalabaning tilni o‘rganishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda ko‘maklashadigan, hamda talaba yo‘l qo‘ygan xatolarni tuzatuvchi va nazorat qiluvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda, xususan, nemis tilini o'qitish jarayonida interaktiv usullardan foydalanish orqali ta`lim jarayonini sezilarli darajada tezlashtirish mumkin.Tajriba va kuzatishlardan ma`lum bo‘lishicha, talabaning tilni uzoq o'rganish o'qituvchining bergan strategiyasi va vositalari bilan emas, balki uning xulq-atvori va manfaatlari bilan ham bog'liqdir. Interaktiv tilni o'rganish usullari talabalarga nafaqat ma'lumot almashish, balki o'rganilayotgan tilda amaliy muloqot qilish ko'nikmalarini olish, fikrlarini shakllantirishga, savollarga tezda javob berishga va suhbatdoshning replikatsiyasiga javob berishga yordam beradi. Bunday darslarda o'qituvchi nafaqat yetakchi, balki

talabalarga o‘rganayotgan tilni o‘rganishning tezkor usullarini ko‘rsatadigan, yo‘l qo‘ygan xatolarni tuzatuvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu talabaning nemis tilini o'rganishining interaktiv usullari jarayonni sezilarli darajada tezlashtiradi.

Ko'pgina tadqiqotlar EFL auditoriyalarida turli xil o‘yin darslaridan foydalanish samarali usullaridan biri ekanligini ko'rsatdi. O'yinlar o'zaro muloqot, fikrlash, o'rganish va muammolarni hal qilish usullarini qo'llab-quvvatlovchi qiziqarli tadbirlar sifatida qaraladi. O'yinlar odatda o'yinchilarga qisqa vaqt ichida ma'lumotlarni taqdim etishga imkon beruvchi xususiyatga ega. Ba'zi o'yinlar jismoniy faoliyat yoki aqliy vazifani bajarish vaqtida talabalarning o'zaro ta'sirini talab qiladi. Til o‘rganishni o'yinlar orqali tashkil qilishtalabalarga ta'lim olish uchun harakat qilish va qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. O'yinlar turli ko'nikmalar - nutq, yozish, tinglash va o'qishning til amaliyotini ta'minlaydi. Ular talabalarni o'zaro muloqot qilish va muloqot qilishga undashadi. Ular tilni kerakli o‘rinlarda ishlatish uchun mazmunli matnni yaratadilar.

Til o‘rgatish jarayonida interaktiv metodlardanyanabiri vaziyat mashqidir. Talabalar darsda bir oz jajji tadqiqot o'tkazadilar. Misol uchun, har bir talaba bir vazifani oladi – bir guruh o'rganish (qancha vaqtini televizor tamosha qilish, sevimli dasturlari, va hokazo nima), boshqa talabalar bilan suhbat natijalarini tahlil qilish, xulosa chiqarish va maslahat berish yoki tajriba almashish uchun vaziyatni–baholay olish. Talabalarga ma'lum bir harakatning ta'rifi taklif etiladi. Talabalarning vazifasi: vaziyatning ma'nosini va harakatlarining to'g'riligini baholash.

Talabalar vaziyatni tahlil qiladilar, harakatlarning to'g'riligini baholaydilar va o'z variantlarini taklif qilishadi. Davom etishi mumkin: 1. Til o'yinlari (fonetik, leksik, yozma, leksik va grammatik). 2. Kommunikativ o'yinlar (rol o'ynash, simulyatsiya, ijodiy o'yinlar). "o'yinlar" terminini bir vaqtning o'zida rol o'ynash va aktyorlik mahoratini tushunadilar. Tana harakati bilan bog'liq barcha narsalar bir vaqtning o'zida "o'yin"deb ataladi. Kommunikativ o'yinlar quyidagi muammolarni hal qilishga imkon beradi:

-olimlarning muloqot qilish uchun psixologik tayyorgarligini yaratish;

-til va nutq materiallarining takroriy takrorlanishiga tabiiy ehtiyojni ta'minlash;

-talabalar uchun spontan nutq uchun tayyorgarlik bo'lgan nutqning amaldagi variantlarini tanlash.

O'yinlar tilni adolatli egallashiga va shuning uchun boshqalar bilan suhbatlashish qobiliyatini shakllantiradi. O'yinlar tillarning har birida tegishli kontentni namoyish qilish vositasi sifatida ishlatiladi, bu esa o'rganish uchun qo'shimcha o'yin-kulgilarni yaratadi. O'yin kabi harakatlar qoidalar bilan cheklangan bo'lsa-da, ba'zi "qiziqarli" maqsadlarga erishish orqali yoqimli keskinlik va qiyinchiliklarni taklif qiladi.

Atrof-muhit ularning motivatsiyasi, ichki faoliyatning shaxsiy potentsialini yaratadi va mazmunli qobiliyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Bu paytda darsni talabalarning til o‘rganishini rol o'ynash orqali ham tashkil qilish mumkin. Bunday paytda ijodiy fikrlash, yoqimsiz vaziyatlardan chiqish, qobiliyatlilik va o'zini o'zi boshqarish kabi ko'nikmalar shakllanadi va yaxlitlanadi. Rol o'ynash o'yinlari odatda suhbat yoki matn bilan birga keladi. Shu tarzda qo'llaniladigan rol o'ynash o'yinlari talabalarga qo'shimcha ixtirochilik yondashuvida zarur bo'lgan tilni ishlatish imkonini beradi. Rol o'ynash o'yinlari quyidagi tamoyillarga muvofiq tashkil etiladi:

1) yaqinlik (talabalarning bilimiga yoki atrof-muhitga juda bog'liq);

2) vaziyat (vaziyat kundalik yoki odatiy bo'ladi);

3) realizm (vaziyat haqiqiy yoki xayoliy bo'ladi);

4) temperament (rol o'ynash o'yinining belgilarida ishtirokchilarni o'zlari tekshiradi yoki ular uchun begona bo'ladi).

Rol o'ynash o'yinlari nazorat qilinadi (ishtirokchilar o'zlari foydalanadigan til uchun mas'uldirlar), yarim nazorat ostida (ishtirokchilar belgilangan tilni qisman ishlatishlari kerak), bepul (ishtirokchilar belgilangan til uchun emas, balki xabar uchun mas'uldirlar), kichik (bir dars yoki undan kam davom etadi) va ulkan (butun dars yoki ehtimol butun semestr uchun) va hk. Rol o'ynash o'yinining bosqichlari:

1. Rol o'ynashni tashkil qilish uchun ishtirokchilarni tanlash.
2. Aloqa o'rnatish.
3. Rollarni taqsimlash.
4. Til buyumlarini yoki nutq qoliplarini tanlash.
5. O‘yin maydonini ishlab chiqish.
6. Rol bajarish o'yinini o'ynash va boshqalar.

Dars jarayonoda interaktiv doska va multimedial doskalardan foydalanish ham talabalarning fanni o‘zlashtirishida keng imkoniyatlar beradi. Interaktiv doskadan quyidagi o‘rinlarda foydalanish mumkin:

- turli o‘quv matnlari, rangli tasvirlar va rasmlar bilan ishlash;
- matn bilan ishlashda muhim o‘rinlarni belgilashda rangli belgilardan foydalanish orqali

talabalar diqqatini jamlash;
- mavjud ta`lim resurslaridan, elektron ensiklopediya, lug‘at, o‘quv materiallaridan jamoaviy foydalanish;
- guruhlar uchun o‘quv topshiriqlarini yaratish va taqdim etish;
- talabalarning taqdimotini namoyish etish.

Xullas, interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan darslar talabalarni fan yuzasidan olgan bilimlarni yaxlit holda o‘zlashtirishga yordam beradi. Talaba tafakkurini o‘stiradi, har qanday sharoitda mustaqil hamda keng ijodiy fikrlashga o‘rgatadi. Zero, bo‘lajak kadrlarni har tomonlama yetuk bo‘lib yetishishlari jamiyat taraqqiyoti va uning fuqarolarining ma`naviy kamolotining muhim belgisidir. Chet tillarini, xususan, nemis tilinitalabalarga o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish dars samaradorligini ta`minlovchi vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu metodlar hozirgi integratsion jarayonlar tezlashgan bir paytda ta`lim jarayoniga tatbiq etishda qo‘l kelishi va yaxshi samara berishi, tabiiydir.

## Adabiyotlar

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Тўртинчи жилд. –Тошкент: O‘zbekiston, 2020. – 680 б.
2. Таълимий педагогик технологиялар. – Самарқанд, 2013. – 190 б.
3. Сайидаҳмедов Н.С. Янги педагогик технологиялар. – Тошкент, 2004. –188 б.
4. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: учебное пособие. – Москва: Народное образование, 1988. –288 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Иккинчи жилд. – Тошкент: O‘zbekiston, 2020. – 608 б.

**UDK: 746:37**

# OLIY O‘QUV YURTLARI TASVIRIY SAN’AT MASHG‘ULOTLARIDA ETYUDLAR ISHLASHNI O‘RGATISH METODIKASI

**Sh.B. Oydinov**
*Samarqand davlat universiteti*
*sh.oydinov1972@mail.ru*

**Annotatsiya.** Taqdim etilayotgan ilmiy maqolada bo‘lajak rassom o‘qituvchilarni rangtasvir san’atini mukammal egallashlarida etyudlar ishlashdan o‘rinli foydalanishning ayrim samarali usullari yoritilgan. Shuningdek rangtasvirda rasm ishlashni o‘rganishda yuzaga keladigan ba’zi muammolarni bartaraf etishning dastlabki bosqichlari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Oddiy qalam, mo‘yqalam, qog‘oz, bo‘yoqlar, oddiy naturalar, natyurmort, manzara, etyud, homaki rasmlar, kompozitsiya, rangtasvir san’ati, mahorat, tasvirlash usullari.

## Методика обучения работе с этюдами на занятиях изобразительного искусства в высших учебных заведениях

**Аннотация.** В статье освещены некоторые эффективные способы разумного использования этюдных работ при овладении будущим художником-педагогом живописью в совершенстве. Также освещены начальные этапы устранения некоторых проблем, возникающих при обучении живописи.

**Ключевые слова.** простой карандаш, кисть, бумага, краски, простые натюрморты, натюрморт, пейзаж, этюд, необработанные картины, композиция, колористика, мастерство, способы изображения.

## Methods of teaching to work with sketches in fine arts lessons in higher educational institutions

**Abstract.** The presented scientific article describes some effective ways of rational use of sketches in the perfect mastering the art of painting by future artists-teachers. It also covers the early stages of overcoming some of the problems that arise when learning to work with painting.

**Keywords:** Lead pencil, paint-brush, paper, paints, ordinary still-life, still-life painting, landscape painting, sketch, unpolished paintings, design, the art of painting, mastery, method of presentation.

Ajdodlarimiz tarixining eng qadimgi davrlarida ham tasviriy san’atning rivojlanib kelgani bizga ma’lum. O‘tmish tariximizni qanchalik chuqur va yaqindan o‘rgansak uning yuqori darajada rivojlangan sohalari qatorida tasviriy san’atning ham o‘z o‘rni borligiga amin bo‘lamiz. Rassomlar tamonidan

yaratilgan san’at asarlarini ko‘rganimizda, ijodkorning peshona teri, qalb qo‘ri, mehrining tafti bilan yaratilgan serjilo asarlaridan ta’sirlanamiz. Tasvirlash sirlarini qanday o‘zlashtirgani bilan qiziqamiz. Yuksak mahorat bilan ishlangan tasviriy san’at asarlarini, vaqtlar o‘tishi bilan madaniy meros sifatida qadri oshib boradi. O‘tgan vaqtlarni tarixga aylantirib kishilarni ana shu tarix bilan tanishtiradigan vositalardan biriga aylanadi. Shu bilan birgalikda tarbiyaviy vosita sifatida yanada qadrlanadi. Tasviriy san’at asarlarini tushunishning bir oz osonligi shundaki rassom, o‘z fikri va mulohazalarni tahlil qilib umumlashtirib bo‘lgan, voqeliklarni tomoshabin hukmiga havola qiladi.

Xozirgi davrimizda tasviriy san’atning rivojlanishiga mamlakatimizda yanada yuqori darajada e’tibor qaratilmoqda. Yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2019-yilning 19-mart kuni ilgari surgan 5 ta muhim tashabbusi hamda 2020-yil 1-apreldagi “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4688-sonli qarori bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Shu sababli Vatanimizning bugungi kundagi iqtidorli yoshlari yanada kuch va g‘ayrat bilan san’at sirlarini puxta egallashga intilmoqdalar. Vatanimizning turli hududlaridagi yoshlar orasida ham tasviriy san’atga qiziqishi yuqori bo‘lgan, tasviriy san’atni jon dilidan sevuvchi, ulkan maqsadlar bilan harakat qiladigan yoshlar talaygina. Shuni hisobga olib rangtasvir san’ati sir asrorlarini ham yoshlarga jahon talablariga mos ravishda o‘rgatishni davrning o‘zi taqazo etmoqda.

Oliy o‘quv yurtlari tasviriy san’at mashg‘ulotlarida rangtasvirni o‘rgatishda etyudlar ishlashning o‘ziga xos ahamiyati bor. Etyud – rassomlar tamonidan rangtasvir asarlarini yaratish uchun bevosita naturadan yoki hayotdagi voqealar asosida ishlanadigan kichik lavha. Etyudlar chizishdan rangtasvirni o‘rganish maqsadida keng foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. N. Oydinov o‘zining “O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavhalar” o‘quv qo‘llamasida shunday fikrlarni bayon etadi. ...“Rangtasvir - asosan bo‘yoqlar vositasida matoga, devorga shuningdek, tekislik va yuzalarga ishlanadigan san’at turidir. Tasvirlarning mazmunini, xarakteri va shunga o‘xshash barcha xususiyatlari bo‘yoqlar orqali ifodalab berilsa rangtasvir san’ati deb ataladi”... [1]. Rangtasvir - haqiqiy hayotni aks ettirib, tomoshabinning fikri va hissiyotlariga ta’sir o‘tkazuvchi tasviriy san’at turlaridan biridir. Rangtasvir asarlari mazmunini ochib berishda ranglar muhim rol o‘ynaydi. Ranglarni to‘g‘ri tanlay bilib, har bir rangni topib o‘z o‘rnida maromiga yetkazib rangtasvir ishlash oson ish emas.

Avvalo tasvirlash sirlarini yoshlik, bolalik chog‘laridan egallashga kirishgan ma’qul. Shuningdek tasvirlash vositalaridan to‘g‘ri foydalanishni ham o‘z vaqtida o‘rganib borish kerak. Buning uchun quyidagilarga e’tibor berish lozim. Qog‘oz yetarli darajada sifatli va oq rangda bo‘lishi kerak. Xomaki rasmlar ishlaganda esa oddiy yupqa yoki qalin rangli yoki rangsiz qog‘ozlardan ham foydalanish mumkin. Lekin uzoq muddatli qalamtasvirlar ishlaganda qog‘ozlarning ancha pishiqrog‘i ya’ni chiziqlarni o‘chirganda uvalanmaydigan iflos bo‘lmaydiganini tanlash kerak.

Akvarelda rangtasvir ishlashda qog‘ozning yuzasi g‘adir-budur bo‘lsa yanada yaxshi. Qalam. Rasm bilan chizishda ko‘pincha turli qattiqlikdagi va yumshoqlikdagi oddiy qalamlardan foydalaniladi. Etyud va rangtasvirlar ishlashda imkon qadar qalamni qattiq bosmasdan chizish tavsiya etiladi. Rasm chizishda yumshoq sifatli o‘chirg‘ichlardan foydalangan ma’qul. U qog‘oz yuzasidagi qalam izlarini shikast yetkazmasdan o‘chiradi. Keraksiz chiziqlarni o‘chirishda o‘chirig‘ichni qattiq bosmaslikka, iloji boricha o‘chirg‘ichdan kamroq foydalanishga odatlanish lozim. Mo‘yqalam esa oddiy qalam bilan rangtasvir ishlashga mo‘ljallangan tasvirlarni bo‘yash uchun kerak. Akvarel bo‘yog‘ida tasvirlar ishlaganda mayin mo‘ynali mo‘yqalamlardan foydalaniladi. Ular olmaxon, quyon kabi hayvonlarning mo‘ynalaridan tayyorlanadi. Guash, tempera, moy bo‘yoqlarda ham o‘ziga xos mo‘yqalamlardan foydalaniladi.

Akvarel bo‘yog‘i nafisligi va rangining shaffofligi, yorqinligi, tasvirlardagi uyg‘un ko‘rinishi bilan boshqa bo‘yoqlardan farq qiladi. Akvarel bo‘yog‘ini qog‘ozga birinchi qo‘yilgan bo‘yoq qatlami quriganidan so‘ng, ikkinchi boshqa bo‘yoqni qo‘yish mumkin. Keyingi bosqichlarda ham shu kabi tasvirlash jarayoni davom etadi. Qog‘oz yuzasidagi tasvirga rang berish uchun mo‘yqalamda bo‘yoq bilan birgalikda yetarlicha suv bo‘lishi kerak. Aks holda mo‘yqalamni ishqalanishi natijasida qog‘ozning yuzasini shikastlanishiga va akvarel texnologiyasini buzilishiga olib keladi. Akvarelni suv bo‘yoq deb ham ataladi. Akvarelda ishlash usuli haqida fikr yuritib Orif Muinov “Rangtasvir” o‘quv qo‘llanmasida shunday yozadi. ...“Suv bo‘yoqda yana bir ishlash usuli bu “ho‘l” holatdir. Bu usulda ranglar bir-biriga qo‘shilib, kutilmagan ajoyib ranglar paydo bo‘ladi. Bu usulda ishlash uchun avvalo qog‘oz ho‘llaniladi, va uning tez qurib qolmasligi uchun tagiga ho‘l karton qo‘yiladi” ... [2]. Akvarel bo‘yog‘ining xususiyatlaridan biri shuki, qo‘yilgan bir rangning ustidan boshqa bo‘yoq surtilganda avvalgi rang ma’lum darajada ko‘rinib turadi va qo‘shilish natijasida yangi o‘zgacha rang hosil bo‘ladi. Akvarelda etyud ishlash uchun katta imkoniyatlar mavjud bo‘lib har-xil surtmalaridan keng foydalanish mumkin. Guash, tempera, moy

bo‘yoqlarida etyudlar ishlaganda ham bo‘yoqlar va mo‘yqalamlarning xususiyatini yaxshilab o‘rganib olish talab etiladi.

Tasvirlashni o‘rganishda kerak bo‘ladigan tamonlardan biri bu tasvirlashning asosiy qonun - qoidalaridir. Bularga quyidagilar kiradi. Perspektiva qonuni, surat tekisligi, buyum tekisligi, ko‘rish maydoni va ko‘rish burchagi, ufq chizig‘i, fazoviy perspektiva, chiziqli konstruktiv tuzilish, buyumlarning nisbati, hajmi kabilardir. Bu qoidalar tasviriy san’atga oid kitoblarda keng yoritilgan bo‘lib, ustozlar har bir amaliy mashg‘ulot darslarida bu borada takidlab o‘tadilar.

Amaliy jihatdan qalamtasvirda ishlash bilim, ko‘nikma va malakalarini egallash rangtasvirda yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi. Chunki barcha rassomlar tasviriy san’atning qaysi tur va janrida ijod qilmasinlar ular birinchi navbatda oddiy qalamdan foydalanib rasm chiza boshlaydilar. Shuningdek oddiy qalamda xomaki rasmlarni muntazam ravishda chizib borishning ham tasvirlashni o‘rganishda ahamiyati katta. Tasvirlashni o‘rganish jarayonida talaba avvaliga bir necha xomaki rasmlar ishlasa uning qo‘li, chiziq va chiziqchalarni aniq va to‘g‘ri chizishga kelishib qoladi. Shundan so‘ng aylana, ellips, burchaklarni to‘g‘ri qurish, ularni teng bo‘laklarga bo‘lish kabi mashqlarini bajarish kerak. Oddiy qalamda chizishni o‘rganib olgandan so‘ng, oddiy naturalardan tashkil topgan natyurmortlar tasvirini chizishga kirishilsa to‘g‘ri bo‘ladi.

Tasviriy san’at janrlaridan biri bu natyurmort deb ataladi. Natyurmort-fransuzcha so‘z bo‘lib “jonsiz tabiat”degan ma’noni bildiradi. Natyurmort janri haqida N. Oydinov o‘zining “Rassom-o‘qituvchilar tayyorlash muammolari” monografiyasida shunday fikrlarni keltirib o‘tadi …“Ma’lumki, har bir rassom tasviriy san’at sirlarini o‘rganishni natyurmort ishlashdan boshlaydi. Buyumlar va narsalar shaklini, formasini, xarakterini o‘zlashtirish san’atning boshqa jihatlarini va turlarini o‘rganishdagi dastlabki saboqlar vazifasini bajaradi”… [3]. Rangtasvirda endi rasm ishlashni o‘rganuvchilar tezda muvafaqiyatga erishishlari ancha qiyin jarayon hisoblanadi. Rangtasvirda rasm chizishni o‘rganishdan oldin, grizayl uslubidan foydalanilsa to‘g‘ri bo‘ladi. Grizayl qalamda kompozitsiya chizish va bo‘yoqlar bilan ishlashda yordam beradi. Talaba rangtasvirda rasm ishlashni o‘rganishda avvaliga grizayl usulida ya’ni bitta rangdan foydalanib rasm chiza boshlasa to‘g‘ri bo‘ladi. Masalan ko‘k, jigar rang, yashil, qizg‘ish, qora ranglardan foydalanish mumkin. Ushbu ranglarning faqat bittasidan foydalanib tasvirlar ishlash, ko‘p ranglardan foydalanib rangtasvir ishlashda yaqindan yordam beradi.

Etyudlar ishlashni natyurmortdan boshlasa ancha qulayliklarga erishiladi. Buning uchun quyidagilarga amal qilish kerak. Rasm chizish uchun kerakli naturalar, turli xil buyumlar va rangli matolar tanlab olinganidan so‘ng uni maqsadga muvofiq to‘g‘ri joylashtirish muhim. Oddiy buyumlardan natyurmortlar tuzish haqida A.S. O‘ralov “Mo‘jiza yaratish san’ati” o‘quv qo‘llanmasida shunday yozadi ...“Rasm chizish uchun naturalardan istalganini tanlash mumkin. Lekin endi rasm chizishni o‘rganayotganlar uchun eng oddiy va kam buyumlar (natyurmort) rasmini chizishdan boshlashni maslahat beriladi”... [4]. Xona ichkarisida natyurmortni joylashtirishda esa unga yaxshi yorug‘lik tushadigan joyni tanlash kerak. Natyurmortga yorug‘lik bir tamondan tushsa to‘g‘ri bo‘ladi. Shunda yorug‘-soyalar aniq va ravshan ko‘rinadi. Bu esa buyumlarning hajmdorligi va ranglarining yaxshi tarqalishiga yordam beradi. Tasvirlash jarayoni yengil, oson va qiziqarli kechadi. Natyurmortni yorug‘likdan qancha uzoqlashtirilsa, undagi ranglar va buyumlar xiralashib ko‘rina boshlaydi.

Natyurmortlarni tuzishda ko‘pincha uy ro‘zg‘orda ishlatiladigan turli xil buyumlar, o‘quv va duradgorlik qurollari, gullar, sabzavot va mevalar, sport buyumlari va xakozalardan foydalanish mumkin. Bitta qo‘yilgan natyurmortni etyudini bir tamondan ishlab yakunlangandan so‘ng, uni yana turli tamonlardan tasvirlash mumkin. Masalan, natyurmortning to‘g‘risidan, chap va o‘ng tamonlaridan, rassom ozgina – ozgina surilib, bir necha tamonlardan ishlashi mumkin.

Etyudlar bajarish uchun rangli bo‘yoqlarda ishlash texnologiyasini bilish talabaga tasviriy san’atning barcha janrlarida rasm ishlash jarayonida yordam beradi. S. Abdirasilov, N. Tolipov “Rangtasvir” o‘quv qo‘llanmasida quyidagi fikrlarni bayon etadilar. ...“Akvarelda ishlash malakasi bir oz oshgandan so‘ng birmuncha murakkabroq natyurmortlarni ishlashga o‘tish mumkin. Bu mashq rang sezish qobiliyatini o‘stirib, ranglar tusidagi tafovutlarni ham aniq tasvirlashni o‘rganish imkoniyatini beradi”...[5]. Akvarel bo‘yog‘ida ishlaganda avvalo ranglarni imkon qadar ochroq qo‘yib bosqichlar asosida kerakli joylari to‘qlashtirilib boriladi. Avvaliga to‘q rang tusiga ega bo‘lgan buyumlar tasvirini ishlashdan boshlanadi. Yaltiroq va oqishroq joylarni ishlaganda suyuqroq rang eritmasidan foydalaniladi.

Tasviriy san’atda tabiatni tasvirlash manzara janri deyiladi. Manzarachi musavvirlar o‘z asarlari bilan tabiatni sevishga, uni e’zozlashga va bu go‘zalliklardan zavqlanishga undaydilar. O‘z tasvirlarida faqatgina tabiat go‘zalligini namoyish qilibgina qolmasdan, turli g‘oya va fikrlarni ham ifoda etadilar.

Talaba manzara janrida etyudlar ishlaganda tasviriy san’atning asosiy qonun-qoidalariga rioya etish bilan birgalikda kompozitsiya jihatidan tabiatning ko‘rinishlarini tanlay bilishlari kerak. Endigina

tasvirlashni o‘rganayotgan talabalar tabiatning katta kengliklarini tasvirlashda qiylanib qoladilar. Shuning uchun tabiatning kichik bo‘laklarini, qiziqarli joylarini tanlab tasvirlash tavsiya etiladi. Deylik ochiq havoda, tabiat qo‘ynida kichikroq balandligi 3-4 metr bo‘lgan yosh daraxtni bor bo‘yi basti bilan tasvirlashni boshlaymiz. Daraxtning eng pastki qismi ya’ni yerdan o‘sib chiqqan joyini va uning eng balandagi shox shabbalarini ham umuman butun ko‘rinishini qog‘ozga to‘g‘ri joylashtirib olamiz. Shundan so‘ng, uyg‘unlashtirib daraxt atrofida ko‘rinayotgan tabiat bo‘laklarini ham chizib joylashtiramiz. Deylik tasvirlayotgan kichik bir daraxt tog‘ kengliklarida joylashgan bo‘lishi mumkin. Unda daraxt ostida turli katta-kichik tosh bo‘laklari tuproq, qum, shox-shabba va o‘simliklar bo‘lishi mumkin. Kichik daraxtning orqa tamonida esa tog‘ va qirlar ko‘rinishi, uylar, hayvonlar, odamlar va boshqalarni ko‘rishimiz mumkin. Ana endi e’tibor qilib qarasak bitta kichik yosh daraxtni tasvirlashimiz jarayonida uning bilan birgalikda tabiatning qancha ko‘rinishlari, bo‘laklarini tasvirlashga to‘g‘ri kelmoqda. Xuddi shunday balandligi 3-4 metr bo‘lgan bir xil uzoqlikdagi yonma yon turgan 2 ta daraxtni, taxminan 7-14 metr uzoqlikdan turib ularni birgalikda tasvirlashga harakat qilsak, unda tabiat bo‘laklarini yana bir barobar ko‘payganini sezamiz. Bu esa bo‘lajak rassomdan yanada ko‘proq vaqt va mehnat, bilim, ko‘nikma hamda malaka talab etadi. Tabiat bo‘laklarini qanchalik ko‘p tanlab, tasvirlashga kirishilsa, tajribasiz rassom qiynalib qoladi. Shu sababli yosh rassom tabiatni tasvirlashda uning kichik-kichik bo‘laklaridan tasvirlashni boshlagani ma’qul. Tabiat ko‘rinishlarini tasvirlashda tajribalar oshgan sayin, tabiatning katta kengliklarini tasvirlashni oz-ozdan ko‘paytirib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tasviriy san’atning boshqa janrlarida etyudlar ishlaganda ham tasvirlashni eng oddiy qulay tomonlaridan chizishni boshlash kerak. Tajribalar oshgan sayin murakkab kompozitsiyalarni tasvirlashga o‘tib boriladi.

Talabalarga rangtasvirni mukammal o‘rgatishda etyudlar ishlashni to‘g‘ri tashkil etish lozim. Albatta, ma’lum darajada yutuqlarni qo‘lga kiritish uchun rangtasvirga oid nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallash bilan birga o‘z vaqtida mehnat qilishni ham unutmaslik lozim. Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida rangtasvirni yaxshi o‘zlashtirish uchun xomaki rasmlar ishlash kabi etyudlar bajarish ham zarur bo‘ladi. Rangtasvir mashg‘ulotlarida talablarga uyga vazifa qilib etyudlar bajarib kelish topshiriladi. Ammo ayrim talabalar tasvirlashni yaxshi o‘zlashtirishda qoralama va etyudlar ishlashning ahamiyati yo‘q deb o‘ylaydilar. Shuningdek, amaliy mashg‘ulot darslarida ishlanadigan uzoq muddatli rangtasvirlarini yaxshi o‘zlashtirish uchun yetarli deb tushunadilar. Bunday fikr yuritish xato, albatta. Keling, fikrlarimizni jismoniy tarbiya darslari bilan bog‘laylik. Hammamizga ma’lumki, jismoniy tarbiya darslarida ustozlar amaliy mashg‘ulot boshlanishi avvalida shogirdlariga turli yengil jismoniy mashqlarni bajartiradilar. Bunga misol qilib talabalarga sport maydoni bo‘ylab asta-sekinlik bilan yugurish mashqlari o‘tkaziladi. Undan so‘ng qo‘l, oyoq va tananing boshqa a’zolari yordamida yengil harakatlari bajartiriladi. Shu jarayonda nafas olish va nafas chiqarish mashqlarini ham bajariladi. Bu bilan ustozlar talabalar organizimini navbatdagi murrakkab jismoniy mashg‘ulotlariga tayyorlaydilar. Yana shu o‘rinda bir fikrni ta’kidlab o‘tilsa to‘g‘ri bo‘ladi. Yosh havaskor spotchilar orasida kelajakda jahonga mashhur yetuk sportchi bo‘lib tanilishni hohlaydiganlari ko‘pchilikni tashkil etadi. Unda bu sportchilarga ta’lim muassasasidagi dars mashg‘ulotlari yetarli bo‘lmasligi hammaga kundek ravshan. Buning uchun bo‘lajak xavaskor sportchi mustaqil ravishda har kuni erta tongda yugurishi va badan tarbiya mashg‘ulotlarini bajarishi kerak. Sport mashg‘ulotlariga bormagan kunlari esa o‘zi mustaqil ravishda kerakli bo‘lgan jismoniy tarbiya mashqlarini bajarishi kerak. Shuningdek, nazariy bilimlarni ham o‘z vaqtida egallab borilsa hamda ustozlar o‘gitiga amal qilinsa, bu havaskor sportchilardan kelajakda jahonga mashxur sportchilar chiqishi mumkin. Bu fikrdan shunday xulosa kelib chiqadiki, rangtasvirni mukammal o‘rganmoqchi bo‘lgan talabalar ham o‘zlari mustaqil ravishda ko‘plab etyudlar, qoralamalar, kompozitsiyalar ishlashlari kerak.

Talabalarning ayrimlari etyudlar ishlashni o‘z vaqida bajarib bormasligi sababli uzoq muddatli rangtasvir ishlash jarayonida ijobiy natijalarga erisha olmaydi. Shu sababli rangtavir ishlash jarayonida muammo va qiyinchiliklarga duch keladi. Ishida nuqsonlar ko‘pligi sababli birinchi navbatda o‘zini ishlayotgan rangtasviridan ko‘ngli to‘lmaydi. Ma’lum bir vaqt oralig‘ida bajariladigan rangtasvir ishlash jarayoniga har qancha vaqt va mehnat sarflansada, ish beo‘xshov bo‘lib qolaveradi. Etyudlar ishlashdan o‘rinli foydalanishni o‘rganish esa tasviriy san’atning barcha janrlarida rangtasvir ishlash samaradorligini oshiradi. Ayni damda uzoq muddatli chiziladigan amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ham bo‘ladi. Bu borada tajribali pedagog Barno Azimova o‘zining “Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi” o‘quv qo‘llanmasida shunday yozadi. ...“Har bir uzoq muddatli ish oldidan, albatta tez bajariladigan kichikroq etyud ishlash lozim. Bunday etyud natyurmortning kompozitsiyasiga va umumiy rangiga mos format topishda yordam beradi”... [6]. Bu fikrdan ko‘rinib turibdiki etyudlarni muntazam ravishda bajarish bo‘lajak rassom-o‘qituvchilarning rangtasvir ishlash qobilyatini, bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirib boradi. Tasvirlash jarayonining ma’lum bir bosqichida chizishni qanday davom ettirishni bilmay to‘xtab qolishi, ya’ni tasvirdagi kamchiliklarni bartaraf eta olmay qolish holatlari deyarli uchramaydi. Buning natijasida tasvirlayotgan rangtasviriga qancha vaqt ajratilsa, shunchalik jilolanib-jonlanib boraveradi.

Bo‘lajak rassomning muntazam ravishda rangli etyudlar bajarishi natijasida, unda rang ko‘rish, rang ajrata olish, rangni tanlay olish, hamda ranglardan o‘rinli foydalana olish, rang munosabatlari bilan ishlash qobilyatlari rivojlanadi. Tasviriy san’atda asarlar yaratishda rang munosabatlari bilan ham ishlashni bilish kerak. Etyudlar ishlash jarayonida tajribalar oshgan sayin rang munosabatlari bilan ishlash ham rivojlanib boradi. Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida talabalarning rangtasvirga oid nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z vaqtida egallab borishlari natijasida asta-sekinlik bilan ijodiy qobiliyatlari rivojlanib, bo‘yoqlar bilan ishlash texnologiyasini ham yaxshi o‘zlashtirib oladilar.

Bo‘lajak rassom ishlagan eng yaxshi etyudlarini har doim imkon qadar o‘ziga ko‘rinadigan joyga qo‘ysa unga ilhom va kuch bag‘ishlab turadi. Rassom o‘zi chizgan etyudlarini ko‘rganda qaysidir jihatlaridan zavq oladi. Bu esa asta-sekinlik bilan zavqlanish va ilhomlanish natijalari yanada ijod qilishga undaydi. Maromiga, yetkazib ishlangan rangtasvir ijodiy ishi avvalo, rassomni o‘ziga ma’qul bo‘ladi. Ijodkorni zavqlantirgan, ilhomlantirgan rangtasvirlar, albatta, tomashabinni ham diqqatini tortadi. Mana shunday izlanishlarni davom ettirib borish, rangtasvir asarlarini vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.

To‘laqonli rangtasvir san’ati asarlari rassomlarning juda ko‘plab izlanishlari, qoralama, chizgilar va etyudlar ishlashi natijasida yuzaga keladi. Mana shunday muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritib rangtasvirda ko‘plab badiiy asarlar yaratgan ijodkor rassomlardan Leonardo Da Vinchi, Rafael Santi, Rembrandt Xarmens van Reyn, Karl Bryullov, Shishkin Ivan Ivanovich. O‘zbekistonlik rassomlardan O‘ral Tansiqbaev, Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Malik Nabiyev, Javlon Umarbekov, Laylo Salimjonova, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzayev, Ortiqali Qozoqov, Nuriddin Kalonov, Asliddin Isayev, Nodira Oripova kabi boshqa ko‘plab rassomlarni aytish mumkin.

### Adabiyotlar


1. Oydinov N. O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavhalar. –T.: O‘qituvchi, 1997. – 9 b .
2. Muinov O. Rangtasvir. T.: Sharq, 2007. – 27 b
3. Oydinov N. Rassom-o‘qituvchilarni tayyorlash muammolari. –T.: O‘qituvchi, 1997. – 18 b.
4. O‘rolov S. Mo‘jiza yaratish san’ati. –T.: Mehnat, 1996. –9 b.
5. S. Abdirasilov, N. Tolipov. Rangtasvir. –T.: Bilim, 2005 –75 b.
6. B. Azimova. Natyurmort tuzish va ishlash metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 1997. – 42 b.


**УДК: 371.39**

## UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI INTEGRATSIYALASH METODOLOGIYASINING KONTSEPTUAL ASOSLARI

**A.A. Avliyoqulov**
*Termiz davlat universiteti*
*avliyoqulov2017@gmail.com*

**Annotatsiya.** Umumta’lim maktablarida matematika fanida integratsiyalashgan ta’limni amalga oshirish va shakllantirish hamda matematikani integrativ yondashuv metodlari asosida o‘qitish muammolari o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** integratsiya, matematika, algebra, geometriya, o‘qitish, ta’lim, tarbiya, integrativ yondoshuv, metodologiya, kontseptual, sintez.

### Концептуальные основы методологии интеграции математики в средней школе

**Аннотация.** Изучаются проблемы внедрения и формирования интегрированного обучения математике в общеобразовательных школах и преподавания математики на основе комплексных подходов.

**Ключевые слова:** интеграция, математика, алгебра, геометрия, обучение, образование, воспитание, интегративный подход, методология, концептуальность, синтез.

### Conceptual foundations of methodology of integration of mathematics in secondary school

**Abstract.** The problems of implementation and formation of integrated teaching of mathematics in general education schools and teaching mathematics based on integrated approaches are studied.

**Keywords:** integration, mathematics, algebra, geometry, teaching, education, upbringing, integrative approach, methodology, conceptuality, synthesis.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining o‘ziga xos yo‘lini tanlashi, kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo‘ydi va qator chora tadbirlar ko‘rildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-

avgustdagi IX-sessiyasida qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” asosida ta’lim tizimini bosqichma-bosqich isloh qilish boshlandi. Bu esa, umumta’lim maktablari ustoz va murabbiylari oldiga qator yangi vazifalar qo‘ydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev ta’kidlaganlaridek,-“Biz ajdodlarimizning yorqin xotirasini asrab-avaylab, qalbimizda, yuragimizda abadiy saqlaymiz. Bukilmas iroda, fidoiylik va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o‘z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishiga bag‘ishlangan, ustoz va murabbiylarimiz, zamondoshlarimiz bilan biz cheksiz faxrlanamiz”[1]. [1;4-5]. Bu esa, barcha sohalar uchun zamon talablariga javob beradigan bilimli o‘quvchilarni tayyorlash dolzarb masalalar qatoridan joy oldi. Bugungi kunda, yoshlarni ona-Vatanga muhabbat, boy tariximizga hurmat ruhida tarbiyalash uchun avvalo ularning qalbi, ongida bilim olish mafkuraviy immunitetini kuchaytirish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev ta’kidlaganlaridek,-“Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi”[2]. [2; 189]. Shu ma’noda, Davlat rahbari Prezidentlik faoliyatining daslabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma’naviyat egalari etib tarbiyalash, ta’lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Shuni ta’kidlash lozimki, yurtimizda ta’lim sohasida erishilgan yutuqlar, muammolar to‘g‘risida 2019 yilning 23-avgust kuni shu masalalarning amaldagi ijrosi xususida Prezident raisligida “Maktab ta’limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur” mavzusida videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. “Maktab–bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi” deya ta’kidladi, mamlakatimiz rahbari. Unda xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tildi. Ta’lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o‘qitish metodlari, ta’lim standartlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yangilash zarurligi, bilim berishda chet eldagi ilg‘or tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an’analar va qadriyatlarga suyanish muhimligi qayd etildi. Videoselektorda xalq ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish uchun kelgusidagi vazifalar belgilab olindi. Unda 48 ta maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha aniq mexanizmlar belgilangan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining Konstituttsiyasi 41-moddasida “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir”[3]. [3;15] deb belgilab qo‘yilgan. Umumta’lim maktablarida ta’lim olayotgan barcha o‘quvchilar asosiy e’tiborni fan sirlarini egallashga va uning turmushda tadbiqlarini o‘rgatishga qaratmog‘i kerak. Xususan, 11 yillik maktab ta’limi tizimi tiklangani, shuningdek, so‘nggi uch yilda 157 ta umumta’lim maktabi yangidan qurilgani bu fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-apreldagi Farmoniga muvofiq “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirishning kontseptsiyasi” tasdiqlandi. Unda 48 ta maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha aniq mexanizmlar belgilangan. Masalan, 2030 yilga borib o‘quvchilarni bilimini baholash bo‘yicha PISA xalqaro dasturi reytingidagi O‘zbekistonning jahondagi etakchi 30 ta mamlakat qatoridan joy egallashi maqsad qilib qo‘yilgan. Ta’lim sifatini jahon andozalari darajasiga yetkazish ta’lim tizimining eng dolzarb muammolariga aylandi. Xususan, mamlakatimizda maktab ta’limini yetti tilda olib borilishi, 11 yillik umumiy bepul ta’lim tizimining joriy etilishi bu ta’limga e’tiborning ifodasidir. Shu maqsadda, umumta’lim maktablari o‘quvchilariga matematika fanidan nazariy bilimlarni puxta, ayni paytda undan amaliyotda keng foydalana oladigan o‘quvchilarni tayyorlashdan iborat. Bunday o‘quvchilarni tarbiyalashda umumta’lim maktablarida matematika fanining ahamiyati kattadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev ta’kidlaganlaridek,-“Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi”. Shunining uchun o‘quvchilarga matematika fanidan faqat matematik ma’lumotlar bilan tanishtirishdan iborat bo‘lmasdan, balki mantiqiy fikrlashga, binobarin uni tadbiq etishga ham qaratilgandir. Ma’lumki, Prezidentimiz “2020-yil –Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”, deb e’lon qildilar. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “O‘zbekiston ta’lim-tarbiya, ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo‘lishi shart”. Bu esa ta’limni integratsiyalash, uning ilmiy-metodik asoslarini tadbiq etish, davlat ta’lim standart va uzluksiz ta’lim tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan davlat ahamiyatiga molik dolzarb masaladir. Ammo, didaktik-metodik nuqtai-nazardan integrativ bog‘lanishlarni hosil qilish va bunday tizimni optimal qo‘llash muammosi yetarli darajada o‘rganilmagan. Bu masalaning echimi esa o‘z navbatida ta’lim, fan-texnika, texnologiya va ishlab chiqarishning yagona integratsiyalashgan tizimini tashkil etishni talab etadi. Chunki, Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi tub islohotlarning bosh maqsadi ham integrativ yondoshuvga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi pedagog olimlaridan B.M. Mirzaxmedov, E.O. Turdiqulov, M.M.

Mamadazimov, O.D. Quvondiqov, Yu.M. Maxmudov, P. Musaev, M.R. Jumaniyozova, D.I. Yunusova, M. Aripov, O. Abduquddusov, A.I. Avazboev, R.T. Safarova, U.Yu. Yuldashev, A. Abduqodirov, N. Tayloqov, M. Mamarajabov va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘qishni integrativ mazmundagi bilimlar asosida tashkil etishga alohida e’tibor berilgan. Respublikamiz pedagog olimi E.O.Turdiqulov integratsiyaga quyidagicha ta’rif beradi: “Integratsiya-tarqoq, bo‘lak-bo‘lak ayrim-ayrim holdagi narsalarni bir butun, yaxlit, tizimlashgan holatga keltirish, tabiat xaqidagi bir butun bilimlar majmuasi, turli fanlarga oid bilimlarni yagona maqsadni hal etishga yunaltirishdir. U olamning yaxlitligi (bir butunligi) ni ifodalaydi”. Ma’lumki, integratsiya (inglizcha “integratio” so‘zidan olingan bo‘lib-qismlarning tiklanishi, birlashishi degan ma’noni anglatadi) ayrim elementlarning bir-biriga qo‘shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir. Entsiklopedik va ilmiy adabiyotlarda “integratsiya” atamasini turli jinsdagi qismlar va elementlarni bir butunga birlashtirish bilan bog‘langan rivojlanish jarayoni sifatida tushuniladi. Matematik fanlar integratsiyasi, xususan ularning tarkibi bir-biriga o‘tishi va o‘zaro aloqasini ifodalaydi. Maktab matematika fanlari integratsiyasiga oid muammolarning tahlili, asosan ichki va fanlararo aloqalarni amalga oshirish (I.D.Zverov, V.Maksimova, V.N.Fedorova, V.A.Gusev, V.A.Dalinger, V.M.Monaxov, N.F.Borisenko, T.R.Tulaganov, A.L.Musurmanov, A.D.Salomov va boshqalar) integrativ kurslar ishlanmasini yaratish (V.F.Butuzov, Yu.M.Kolyagin, G.L.Lukankin va boshqalar) amaliy yunalishni kuchaytirish (N.R.G‘aybullayev, N.O.Eshpulatov va boshq.), matematik ta’limda izchillikni ta’minlash (Yu.M.Kolyagin, L.Yu. Nesterova, N.O.Alimov va boshqalar) kabi uslubiy matematik yo‘nalishlar doirasida amalga oshirilgan. Ammo, ushbu ishlarning ko‘plarida umumta’lim maktablarida matematika fanini bayon qilishning nazariy yondoshuvi mavjud bo‘lib, asosiy e’tibor geometrik shakl almashtirishlar metodini, koordinatalar metodini, vektorlar metodini o‘rganishga qaratilgan. Algebra va geometriya o‘rtasida aloqa asosan, geometrik masalalarni yechishda analitik usulni qo‘llash orqali o‘rnatilgan. Integrativ darslar ishlanmasini ishlab chiqishda pedagog, olim P.F.Fedorets integrativ tematik yondoshuvni tavsiya qiladi. Rus pedagog olimlari I.Kolojvari va L.Sechimkovalarning fikricha, integratsiya darajasi faqatgina integrativ masalalar yordamida aniqlanadi. Pedagog olim A.V.Zolotareva ham umumiy va qo‘shimcha ta’limda integratsiya jarayonini boshqarishni bir nechta jihatlarda ko‘rib chiqqan:

Birinchidan, integratsiya-bu har xil ta’lim muassasalarining umumiy ta’lim doirasida o‘zaro aloqalarning mustahkamligi, tartiblanganligi bilan xarakterlanuvchi, hamda bunday holatga erishishni ta’minlovchi jarayondir.

Ikkinchidan, u sub’ektlar (talabalar, ularning ota-onasi va o‘qituvchilari) faoliyati darajasida namoyon bo‘ladi. O‘quv rejalari va ta’lim dasturlari darajasida integratsiyani o‘rnatish muhim ahamiyat kasb etadi, ya’ni, o‘qituvchilarga talaba ongida olamning yaxlit manzarasini shakllantirishga, yangi kontseptsiyalarni ishlab chiqishga, ta’limning yangi maqsadlari, mazmuni, shakllari va metodlarini aniqlashga imkon beradi.

Uchinchidan, integratsiya ichki (muassasalar ichida) va tashqi (bitta muassasadan tashqarida) bo‘lishi mumkin.

To‘rtinchidan, integratsiya-tizimni yaxlitlikka olib boruvchi muhim ko‘rsatkichidir. Faqat yaxlit bo‘lgan ta’limiy muhitdagina mukammal shaxs shakllanadi.

Pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, integrativ ta’lim mohiyati hakida yagona fikr mavjud emas. Biroq barcha mualliflar, bunday ta’limning samarador ekanligini va uning ta’limga quyilgan zamonaviy talablariga mosligini ta’kidlaydilar. Ta’lim integratsiyasining mohiyatini tushuntirishda, pedagog va metodist olimlar o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik, hamfikrlik yo‘q. Bu esa o‘z navbatida, integratsiya muammosi hali etarlicha to‘la ishlanmaganligini ko‘rsatadi. Integrativ darslar tuzilmasiga mos u yoki bu talablarni qo‘yadigan metodik ta’lim tizimi to‘la ishlanmaganligi esa bu boradagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

**“Integratsiya”**-atamasi bir butunlik degan ma’noni anglatadi, matematik fanlar integratsiyasi deganda fanlar mazmunining o‘zaro singishi va aloqalari nazarda tutiladi. Integratsiya muammosi fanning rivojlanishi bilan bog‘liqdir”[4]. [4; 92]. Integratsiya tushunchasi rivojining semantikasini qarab chiqamiz: XIX asrning oxirlarida ham Yevropa tillarida “integratsiya” so‘zi faqat matematik integrallashgan termin deb izohlanadi. XX asrning ikkinchi choragidan uning leksik ma’nosi ikki xil tavsiflandi matematik integrallash-biror narsaning birlashmasi yoki kattalashishi. Bu esa zamonaviy tildagi integratsiyani qismlarning bir butunga birlashishi kabi odatiy tushunish, matematikadagi integrallash atamasini radikal qayta fikrlash natijasi, deb xulosa chiqarishga zamin yaratadi. Shuning uchun ham, bir tomondan, hali integratsiya termini matematikaga ishlov berilmagan, tarixiy dastlabki ma’nosiga, ikkinchi tomondan, matematik atama tahliliga murojaat qilishga zarurat tug‘iladi.

Integratsiya tushunchasiga berilgan turli izohlarini tahlil qilib, ularni quyidagicha umumlashtiramiz: Integratsiya (lotincha integration-tiklash, to‘ldirish va integer-butun, yaxlit)-tizimning bir butun organizmning bir-biridan farq qiluvchi alohida bo‘laklarining o‘zaro bog‘langanligini anglatuvchi, hamda xuddi shu holatni keltirib chiqaruvchi jarayondagi omildir.

Ta’lim sohasida integratsiyani butun shakllangan deyish uncha o‘rinli bo‘lmaydi. Buni esa ilmiy adabiyotlarda aniq ta’rifga ega bo‘lmagan “ta’lim integratsiyasi” tushunchasi bilan izohlash mumkin. Ta’lim tizim integratsiyasi barcha mavjud ta’riflari faqatgina uning alohida jihatlarini ta’riflaydi va bir-biridan ajralgan har bir yunalish tushuncha mazmuni haqida umuman tasavvurni bermaydi. Fan taraqqiyotining dolzarb muammolaridan biri fanlarni integratsiyalashdan iboratdir.

Integratsiya-bu, fanlararo bog‘lanishda qo‘llaniladigan turli fanlarni o‘zaro kelishilgan holda o‘qitilishidan, ularning o‘zaro keskin ta’sir darajasiga o‘tish orqali o‘qitish ekanligini yaxshi anglash lozim.

Rus olimi N.F.Borisenko fanlararo aloqadorlikni quyidagi turlarini ko‘rsatadi:

-turli o‘quv predmetlarida biror ma’lum ob’ektning o‘rganilishiga asoslangan aloqalar;

-turli o‘quv predmetlarida biror muayyan ilmiy metodning qo‘llanilishiga asoslangan aloqalar, turli o‘quv fanlarida biror nazariyaning qo‘llanilishi asosida vujudga keluvchi aloqalardir.

Manbalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, shu vaqtga qadar ta’limda fanlararo integratsiya tushunchasiga yagona ta’rif berilmagan. Shuning uchun “Fanlar integratsiyasi” va “Ilmiy bilimlar integratsiyasi” tushunchalari teng kuchli emas. Ulardan birinchisi kengroq bo‘lib, ikkinchisini tashkiliy qism sifatida qaraladi. Shu bilan birga “Integratsiya” va “Sintez” tushunchalari ham tabaqalashtirilib, integratsiya tushunchasining hajmi kattalashadi va sintezni o‘zining ichki mazmuni jihatlaridan biri sifatida qamrab oladi. Fanlararo integratsiya, ya’ni umumta’lim predmetlari va kasbiy fanlarning o‘zaro bog‘liklikda o‘qitilishi alohida muammo sifatida qaralmagan.

Matematika fani yordamida ta’limning ijtimoiy ahamiyati, insonning jamiyatda to‘la to‘kis ishlay olishi, jamiyatning har bir a’zosining funktsional savodxonligini ta’minlash uchun insonning intellektual rivojlanish darajasini matematika vositalari yordamida oshirishdan iborat bo‘lib, u jamiyatning intellektual darajasini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Matematikaning boshqa fanlar bilan integratsiyasi mohiyati va ularni o‘qitishning quyidagi asosiy funktsiyalari bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi: ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, evristik, prognostik, amaliy, nazoratli, axborot, tuzatuvchi, tizimlashtiruvchi, modellashtiruvchi, vizuallashtiruvchi. Ushbu integrativ funktsiyalarni amalga oshiruvchi ta’limda fanlararo aloqadorlik fan va jamiyat hayotida ro‘y berayotgan integratsion jarayonlarning yaqqol ifodasi bo‘lib hisoblanadi. U umumta’lim maktablarida ta’lim olayotganlarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim rol uynaydi. Matematika fanini o‘qitishda integratsiyadan foydalanish-ta’lim sifatini oshirish bilan birga o‘z bilimlarini kelgusi faoliyatda qo‘llash va takomillashtirishga qobiliyatli, malakali mutaxassis bo‘lishga imkon beradi. Fanlararo integratsiyadan samarali foydalanish bu-eng avvalo ta’lim dasturini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida undan foydalanishdir. Shu bilan birga matematika darslarining boshqa fanlar bilan aloqadorligidan foydalanish ularni o‘qitish samaradorligini oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Fanlararo integratsiyani quyidagi ikki yo‘nalishda amalga oshirish mumkin:

a) o‘qitish mazmunda; b) pedagogik faoliyatda.

Bu integratsiya informatika va axborot texnologiyalari fani bilan aksariyat hollarda tartibsiz tasodifiy tartibda ruy beradi. Matematikaning hozirgacha etarli darajada o‘rganilmagan asosiy ob’ekti-sonni tushunishni chuqurlashtirishda informatikaning muhim roli va o‘rnini ta’kidlab o‘tamiz. Chunki, ko‘pchilik geometrik figuralar va ularni tasvirlash jarayonida talabalar qiyinchilikka duch keladi. Integratsiyalash asosida o‘qitishda esa bu qiyinchilik bartaraf etiladi. Shuningdek, ta’lim bosqichlari o‘rtasida integratsiyaga e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim tizimlari o‘rtasidagi interfa’ol integratsiyani yanada mustahkamlashning innovatsion mexanizmlarini ishlab chiqish va izchil amalga oshirish har bir ustoz va murabbiy faoliyatining ustuvor yo‘nalishi va burchi hisoblanadi. Matematika fani-haqiqiy olamning miqdoriy munosabatlari va fazoviy formalarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, barcha matematik turdagi fanlar fizika, astronomiya, kimyo, geografiya kabi fanlar uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Matematikani o‘qitishda integrativ yondashuvlar metodologiyasi asosida tashkil etish va mazmunidan kelib chiqib fanning xususiyatini hisobga olgan holda o‘quvchilarga bilim berish tavsiya etiladi. Bu esa umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matematika darslarini ketma-ketlik asosida o‘qitish bilan bog‘liqlik asosida va ushbu fanning uslubiy jihatdan uzviy va mantiqiy bog‘liqlik asosida tashkil etish esa o‘quvchilarni keyingi ta’lim muassasalarda bilim olishlari uchun zamin yaratadi. Bunda umumta’lim muassasalari matematika fanini o‘qitishda integrativ yondashuvlar asosida tashkil etish hamda o‘qitishning kontseptual asoslarini ishlab chiqish shu bilan birga o‘qitishning metodologiyasi faoliyatini samaradorligini oshirish nazarda tutilgan. Matematikani o‘qitishda integrativ metodlar asosida yondashgan holda tashkil etish masalalarining keng talqin qilinishi bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo‘lib, quyidagilarda o‘z aksini topadi:

-umumta’lim maktablarida matematikani o‘qitishda integrativ pedagogik texnologiyalar, interfaol yondashuvlar asosida ijtimoiy zaruriyat tug‘ilishi;

-matematikaga oid tadqiqotlarda pedagogik-psixologik nazariya va ilmiy-amaliy metodologiyasi qo‘llanilishi;

-matematikani o‘qitishda integrativ yondashuvlar metodologiyasini o‘quv jarayoniga tadbiq etish usullari.

Bu esa, matematikani o‘qitishda integrativ yondashuvlar asosida tashkil etish va o‘qitish mavzular boshqa fanlar doirasida ham qisman o‘zlashtirilgan bo‘lib ularni o‘zlashtirish o‘quvchilar uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi va ularni bilim darajasini to‘ldirishga yordam beradi. Umumta’lim maktablarida ta’lim olayotgan barcha o‘quvchilar asosiy e’tiborni fan sirlarini egallashga va uning turmushda tadbiqlarini o‘rgatishga qaratmog‘i kerak. Matematika fanini integrativ yondashuvlar asosida o‘qitishdan maqsad esa,

fanlararo aloqadorlikni mustahkamlash va o‘quvchilar olgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo‘llash, belgilangan mavzular asosida bilim olish bilan birga ko‘nikma hosil qiladilar.

Umuman, matematikani o‘qitishda integrativ metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarini oshirish bilan birga darsning sifat va samaradorligi oshadi hamda boshqa fanlarga bo‘lgan qiziqishi ortadi.

**Adabiyotlar**

1.Shavkat Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –B.36.

2.Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. - 488 b.

3.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2016. –B.15.

4.X. Islomov, A. Avliyoqulov, N.Xurramov. Matematik ta’limda algebraik va geometrik metodlar integratsiyasi masalasini mavjudligi va uning yechimlari haqida. Pedagogik mahorat nazariy va ilmiy-metodik jurnal. – Buxoro. Poligraf nashr, 2017. –B.116.

**УДК:378.14:61**

## BO‘LG‘USI MATEMATIKA O‘QITUVCHILARIGA NOAN’ANAVIY TA’LIM METODLARINI O‘QITISH HAQIDA

**M. N. Jurayeva**

*Qarshi davlat universiteti*

*jurayeva.76@mail.ru*

**Annotatsiya.** Maqolada universitetlarda matematika o‘qituvchilarini matematik tayyorgarligi bilan bir qatorda metodik tayyorgarligi sifatini oshirish masalasi muhokama qilinadi.Talabalarning metodik tayyorgarligi samaradorligini oshirish uchun kontekstli ta’lim nazariyasidan foydalanish taklif qilinadi. Kontekstli ta’lim nazariyasidan foydalanib maktabda noan’anaviy darslarni tashkillashtirish tizimi ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** matematika o‘qituvchisi, matematika o‘quv fani, metodik ko‘nikmalar, kontekstli ta’lim, kontekstli masala, noan’anaviy darslar

### Об обучении будуших учителей математики нетрадиционным методам обучения

**Аннотация.** В статье обсуждается вопрос методической подготовки учителей математики в университетах. Для повышения эффективности методической подготовки студентов предлагается использовать теорию контекстного обучения. Система организации нетрадиционных уроков в школе разработана с использованием теории контекстного обучения.

**Ключевые слова:** учитель математики, математическая дисциплина, методическое умение, контекстное обучение, контекстная задача, нетрадиционных уроков.

### About teaching non-traditional teaching methods to future math teachers

**Abstract.** The article discusses the issue o f methodological training o f teachers of mathematics in the universities. Toimprove the effectiveness o f methodological training o f students it is proposed to use the theory o f contextual learning. Using the theory of contextual education, a system of organizing non-traditional lessons in the school was developed.

**Keywords:** teacher of mathematics, a mathematical discipline, teaching skills, contextual learning, contextual task, non-traditional lessons.

Respublikamizda matematika fani va ta’limiga berilayotgan e’tibor, bu sohada olib borilayotgan islohotlar matematika o‘qituvchilarining matematik tayyorgarligi bilan bir qatorda metodik tayyorgarligi sifatini oshirishni taqoza qiladi.

Ma’lumki, respublikamizda matematika o‘qituvchilari ikkita bakalavriat ta’lim yo‘nalishida olib boriladi: 5110100-matematika o‘qitish metodikasi (2020-yildan matematika va informatika) hamda 5130100-matematika. Bu yo‘nalishlar o‘quv rejalarida matematika o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan fanlar soni va hajmining nisbati turlicha. Masalan, 5130100-matematika ta’lim yo‘nalishida faqat bitta Matematika o‘qitish metodikasi fani o‘qitiladi.

5110100-matematika o‘qitish metodikasi ta’lim yo‘nalishida bu fandan tashqari ixtisoslik fanlar blokida Matematikadan misol va masalalar yechish metodikasi, Matematikani o‘qitish texnologiyalri va loyihalash kabi fanlar o‘qitiladi.

5130100-matematika ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladigan matematika fanlari hajmining ko‘pligi, talabalarda misol va masalalar yechish bo‘yicha yetarlicha tajriba to‘plashiga imkon beradi deb tahmin qilish mumkin, ammo talabalarni zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan tanishtirish, maktabda noan’anaviy darslarni tashkillashtirish, loyihalash tajribalarini maxsus mashg‘ulotlarda o‘zlashtirish maqsadga muvofiq.

Ushbu maqolada 5130100 – matematika ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni faol o‘qitish metodlaridan biri bo‘lgan ishchan o‘yinlar bilan tanishtirish metodikasini bayon qilamiz. Bu metodikaning asosi sifatida kontekctli ta’limni [1] olamiz. Kontekstli ta’limda bilim, ko‘nikma, malakalar predmet sifatida emas, mutaxassis faoliyati davomida masalalar yechishi vositasi sifatida berilishiga erishishga harakat qilinadi. Agar yanada aniqroq aytsak, konteksktli o‘qitish o‘qish va mehnatni ikki farqli faoliyat deb emas, balki genezisdagi faoliyatining ikki rivojlanish bosqichi sifatida ko‘radi. Maxsus fanlarda real professional vaziyatlar va ishlab chiqarish fragmentlari, ularda band bo‘lgan odamlar munosabati yaratiladi. Shunday qilib talabaga uning kasbiy mehnatining shakli ko‘rsatiladi. O‘qituvchi va talaba ishining birligi vaziyat bo‘ladi, o‘zining predmet va ijtimoiy qarama-qarshiligi va ko‘p qirraliligi bilan. Aynan vaziyatni tahlil qilish, amaliy va o‘quv o‘yinlari (kommunikatsiya o‘yinlari, manipulyatsiyadan himoyalanish o‘yinlari, intuitsiyani rivojlantirish o‘yinlari, refleksiya o‘yinlari va b.) davomida talaba mutaxassis va kelajak jamoasi a’zosi sifatida shakllanadi.

Kontekstli ta’lim manbai sifatida quyidagilar xizmat qiladi:

1) ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishning faoliyatli nazariyasi;

2) “faol ta’lim” amaliy tajribasining nazariy umumlashmasi;

3) mazmun tashkil etuvchi “kontekst” kategoriyasi, u talabaning bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatining predmet va ijtimoyi kontekstining o‘quv faoliyat jarayoni va uning natijasiga ta’sirini aks ettiradi.

Kontekstli ta’lim mazmunining ikki manbai mavjud: birinchi manba didaktik qayta ishlangan mos ilmiy fanning mazmuni, ikkinchi manba bu bo‘lg‘usi kasbiy faoliyat. U mutaxassis faoliyati modeli ko‘rinishda ta’lim mazmuniga kiritilgan [2].

O‘quv muammolari, muammoli vaziyat va masalalar tizimi yordamida o‘zlashtirilayotgan kasbiy faoliyat sujetli asosi quriladi, ta’limning statik mazmuni dinamik rivojlantiriladi. Kontekstli ta’limning asosiy birligi muammoli vaziyat hisoblanadi, ammo odatdagi masala va topshiriqlarga ham o‘rin bor. Talaba predmet harakatlari va odamlar munosabatlarini “kasbiy o‘xshash” vaziyatlarni individual va hamkorlikda tahlil va hal qilgan holda egallaydi, ham mutaxassis, ham jamiyat a’zosi sifatida rivojlanadi.

Shunday qilib, kontekstli ta’limni matematika o‘qitish metodikasini o‘qitishda qo‘llash uchun bu fanning mazmunini didaktik qayta ishlash va uni matematika o‘qituvchisining kasbiy faoliyati bilan bog‘lash lozim. Shu maqsadda “Matematika o‘qitish metodlari” mavzusi bo‘yicha seminar mashg‘ulotini qaraymiz. Seminar mashg‘ulotining maqsadi talabalarda noan’aviy dars shakllari va metodlari bo‘yicha bilimlarini kengaytirish va ko‘nikmalarinishakllantirishdan iborat.Seminar mashg‘uloti uchun ta’lim vositasi sifatida didaktik o‘yinlardan biri bo‘lgan ishchan o‘yin tanlab olinadi[3]. Bu o‘yin 11-sinf matematika (algebra va analiz asoslari) kursining “Hosilaning tatbiqlari” mavzusi bo‘yicha ishlab chiqilgan. Kasbiy vaziyat tashkillashtirish maqsadida guruhda shu o‘yin o‘tkaziladi. Keyin esa talabalar bilan vaziyat tahlil qilinadi.

Yuqorida aytilaganlarni amalga oshirish uchun seminar mashg‘uloti ikki qismga ajratiladi. Birinchi qismida guruhda ishchan o‘yin o‘tkaziladi. Bunda o‘qituvchi ishchan o‘yinni o‘tkazish qadamlari ketma-ketligiga rioya qiladi.

**1-qadam.** O‘yinga kirish – bu bosqichda talabalar o‘tkaziladigan o‘yinning ma’nosi, maqsadi va mazmuni, umumiy qoidalari bilan tanishadi, o‘qituvchi maslahat va ko‘rsatmalar beradi.

**2-qadam.** Talabalarni guruhlarga ajratish. O‘qituvchi guruhni 5-6 talabadan iborat 5ta kichik guruhga (bo‘limlarga) ajratadi. Bo‘limning barcha “xodimlari” (jamoa a’zolari) bevosita “bosh muhandisga” bo‘ysunishi, hamda konstruktorlik byuro rahbarlari matematika o‘qituvchisiga bo‘ysunishi aytiladi. Ishchan o‘yinning o‘tilgan mavzularni takrorlashga bag‘ishlangan yarmarka bo‘limini tashkillashtirish maqsadida har bir guruhga muhokama uchun quyidagi savollar taqdim etiladi.

**3-qadam.** O‘yinga sho‘ng‘ish. Bunda har bir kichik guruh quyidagi “o‘yin topshiriqlarini” oladi:

1. (0,2) oraliqda $y'(x)>0,\ (2,3)$ oraliqda $y'(x)<0,\ x=2$ nuqta minimum nuqtabo‘ladimi?
2. y(x) funksiya $x=3$ nuqtadauzluksiz, (2,3) da $y'(x)<0$ va (3,4) da $y'(x)>0$ $x=3$ nuqta maksimum nuqta bo‘ladimi?

3. x=2 nuqta y(x) funksiya uchun kritik nuqtabo‘ladimi, agar D(y)=[-3;2] bo‘lsa?

4. $y=\sqrt{x}$ funksiyaning hosilasi $\frac{1}{2\sqrt{x}}$ ga teng x=0 nuqtada hosila mavjud emas, demak, x=0 $y=\sqrt{x}$ funksiyaning kritik nuqtasi. To‘g‘rimi?

5. [a;b] kesmada funksiya 2 va 5 ga teng maksimumlarga ega, bunda y(a)=-3, y(b)=6. Funksiyaning eng katta qiymati 5, eng kichik qiymati -3 ga teng. To‘g‘rimi?

Har bir kichik guruh savollarga javob tayyorlaydi hamda har bir guruhdan bitta vakil savol javobini bayon qiladi. Javobning to‘g‘riligi o‘qituvchi tomonidan nazorat qilinadi.

**4-qadam.** Vaziyat yoki muammoni o‘rganish va tizimli tahlil qilish – talabalar har bir kichik guruhda quyida berilgan vaziyatni tahlil qiladi, diagnostikani amalga oshiradi, rolli xatti-harakatlarni namoyon qiladi. Kichik guruhlarda munozara davomida jamoaviy yechim qabul qilinadi, keyin esa loyiha tayyorlanadi va asoslanadi, uni amalga oshirish maqsadida kerakli matematik hisob-kitoblar bajariladi. Ishchan o‘yinning asosiy qismi aqliy hujum yordamida amaliy masalani yechishdan iborat. Bilimlarni amalda tatbiq etish sodir bo‘ladi. Bo‘limlar uchun quyidagi masalalar taqdim etiladi.

1. Qoplash. Tayyorlangan plitkalar yordamida uzunligi 1000 m bo‘lgan nayning yon tomonlari va tagini qoplash kerak. Nayning ko‘ndalang kesimi to‘g‘ri to‘rtburchakdan iborat, yon devorlari va tagining yuzasi 6000 kv. m ga teng. Nayning ko‘ndalang kesimi o‘lchamlari qanday bo‘lganda uning o‘tkazuvchanligi eng katta bo‘ladi?
2. .Maksimal oqim.Suv oqib chiqishi uchun ko‘ndalang kesimi to‘g‘ri to‘rtburchakdan iborat bo‘lgan ochiq nay yasash kerak. Ko‘ndalang kesim perimetri 6 m ga teng bo‘lishi kerak. Nay devorining balandligi qanday bo‘lganda, suv oqimi maksimal bo‘ladi?
3. Ikki poyezd.Ikkita temiryo‘l to‘g‘riburchak ostida kesishadi. Kesishish nuqtasi tomon ikki poyezd biri kesishish nuqtasidan 40 km masofada, ikkinchisi 50 km masofada bo‘lgan stansiyalardan bir vaqtda harakat boshladi.Birinchisi minutiga 800 m, ikkinchisi 600 m tezlik bilan harakatlanmoqda. Harakat boshlangandan qancha vaqt o‘tgandan so‘ng poyezdlar orasidagi masofa eng kichik bo‘ladi? Bu masofa qanchaga teng?
4. Avtomobil. Avtomashinalar turar joyi uchun to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi maydon ajratildi. Bu maydonning bir tomoni bino devoridan iborat. Maydonning qolgan uchala tomonini 200 m temir panjara bilan shunday o‘rab chiqildiki, maydonning yuzi eng katta bo‘ldi. Maydonning o‘lchamlari qanday?
5. L.N.Tolstoyning “insonga qancha yer kerak” qissasiga bog‘liq masala.

Perimetri 40 m bo‘lgan to‘rtburchaklar ichidan eng katta yuzaga ega bo‘lganini ko‘rsating.

**5-qadam.** Umumiy munozara yoki plenum-guruhlararo muloqat. Har bir guruh o‘z yechimini namoyish qiladi, himoya qiladi, fikr almashiniladi, savol-javob bo‘ladi.

**6-qadam.** O‘yin natijalarini sarhisob qilish-yechimlar va loyihalar baholanadi, ularning samaradorligi va raqobatbardoshligi aniqlanadi. Bundan tashqari bu bosqichda ballar hisoblab chiqiladi. Har bir guruh o‘yinning barcha bosqichlaridagi ishi natijalariga ko‘ra ballar bilan baholanadi, ya’ni “Hosilaning tatbiqlari” mavzusi bo‘yicha javoblari, matematik modelni tuzish va almashtirishlarni bajarish, funksiyani eng katta va eng kichik qiymatga tekshirish va natijani olish, olingan natijalarni muayyan shartlarga tatbiq qilish va iqtisodiy foydani tushuntirish.

**7-qadam.** Refleksiya – talabalardan o‘yin natijalari bo‘yicha teskari aloqani o‘rnatish. Bunda talabalardan o‘yin davomidagi qiyinchiliklar, muvaffaqiyatlar va shaxsiy yutuqlari haqida ma’lumotlar olinadi.

Seminar mashg‘ulotining ikkinchi qismida o‘qituvchi talabalarning ishchan o‘yin jarayonida talabalarning ichki kechinmalari haqida ma’lumot oladi va aqliy hujum metodidan foydalanib, quyidagi savollar asosida munozara uyushtiradi:

1. Ishchan o‘yinning yutuqlari nimada? Qanday maqsadlarga erishish mumkin?
2. Ishchan o‘yinning kamchiliklari nimada?
3. O‘quvchilar nimalarga qiynalishi mumkin?
4. Mashg‘ulotlarni ishchan o‘yin shaklida o‘tkazishda nimalarga e’tibor berish lozim?

Munozara natijasida talabalar ishchan o‘yin haqidagi nazariy va amaliy bilimlarini boyitadi, uning yutuq va kamchiliklarini, ishchan o‘yin metodini qo‘llab, mavzuni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda paydo bo‘ladigan ichki kechinmalar haqida ma’lumotlar oladi.

Shunday qilib, kontekstli yondashuvga asoslangan seminar mashg‘ulotida talabalar nafaqat o‘qituvchining kasbiy faoliyati bilan tanishadi, balki ta’lim subyekti bo‘lgan o‘quvchi vaziyatida bo‘ladi. O‘quvchining ishchan o‘yinga bo‘lgan munosabati, mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar, qarshiliklar haqida tasavvurga eg

bo‘ladi. Bu esa talabaning bo‘lg‘usi o‘qituvchilik faoliyatida noan’aviy darslarni tashkillashtirish va o‘tkazish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar

1. Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход: Метод, пособие. –М.: Высш. шк., 1991.-207 с.

2. Вербицкий А.А. Контекстное обучение в компетентностном подходе//Высшее образование в России. №11, 2006. – С.39-45

3. Осипов Р. А., Никанорова Ю. Ю., Морозова Е. В. Деловые игры на уроках математики как один из методов активного обучения. «Colloquium-journal». №3(55),2020. – С.75-78

**UDK: 37**

## ИНТЕРФЕРОМЕТР МАЙКЕЛЬСОНА КАК УНИВЕРСАЛЬНЫЙ ФИЗИЧЕСКИЙ ПРИБОР ДЛЯ ДЕМОНСТРАЦИИ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ СВЕТА ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ КУРСА ОПТИКИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

**М. Джораев[1], Б. А. Абдикамалов[2], Р.М. Хожаназарова[2]**

*[1]Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами,*

*[2]Каракалпакский государственный университет имени Бердаха.*

**Аннотация.** Показана универсальность интерферометра Майкельсона при проведении экспериментов по интерференции и предложено проведение компьютерных экспериментов на основе численного моделирования. При этом использованы три частных способа формирования интерференционной картины: схема с квазиточечным источником, использование протяженного источника света и белого света. При расчете интерференционной картины белого света использована формула Планка для излучения абсолютно черного тела. Показано, что моделирование интерференционных эффектов при помощи систем компьютерной алгебры или языка программирования Python и их демонстрация во время лекционных занятий или при индивидуальной работы со студентами дают возможность глубоко проникнуть в суть изучаемых физических процессов и повышения успеваемости.

**Ключевые слова:** Интерферометр Майкельсона, интерференция, численное моделирование, компьютерный эксперимент.

### Maykelson interferometrini oliy ta’lim o‘quv o‘rinlarida optika darsini o‘rganishida yorug‘lik interferensiyasini demonstrasiya qilish uchun universal fizikaviy qurilma sifatida

**Annotatsiya.** Maykelson interferometrida interferension eksperimentlarni o‘tkazishda universal asbob ekanligi ko‘rsatilgan va bajarilgan raqamli modellashtirish asosida kompyuterda eksperimentlar o‘tkazish uchun taklif etilgan. Interferension tasvirning paydo bo‘lishining uchta usuli ko‘rsatilgan: kvazinuqtali manba bor bo‘lgan sxema, yorug‘likning chozilgan manbasini va oq yorug‘likni paydolanish. Oq yorug‘likning interferension tasvirini hisoblaganda absolyut qora jismning nurlanishi uchun Plank formulasi qo‘llanilgan. Interferension effektlarni kompyuter algebra tizimining yoki Python programmalash tilining yordamida modellashtirishning va ularni ma’ruza darslarning yoki talabalar bilan individual ish bajarishning davomida demonstrasiyalashning o‘rganilib o‘tilgan fizik jarayonlarning qiymatiga teran kirishga va o‘zgaruvchanlikning yuqorilashiga olib kelishi ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** Maykelson interferometri, interferensiya, raqamli simulyatsiya, kompyuter tajribasi.

### Michelson interferometer as a universal physical device for demonstration of the interference of light when teaching the optics course in higher education institutions

**Abstract.** The universality of the Michelson interferometer for conducting interference experiments is shown, and computer experiments based on numerical simulation are proposed. In this case, three particular ways of forming an interference pattern are used: a scheme with a quasi-point source, the use of an extended light source and white light. When calculating the interference pattern of white light, the Planck formula for blackbody radiation is used. It is shoun that simulation of interference effects using computer algebra systems or the Python programming language and their demonstration during lectures or during individual work with students make it possible to deeply penetrate the essence of the studied physical processes and improve academic performance.

**Keywords:** Michelson interferometer, interference, numerical simulation, computer experiment.

По физическому содержанию и значению процессов взаимодействия различных волновых процессов в курсах механика, оптика и квантовая механика изучение интерференции света является важнейшей частью курса оптики. Как правило, для экспериментального исследования явления интерференции применяются щели различной толщины и дифракционные решетки. В физических практикумах предусматриваются также использования интерферометров Майкельсона, Фабри-Перо, Жамена, Маха-Цендера для определения длины волны лазерного излучения, показателя преломления различных сред, наблюдения эффекта Зеемана и др. [1]. При этом, как правило, решаются задачи типа определение длины света лазера, определение разности длины плеч интерферометра, определение угла наклона одного из двух зеркал, характер поляризации лучей, зависимость видности интерференционной картины от различных факторов, эффект Доплера, определение коэффициента термического расширения твердых тел и др.

Опыт, накопленный при проведении лекционных и лабораторных занятий по курсу оптики в Каракалпакском госуниверситете, показал, что интерферометр Майкельсона можно использовать как универсальный оптический прибор для демонстрации и наблюдения явления интерференции как лазерного, так и белого света, полученного при помощи лампы накаливания. Работа была выполнена в двух направлениях: выполнение экспериментальных работ во время физического практикума и, второе, проведение компьютерных экспериментов во время лекционных занятий. Ниже изложены в основном материалы компьютерных экспериментов, полностью подтвержденных в процессе проведения лабораторного практикума по оптике.

**1. Схема с квазиточечным источником**. На рис. 1 показана эквивалентная оптическая схема интерферометра Майкельсона. Здесь через $S_1$ и $S_2$ обозначены мнимые изображения источника в зеркалах интерферометра, E – экран для наблюдения интерференционной картины. Расстояние между экраном и дальным мнимым источником обозначено через R. d – расстояние между источниками.

При помощи равенств

$$Z_1 = \sqrt{R^2 + x^2 + y^2} \text{ и } Z^2 = \sqrt{(\mathrm{R} - \mathrm{d})^2 + x^2 + y^2}$$

можно определить разницу фаз в точке $A(\mathrm{x}, \mathrm{y})$ экрана E по формуле $\varphi = \frac{2\pi}{\lambda}(\mathrm{Z}_2 - \mathrm{Z}_1)$. В результате для интенсивности света $I(\mathrm{x}, \mathrm{y})$ в точке экрана с координатами $(\mathrm{x}, \mathrm{y})$, получается следующая формула:

$$I(\mathrm{x}, \mathrm{y}) = I_1 + I_2 + 2\sqrt{I_1 I_2}\cos[\frac{2\pi}{\lambda}(\sqrt{(\mathrm{R} - \mathrm{d})^2 + x^2 + y^2} - \sqrt{R^2 + x^2 + y^2})].$$

Здесь $I_1$ и $I_2$ – интенсивности световых пучков, отраженных от двух зеркал, λ – длина волны света. Для вычисления распределения интенсивности вдоль одного направления $x$ в процессе компьютерного эксперимента на языке системы компьютерной алгебры Mathematica сначала вводятся величины $I_1, I_2, R, \lambda,$ после этого следует писать следующее выражение:

$$Manipulate[Plot[I1 + I1 + 2\sqrt{I1 \cdot I1}\cos[\frac{2Pi}{lambda}(Sqrt[r1^2 + x^2 + y^2] - Sqrt[(\mathrm{r1} - \mathrm{d})^2 + x^2 + y^2])],$$

$$\{\mathrm{x}, -7, 7\}], \{\mathrm{d}, 0.4, 1\}]$$

В этом выражении предусмотрено изменение x и d .




Рис. 1. Эквивалентная оптическая схема интерферометра Майкельсона.

Для визуализации двумерной интерференционной картины на поверхности экрана следует использовать модуль манипуляции Manipulate, которая позволяет создавать различные интерактивные средства по заданному выражению (в данном случае выражение для вычисления

интенсивности интерференционной картины в заданной точке) и заданными изменениями его параметров [2]. Тем самым реализуется метод объектно-ориентированного программирования и возникает возможность использования различных анимаций для проведения компьютерного эксперимента. В рассматриваемом случае для определения распределения интенсивности лучей на экране следует воспользоваться следующим выражением:

$$Manipulate[DensityPlot[I1+I1+2\sqrt{I1I1}Cos[\frac{2Pi}{lambda}(Sqrt[r1^2+x^2+y^2]$$

$$-Sqrt[(r1-d)^2+x^2+y^2])],\{\mathrm{x},-7,7\},\{\mathrm{y},-7,7\},\mathrm{PlotPoints}\to 100,$$

$$\mathrm{ImageSize}\to\{500,500\}\ \mathrm{PerformmanceGoal}\to\text{"Speed"}],\{\mathrm{d},0.3,1\}]$$

По этому модулю предусмотрены изменения $x$, $y$ и $d$.

Отметим, что, как показывает опыт, для моделирования физических процессов не следует ограничиваться применением только одной системы компьютерной алгебры Mathematica. Обнаружился интерес многих студентов к использованию широкораспространенного в настоящее время высокоуровневого языка программирования общего назначения Python, у которого наряду с другими преимуществами есть мощное средство для графики [3-4].

В результате проведенного численного моделирования и соответственного компьютерного эксперимента получается картина, показанная на рис. 2.




Рис. 2. Интерференционная картина, полученная по схеме, показанной на рис. 1.




Рис. 3. Интерференционные полосы, формирующиеся при наклоне одного из зеркал на небольшой угол.

При изменении расстояния d путем сдвига на кнопочке в виде серого кружка со знаком "+" можно наблюдать за изменениями интерференционной картины. При этом происходит смещение интерференционных вдоль радиального направления и циклическое изменение интенсивности нулевого интерференционного максимума. При этом можно показать, что при изменении разности хода $\sqrt{(\mathrm{R}-\mathrm{d})^2+x^2+y^2}-\sqrt{R^2+x^2+y^2}=\Delta d$ на длину волны λ в интерференционной картине никаких изменений не происходят. Однако, при изменении разности хода на величины λ/2, 3λ/2, … контрастность интерференционной картины изменяется на обратное (т.е. светлые полосы становятся темными).

Описанный компьютерный эксперимент наглядно демонстрирует лабораторные работы по определению длины волны лазерного излучения при помощи интерферометра Майкельсона. При этом процесс вращения ручки микрометрического устройства, установленного на интерферометре, заменяется плавным изменением величины $\Delta d$ .

Отметим, что при помощи описанного компьютерного эксперимента можно демонстрировать изменение показателя преломления различных веществ, помещенных в пути распределения световых волн из источников $S_1$ или $S_2$

Наклон одного из зеркал интерферометра на угол φ приводит к смещению одного из мнимых источников $S_1$ или $S_2$ в направлении, перпендикулярном оси z. При этом формула для вычисления интенсивности $I(\mathrm{x},\mathrm{y})$ выглядит так:

$$I(x,y)=I_1+I_2+2\sqrt{I_1I_2}$$

$$\times\cos[\frac{2\pi}{\lambda}(\sqrt{(\mathrm{R}-\mathrm{d})^2+(\mathrm{x}+\mathrm{Rtg}\,\varphi)^2+y^2}-\sqrt{R^2+x^2+y^2})]$$

Соответствующая команда Mathematica пишется так:

$$Manipulate[DensityPlot[I1+I1+2\sqrt{I1\cdot I1}Cos[\frac{2Pi}{lambda}(Sqrt[r1^2+(\mathrm{x}+\mathrm{r1Tan[fi]})^2+y^2]$$
$$-Sqrt[(\mathrm{r1}-\mathrm{d})^2+x^2+y^2])],\{\mathrm{x},-4,4\},\{\mathrm{y},-0,2\},PlotPo\mathrm{int}\,s\to 200,\mathrm{Im}\,ageSize\to\{300,300\},$$
$$\mathrm{PerformanceGoal}\to\text{"Speed"}],\{\mathrm{d},0.1,0.5\}]$$

В этой записи PlotPoints задает число точек выборки, участвующих в построении, ImageSize задает размер полученной картины, PerformanceGoal является опцией для различных алгоритмических и презентационных функций, которая определяет, какой аспект производительности следует пытаться оптимизировать с помощью автоматических настроек параметров [5].

В результате вычислений формируется картина, показанная на рис. 3.

**2. Использование протяженного источника света**. В данном случае следует заменить точки $S_1$ и $S_2$ с линиями, перпендикулярно оси z (рис. 4). Возможен случай d = 0. При этом интерферометр превращается на непрозрачный экран с одной щелью шириной b. В случае, когда одну из зеркал повернуть на некоторый угол φ и d = 0, интерферометр превращается на непрозрачный экран с двумя щелями. В результате этого создается возможность демонстрации интерференции света от одной и двумя щелями.




Рис. 4. Эквивалентная оптическая схема интерферометра Майкельсона для протяженных источников света

В рассматриваемом случае для определения разности фаз от двух протяженных мнимых источников возникает необходимость использования двух так называемых функции пользователя следующего вида:

$$del(\mathrm{x},\mathrm{y},\mathrm{R})=\frac{2\pi}{\lambda}((\sqrt{(R-d)^2+x^2+y^2}-\sqrt{R^2+x^2+y^2})),$$

$$\varphi(\mathrm{x},\mathrm{y},\mathrm{R})=\mathrm{arctg}\sqrt{\frac{x^2+y^2}{R^2}}.$$

Общая формула, написанная для вычисления величины интенсивности интерферированного света, пишется так:

$$I(x,y)=I_0\frac{\sin^2(\frac{\pi b}{\lambda}\sin[\varphi(\mathrm{x},\mathrm{y},\mathrm{R})])}{(\frac{\pi b}{\lambda}\sin[\varphi(\mathrm{x},\mathrm{y},\mathrm{R})])^2}\frac{\sin^2(\mathrm{del}(\mathrm{x},\mathrm{y},\mathrm{R}))}{\sin^2(\frac{del(\mathrm{x},\mathrm{y},\mathrm{R})}{2})}.$$

Для проведения компьютерного эксперимента следует писать выражение следующего вида:

$$del[\mathrm{x_},\mathrm{y_},\mathrm{R_}]=\frac{2Pi}{lam}(\sqrt{\mathrm{R}^2+\mathrm{x}^2+\mathrm{y}^2}-\sqrt{(\mathrm{R}-\mathrm{d})^2+x^2+y^2});$$

$$fi[\mathrm{x_},\mathrm{y_},\mathrm{R_}]=\mathrm{ArcTan}[\sqrt{\frac{x^2+y^2}{R^2}}];$$

$$DensityPlot[10\frac{(\mathrm{Sin}[\frac{Pib}{lam}\mathrm{Sin}[\mathrm{fi}[x,y,R]]])^2}{(\frac{Pib}{lam}\mathrm{Sin}[\mathrm{fi}[x,y,R]])^2}\frac{(\mathrm{Sin}[\mathrm{del}[x,y,R]])^2}{(Sin[\frac{\mathrm{del}[x,y,R]}{2}])^2},$$

$$\{x,-a,a\},\{y,-a,a\},\mathrm{PlotPoints}\to 400,\mathrm{ImageSize}\to\{600,600\},$$

$$\mathrm{PerformanceGoal}\to\text{"Speed"}]$$

Следует отметить, что вышеприведенные формулы легко преобразовать для случая N щелей. В таком случае вместо множителя $\sin^2(del(x,y,R))$ пишется множитель $\sin^2(\frac{N}{2}del(x,y,R))$.

В данном случае у преподавателя появляется очень удобная возможность для проведения компьютерного эксперимента по изучению явления интерференции света с одной или нескольких щелей и манипуляции с параметрами эксперимента.

**3. Использование белого света**. При использовании белого света происходит уширение интерференционных линий из-за наличия в спектре различных длин волн с различными интенсивностями. Поэтому, в первую очередь следует определить интенсивность волн с заданной длиной, что может быть осуществлено при помощи известной формулы Планка для заданной температуры излучающей спирали лампы накаливания. При вычислении интенсивности каждой точки интерференционной картины, возникшей на поверхности экрана, следует вычислить суперпозицию интерференционных картин, возникших при интерференции различных длин волны. Поэтому для получения профиля интерференционных полос воспользуемся формулой, написанной в случае наличия только одной щели шириной $b$:

$$I(\varphi)=\frac{2\pi c^2}{\lambda^5}\frac{1}{Exp[\frac{hc}{\lambda k_b T}]-1}\frac{\sin^2[\frac{\pi b}{\lambda}\sin\varphi]}{(\frac{\pi b}{\lambda}\sin\varphi)^2}.$$

Первые два множителя этой формулы $\frac{2\pi c^2}{\lambda^5}\frac{1}{Exp[\frac{hc}{\lambda k_b T}]-1}$ являются формулой Планка, описывающая спектрального распределения энергии излучения абсолютно черного тела. Здесь $k_B$ – постоянная Больцмана, $h$ - постоянная Планка, $c$ -скорость света. Множитель $\frac{\sin^2[\frac{\pi b}{\lambda}\sin\varphi]}{(\frac{\pi b}{\lambda}\sin\varphi)^2}$ описывает интерференцию.

Отметим, что формулу Планка следует использовать при относительно высоких температурах излучающего тела (температура, сравнимая с температурой поверхности Солнца). В случае, если температура излучающего тела сравнительно низкая (например, T < 3000 K), тогда следует ввести в используемые выражения температуру окружающей среды, а также соответствующие изменения в формуле Планка.

Опыт показал, что для случая T = 6000 K (температура поверхности Солнца) следует использовать длину волн, равных 320 нм, 400 нм, 500 нм 600 нм и 700 нм (максимум интенсивности находится в области около 500 нм). Следовательно, в данном случае выражения для I(φ) состоит из 5 слагаемых). При этом для величины интенсивности следует брать относительную величину. Для рассматриваемого случая при компьютерном эксперименте получается картина, представленная на рис. 4.




Рис. 5.
Интерференционные линии, полученные для монохроматического (пунктирная линия) и полихроматического света (сплошная линия). Величина φ дана в радианах. График в верхнем правом углу соответствует угловому интервалу от 0,12 до 0,31 рад.

Можно показать, что при интерференции белого света полуширина нулевого интерференционного пика увеличивается примерно в 1,6 раза. При этом степень различимости второй и последующих интерференционных максимумов стремится к нулю. В связи с этим целесообразен ввод понятия видности или контраста интерференционных полос для определения степени различимости картины на фоне средней интенсивности. Также вводится соответственное выражение для видности $V = \frac{I_{\max} - I_{\min}}{I_{\max} + I_{\min}}$ и производится оценка ее влияния на формируемой интерференционной картинке.

На основе полученных результатов можно сформулировать следующие выводы:

1. Интерферометр Майкельсона является универсальным и удобным прибором для демонстрации простых интерференционных эффектов.
2. Моделирование интерференционных эффектов при помощи систем компьютерной алгебры или языка программирования общего назначения Python и их демонстрация во время лекционных занятий или при индивидуальной работы со студентами дает возможность глубоко проникнуть в суть изучаемых физических процессов и повышения успеваемости.
3. Наряду с физическим практикумом предлагается осуществить компьютерные эксперименты, которые дают возможность изменить параметров экспериментов в широких интервалах.

**Литература**


1. Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года. Указ Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2020 года № УП-5847.
2. Б.Р.Мендель. Педагогика высшей школы: история, проблематика, принципы. Издательство Диракт-Медиа, Берлин-Москва. 2017. 618 с.
3. Hugh D. Young, Roger A. Freedman. University Physics with Modern Physics. Fifteenth Edition in SI units. Pearson Education Limited 2020. 1612 p.
4. Daniel A. Steck. Classical and Modern Optics. Publisher**:** University of Oregon. 2010. 356 p.
5. В.А.Алешкевич. Курс общей физики. Оптика. Издательство ФИЗМАТЛИТ. Москва. 2011. 320 с.
6. В.П. Дьяконов В.П. Mathematica 5/6/7. Полное руководство. Издательство ДМК. Москва. 2010. 624 с.
7. Марк Лутц. Изучаем Python. Том 1. 5-е издание. ООО "Диалектика". Москва-Санкт-Петербург. 2019. 832 с.
8. Марк Лутц. Программирование на Python. Том 2. 4-е издание. Символ-Плюс. Санкт-Петербург. 2011. 992 с.
9. Nino Boccara. Essentials of Mathematica. With Applications to Mathematics and Physics. Springer. 2007. 539 p.
10. Д.В.Сивухин. Общий курс физики. Учебное пособие для вузов. Т IV. Издательство ФИЗМАТЛИТ. Москва. 2005. 792 с.

UDK: 91:371.3

# GEOGRAFIYA FANLARINI O‘QITISH VA INNOVATSION YONDASHUV

**Xamroyeva F.A., Abdirasulova M.E.**
*Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ta’limga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, innovatsion jarayonlarni tashkil etishda o‘ziga xos yondashuvlar hamda geografiya fanlarini o‘qitishda “Equal” innovatsion texnologiyasi, “Interaktiv kartalar” metodi, “Keys stadi” texnologiyalarining qo‘llanilishi batafsil yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** innovatsiya, innovatsion yondashuv, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar.

## Преподавание предметов географии и инновационный подход

**Аннотация.** В статье подробно рассказывается о широком использовании инновационных технологий в образовании, а также уникальных подходах к организации инновационных процессов и использовании инновационных технологий “Equal”, «Интерактивные карты», «Кейс-стади» в преподавании географии.

**Ключевые слова:** инновация, инновационный подход, интерактивные методы, инновационные технологии.

## Teaching geography and innovative approach

**Abstract.** The article describes in detail the widespread use of innovative technologies in education, as well as unique approaches to organizing innovative processes and the use of innovative technologies "Equal", "Interactive maps", "Case studies" in teaching geography.

**Keywords:** innovation, innovative approach, interactive methods, innovative technologies.

### Kirish

Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish va ta’limga yangi texnologiyalarni keng joriy etishga yo‘naltirilgan ko‘plab innovatsiyalar yaratilmoqda hamda amaliyotga joriy etilmoqda. Mazkur innovatsiyalarning samaradorligi ko‘p jihatdan ta’lim muassasasida amalga oshirilayotgan innovatsion faoliyatning to‘g‘ri tashkil etilganligiga bog‘liqdir. Oliy ta’lim tizimidagi zaruriy shartlardan biri bu ta’lim jarayoniga zamonaviy innovatsion yondashishdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilanishiga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta, chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga va innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya bu – kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”, [1] – deb ta’kidlagan edilar. Demak, bugungi kunda ta’lim jarayonida an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda, zamonaviy yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash asosiy vazifa sifatida belgilangan.

### Tadqiqotning maqsadi

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida mavjud o‘quv rejalar, dastur, darslik, o‘quv qo‘llanma va metodik ishlanmalarni fanning so‘nggi yutuqlari, malakali pedagoglar tomonidan beriladigan tavsiyalar va ishlanmalar bilan o‘zgartirib, boyitib borish asosiy maqsad qilib qo‘yildi.

### Tadqiqotning obyekti

Sifatida geografiya ta’limi jaryonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash asosida takomillashtirish tanlandi.

“Innovatsiya (ingl. “innovationas” – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi”. [2]

Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishda o‘ziga xos yondashuvlar kuzatiladi:[4]

1. Gnostik-dinamik yondashuv.
2. Individual faoliyatli yondashuv.

3. Ko‘p subyektli (dialogik) yondashuv.
4. Insonparvarlik yondashuvi.
5. Individual-ijodiy yondashuv.

Geografiya sohasida innovatsiyalar o‘z-o‘zidan kirib kelmaydi. Bu esa pedagog faoliyati va uning motivatsiyasiga bog‘liq jarayon hisoblanadi hamda hozirgi kunda pedagog faoliyatini o‘zgartirmay turib, uning mas’uliyati va faolligini oshirmasdan ta’lim jarayonida bir qadam ham oldinga siljib bo‘lmaydi. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlar. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug‘ilib, ta’lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo‘ladi, shuningdek, umuman ta’lim tizimi rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Innovatsiya – ma’lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo‘llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma’lum bo‘lgan oxirgi natijadir. Demak, innovatsion texnologiyalarning asosiy negizi – bu o‘qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun oldindan ta’lim jarayonini loyihalashdir.

Pedagog geografiya darslarida talabalarning imkoniyatlari, qiziqishlari, bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini inobatga olgan holda geografik amaliy mashg‘ulotlarni “Equal” texnologiyasidan foydalanib tashkil etish maqsadga muvofiqdir. “Equal” innovatsion texnologiyasi o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amalda tatbiq etishga, materiallarni ongli va puxta o‘zlashtirish bilan bir qatorda ularning kartalar va atlaslarda qo‘llaniladigan turli shartli belgilarni o‘rganish, shartli belgilar haqida ko‘proq ma’lumotlarga ega bo‘lish, ularni eslab qolish hamda o‘zaro aloqasini tushunish, anglash, bir-biriga bog‘lay olish kabi amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi.




Bu innovatsion texnologiyani har bir pedagog individual-ijodiy yondoshgan holda istalgan shartli belgilar bilan o‘zgartirishi mumkin.. Masalan foydali qazilmalar, aholi punktlari kabi shartli belgilar bilan almashtirsa ham bo‘ladi.

**Misol:**

a) daryoning gorizontallar bilan bog‘liqlik tomoni: daryo tog‘larda hosil bo‘ladi va tog‘lardan tekislikka oqib tushadi;
b) daryoning ko‘prik bilan aloqasi: inson xo‘jalik faoliyatida daryolarning ixtiyoriy oqimida ko‘prik qurib foydalanadi;
c) daryoning GES (gidro elektr stansiya)lar bilan aloqasi: asosan daryoning tog‘lardan oqib tushuvchi nishabliklarida suvdan elektr energiya olish maqsadida inson xo‘jalik faoliyatida GESlar quriladi;
d) daryoning ko‘l bilan aloqasi: daryolar o‘z suvini ko‘llarga yoki dengizlarga quyadi;
e) daryolarning zavod va fabrikalar bilan aloqasi: zavodlarda xom-ashyoni qayta ishlash jarayonida suv resurslaridan ko‘plab foydalaniladi;
f) daryolarning qamishzorlar bilan aloqasi: daryolarning chekka botqoqlik joylarida qamishlar o‘sadi;
g) daryoning qurib qoluvchi daryolar bilan aloqasi: daryolar yil davomida ayrim hududlarda issiqlikning o‘ta yuqoriligi sababli vaqtincha qurib qolishi mumkin.

Oliy o‘quv yurtlari malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o‘qitish metodlari – interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va roli benihoya kattadir. Bunda pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo‘lib fikrlashdan iborat deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir

etish usullari bo‘lib, ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Geografiya ta’limida keng qo‘llaniladigan interaktiv metodlardan biri bu – “Interaktiv kartalar” metodidir. Ushbu metod talabalar uchun qiziqarli bo‘lgan, ortiqcha xarajat talab qilmaydigan va fanni tushunishni osonlashtiradigan metodlardan biridir. Interaktiv kartalardan foydalangan talabalarda o‘zlashtirish samaradorligi qog‘ozli kartadan foydalangan talabalarga nisbatan sezilarli darajada oshadi. Chunki interaktiv kartalar foydalanuvchilarga ma’lumotlarni o‘rganish va kompyuter ekranidagi shartli belgilar, diagramma va chizmalarni ko‘rib chiqish hamda tahlil qilish imkonini beradi. Interaktiv karta metodi orqali mavzuli kartalarni boshqarish qobiliyati turli xil mavzularda o‘quv jarayonini takomillashtirishga yordam beradi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida keng qo‘llanilayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalardan biri “Keys -stadi” texnologiyasi hisoblanadi.

“Keys-stadi” ta’lim metodini turli holatlarni o‘rganishda qo‘llash – hayotdan olingan odatdagi vaziyatlarni o‘rganishni tashkil etish yoki sun’iy yaratilgan vaziyatlarga asoslangan holda ta’lim oluvchilardan tegishli muammolarning maqsadga muvofiq yechimlarini izlashni talab qilishga qaratilgan ta’lim jarayonidan iborat [3].

Geografiya ta’limida “Keys-stadi” texnologiyasidan foydalanish talabalarga berilgan vaziyatni tahlil qilish, muammoni aniqlash va muammoning kelib chiqishi va yechimini mustaqil topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Muammoning yechimini izlash jarayonida talabalarda ijodkorlik, yangilikka intiluvchanlik, yaratuvchanlik qobiliyatlari shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim sifatini oshirish, ta’limda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish zamon talabidir. Geografiya fanlarini o‘qitishda innovatsion yondashuv ta’lim samaradorligini oshiradi hamda pedagog va talabalarning yangi individual-ijodiy munosabatlarini rivojlantiradi. Talabalarning yangilikka intiluvchanligini qo‘llab-quvvatlash, o‘z ustida mustaqil ishlash ko‘nikmasi va malakasini shakllantirishda pedagoglardan yangicha innovatsion yondashuv talab qilinadi.

## Adabiyotlar


1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлисга мурожаатномаси “Халқ сўзи”, №261 (6955) 2017 йил, 27 декабр.
2. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Зебунисо-Конигил / 4-том. – Т.: ЎзМЭ, 2002. –Б.169.
3. Авлаев О.У., Жўраева С.Н., Мирзаева С.Р Таълим методлари. Ўқув-услубий қўлланма. – Тошкент: Наврўз, 2017. –208 б.
4. Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Ҳ., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Тошкент: 2015. –208 бет.16-бет
5. Вахобов Ҳ., Мирзамаҳмудов О.Т. География ўқитиш методикаси. – Наманган: НамДУ, 2016.
6. Хамроева Ф.А Олий таълим муассасаларида табиий географик фанларни ўқитиш методикасини медиатехнологиялар асосида такомиллаштириш: dисс. автореф. – Т., 2020.–120 б.
7. www.ziynet
8. www.lex.uz
9. www.geografiya.uz

## MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog‘ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar**: UDK, ishning nomi (o‘zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro‘yxati (to‘liq familiyasi, ismi, otasining ismi – o‘zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma’lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o‘zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so‘zlar (5-7, o‘zbek, rus va ingliz tillarida) bo‘lishi lozim.

## MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo‘ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag‘ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo‘yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo‘lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo‘lib, mumkin qadar qisqa so‘zlar bilan ifodalangan bo‘lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; “Ilmiy axborotnoma” jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

## MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro‘yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko‘rinishida terilgan bo‘lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo‘lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o‘ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o‘lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo‘g‘in ko‘chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro‘yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro‘yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- “Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi”dan ko‘chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas’ul.

## MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo‘llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E- mail: axborotnoma@samdu.uz

# SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК** **SCIENTIFIC REPORTS**

Mas’ul kotib **X. Sh. Tashpulatov**
Texnik muharrir **A. I. Inatov**

**Muharrirlar:**

**I.Sulaymonov** - f.f.d., dotsent
**E.Arziqulov** - f.-m.f.n., dotsent
**O.Yusupova** - fil.f.n., dotsent

**Mas’ul muharrirlar:**

**D. M. Aronbayev** - k.f.n., dotsent
**A. Sh. Yarmuxamedov** - f.-m.f.n.
**X. S. Xaydarov** - f.-m.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
E-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 30.04.2021 yilda ruxsat etildi. Qog‘oz o’lchami A-4. Nashriyot hisob tabog‘i 10,00.
Buyurtma raqami 457. Adadi 30 nusxa.

***Manzil***: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
***SamDU bosmaxonasida chop etildi.***